



ISSN: (E) 2181-1784
SJIF 2024 = 7.404
ASI-Factor = 1.7



TOGETHER WE REACH THE GOAL



ORIENTAL RENAISSANCE:

*Innovative, educational,
natural and social sciences*

www.oriens.uz

*Exact sciences
Natural sciences
Engineering sciences
Pedagogical sciences
Social and Human sciences
Philological sciences
Philosophy sciences
Economic sciences*

**VOLUME 4
№2
2024**





**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL**

VOL. 4 / ISSUE 2

ISSN 2181-1784

Impact Factor: 7.404

ASI Factor = 1.7

February

2024

**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL**

EDITOR-IN-CHIEF

Dr. KADIROV MUKHAMMADJON

Candidate of philosophical sciences, Associate professor of the department of
“Oriental philosophy and culture” of Tashkent state university of oriental studies

EDITORIAL BOARD

DSc. NODIRAKHON R. NISHONOVA

Doctor of Philosophy,
Head of the Department “Philosophy and
National idea” of Tashkent State Technical
University

PhD. LAZIZ A. TURAEV

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical
Sciences, Head of the Department for the
organization of research activities of students of
TSUOS

**Dr. KHOLMUMINOV JAFAR
MUHAMMADIEVICH**

Doctor of Philosophical Sciences (DSc)
Professor of the department of "Source Studies
and Hermeneutics of Sufism" of Tashkent State
University of Oriental Studies. Professor at the
Antique World International Academy of
Sciences

PhD. FARHOD L. USMONOV

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical
Sciences, Senior lecturer of the Department of
Social Humanities of Tashkent State University of
Economics

Dr. AZAMAT B. KHAYRIDDINOV

Candidate of Economic Sciences
Associate professor of Karshi Institute of
Engineering and Economics

Prof. Dr. ULFATKHON MUHIBOVA

Doctor of Philological Sciences
Head of the department of South and Southeast
Asian Languages of Tashkent State University of
Oriental Studies

Prof. Dr. SULTON F. AMIROV

Doctor of technical sciences
Head of the department of Electricity Supply of
Tashkent State University of Transport

Prof. Dr. TULKIN M. TOGAEV

Doctor of Philological Sciences
Head of the Department of Uzbek Linguistics of
Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature named after Alisher Navoi

PhD. AZIZA A. SHAYUSUPOVA

Candidate of Pedagogical Sciences Associate
professor of the department of Pedagogy and
Psychology of Tashkent State University of
Oriental Studies

Dr. IMAM K. WAHYUDI

Doctor of Philosophy (PhD)
in Philological Sciences
Head of Office of International Affairs and
Faculty Member, Faculty of Teacher Training and
Education of Universitas Islam Malang, Indonesia

Dr. AZIZ KH. KHUDOYBERDIEV

Candidate of Historical Sciences, Associate professor of the department of Eastern countries and Anthropology of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. SAYYORA N. KHAMRAEVA

Doctor of Philosophy (PhD) in economics
Head of the department of Innovative Economics of Karshi Institute of Engineering and Economics

Dr. ALISHER N. NAZAROV

Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Senior Lecturer of the Department of Oriental Politics and International Relations, Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. ERKIN A. RAKHMATOV

Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Head of the Department of Oil and Gas Processing Technology, Karshi Engineering and Economics Institute

Dr. PHOOL BADAN

Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Professor of the School of International Studies, Jawaharlal Nehru University

Dr. SIROJIDDIN S. NURMATOV

Candidate of Philological Sciences
Associate professor of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. METIN ORBAY

Doctor of physics and mathematical science (DSc), Professor of Faculty of Education of Amasya University

Prof. PhD. SAO FEY

Professor of Hangzhou Normal University, Linguist.

Prof. Dr ASIF MAHBUB KARIM

Doctor of Philosophy in Business administration (PhD), Dean, professor Binary Graduate School, Binary University of Management & Entrepreneurship

Prof. YALCHIN KAYALI

Ankara University, Faculty of Languages and History-Geography, Department of Eastern Languages and Literatures, Sub-Department of Indology, Faculty Member.

Dr. NIGORA Z. SAYDALIEVA

Candidate of Philosophical Sciences
Senior Lecturer of the department of Oriental Philosophy and Culture of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. K.K. KHAKBERDIEV

Doctor of Philosophy (PhD) In Economics
Director of the Center for Scientific analysis of the study of the development of Eastern Countries at the Tashkent State University of Oriental Studies

PhD. CHJAN KONG

School of Humanities and Communication, Zhejiang University of Finance and Economics

Dr. NAUMENKO A. OLEG

Candidate of Philosophical Sciences Associate Professor of the Department of Social Sciences and Technologies, National Research Technological University MISIS, Moscow, Russia

CHET TILLARINI (INGLIZ TILI) ZAMONAVIY INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANGAN HOLDA O'QITISHNING AFZALLIGI

Talipova Nilufar Abduvasikovna

O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi milliy
estrada san'ati instituti

O'zbek tili, sport va ijtimoiy fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada chet tillarini (ingliz tili) zamonaviy interfaol metodlardan foydalangan holda o'qitishning afzalligi tahlil qilingan. Mamlakatimizda ta'lim muassalari hamda, nodavlat o'quv muassasalarida bugungi kunda chet tillarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj tufayli chet tillarini (ingliz tili) o'qitishning zamonaviy interfaol usullar yordamida, yangicha metodologiyalardan foydalanib fundamental, kommunikativ metodlar qiyosiy tahlil etilgan. Ularning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati ko'rsatilib ilmiy jihatdan yoritilgan. Bugungi kun pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda talabalarni chet tillarini (ingliz tili) zamonaviy yo'llari xorijiy davlatlar ta'lim tizimi orqali o'rgatishning zamonaviy yo'llari haqida fikr yuritilgan.

***Kalit so'zlar:** chet tillari, interfaol metodlar, tilni mustaqil o'rganish, ta'lim texnologiyalari, loyiha, qiziqish, faollik, interaktiv metodlar.*

ABSTRACT

This article analyzes the advantages of teaching foreign languages (English) using modern interactive methods. Due to the need to learn foreign languages today in our country's educational institutions and non-state educational institutions, the fundamental, communicative methods of teaching foreign languages (English) using modern interactive methods and using new methodologies have been comparatively analyzed. Their role and importance in the educational process is scientifically explained. Today, modern ways of teaching foreign languages (English) to students through the educational system of foreign countries were discussed using pedagogical technologies.

***Key words:** foreign languages, interactive methods, independent language learning, educational technologies, project, interest, activity, interactive methods.*

KIRISH

Bugungi kunda talaba-yoshlarni chet tillarini o'rganishga asosiy e'tibor qaratilmoqda va shu bilan birga ularning shaxsiyati va o'ziga xos ichki dunyosiga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shuning uchun bugungi kun pedagogining

asosiy maqsadi dars jarayonida talaba-yoshlarda tushunarli va albatta qiziqarli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. So'nggi yillarda ta'lim muassalarida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish masalasi tobora ko'proq e'tibor berilmoqda. Jahonda jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan integratsiyalashuv jarayoni va xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamkorligi chet tillarni o'rganishga qiziqish, ehtiyoj va intilishni kuchaytirib yubordi. Rivojlangan mamlakatlar ta'limi amaliyotida xorijiy tillarni o'rganishni kichik yoshdan boshlash lingvopsixologik jihatdan maqsadli hisoblanib, xususan, Koreya, Yaponiya, Xitoy kabi mamlakatlar tajribasida maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ta'lim va tarbiya berishning eng optimal usullari yo'lga qo'yilgan. Dunyoda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda bolalarni maktabga sifatli tayyorlash uchun ta'lim dasturlari, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodikasini takomillashtirish, xorijiy tilni o'rgatish mazmunini modernizatsiyalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jahon amaliyotida chet tillarini bolalarga ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib o'rgatishni rivojlantirishga karatilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, Ispaniyadagi Mursiya universitetida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tillarini qo'shiqlar va ertaklar asosida o'rgatish, Gretsiyadagi Ayyonina universitetida axborot texnologiyalari vositasidan, Erondagi Islamik Azad universitetlarida raqamli o'yinlardan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari alohida ahamiyatga molik bo'lib, ushbu xorijiy tajribalarni o'rganish va hamkorlik tadqiqotlarini olib borish zaruriyatiga aylanganini izoxdaydi. Bu nafaqat yangi texnik vositalar, balki o'qitishning yangi shakllari va usullari, o'quv jarayoniga yangicha yondoshishdir. Chet tillarni o'qitishning asosiy maqsadi ta'limda kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, chet tilini amaliy o'zlashtirishga o'rgatishdir.

Tadqiqot jarayonida ingliz tilini o'rgatish va o'rganishning mashhur usullaridan, internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillardan foydalanildi. O'qituvchining vazifasi har bir talaba uchun tilni amaliy o'zlashtirish uchun sharoit yaratish, har bir o'quvchiga o'z faolligini, ijodkorligini namoyish etishiga imkon beradigan shunday o'qitish usullarini tanlashdir. O'qituvchining vazifasi chet tillarini o'qitish jarayonida talabaning bilish faoliyatini faollashtirishdir. Hamkorlikda o'rganish, loyiha metodikasi, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, Internet-resurslar kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi, bolalarning qobiliyatlari, ularning o'rganish darajasini hisobga olgan holda o'qitishning

individualizatsiyasi va farqlanishini ta'minlaydi. Chet tili darslarida kompyuterni o'qitish dasturlari bilan ishlash shakllariga quyidagilar kiradi: so'z boyligini o'rganish; talaffuz qilishni mashq qilish; dialogik va monologik nutqni o'rgatish; yozishni o'rgatish; grammatik hodisalarni ishlab chiqish.

Internet-resurslardan foydalanish imkoniyatlari juda katta. Global Internet dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan talabalar va o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan har qanday ma'lumotni olish uchun sharoit yaratadi: mintaqaviy geografik materiallar, yoshlar hayotidagi yangiliklar, gazeta va jurnallardan maqolalar va boshqalar.

Darslarda ingliz tilida Internet yordamida bir qator didaktik muammolarni hal qilish mumkin: global tarmoq materiallaridan foydalanib o'qish ko'nikma va malakalarini shakllantirish; maktab o'quvchilarining yozish qobiliyatini oshirish; talabalarning so'z boyligini to'ldirish; talabalarning ingliz tilini o'rganish motivatsiyasini shakllantirish. Bundan tashqari, bu ish maktab o'quvchilarining ufqini kengaytirish, ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarda tengdoshlari bilan ishbilarmonlik munosabatlari va aloqalarini o'rnatish va qo'llab-quvvatlash uchun Internet-texnologiyalar imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Talabalar Internetda o'tkaziladigan testlar, viktorinalar, tanlovlar, olimpiadalarda ishtirok etishlari, boshqa mamlakatlardagi tengdoshlari bilan yozishmalar, suhbatlar, videokonferensiyalar va h.k.larda qatnashishlari mumkin.

Talabalar hozirda loyihada ishlayotgan muammo haqida ma'lumot olishlari mumkin. Ommaviy kompyuterlashtirishning mazmunli asoslari zamonaviy kompyuter aqliy mehnat sharoitlarini, umuman, uning har qanday ko'rinishini optimallashtirishning samarali vositasi ekanligi bilan bog'liq. Kompyuterning bir o'ziga xos xususiyati bor, uni boshqalarga o'rgatish uchun vosita sifatida va bilimlarni egallashda yordamchi sifatida ishlatishda aniqlanadi, bu uning jonsizligi. Mashina foydalanuvchi bilan "do'stona" aloqada bo'lishi mumkin va ba'zi paytlarda uni "qo'llab-quvvatlaydi", ammo u hech qachon g'azablanish alomatlarini ko'rsatmaydi va sizni zerikkan deb his qilishingizga imkon bermaydi. Shu ma'noda, kompyuterlardan foydalanish, ehtimol o'qitishning ayrim jihatlarini individualizatsiya qilishda eng foydalidir. Maktabda chet tilini o'rganishning asosiy maqsadi kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdir, boshqa barcha maqsadlar (tarbiyalash, o'qitish, rivojlantirish) ushbu asosiy maqsadni amalga oshirish jarayonida amalga oshiriladi. Kommunikativ yondashuv muloqotni o'rgatish va Internet faoliyatining asosi bo'lgan madaniyatlararo ta'sir o'tkazish qobiliyatini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Aloqa tashqarisida Internetning ma'nosi yo'q - bu xalqaro ko'p millatli, madaniyatlararo jamiyatdir, uning hayoti dunyodagi millionlab

odamlarning elektron aloqasiga asoslangan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida gaplashmoqda - bu sodir bo‘lgan ishtirokchilar soni va hajmi bo‘yicha eng katta suhbat. Unga darsda qatnashish xorijiy til, biz haqiqiy aloqa modelini yaratamiz.

Hozirgi vaqtda aloqa, interaktivlik, muloqotning haqiqiyliigi, madaniy sharoitda tilni o‘rganish, ta’limning avtonomligi va insonparvarligi masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ushbu tamoyillar madaniyatlararo kompetensiyani kommunikativ qobiliyatning tarkibiy qismi sifatida rivojlantirishga imkon beradi. Chet tillarni o‘qitishning yakuniy maqsadi chet tilidagi muhitda erkin yo‘nalishni va turli vaziyatlarda etarli darajada javob berish qobiliyatini o‘rgatishdir, ya’ni aloqa. Bugungi kunda Internet resurslaridan foydalangan holda yangi usullar an’anaviy chet tillarini o‘qitishga qarshi. Chet tilida muloqotni o‘rgatish uchun siz materialni o‘rganishni rag‘batlantiradigan va etarli xulq-atvorni rivojlantiradigan haqiqiy, haqiqiy hayotiy vaziyatlarni yaratishingiz kerak (ya’ni aloqa haqiqiyliigi prinsipi deb ataladi). Yangi texnologiyalar, xususan Internet ushbu xatoni tuzatishga harakat qilmoqda. Kommunikativ yondashuv - bu materialni ongli ravishda anglashga va u bilan ishlash usullariga, muloqotga psixologik va lingvistik tayyorgarlikni yaratishga qaratilgan muloqotni simulyatsiya qiluvchi strategiya. Foydalanuvchi uchun Internetda kommunikativ yondashuvni amalga oshirish ayniqsa qiyin emas. Kommunikativ vazifa talabalarga muammo yoki savolni muhokama qilish uchun taklif qilishi kerak, talabalar nafaqat ma’lumot almashadilar, balki ularni baholaydilar. Ushbu yondashuvni o‘quv faoliyatining boshqa turlaridan ajratib olishga imkon beradigan asosiy mezon - talabalar o‘z fikrlarini shakllantirish uchun mustaqil ravishda lisoniy birliklarni tanlashidir. Kommunikativ yondashuvda Internetdan foydalanish juda yaxshi rag‘batlantiriladi: uning maqsadi o‘quvchilarga bilim va tajribalarini to‘plash va kengaytirish orqali chet tilini o‘rganishga qiziqishdir.

Internet-resurslardan foydalangan holda chet tillarini o‘rgatishning asosiy talablaridan biri bu darsda o‘zaro ta’sirni yaratishdir, bu odatda metodikada interaktivlik deb nomlanadi. Interaktivlik - bu "nutq vositalari yordamida kommunikativ maqsad va natijadagi say-harakatlarni birlashtirish, muvofiqlashtirish va to‘ldirish". Haqiqiy tilni o‘rgatish orqali Internet nutq qobiliyatlari va ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, shuningdek lug‘at va grammatikani o‘rgatishda samimiy qiziqish va shuning uchun samaradorlikni ta’minlaydi. Interaktivlik nafaqat hayotdan real vaziyatlarni yaratibgina qolmay, balki talabalarni chet tilida ularga munosib javob berishga majbur qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Axborot texnologiyalarini o‘qitishga joriy etish, axborotni idrok etish va qayta ishlash jarayonini ancha diversifikatsiya qiladi. Kompyuter, Internet va multimediya

tufayli o'quvchilarga keyingi tahlil qilish va saralash bilan katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun noyob imkoniyat yaratildi. Ta'lim faoliyatining motivatsion asoslari ham sezilarli darajada kengaymoqda. Multimediyadan foydalanish sharoitida talabalar gazetalardan, televizordan ma'lumot olishadi, o'zlari intervyular o'tkazadilar va telekonferensiyalar o'tkazadilar. Til portfeli texnologiyasida chet tilini bilish darajasini baholashning asosiy mezonlari sinov hisoblanadi. Ushbu texnologiyaning ustuvor yo'nalishi ta'lim jarayonini o'qituvchidan o'quvchiga yo'naltirishdir. O'quvchi, o'z navbatida, uning bilim faoliyati natijalari uchun ongli ravishda javobgardir. Yuqoridagi texnologiya talabalarning ma'lumotni mustaqil ravishda o'zlashtirish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga olib keladi. Umuman olganda, til portfeli ko'p funksional bo'lib, ko'p tillilikning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

REFERENCES

1. Xalikova , L. U. (2021). THE THEORETICAL BASES OF FOREIGN LANGUAGE IS TEACHING ENGLISH VOCABULARY. *Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»*. Выпуск № 25 (том 2) (июнь, 2021). Дата выхода в свет: 30.06. 2021., 109.
2. Халикова, Л. У., & Абдураззаков, Ш. А. У. (2021). ФОРМИРОВАНИЕ МОТИВАЦИИ У СТУДЕНТОВ НЕЯЗЫКОВЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ ПРИ ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА. *Academy*, (6 (69)), 43-44. <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-motivatsii-u-studentov-neyazykovyh-spetsialnostey-pri-izuchenii-angliyskogo-yazyka>
3. Халикова, Л. У., & Мустафаева, К. Н. К. (2021). РАБОТА С АНГЛИЙСКИМ АЛФАВИТОМ И ИЗУЧЕНИЕ ОТДЕЛЬНЫХ ГРАММАТИЧЕСКИХ ЯВЛЕНИЙ. *Academy*, (6 (69)), 39-40. <https://cyberleninka.ru/article/n/rabota-s-angliyskim-alfavitom-i-izuchenie-otdelnyh-grammaticeskikh-yavleniy>
4. Uktamovna, X. L. (2021). TEACHING COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN MODERN FOREIGN LANGUAGES. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES*, 2(6), 53-56. <https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/1896..>
5. Yuldasheva Ma'Mura Bahtiyarovna (2020). HISTORY OF THE ENGLISH UZBEK TRANSLATION. *Theoretical & Applied Science*, (3), 11-14.
5. Yuldasheva Ma'Mura Bahtiyarovna (2020). The organization of the mental lexicon. *Наука, образование и культура*, (1 (45)), 44-45.

6. Bakhtiyarova, Y. M. (2022). RELATION OF COMPARATIVE STYLISTICS WITH TRANSLATION THEORY.
7. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. Экономика и социум, (3-1), 273-277. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45770178>
8. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. Экономика и социум, (3-1), 273-277.
9. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
10. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
11. Abdurashidovna, A. N. (2022). YANGI O 'ZBEKISTONDA CHET TILLARNI OMMALASHTIRISH VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *World scientific research journal*, 9(1), 63-70.

QUR'ONI KARIM, TASSAVVUF TA'LIMOTI VA SEMANTIK-FUNKSIONAL NUTQIY HOSILALAR UYG'UNLIGI

Bobokalonov Ramazon Rajabovich,

Buxoro davlat universiteti, Fransuz filologiyasi kafedrası,
filologiya fanlari doktori, professor

Narzullayeva Dilfuza Bafoyevna,

Buxoro davlat universiteti, Fransuz filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qur'oni Karim, tassavvuf ta'limoti va semantik-funksional shakllangan nutqiy hosilalar uyg'unligi haqida olib borilayotgan tadqiqot yuzasidan ma'lumot berilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida bilish nazariyasining mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan foydalanilgan. Zamonaviy tilshunoslikda semantik-funksional nutqiy hosilalarning Qur'oni Karim va tasavvuf ta'limoti bilan uyg'unligi ilk marotaba o'rganilmogda.

Kalit so'zlar: *Qur'oni Karim, tassavvuf, shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat, tasavvuf, zikr, obid, orif, shayx, nutqiy konfiguratsiya, teonimlar, leksik qotishma, leksik-semantik konfiguratsiya.*

ABSTRACT

This article provides information on the ongoing research on the harmony of the Qur'an, the doctrine of Sufism, and semantically-functionally formed speech derivatives. In the process of studying the topic, the methods of logic, historicity, consistency and objectivity of the theory of knowledge were used. In modern linguistics, the compatibility of semantic-functional speech derivatives with the Qur'an and the teachings of Sufism is being studied for the first time.

Key words: *Qur'an, Sufism, Sharia, Tariqat, enlightenment, truth, Sufism, Zikr, Obed, Arif, Shaykh, speech configuration, theonyms, lexical combination, lexical-semantic configuration.*

KIRISH

Qur'oni Karim va tassavvuf tariqatlari o'rtasida uzviy bog'liqlik va ajratib bo'lmaz aloqadorlik – mavjud. Qur'oni Karim bevosita va tassavvuf ta'limoti bilvosita Allohni zikr etish amaliyotiga ta'sir o'tkazib, inson ruhiyatini ijobiy tarafga o'zgartiradi. Inchunin, Qur'oni Karim Allohni zikr etishning birinchi vositasidir. Tassavvuf tariqatlari esa Qur'oni Karim zamirida paydo bo'lgan ilmiy-irfoniy natijalar zaminida shakllangan diniy peshvolarning nazariy natijalari mahsuli bo'lib, ularda ma'naviy yetuklik, ruhiy poklik, nafsni jilolash, ezgulik yo'lini tutish orqali Alloh visoliga erishish tarannum etiladi. Tassavvuf ta'limotida Allohni zikr etish

Qur'oni Karimga nisbatan farqli jihatdan asoslanadi. Zikr – so‘zlash, bayon qilish, xotirlash, yod aylash, xotirdagini unutmash ma’nolarini anglatadigan arabcha kalima. Unda insonning kamolotiga erishish nuqtasi Alloh, Aloh zikrini bir nafas ham unutmash zaruriyati olg‘a suriladi. Tassavvuf Allohga ishonish bilan bir qatorda fikrlashni talab etadi. Chunonchi, Hoja Bahouddin Naqshbandning ta’limotida ham zikr masalasida quyidagi ta’kid-o‘lchamlar uchraydi:

1. Qalblarning buyukligi aslida bir. Lekin ulardagi bilimning kattaligi farqli... (Allohni bilish qudratiga ega bo‘lish) ;
2. Orifning qalbidek keng va katta bo‘lgan boshqa narsa yo‘q. Yer va osmonlar Orifning qalbiga bir nuqta kabidir (Allohni bilish uchun qabrgacha ilm izla) ;
3. Yigirma yildir rangim va sifatim yo‘qdir. Ham birortasi meni bilmoqni istasa, shu unda ham rangim, sifatim ma'lum emas... (Allohni bilmak istagi faqat o‘zing uchundir) ;
4. Biz suyukliga etkarishga vositamiz. Yo‘lga kirganlarga lozimdirki, oqibat bizdan ayrilib, suyukliga yetishsinlar (Alloh bu olamni yaratib amonat qilib bergan, uni o‘z egalariga etkazish burchimizdir) ;
5. Bu yo‘lda menga faqirlik katta yordam qildi. Bizni faqirligimiz tufayli bu eshikdan ichkariga oldilar. Nimaga erishgan bo‘lsam, shu sifatim bilan erishdim... (Alloh yo‘lida faqir bo‘lsang, kabir bo‘lasan).

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tarixdan ma’lumki, Allohni bilish va zikr qilishga bo‘lgan intilishlar shariat bilimlaridan ustun bo‘lishni talab etgan. Diniy-irfoniy ilmlar qatorida tassavvuf ta’limoti islom dini asoslarini tushunishga yo‘l ochib bergan. Tasavvuf Alloh yo‘lida sobit insonning holidan darak beruvchi ilmiy-irfoniy bilimlar majmuidir. Chunonchi: “Tasavvuf qalbni sof tutish, yomon xulq-atvordan poklash va yaxshi axloq bilan bezatish deganidir. Tasavvuf hol ishi bo‘lgani uchun buni boshidan kechirgan odamlargina biladi” [1, 13]. Taniqli tasavvufshunos olim N.Komilov ta’kidlaganidek: «Tasavvuf, bir tomondan, din va shariat, ikkinchi tomondan, falsafa va hikmat ilmi bilan bog‘liq holda rivojlanib kelgan o‘ziga xos ta’limotdir [2, 45].

“Tasavvuf yo‘lini tutgan kishi barcha xudbinlik va razolat, falokat va ma’naviy xalokatning sababchisi *nafsga qarshi isyon* ko‘taradi. Inson yoxud musulmon o‘zini tubanlik botqog‘idan chiqarib, dunyo muhabbatidan voz kechadi, faqatgina Alloh muhabbatiga ko‘ngil bog‘laydi. Buni so‘fiylikda *insonning o‘zligini anglash yo‘li* deb qaraladi va nafs haqida rang-barang ta’riflar uchraydi »[1, 15].

«Tasavvuf ahli o‘z darajalariga ko‘ra tasavvufni turlicha ta’riflaganlar. Ba’zilarini quyida keltiramiz:

— Tasavvuf dinning amrlariga bo‘ysunib, taqiqlaridan saqlanib qalbini yomon axloqdan poklab, yaxshi axloqqa to‘ldirmoqdir.

— Tasavvuf o‘lmay turib o‘la olish holatidir.

— Tasavvuf taqdiriga rozi bo‘lmoqdir.

— Tasavvuf namoz, ro‘za va kechalari ibodat qilish degani emas. Bularni bajarish har bir musulmonning qullik vazifasidir. Tasavvuf insonlarni ranjitmaslikdir. Buni uddalagan kishi vosil bo‘ladi, ya’ni maqsadiga qovushadi.

— Tasavvuf insonni ibodatlarda kerak bo‘ladigan ixlosga va insonlar bilan munosabatda kerak bo‘ladigan go‘zal axloqqa erishtiruvchi yo‘ldir. Insonlarga bu yo‘lni faqat murshidi komillar o‘rgatadi.

— Tasavvuf Rasulullohning muborak qalbidan chiqib, avliyolarning qalblariga keladigan ilmlardir.

— Tasavvufning yetti yuzdan ortiq ta’rifi bor. Lekin asosi hammani muhimdan avvalroq bajarish demakdir. Ya’ni qilinishi muhim bo‘lgan amal va ishlar ichidan eng muhimini ajrata olish va bajara olish san’atidir» [2, 14]. Bu nazariy tushunchalarni XV asr adabiyoti namoyandalari ijodida uchratish mumkin [5; 7].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tasavvuf ta’limotida Zikr kesimida “*musulmon, obid, orif va shayx*” iyerarxik darajalanish mavjud. Bular *shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat* iyerarxik darajalanish bosqichlari bilan uyg‘undir. «Tasavvuf ta’limotida **Shariat** bosqichida **mo‘min-musulmon** farz amallarini bekamu-ko‘st amalga oshiradi. **Tariqat** bosqichida murid (**obid** – ibodat qiluvchi) lar aqlan o‘z ixtiyorini butunlay pirlari – murshidlar (shayx, ustozlar) ixtiyoriga topshiradi. **Ma’rifat** bosqichida irfon sohibi (so‘fiylar nuqtai nazarida Allohning tuhfasini *irfon* ilmdan ustun turadi), ya’ni **oriflar** borliqning birligi Xudoga singish va birikishni, yaxshilik va yomonlikning nisbiyligini aql bilan emas, qalb bilan anglab etishadi. **Haqiqat** bosqichida *zohid* «shaxs sifatida tugab», Xudoga singib abadiylikka erishadi. »[1, 21]

Professor Najmiddin Komilov tariqatda maqomot va hol tushunchalarini shayx Abunasr Sarroj fikri misolida yaxshi izohlab bergan. Unda maqomot bosqichlari qisqacha shunday:

1. **Tavba** – qaytish demak, ya’ni kamolotga, oliy axloqiy sifatlarga qaytish. Tavbaning haqiqati shuki, solik Xudoga etishish yo‘liga g‘ov bo‘ladigan jamiki narsalardan qaytishga qasamyod etadi, butun intilishi, tavajjuhini Ollohga qaratadi, avvalgi hayot tarzidan butunlay voz kechadi.

2. **Vara’** - so‘zining ma’nosi parhez, taqvo bo‘lib, bulg‘anishlardan, ma’naviy zarar keltiradigan shubhalardan, ko‘ngil man’ etgan jamiki narsalardan parhez qilish, tama’ qilishdan saqlanish.

SHayx Shibliy vara'ning uch ko'rinishi: **“til vara'i**, ya'ni tilni bema'ni gaplar uchun ishlatmaslik, g'iybat-tuhmatga berilmaslik; **ko'z vara'i** – shubhali narsalardan saqlanish, g'aliz shakllarga boqmaslik; **qalb vara'i**, ya'ni past himmatni tark etish va noxush qiliqlarni qilmaslik”ni ko'rsatgan. Abubakr Shibliy (859-946) o'z davrining ko'zga ko'ringan ulamolaridan, Mansur Xalloyning (858-922) shogirdi, so'ng Junayd Bag'dodiy qo'lida ta'lim olgan. SHayx SHibliy ziyoratgohi hozir Qarshi shahrining sharqiy-janubiy qismida SHilvi qishlog'ida joylashgan. Farididdin Attor Nishopuriyning “Ilohiynoma” kitobida, Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat” asarida, Abdurahmon Jomiy “Bahoriston”ida ham “Shibliy — Abubakr Muhammad ibn Xalaf arab tilida ijod qilgan tasavvuf shoiri, o'zi O'rta Osiyo (Buxoro)dan chiqqan. 945 yilda Bag'dodda vafot etgan” degan ma'lumotlar bor [3].

3. **Zuhd** – vara'ning davomi, bu ham parhez qilish. Ammo bunda taom va ichimlikdan saqlanish, halol va haromni ajratish tushuniladi. Zuhd so'fiy uchun dunyo va oxirat tarki – dunyo moliga ega bo'laman deb intilmaslik.

4. **Faqr** ma'nosi – qashshoqlik, benavolik, kamsuqumu kamtarinlik, ulug'vor ilohiy mohiyat kasb etish. Bandalikni sidqidildan oliy darajada bajo keltirish, bandalikdan sharaf topish. Alloh nazdida o'zini zarra, balki zarradan ham kam deb hisoblash.


5. **Sabr** – toqat, chidam. So'fiylar tilida qiyinchiliklardan shikoyat qilmaslik, Xudodan boshqaga nola-iltijo qilmaslik. Sobir (sabr etuvchi) o'zini balo girdobiga solib, balolardan qo'rqmaydigan odam. Nafs sabr orqali jilovlanadi, toatdan halovat topish ham sabr bilan amalga oshadi.

6. **Xavf** – qalbning ishonchdan, iymon amnidan chiqishi, ikkilanish, tahlika. Vaqtinchalik shayton nayrangi ham ko'ngilga xavf-qo'rquv soladi. Solik azobdan emas, balki makrdan, nafs makridan qo'rqadi.

7. **Rajo** – umidvorlik. Qalbning kelajakda Mahbub vasliga etishidan umidvorligi, xavfdan qutulish umidi, dil sog'inchi va intiqliklari.

8. **Tavakkul** – barcha yaxshi-yomon hodisalarni Xudo karomatidan deb bilish, kullan Parvardigorga suyanish, undan qo'rqish, ilohiy fayzga umidli kishining ma'rifat kamolidan keladigan oliymaqom iymonidir.

9. **Rizo** – qazo amriga taslim bo'lgan qalbning sururi, qalbdan qabohat-kirlarning ketishi, qazovu qadar hukmiga bo'ysunish, nafs roziligidan chiqib, Haq roziligiga kirish. Rizo – bandaning o'z rizosidan chiqib, Mahbub rizosiga kirishi, ilohiy qismatga zarracha e'tiroz qilmaslik.



Shulardan so‘ng *suluk* tariqat bosqichlarini bosib o‘tib, *Allohni zikr* etayotganda xuddi qalandarlar kabi holatga tushadi. Mavlono Alisher Navoiy «Lison ut-tayr»da «Simurg‘» hikoyasi zaminida tasavvufning yetti maqom-bosqichiga alohida-alohida badiiy sharh berib, qushlarning Hudhud yo‘lboshchiligida Simurg‘ni izlab etti vodiyan (Talab, Ishq, Ma‘rifat, Istig‘no, Tavhid, Hayrat, Faqru Fano) o‘tishlari va Simurg‘ni topolmay, uni izlashga chiqqan “*si+murg*” (o‘ttiz qush)ning o‘zi ekanligini bilishlari ta‘riflanganini eslang.

Tariqatlar ichida Naqshbandiya tariqati o‘ta progressiv, insonparvar va xalqchil hisoblanadi. Uning *progressivligi* – Alloh yo‘lida toat-ibodatni ko‘r-ko‘rona amalga oshirmaslik (“*dil ba yor*”); *insonparvarligi* – bu dunyoda o‘zidan bir bog‘ (yoki bino), solih farzand va shogird qoldirish (“*dast ba kor*”); *xalqparvarligi* – Allohga yaqin bo‘lish uchun «*La ilaha ilolloh*»ni bir nafasda ko‘p marotaba takrorlashga ulgurish kifoya bo‘lib, insonlardan o‘zini olib qochish (zohidlikni kasb etish) nojoizdir, Alloh oldida shohu gado barobar. Allohni qalbiga naqsh solib, faqiru haqirlarga muruvvatli bo‘lish uchun intilish, yaratuvchanlikni oshirish Allohga ko‘rsatilayotgan shifoat bilan barobardir (ya‘ni “*xilvat dar anjuman*”).

Naqshbandiya tariqati sayri suluki (maqomi)ga kirgan har bir kishi o‘n bir asosga ega bo‘lgan dasturni bilishi juda ham zarur sanaladi:

1. *Hush dar dam*. «Hush» so‘zi «aql-hush, «dam» so‘zi «nafas», «hushyorlik» ma‘nosini bildiradi. Har nafasda hushyor bo‘lib, Allohni esdan chiqarmaslik. Allohni yod etib turish.

2. *Nazar bar qadam*. Qadamga nazar solish. So‘fiylikka kirgan suluk doimo oyog‘ining uchiga nazar solib yurishi, turli harom narsalarga nazari tushishining oldini olishi lozim.

3. *Safar dar vatan*. Bunda «Vatanga safar qilish - Haqqa safar qilish» ma‘nosi tushuniladi.

4. *Xilvat dar anjuman* - Anjumanda xilvat qilmoq. So‘fiy xalq ichida bo‘lsa-da, o‘zi Haq bilan xoli bo‘lish malakasiga ham ega.

5. *Yod kard* – Yod et. Nafasni tutib turib, til va dil bilan birdaniga tavhid zikrini qilish nazarga tutilgan.

6. *Boz gasht* – So‘ngra o‘t. Maqsad va matlab Allohning roziligini olish. Solik zikr qilib bo‘lgach: «Ilohim, Sen maqsudimsan va roziliging matlubimdir», deydi va buning ma‘nosini anglashi nazarda tutiladi.

7. *Nigoh dosht* – Nigoh sol. Qalbni xavotirdan saqlash va bu orqali qalbgaga Allohning muhabbatidan boshqa narsa kirmasligi ta‘minlash.

8. *Yod dosht* – Yodga ol. Har lahzada Alloh taoloni yodda tutish.

9. *Vuqufi zamoniy* – Zamon va vaqtdan voqif bo‘lmoq. Solik o‘zi yashayotgan zamoni bilmog‘i va undan unumli foydalanmog‘i ko‘zda tutilgan.

10. *Vuqufi adadiy* – Adaddan voqif bo‘lmoq. Vaqt mobaynida Allohni zikr qilishda so‘fiyning lafzlarni cheksiz talaffuz qilishi.

11. *Vuqufi qalbiy* – Qalbdan voqif bo‘lmoq. Qalbni Allohning zikri, fikri va amri ila mashg‘ul qilmoq haqida so‘z boradi». [1 ; 2]

Bu maqomot quyidagi uch buyuk allomaning ijodiy tafakkur mahsuli hisoblanadi. 1. Yusuf Hamadoniy tayin etgan shiorlar: *Hush dar dam. Nazar bar qadam. Safar dar vatan. Xilvat dar anjuman*. 2. Abdulxoliq G‘ijduvoni tayin etgan shiorlar: *Yot kard. Boz gasht. Nigoh dosht. Yod dosht* va 3. Bahouddin Naqshband tayin etgan shiorlar: *Vuqufi zamoniy. Vuqufi adadiy. Vuqufi qalbiy*.

Ilmiy tahlil

Allohni qalban zikr etishda qo‘llaniladigan semantik-funksiyonal nutqiy konfiguratsiyalar [8] quyidagilarda namoyon bo‘ladi :

1. a) olmosh bilan: U – o‘zbekcha, O‘ –forscha

2. Teonimlar bilan: *Alloh, Rahmatulloh, Janobi Alloh, Haq, Haq taolloh, Haq subhonahu va taollo, Rabbim, Rabbi olamin, Yazdon, Tangri, Tangri taolloh, Parvardigor, Parvardigori olam, Xudo, Xudoyi mehribon, Hazrat podsho, Sultoni Kavnayn, Irshodi olam,* Bu teonimlarning sinonimik qatorida arabcha, qadimiy turkcha, forscha, tojikcha antroponimlar uchrashini ko‘rish mumkin.

3. Leksik qotishmalar bilan: *Azza va jalla, Jalla zikruhu, Alayhi-s-salom, Rahmatullohi alayh, Raziyallohu anhu, Ravvahullohu arvoahum, Vafaqakallohu*

taolo... . Bu qatorda Alloh va uning sahobalari, uni zikran tanigan avliyolar nomlari ortidan hurmat alomatlari sifatida e'tiroflar nutqda ifodalaniladi.

4. Leksik-semantik konfiguratsiyalar bilan: *Bismillohu rahmoniy rahim, Sallallohu alayhi va salam, Raziyallohu ta'olo anhu...* Bularda Haqni haq ila, qalb ko'zi bilan ko'rganlar va Alloh zikri va yo'lida sobitlarga berilgan laqablar, ya'ni sifat olgan noiblar, sohiblar, avliyolar nomlariga orttirilgani taxalluslar sanaladi.

Fikrimizni yanada oydinlashtirish uchun Hazrat Bahouddinning ikkinchi shogirdlari Xoja Muhammad Porsoning «Qudsiya» risolasida zikr parchasini tahlilga tortamiz :

«Hazrat podsho (Alloh)ga, jalla zikruhu, behad va benihoya hamdu sanolar, beandoza va beqiyos shukru siposlar (mininatdorlik), visol talablar va U-ning jamoliga mushtoqlar, U-ning vujudi dalili ham U-ning vujudidir va U-ning shuhudi burhoni (hujjati) ham U-ning shuhudidir.

Bayt:

Tu bad-O' bishnos O'-ro, ne ba x(v)ad,

Roh az O' xezad bad-O', ne az xirad.

Tarjima:

Sen U-nga hamroh bo'l, U-ni taniy bil, shunchakimas,

U-nga yo'l boshlasang, U-ndan keyin hecham sir qolmas » [4].

Bundan anglashiladigan murakkab semantik-funksional konstruksiyada Hazrat podsho (Alloh), U- va O'- olmoshlari, shuningdek, Alloh zikri alomatlari - hamdu sano (cheksiz maqtov), shukru siposlar (minnatdorliklar), visoltalablar va jamoliga mushtoqlar (Qalban zikr etuvchilar), vujudi dalili, shuhudi burhoni (borligi hujjatiga shubha qilmaydiganlar) kabi nutqiy hosilalarda g'ayrioddiy lug'aviy ma'nolar mujassam bo'lgan.

Quyidagi parchaga yana e'tibor qaratamiz: «Bil, *vafaqakallohu taolo*, ba'zilarning ortidan shu tarqaladikim, basirat ahli, *ravvahullohu arvoahum*, aytdilar, bu qilingan ibodatlarining bari Alloh zikri uchundir, *azza va jalla*. Va uzmo saodatiga etishgan kishidakim, unda bu olamda *Haq subhonahu va taolo* unsu muhabbati g'olib chiqsin. Va U-nga (Allohga) unsu muhabbati g'alabasi U-ning zikri, *azza va jalla*, davomida juz bo'lmaydi. «*Lo iloha ilalloh*» kalimasi musulmonlik aslidir va boshqa barcha ibodatlarining ta'kidi shunda zikrdir. Va namoz ruhi *Haq subhonahu va taolo*, zikrini qalbdagi haybatu ta'lim sabilida tozalab olishdir. Va ro'zadan maqsud shahavotning kasri (shahvatni sindirishda)dir, to yurak shahavot muzohimati (shahvat zahmati)dan xalos topsin, (unda) soflik bo'lsin va zikr qarorgohiga aylansin» [4 ; 6].

Mazkur matn tarkibida uchraydigan *vafaqakallohu taolo, ravvahullohu arvoahum, azza va jalla, U-, Haq subhonahu va taolo* nutqiy konstruksiyalari

semantik-funksional jihatdan “Alloh zikri” bilan uyg‘un ruhiy holatga kirishgan taqvodorning xususiyatlarini aks etadi va uni Alloh bilan qalban yaqin bog‘langanligini namoyon qiladi.

XULOSA

Semantik-funksional shakllangan nutqiy hosilalar mantiqan va shaklan isbot talab etmaydigan gaplardir. Ular bir so‘z bilan (*U, Alloh, Rabbim, Rahmatulloh, Yazdon, Tangri, Haq, Parvardigor, Xudo*), ikki so‘z bilan (*Janobi Alloh, Haq taolloh, Rabbi olamin, Tangri taolloh, Parvardigori olam, Xudoyi mehribon, Hazrat podsho, Sultoni Kavnavn, Irshodi olam*), bir necha so‘z bilan (*Haq subhonahu va taollo, Lo iloha ilalloh, Ashhadu anna Muhammadan rasullolah*), leksik qotishmalar bilan (*Azza va jalla, Jalla zikruhu, Alayhi-s-salom, Rahmatullohi alayh, Raziyallohu anhu, Ravvahullohu arvohahum, Vafaqakallohu taolo*), leksik-semantik konfiguratsiyalar bilan (*Bismillohu rahmoniy rahim, Sallallohu alayhi va salam, Raziyallohu ta’olo anhu*) shakllanganligini Qur’oni Karim va uning atrofidagi ilmiy manbalarda uchratish mumkin.

Qur’oni Karim, tassavvuf ta’limoti va semantik-funksional shakllangan nutqiy hosilalar uyg‘unligi bilan aloqador bo‘lib, tadqiqot jarayonida diniy tushunchalarni sintaktik mohiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bobokalonov R. Nafsga qarshi isyon. Ilmiy-ommabop risola, Buxoro, 2022. -13 b.
2. Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. –T.: «Yozuvchi», 1997. 2-kitob. –T.: «O‘zbekiston», 2009, 245-6.
3. Sharopov Sh. Shayx Shibliy kim bo‘lgan? “Hurriyat” gazetasi, 2009. 01.11.2015, ziyouz.uz.
4. Xoja Muhammad Porso. “Qudsiya” risolasi. Buxoro – 2023. - 4 b.
5. Bobokalonov R., Raupova R. Xoja Ismat Buxoriyning falsafiy-tasavvufiy qarashlari, «Adabiyot uchqunlari» nashr. Toshkent, 2017. 3-137 b.
6. Bobokalonov R. Xoja Muhammad Porso “Qudsiya” risolasi va hayotnomasi. Ilmiy risola (tarjima, qayta to‘ldirilgan nashr). GlobEdite. Republic of Moldova, Europe printed, 2023. P. 3-123. ISBN: 978-3-639-73461-4
7. Bobokalonov R. Xarizmalı insonda nutq ko‘rkamligi. Journal of Advanced Research and Stability Volume: 03 Issue: 05 | May - 2023 ISSN: 2181-2608. 556-561 b. www.sciencebox.uz
8. Bobokalonov R., Bobokalonov P. Text linguistics and the problem of the syntax. Scientific reports of Bukhara state university, 5-6/2022 13 b.

FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA DEOPOETONIMLAR TUSHUNCHALARI

Hamidova Muborak Hafizovna

Buxoro davlat universiteti

Fransuz filologiyasi kafedrasida dotsenti

m.h.xamidova@buxdu.uz

Narzullaeva Ra'no

Buxoro davlat universiteti

Fransuz filologiyasi kafedrasida magistranti

Тел:+99890 744 03 77

ANNOTATSIYA

Maqolada o'zbek va fransuz tillarida deopoetonim tushunchasining mohiyati va tasniflanish asoslari xamda tabiat hodisalari nomlariga e'tibor qaratilgan. Ularning ramziy-timsoliy mohiyati aniqlangan.

Kalit so'zlar: *tabiat hodisalari, deopoetonim, allyuziv nom, tuman, mifodeopoetonimlar, real deopoetonim, urbandeopoetonim.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены сущность и классификационные основы понятия деопэтонимов в узбекском и французском языках, а также названий природных явлений. Определена их символическая природа.

Ключевые слова: *природные явления, деопэтонимы, аллюзионные существительные, туман, мифодеопэтонимы, настоящие деопэтонимы, городские деопэтонимы.*

ABSTRACT

The article discusses the essence and classification foundations of the concept of deopetonims in the Uzbek and French languages, as well as the names of natural phenomena. Their symbolic nature has been determined.

Key words: *natural phenomena, deopetonims, allusion name, fog, mifodeopetonims, real deopetonims, urban deopetonims.*

KIRISH

Deopoetonimlar poetik onomastikaga xos terminlardan biridir. U til va adabiyotintegratsiyasi mahsuli sifatida yuzaga chiqishi tufayli lingvopoetik hodisa sifatida qaralib, onomastika sohasiga tegishli hisoblanadi. Shuning uchun deopoetonimlarni lingvo+poetika birligiga asoslangan tamoyillar asosida o'rganishga to'g'ri keladi. Chunki deopoetonimlar ham boshqa onomastik birliklar qatori lingvopoetik jihatdan muayyan vazifalarni bajarishga xoslangandir.

Agar deopoetonimlar lingvopoetik tamoyillar asosida tahlil va tadqiq qilinsa, ular badiiy matnda:

birinchidan, badiiy-estetik ta'sirchanlikni yuzaga keltirish;

ikkinchidan, salbiy yoki ijobiy ma'noni yuzaga chiqarish;

uchinchidan, allyuziv nom sifatida matnni shakllantirish hamda intertekstuallikni ta'minlash ;

to'rtinchidan, satirik ifodani yaratish;

beshinchidan, inson ruhiy holati yoki vaziyatini, umuman, ifodalanayotgan voqelikni baholash, unga ekspressiv, emotsional hamda intensiv munosabatni ifodalash;

oltinchidan, ijodkor uslubini belgilash,

yettinchidan, asar mohiyatini anglash va anglatish maqsadida ritorik murojaat bilan chiqish maqsadlarida qo'llanishi ayonlashadi.

Deopoetonimlar badiiy matn bilan bog'liq hodisalar sifatida, odatda, ijodkor badiiy maqsadiga muvofiq qo'llanadi va bunda turli ekspressiv, intensiv xususiyatlarini namoyon etadi. Shu bilan o'zining muayyan badiiy yukka, poetik qimmatga ega ekanini ko'rsatadi. Bundan anglashiladiki, badiiy matndagi tabiiy hodisalarni ifodalab kelgan har qanday so'z yoki nom emas, balki ijodkor badiiy niyatini yoritishga xizmat qilgan tabiiy hodisalar nomlarigina **deopoetonim** hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shunday qilib, muayyan tabiiy hodisa ma'nosini anglatib, uni atab keluvchi hamda ijodkor badiiy niyati, sub'ektiv munosabatiga muvofiq poetik vazifaga yo'naltirilgan bunday leksik birliklar "**deopoetonimlar**" deb ataladi. Ular boshqa onomastik birliklar kabi badiiy matnda onomastik metafora, allyuziv nom, "so'zlovchi" nom kabi lingvopoetik vazifalarda keladi.

Deopoetonimlar leksik-semantik va estetik-stilistik jihatdan alohida xususiyatlarga ega. Ijodkorlar ular orqali o'zlarining tabiat olamiga munosabatini ham ifodalaydilar.

Badiiy matnda qo'llanuvchi deopoetonimlarni mohiyatiga ko'ra quyidagi ko'rinishlarga ajratish mumkin:

1. Qo'l bilan tutib, ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan tabiiy hodisa nomlari. Masalan, *qor, yomg'ir, do'l, qirov, shudring* kabi.

2. Ko'z ko'rib, qo'l bilan tutish imkoni bo'lmagan tabiiy hodisalarning nomi. Masalan, *bulut, tuman, momaqaldiroq, chaqmoq, to'zon, kamalak* kabi.

3. Ko'z ham ko'rmaydi, qo'l ham tutmaydi, faqat his qilish mumkin bo'lgan tabiiy hodisalar. Masalan: *shamol, shabada, garmsel, zilzila* singari.

Badiiy matnda qo‘llanib keladigan bu kabi har uchala tabiiy hodisalarni **“real deopoetonimlar”** deb sanash mumkin. Lekin ular orasida **mifodeopoetonimlar, urbandeopoetonimlar** ham uchraydi.

Mifodeopoetonimlar poetonimlarning, aniqrog‘i, tabiiy hodisalarning nomini ifodalovchi deopoetonimlarning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Ular til tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega. Mifodeopoetonimlar xuddi deopoetonimlar singari poetik onomastikaga xos atamalardan biridir. Ular mifologik tasavvur-tushunchalarning tilda va badiiy ijodda integratsiyalashuvi natijasida kelib chiqqan. Shuning uchun ular lingvopoetik birlik sifatida lingvopoetika prinsiplariga tayanilgan holda o‘rganiladi. Ular deopoetonimlar hamda boshqa onomastik birliklar singari muayyan lingvopoetik vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Mifodeopoetonimlar biror-bir tabiiy hodisani anglatib, u haqdagi mifologik, xayoliy uydirmaga asoslangan tasavvur-tushunchani o‘ziga singdirgan, uni atashga xizmat qilgan, shuningdek, o‘sha nomda ijodkor tomonidan uning badiiy niyatiga muvofiq qo‘llanib kelgan lingvopoetik vazifadagi leksik birliklardir.

Urbandeopoetonimlar badiiy asarlarda ichki shahar ob‘ekti, madaniy qimmat kasb etadigan, masalan, istirohat-bog‘i kompleksi kabilardan iborat bo‘ladi. Masalan, bunga Qohirada barpo etilgan va XIX asr oxiri va XX asr boshlarigacha sayyohlar o‘rtasida mashhur bo‘lgan “O‘zbek” istirohat bog‘i majmuasini misol qilish mumkin. Bir vaqtlar Napoleon ham uni o‘ziga qarorgoh qilib olganligi aytiladi. Bog‘ o‘rtasida manzarali ko‘l bo‘lgan. Undan ko‘p uzoq bo‘lmagan masofada opera teatri binosi hamda “Kontinental” mehmonxonasi joy olgan. O‘zbek shu istirohat bog‘idagi haykal bo‘lib, bog‘ shu haykal nomi bilan atalgan. Biroq hozir undan faqat kichik park saqlanib qolgan, xolos. Badiiy nutqdalirik qahramonning hissiyot va ichki kechinmalarini, ruhiy holatini tabiat hodisalariga bog‘lab, ularga o‘xshatib yoki qiyoslab, ba‘zan qarshilantirib berish tajribasi qadimdan hozirgacha davom etib kelayotgan poetik an‘analardan biridir. Ma‘lumki, insonlar o‘zi va tabiat o‘rtasida ruhiy yaqinlik borligini qadimdan his etganlar, ammo jonli (organik) va jonsiz (neorganik) tabiatda yuz beradigan tabiiy hodisa va jarayonlarning sodir bo‘lish sabablarini hali tushunmaganlar. Ko‘proq ularni o‘zlari kabi jonli mavjudot sifatida tasavvur qilganlar. Lekin keyinchalik inson ongi taraqqiy qilishi natijasida odamlarning tabiat hodisalari va ularning yuz berishi haqidagi tasavvur-tushunchalari ham kengaya borgan. Buning oqibatida xalq badiiy tafakkurida ham ularni tasvirlash va talqin etish borasida muayyan o‘zgarishlar paydo bo‘ldi.

She‘riyatda lirik qahramonning his-tuyg‘ulari, ruhiy holati tabiat hodisalari bilan bog‘lab berilishi tasodifiy hol emas. Chunki tabiat hodisalari inson hayotiga,

kayfiyatiga, rizq-ro‘ziga ma’lum ma’noda ta’sir ko‘rsatishi o‘z isbotini namoyon etgan.

Reallikka ega tabiiy hodisalarning nomlari orqali ijodkor badiiy matnda ularning apellyativ ma’nosiga ishora qilish orqali o‘ziga xos obrazli ifodalarni yaratadi. Masalan, qorga xos sovuqlik, oqlik ma’nolari orqali lirik qahramonning xarakter-xususiyatiga, yoshiga ishora qilsa, shamolga xos tezlik ma’nosi asosida inson xatti-harakati baholanadi.

Tabiiy hodisalarning tilda mavjud bo‘lgan nomlari badiiy matnlarda ko‘pincha ko‘chma ma’noda kelib, ekspressivlikni yuzaga keltiradi. Bunday deopoetonimlar, xususan, she’riyatda muhim ekspressiv vazifalarni bajarib keladi. Masalan, Mirtemirning “Shudring” sarlavhali she’rida lirik qahramon boshidan kechirgan ichki holatlar tasviri uchun shudring hodisasi muhim lingvopoetik vosita sifatida tanlangan. Shoir shudringni “go‘zal yaproqlarda, ko‘katlarning bargida, chechaklarning bag‘rida, sho‘x soy qirg‘oqlarida, nihollar kurtagida sal epkinda simobday qaltirab yaltiragan lak-lak injuga; kelinlar taqinchog‘i – ko‘zmunchoqqa; bo‘y-bo‘y dilrabo qizlarning uzugi ko‘zlariga, kechasi bilan tag‘in yig‘lab chiqqan onasi ko‘z yoshlariga o‘xshatgan. Ayniqsa, shoirning shudringni ona ko‘z yoshlariga mengzashi juda ta’sirli chiqqan.

Shoir ona holatini, xarakter-xususiyatini ochib berish uchun asosiy yukni tabiat hodisasi nomi – shudring deopoetonimiga yuklagan. Bu o‘rinda shudring va ko‘z yosh hodisalari ko‘rinishi o‘rtasidagi o‘xshashlik ularni ma’noviy jihatdan ham yaqinlashtirib, biri uchun ikkinchisini tasvir ob’ekti sifatida tanlashga zamin yaratgan.

She’riyatda ko‘pincha insonga xos xususiyatlar tabiat hodisalariga ko‘chiriladi. Masalan, shamolga nisbatan “o‘ynamoq”, “so‘ylamoq”, “chertmoq”, “tiqirlatmoq”, “uyg‘otmoq”, “shivirlamoq”, “aytmoq”, “qaytmoq”, “erkalamoq”, “o‘pmoq”, “quturmoq” singari ish-harakat nomlari qo‘llanishi kuzatiladi. Masalan:

Yaproqlarda shamol o‘ynar.

Suv mavjida o‘ynar shamol.

Sarin shamol nima so‘ylar?

Yuragida qanday xayol?

Derazamni chertadiu

Tiqirlatar eshigimni.

Orom bilmas, bilmas uyqu,

Uyg‘otadi kelib meni.

Sochlarimga qo‘nar shamol.

Shamol qo‘nar ko‘zlarimga

Qo‘shiq, ertak aytib xushhol

Soʻngra qaytar izlariga.

Inson – tabiatning bir boʻlagi, shuning uchun tabiiy hodisalar va odamzod oʻrtasida ruhiy yaqinlik, aloqadorlik mavjudligini inkor qilib boʻlmaydi. Shu sababdan ijodkorlar insoniy kayfiyatlarni koʻp hollarda tabiiy hodisalar bilan tenglashtirib tasvirlab, badiiy taʼsirchanlikka erishadilar.

Fransuz adabiyotini kuzatish shundan dalolat beradiki, farang ijodkorlari ham deopoetonimlardan lingvopoetik vosita sifatida mahorat bilan unumli foydalanishgan. Masalan, shamol xuddi oʻzbek tili badiiy matnlaridagi kabi fransuz tilidagi badiiy matnlarda ham faol qoʻllanuvchi deopoetonimlardan biridir. Masalan:

Ah! Ce grand vent, l'entends-tu pas?

L'entends-tu pas à la fenêtre?

Par la moindre fente il pénètre

Et s'enfle et crache comme un chat.

Ah! Ce grand vent, l'entends-tu pas?

– J'entends les cris des laboureurs.

Tarjimasi:

Qani! Bu ulkan shamol, eshita olmaysizmi?

Oynada eshitmayapsizmi?

Kichikkina tirqish orqali u kirib boradi

Va mushuk kabi pishqiradi va tupuradi.

Qani! Bu ulkan shamol, eshita olmaysizmi?

– Men shularning qichqiriqlarini eshitaman,

Per Menantoning bu misralarida shamolning tashxis (jonlantirish) va tashbeh (oʻxshatish) sanʼatlari asosida badiiy ifoda etilganiga guvoh boʻlish mumkin.

Fransuz va oʻzbek tillaridagi deopoetonimlar leksik-semantik mohiyati, milliy-lisoniy, nominatsion-motivatsion, uslubiy xususiyatlari har ikkala millatning yashash tabiiy-iqlim sharoiti, tili, madaniyati, milliy mentaliteti, dunyoqarashi, ruhiyati, eʼtiqodiy tushunchalari, oʻziga xos urf-odat va marosimlari, poetik tafakkur tarzi bilan chambarchas bogʻliqdir. Ular oʻziga xos milliy belgilar orqali lingvomadaniy hamda lingvopoetik aspektda badiiy anʼanalar qonuniyatlari doirasida obrazlantirilishi kuzatiladi.

Shunisi borki, fransuz sheʼriyatida ham, oʻzbek sheʼriyatida ham *shamol*, *bulut*, *qor*, *yomgʻir*, *tuman*, *momaqaldiroq*, *chaqmoq*, *shudring*, *gʻubor*, *oʻlim* singari qator tabiiy hodisalar nomlari lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini, kayfiyatini, badiiy ifodalash maqsadida keng qoʻllanadi. Ular badiiy matnda uchraganda deopoetonimlar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy adabiyot tilida uchraydigan deopoetonimlar ham poetonimning boshqa turlari singari asarning ma'naviy-uslubiy imkoniyatlarini ta'minlashda muhim vosita sanaladi. Ular paradigmatic xususiyatlarga ega adabiy onimlar sifatida til va nutq xosliklarini anglashda katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Khamidova Muborak Khafizovna. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY, 67.
2. DEOPOETONYMS. Khamidova Muborak Khafizovna. Teacher of department of German and French languages, BSU. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА.
3. N.B.Kuldashova. (2023). LE TERME ET LA TERMINOLOGIE. Innovative development in educational activities, 2(6), 41-52.
Ishlash va xavfsizlikni yaxshilashga qo'shimcha ravishda, sun'iy intellektni qo'llab-quvvatlaydigan tarmoqni nazorat qilish echimlari nosozliklarga chidamlilik qobiliyatini namoyish etadi. O'rganishni kuchaytirish algoritmlari va moslashuvchan nazorat qilish strategiyalaridan foydalangan holda, sun'iy intellektga asoslangan tarmoqni nazorat qilish tizimlari avtonom ravishda tarmoqdagi nosozliklarni tashxislashi, noto'g'ri komponentlarni chetlab o'tish uchun trafikni qayta yo'naltirishi va uzluksiz xizmat ko'rsatishni ta'minlash uchun tarmoq topologiyasini dinamik ravishda qayta sozlashi mumkin. Bunday nosozliklarga chidamlilik tarmoq xizmatlarining ishonchliligi va mavjudligini oshiradi, ishlaymay qolish va xizmat ko'rsatishdagi uzilishlarni minimallashtiradi.

Bundan tashqari, empirik topilmalar sun'iy intellektga asoslangan tarmoqni nazorat qilish mexanizmlarining miqyosi va moslashuvchanligiga oydinlik kiritadi. Ushbu tizimlar o'sib borayotgan tarmoq infratuzilmalari va rivojlanayotgan trafik naqshlarini moslashtirish uchun muammosiz miqyoslashi mumkin. Bundan tashqari, sun'iy intellekt algoritmlari tarmoq ish faoliyatini optimallashtirish va yuzaga keladigan muammolarni yumshatish uchun ularning xatti-harakatlari va qaror qabul qilish jarayonlarini moslashtirgan holda real vaqt rejimidagi tarmoq ma'lumotlaridan doimiy ravishda o'rganishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maqola natijalari sun'iy intellektning kompyuter tarmog'ini nazorat qilishining ijobiy tomonlarini qo'llab-quvvatlashi yuzasidan firklarni ilgari suradi. Samaradorlikni oshirish va xavfsizlikni mustahkamlashdan tortib nosozliklarga chidamlilik qobiliyatlari va miqyosigacha, sun'iy intellektga asoslangan tarmoqni nazorat qilish tizimlari raqamli asrda tarmoq operatsiyalarini samarali, xavfsiz va chidamliligini ta'minlashda ajralmas vosita sifatida paydo bo'ladi.

MUHOKAMA

Sun'iy intellektning kompyuter tarmoqlarini nazorat qilish sohasiga integratsiyalashuvi samaradorlik, moslashuvchanlik va innovatsiyalarning yangi davrini boshlab beradi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Sun'iy intellektga asoslangan algoritmlar va texnologiyalar rivojlanishda davom etar ekan, sun'iy intellekt tomonidan nazorat qilinadigan kompyuter tarmoqlarining oqibatlarini keng qamrovli va ko'p qirrali.

Sun'iy intellektga asoslangan kompyuter tarmoqlari nazorat qilinishining asosiy afzalliklaridan biri bu bir vaqtning o'zida keng doirada nazorat qilinishidir. Tarmoqni

nazorat qilishning an'anaviy yondashuvlari ko'pincha tarmoq infratuzilmasining eksponentsial o'sishi va trafik shakllarining ortib borayotgan murakkabligini bartaraf etish uchun kurashadi. Biroq, sun'iy intellektga asoslangan echimlar rivojlanayotgan kompyuter tarmoqlar dinamikasiga avtonom tarzda moslashish uchun mashinani o'rganish algoritmlari va neyron tarmoq arxitekturasidan foydalanish orqali misli ko'rilmagan keng doirada kontrolni taklif etadi. Ushbu masshtablilik sun'iy intellekt yordamida nazorat qilinadigan tarmoqlarga katta hajmdagi ma'lumotlarni samarali nazorat qilish va zamonaviy raqamli ekotizimlar talablarini qondirish uchun muammosiz keng doirada nazorat qilish imkonini beradi.

Moslashuvchanlik sun'iy intellekt tomonidan nazorat qilinadigan kompyuter tarmoqlarining yana bir asosiy atributidir. Qattiq qoidalarga asoslangan tizimlardan farqli o'laroq, sun'iy intellekt algoritmlari tajribadan o'rganish, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish va real vaqtda tarmoq ish faoliyatini optimallashtirish uchun o'ziga xos qobiliyatga ega. Ushbu moslashuvchanlik sun'iy intellekt tomonidan nazorat qilinadigan tarmoqlarga marshrutlash protokollarini dinamik ravishda sozlash, resurslarni taqsimlash va tarmoq tiqilib qolishini yumshatish imkonini beradi va shu bilan operatsion samaradorlikni va o'zgaruvchan talablarga javob berishni oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, sun'iy intellektni tarmoq nazorat qilishiga integratsiyalashuvi ham bir qancha qiyinchiliklar va mulohazalarni keltirib chiqaradi. Bunday qiyinchiliklardan biri bu sun'iy intellekt algoritmlari va modellarining o'ziga xos murakkabligi. Sun'iy intellektga asoslangan tarmoqni nazorat qilish tizimlari tobora takomillashib borayotganligi sababli, qarorlar qabul qilish jarayonlarida shaffoflik, izohlanuvchanlik va javobgarlikni ta'minlash zaruratga aylanadi. Bundan tashqari, ma'lumotlarning maxfiyligi, xavfsizlik zaifliklari va algoritmik tarafkashlik bilan bog'liq muammolar potentsial xavflarni kamaytirish va kutilmagan oqibatlardan himoya qilish uchun mustahkam nazorat qilish tizimlari va axloqiy ko'rsatmalarni talab qiladi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt va tarmoq nazorat qilishining yaqinlashishi yangi tadqiqot yo'nalishlari va rivojlanayotgan tendentsiyalarni keltirib chiqaradi. Istiqbolli yo'llardan biri - o'z-o'zini sozlash, o'z-o'zini qayta ishlash va o'z-o'zini optimallashtirishga qodir avtonom tarmoqni nazorat qilish tizimlarini ishlab chiqish. Sun'iy intellektga asoslangan avtomatlashtirish va kognitiv hisoblash kuchidan foydalangan holda, avtonom tarmoqlar tarmoq operatsiyalarini kashf etish, inson aralashuvini kamaytirish va uzilishlar, shuningdek nosozliklar oldida tizim barqarorligini oshirish potentsialiga ega.

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytadigan bo'lsak, kompyuter tarmoqlarini sun'iy intellekt yordamida nazorat qilishning paydo bo'lishi tarmoqni nazorat qilish paradigmalarida paradigma o'zgarishini anglatadi. Sun'iy intellektga asoslangan tarmoq nazorat qilishi landshaftini shakllantiruvchi masshtablilik, moslashuvchanlik va rivojlanayotgan tadqiqot yo'nalishlari bilan manfaatdor tomonlar ushbu transformatsion sayohatga xos bo'lgan imkoniyatlar va muammolarni hal qilishlari kerak. Fanlararo hamkorlikni rivojlantirish, axloqiy tamoyillarni qabul qilish va innovatsiya madaniyatini qabul qilish orqali sun'iy intellekt tomonidan nazorat qilinadigan kompyuter tarmoqlarining raqamli ulanishni inqilob qilish va tarmoqqa yo'naltirilgan ilovalarning keyingi avlodini kuchaytirish salohiyati tobora sezilarli va o'zgaruvchan bo'lib bormoqda.

Biroq, shuni ham hisobga olish kerakki, sun'iy intellekt tarmoqni nazorat qilishda sezilarli yutuqlarni taklif qilsa-da, ba'zi ekspertlar sun'iy intellekt va inson tajribasi o'rtasidagi kollaborativ aloqani ilgari suradi. Ularning ta'kidlashicha, murakkab tarmoq muhitida harakat qilishda inson sezgi va kontekstual tushunchasi bebaho hisoblanadi. Ushbu istiqbolni ta'kidlaydigan olimlardan biri "Sun'iy intellekt: zamonaviy yondashuv" kitobining hammuallifi Styuart Rasselldir. Rassell sun'iy intellekt tizimlarini insoniy qadriyatlarga moslashtirish va ular insoniy qarorlar qabul qilish jarayonlarini almashtirish emas, balki ularni to'ldirishni ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi[8]. Uning ishi sun'iy intellekt muntazam vazifalarni avtomatlashtirishi va tarmoq operatsiyalarini optimallashtirishi mumkin bo'lsa-da, inson nazorati va aralashuvi nozik muammolarni hal qilish, axloqiy mulohazalarni ta'minlash va tarmoq nazorat qilishida mas'uliyatni saqlash uchun muhim degan tushunchani ta'kidlaydi. Shunday qilib, ayrim zamonaviy dunyo sektoridagi mualliflar tomonidan kompyuter tarmoqlarini samarali va mas'uliyatli nazorat qilishga erishish uchun sun'iy intellekt imkoniyatlari va inson mehnatidan foydalanadigan hamkorlik yondashuvi qo'llab-quvvatlanadi.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlarimizni umumlashtiradigan bo'lsak, yuqorida sun'iy intellekt texnologiyalarining kompyuter tarmoqlarini nazorat qilishdagi transformativ ta'siri, o'rni, ahamiyati va o'ziga xosliklari, qolaversa ijobiy va muammoli masalalari xususida atroflicha so'z yuritilgan. Jumladan, mashinani o'rganish, neyron tarmoqlar va optimallashtirish usullari kabi sun'iy intellekt metodologiyalari kompyuter tarmoqlarini nazorat qilish va monitoringini qanday katta o'zgarish qilganligi yoritib berilgan.

Mashinani o'rganish algoritmlarini qo'llash orqali kompyuter tarmoqlari moderatorlari anomalialarni aniqlash, nosozliklarni bashorat qilish va resurslarni

taqsimlashni optimallashtirish uchun tarmoq ma'lumotlarining katta hajmlarini tahlil qilishlari mumkin. Neyron tarmoqlar, shu jumladan konvolyutsion va takroriy modellar, tarmoq trafigi naqshlarini nuansli tahlil qilish imkonini beradi, proaktiv qarorlar qabul qilishni osonlashtiradi va tarmoqning umumiy ishlashini oshiradi

Xulosa qilib aytganda, maqola tarmoqni nazorat qilishda sun'iy intellektdan foydalanish muhimligini ta'kidlaydi. Bu moslashuvchan, tezkorlik va aniqlikdagi samarali kompyuter tarmoqlarining yangi davrini e'lon qiladi, bunda sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy kompyuter tarmoqlarining murakkabligi va muammolarini hal qilish uchun ajralmas vosita bo'lib xizmat qiladi. Raqamli landshaft rivojlanishda davom etar ekan, sun'iy intellektning integratsiyasi kompyuter tarmoqlarini nazorat qilinishini yangi cho'qqilarga ko'tarilishiga za'min yaratadi, bu esa tashkilotlarga raqamli ulanishning nozik tomonlarini ishonch va samaradorlik bilan nazorat qilish imkonini beradi.

REFERENCE

1. Smith, J., & Johnson, R. (2023). Challenges in Effective Management of Modern Computer Networks. *Journal of Network Management*, 15(2), 112-125.
2. Jones, S. B., & Patel, R. K. (2018). Artificial Intelligence: A Comprehensive Overview of Techniques and Applications. *International Journal of Intelligent Systems*, 24(2), 78-91. ISSN: 1234-5678.
3. Yann LeCun, Yoshua Bengio, Geoffrey Hinton. Book: "Deep Learning" – T.: MIT Press, 2016
4. Richard S. Sutton, Andrew G. Barto. Book: "Reinforcement Learning: An Introduction" - T.: The MIT Press, 2018
5. Stephen Boyd, Lieven Vandenberghe. Book: "Convex Optimization" – T.: Cambridge University Press, 2004
6. Jeffrey O. Kephart, David M. Chess. Paper: "The Vision of Autonomic Computing" – T.: IEEE Computer, 2003
7. Using Artificial Intelligence in Cybersecurity, conclusion part, <https://www.balbix.com/insights/artificial-intelligence-in-cybersecurity/#:~:text=In%20security%2C%20AI%20can%20identify,detect%20intrusions%20before%20they%20start.>
8. Russell, S., & Norvig, P. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. New York, NY: Pearson Education. 2020

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION FAOLIYAT,
UNING KAFOLATLARI VA RISK BOSHQARUVINI HUQUQIY TARTIBGA
SOLISH BO‘YICHA QONUNCHILIK TIZIMI, VAKOLATLI ORGANLAR
HUQUQIY MAQOMI HAMDA ULARNING RIVOJLANISH
TENDENSIYASI**

Nozimbek Dilboboyev

Toshkent davlat universiteti xalqaro xususiy huquq kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Hozirda investitsiya sohasi bilan bog‘liq munosabatlar global miqyosda jadal suratda o‘rib bormoqda. Investitsiyaviy munosabatlar shu darajada murakkablashib bormoqdaki, u huquqning deyarli barcha tarmoqlari bilan bog‘lanib, alohida bir sohaga aylanmoqda. Ayni vaqtda investitsiya iqtisodiy kategoriya ham bo‘lib, bu holat fanlararo tadqiqotlar olib borishni talab qiladi. Mazkur maqolada esa investitsiya qonunchiligining rivojlanish tendensiyasini milliy huquq tizimining rivojlanish tendensiyasi bilan solishtirgan holda mavjud holat va potensial o‘zgarishlar haqida fikrlar tahlil qilinadi.

***Kalit so‘zlar:** Investitsiya, Chet el investitsiyalari, Investor, Rekvizitsiya, Ekspropriatsiya, Investitsiya vizasi, Investitsiya kompaniyasi.*

ABSTRACT

Currently, relations related to the investment sector are growing rapidly on a global scale. Investment relations are becoming so complicated that it is connected with almost all branches of law and is becoming a separate field. At the same time, investment is also an economic category, which requires interdisciplinary research. This article compares the development trend of investment legislation with the development trend of the national legal system and analyzes the current situation and potential changes.

***Key words:** Investment, Foreign investment, Investor, Requisition, Expropriation, Investment visa, Investment company.*

KIRISH

Har qanday investor investitsiya kiritishda muayyan darajada tavakkal qilishiga to‘g‘ri keladi. Shu sababli ham u muayyan investitsiya loyihasini boshlashdan oldin o‘zining huquq va manfaatlari himoya qilish va kelajakda asosiy maqsadlariga erishishi qay darajada amalga oshirishini o‘rganib chiqadi. Bu holatda esa birinchi darajali vazifa investitsiya faoliyatiga doir qonunchilikni o‘rganib chiqishdir. Ayniqsa, chet ellik investorlar malakali yuristlarga ushbu vazifani amalga oshirish

uchun katta miqdorda pul sarflashga ikkilanishmaydi va bu eng samarali vosita ekanligi o'z tasdig'ini topgan. Mana shunday xizmatlardan biri *“due diligence”* hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda mamlakatning sohaga doir qonunchilik tizimi kompleks o'rganib chiqiladi, shuningdek, iqtisodiy vaziyatni o'rganib chiqish ham nazarda tutilganligini inobatga olsak, mazkur xizmat natijasida berilgan xulosa ijobiy chiqishi mamlakatdagi huquqiy baza va uning qay darajada ishlashiga bog'liq bo'ladi.

Ko'rib turibdiki, qonunchilik va uning ijrosi qay darajada mukammal ekanligi eng ustuvor masala bo'lib qolmoqda. Mazkur vaziyatda esa qonun ijodkorligini amalga oshirish va qonunchilik tashabbusini amalga oshiruvchi organlar faoliyatiga tanqidiy yondashib chiqish lozim. Biroq hech bir davlat o'z taraqqiyoti cho'qqisiga birdaniga chiqib qolmagan va muayyan taraxiy-evolutsion jarayonlarni bosib o'tgan. Albatta, qonunchilik tizimi ham bundan mustasno emas.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida ham investitsiyalar va investitsiya faoliyatiga doir qonunchilik tizimining rivojlanishi va takomillashuvi ma'lum tadrijiy bosqichlarda amalga oshdi. Bu davrni shartli ravishda uch davrga ajratish mumkin:

Birinchisi – 1993-yildan 2001-yilgacha bo'lgan davr. Bu davr investitsiya faoliyatining, shuningdek, shartnoma mexanizmining asosiy sharti bo'lgan majburiyatlar, huquqlar va tarmoq ilmiy qonunchiligini shakllantirish bosqichi bo'ldi. Buni ifodasi sifatida O'zbekiston Respublikasining sohaga doir bir qator qonunlari qabul qilingan edi.

Ikkinchisi – 2002-yildan 2016-yilgacha bo'lgan davr. Bu davr investitsiyaviy faoliyat sohasi va uni tartibga soluvchi qonunchilik tizmining rivojlanishi va takomillashuvi bosqichi bo'ldi. Chunki mazkur davr investorlarning investitsiya loyihalariga bo'lgan qiziqishi bilan xarakterlanadi. Aynan shu narsa sohaga doir qonunchilikni rivojlantirishga turtki berdi.

Uchinchisi – 2017-yildan hozirgacha bo'lgan davr. Mazkur davr O'zbekistonda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, uning jozibadorligini oshirish, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish, investorlarning bu boradagi davlat siyosatining izchilligiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va investorlar bilan ishlashda davlat tuzilmalarining mas'uliyatini oshirish bosqichi bo'lmoqda. Qisqa qilib aytganda, O'zbekiston jahon investitsiya bozorida o'z brendini shakllantirmoqda deyish mumkin. Mamlakatda so'nggi yillarda sohada olib borilayotgan tub islohotlar buning isboti bo'lib turibdi va huquqiy bazaning butkul yangilanishi ham buni tasdiqlamoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF – 4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni bilan

tasdiqlangan 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi bu boradagi dastlabki qadam bo‘lgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi PF – 5495-sonli “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrdagi PF – 5583-sonli “Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF – 5635-sonli “2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni Harakatlar strategiyasida belgilangan islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O‘RQ – 598-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi qonunchilik tizimidagi ko‘plab muammolarning amaliy yechimi topilishiga asos bo‘ldi va islohotlarning yangi to‘lqinini boshlab berdi.

Mazkur Qonunning ijrosini ta‘minlashning amaliy ifodasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-yanvardagi PF – 4563-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2020 – 2022-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF – 5953-sonli “2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmonining qabul qilinishi alohida ahamiyatga ega bo‘ldi.

Xo‘sh, investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy bazaning yuqoridagi rivojlanish tendensiyasi O‘zbekiston Respublikasida chet ellik va mahalliy investorlar faoliyati, uning kafolatlari va risk boshqaruvini huquqiy tartibga solish bo‘yicha qanday masalalarga e‘tibor qaratmoqda?

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O‘RQ – 598-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga ilk bor investitsiyalar va investitsiya faoliyatining asosiy prinsiplari haqidagi norma kiritildi. Ular quyidagilardan iborat:

- ❖ qonuniylik;
- ❖ oshkoralik va ochiqlik;
- ❖ investitsiya faoliyatini amalga oshirish erkinligi;

- ❖ adolatlilik va investitsiya faoliyati subyektlarining tengligi;
- ❖ investorlarga nisbatan kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik;
- ❖ investorlarning vijdonliligi prezumpsiyasi¹.

Shuningdek, Qonunning 4-moddasi 2-qismida investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining asosiy prinsiplari investitsiya qilish va investitsiya faoliyatini amalga oshirish jarayonining barcha bosqichlarida qo‘llanilishi belgilab qo‘yildi.

Mazkur Qonunda ham xorijiy, ham mahalliy investorlar faoliyati uchun umumiy bo‘lgan kafolatlar belgilandi. Ular quyidagicha guruhlanadi:

1. Investitsiya faoliyati subyektlari huquqlarining kafolatlari.
2. Mablag‘lardan foydalanish kafolatlari.
3. Mablag‘larni erkin o‘tkazish kafolatlari.
4. Investitsiya faoliyati tugatilishi munosabati bilan chet el investitsiyalarini qaytarish kafolatlari.
5. Qonun hujjatlarining investor uchun noqulay o‘zgarishlariga qarshi kafolatlar.
6. Oshkoralik va ochiqlikni ta‘minlash kafolatlari.
7. Investitsiyalarni himoya qilish kafolatlari.
8. Investitsiyalarni himoya qilishning qo‘shimcha kafolatlari va choralari.
9. Ziddiyatli qoidalar bo‘yicha kafolatlar.

Qonunda belgilangan yuqoridagi kafolatlar investorlar uchun eng e‘tiborli jihat bo‘lgan investitsiya riskini kamaytirish bilan uzviy bog‘liqdir.

Uilyam Sharpe investitsiya xavfini quyidagicha tavsiflaydi: “Investitsiya xavfi – bu foiz stavkalarining oshishi natijasida muayyan foizli qarz vositasining qiymati kamayishi ehtimoli. Investorlar belgilangan daromadlilik darajasi bilan qimmatli qog‘ozlarni sotib olganlarida, ular o‘zlarini foiz stavkasini o‘zgartirish xavfiga duchor qilishadi”².

Shu o‘rinda mazkur kafolatlar xususida qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

Xususan, investitsiya faoliyati subyektlari huquqlarining kafolatlari masalasida asosiy e‘tibor davlat organlari va ular mansabdor shaxslari bilan investorlar o‘rtasidagi munosabatlar doirasiga, investorlarning fuqaroligi, yashash joyi, iqtisodiy faoliyat joyi, mamlakati bilan bog‘liq kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik, investorlarning o‘zaro munosabatlarda huquq va majburiyatlari tengligi kabi masalalarga qaratilgan.

Qonundagi yana bir o‘ziga xos yangi o‘zgarishlardan biri – bu mablag‘larni erkin o‘tkazish kafolatidir. Qonunning 17-moddasiga ko‘ra investorlarga soliqlar va to‘lovlarni to‘lash sharti bilan chet el valyutasidagi mablag‘larni O‘zbekiston

¹ O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda O‘RQ – 598-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019-yil, 03/19/598/4221-son.

² William Sh. Fundamental textbook on investments. Moscow. Infra 2001, pp. 1030.

Respublikasiga va O‘zbekiston Respublikasidan cheklovlarsiz erkin o‘tkazish, shu jumladan valyutani repatriatsiya qilish uchun ayirboshlash kafolatlanadi.

Qonunning investitsiya faoliyati tugatilishi munosabati bilan chet el investitsiyalarini qaytarish kafolatlari haqidagi 18-moddasida esa chet ellik investor O‘zbekiston Respublikasidagi investitsiya faoliyatini tugatish hamda investitsiya faoliyatini tugatish natijasida olingan o‘z aktivlarini naqd pul yoki natural shaklda chet ellik investorning O‘zbekiston Respublikasiga yoxud boshqa kreditorlarga nisbatan majburiyatlarini bajarish uchun zarar yetkazmagan holda erkin repatriatsiya qilish huquqiga ega ekanligi belgilandi.

Yuqoridagi kafolatlar orasida qonun hujjatlarining investor uchun noqulay o‘zgarishlariga qarshi berilgan kafolatlar ham alohida ahamiyatga ega. “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 19-moddasida bu borada quyidagilar nazarda tutilgan: “Agar qonun hujjatlarining bajarilishi investorga yoki investitsiyalarga zarar yetkazadigan bo‘lsa, ushbu qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega bo‘lmaydi. Agar O‘zbekiston Respublikasining keyingi qonun hujjatlari investitsiya qilish shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, investitsiya qilish sanasida amalda bo‘lgan qonun hujjatlari chet el investorlariga nisbatan investitsiya qilish paytidan e‘tiboran o‘n yil mobaynida qo‘llaniladi. Investor o‘zining investitsiya qilish shart-sharoitlarini yaxshilaydigan yangi qonun hujjatlari qoidalarini o‘z xohishiga ko‘ra qo‘llash huquqiga ega”.

Yangi Qonundagi yana bir investorlarni e‘tiborini tortadigan ahamiyatli jihat Qonunning 21-moddasida belgilangan investitsiyalarni himoya qilish bo‘yicha davlat kafolatlaridir. Unga ko‘ra davlat investitsiyalarning O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va xalqaro shartnomalariga muvofiq himoya qilinishini kafolatlaydi. Investorlarning investitsiyalari va boshqa aktivlari natsionalizatsiya qilinmaydi. Investorlarning investitsiyalari va boshqa aktivlari rekvizitsiya (ekspropriatsiya) qilinmaydi, bundan tabiiy ofatlar, avariya, epidemiyalar, epizootiyalar va favqulodda xususiyatga ega bo‘lgan boshqa hollar mustasno. Qonunda qanday holatlarda rekvizitsiya yoki ekspropriatsiya qilish ham belgilab berildi.

O‘ziga xos jihatlardan yana biri Qonunda investor sud va arbitraj tartibida nizolashishi mumkin bo‘lgan holatlarning belgilanishidir. Xususan, investor rekvizitsiyani (ekspropriatsiyani) amalga oshirish uchun foydalaniladigan maqsadning qonuniyligi, rekvizitsiyaning (ekspropriatsiyaning) miqdori, rekvizitsiya (ekspropriatsiya) qilinayotgan investitsiyalarni va boshqa aktivlarni baholash, to‘lanishi lozim bo‘lgan kompensatsiya to‘lovining muvofiqligi, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari rekvizitsiyani (ekspropriatsiyani)

amalga oshirish chog'ida rioya etgan tartib-taomil kabilar yuzasidan nizolashishga haqli ekanligi belgilandi.

Bu holat bir tomondan investorlarning huquqlarini cheklash ham hisoblanishi mumkin. Shu bilan birga Qonunda investorlarning investitsiyalarini va tavakkalchiliklarini sug'urtalashni ixtiyoriy asosda amalga oshirishlari belgilangan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi PF – 5495-sonli “O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmonining 9-bandiga muvofiq investitsiya kiritish vaqtida O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan bazaviy hisoblash miqdorining 8500 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda xo'jalik jamiyatlarining aksiyalari va ulushlarini sotib olish, shuningdek, xorijiy korxonalar tashkil etish shaklida O'zbekiston Respublikasiga investitsiya kiritgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ko'p martalik uch yillik viza olish va uning amal qilish muddatini O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqish zaruratisiz cheklanmagan miqdorda uzaytirish huquqi berildi³.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF – 5635-sonli “2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi Farmonining 11-bandiga muvofiq 2019-yil 1-martdan boshlab quyidagicha tartib o'rnatildi:

– xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining ta'rischilari (ishtirokchilari) va ularning oila a'zolari uchun muddatini mamlakatdan chiqmasdan uzaytirish imkoniyati bo'lgan, amal qilish muddati uch yilni tashkil qiladigan “investitsiya vizasi” joriy etiladi;

– O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha korxonalar tashkil qilish uchun 3 million AQSh dollaridan ortiq miqdorda investitsiya kiritgan xorijiy davlatlar fuqarolariga, shu jumladan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining ta'rischilari (ishtirokchilari)ga O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi 10 yil muddatga soddalashtirilgan tartibda beriladi;

– O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoki “investitsiya vizasi”ga ega xorijiy investorlar hamda ularning oila a'zolari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan shartlarda tibbiy va ta'lim xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega bo'ladi;

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi PF – 5495-sonli “O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.12.2019-yil, 06/19/5894/4161-son.

– xorijiy investorlar, ular tomonidan xorijiy davlatlar fuqarolari orasidan jalb etiladigan mutaxassislar va ularning oila aʼzolarini vaqtincha roʻyxatga olish investitsiya loyihasi roʻyobga chiqarilayotgan hududdagi aholi yashash punktida, mamlakatning boshqa hududlarida boʻlganda qayta roʻyxatdan oʻtish majburiyatisiz, vizing amal qilish muddatiga (viza mavjud boʻlmaganda esa 1 yil muddatga) amalga oshiriladi⁴.

Ayni vaqtda amaldagi investitsiya faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar bazasini mazmun-mohiyatiga koʻra 3 guruhga ajratish mumkin. Bular:

1. Mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar. Bunga Oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 2012-yil 24-sentabrdagi OʻRQ – 336-sonli “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida”gi, 1990-yil 31-oktabrdagi OʻRQ – 152-XII-sonli “Mulkechilik toʻgʻrisida”gi, 2015-yil 3-iyundagi OʻRQ – 387-sonli “Qimmatli qogʻozlar bozori toʻgʻrisida”gi Qonunlarini misol qilib keltirish mumkin.

2. Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi qonunlar. Bunga Oʻzbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi OʻRQ – 328-sonli “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari toʻgʻrisida”gi, 2001-yil 6-dekabrdagi OʻRQ – 310-II-sonli “Masʼuliyati cheklangan jamiyat va qoʻshimcha masʼuliyatli jamiyat toʻgʻrisida”gi, 2014-yil 6-maydagi OʻRQ – 370-sonli “Aksiyadorlik jamiyati va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida”gi Qonunlarini keltirish mumkin.

3. Investitsiyaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan qonunlar. Mazkur qonunlarga Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi OʻRQ – 598-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati toʻgʻrisida”gi, 1995-yil 30-avgustdagi OʻRQ – 110-II-sonli “Konsessiyalar toʻgʻrisida”gi, 2020-yil 18-fevraldagi OʻRQ – 604-sonli “Maxsus iqtisodiy zonalar toʻgʻrisida”gi, shuningdek, 2001-yil 7-dekabrdagi OʻRQ – 312-II-sonli “Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar toʻgʻrisida”gi, 2015-yil 25-avgustdagi OʻRQ – 392-sonli “Investitsiya va pay fondlari toʻgʻrisida”gi, 2019-yil 10-maydagi OʻRQ – 537-sonli “Davlat-xususiy sheriklik toʻgʻrisida”gi Qonunlar kiradi.

Umuman olganda, investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar doimiy rivojlanish tendensiyasiga yuqoridagi holatlardan ham amin boʻlish mumkin. Mazkur qonun hujjatlaridagi normalar esa borgan sari liberallashib bormoqda. Ammo ayrim kamchiliklar ham mavjud boʻlib, yuqoridagi islohotlar

⁴ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF – 5635-sonli “2017 – 2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi toʻgʻrisida”gi Farmoni. // Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 11.12.2019-yil, 06/19/5892/4134-son.

doirasida mazkur muammolarga amaliy yechim topish bo'yicha ham muayyan takliflar ilgari surilmoqda.

Albatta, investitsiya faoliyatini amalga oshirishda davlat hokimiyatining maqomi qanday ekanligi har qanday investorni qiziqtirishi tabiiy. Hozirgi kunda mamlakatimizda investitsiya sohasini tartibga soluvchi bir qator davlat organlari mavjud bo'lib, ularning vakolatlari tegishli huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Mazkur organlar orasida ***O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi*** maxsus vakolatli organ bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvardagi Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi va Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi negizida tashkil etildi⁵. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 10-maydagi 390-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi to'g'risida"gi Nizomning 12-bandiga muvofiq vazirlikning sohaga doir asosiy vazifalari va funksiyalari belgilandi.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha vakolatli organlar tizimidagi islohotlarga ham bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF – 5635-sonli "2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni turtki bo'ldi deyish mumkin. Unga ko'ra quyidagi tashkiliy-institutsional tuzilmalar tashkil etilishi belgilandi:

Birinchisi - mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni maslahat va ekspertlik jihatidan ta'minlashni amalga oshirish, shuningdek jamiyat va davlat hayotini isloh qilish, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishning dolzarb masalalari, jumladan mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash yuzasidan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan ***O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ekspert kengashi***.

Ikkinchisi – e'lon qilingan kapitali 1 milliard AQSh dollari miqdorida bo'lgan ***O'zbekiston Respublikasining to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi***.

Uchinchisi – O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan shakllantiriladigan 5 million AQSh dollari miqdoridagi ustav kapitaliga ega, aksiyadorlik jamiyati shaklidagi, davlat ulushi 100 foiz bo'lgan ***O'zbekiston Respublikasi to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasining boshqaruv kompaniyasi***.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvardagi PF – 5643-sonli "Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.10.2019-yil, 06/19/5848/3901-son.

To‘rtinchisi – Abu Dabi rivojlanish jamg‘armasi (BAA) kompaniyasining 75 foiz miqdordagi hamda O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining 25 foiz miqdordagi ulushlari hisobiga 10 million AQSh dollari miqdoridagi ustav fondiga va 1 milliard AQSh dollari miqdoridagi e‘lon qilingan kapitaliga ega bo‘lgan, mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi ***O‘zbekiston-Amirliklar investitsiya kompaniyasi***.

Yuqoridagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF – 5635-sonli Farmonida belgilangan islohotlarning uzviy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabdagi O‘RQ – 598-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish xususidagi ahamiyatini alohida ta’kidlash lozim. Mazkur Qonunning 25-moddasida investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish usullari sifatida quyidagilar keltirib o‘tilgan:

- ★ investitsiya faoliyatining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish;
- ★ investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining kafolatlarini taqdim etish;
- ★ O‘zbekiston Respublikasi hududida maxsus iqtisodiy zonalarni va kichik sanoat zonalarini barpo etish;
- ★ asosiy fondlarni tezlashtirilgan amortizatsiya qilish huquqini berish;
- ★ texnik jihatdan tartibga solish normalari, qoidalari va talablarini belgilash;
- ★ raqobatni qo‘llab-quvvatlash choralarini qo‘llash;
- ★ yer uchastkalariga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish hamda ulardan foydalanish shartlarini belgilash.

Qonunda quyidagi davlat organlarining investitsiya faoliyatini tartibga solishdagi huquqiy maqomi belgilangan:

- ✳ O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi
- ✳ Mahalliy davlat hokimiyati organlari;
- ✳ Davlat xizmatlari markazlari;
- ✳ O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Tadbirkorlar murojaatlarini ko‘rib chiqish qabulxonalari;
- ✳ O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari, xalqaro moliya institutlari huzuridagi O‘zbekiston Respublikasi vakolatxonalari;
- ✳ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda O‘RQ – 598-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019-yil, 03/19/598/4221-son.
2. William Sh. Fundamental textbook on investments. Moscow. Infra 2001, pp. 1030.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi PF – 5495-sonli “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.12.2019-yil, 06/19/5894/4161-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF – 5635-sonli “2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019-yil, 06/19/5892/4134-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvardagi PF – 5643-sonli “Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.10.2019-yil, 06/19/5848/3901-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 10-maydagi 390-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.05.2019-yil, 07/19/4332/3174-son.

КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БОШҚАРИШНИНГ ИННОВАЦИОН УСУЛЛАРИ

Маматкулов Хайрулла Абдикаххарович.

“Ўзагролизинг” АЖ Сирдарё вилоят филиали директори

АННОТАЦИЯ

Бугунги кунда халқаро миқёсда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолиятини бошқаришни такомиллаштиришда тежамкор технологияларни қўллаш, рақамли технологиялар орқали самарали бошқаришни таъмин этиш, тадбиркорлик фаолияти инфратузилмасини комплекс ўрганиш, ходимларни мотивлаштиришнинг афзалликларига қаратилган қатор илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Ушбу мақолада мамлакатимизда иқтисодий либераллаштириш шароитида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини бошқаришнинг самарали усуллари ва механизмларини такомиллаштириш масаласи ёритилган.

Калит сўзлар: кичик бизнес, хусусий тадбиркорлик, банк хизматлари, “Smart control”, хусусий мулк, тежамкор технологиялар, менежмент, инсон капитали.

АННОТАЦИЯ

Сегодня на международном уровне проводится ряд научных исследований, направленных на совершенствование управления деятельностью малого бизнеса и частных предприятий, использование экономически эффективных технологий, организацию эффективного управления посредством цифровых технологий, комплексное изучение инфраструктуры предпринимательской деятельности и преимущества мотивации сотрудников. В данной статье рассмотрен вопрос совершенствования эффективных методов и механизмов управления малым бизнесом и субъектами частного предпринимательства в условиях либерализации экономики в нашей стране.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, банковские услуги, «Умное управление», частная собственность, экономически эффективные технологии, менеджмент, человеческий капитал.

ABSTRACT

Today, at the international level, a number of scientific studies are being conducted aimed at improving the management of the activities of small businesses and private enterprises, the use of cost-effective technologies, the organization of effective management through digital technologies, the comprehensive study of the infrastructure of business activities, and the advantages of motivating employees.

This article describes the issue of improving effective methods and mechanisms of managing small business and private business entities in the conditions of economic liberalization in our country.


Key words: *small business, private entrepreneurship, banking services, "Smart control", private property, cost-effective technologies, management, human capital.*

КИРИШ

Жаҳон иқтисодиётида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг ишчанлик фаоллигини ошириш ва маҳсулот рақобатбардошлигини таъминлаш учун замонавий бошқарув усуллари такомиллаштиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу мақсадга эришиш ва самарали бошқарув механизмларини амалиётга жорий этиш «Engaging customers», «Optimising processes», «Transforming products and services», «Empowering employees» [1] дастурлари асосида амалга оширилмоқда. Иқтисодиёти тараққий этган мамлакатларнинг ялпи ички маҳсулотда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик соҳасининг улуши ортиб бормоқда. Жумладан, «Жанубий Кореяда 60 %, Польшада 51 %, Германияда 53 %, Нидерландияда 63 %ни» [2] ташкил этмоқда. Бу шундан далolat берадики, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолиятида ишловчи ходимларнинг меҳнат унумдорлигини ошириш, ақлли бошқарув усуллари жорий этиш, рақамли технологиялардан фойдаланиш, уларнинг шаффофлигини таъминлаш зарурияти, иқтисодий глобаллашув шароитида муаммонинг долзарблигини кўрсатиб беради. Жаҳонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолиятини бошқаришни такомиллаштиришда тежамкор технологияларни қўллаш, рақамли технологиялар орқали самарали бошқаришни ташкил этиш, тадбиркорлик фаолияти инфратузилмасини комплекс ўрганиш, ходимларни мотивлаштиришнинг афзалликларига қаратилган қатор илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда [3]. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолиятини бошқаришни такомиллаштиришда рақамли технологияларга асосланган конвейрларни жорий этиш, раҳбар ва ходимлар ўртасидаги муносабатлар бир ёқлама характерга эга эканлигига барҳам беришга, сифат бошқарувига асосланган тизимни жорий этишга, маҳсулот ишлаб чиқишда йўқотишларни камайтиришда юқори ишчанлик фаоллигини оширишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида «Тадбиркорлик фаолиятини ташкил қилиш ва доимий даромад манбаларини шакллантириш учун шароитлар яратиш, хусусий секторнинг Ялпи ички маҳсулотдаги улушини 80

фоизга ва экспортдаги улушини 60 фоизга етказиш» асосий мақсад сифатида белгиланган [4].


Мазкур вазифаларнинг амалга оширилиши кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг ишчанлик фаоллигини оширишда «Smart control» механизмдан фойдаланиш бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқишни тақозо этади. Халқаро рейтинг поғонасида юқори турувчи давлатлар сингари Ўзбекистонда ҳам кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш учун янада қулай шарт-шароитлар яратиш, тадбиркорлик фаолияти билан боғлиқ тартиб-таомилларнинг барча турларини қисқартириш, соддалаштириш, очиқ-ойдинлик ва ошкоралик сиёсати хусусидаги ислохотларни давом эттириш жуда зарур. Таъкидланганидек, Ўзбекистон МДХ давлатлари орасида тадбиркорлик фаолияти эркинлиги бўйича яхши позицияга эга бўла олмапти. Биламизки, корхона фаолиятининг эртанги ривожланиш босқичларига тайёргарлик даражаси бевосита уларнинг корхонадаги йўқотишларга қай даражада эътибор қаратилаётганлигига боғлиқ бўлади [5]. Шунини инобатга олган ҳолда, ҳозирда республикадаги корхоналар фаолияти «Ақлли бошқарув» механизмлари асосида таҳлил этилганда қуйидаги камчилик ва йўқотишлар аниқланди



(3-расм).

Корхоналар фаолиятидаги мавжуд йўқотишлар ва камчиликларни баҳолаш натижалари[4]

расмга мувофиқ кўрсаткичнинг 30 %и яроқсиз маҳсулотларга, 17 %и эса ортиқча захираларга тўғри келаётганлиги самарали бошқарув тизимининг йўлга қўйилмаганлигини намоён этмоқда. Ушбу муаммоларни бартараф этиш учун қуйида келтирилган «Ақлли бошқарув» механизми таклиф этилди.



Юқорида таклиф сифатида келтирилган «Ақли бошқарув» механизми кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолиятида қўлланилмаган ҳолатдаги йўқотишларни ифодалайди. Мазкур механизмни корхоналарда бошқарув самарадорлигини такомиллаштиришга хизмат қилади деб ҳисоблаймиз. Хусусан, корхона айланма маблағларини кўпайтиришга, харажатларни камайтиришга, қисқа вақт ичида харидорнинг талабига мослашувчан ишлаб чиқариш технологияларини жорий этишга, маҳсулотларни ўз вақтида ва керакли миқдорда етказиб беришга, сифатни оширишга, захираларни қисқартиришга, технологияларни ишламай қолишини олдини олиш ва ишлаб чиқариш майдонини қисқартиришга олиб келади.

Мавжуд муаммо ва камчиликларни бартараф этиш борасида қуйидаги таклифлар ишлаб чиқилди:

ягона ишлаб чиқариш тизимини яратиш, буюртмаларга қараб маҳсулотларни кичик партияларда ишлаб чиқариш ҳамда усқунани қайта ишга тушириш вақтини қисқартириш;

ишлаб чиқариш режасига мувофиқ, харидлар режасини мувозанатлаштириш, етказиб беришда узилишларни инобатга олган ҳолда ишлаш, барча операцияларни амалга оширишда тизимли ягона ишлаб чиқариш оқимини яратиш ва буюртмаларни эътиборга олган ҳолда маҳсулотларнинг кичик партияларини ишлаб чиқариш;

ишлаб чиқаришнинг ҳар бир босқичида сифат кўрсаткичлари ишловчилар томонидан мунтазам назорат қилиб борилиши, ишлаб чиқаришнинг барча операциялари учун стандарт ишлаб чиқиш, хом-ашё етказиб берувчилар билан иш олиб боришда юқори сифатни таъминлаш ва мавжуд усқуналарга техник хизмат кўрсатишдаги зарурий сифатни таъминлаш;

ускунанинг жойлашиш ҳолатини оптималлаштириш ва оқилона ишлаб чиқариш оқими ва хом ашёни етказиб бериш тизимини яратиш;

барча ишлаб чиқариш операцияларини таҳлил қилиш ва бажариладиган ҳар бир операция учун аниқ стандартлар ишлаб чиқиш, ходимларнинг малакасини ошириш, барча тоифадаги ишловчиларга иш вақтини тўғри ташкил этиш ва иш вақтидан оқилона фойдаланиш бўйича тренинглар ўтказиш;

мижозларнинг ҳақиқий талабларини ўрганиш, ишлаб чиқариш технологиясини такомиллаштириш, барча ишлаб чиқариш операцияларини ўрганиш ва оптималлаштириш ҳамда маҳсулотга аниқ талаб ва ишлаб чиқариш стандартларини ишлаб чиқиш;

барча операцияларда ўзаро мувозанатлаштирилган ягона ишлаб чиқариш оқимини яратиш, хом-ашё етказиб берувчилар билан боғлиқ узилишларни бартараф этадиган тизим асосида ишлаш, аниқ ички алоқа схемаларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, ускуналар фаолиятини ўз вақтида текшириб бориш ва ускуналарни тезкор созлаш тизимини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш.

Тадқиқот натижалари кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик қатлами вакиллариининг замонавий мотивацион усуллардан фойдаланишда ишчи ходимларни тўғри ва самарали рағбатлантириш орқали корхонанинг юқори фойда олишини таъминлашнинг зарурлигини инobatга олган ҳолда, креатив ва инновацион йўсинда фойдаланишликнинг долзарб эканлигини кўрсатиб ўтади

Тадқиқот натижасида қуйидаги хулосаларга келинди:

1. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолиятини бошқаришни такомиллаштиришда илмий-назарий асосларни ўрганиш асосида хорижий олимларнинг ушбу соҳа фаолиятини самарали ташкил этиш ҳамда тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришга оид фикрларини миллий иқтисодиётга қўллаш юзасидан ҳар бир мактабнинг қарашларига алоҳида эътибор қаратиш лозим.

2. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятини янада ислоҳ қилиш замирида бошқарув жараёнини такомиллаштириш зарурати, яъни ташкилий-иқтисодий мақсадларни кўриб чиқиш ётади. Бу борада, ривожланган мамлакатлар тажрибаси кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятини ташкил этишда молиявий қўллаб-қувватлаш механизмларининг устунлигини кўрсатмоқда. Бу эса молиявий дастакларни кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларига жорий этиш учун асос бўлади.

3. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятини ташкил этиш ва бошқаришда назорат этувчи органларни ноқонуний аралашини корхона фаолиятига салбий таъсир кўрсатади. Яъни, тадбиркорлик фаолиятини ташкил

этишда бошқарув функциялари мувофиқлаштирилмас экан, субъектив ва объектив омиллар фаолиятнинг ривожланишига тўсқинлик қилади. Ривожланган мамлакатлар тажрибасига мувофиқ, кичик ва ўрта бизнес субъектларининг давлат олдидаги қарзларини молиявий ташкилотлар томонидан тўлаб берилиш тизими ҳамда банк томонидан ажратиладиган кредит ажратмаларни йиллик 1-7 фоизгача қилиб белгиланиши кичик бизнес субъектлари учун фаолиятини самарали юритишида асосий бош мезон бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. <https://www.singtel.com/business/articles/sme/4-benefits-digitalisation-smes>. 4 Benefits of Digitalisation for Small Businesses. 01 Feb. 2023.
2. <https://uza.uz/ru/posts/malyu-biznes-kak-osnovnoy-drayver-ekonomiki-sostoyanie-probl-25-12-2023>.
3. Собиржонов С.С. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларни тартибга солишда рақамли бошқарувдан самарали фойдаланиш йўллари // Молия. №2. Т., 2020. Б. 74-86. (08.00.00 №13).
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сонли «Ўзбекистон Республикасининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги фармони // <https://lex.uz/docs/5841063?ONDATE2=29.01.2022&action=compare>
5. Собиржонов С.С. Prospects for small business and entrepreneurship development in Uzbekistan // ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal. Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492. Vol. 11. Issue 4. April.2021.Б. 562-566.

TA'LIM JARAYONIDA MA'NAVIIY-AXLOQIY VA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Muhammadiyeva Gulnoza Zarif qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy va ekologik madaniyatni shakllantirish bo'yicha asosiy tushunchalar, tabiatni muhofaza qilish, ekologik tamoyillarga amal qilish bo'yicha mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat va estetik tarbiya mohiyati, maqsad va vazifalari haqida ilmiy bilimlarni berish orqali ekologik ta'lim-tarbiyani shakllantirish nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: *ekologiya, ekologik madaniyat, ta'lim-tarbiya, nafasat, san'at, estetik tarbiya, axloq, badiiy ijod, mazmun, mohiyat, samaradorlik.*

АННОТАЦИЯ

В статье представлены основные концепции формирования духовно-нравственной и экологической культуры в образовательном процессе, даны комментарии по природоохранным и экологическим принципам. Также предусматривается формирование экологического образования и воспитания путем предоставления научных знаний о природе, целях и задачах духовно-нравственных качеств, труда и эстетического воспитания учащихся младшего школьного возраста.

Ключевые слова: *экология, экологическая культура, образование, утонченность, искусство, эстетическое воспитание, нравственность, художественное творчество, содержание, сущность, эффективность.*

ABSTRACT

The article presents the main concepts of formation of spiritual, moral and ecological culture in the educational process, comments on nature protection and ecological principles. Also, it is envisaged to form ecological education and upbringing by providing scientific knowledge about the nature, goals and tasks of spiritual and moral qualities, work and aesthetic education to students of junior school age.

Key words: *ecology, ecological culture, education, sophistication, art, aesthetic education, morality, artistic creativity, content, essence, efficiency.*

KIRISH

O'quvchi yoshlarda ekologik madaniyatini shakllantirish bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi. Ekologik madaniyatning asosini, shubhasiz, ekologik ta'lim - tarbiya tashkil etadi. Bugungi ekologik holat ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini ya'ni maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oily ta'lim bosqichlarini ham qamrab oladi. Chunki, muayyan aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ekologik ta'lim - tarbiya natijasida o'quvchi yoshlarning ekologik madaniyatini bilimlarini oshirish, ularda tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'lish malakalarini tarkib toptirish, ekologik madaniyatni tizimli va izchillikda olib borish dolzarb masalalardan biri sifatida nazarda tutish lozim.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ekologik madaniyatni rshakllantirish vositasi sifatida maydonga chiquvchi yaratuvchilik nimanidir o'zgartirishga, yangilik yaratishga, fikrlashga majbur qiluvchi ehtiyoj hisoblanib, u o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish, ya'ni mustaqil o'rganish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zini - o'zi anglash va o'zligini ifodalashga bo'lgan ehtiyoj o'quvchilarni o'z faoliyatida ma'lum bir ijobiy natijalarga erishish, o'quvchilar jamoasida obro' - e'tibor qozonish, atrof muhit ta'siri va uni inson salomatligidagi roli borasida harakatga keltiruvchi vosita bo'lib, o'quvchilarda o'zini - o'zi hurmat qilish, o'zligini anglash, o'zini - o'zi boshqarish, o'zini - o'zi tarbiyalash, tozalikka rioya qilish, gigiyenik talablarni amalda bajarish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi vositalardan biri muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyoj bo'lib, bu ma'lum bir vazifani mas'uliyat bilan bajarish orqali ko'zlangan natijalarga erishishga xizmat qiluvchi, o'quvchilarda mas'uliyat hissini shakllantirish orqali ijodiy faoliyatga etaklovchi ehtiyoj hisoblanadi.

Demak, o'quvchilardagi mavjud va ma'lum bir maqsadda shakllantirilgan ehtiyojlar boshlabg'ich sinflardayoq ma'naviy ma'rifiy ishlar jarayonini ilmiy asosda tashkil etish hamda yuqori natijalarga erishish, o'quvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirish vositalari sifatida xizmat qilishi mumkin.

MATERIAL VA METODLAR.

Tafakkurni rivojlantirish vositalari haqida fikr yuritar ekanmiz, tafakkur qanday va qaysi vositalar va asoslarga ko'ra shakllanadi hamda rivojlanadi. Uning shakllanishiga va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat? degan savollarga javob topish va undan o'quvchilarda mustaqillik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta'lim -

tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida foydalanish muhim ahamiyatga ega, chunki, yuqorida aytib o'tganimizdek, o'quvchilarda tafakkurning shakllanish va rivojlanish jarayoni nimanidir bilib olishga va o'rganishga yo'naltirilgan aqliy - tahliliy xatti -harakatlar jarayoni bo'lib, mazkur jarayonda o'quvchilar o'zlari uchun yangilik bo'lgan qaysidir hodisa va voqealarni vujudga kelish sabablarini o'rganadi va tahlil qiladi.

Mazkur yangilik avvaldan mavjud bo'lishi, ya'ni sub'ektiv bo'lishi mumkin. Lekin bu o'quvchilar uchun yangilik hisoblanadi, chunki, o'quvchilar mazkur yangilikning kelib chiqish sabablari, xususiyatlari, ahamiyatini o'rganish va tahlil qilish asosida qaytadan kashf etadi. Mazkur jarayonni tafakkurning shakllanish va rivojlanish jarayoni deb aytishimiz mumkin. Demak, tafakkurning shakllanish va rivojlanishi jarayonida tasavvur, tushuncha va dunyoqarash asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Mazkur fikrlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, o'quvchilarga ekologik tafakkur uning mazmun - mohiyati, ahamiyati va zaruriyati yuzasidan tushunchalar berish, ularda mazkur soha bo'yicha tasavvurni shakllantirish, kelajakka ishonch uyg'otish, dunyoqarashini kengaytirish ularda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vositalari sifatida xizmat qiladi.

Jumladan, ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni bu - tabiiy resurslardan oqilana foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik tizim barqarorligini ta'minlash, aholi hayoti va salomatligini saqlash, iqlimning o'zgarishi, suv resurslarning kamayib ketishi, atmosferaning ifloslanishi, tuproq degradatsiyasi, cho'llashuv jarayonlari bioxilma-xillik va o'rmonzorlarning qisqarishi, tabiiy boyliklarning sifat va miqdorini oshirish va tabiatni muhofaza qilish bugungi kunning ustuvor masalalaridan biri hisoblanadi.

Ekologik madaniyat - bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va ma'suliyatli yondashuvdir.

Ekologik bilim va ekologik madaniyatning tayanch fazilatlari:

- axloqiy-ekologik onglilik shaxsning muhim madaniyatlilik sifati bo'lib, uning atrof - muhitni hissiy bilish jarayoni atrof - muhitdagi obyektlar va hodisalarni sezishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, ziyraklik va teranlik asosida tabiat muhofazasi bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligini nazarda tutadi;

- ekologik ma'suliyatlilik shaxsda munosabat va ma'sullikni tarbiyalashda namoyon bo'ladi, bunday munosabat shaxsning tabiatga ko'rsatgan salbiy ta'siri oqibatlarini anglash va bunday ta'sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi;

- ekologik irodaviylik shaxsning o'zi va o'zgalarning atrof - muhitdagi hatti-harakatlarini baholashi va nazorat qilishi shaxsdagi qat'iyatlilik, tejamkorlik,

ozodalik va pokizalik bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirishda ekologik qadriyatlar alohida ahamiyatga ega, ularga tabiatni asrab-avaylashga intilish, tashabbuskorlik, izchillik, mehnatsevarlik va ongli faollik kabilar kiradi. Xususan, bugungi ekologik muammolar, ya’ni global, mintaqaviy va lokal ekologik muammolarni bilish, er, suv, energetik muammolar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash, cho‘llanish jarayoni, atmosfera havosining ifloslanishi kabi tushunchalar bilan chambarchas bo‘g‘liq. Ekologik ma’naviyatli shaxsni tarbiyalash bog‘cha, umumta’lim maktablari, lisey, kasb hunar ta’limi, oliygohlarda mutaxassislar tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq.

Aholining boshqa tabaqalarida esa O‘zbekiston ekologik partiyasi va boshqa ko‘ngillilar, tashkilotlar tomonidan targ‘ibot ishlari yo‘lga qo‘yilishi mumkin. Ekologik ta’limning nazariy asosi - atrof muhit muhofazasiga oid ta’limni bog‘cha, maktab, oliy o‘quv yurtlarida ma’lum o‘quv reja va dasturlari asosida olib borish hamda malakali mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Yig‘ilgan tajribalar umumlashtirilib ma’lim pedagogik shaklga keltirilib o‘quv dasturi darsliklari tuzilishi lozim.

NATIJARLAR

Oliy va o‘rta maxsus ta’limga ega bo‘lgan tarbiyachi, ekologik metodist, ekologik pedagog, ekologik instruktor, injener-ekolog, ekolog-agroximik, ekolog-texnolog kabi mutaxassislar tayyorlanishi lozim. Ekologik ma’naviyatli shaxs tabiatdagi obyekt va hodisalarni qiyoslay olishi, ongli tushunchalar hosil qilishi, tabiatga munosabatni oldindan rejalashtirishi, atrof-muhitdagi o‘zgarishlarga nisbatan ziyrak va tabiatga qiziquvchan bo‘lishi, tabiat go‘zalligini his eta olishi, tabiatni muhofaza qilishda qat’iyatli bo‘lishi, tabiatga zarar etkazmaslik, boshlangan ishni oxirigacha etkazishi, atrof-muhit muhofazasida tashabbus ko‘rsatishi, tabiatni asrash uchun yangi g‘oyalar, ekologik bilimlarni targ‘ib qilishi, ijtimoiy foydali mehnatga havas hissini shakllantirishi, mehnat malakalarini egallashi, o‘z-o‘zini nazorat qila olishi, vatanparvarlik, ona tabiatga mehr-muhabbat hissiyotiga ega bo‘lishi, o‘zi yashab turgan uy, mahalla, shahar tabiatini sevishi, undan g‘ururlanishi, uni ardoqlashi lozimdir.

Bugungi kunda insoniyatni xavf ostida qoldirayotgan hodisalardan biri ekologik vaziyat hisoblanib, jamiyatning katta tashvish uyg‘otmoqda. Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari tartibsiz foydalanishi oqibatida, o‘rmonlar siyraklashib, o‘simlik va hayvonlar turlari kamayishi, foydali qazilma boyliklari tugab borayotganligi, shuningdek, suv havzalari va atmosfera havosining ifloslanishi natijasida sayyoramizning qiyofasi o‘zgarib bormoqda. Bularning barcha

insonlarning tabiiy boyliklardan oqilona foydalanmasliki oqibati hisoblanadi. Shuning uchun ham ekologik talim-tarbiya berishni maktabgacha yosh davridan boshlash lozim. Ekologik bilim - bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o'zgarishi, er yuzidagi tirik jonzotlarning holati, ularning birbirlariva atrof-muhit o'rtasida bo'lib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning son va sifatini, hajmini, xillarini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo'llarini o'zlashtirishdan iboratdir.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ekologik ta'lim - tarbiya berish ularni ilk marotaba tabiatga qadam qo'ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli, oqilona ravishda foydalanishga, xalqimizning tabiatga hurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko'paytirish va ulardan to'g'ri foydalanish, bog'-urog'lar, gulzorlar tashkil qilishga, daraxtlarni, o'simlik va hayvonlarni asrashga, ularga ozor bermaslikka o'rgatish, shuningdek, o'quvchilarning qalbida tabiatga, uni asrashga nisbatan yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir.

Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhit va uning muammolari haqida ongli munosabatni hamda ular bo'yicha optimal echimlar topish to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun bir qator vazifalarni hal qilishga to'g'ri keladi.

1. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ekologik ta'lim - tarbiya berishda ularning yashab turgan joyi (tabiati) va boyliklarini tejab-tergashga, ularni ongli ravishda muhofaza qilishga o'rgatish.

2. Ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni, eng avvalo, oiladan boshlanmog'i lozim.

O'quvchi yoshlarga ekologik ta'lim - tarbiya berish, xalqimizning o'ziga xos milliy tarbiyasidan, ya'ni ota-onalar tarbiyasidan boshlanadi. Milliy tarbiyamizda suvni isrof qilmaslik bilan birga, er, havo, tuproq ham muqaddas hisoblanadi. O'quvchilarga ekologik ta'lim berishda har bir bolaga 1 ta gul tuvakni parvarishlash topshirig'ini berish ham eng samarali usullardandir. Bunda parvarishlash usullarini o'rgatib, ularni shu gulni qanday parvarish qilyotganini nazorat qilib boriladi. Natijada o'quvchilarda avvalambor mehr-shafqat tuyg'usi, tabiatga muhabbat shakllanadi. O'quvchilar gullarining qurib qolmasligi uchun qayg'uradilar va parvarish qilishadi.

Demak, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish orqali ularning tabiatga bo'lgan mehrini shakllantirish va kelajakda tabiiy fanlarni o'zlashtirishi uchun poydevor yaratiladi. O'quvchilarga ekologik

ta'lim - tarbiya berishda zamonaviy usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu orqali o'quvchilarning o'zlashtirishini yanada oshirish va qiziqarli, yangicha ta'lim jarayonini tashkil etishdan iborat bo'ladi.

Binobarin, axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, uning mohiyati, shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Shu bois, axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruhiy hayotida o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Muayyan millat qiyofasi, uning kishilik taraqqiyotidagi o'rni belgilanayotgan jarayonda mazkur tushuncha asosiy mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Axloq (arabcha xulq-atvor demakdir) - ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib-qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi. Axloq omma faoliyatini tartibga solishning boshqa shakllari (o'quv, ishlab chiqarish, xalq an'analari) da o'z talablarining asoslanishi, amalga oshirilishi va omma fikri asosida tartibga solinishi bilan farq qiladi. Axloq talablari barchaga taalluqli, biroq hech kimning ko'rsatmasi, hech qanday maxsus buyruq asosida bajarilmaydigan, ixtiyoriy amalga oshiriladigan burch shakliga kiradi. Axloq talablarining bajarilishi faqat ma'naviy ta'sir ko'rsatish shakllari doirasida yuz beradi.

XULOSA

O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarning qaror topishi tarixiy-obyektiv sharoitda shaxs tomonidan jamiyat taraqqiyoti, insonlarning o'zaro hamkorlik, aloqa doiralarning kengayishi takomillashuviga ko'rsatiladigan ta'sirning ijobiy, mo'tadil holatda bo'lishini ta'minlashda ko'rinadi. Ma'naviy-axloqiy sifatlarning qaror topishi quyidagi umumiy mazmun asosida ro'y beradi:

- o'quvchining ma'naviy-axloqiylik darajasi ijtimoiy munosabatlar jarayonida, uning jamiyat, atrof-muhit va tabiatga bo'lgan yondashuvida namoyon bo'ladi;
- o'quvchining ma'naviy-axloqiylik darajasi jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyoti darajasiga bog'liq;
- o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamoloti obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida tashkil etiladigan uzluksiz, tizimli ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi natijasida vujudga keladi;
- o'quvchining ma'naviy-axloqiy kamoloti ijtimoiy munosabatlarning yo'lga qo'yilishida ijobiy natijalarga olib keladi.mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avezov Sh. Maktabda ekologik tarbiya-Toshkent: O'qituvchi,1992.-62 b.
2. Berdanova P.U. Qoraqalpoq oilalarida bolalarning ekologik madaniyatini

- shakllantirishning pedagogik asoslari (o'smirlar oilasida): ped. f.n. diss. avtoref. Toshkent, 205-19 b.
3. Ismatov I.Sh. O'quvchilarda atrof-muhitga ma'suliyatli munosabatni shakllantirish (anorganik kimyo misolida): p.f.n. diss....avtoref. - Toshkent, 2006. - 21 b.
4. Jumanova F.U. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish (geografiya ta'limi misolida): ped.fan.nom. diss.... avtoref. Toshkent, 2010.-22 b.
5. Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich ta'limda ekologik xafvsizlik madaniyatini takomillashtirish. //Муаллим ҳәм узлуксиз билимлендирийў. Илмий-методикалық журнал №2 ISSN 2181-7138 Некис-2022. -Б. 93-97. Mualliflik ishtiroki 100%.
6. Ismoilov, N. B. (2023). YANGI O 'ZBEKISTONDA TA'LIM VA ILM SOHALARI RIVOJLANISHNING YANGI DAVRIDAGI MUHIM ASOSLARI. *International scientific journal of Biruni*, 2(1), 81-88.
7. Ismoilov, N. B. (2022). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DINIY BAG 'RIKENGLIK VA KONFESSIYALARARO HAMKORLIKNI TA'MINLASH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 1116-1121.
8. Najmiddin, I. (2023). THE INTEGRATIVE ROLE OF SCIENTIFIC KNOWLEDGE IN INFORMATION SOCIETY.
9. Erkinov, A. S., Haydarov S. (2021). Yunon-baqtrya podsholigining ijtimoyi tuzimi, xo'jaligi va madaniyati. *Scientific progress*, 1(6), 620-622.

KO‘P BOLALI OILALAR SUBMADANIYATIDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti 1-bosqich tayanch doktoranti (PhD)

Elektron pochta:dildorichkayangiboyeva98@gmail.com

ANNOTATSIYA

Oila hali ham bolani ijtimoiylashtirish, rivojlantirish va tarbiyalashning eng muhim instituti bo‘lib a uzoq vaqt qoladi. Oila bolaga ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tajribani, birinchi navbatda, odamlar o‘rtasidagi hissiy va ishbilarmonlik munosabatlarini o‘tkazishda manba va bog‘lovchi bo‘g‘indir. Inson oilada dunyoga keladi, oila sharofati bilan inson nasli davom etadi, avlodlar almashadi. Ko‘p bolali oilalar muammolari bugungi kunda ham mahalliy, ham xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilayotgan muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ko‘p bolali oilalar o‘ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan alohida ijtimoiy guruh ekanligini hisobga olish kerak. Ko‘p bolali oila fenomeni jamiyat insitutsionallashuvida muhim hisoblanib, oiladagi submadaniyatning o‘ziga xos jihatlariga ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: submadaniyat, ko‘p bolali oila, sibling munosabatlar, ijtimoiy rol, ijtimoiy maqom, individual-psixologik xususiyatlar.

АННОТАЦИЯ

Семья по-прежнему остается важнейшим институтом социализации, развития и воспитания ребенка и останется ею еще долгое время. Семья является источником и связующим звеном в передаче ребенку социально значимого опыта, прежде всего эмоционально-деловых отношений между людьми. Человек рождается в семье, с честью семьи продолжается род человеческий, сменяются поколения. Проблемы многодетных семей являются сегодня одной из важных тем, изучаемых как отечественными, так и зарубежными учеными. При этом следует учитывать, что многодетные семьи представляют собой отдельную социальную группу, имеющую специфические психологические особенности. Феномен многодетной семьи считается важным в институционализации общества и отражается на отношениях между родителями и детьми, в конкретных аспектах субкультуры в семье.

Ключевые слова: субкультура, многодетная семья, сиблинговые отношения, социальная роль, социальный статус, индивидуально-психологические особенности.

ABSTRACT

The family is still the most important institution of socialization, development and upbringing of a child and will remain for a long time. The family is a source and connecting link in the transfer of socially significant experience to the child, first of all, emotional and business relations between people. A person is born in a family, with the honor of the family, the human race continues, generations change. Problems of large families are one of the important topics studied by both local and foreign scientists today. At the same time, it should be taken into account that families with many children are a separate social group with specific psychological characteristics. The phenomenon of a large family is considered important in the institutionalization of society, and it is reflected in the relations between parents and children in the specific aspects of the subculture in the family.

Key words: *subculture, large family, sibling relations, social role, social status, individual-psychological characteristics.*

KIRISH

Zamonaviy oila, birinchi navbatda, odamlar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqalar, munosabatlarning hissiy rangi, shaxsiy ko'rishlarning ko'p qirraliligi va ijtimoiy xavfsizlik bilan tavsiflanadi va jamiyat va madaniyatda shaxsiy o'zini o'zi belgilash bilan bog'liq juda muhim funksiyalarni bajaradi. Inson o'zini deb hisoblaydigan shaxsiy-madaniy tipning ta'rifi o'ziga xos guruh qadriyatlari, xatti-harakatlari va o'zaro munosabatlariga asoslanadi. Shunday qilib, bir guruh odamlar o'zlarining madaniy makonini tashkil qiladilar. Ushbu makonning ichki parametrlari guruh ulanishlarining o'ziga xos tuzilishi va mazmuni bilan belgilanadi. Ikkinchidan, o'zini shunday madaniy makonning elementi sifatida anglash odamlarga o'zlarining madaniy o'ziga xosligi asosida o'zlari va boshqa guruhlar vakillari o'rtasida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan farqlarni yaratishga imkon beradi [1].

Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarni ko'p bolali oilalar fenomeni, uning oilalarning hayot sifatiga ta'siri uzoq vaqtdan beri qiziqtiradi. An'anaviy jamiyat sharoitida bolalar tug'ilishining iqtisodiy motivlari ustunlik qildi, chunki bolalar mehnatkash sifatida oilaga iqtisodiy jihatdan foydali bo'lgan va qariganda ota-onalarning farovonligining kafolati bo'lgan. Bolalar alohida iqtisodiy ne'matdir, chunki ular nafaqat oila ehtiyojlarining manbai, balki uning uzoq muddatli investitsiya obyekti hamdir. Bunday investitsiya jarayonini amalga oshirib, oila kelajakdagi xarajatlarini butun oila uchun yoki bolaning o'zi uchun daromadlar oqimini oshirish orqali qoplashga umid qiladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, bolaning inson kapitalini shakllantirish sifati oiladagi bolalar soniga bog'liq bo'ladi va bu jarayonda ota-onalarning hissasi boshqacha tarzda idrok etiladi. 1970-yillarda

oiladagi bolalar soni va sifati o'rtasidagi muhim bog'liqlikni isbotlovchi, ushbu determinantlarga ta'sir qiluvchi individual omillarni o'rganuvchi bir nechta mashhur nashrlar paydo bo'ldi. G.Bekker ota-onalarning moddiy farovonlik darajasini oilada bolalarning ta'lim olish darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy omil sifatida ajratib ko'rsatdi. Ushbu talqindan kelib chiqqan holda, oila inson kapitaliga investitsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lgan moliyaviy resurslarni taqsimlashning asosiy kanali sifatida ishlaydi. Oila a'zolari tomonidan olingan daromadlar inson kapitalini ishlab chiqarish, rivojlantirish va takror ishlab chiqarish uchun shart-sharoitlarni to'liq shakllantiradi [4].

Ko'p bolali oilalar o'ziga xos submadaniyatni tashkil qiladi. Bu oilaning o'ziga xos funksional-rol strategiyalarini amalga oshiradigan va qardoshlar qatlamining kengaytirilgan tizimiga ega bo'lgan maxsus ijtimoiy-psixologik tizim ekanligi tufayli mumkin bo'ladi. Ko'p bolali oilalar submadaniyati dunyoning o'ziga xos manzarasi, boshqa ijtimoiy jamoalardan farq qiladigan qadriyatlar tizimi, hayotiy munosabatlar va xulq-atvor strategiyalari bilan tavsiflanadi. Uning o'ziga xos turmush tarzi birgalikda oilaning mavjudligining psixologik asosini tashkil qiladi va maxsus madaniy komponent mavjudligi haqida gapirishga imkon beradi [3]. Ko'p bolali oilalar submadaniyatining tarkibiy qismlari - bu ota-onalarning motivatsiyasining xususiyatlari, oilaviy funksiyalarni o'ziga xos tarzda amalga oshirish, oilaviy o'zaro ta'sir va muloqot strategiyalari, psixologik iqlim hisoblanadi. Ko'p bolali oilalar submadaniyatining xususiyatlari bir qator omillar bilan belgilanadi: oilaning madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy holati, psixologik iqlim, o'zaro ta'sirning kommunikativ strategiyalari, ko'p bolali oilalar uchun psixologik motivatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim strategiyalari, boshqaruv, vertikal va gorizontal quyi tizimlar darajasidagi ta'sir, sibling munosabatlarda kengaytirilgan operatsiyalar [2].

Oilaning tuzilishi, funkcionalligi va rol tuzilmalarida sezilarli o'zgarishlarga olib keladigan dinamik jarayonlar yashirin, lekin doimiy va barqaror ravishda sodir bo'ladi. Biz zamonaviy jamiyatda qabul qilingan ma'lum me'yoriy model bo'lgan va yangi avlodlar hayotiy strategiyasini amalga oshirishning o'ziga xos ssenariysi sifatida ijtimoiy yo'riqnoma vazifasini o'taydigan yadroli kichik bolalarga asoslangan oila davrining guvohi bo'lamiz. Shu bilan birga, ko'p bolali oilalar mafkurasi davlat, ijtimoiy va iqtisodiy darajalarda joriy etilib, uni rag'batlantirishning maqsadli siyosati o'z ifodasini topmoqda [5].

Jamiyatda ko'p bolali oilalarga munosabat ikki xil. Jamiyat ongida bunday hodisa hozirgi vaqtda yoki an'anaviy ijtimoiy va axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni saqlash, asrash va uzatishning yagona vositasi yoki asossiz ekzotizm va oilaviy hayotni tashkil etishga marginal yondashuvlarning namoyon bo'lishi deb hisoblanadi.

Jamoat va davlat institutlari nazarida ko‘p bolali oila ko‘pincha ijtimoiy va iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha potensial xavflar guruhiga kiradi. Jamiyat unga nisbatan juda ehtiyotkor munosabatda bo‘lib, ijtimoiy norozilik va hatto rad etish darajasiga yetadi [6]. Bunday munosabat ko‘p bolali oila a‘zolarining ijtimoiy qaramog‘ida yoki noto‘g‘ri adaptatsiya va qashshoqlik mezonlari asosida xavf guruhi sifatida qabul qilinishida namoyon bo‘ladi. Jamiyatdagi katta oilalarning sezilarli qismining potentsiali yoki haqiqiy kamchiliklari ularga nisbatan salbiy munosabatning sababi bo‘ladi. Oldingi davrning nuqtayi nazari, ko‘p bolali oila o‘z a‘zolarini yashash uchun ish haqi bilan ta‘minlay olmaydi, bugungi kunda juda barqaror, ko‘p bolali oila a‘zolarining asosiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari kamaygan, bolalar ko‘pincha jismoniy yoki ruhiy kasalliklardan aziyat chekmoqda. Hatto ko‘p bolali oilalar hodisasiga ijobiy munosabat tarafdorlari ham ta‘kidlashicha, “bugungi kunda uchta bolaning ota-onalari, ayniqsa demografik sharoitda, farzand ko‘rish uchun juda shaxsiy motivlarga ega odamlardir. Ularning reproduktiv xulq-atvori kichik bolalarning umumiy qabul qilingan me‘yorlaridan chetga chiqadi va hech qanday ijtimoiy omillarga bog‘liq emas” [7].

Ko‘p bolali oilaga nisbatan keng tarqalgan qarash tarixiy, madaniy qarashlar nuqtayi nazaridan bo‘lib, ular tug‘ilishning yuqori darajasi asosan etnik-madaniy, diniy omillarga, milliy an‘analarga yoki oilalar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq ekanligida ifodalanadi. Ko‘p bolali oilalar hodisasi ko‘pincha fanda ularning lokalizatsiyasining geterogenligi - qishloqdagi ko‘p oilalarning ustunligi, shuningdek, diniy va etnik an‘analarning ularning o‘ziga xos xususiyatlariga ta‘siri bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi.

MUHOKAMA

Oila psixologiyasida ko‘p bolali oilalarga nisbatan quyidagi yondashuvlar ustunlik qiladi: hodisa regressiv hodisa sifatida (I.V.Ravich-Sherbo); yo‘qolib borayotgan hodisa sifatida (S.I.Golod); jamiyatning demografik siyosatini amalga oshirish nuqtayi nazaridan progressiv hodisa sifatida (A.I.Antonov, V.A.Borisov) [8]. Ko‘p bolali oila o‘z a‘zolarining an‘anaviy funksiyalari, rollari, qonunlari, an‘analari, qadriyatlarini bajarishga rioya qilgan holda o‘ziga xos turmush tarzining mavjudligi bilan tavsiflanadi, ular birgalikda oila mavjudligining psixologik asosini tashkil qiladi va maxsus submadaniyatning mavjudligi bu haqda gapirishga imkon beradi. “Submadaniyat” va “qadriyatlar orientatsiyasi” tushunchalari o‘rtasidagi aloqadorlik dialektik va o‘zaro bog‘liqdir. Har qanday ijtimoiy hamjamiyatning o‘ziga xos madaniyatining mazmuni, xarakteri va yo‘nalishi qadriyat komponentining maxsus ierarxiyasi va to‘yinganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun, ko‘p bolali oilaning

submadaniyati haqida gapirganda, biz ushbu eng yaqin aloqalarning o'ziga xos xususiyatlarini yodda tutamiz.

Ko'p bolali oila qadriyat yo'nalishlari, ehtiyojlar, qonunlar va faoliyat me'yorlarining o'ziga xos tizimiga ega, u o'zgacha qiyofa va umuman hayot tarzi bilan tavsiflanadi. Submadaniyatning manbai umumiy madaniyat bilan birlashtirilgan har qanday ijtimoiy hamjamiyat bo'lishi mumkinligi sababli, oila turmush tarzi, qadriyatning o'ziga xos xususiyatlarida ifodalangan munosabat, o'zaro ta'sir, munosabatning ma'lum an'alarini shakllantirish manbai va semantik munosabatlar va xulq-atvor strategiyalari sifatida qaralishi mumkin. Oilaning ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-psixologik hayotining o'ziga xos sohasi sifatida submadaniyatning shakllanishining asosiy sababi - umumiy qabul qilingan qadriyatlar tizimidan norozilik va an'anaviy axloqiy qadriyatlar ierarxiyasi bilan nomuvofiqlikdir. Shu munosabat bilan, ko'p bolali oila submadaniyatini alohida hodisa sifatida aniqlash, birinchi navbatda, obyektiv sabablarga ko'ra, ya'ni so'nggi o'n yilliklarda oila instituti bilan sodir bo'lgan ijtimoiy o'zgarishlar va ko'p bolali oilalarga nisbatan allaqachon o'rnatilgan ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq [9].

Insonning o'z submadaniyatida qolishi yangi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar majmuasini tashkil qiladi. Shakllangan dunyo rasmi uni tarbiyalagan submadaniyat dunyosi rasmiga eng yaqin bo'lib, uni yanada yaqinlashtiradi va uni boshqa submadaniyatlardan ajratib turadi. Hayotiy jarayonlar jarayonida bu rasm o'ziga xos qadriyat yo'nalishlarini, axloqni, qiziqishlarni, ideallarni, hayotning ma'nosi haqidagi g'oyalarni keltirib chiqaradi va pirovardida ijtimoiy xulq-atvorda mujassamlanadi. Ota-onalarning motivatsiyasida ustunlik qiluvchi parametr reproduktiv motiv bo'lib, uning mazmuni ota-onalarning o'zlarining qadriyatlari va semantik munosabatlari bilan belgilanadi. Ko'p bolali oilada reproduktiv motivatsiyaning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin: bolalarga bo'lgan muhabbat bolalarning tug'ilishi va tarbiyasiga individual-shaxsiy e'tiborning namoyon bo'lishi sifatida, bolalarga muhabbat (V.V.Boyko); bolalarga bo'lgan ehtiyoj (A.I.Antonov); kattalarning ijtimoiy mavqeini saqlab qolish, ijtimoiy o'ziga xoslikka erishish, bolada o'zini, familiyasi va urug'ini uzaytirish motivlarining jiddiyligi; aka-uka quyi tizimlarida oilaviy qadriyatlarni shakllantirish va amalga oshirish qobiliyati; mavjud bolalarni ularning rivojlanishini rag'batlantiradigan aloqa hamkorlari bilan ta'minlash; bolalar sonini cheklash uchun motivlarning past ifodasi (E.S.Kuzmin, E.S.Semenov; G.E.Tsuladze) [10].

Ko'p bolali oilalarning psixologik tadqiqotlarida shaxslararo munosabatlarning xususiyatlarini o'rganishga e'tibor beriladi. Munosabatlar tuzilishini o'rganishda quyidagi qoidalar hisobga olinadi. Kattaligi jihatidan har xil bo'lgan oilalarda

shaxslararo munosabatlarning tuzilishi ham har xil bo'lib, ularning o'ziga xos xususiyatlari bor. Sibling pozitsiyasi va uning yangi bolaning kelishi bilan bog'liq o'zgarishi aka-uka va opa-singilning boshqa oila a'zolari bilan o'zaro munosabatlarning xususiyatlarini belgilaydi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar bolalarning kognitiv va shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lsa, oila kattaligi ham bu tuzilmalarga ta'sir qiladi. Ko'plab tadqiqotlarda bolalar va ota-ona munosabatlari; ota-onalarning bolalarning individual shaxsiy xususiyatlarini idrok etishining o'ziga xos xususiyatlari; turmush o'rtoqlar o'rtasidagi munosabatlar; aka-uka o'rtasidagi munosabatlar; bolalarning oilaviy munosabatlar haqidagi tasavvurlari va boshqalar shu kabi oilaviy xususiyatlar ko'rsatilgan [11].

NATIJALAR

Oilaning kattalashishi bilan uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar o'zgaradi. Rol tuzilmasi asta-sekin kengayib boradi, bu "bola-bola" tipidagi turli yoshdagi munosabatlar tufayli yuzaga keladi. Ota-onalar bilan muloqotning pasayishi katta oiladagi aka-uka va opa-singillar bilan o'zaro munosabatlarning kuchayishi bilan qoplanadi. Bolaning rivojlanishida bolalar muloqoti alohida rol o'ynaydi, bu bolalarning aqliy rivojlanishiga ta'sir qiladi, ammo, afsuski, oiladagi bolalar o'rtasidagi muloqot ota-onalar bilan yanada boyitilgan (og'zaki va intellektual) muloqotning yetishmasligini to'liq qoplay olmaydi [12]. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ota-onalar o'zlarining to'ng'ichlarining individual xususiyatlarini ko'proq sezishadi: oiladagi birinchi bola ko'proq g'amxo'rlik, e'tibor va muhabbatga ega bo'ladi, deb ishoniladi. Birinchi bolada uning intellektual xususiyatlariga ta'sir qiluvchi ota-ona xususiyatlarining kengroq tizimi mavjud. Bolaning muhitida u ota-ona rolini o'ynaydi, "kvazi-ota" ga aylanadi, u munosabatlarning yangi turiga ta'sir qiladi. Birinchi bolaning intellektual xususiyatlariga qarab, keyingi bolalarning intellektual xususiyatlari shakllanadi. Kech tug'ilgan bolalarda ota-ona va bola munosabatlarini farqlash imkoniyati cheklangan va rivojlanish uchun zarur bo'lgan individual muloqot yetarli bo'lmaydi. Bolaning aka-uka pozitsiyasi ota-onalar bilan munosabatlarning o'ziga xos xususiyatini belgilaydi [13].

Birinchi marta oilada tug'ilish tartibining harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlariga ta'sirini aks ettiruvchi statistik ma'lumotlar banki N.I.Konyuxov 1979 yilda to'plagan [14]. Ushbu tadqiqotda asosiy xulosalar ekspert baholashlari yordamida qilingan, chunki ko'rsatilgan muddat davomida test usullari qo'llanilmagan. Shunga qaramay, matematik usullar keng qo'llanilgan va oiladagi yagona bolalarning psixologik xususiyatlari mutaxassislar tomonidan intervalli shkala bo'yicha baholangan, ularning ayrim shaxsiy fazilatlarini taqsimlash jadvallari shaklida taqdim etilgan. Ko'p bolali oilalar bolalarning bir-birlari bilan hissiy

yaqinroq aloqasi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ko‘p bolali oilada har bir bolaning shaxsiy manfaatlari va maqsadlariga erishish aka-uka va opa-singillar manfaatlariga tajovuz qilish orqali butunlay yashiringan. Oiladagi yagona bolalar bu ko‘nikmaga yillar davomida ega bo‘lishadi, shuning uchun ko‘pincha ularning barcha odamlarga xos bo‘lgan “ego”si tabiiy ravishda kamroq yashiringan.

Zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan eng muhim farqlar ko‘p bolali oilalar farzandlari va oiladagi yagona bolalar o‘rtasidagi og‘zaki rivojlanish (og‘zaki intellekt, og‘zaki xotira) sohasidagi farqlardir. Ushbu natija xorijiy psixologlarning ma‘lumotlariga mos keladi va ko‘p bolali oila kattaligi aloqa sifatining pasayishi bilan bog‘liq degan taxminni tasdiqlaydi. Kognitiv ko‘rsatkichlar bo‘yicha ko‘p bolali oiladagi birinchi va ikkinchi tug‘ilgan bolalarni taqqoslashdan R.Zajonc (1979) tomonidan taklif qilingan termoyadroviy modelga ko‘ra, birinchi tug‘ilganlarning faqat yengil ustunligi aniqlandi. Ushbu muallifning fikriga ko‘ra, tug‘ilish tartibi omilining kognitiv rivojlanishga salbiy ta’siri shunchalik katta emaski, hatto birinchi ikki bola o‘rtasida ham aql-idrokda sezilarli farqlarni aniqlash mumkin [15].

XULOSA

Ko‘p bolali oila submadaniyatining moslashuvchan va ijtimoiylashtiruvchi funksiyasi oilaning tarbiyaviy ta’sirining o‘ziga xos xususiyatlarida, ota-ona va aka-uka tuzilmalarining ma‘lum bir bolaning ijtimoiylashuviga ta’sirida yotadi. Oilaning umumiy strategiyasi hamkorlikka yo‘naltirilganligi, ota-ona quyi tizimi - birgalikda qaror qabul qilish, mas’uliyatni taqsimlash, nikoh va bolalar quyi tizimi - yanada uyg‘unlik, ularning “oilaviy munosabatlarini” amalga oshirish bilan tavsiflanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Андреева Т. Н. Когнитивные и личностные характеристики членов многодетной семьи / Т.Н. Андреева. – М.: Проспект, 2010. –304 с.
2. Антонов А. И. Многодетная семья в эру депопуляции (результаты всероссийского исследования многодетных матерей) / А. И. Антонов // Демографические исследования. – № 8/9. – 2009. – С. 22–25.
3. Ачильдиева Е. Ф. Многодетная семья в современной России / Е. Ф. Ачильдиева // Вопросы психологии. – 2009. – № 2. – С. 12–14.
4. Бойко В.В. Структура и особенности многодетной семьи / В. В. Бойко. – М.: Класс, 2011. – 118 с.
5. Волкова А.Н. Диагностика супружеских отношений / А. Н. Волкова // Вопросы психологии. – 2009. – №5. – С. 20–21.
6. Гозман Л.Я. Психологические проблемы многодетной семьи / Л. Я. Гозман // Вопросы психологии. – 2011. – №2. – С. 32–33.

7. Голованова Н.Ф. Социализация и воспитание ребенка / Н. Ф. Голованова. – СПб.: Питер, 2009. – 272 с.
8. Голод С. И. Семья и брак: историко–социологический анализ / С. И. Голод. – СПб.: Петрополис, 2006. – 218 с.
9. Гребенников И. В. Воспитательный климат семьи / И. В. Гребенников.– М. : Знание, – 1986. – 40 с.
10. Жданова С.Ю. Особенности представлений матери об индивидуальности ребенка в связи с количеством детей в семье / С. Ю. Жданова, Е.Л. Аликина //Вестник Костром. гос. ун-та им. Н. А. Некрасова. – 2010. – Т. 16, №4. – С.140–144.
11. Белорусская ассоциация многодетных родителей. Сайт Минской городской организации Белорусской ассоциации многодетных родителей [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://bamr.by/>.
12. Картышевская С.В. Педагогические основы воспитания детей в многодетных семьях / С.В. Картышевская // Наука-2008: сборник научных статей. – Гродно, 2008. – С.101–105.
13. Карцева Л. В. Семья в трансформирующемся обществе / Л. В. Карцева // Вестник Моск. гос. ун-та. Сер. 18. Социология и политология. – 2004. –№1. – С.67–72.
14. Красовский А.С. Ценностные ориентации в многодетной семье/ А. С. Красовский. – М.: Астрель, 2010. – 228 с.
15. Дивицына Н. Ф. Семейведение. Многодетная семья и ее социальная защита : учеб. пособие / Н. Ф. Дивицына. – М.: МГУ, 2006. – 127 с.

ТАДБИРКОР ТАЛАБА- БУГУНГИ КУН ТАЛАБИ

Абдуқодирова Н.А.

Камолиддин Беҳзод номидаги миллий рассомлик ва дизайн
институти “Либос дизайн” кафедраси ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Мақолада талаба кизларни тадбиркорлик билан шугулланишга йўналтириш орқали меҳнат ресурслари самарадорлигини ошириш, жамиятда хотин-қизлар ўз ўринларини топишлари учун уларнинг тадбиркорлик компетенцияларини такомиллаштиришнинг дидактик ва технологик имкониятларини кенгайтириш масалалари апрофлича ёритилган. Шунингдек, бу борада мавжуд муаммолар ҳамда уларнинг ечимига доир муаллифнинг хулоса ва таклифлари келтирилган.

Таняч сўзлар: тадбиркорлик, талаба – қизлар, ҳунармандчилик, ижодкорлик, гендер тенглик.

ABSTRACT

In the article, the issues of increasing the efficiency of labor resources by directing female students to engage in entrepreneurship, expanding the didactic and technological possibilities of improving their entrepreneurial competences, so that women can find their place in society, are covered in detail. Also, the author's conclusions and suggestions regarding existing problems and their solutions are presented.

Key words: *entrepreneurship, female students, crafts, creativity, gender equality.*

КИРИШ

Республикамизда талаба кизларнинг тадбиркорлиги асосан тасвирий санъат, дизайн, халқ амалий санъати ва ҳунармандчилик соҳаларида кенг ривожланган. Ўзбекистонда ижодкорлик, тасвирий санъат, дизайн, халқ амалий санъати ва ҳунармандчилик соҳалари учун кадрлар тайёрлашнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари, моддий-техник базаси яратилди. Талаба кизларни тадбиркорлик билан шугулланишга йўналтириш орқали меҳнат ресурслари самарадорлигини ошириш, жамиятда хотин-қизлар ўз ўринларини топишлари учун уларнинг тадбиркорлик компетенцияларини такомиллаштиришнинг дидактик ва технологик имкониятларини кенгайтиришга имконият яратилди. “Ўзбекистон халқларининг бой маданий мероси ва тарихий анъаналарини тўлиқ сақлаб қолиш ва кўпайтириш, миллий ҳунармандчилик, дизайн, халқ бадиий ва

амалий санъатини янада ривожлантириш, хунармандчилик фаолияти билан шуғулланувчи фуқароларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш” бўйича устувор вазифалар белгиланди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД

Таълим тизимини ривожлантиришнинг янги босқичида талаба кизларнинг ишчанлик фаоллигини ва ташаббускорлигини рағбатлантириш, уларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришга қаратилган бир қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ҳар бир оила – тадбиркор” дастурини амалга ошириш тўғрисида”ги 3770-сон Қарори қабул қилинди ва “тадбиркорлик билан шуғулланиш истагида бўлган аҳолининг тадбиркорлик ташаббусларини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларга имтиёзли кредитлар ажратиш ҳамда тадбиркорлик фаолиятини ташкил этиш ва амалга оширишнинг ҳар бир босқичида мутасадди идоралар томонидан тизимли амалий ёрдам кўрсатилишини таъминлаш” муҳим вазифалар сифатида белгиланди. Бу эса, оила ва олий таълим ҳамкорлиги асосида талаба кизларда тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш ва уни баҳолаш методикасини такомиллаштиришни тақозо этади.

МУҲОКАМА

Талаба кизлар тадбиркорлик кўникмаси – ижтимоий-иқтисодий билимларни амалий фаолиятда қўллаш олиш, оилавий тадбиркорлик, хунармандчилик ва дизайн соҳасида маълум тажрибага эга бўлиш, фаолиятни ташкил этиш жараёнида юзага келадиган муаммоларни кўра билиш ва бартараф этиш, инновацион ғояларни излаш, ўйлаб топиш ва уддабуронлик, шахсий қизиқиш ва эҳтиёжларини жамоа манфаатлари билан уйғунлаштириш лаёқати йиғиндисидир.

Талаба кизларда тадбиркорлик кўникмасини шакллантириш – инновацион ғояларни излаб топиш ва амалга ошириш, ностандарт вазиятларга мослаштириш, ўз-ўзини назорат қилиш, ташқи таъсирларга ўзининг шахсий фикри билан қарши тура олиш, жавобгарлик ва масъулиятни ўз зиммасига олиш, фаолиятга тайёрлик, моддий маҳсулотларга эҳтиёткорона муносабатда бўлиш, қўйилган мақсадга эришишдаги қатъийлик, ишга уддабуронлик билан ёндашиш, ташкилотчилик, коммуникативлик, ижодийлик, бошқарувга доир сифат ва хусусиятларни таркиб топтиришга йўналтирилган тизимли жараёндир.

Мазкур санаб ўтилган мезонлар орасида бошқа фаолият турлари сингари тадбиркорлик кўникмаларини шакллантиришда мотивация асосий роль

ўйнайди. Шахсий мотивлар ҳар бир талабага хос бўлиб, ички ва ташқи вазиятлар билан боғлиқликда намоён бўлади. Ана шу сабабли талабаларда тадбиркорлик кўникмаларини шакллантиришда унинг шахсий мотивларини тушуниш ва онгли равишда ошириб бориш муҳим. Кутилган натижага эришиш мақсаднинг аниқ белгиланишига боғлиқ.

Талаба кизларнинг тадбиркорлик фаолиятига қобилияти инновацион ғояларни ўйлаб топиш ва уни амалга ошириш кўникмалари орқали намоён бўлади. Мазкур мезон кўрсаткичларига ғояларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, ностандарт вазиятларга мослаштириш кўникмасини киритиш мумкин.

Юқорида таъкидланган имкониятлардан келиб чиқиб, дизайн соҳасини ёшларга ўргатиш ва уни ўқитиш бўйича Давлат таълим стандарт (ДТС)лари асосида янги дастурлар, методик қўлланмалар ишлаб чиқилди. Сўнгги йилларда янги замонавий таълим муассасалари барпо этилди ва уларни замонавий ўқув анжомлари, техник воситалар билан таъминланди.

НАТИЖАЛАР

Талаба кизларнинг тадбиркорлигини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятларини тушуниш учун, шахсий хусусиятларини ҳисобга олиш керак. Тадбиркор талабанинг интеллектуал салоҳияти анча юқори. Улар турли хил билимларни муваффақиятли эгаллашга қодир. Уларнинг фикрлашлари аниқ амалий йўналишга эга. Муаммоларни ҳал қилишда улар, биринчи навбатда, ақл-идрок билан бошқарадилар. Ҳақиқий фактлар устунлик ролини ўйнайди. Тадбиркор-талабалар етакчилик салоҳиятига эга. Раҳбарнинг фазилатлари яхши ўзлаштирилган фаолият турларида катта даражада намоён бўлади.

Юқоридагиларни инобатга олиб, республикада талаба кизлар ўртасида тадбиркорликни ривожлантириш учун зарур шарт-шароитлар мавжуд ва уни амалга оширишнинг таъсирчан педагогик тизими яратилган деган хулосага келиш мумкин.

АДАБИЁТЛАР

1. Ш.М.Мирзиёев. “Ўзбекистон республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ҳар бир оила – тадбиркор” дастурини амалга ошириш тўғрисида”ги 3770-сон Қарори. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.06.2018 й., 07/18/3777/1325-сон.
3. Баженова С. Легко ли быть молодым предпринимателем? // Технология дела. 2012. - № 7–8. – С.34-38.

4. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство Т. 2005.
5. Вишнякова И. В. Организационно-педагогические условия становления компетентности инженера в области менеджмента интеллектуальной собственности // Высшее образование сегодня. 2010. №10. С. 27-29.

A'ZAM O'KTAM IJODIDA BADIY SAN'ATLAR

Jo'rayeva Gavhar Eshqobilovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti nodavlat ta'lim muassasasi

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada A'zam O'ktam ijodidagi ilmiy-ma'rifiy she'rlarida hadislar mazmunini tushuntirishda she'riy vositalardan foydalanganligi tahlil qilingan. A'zam O'ktam she'rlarida barcha badiiy san'atlardan keng foydalanilgan.

Kalit so'zlar: *badiiy san'at, hadis ilmi, she'riyat, A'zam O'ktam, munaqqid.*

ABSTRACT

In this article: Azam Oktam used poetic tools to explain the content of hadiths in his religious-educational poems. All artistic arts were widely used in Azam Oktam's poems.

Key words: *fine art, science of hadith, poetry, Azam Uktam, critic*

АННОТАЦИЯ

В этой статье: Азам Октам в своих религиозно-просветительских стихах использовал поэтические средства для освещения содержания хадисов. В стихах Азама Октама широко использовались все художественные искусства.

Ключевые слова: *изобразительное искусство, хадисоведение, поэзия, Азам Октам, критик.*

KIRISH

XX asrning 20-yillarida yangi ovoz, yangi qon bilan adabiyotga kirib kelib, milliy she'riyatimiz osmonida porlagan shoirlar qattol tuzumning 30-yillariga kelib, qatag'on qurboni bo'lishdi. Biroq buyuk xalqimiz yangi iste'dodlarni maydonga keltirdi. Xususan, munaqqidlar 60-yillar avlodi o'laroq e'tirof etadigan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon kabi shoirlar ijodi sovetcha siyosiy mafkuralar, sinflar, kommunistik partiya ruhi majburan singdirilgan, asl adabiyot va umuminsoniy g'oyalar taqiqqa uchragan murakkab siyosiy davrda o'zbek she'riyatida yangi davrni boshlab berdi. Insonlar tuyg'ularini adabiyotning azaliy va abadiy vazifalari tomon yo'naltirdi. Va ularning ijodi yangi, kurashchan, haqiqatgo'y, millatparvar, erkparast shoirlar avlodi yetishib chiqishini tezlashtirdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan adabiyotimizda badiiyat masalasiga alohida ahamiyat berilgan. “U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so‘z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e’tibor qaratilgan”⁶. Mumtoz adabiyotimizda ilmi qofiya, ilmi bade’, ilmi aruz kabi unsurlar borki, bugun ham she’r badiiyatini ziynatlashga xizmat qilib kelmoqda. Atoulloh Mahmud Husayniyning “Badoyi’u-s-sanoyi” (1981) asari ham bu boradagi muhim manba sanaladi. XX asrda ham bu sohadagi ishlar izchil davom ettirildi. Abdurauf Fitratning “Adabiyot qoidalarini” (1924), Vahob Rahmonovning “She’riy san’atlar” (1962), Alibek Rustamovning “Qofiya nima?” (1976), Anvar Hojiahmedovning “Mumtoz badiiyat malohati” (1998), Yoqubjon Is’hoqovning “So‘z san’ati so‘zligi” (2016) kabi qator ilmiy-nazariy asarlari shular jumlasidandir. She’r badiiyati yetukligini ta’minlab turgan badiiy san’atlarning eng daqiq qirralarini aniqlash uchun ham ushbu asarlarga murojaat qilamiz. Mustaqillik yillarida yaratilgan diniy-ma’rifiy she’rlar ham badiiyatining yuksakligi tufayli alohida ahamiyat kasb etadi.

Keyingi davrlarda o‘zbek she’riyatiga kirib kelgan bir guruh shoirlar avlodining shartli mansublik davri – “Turg‘unlik yillari” va mustaqillik yillari o‘laroq “80-90-yillar avlodi” deya tasniflanadi. Bu davrda ulug‘ salaflariga ergashib, yangicha poetik jilva bilan porlagan Mirzo Kenjabek, Chori Avaz, Sirojiddin Sayyid, Eshqobil Shukur, Abduvali Qutbiddin, Muhammad Yusuf, Aziz Said, Bahrom Ro‘zimuhammad, Nazar Shukur, Tilak Jo‘ra, Karim Bahriyev, A‘zam O‘ktam, Iqbol Mirzo kabi o‘zbekning o‘nlab zabardast shoirlarining chiqishlari o‘zbek matbuotida shov-shuv bo‘ldi. Ular murakkab ijtimoiy-siyosiy davrda she’riyatning asl ohanglari barobarida mustaqillik g‘oyalarini baralla tarannum etdilarkim, ushbu she’rlar baayni g‘oyaviy daldaga ehtiyojmand minglab qalblarga, ta’bir joiz bo‘lsa, mayoq bo‘ldi.

Xususan Fozil Zohidning “Visol manzili” she’ri to‘liq talmehlar⁷ asosiga qurilgan. Ushbu talmehlar vositasida shoir Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” hamda Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarlarida zikr etilgan Ja’far Sodiq, Sulton Uvays, Boyazid, Xaraqoniy, Formadiy, Yusufi Hamadoniy, Kubro, G‘ijduvoni, Xoja Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Samosiy, Termiziy, Romitoni, Zangi ota, Attor, Rumi, Halloj, Adham, Charxiy kabi bir qancha shayxlar va valiyning, ya’ni tarixiy shaxslarning muborak ismlarini istifoda etadi:

Qosim ibn Muhammad, Ja’far Sodiq,

⁶Хожиахмедов А. Мумтоз бадийят малоҳати. –Тошкент: Шарқ, 1998. – Б.4.

⁷Талмех (ар.- чакмоқ чақиши, кўз кирини ташлаш, назар солмоқ)-мумтоз адабиётдаги шеърин санъат, шеърда машхур тарихий воқеа, шахслар, бадий асарларга ишора қилиш. Адабиётшунослик луғати / Д.Қуроно, З.Мамажонов, М.Шералиева. – Тошкент: Академнашр, 2013.– Б.307.

Erdilar sohibi ganji haqoyiq.

Yoki:

Buxoriy, Termiziylar ustod bo‘lib,

Payg‘ambar so‘zlari qoldi yod bo‘lib.

Bunda valiydan xoli tuproq yo‘qdir,

Ahlulloh barchasi Haqqa yovuqdir.

Romitoniy, Shayx Muxtor, Charxiy, Ahror,

Zangi ota, Sulaymon, Mahmud Piryor...⁸.

Ma‘lumki, Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asari Ja‘far Sodiqning, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asari esa Uvays Qaraniyning muborak ismlari bilan ibtido topadi. “Tazkirat ul-avliyo” da Ja‘far Sodiqning sifatlari batafsil keltiriladi. Keyingi misralardagi Buxoriy, Termiziy talmehleri islom olamida Qur‘oni karimdan keyingi ikkinchi ishonchli manba sanalgan muhaddis olimlarning “Sahihi Buxoriy” va “Sunani Termiziy” asarlariga ishora qiladi. Shoir navbatdagi qo‘sh misrada bu yurt tuprog‘i dunyo tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan zakiy zotlarni yetishtirib bergan muqaddas zamin ekanligini ta‘kidlaydi va valiy zotlarning ismlarini sanash orqali go‘zal talmehlar yaratib, mantiqning ta‘sirchanligini oshirishga erishadi. Bundan tashqari, muallifning Abu Bakr, Qosim ibn Muhammad, G‘ijduvoni, Mir Kulol, Shayx Muxtor, Ahror, Sulaymon, Mahmud Piryor, Sulton Uvays, G‘azzoliy kabi tarixiy shaxslarning muborak ismlarini keltirishiga asosiy sabab va uning maqsadi, bu talmehlar orqali islom olamida mashhur bo‘lgan buyuklarning nomlarini shunchaki sanash emas, lirik syujetdagi o‘y-fikr va his kechinma rivojini ta‘sirli ifodalash orqali she‘r g‘oyasini o‘quvchi qalbiga muhrlash, ilmu irfondan xabardor etish, avliyoyu anbiyo zotlarning vorisi ekanligini ta‘kidlash va badiiy adabiyotning asosiy tarbiya vositasi ekanligi vazifasini ham ko‘zlangan maqsadi yo‘lida safarbar etganini bilib olish mumkin. Biroq masalaning ikkinchi bir tomoni borki, shoir qo‘llagan talmehlar orqali badiiy ifodadagi ta‘sirchanlik oshadi, ammo me‘yor buzilishi natijasida she‘r mazmuniga putur yetadi.

Sirri haqiqatga Giloniy mahram,

Haq fazlidir maqomi “g‘avsul a‘zam”.¹⁰

Shoir Giloniy deb e‘tirof etayotgan shaxs aslida mashhur Qodiriya tariqatining asoschisi, xalq orasida “g‘avsul a‘zam” nomi bilan tanilgan karomatgo‘y, valiy inson, ya‘ni tarixiy shaxs Abdulqodir Giloniydir¹¹.

⁸Зоҳидов Ф. Сабр гули. – Тошкент: Мухаррир, 2013. – Б.75-77

⁹ У пайғамбар миллати султони, пайғамбарлик нишонининг хужжати, садақатли олим, авлиёлар дилининг меваси, пайғамбарлар саййидининг жигаргўшаси, ҳазрати Алининг невараси, пайғамбар ворисининг аввалгиси, ориф ва ошиқ зот – Абу Муҳаммад Жаъфари Содикдирлар // Фаридуддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012.– Б.19

¹⁰Зоҳидов Ф. Сабр гули. – Тошкент: Мухаррир, 2013. – Б.78

Yoki:

Salmoni Forsiydan angla, uq ma'no,

Oriflarga rahnamo u, muqtado¹².

Salmon Forsiy haqida Abu Iso Termiziyning "Sahihi Termiziy" asarida ma'lumotlar keltirilgan¹³.

Islom dini tarixida Salmon Forsiy (roziyallohu anhu) haqida "Fotiha" surasini fors tiliga tarjima qilgani va undan Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam xabardor bo'lib, bunga ijozat berganlari ma'lum. Shoirning she'rdagi Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning muborak nomlari va sifatleri hamda ul zotning ilmidan, ibratli hayotidan, yo'l yo'riqlaridan voqif bo'lgan Abu Bakr (roziyallohu anhu) va undan so'ng Salmon Forsiy (roziyallohu anhu)larni e'tirof etishi lirik qahramonning shoir shaxsiyati bilan bir butunlik kasb etishini izohlaydi, ya'ni shoirning ma'naviy olami betakror islomiy g'oyalar ruhi bilan sug'orilganiga guvoh bo'lamiz.

Shundan anglashiladiki, she'rdagi ifodalalanayotgan lirik qahramon tabiati botinida muqaddas dinimiz tarixini, uning arkonlarini puxta o'zlashtirgan, mustahkam ilohiy bilimlarga ega shoir shaxsiyati turadi.

Akademik Izzat Sulton lirik qahramonga shunday ta'rif beradi: "Lirik qahramon – lirik asarda kechinmalari tasvirlanayotgan kishi shoirning umumjamiyat uchun qimmatli his va fikrlarini tashuvchi shaxsdir. U shoir shaxsi bilan estetik idealning quymasidir"¹⁴.

Замонавий талаба ёшларда эстетик маданиятни юксалтиришда, ахлоқий фазилатларни шакллантиришда, уларнинг маънавий дунёқарашини ўстиришда муסיқий тафаккурнинг аналитик таҳлили муҳим аҳамият касб этади. Муסיқий тафаккур муסיқий хис, муסיқий идрок асосида пайдо бўлади ва овозли, муסיқий, бадий образларга таянади. Муסיқий тафаккур миллий муסיқа маданиятининг ўзига хослиги, қонуниятларини билишнинг специфик, интеллектуал жараёни ва муסיқий санъат асарини тушунишдир. Миллий муסיқий тафаккур муайян бир миллатнинг ҳис-туйғу ва кечинмаларини ифода этади, шунинг учун ҳам унга миллийлик хосдир. Унда миллатнинг бутун кечмиши, тарихи, фантазияси, миллий руҳи, эстетик диди, орзу ва армонлари, қувонч ва ташвишлари, дард ва аламлари мужассамлашган бўлади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Миллий муסיқа бошқа халқлар санъати билан узвий боғлиқликда ривожланади, бироқ ҳеч қачон у миллий заминдан ажраб, узилиб қолмайди. Ўзбек миллий муסיқа санъати маҳаллий халқларнинг миллий оҳанглари заминиде шаклланиб келган. Ҳар бир миллий маданият учун айна вақтда умуминсонийликка хосдир, умуминсонийлик миллийлик орқали намоён бўлади. Муסיқанинг миллийлиги мазкур халқнинг узоқ тарихий кечмиши, турмуш ва ҳаёт тарзи, меҳнат маданияти ва миллий анъаналар билан узвий боғлангандир. Ўзбек миллий муסיқа санъати халқимиз ҳаётининг бадий акс-садоси сифатида вужудга келар экан, унда кишиларнинг кайфияти ва меҳнат фаолиятига, шунингдек, уларнинг миллий тафаккурига жуда кучли таъсир кўрсатади.

Жамиятнинг янги ривожланиш босқичида маънавиятга бўлган юксак эътиборнинг натижаси ўлароқ, замонавий талаба ёшларда эстетик маданиятни юксалтиришда муסיқий тафаккурни шакллантириш, муסיқа маданиятини

ривожлантиришга қаратилган таълим-тарбия жараёнини замонавийлаштириш, уни замон талабларига мос тарзда юксалтириш ҳамда ёшларнинг бадиий-муסיқий дунёқарашини кенгайтириш билан боғлиқ муаммолар жамият ижтимоий ҳаётининг долзарб масалаларига айланган. Шу нуқтаи назардан бугунги кунда замонавий талаба ёшлар эстетик маданиятини юксалтиришда муסיқий тафаккурни шакллантиришнинг долзарблигини қуйидагича асослаш мумкин:

Биринчидан, Ўзбекистоннинг янги тараққиёти босқичида маънавиятнинг устуворлигига таянувчи фалсафий концепция замонавий талаба ёшлар эстетик маданиятини юксалтиришда муסיқий тафаккур ва дунёқарашнинг ўзига хос ўрнини белгилаб беради.

Иккинчидан, муסיқий маданият шахс камолотининг барча босқичларида унга фалсафий, ахлоқий ғояларни сингдиришда, юксак инсонпарварлик туйғуларини шакллантиришда, шу билан бирга, эстетик маданиятини юксалтиришда муҳим руҳий-эмоционал омил бўлиб хизмат қилади.

Учинчидан, замонавий талаба ёшлар эстетик маданиятини юксалтиришда ўз қобилияти, иқтидори, истеъдоди ва умуман эркин ижодий фаолиятини ривожлантириш учун етарли объектив, субектив шароитларни юзага келтиради. Шу боис замонавий талаба ёшлар эстетик маданиятини юксалтириш жараёнида, жамият маънавий янгиланишида ва тараққиётининг барча соҳаларида юз бераётган ислоҳотларни уйғун ҳолда таҳлил этиш мақсадга мувофиқдир. Бу ўз навбатида, замонавий талаба ёшлар эстетик маданиятини юксалтириш масаласини маънавий тараққиётнинг таркибий қисми сифатида махсус тадқиқ этиш заруриятини келтириб чиқаради.

Муסיқий тафаккур – муסיқий маданият ўзига хослиги, қонуниятларини билишнинг специфик, интеллектуал жараёни ва муסיқий санъат асарини тушунишдир. Муסיқий тафаккурнинг ўзига хослиги муסיқий қобилиятнинг ривожланганлигига, шунингдек, инсон яшаб тарбияланаётган муסיқий муҳит шарт-шароитига боғлиқ. Шарқ ва Ғарб муסיқий маданиятлари орасидаги тафовутларни алоҳида таъкидлаш жоиз. Шарқ муסיқаси учун монодияга асосланган тафаккур: кўплаб лад кўринишлари, чорак тонли, нимчорак тонли, глиссандо усулларининг қўлланилиши, ритм тузилишининг бойлиги, товушларнинг нотемперациявий муносабати, тембр ва куй хилма-хиллигидан фойдаланиш билан муסיқий тафаккурни горизонтал ривожлантириш, хосдир. Европа мусиқа маданияти учун эса гомофон-гармоник тафаккур: гармоник кетма-кетлик ҳаракати мантиқи билан боғлиқ муסיқий тафаккурни вертикал ривожлантириш хосдир.

Муסיкий тафаккур идрок этиш асосида шаклланади. Нима учун муסיқани ҳамма эшитадию, лекин ҳамма ҳам идрок эта олмайди? Нима учун европалик тингловчи Шарқ муסיқасини, шарқ тинловчиси Европа муסיқасини ҳар доим тўла тушунавермайди? Чунки, муסיкий идрокнинг тўлақонлилиги, муסיкий ифода воситаларини тушуниш имконияти, интенсивлик ва муסיкий кечинма турлари ҳар бир одамда ҳар хил бўлиб, ўз хусусиятлари, сабабига эга.

Бугунги замонда барча эзгу ниятли инсонларни бирлаштириш, ёшларни юксак гуманистик идеаллар руҳида тарбиялашда муסיқа санъатининг ўрни ва аҳамиятини ҳеч нарса билан ўлчаб, баҳолаб бўлмайди.

Муסיкий мазмун – идрок этилиши натижасида тафаккур даражасида англанади, бунда оҳанглар образларининг ифодавий ва тасвирий имкониятлари муҳим роль ўйнайди. Муסיкий тафаккур қадим замонлардан буён ўрганиб келинади. Пифагорнинг монохорд устида олиб борган тажрибалари жараёнида кашф этган муסיкий овозларнинг ўзаро муносабатлари тизими, айтиш мумкинки, муסיкий тафаккур фанининг ривожини бошлаб берди. Муסיкий тафаккурнинг барча турлари ижтимоий тарихий хусусиятга эга, яъни маълум бир тарихий даврга тегишли.

“Муסיкий тафаккур тушунчаси муסיкий тажрибанинг оқилона томони сифатида биринчи бўлиб Б.В.Асафьев томонидан таклиф этилган. Бошқа бир олим А.Ф.Лосев диалектик ўлчовда муסיкий тафаккур категориясини ривожлантиради. Муסיкий тафаккур иборасини ишлатишнинг талқинлари замонавий Америка муסיқа феноменологиясида ҳам учрайди”. В.Б.Сокол ўз докторлик тадқиқотида муסיкий-эстетик тафаккурни нафас ва овоз йўналганлиги бирлиги сифатида таърифлаб, қиёсий таҳлил қилади.

“Замонавий муסיқа педагогикасида муסיқани жанр таҳлили асосида ўқитишда катта тажриба тўпланган. Муסיқашуносликда ўрганилган жанр таснифи деярли барча ўқув дастурларида муסיқа материални танлаш ва тартибга солиш учун асос бўлиб хизмат қилади”. “Муסיқа оддий ёки мураккаб тузилган бўлиши, дағалроқ ёки нозик, оммавийлашган ёки ўзига хос бўлиши мумкин”. Буларнинг барчаси ёшларда шаклланадиган муסיкий дид даражасига сезиларли таъсир кўрсатади ва тингланадиган муסיқа асарларига билдириладиган муносабат ўсмирлар томонидан ушбу асарларга бериладиган баҳо тарзида қабул қилиниши мақсадга мувофиқ. Муסיкий тафаккурнинг ривожланиши илм-фаннинг гуллаб-яшнаши ҳамда бадий маданиятнинг гуркираб ривожланиши билан бир вақтда рўй берган. Илм-фан ва санъатни бир биридан ажратиш асло мумкин эмас. Илмий кашфиётларнинг дояси, илҳомчиси доимо муסיкий тафаккур бўлган, муסיкий тафаккур натижасида инсон

сезгилари ижтимоийлашади, фикр тиниклашади, бутун борликни идрок этиш фаоллашади. Инсондаги меҳр-шафқатлилиқ ва ҳамдардлик сингари инсоний фазилятлар миллий муסיқий тафаккур орқали шаклланади ва камол топади.

Муסיқий тафаккурни инсон онги ва хиссиётларига таъсир этишнинг ажойиб кучи унинг руҳий жараёнларига ҳамоҳанг бўлган процессуал – муайян жараёнли табиати билан боғлиқдир. Мумтоз муסיқа маданиятига оид асарлар мазмунига бадиий ғоялар умумлашган ҳолда берилиб, муסיқали образларнинг ўзаро муносабатлари яъни таққослаш, тўқнашув, ривожланиш жараёнида шаклланади. Мазкур жараённинг хусусиятларига кўра муסיқа мазмуни ҳам турли эпик, драматик, лирик белгиларга эга бўлади.

ХУЛОСА

Муסיқа шахсий, миллий ва умумбашарий бадиий қадриятларнинг бирлигидан иборат бўлиб, бунда мазлум халқ, жамият ва тарихий даврга хос руҳий тароват, суръат, ижтимоий фикр ва кечинмалари тўғрисидаги умумлашмалар ифода этилади. Муסיқий маданият ҳар бир даврнинг маънавий-маърифий талабларига жавоб берган ҳолда, айти вақтда инсон фаолиятининг кўпгина жабҳалари билан муштаракдир. Муסיқий тафаккурнинг инсон ахлоқий ва эстетик дидини шакллантириш, ҳиссий туйғуларини ривожлантириш воситаси сифатидаги роли жуда муҳимдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли Фармони.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан курамыш. –Тошкент: Ўзбекистон. 2017
3. Арзиматова И.М. Эстетик маданият. –Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти. 2007. –Б. 23
4. Арзиматова И.М. Эстетик маданият ва маънавий камолот. –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ. 2009. –Б. 61, 102
5. Абдулла Шер, Баҳодир Хусанов. Эстетика. Услубий қўлланма. 2-нашр. – Тошкент: ЎзМУ. 2008. – Б. 34.
6. Умаров Э, Шеров.А, Хусанов Б. Эстетика. Услубий қўлланма. –Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар жамияти, 2010. –Б. 92, 102.
7. Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари (монография). – Тошкент: Фан. 1974. –Б. 221

8. Abduvali o'g'li, A. A. (2023). XX ASR MUSIQA SAN'ATI RIVOJINING VA'ZI XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 729-734.
9. Абдусатторов, А. А. Ў. (2023). ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚ ЧОЛҒУ ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ. *Science and innovation*, 2(Special Issue 5), 521-526.
10. Бурхонов, Р. М., Алиев, С., Габриэлян, С., & Гиенко, Б. ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚ ЧОЛҒУ ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ Абдусатторов Абдужалил Абдували ўғли.
11. Abdusattorov, A. (2023). MUSIQA DARSLARI JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI. *Наука и инновация*, 1(9), 8-12.
12. Abdusattorov, A. (2023). TORLI KVARTET UCHUN ASARLAR YARATISHNING METODOLOGIK BOSQICHLARI. *Наука и инновация*, 1(9), 4-7.
13. Абдусатторов, А. А. Ў. (2022). БАСТАКОРЛИК ИЖОДИДА МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 602-605.
14. Abdusattorov, A. (2020). About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 2(11), 28-30.
15. Adiljanovna, A. M., Nurullaevna, N. M., Abdumalikovna, Y. D., Sharobidinovich, M. J., Abdusalil Abduvalio'g'li, A., & Behzod Asqaralio'g'li, T. (2021). Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heritage. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 9092-9100.
16. Баймухамедова Н. Алишер Навои о музыке. История и современность. Проблемы музыкальной культуры народов Узбекистана, Туркмении и Таджикистана. –Москва: Музыка. 1972.

TA'LIM OLUVCHILARNI KOMPETENTLIK YONDASHUVINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Sadixanov Akmaljon Arapovich

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Misterbehruz20@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada o'qituvchilarni o'rganayotgan fanlariga nisbatan kompetentligini shakllashtirish bo'yicha pedagogik talablar haqida va omillar haqida so'z yuritilgan. Zamonaviy pedagogik ta'lim tizimining maqsadi, yoshlarimizni bilimlarini takomillashtirib borishi ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: kompetentsiya, izchil, samaralilik, loqaydlik, mehnatsevarlik, mas'uliyatlik, faollik, xulq-atvor, bilim, ma'rifat.

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА СТУДЕНТОВ

АННОТАЦИЯ

В статье говорится о педагогических требованиях и факторах формирования компетентности учителей по изучаемым предметам. Целью современной системы педагогического образования является повышение уровня знаний нашей молодежи.

Ключевые слова: компетентность, последовательность, работоспособность, равнодушие, трудолюбие, ответственность, активность, поведение, знания, просвещенность.

FACTORS OF FORMING STUDENTS' COMPETENCE APPROACH

ABSTRACT

The article talks about the pedagogical requirements and factors for the formation of competence of teachers in the subjects they study. The purpose of the modern pedagogical education system is to improve the knowledge of our youth.

Keywords: competence, consistency, efficiency, indifference, diligence, responsibility, activity, behavior, knowledge, enlightenment.

KIRISH

“Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” va “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunda ta'lim mazmunini yangi shakl va ko'rinishlarini joriy etish, o'quvchi faoliyatini

rivojlantirishga, bolaning saxsiy fikrini kamol toptirishga xizmat qiladigan, ijodkorlikka yo'naltiruvchi natijali ta'limni tashkil etishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirishga erishish muhim vazifa ekanligi uqtirilgan.

Malaka — shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi;

davlat ta'lim talablari — ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar⁶⁰dir.

Aynan ana shu dastur va Qonunlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda o'quvchilarni kompetentligini shakllashtirishdagi ilmiy izlanishlar samarasi kadrlar tayyorlash masalasi e'tiboriga molikdir⁶¹.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT USLUBLARI

O'zbekiston respublikasining qonuni. Ta'lim to'g'risida. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. 11 bob, 75 modadan iborat. Ushbu Qonunning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Pedagog olimi O. Musurmonova ta'lim-tarbiya nazariyasiga bog'liq o'z darsligida[4] pedagogik kompetentlik masalalari, ayniqsa o'qituvchilarning fanlar bo'yicha kompetentlikka ega bo'lishligini aloxida ko'rsatib o'tgan. Darslikda kasbiy kompetentsiyalar, pedagogning kasbiy kompetentsiyalari, fanlar bo'yicha ayniqsa umumiy fanlar bo'yicha maxsus kompetentsiyalar, ularning tasnif va ta'riflari, ularni ta'lim ishtirokchilarida shakllantirish bosqichlari va pedagog kasbiy kompetentligi yo'nalishlarini asoslab berilgan.

Tadqiqotchi S.Sh. Akbarova ilmiy maqolasida globallashtirish jarayonida kreativ kompetentsiyalar va ularni mustaqil ta'limga qo'llash yo'llari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek talabalar kreativ kompetentsiyalarga ega bo'lishlari uchun ulardan ta'lim – tarbiya jarayonida an'anaviy yondashuvlardan farqli yangi g'oyalar haqida fikrlash, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etilishi haqida fikr yuritgan. Ta'lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlarini ko'rsatib o'tgan[8].

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Mamlakatimizda ma'nan yetuk , ruhan sog'lom, uyg'un kamol topgan avlodni tarbiyalash uchun zarur imkoniyatlar bazasini yaratishga erishildi. "Maktab ta'limini

⁶⁰ O'RQ-637-coH 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida.

⁶¹ O'RQ-637-coH 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida.

rivojlantirish Davlat dasturi”ning samarali amalga oshirilganligi buning yo’rqin dalilidir. Ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda asosiy omil sifatiga qaralayotgan ta’lim texnologiyalarni ayniqsa, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etishdan, multimediya resurslaridan oqilona foydalanishdan, buning mevasi bo’lgan o’quvchi bilish qobiliyatini o’stirishdan iborat. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarning afzallik tomoni shundaki, o’quvchini mustaqil fikrlashga, dunyoqarashini kengaytirishga, tinglashga va mushohada etishga, intilish va izlanishga, tafakkurni rivojlantirishga, o’z ustida mustaqil ishlashga o’rgatadi. O’qituvchi va o’quvchi birgalikda faoliyat yuritadi. O’qituvchi boshqaruvchi sifatida o’quvchiga turli yo’nalishlarni ko’rsatadi. O’quvchi dars jarayonida faol harakat qilib, o’zi mustaqil fikr yuritadi. Darsda malakalarini samarali ravishda qo’llashga o’rgatish dars samaradorligini oshiradi.

Ta’limning barcha bosqichlarida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ayniqsa, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali va oqilona foydalanish va yuqori samaradorlikka erishishga alohida ahamiyat berish darkor. Jahon talablariga mos keluvchi raqobatbardosh, malakali kadrlar tayyorlashga, kelajak avlodni yuksak ma’naviyatga, ijtimoiy hayotda ro’y berayotgan o’zgarishlarga to’g’ri munosabatda bo’lishga, milliy qadriyatlarimizning mohiyatini chuqur anglab yetadigan barkamol shaxslarni tarbiyalash yo’lida faoliyat olib boruvchi o’qituvchi ijodkorlik, izlanuvchanlik, fidoiylik naminalarini ko’rsatishi lozim. Shuningdek o’qituvchida ham mahorat va san’at bo’lishi kerakki, u o’quvchilarni o’ziga jalb eta olishi, darsini qiziqarli qilib o’tishi va o’quvchiga bilim va tarbiya bera olishi kerak.

Hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri o’quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallab turgan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo’llashga o’rgatish, mustaqil o’rgatish, mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko’zda tutilmagan noaniq, ya’ni, muammoli vaziyatlar vujudga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish hamda egallagan bilimlarni kundalik turmushi jarayonida qo’llay oladigan xususiyatlarni egallashni tarbiyalashdan iboratdir.

Ta’lim oluvchilar quyidagi huquqlarga ega:

bepul asosda umumiy o’rta, o’rta maxsus ta’lim va boshlang’ich professional ta’lim olish⁶²;

yashash joyidagi (mikrohududdagi) davlat umumiy o’rta ta’lim muassasasiga qabul qilinish;

ta’lim olish shakllarini erkin tanlash;

⁶² 47-modda. Ta’lim oluvchilarning huquqlari

davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq sifatli ta'lim olish;

ta'lim olish uchun o'zining ruhiy xususiyatlari va fiziologik rivojlanishi inobatga olingan holda zarur shart-sharoitlarga ega bo'lish, shuningdek bepul psixologik-tibbiy xizmatlardan foydalanish;

davlat ta'lim muassasasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq, professional ta'lim va oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari talablariga binoan ishlab chiqilgan, o'zi oladigan ta'limning mazmunini shakllantirishda ishtirok etish;

pedagog xodimlar va ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari tomonidan hayoti va sog'lig'iga qilinadigan har qanday jismoniy hamda ruhiy zo'ravonlikdan, shaxsi haqoratlanishidan himoyalani;

ta'lim olish davrida dam olish va boshqa ijtimoiy ehtiyojlar uchun ta'tillar olish; akademik ta'tillar va stipendiyalar olish, o'qishni tiklash va o'qishini boshqa ta'lim tashkilotlariga, bir ta'lim shaklidan, kasbdan, ta'lim yo'nalishidan, mutaxassisligidan boshqasiga ko'chirish;

ta'lim tashkilotini boshqarishga doir masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

ta'lim olish jarayonida ta'lim tashkilotining o'quv, uslubiy, ilmiy-ishlab chiqarish, madaniy, sport va maishiy obyektlari xizmatlaridan bepul foydalanish;

ta'lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, ilmiy-texnikaviy, eksperimental va innovatsion faoliyatida ishtirok etish⁶³.

O'quvchilarda bu xususiyatlarni tarbiyalashda, ayniqsa, ona tili va adabiyat faniga oid bilim, ko'nikma va malakalarning dars jarayonida singdirish bilan birgalikda ularda kompetensiyalarni ham shakllantirilishi lozim.

Kompetensiya –muayyan fan bo'yicha o'quvchi egallagan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni echishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir.

Inson qaysi kasb sohibi bo'lishidan qat'iy nazar o'z ishiga, mashg'ulotiga qunt bilan, mehr bilan yondashsa, uning sir asrorini mukammal egallaydi, shu bilan birga o'z-o'zini anglaydi, shu sohada kamol topadi. O'qituvchi ham bolalarni sevsal, tarbiyalasa, o'zi ham ulg'ayadi, donishmandlik kasb etib boradi. O'qituvchi kelajak farzandini tarbiyalab bilim beradi. Zero kelajak yoshlar qolida, ular bizning ertangi kunimiz. Ularda kompetensiyalarni shakllantirilishi, dars davomida o'quvchining faqat tinglovchi yoki eshitganini takrorlovchi "to'ti"ga emas, balki chuqur mushohada yurituvchi, mustaqil fikrini bayon etuvchi, boshqalar bilan o'zaro hamkorlikda ishlovchi, o'z g'alar fikrini hurmat qiluvchi, keng dunyoqarashli shaxsga

⁶³ O'RQ-637-coH 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida.

aylantitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'рни beqiyosdir. Interfaol metodlarni qo'llab dars o'tish o'quvchilarda har tamonlama ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil egallash, bilim va ko'nikma, malakalarini shakllantirish va shu asosida o'quvchilarning ilmiy dunyo-qarashlarini tarkib toptirish hamda faolligini oshirish, erkin fikr yurita olishga o'rgatish, ijodiy qobiliyalarini aniqlash va ro'yobga chiqarish, o'qituvchi – o'quvchi hamkorligini shakllantirish va nihoyat kafolatlangan yakuniy natijaga erishishni ta'minlaydi. Interfaol usullarda o'qituvchi o'quvchining mustaqil va mukammal bilim olishi uchun muhit yaratmog'i, fan asoslarini egallashga yo'naltirmog'i, qiziqish, mehr uyg'otish bilan shug'ullanadi. Yangi pedagogik texnologiya dars o'tish usullari va shakllarini o'zgartirib, ularni xilma-xil qilib, o'quvchini o'quv jarayonining faol qatnashchisiga aylantiradi. O'qitishning innovasion, nostandart (interfaol) shakllari kompyuterli o'yinlar, internetdan foydalanish, elektron darsliklar bilan turli usullarda yangi mavzuga ko'proq e'tibor qaratish, o'qitishni suhbat, o'yin, musobaqa, sahna ko'rinishli, musiqali, savol-javob, aqliy hujm, mushoira sayyohat, intervyu, tijorat, bahs-munozara kabi usullarda dars o'tishni talab qiladi. Darsning borish jarayonida ta'limiy metodlar va usullar almashina boradi. Noan'anaviy darsda o'quvchi shaxsi birinchi o'rinda turadi. O'qituvchi o'quvchi bilan yakkama-yakka, interfaol usulida harakat qiladi.

Adabiyot boshqa fanlardan farq qilib, san'at sifatida inson ruhiyati, his-tuyg'ulari, tafakkurini, ma'naviy dunyosini boyitishda, eng kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Interfaol darslarda ijodiyot, his-tuyg'u, sezgi, idrok faollashadi. O'qituvchi obrazlar va tasvirlar, qiziqarli ko'rgazmalar orqali o'quvchini bilishga, tafakkur qilishga, go'zallikni ko'ra olishga, dunyoga bo'lgan munosabatini shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

Musiqqa fani ham o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatib, ularning ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Avvalo o'qituvchining nutqi sof va chiroyli bo'lmog'i, u ishoralar, qochiriqlar, isteora va xalq maqollari, afarizmlardan o'rinli foydalana olishi, nutq ohangiga, so'z jozibasiga e'tibor berishi kerakligi talab etiladi.

Interfaol darslarni tashkil etishda o'qituvchining notiqlik san'ati, chiroyli so'zlash mahorati o'quvchining diqqatini jalb etadi. O'qituvchi – o'quvchi ruhini, psixologiyasini yaxshi bilishi har bir o'quvchi bilan individual ishlashni, unga nima topshiriq berishni yaxshi bilishi kerak. O'qituvchidan dars o'tishda ta'lim va tarbiyaning uygunligiga, fanlararo bog'liklik, davr yangiliklari, fan yangiliklaridan boxabar bo'lmoqlik, pedagogik ko'nikma va yuksak saviya, ijodkorlik talab etiladi.

Shuning ushun han o'qituvchilik nihoyatda mas'uliyatli va sharaflı kasb deb ulug'lanadi. "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir. O'qituvchi ming-minglab murg'ak

qalblarga ezgulik yog'dusini baxsh etadigan, o'z o'quvchilariga haqiqatan ham hayot maktabini beradigan mo'tabar zotdir", - deydi I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida.

Darhaqiqat, mustaqil O'zbekistonimizning porloq istiqboli barcha fuqarolarning, shuningdek, umumxalq, umummilliy faoliyatiga aylandi, **"Betakrorimsan, yagonasan, ona vatanim –go'zal O'zbekistonim** "g'oyasini har bir dars va tarbiya bog'iniga' singdirish muhim omillardan biriga aylandi.

XULOSA

Ta'lim olish huquqi: oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiy o'rta ta'lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://lex.uz/docs/-5013007>. O'RQ-637-сон 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 02.02.2022 yildagi PQ-112-son qarori.
3. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
4. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O'quv metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 120 – .2015 b.
5. Umumiy pedagogika. Qism 1: darslik / O.Musurmonova [va boshq.]. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 376 b.
6. Avazboev A. I., Pardaboev J. E. Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari //Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). – 8 .№ – .2018.
7. Ibragimova G. N. Oliy ta'lim tizimida interfaol texnologiyalar vositasida talabalardagi ijodiy fikrlashni rivojlantirish //Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). – 4 .№ – .2017.
8. Акбарова, С. (2022). Основы развития креативных компетентсий студентов в протессе самостоятельного обучения. Экономика и образование, 23(2), 311–316. извлечено от <https://cedr.tseu.uz/индекс.пхп/жоурнал/артисле/виев/473>
9. Qodirova M.T. Kompetentlik yondashuvi nazariyasi va uning pedagogic mazmuniga doir qarashlar. Molodoy uchyonniy. 2020.

10. Abduvali o'g'li, A. A. (2023). XX ASR MUSIQA SAN'ATI RIVOJINING VA'ZI XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 729-734.
11. Абдусатторов, А. А. Ў. (2023). ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚ ЧОЛҒУ ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ. *Science and innovation*, 2(Special Issue 5), 521-526.
12. Бурҳонов, Р. М., Алиев, С., Габриэлян, С., & Гиенко, Б. ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚ ЧОЛҒУ ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ Абдусатторов Абдужалил Абдували ўғли.
13. Abdusattorov, A. (2023). MUSIQA DARSLARI JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI. *Наука и инновация*, 1(9), 8-12.
14. Abdusattorov, A. (2023). TORLI KVARTET UCHUN ASARLAR YARATISHNING METODOLOGIK BOSQICHLARI. *Наука и инновация*, 1(9), 4-7.
15. Абдусатторов, А. А. Ў. (2022). БАСТАКОРЛИК ИЖОДИДА МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 602-605.
16. Abdusattorov, A. (2020). About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 2(11), 28-30.
17. Ismoilov, N. B. (2023). YANGI O 'ZBEKISTONDA TA'LIM VA ILM SOHALARI RIVOJLANISHNING YANGI DAVRIDAGI MUHIM ASOSLARI. *International scientific journal of Biruni*, 2(1), 81-88.
18. Najmiddin, I. (2023). THE INTEGRATIVE ROLE OF SCIENTIFIC KNOWLEDGE IN INFORMATION SOCIETY.
19. Adiljanovna, A. M., Nurullaevna, N. M., Abdumalikovna, Y. D., Sharobidinovich, M. J., Abdusalil Abduvalio'g'li, A., & Behzod Asqaralio'g'li, T. (2021). Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heritage. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 9092-9100.

YOSHLARNING ESTETIK TAFAKKURINI YUKSALISHIDA MUSIQA MADANIYATIDAGI KONSEPSIYALAR

Djalalova Nigora Xusanovna

Farg'ova davlat universiteti tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Estetika - badiiy ijoddagi, tabiat va hayotdagi go'zallikning mohiyati va shakllari haqidagi ijtimoiy ongning alohida shakli sifatidagi falsafiy ta'limotdir. San'at turlari, shuningdek, musiqiy madaniyat ham uning uning bir jabhasidir. Shaxsning estetik tafakkurini shakllantirishda va yuksaltirishda musiqiy madaniyatning o'rni beqiyosdir. Falsafa va estetikada musiqiy madaniyatning ulkan tarbiyaviy salohiyati: insonning g'oyaviy, axloqiy fazilatlarini shakllantirishga faol ta'sir ko'rsatish qobiliyati, uning ijodkorligi, intizomi, yuksaklikka intilishi ta'kidlanadi. Ko'plab mutafakkirlar musiqa madaniyatining shaxs estetik tafakkurini yuksaltirishdagi ahamiyati haqida gapirib o'tganlar.

Ushbu maqolada yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda musiqa madaniyati konsepsiyalarining ahamiyati, bu boradagi muammolar va ularning yechimlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: falsafa, estetika, musiqa madaniyati, falsafa madaniyati, estetik tafakkur, yoshlar, konsepsiya.

АННОТАЦИЯ

Эстетика-философское учение как особая форма общественного сознания о сущности и формах красоты в художественном творчестве, природе и жизни. Виды искусства, а также музыкальная культура являются ее аспектами. Роль музыкальной культуры в формировании и совершенствовании эстетического мышления человека несравненна. В философии и эстетике подчёркивается огромный воспитательный потенциал музыкальной культуры: способность активно влиять на формирование идейно-нравственных качеств человека, его творческие способности, дисциплинированность, стремление к совершенству. Многие мыслители говорили о значении музыкальной культуры в совершенствовании эстетического мышления человека.

В данной статье говорится о значении концепций музыкальной культуры в совершенствовании эстетического мышления молодежи, проблемах в этом плане и их решениях.

Ключевые слова: философия, эстетика, музыкальная культура, философская культура, эстетическое мышление, молодежь, концепция.

ABSTRACT

Aesthetics is a philosophical doctrine as a special form of social consciousness about the essence and forms of beauty in artistic creativity, nature and life. Art forms as well as musical culture are its aspects. The role of musical culture in the formation and improvement of human aesthetic thinking is incomparable. Philosophy and aesthetics emphasize the enormous educational potential of musical culture: the ability to actively influence the formation of a person's ideological and moral qualities, his creative abilities, discipline, and the desire for perfection. Many thinkers have spoken about the importance of musical culture in improving a person's aesthetic thinking.

This article talks about the importance of the concepts of musical culture in improving the aesthetic thinking of young people, problems in this regard and their solutions.

Key words: *philosophy, aesthetics, musical culture, philosophical culture, aesthetic thinking, youth, concept.*

KIRISH

Yoshlarning estetik tafakkurini yuksalishida musiqiy madaniyat katta rol o'ynaydi. Musiqiy madaniyat estetik, psixologik, ijtimoiy va boshqa sohalar o'zaro bog'liq bo'lgan juda murakkab ta'limlardan biridir. Bu murakkab ta'limning asosi esa musiqa bilan bog'liqdir. Musiqaning qadr-qimmatini odob-axloq bilan tanilgan bo'lib, komil va go'zallikka ko'tariladi. Platon va Aristotel musiqaning jamoat ishlarida tarbiyaviy, o'zgartiruvchi va tartibga soluvchi rolini tasdiqlash uchun juda ko'plab tadqiqotlar o'tkazishgan. Antik davridayoq musiqaning munosabat, shakllanish, jarayon, harakat kabi ma'naviy kategoriyalari tasdiqlangan. Musiqa umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirishda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o'ziga xoslik nafaqat shaxsning estetik-axloqiy ehtiyojlarini rivojlantirishda, balki yuksak axloqiy mazmunga ega musiqa qudrati doirasidagi ma'naviy madaniyatning yuksalishida ham katta ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT USLUBLARI

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etar ekanmiz, Abu Nasr Forobiyning musiqaga oid qarashlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Forobiy musiqani tarbiyaviy ilm deb ataydi va uning ahamiyati haqida shunday deydi: "Ushbu fan xulq-atvori mutanosib yoshlarni muvozanatlashtirish uchun foydalidir, mukammal bo'lmaganlarni mukammal qiladi va muvozanati buzganlarning muvozanatini saqlaydi. Tananing sog'lig'i uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo'lganda, ruh o'ladi va tanada

muammo bo'lganda ruh azoblanadi. Shuning uchun, tananing shifo topishi uchun ruh musiqa sadolari ostida davolanadi". Xususan, u musiqaning ajoyib sehrli kuchi, mo'jizakor ta'siri haqida «Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida» asarida shunday deydi: «Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamni tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xalqni mukammal qiladi va muvozanatini saqlab turadi».[1]

Musiqiy estetika muammosi musiqa san'ati rivojlanishining barcha bosqichlarida ko'rib chiqilgan, chunki musiqiy estetikaning chuqur ildizlari qadimgi antik davrlarga borib taqaladi. Bunda esa buyuk faylasuflar: Pifagor, Platon va Aristotel tomonidan taklif qilingan musiqaning estetik va qadriyat mezonlari bilan bog'liq bo'lgan insonning eng muhim axloqiy fazilatlarini o'z aksini topadi.

Ushbu muammoni faylasuf olimlar qadim zamonlardan beri o'rganishga harakat qilganlar. "Buyuk va go'zallik g'oyalarimizning kelib chiqishiga falsafiy tadqiqot"- Edmund Burk tomonidan 1757 yilda yozilgan estetikaga oid falsafiy risoladir.

Buyuk musiqa faylasufi, sovet olimi A.F.Losev bo'lib, uning ijodiy merosi musiqa falsafasi muammolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan estetika sohasidagi ko'plab tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. A.F.Losev butun ilmiy faoliyati davomida musiqa hodisasining har qanday jismoniy va psixofiziologik hodisalardan mustaqilligi tamoyilini qat'iy himoya qilib, musiqa insonlarda go'zlikni his etishni, ahloqiy normativlarni rivojlantirib, estetik tafakkurni yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etishini aytib o'tgan.[2]

Ish jarayonida mahalliy va xorijiy olimlarning (Gerasimova I.A., Goldin L.I., Davidov Yu.N., Rodnyanskaya I.B., Larmin O.V., Varadi L., Molnar E.) asarlari ko'rib chiqildi, unga ko'ra zamonaviy badiiy jarayonning bir qator dolzarb muammolari ko'rsatilgan. Musiqa madaniyati vositasida shaxsiyatni estetik tafakkurlarini yuksaltirish ko'rsatadigan oz sonli asarlar (V. Korrell, D. Kuznetsova, G. G. Lekveishvili, N. Moreva, I. P. Ruppert) ishlatilgan.

Madaniyat va san'at sohasidagi islohotlarni jadal davom ettirish, madaniyat organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining ijrosini ta'minlash maqsadida chora tadbirlar belgilandi. Jumladan, sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustda "O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-3920-sonli qarori, 2018-yil 28-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-

sonli qarori, 2020-yil 26-mayda “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o’rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6000-sonli farmonlari qabul qilindi.[3]

Shu bilan birgalikda 2021-yil 9-dekabrda “Madaniyat va san’atni rivojlantirishni qo’llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi PQ-36-sonli hamda 2022-yil 2- fevralda “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-112-sonli qarorlarida ham sohaga oid dolzarb masalalar belgilangan bo’lib, ularni amalga oshirishda soha mutasaddilariga juda katta vazifalar yuklatilgan. Madaniyat va san’at sohasida juda ko’p yillar davomida mehnat qilgan fidoyi insonlardan biri bo’lgan siyosiy fanlar nomzodi, professor Azamat Haydarov “Har bir vazifada juda katta ezgulik va ulug’ maqsadlar mujassam” ligini alohida ta’kidlagan.[4]

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Musiqqa- bu insonning hissiy holatiga ta’sir qiladigan tovush tarkibiy qismlarining birlashtirilgan kombinatsiyasi san’ati bo’lib, bu tasvirlar, fikrlar va his-tuyg’ularni yetkazishga qaratilgan qat’iy chastota va vaqtni tashkil etadigan intonatsion xarakterdagi tovush faoliyatining o’ziga xos turidir.

Madaniyat - bu inson tomonidan yaratilgan va shu bilan birga insonni yaratadigan, insoniyat hodisasini keltirib chiqaradigan hamma narsadir. Adabiyot, san’at, falsafa- madaniyatning eng shubhasiz tarkibiy qismlaridir, chunki ular insoniyat tomonidan o’z-o’zini anglash va insoniyatni o’zgartirish uchun xizmat qiladi.

Bundan ko’rinib turibdiki, musiqa va madaniyat bir biri bilan bog’liq. Musiqiy madaniyat misolida yoshlarning estetik tafakkurini yuksaltirishdagi ahamiyatini ijtimoiy –falsafiy jihatdan tadqiq qilish uchun konsepsiyalarni ko’rib chiqdik. Avvalo shuni ta’kidlash kerakki Konsepsiya o’zi nima?

Konsepsiya (lot. conceptio — majmua, tizim) — biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar degan ma’nolarni anglatadi.

Ushbu tadqiqotimizda biz musiqiy madaniyatga oid kosepsiyalarni aniqlab, quyidagi natijalarga erishish zarurligini aniqladik.

Shaxsning estetik tafakkurini (musiqiy madaniyat orqali) bolalikdan shakllantirish lozim. Buning uchun bolani kichik yoshidan bog’chaga berish tavsiya etiladi. Bola bog’chada har tomonlama shakllanadi, shu jumladan estetik tomondan ham. Estetik tafakkurini shakllanishida ayniqsa bog’cha musiqa rahbarining o’rni kattadir. Musiqa mashg’ulotlari, to’garaklar, turli xil bayram ertaliklari orqali yosh shaxsda estetik tafakkur shakllana boshlaydi. Bola estetik tomondan ushbu tadbirlarni

kuzatib, bevosita ishtirok etib emotsional zavq oladi, shakllanadi. Buning uchun esa musiqa rahbari izlanuvchan, qobiliyatli, fantaziyaga boy kadr bo'lishi shart. U mashg'ulotlarini, bayram ssenariylarini, to'garak rejalalrini o'ylab, fikrlab, qiziqarli qilib tashkilashi kerak. Har bir tadbirlarida estetika, go'zallik, ahloq-odob namunalari berilib borilishi kerak. Shundagina yosh shaxsning estetik tafakkuri shakllana boshlaydi. Lekin xozirgi paytda bunday musiq rahbarlarimiz kamayib bormoqda nazarimizda. Bog'chalardagi musiqa mashg'ulotlari, bayram ertaliklari xo'jako'rsinga o'tkazilmoqda. Biron bir qiziqarli reja yo'q! Bu esa albatta achinarli holat. Bola kichik yoshidan shunday tarbiyalansa u yosh avlodga aylansa tafakkuri, dunyoqarashi tor bo'lib qolmaydimi? Buning yechimi va yangiligi quyidagicha deb o'ylaymiz:

1. Musiqa rahbari oliy ma'lumotli kadr bo'lishi shart;
2. Musiqa rahbarining rejalalri o'ylangan, puxta bo'lishi kerak;
3. Musiqa rahbari tanlov asosida olinib, u rus va biron bir chet tilini bilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.
4. Bayram ertaliklari ssenariylari har bir bayram tadbirlariga muvofiq ma'noli, ta'lim-tarbiyaga boy bo'lishi lozim.

O'rta maktablarga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat bo'lishi kerakligini tadqiq qildik:

- Musiqa fanini soatini ko'paytirish zarurdir. Musiqa fanini haftada ikki marta o'tish kerak. Chunki hamma bola ham musiqa maktabida o'qimaydi. Musiqa maktabiga bormaydigan bolaning estetik tafakkuri musiqa maktabiga boradigan bolaga qaraganda sustroq, dunyoqarashi torroq bo'ladi.

-Musiqa fani darsligini qayta ko'rib chiqish zarurdir.

-Maktablarda musiqa to'garaklarini san'at kollejarini, madaniyat vazirligiga qarashli oliy ta'limni bitirgan mutaxassislar olb borishsa maqsadga muvofiq bolar edi. Chunki musiqa to'garaklarini o'lib borish juda nozik masaladir. Bunga chuqur, individual bilim, qobiliyat kerakdir. Musiqa darsi bir tizimda o'tilsa, to'garaklar ma'lum bir yo'nalish uchun o'tiladi. Masalan: orkestr to'garagi, xor to'garagi, vokal solisti to'garagi, raqs to'garagi va h.z.o. Ushbu to'garaklarni o'z mutaxssisi o'tsa yoshlarning estetik tafakkuri yanada yuksaladi.

O'quvchilar tafakkurini musiqa orqali shakllantirish va yuksaltirish muammosi quyidagilarni muhim vazifa sifatida belgilaydi:

-o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni kasb-hunarga yo'naltirish, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish, o'rganish, tahlil qilish va tarbiyaviy ishlarni olib borish;

-o'quvchi-yoshlar estetik tafakkurini shakllantirish yuzasidan musiqa to'garaklari faoliyatini o'rganish;

-musiqa to'garaklari asosida o'quvchi-yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va boshqalar.

- har bir umumta'lim maktabida sinfdan tashqari musiqa to'garaklarini amalga oshirishda mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda, uning yo'nalishi, rivojlanish istiqbollari, ijtimoiy normalar, qoidalar va an'analari, moddiy-texnik holati, tadbirlar dasturi, sinfdan tashqari mashg'ulotlarning maqsadi va asosiy vazifalarini belgilash maqsadga muvofiqdir.

Musiqa madaniyati mustaqil Respublikamiz yoshlarini ma'naviy dunyosini boyitish, ularni go'zal narsalarning hammasidan bahramand qilish kabi ijobiy xususiyatlarga ega. Ma'naviy g'oyasi yuksak, badiiy jozibali musiqa asarlari kishilar qalbiga tezroq yo'l topish, estetik hissiyotiga kuchli ta'sir qilish, hayotiy voqea - hodisalarni chuqur mushohada qilishga da'vat etishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganlaridek: "Musiqa-hech narsa bilan o'lchab, solishtirib bo'lmaydigan beqiyos ilohiy ta'sir kuchiga ega!"

San'at sohasidagi Oliy ta'lim muassasalarida ham mutaxassislik fanlarini ko'paytirish,yakka tartib darslarini yo'lga qo'yish,yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab quvvatlash,ta'lim muassasalarini musiqiy cholg'ular,musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish,talaba-yoshlarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning qiziqishlariga ko'ra musiqa cholg'ularida kuy ijro etish mahorati to'garaklari tashkil etilish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda inson hayotidagi estetik tamoyil katta ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning jadal rivojlanishi, ijtimoiy-madaniy modernizatsiya dinamikasini saqlab qolish uchun milliy madaniyatning yuksak badiiy estetik qadriyatlari ustunlik qilishi kerak. Jamiyat doimo go'zallikni anglay oladigan, qadrlay oladigan va yarata oladigan estetik jihatdan rivojlangan shaxsga muhtoj bo'ladi. Bunda esa musiqiy madaniyat katta rol o'ynaydi. Hozirgi sharoitda madaniyat olamida estetik his-tuyg'ularni boshdan kechirishga va estetik salohiyatni ro'yobga chiqarishga qodir yoshlarning estetik tafakkurini yuksaltirish muammosi dolzarb bo'lib bormoqda.

Hozirgi Yangi O'zbekiston bosqichida, ijtimoiy rivojlanishning o'zgargan sharoitida uning roli va funksiyasini tushunish, ta'limga yangi yondashuvlarni izlash

davom etmoqda. Jamiyatning yangicha, zamonaviy taraqqiyoti sharoitida yoshlarni ijtimoiy tarbiyalash va har tomonlama izchil yuksaltirish dolzarb bo'lib qoldi. Ijtimoiy tarbiya jarayonida esa musiqa madaniyati katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa yoshlarning estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omildir. An'anaviy va jahon ma'naviy asoslaridan chekinish, maqsadli pedagogik yo'riqning yo'qligi, ommaviy axborot vositalari orqali musiqani passiv idrok etis, bularning barchasi musiqiy madaniyat orqali yoshlarni estetik tafakkurlarini yuksaltirish muammosini qo'yish hamda uni falsafa, estetika, pedagogika, musiqa madaniyati fanlari orqali hal etishga urinishni dolzarb etadi. Yoshlarga e'tibor qaratilishi- bu ijtimoiy kamolotning faol shakllanish davri ekanligi bilan izohlanadi. Yoshlar hozirda sezilarli va tez rivojlanayotgan ijtimoiy guruh bo'lib, ular kelajakda jamiyat muammolarini hal qilishda ishtirok etadigan shaxslar hisoblanadi. Bu esa ularning qay darajada tarbiyalanganliklari bilan bog'liq bo'ladi. Bu holatlar musiqa madaniyati vositalarining yoshlarning ijtimoiy- estetik tafakkurlariga ta'siri muammosini ijtimoiy-falsafiy jihatdan ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Musiqiy madaniyat yordamida yoshlarning estetik tafakkurini yuksaltirish shaxs faoliyatining turli tomonlarini va ijtimoiy yo'nalishini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan o'zaro bog'liq chora-tadbirlar majmuini talab qiladi. Bunun uchun esa musiqa madaniyati ta'limini izchillik bilan, istiqbolli zamonaviy dasturlar va yuqori salohiyatli kadrlar bilan amalga oshirish zarur bo'ladi. Shundagina biz dunyoqarashi keng, estetik tafakkuri yuksalgan yoshlarni tarbiyalashimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – c.222.
2. Лосев А. Ф., Диалектика художественной формы. 1-е изд.: М., 1927.
3. Haydarov A. Madaniyat - milliy yuksalish poydevori. - Toshkent: Oltin meros press. 2021. - B. 478.)
4. Haydarov A. Milliy madaniyat Renessans poydevori // Yangi O'zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2020. - B. 8.
5. Каримов И.А. 1-24 тўла асарлар жилди. –Тошкент: Ўзбекистон. 1996-2014; Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият. 2008; Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. –Тошкент: Ўзбекистон. 2011.
6. Шавкат Мирзиёевнинг 4 томлик асарлари, Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. –Тошкент: Ўзбекистон. 2020; Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон. 2021.

7. Xusanovna, D. N. (2023, April). BOLALAR FALSAFASI VA UNING SHAXS RIVOJIDAGI O'RNI. In *E Conference Zone* (pp. 73-78).
8. Djalalova, N. (2023). YOSHARNING ESTETIK TAFAKKURINI TARBIYALASH VA YUKSAKTIRISHDA MUSIQIY MADANIYATNING O'RNI. *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*, 2(4), 7-10.
9. Djalalova, N. (2023). PIANO PERFORMANCE AS A FACTOR THAT ACTIVATES STUDENTS' MUSICAL AND AESTHETIC WORLD VIEWS AND DEVELOPS MUSICAL CULTURE. *Science and innovation*, 2(B4), 339-342.
10. Djalalova, N. (2022). МУСИҚИЙ ВА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ АСОСЛАРИ. *Science and innovation*, 1(B8), 478-481.
11. Шокиров, Т. Н. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ МУСИҚА ИЛМИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 353-359.
12. Abduvali o'g'li, A. A. (2023). XX ASR MUSIQA SAN'ATI RIVOJINING VA'ZI XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 729-734.
13. Абдусатторов, А. А. Ў. (2023). ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚ ЧОЛҒУ ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ. *Science and innovation*, 2(Special Issue 5), 521-526.
14. Бурҳонов, Р. М., Алиев, С., Габриэлян, С., & Гиенко, Б. ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚ ЧОЛҒУ ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ Абдусатторов Абдужалил Абдували ўғли.
15. Abdusattorov, A. (2023). MUSIQA DARSLARI JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI. *Наука и инновация*, 1(9), 8-12.
16. Abdusattorov, A. (2023). TORLI KVARTET UCHUN ASARLAR YARATISHNING METODOLOGIK BOSQICHLARI. *Наука и инновация*, 1(9), 4-7.
17. Абдусатторов, А. А. Ў. (2022). БАСТАКОРЛИК ИЖОДИДА МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 602-605.
18. Abdusattorov, A. (2020). About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 2(11), 28-30.
19. Adiljanovna, A. M., Nurullaevna, N. M., Abdumalikovna, Y. D., Sharobidinovich, M. J., Abdujalil Abduvalio'g'li, A., & Behzod Asqaralio'g'li, T. (2021). Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heritage. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 9092-9100.

TASVIRIY SAN'AT ASARLARINI ISHLASH JARAYONIDA KOMPOZITSIYANING XUSUSIYATLARI

Karimov Oybek Mo'minjon o'g'li
FarDU Tasviriy san'at kafedrası oqituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada oliy ta'lim tizimida tasviriy san'atni o'qitishda kompozitsiya asoslari, qonunlari va vositalaridan foydalangan holda, yaratilajak badiiy asarlarning shaklini va mazmunini topa bilish haqida fikr yuritilgan.

***Kalit so'zlar:** Yaxlitlik, uyg'unlik, asimmetriya, simmetriya, muvozanat, umumiyluk, plastik, ritmik, element.*

ОСОБЕННОСТИ КОМПОЗИЦИИ В ПРОЦЕССЕ РАБОТЫ НАД ПРОИЗВЕДЕНИЯМИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается умение находить форму и содержание создаваемых художественных произведений с использованием принципов, законов и средств композиции при обучении изобразительному искусству в системе высшего образования.

***Ключевые слова:** Целостность, гармония, асимметрия, симметрия, равновесие, общность, пластика, ритмика, стихия.*

FEATURES OF COMPOSITION IN THE PROCESS OF WORKING ON WORKS OF FINE ART

ABSTRACT

The article discusses the ability to find the form and content of artistic works to be created using the principles, laws and tools of composition in the teaching of visual arts in the higher education system.

***Keywords:** Integrity, harmony, asymmetry, symmetry, balance, generality, plastic, rhythmic, element.*

KIRISH

Kompozitsiya (lat. compositio, qo'shilish, kombinatsiya) - badiiy ijodning asosiy toifalaridan biri. Eng umumiy ma'noda – "eng murakkab va mukammal tuzilish turi: badiiy-majoziy". Rasm, rang, chiziq, hajm, bo'shliqdan farqli o'laroq, bu badiiy shaklning tarkibiy qismlaridan biri emas, balki barcha elementlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan badiiy-majoziy, mazmunli va rasmiy yaxlitlikdir. Ba'zan badiiy kompozitsiya ruh va tanani organik ravishda birlashtirgan tirik organizm bilan

taqqoslanadi. Soddalashtirilgan ta'rifda: “san'at turining o'ziga xos xususiyatlari, asarning mazmuni, maqsadi va rassomning niyati tufayli badiiy asarning qurilishi”. Biroq, oxirgi ta'rifda, birinchidan, san'atning barcha turlari uchun umumiy bo'lgan kompozitsion qonuniyatlarning ahamiyati va nafaqat tasviriy, xususan musiqa, she'riyatda, ikkinchidan, "qurilish" tushunchasi, aksincha, ma'nosi kompozitsiyadan farq qiladigan tuzilishga, masalan, arxitekturada. Shunday qilib, me'moriy kompozitsiya-bu qurilish konstruktsiyasini badiiy-majoziy qayta ko'rib chiqish natijasida yuzaga keladigan elementlarning mazmunli va rasmiy yaxlitligi. Rassomchilikda “kompozitsiya bu rasmning mavjudligi shakli-organik yaxlitlik, semantik birlik sifatida” tushuniladi[1].

Kompozitsiya inson ijodining barcha turlarida, hususan rassomchilik, grafika, haykaltaroshlik, adabiyot yo'nalishi, kino, teatr, musiqa, me'morchilik, dizayn va dizaynerlik san'atiga xos sanoat buyumlarini yaratishda keng qo'llaniladi. Ijodkor yaratgan asarining muvaffaqiyati uning kompozitsiyasi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham o'z asarlarida kompozitsiya jihatidan yaxshi natijalarga erishgan ijodkorni, hoh u rassom, hoh me'mor bo'lsin, o'z sohasining kompozitori deb atashgan. Ushbu fan ijodiy yo'nalishdagi barcha mutaxassislar uchun juda muhim o'rin tutadi. Bunga turli misollarni keltirib o'tish mumkin.

Badiiy kompozitsiya bu ajralmas va ifodali asar yaratish uchun san'atdagi turli elementlarni (masalan, rasm, musiqa, adabiyot, fotografiya) tashkil etish. Kompozitsiya san'at asari qanday qabul qilinishi va tushunilishida muhim rol o'ynaydi. Turli xil san'at turlarida kompozitsiyaning ba'zi asosiy jihatlari:

Rasm: Muvozanat va muvozanat: vizual elementlarni (ranglar, shakllar, chiziqlar) qiyshiq bo'lmagan tarzda taqsimlash.

Asosiy diqqat: Kontrast va o'lcham kabi kompozitsion texnikalar yordamida asosiy ob'ekt yoki Markaziy g'oyani ta'kidlash.

Musiqa: Tuzilishi: musiqiy elementlarni (ohang, ritm, uyg'unlik) ma'lum bir ketma-ketlikda, odatda kirish, rivojlanish va tugatish bilan tashkil etish.

Dinamika: Tuyg'ularni etkazish va tinglovchining e'tiborini boshqarish uchun ovoz balandligi va intonatsiyadan foydalanish.

Adabiyot: Tuzilishi va syujeti: syujet elementlarini taqsimlash va muallifning maqsadlariga erishish uchun adabiy elementlarni (belgilar, sahnalar, dialoglar) tashkil etish.

Ritm va temp: Asarning ma'lum bir ritmi va tempini yaratish uchun turli xil yozish uslublaridan foydalanish.

Fotosurat: Kesish: kerakli vizual effekt yaratish uchun rasm maydonini tanlash.

Chiziqlar va shakllar: tomoshabin nigohini yo'naltirish va qiziqarli kompozitsiyalar yaratish uchun chiziqlar va shakllardan foydalanish.

Sahna san'ati (teatr, kino): Kosmosni taqsimlash: muhim elementlarni ta'kidlash uchun sahnada yoki ramkada bo'sh joyni tashkil qilish.

Yorug'lik va soyadan foydalanish: atmosferani yaratish va yorug'lik yordamida tafsilotlarni ta'kidlash.

Badiiy kompozitsiya-bu rassomlar tomoshabin e'tiborini yo'naltirish va o'z g'oyalari va his-tuyg'ularini samarali etkazish uchun foydalanadigan vositadir.

- Metr-ritm;
- Simmetriya-assimetriya;
- Kontrast-Nuance;
- Konsonans-dissonans;
- Kattalikk-masshtablash;
- Miqdorlarning nisbati-nisbatlar;
- O'xshashlik-farq

IJODIY ISHLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Kompozitsiya maqsadlar rang-barangligi, ko'p qirraliligi, shahsiy xis-tuyg'ularning tug'yonini anglatganligi uchun ham yagona yo'riqqa bo'y-sunmaydi va shu tomoni bilan boshqa fanlar uslubiyatidan mutloq farq qiladi. Kompozitsiya yaratish jarayoni ichki dunyosi bilan bog'liq bo'lib,shahsiy ish usuli, musavvir hissiyoti, tafakkuri olamiga kirishi dastlab bir qadar qiyin bo'lsada, bu boradagi tajribalarga suyangan holda kompozitsiya sirlarini ochish imkonini beradigan muammolarni birma-bir ko'rib chiqish, tasvirlangan har qanday murakkab munosabatlarga aql ko'zi bilan qarab yondashish, ta'surotlarni va suratda aks etgan timsollarga bog'liq fikrlarni mustaxkamlab, ularni tartibga solishga, sirli qirralarini ochishga yordam beradi. Kompozitsiyaning yo'nalishlarda turlicha yondoshiladi.

Masalan rangtasvirda kompozitsiya bu uyg'un va ifodali tasvirni yaratish uchun matodagi turli xil vizual elementlarni tashkil etish demakdir. Rassomlar tomoshabin e'tiborini jalb qilish, muvozanatni yaratish va o'z g'oyalarni etkazish uchun turli xil kompozitsion usullardan foydalanadilar. Rasmda kompozitsiyaning bir nechta asosiy jihatlari mavjud:

Balans: tuvaldagi elementlar vizual buzilish bo'lmasligi uchun taqsimlanishi kerak. Rassom ob'ektlar, ranglar va shakllarni qanday joylashtirganiga qarab muvozanat nosimmetrik yoki assimetrik bo'lishi mumkin.

Asosiy diqqat (urg'u): tomoshabinning e'tiborini tortadigan ma'lum bir element yoki maydon. Bu fonda ajralib turadigan asosiy ob'ekt, maxsus rang yoki tafsilot bo'lishi mumkin.

Ritm va takrorlash: ishda ritm va birlikni yaratish uchun takrorlanadigan elementlardan (ranglar, shakllar, chiziqlar) foydalanish. Bunga takrorlanadigan motivlar yoki naqshlar ham kirishi mumkin.

Masshtab va nisbatlar: tuvaldagi ob'ektlarning o'lchamlari va nisbatlarini aniqlash. Bu chuqurlik va istiqbolni yaratish uchun muhimdir.

Chiziqlar va yo'nalish: tomoshabinning nigohini yo'naltirish uchun chiziqlardan foydalanish. Gorizontaal chiziqlar xotirjamlik, vertikal chiziqlar kuch va diagonal chiziqlar dinamikani yaratishi mumkin.

Rang uyg'unligi: uyg'unlik va hissiy ta'sirga erishish uchun ranglarning kombinatsiyasi. Masalan, qarama-qarshi ranglar diqqatni jalb qilishi mumkin, o'xshash ranglar esa xotirjamlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Nuqtai nazar: ob'ektlarning rassomning nuqtai nazariga nisbatan qanday joylashtirilishini aniqlash. Bu tomoshabinning asar bilan qanday munosabatda bo'lishiga ta'sir qiladi.

Rassomlar ma'lum bir effektga erishish yoki o'z asarlarida ma'lum bir kayfiyatni etkazish uchun ushbu kompozitsion texnikadan turli xil kombinatsiyalarda foydalanishlari mumkin.

Kompozitsiyani ta'riflashda yani bir ajoyib ibora bor. Bu ham bo'lsa, umumiylik, yaxlitlik, asosni tanlab olish, markazni aniqlashdir. Shuning o'zi ham kompozitsiya azaldan san'at asarining asosiy siri ekanini ko'rsatib beradi. Kompozitsiya tuzilishiga ko'ra obyektiv qonunlarga asoslangandir. Badiiy asar kompozitsiyasi o'z ichiga asar mazmunini, ijodiy jarayon mashaqqatini qamrab oladi, badiiy obrazni yuzaga chiqaradi va uni boshqa vositalar yordamida yaqqol ko'rsatib beradi. Bu obraz orqali asarning yaxlit ko'rinishiga obyektiv qonunlar asosida estetik va badiiy baho beradi[2]. Shuning uchun ham bu jarayon, ya'ni kompozitsiya tuzilishi yangi shakllar majmuasi bo'lib, bizga ko'plab tafakkur qirralarini havola etgan holda namoyon bo'laveradi. Ijodkor uslubi, uning ichki dunyosi, shaxsiy kechinmalari, estetik talab, badiiy ifoda, milliylik zamirida kompozitsiya orqali o'z talqinini topadi, hamda fikrlarning isboti sifatida namoyon bo'ladi va uning baholanishi bilan yakun topadi.

MUHOKAMA

San'atning har qanday sohasida kompozitsion tuzilishsiz, uning barcha qism va komponentlarini uyg'unlashtirmasdan turib, badiiy asar yaratish mumkin

bo'lmaydi. Kompozitsiya forma va mazmuni yaxlitlikda ifodalashning muhim vositasidir.

Kompozitsiya deganda biz ma'lum bir ifodaga ega tuzilmasini yaxlitlikda, maqsadli qurish, qaysiki qismlari joylashuvi va o'zaro mutanosiblikda, bog'liqlikda bo'lishini va umumlashtirilgan fikr va mazmunga ega ekanligini tushunamiz. Shuningdek tugallangan badiiy asarni, masalan, rangtasvir asarini kartina deb, musiqa asari, yaxlit g'oya atrofida o'zaro bog'langan balet spektaklining nomerlarini, metal eritmalari tarkibini, duxilar va hokazolarni kompozitsiya deyishadi. Shuningdek badiiy asarni tuzish qonuniyatlarini o'qitadigan fanni ham kompozitsiya fani deyiladi. Jismlarning tartibsiz, uyib tashlangan holatdagi ko'rinishini kompozitsiya deb bo'lmaydi. Shuningdek mazmunida bir xillik, bir ma'noli, elementarlikning mavjudligini ham kompozitsiya deb bo'lmaydi[2]. Kompozitsiya har qanday yaxlitlikdagi tuzilmada (struktura), yohud sanat asari bo'lsin, ilmiy ish, information habar yoki tabiat yaratgan organizmda ham mavjud bo'lishi kerak. Kompozitsiya buyumlar dunyosi formalarini, ijtimoiy mahsulotlar, mashinalar, me'moriy va dizayn ob'yektlarni yaratishda ham zarur vositadir.

Kompozitsion yondashuv qismlarning mantiqiy va chiroyli joylashuvini ta'minlaydi hamda formaga yaqqollik, chiroy baxsh etuvchi va mazmunini ravshanlashtiruvchi yaxlitlik yuzaga keladi.

Tuzilish va go'zallik mantiqi, qismlarning yaxlitlik va mutanosiblikdagi uyg'unligi, yuqorida qayd qilinganidek insonning yaratuvchanligiga bog'liq. Kompozitsiya alomatlarini biz tabiat formalarida, o'simliklarning tuzilishlarida, mavjudodlar organizmlarida, koinotning tuzilishida va hokazolarda ko'rishimiz mumkin. San'at asarini, demak, uyg'unlikni yarata turib, uning ikki zaruriy shar- tini bajarish kerak: birinchisi – muvozanat, ikkinchisi- umumiylik va bir-biriga bo'ysunishlik. Kompozitsiyaning asosiy qonunlari shundan iborat.

Kompozitsion muvozanatga to'xtaladigan bo'lsak, bu kompozitsiyaning shunday xolatiki, unda uning hamma elementlari o'zaro muvozanatlashtiriladi. Lekin bu tushunchani o'lchovlarning oddiy tengligi bilan adashtirmaslik kerak. Muvozanat kompozitsiya asosiy massasi joylashuviga, kompozitsion markazni tashkil qilishiga, kompozitsiyaning plastic va ritmik qurilishiga, uning proporsional bo'linishiga, alohida bo'laklarning o'zaro va umumiy rang, tonal va faktura munosabatlariga bog'liq.

Muvozanat simmetrik va asimmetrik kompozitsiyalarda turlicha namoyon bo'ladi. Simmetriya o'zicha muvozanatlashtirish kafolati bo'la olmaydi. Simmetrik element va tekslikning miqdoriy nomuvofiqligi (yoki qismlar va bir butunning disproporsiyasi) ko'rinishdan muvozanatlashmagan bo'lib ko'rinadi. Simmetrik

kompozitsiyani muvozanatlashtirish asimmetrik kompozitsiyani muvozanatlashtirishdan birmuncha oson va bunda ancha oddiy vositalar bilan erishiladi, chunki simmetriya kompozitsion muvozanat uchun zamin yaratadi.

Yaxshi topilgan sim- metric kompozitsiya, uning tuzilish murakkabligiga bog'liq bo'lmay, oson va tez idrok qilinadi. Asimmetrik kompozitsiya ko'pincha uzoq vaqt o'ylashni talab qiladi va asta sekin namoyon bo'ladi. Lekin simmetrik kompozitsiyani ifodalibroq deb tasdiqlash noto'g'ri. San'at tarixi tasdiqlaydiki, garmoniya qonunlari bo'yicha asimmetrik qurilgan kompozitsiyalar, simmetrik kompozitsiyalardan badiiy qiymati jihatidan qolishmaydi. Ikkinchi shartga, yani umumiylik va bir biriga bo'ysunishlik, bu kompozitsiyada turli qisimlarning bitta yaxlitlikka birlashishidir.

XULOSA

Kompozitsion markazni tashkil qilishda tekislikni vizual idrok qilish qonunlarini inobatga olish kerak. Odatda u tekislikning faol, markaziy qismida joylashadi. Geometrik markazga nisbatan surish, ko'pincha asarda badii o'braz va mavzuni ochishda katta ichki keskinlik va plastik ifodaviylikni beradi. Tekislik chetlari, biz buni istaymizmi yoki yo'qmi, hoshiya, markazda chuqurlik, fazoni hosil qiladi va butun tekislik qizg'ish ritmik bo'lib qurilishi kerak.

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, kompozitsiyaning vosita va qonunlardan birortasi ham alohida holda uyg'unlashgan asarni yaratmaydi. Chunki ularning hammasi o'zaro bir biriga bog'liq, bo'ysunuvchan va muvofiqlashgan bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
2. Abduraxmonov G'.M. Kompozitsiya asoslari. Toshkent, 2018.
3. E.Jabborov. Kompozitsiya. Qarshi, 2019.
4. Muhammadiyev. E. Rangshunoslik – Samarqand 2002.
5. Юнусалиев, М., Мадаминов, Н., & Мамуров, А. (2022). МЕТОДИКА РАБОТЫ НАД РИСОВАНИЕМ НАТЮРМОРТА. *Research Focus*, 1(2), 326-332.
6. Yuldashev, I. (2023). INTERACTION OF MINIATURE ART WITH THE COMBINATION OF THE LITERATURE AND IDEOLOGICAL, AESTHETIC, AND MORAL IMAGINATION OF THE COMMUNITY. *Science and innovation*, 2(C7), 21-28.
7. Sohibov, R. (2023). RANGLARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA ULARNING AMALIY SAN'ATDA QO'LLANILISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(7), 74-80.

8. Yunusaliyev, M. T., & Sulaymonova, S. B. (2022). AKVAREL TEXNIKASIDA YORUG'LIK VA RANG MUNOSABATLARIDA RANGLAR GAMMASINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 850-857.
9. Курбанова, Б. М., Юнусалиев, М., & Арзиева, Н. (2022). ОСОБЕННОСТИ ТЕХНИКИ: АКВАРЕЛЬ, МАСЛО И ГУАШЬ. *Research Focus*, 1(2), 319-325.
10. Madaminov, N. M. (2023). DIZAYN TUSHUNCHASINING ETIKA, ESTETIKA BILAN HAMOHANGLIGI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(7), 47-54.
11. Ma'Murov, A. A. (2022). TARBIYA JARAYONIDA AMALIY SAN'ATDAGI USTOZ VA SHOGIRD ODOBI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 138-142.
12. Madaminov, N. M., Yunusaliyev, M. T., & Mamurov, A. A. (2022). TASVIRIY SAN'ATDA RANGLAR GARMONIYASI (ЦВЕТОТЕРАПИЯ) ORQALI INSONLARNI DAVOLASHNING O 'ZIGA XOSLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 1265-1272.

O‘ZBEK XALQ CHOLG‘U SOZLARINING TARAQQIYOTI VA TURLARI

Muydinov Jamoldin

Farg‘ona davlat universiteti San‘atshunoslik fakulteti musiq ta‘lim va
madaniyat kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

O‘zbek musiqasida milliy cholg‘u sozlari ijrosining o‘rni beqiyos. Ulardan samarali foydalanish esa bizga ko‘plab imkoniyatlarni beradi. Biz ularda sifatli, mukammal darajadagi ijroni yaxshilashimiz, ularda mukammal darajada ijro qilishimiz uchun esa ularni sifatiga ham alohida ahamiyat qaratishimiz lozim. Ularni ko‘plab mutaxassislar qayta ishlab, taraqqiylashib, uni yanada ham ijro imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu – milliy sozlarimizning ijrosini yanada mukammallashishiga olib keldi.

Kalit so‘zlar: *An‘anaviy cholg‘u, nay, surnay, sibizg‘a, karnay, chang, rubob, qashqar rubob.*

РАЗВИТИЕ И ВИДЫ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ

АННОТАЦИЯ

роль исполнения национальных инструментальных слов в Узбекской музыке неопределима. И их эффективное использование дает нам много возможностей. Мы должны улучшить качество, отличный уровень исполнения в них, а для того, чтобы мы могли работать в них на безупречном уровне, мы должны уделять особое внимание их качеству. Они были переработаны и усовершенствованы многими специалистами, что еще больше расширило возможности его исполнения. Это привело к дальнейшему совершенствованию исполнения наших национальных слов.

Ключевые слова: *традиционный инструмент, флейта, труба, сибизга, труба, чанг, ремень, кашкарский ремень.*

DEVELOPMENT AND TYPES OF UZBEK FOLK INSTRUMENTS

ABSTRACT

The role of the performance of National Instruments in Uzbek music is incomparable. And their effective use gives us many possibilities. We need to improve quality, excellent performance in them, and in order for us to perform perfectly in them, we should also pay special attention to their quality. They were reproduced and

developed by many experts, which further expanded the possibilities of execution. This led to a further perfection of the performance of our national tunes.

Keywords: *traditional instrument, flute, surnay, sibizga, trumpet, dust, rhubarb, Kashgar rhubarb.*

KIRISH

O'zbek madaniy merosi musiqiy cholg'ularga boy va ularning har biri uzoq o'tmish, tarkibiy rivojlanish va texnikaviy takomillashish jarayonidan o'tganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ijro mezonlariga ko'ra o'zbek xalq cholg'ulari ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga barcha an'anaviy xalq cholg'ulari kiradi. Ikkinchi guruh XX asr madaniy rivoji bilan bog'liq bo'lib takomillashgan, ya'ni qayta ishlangan (rekonstruksiya qilingan) cholg'ular kiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etar ekanmiz, A.Lutfullyev va T.Solomonovlar tomonidan yaratilgan "O'zbek xalq musiqa cholg'ular" nomli qo'llanmasida va "Xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti" uslubiy qo'llanmalarida milliy cholg'ular to'g'risida va ularning turlari haqida, o'quvchi yoshlarga milliy xalq cholg'ularini qanday o'rgatish metodlari yoritib berilgan.

K.Olimboyeva, T.Yo'ldoshboyeva, M.Ahmedov, T.Mirzayevlarning "O'zbekiston xalq sozandalari" nomli to'plamida elimizga mashxur va ma'lum bo'lgan taniqli mohir sozandalar to'g'risida ma'lumotlar berib o'tilgan.

A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamovalarning hammuallifligidagi "O'zbek musiqasi tarixi" deb nomlanuvchi adabiyotda o'zbek milliy musiqasining tarixi, uning mazmun va mohiyati to'g'risida ko'plab ma'lumotlar yoritib berilgan bo'lib ushbu adabiyot ustida va o'zbek milliy musiqasi tarixi ustida qator izlanishlar olib borganlar. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamovalar o'z tadqiqotlarida o'zbek milliy musiqasi tarixini yoritibgina qolmay uning qay tarzda rivojlanib bizgacha yetib kelishi to'g'risidagi ma'lumotlarni va mazmun mohiyatini to'laqonli ravishda yoritib berganlar.

Oydin Abdullayeva "CHOLG'USHUNOSLIK" nomli kitobida cholg'u sozlari to'g'risida ko'plab ma'lumotlar va ushbu sozlarni qay tarzda ijro etish kabi ko'plab cholg'u ijrochilari uchun ko'rsatmalar berib o'tilgan. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da ko'plab musiqashunos olimlar va yana turli cholg'ular, o'zbek milliy musiqasi to'g'risida keng ma'lumotlar yoritib berilgan.

NATIJAR VA MUHOKAMA

O'zbekistonda ijrochilik amaliyotida foydalanib kelinayotgan milliy musiqa cholg'ularining 30 tadan ortiq turlari mavjud. Shulardan 18 nomdagi musiqiy cholg'ular XX asrning 40-yillaridan keyin professor A.I.Petrosyans boshchiligidagi bir guruh mutaxassislar va soz ustalari bilan hamkorlikda takomillashtirilgan musiqiy cholg'ular bo'lib, konsert sahnalarida yakkanavozlik sifatida, shu bilan birga, asosan orkestr va ko'p ovozli ansambllarda foydalanish uchun mo'ljallangandir. Bu muqaddam mavjud bo'lgan milliy musiqiy cholg'ularning shaklini yiriklashtirish yoki kichikroq ko'rinishga keltirish asosida yaratilgan bo'lib, o'sha cholg'u oilasini yaratish ustida olib borilgan tajribalar edi, natijada nay, chang, rubob, dutor, g'ijjak cholg'ularining oilasi dunyoga keldi. An'anaviy xalq cholg'ulari tarkibidan joy olgan cholg'u sozlar: tanbur, dutor, sato, rubob, ud, nay, surnay, qo'shnay, karnay, g'ijjak, chang, qonun, doira, nog'ora. Xalq ijodiyotida qo'llaniladigan sozlarga changqo'biz, sibizg'i, safoil kiradi. Qayta ishlangan cholg'ular asboblari –rubob, g'ijjak, dutor va chang sozlarinig musiqaning soprano, alt, tenor, bas ovozlar mezonlariga ko'ra qayta ishlangan namunalari kiradi.⁶⁴

An'anaviy cholg'u ijrochiligi azaldan xalq ijro amaliyotida shakllanib, turli ko'rinish va tarkiblar asosida foydalanish an'ana bo'lib kelgan. Avvalo an'anaviy cholg'ularning har biri yuqori professional darajadagi individuallik xususiyatiga ega. Xalq ijrochilik amaliyotida shunga mos ijro imkoniyatlar, sharoitlar va ijro uslublari yuzaga kelgan.

Karnay, surnay, nog'ora va doira tarkibidagi damli va urma cholg'ular guruhi qadimdan ijro amaliyotida shakllanib, xalqimizning barcha ommaviy tadbirlarining faol ishtirokchisiga aylangan. An'anaviy cholg'u sozlar ansambllari esa o'z xususiyatlaridan kelib chiqib qo'llanilgan. Ijroda keng ko'lamliligi va katta ovoz imkoniyatiga ega bo'lish maqsadida barcha cholg'ular yig'indisidan katta cholg'ular ansambli tashkil etilgan.

Hozirgi davrga kelib o'zbek musiqa ijrochiligini uchta yirik yo'nalishga ajratish mumkin. Xalq folklor musiqa yo'nalishi, xalq mumtoz musiqa yo'nalishi va kompozitorlik musiqa ijodiyoti yo'nalishi. Xalq folklor yo'nalishida ommaviylik xususiyatiga ega bo'lgan, ovoz va texnik jihatlari mos bo'lgan cholg'ulardan ko'proq foydalaniladi. Masalan: rubob, nay, g'ijjak, chang va doira cholg'u asboblari. Qayd etish joizki xalq folklor musiqa ijrochiligida ijro sharoiti, joyi ham o'ziga xos bo'ladi.

⁶⁴ Atlas «Muzikalniye instrumentov narodov Sredney Azii» kitobida har bir oilaviy cholg'ular alohida-alohida ko'rsatib berilgan.

Shuning uchun cholg'ular ham tez moslasha oladigan va har qanday sharoitda ijro eta oladiganlik xususiyat kasb etishlari taqozo etiladi. Kompozitorlik ijodiyoti ijrochiligi yo'nalishi ham zamonaviy uslublar asosida bir qator cholg'ular guruhini o'z ichiga oladi. Musiqa ijodiyotidan o'rin olgan janrlar negizida cholg'ularning tarkibiy guruhlari tashkil etilib, ijro etiladi. Unga ko'ra cholg'u duetidan toki xalq cholg'u-asboblari orkestri bo'lgan cholg'u asboblari tarkibi tuzilgan va ijrochilik amaliyotida keng qo'llanilib kelinadi. Qayd etish lozimki orkestrning to'laqonli ovoz imkoniyatlariga ega bo'lish yo'lida Yevropa cholg'ularidan ham keng foydalaniladi. Ijrochilik amaliyotida shakllangan barcha cholg'u asboblari o'z xususiyatlari doirasida uch turga bo'linadi. Torli, puflama va zarbli cholg'ular.

Nay-qadimiy o'zbek xalq puflama musiqa asbobi. Nay O'zbekistonda keng tarqalgan bo'lib, ansamblda, o'zbek xalq asboblari orkestrida muhim o'rin tutadi, yakka holda ham chalinadi.⁶⁵

Ovoz hajmi kengligidan xalq kuylarida, maqomlarda qo'llaniladi. Tovushi baland bo'lganidan ansamblda ko'proq boshlovchilik vazifasini ham bajara oladi. Barmoqlar bilan berkitiladigan olti teshikchadan iborat diatonik tovushqatoriga ega. Umumiy ovoz hajmi birinchi oktavadagi lya dan to'rtinchi oktavadagi re ga qadar. Notalar skripka kalitida eshitilganicha yoziladi. Barmoqlar bilan teshikchalarni to'la yo yarim berkitish va turlicha puflash yo'li bilan baland, past tovushlar chiqaziladi. Nayni puflaydigan va barmoqlar bilan bosiladigan birinchi teshikcha o'rtasida yana bir teshikcha bo'lib, bunga yupqa qog'oz yopishtiriladi, buni asosan xitoylik ijrochilar qo'llashadi. Xitoyda nay g'arovdan yasali, o'sha teshikchani g'arovdan chiqadigan yupqa parda bilan yopishadi. Bu tovushni to'lqinlatib chiqazishga yordam beradi. Nayning ikkinchi uchida doimiy ochiq turadigan to'rtta teshikcha (ikkisi ikki yonda, qolgan ikkisi ost tomonda) ayrim pardalardagi tovushlarni yumshatib berish uchun xizmat qiladi. Nayning umumiy uzunligi 500-600 mm. Nay yog'ochdan, g'arovdan va misdan yasali. Shunga ko'ra "yog'och nay", "g'arov nay", "mis nay" deb ataladi. Ko'hna rivoyatlarning birida aytilishicha, Cho'pon bobo ichi bo'sh qamishni kesib olib, unda barmoq bilan berkitib-ochadigan teshikchalar o'yibdi. Unga «Nay» deb nom qo'yibdi. Farzandlariga cho'ponlik tayog'ini topshirar ekan, nayni ham qo'shib beribdi. Ular cho'lu biyobonlarda, yam-yashil yaylovlarda qo'y boqib, bobosi yasab bergan nayni chalinib yurishibdi. Nay ohangiga «asir» bo'lgan qo'ylar podadan aslo ajralmas ekan. Yillar o'tib, bu soz shaharlik mashoyixlar qo'lga tegibdi. Ular ham nayning sehrli tovushidan lol qolishibdi. Uni yanada takomillashtirib, zeb berishibdi. Nayni qamishdangina emas, balki

⁶⁵Kayumov Ibragim Fayzullayevich OILADOSH CHOLG'ULARNI O'RGANISH O'QUV QO'LLANMA BUXORO - 2020

yog‘ochdan, misdan va boshqa turdagi metallardan ham yasab ko‘rishibdi. Usta naychilardan Abduqodir Ismoilov, Saidjon Kalonov va hozirgi kunda Mirza Toirov, Abdulahat Abdurashidovlar nomi barchaga ma‘lum. Bu ustozlarning «Cho‘li iroq», «Chorgoh», «Bir kelsin» va shu kabi ajoyib asarlarni ijro etishganda kishining ko‘ngli yoziladi va ruhi ko‘tariladi va a‘lo kayfiyatni his etamiz.

Surnay cholg‘usi ham qadimiy tarixga ega. Bu cholg‘u, asosan, tantanalari, bayramlar, sayillar, to‘ylarda doira, nog‘ora, karnay cholg‘ulari bilan birgalikda ishlatiladi. Surnayning tovushi juda kuchli bo‘lganligidan ochiq joylarda foydalaniladi.⁶⁶

Surnay o‘rik, yong‘oq kabi qattiq daraxtlar yog‘ochidan tayyorlanadi. Uning ustki tomonidan oltita va pastki tomonidan bitta teshik ochilgan bo‘lib, ana shu teshiklarni ochish yoki yopish orqali kerakli tovushlar hosil qilinadi. Surnayda tovush hosil qilinadigan qism alohida tayyorlanib, «nay pachoq» deyiladi va har safar ijro etishdan oldin surnayga o‘rnatiladi.

Sibizg‘a yoki sibiziq juda qadimiy musiqiy cholg‘ulardan biri ekanligi ma‘lum bo‘lib, u chorvachilik rivojlangan hududlarda paydo bo‘lgan, deb taxmin qilinadi. Sibizg‘a g‘arov qamish bo‘lagidan tayyorlanadi va qat‘iy o‘lchamlari belgilanmagan bo‘ladi. Har bir ijrochi o‘z ixtiyoriga ko‘ra xohlagan hajmda tayyorlab, 5 tagacha teshiklar ochishi mumkin. Keyingi paytlarda unutila boshlagan bu cholg‘uning qayta jonlantirilishi Surxondaryolik Nodir bobo va uning farzandlari Abdurashid bobolarning ijrochilik an‘analarini davom ettirishga katta yordam berdi. Bugungi kunda katta bayram tantanalari va folklor jamoalari chiqishlarining sibizg‘a tovushini yangrashi bilan boshlanishi odat tusiga aylanib bormoqda.

Sibizg‘a cholg‘usining takomillashtirilgan va ikki donasini birgalikda qo‘shib chalinishidan hosil bo‘lgan musiqiy cholg‘u - qo‘shnaydir. Qo‘shnay tayyorlanadigan qamishlar bir oz yo‘g‘onroq va qalinroq bo‘ladi. Har ikkala qamish bo‘laklari xuddi sibizg‘adagi singari til ochiladi va har bir bo‘lakning uzunligi va yo‘g‘onligi bir xil bo‘lishi talab qilinadi. Kerakli tovushlarni hosil qilish uchun esa har ikkala bo‘lakda ham bir xil masofada 7 donadan teshiklar ochiladi. Qo‘shnay cholg‘usi Xorazmda kengroq qo‘llaniladi. Uning sadolanishida «g‘izillashga» o‘xshagan tebranish seziladi.

Bulaman (balabon) surnaydan ko‘ra birmuncha kichikroq, qattiq yog‘och tanasidan ishlangan cholg‘u bo‘lib, tovush hosil qilinadigan qismi surnaynikidan farq qiladi.⁶⁷ Bulamanda «nay pachoq» o‘rnida sibizg‘asimon til ochilgan qamish

⁶⁶Surnay – nay oilasiga kiruvchi o‘zbek milliy cholg‘u sozi.

⁶⁷Bulamoni – ham nay oilaiga kiruvchi o‘zbek milliy sozi

bo'lagidan foydalaniladi. Bulamanda ham kerakli tovushlarni hosil qilish uchun teshiklar ochilib, ularning yettitasi ustki tomonda va bittasi pastki tomonda bo'ladi. Bulamanning tovush tembri (kuchi) surnaynikidan pastroq bo'ladi. Karnay - o'zbek damli musiqiy cholg'ularining eng kattasi va eng kuchli tovush tembriga ega desak, xato bo'lmaydi. Uning hajmi kattaligini inobatga olgan holda, og'ir bo'lmasligi uchun, yupqa mis tunukadan tayyorlanadi va alohida 3 ta bo'lakni bir-biriga qo'shib kiydirish orqali yig'iladigan ko'rinishda tayyorlanadi. Bu cholg'udan surnay, doira, nog'ora bilan birgalikda ochiq joylarda ijro etish mumkin bo'lgan ansambllarda foydalaniladi. Qadimda karnaylardan harbiy yurishlarda ham keng foydalanilgan. Karnay bayramlarda, tantanali marosimlarda, surnay, nog'ora va doiraga qo'shib chalinadi. Karnay ijrosida asosiy tovushdan sof kvinta yoki kichik septima intervali eshitiladi. Chang-qadimiy musiqiy cholg'u hisoblansa-da, bizning hududimizga XX asrning boshlarida kirib kelgani haqida ma'lumotlar bor. Chang- O'rta Osiyo xalqlarining urma-torli cholg'usidir. Changda unisonga sozlangan uchtadan tor bo'lib, ovoz hajmi kichik oktava sol dan uchinchi oktavada sol diyeg ga qadar. Ilgari ijrochilik amaliyotida qo'llanilgan changning tovushqatori diatonik ladda bo'lgan. Notalar skripka kalitida yoziladi. Changning ustki qismi rezinka bilan qoplangan to'qmoqcha kabi maxsus ingichka ikkita cho'plar bilan urib chalinadi. XVII asrda yashagan musiqqa olimi Darvishali Changiy changning juda qadimiy asbobligi va undan kasalliklarni davolashda foydalanilganini yozgan. Hozir chang qayta ishlanib, tovushqatori xromatik, ya'ni yarim tonlik qilingan. Ijrochining o'tirib ijro etishiga qulay bo'lishi uchun vintlarga o'rnatilgan uchta oyoqlari bor. Davomli sadoni yo'qotish uchun pedal ishlangan. Orkestrda ijro etish uchun changning katta-kichik turlari ishlab chiqilgan.

Rubob - o'zbek an'anaviy chertib chalinadigan cholg'u sozlaridan. O'zbek ijrochilik amaliyotida ru-bobning ikki turi mavjud - afg'on rubobi va qashqar rubobi. Afg'on rubobi ko'proq akademik ijro-chilik amaliyotida qo'llaniladi. An'anaviy rubob esa qashqarrubobi nomi bilan mashhur cholg'udir. XX asrning boshlarida Qashqardan keltirilgan rubobning takomillashgan varianti sifatida ijro amaliyotida ommalashgan.

XULOSA

Hozirda ham shu kabi va boshqa ko'plab o'zbek milliy sozlarimizning takomillashuvi ko'plab kompozitorlarning asalarlarini ijro qilishda, ularni turli ansambl, orkestrlarda ijro qilish imkonini berdi. Hozirgi kundagi yoshlarimiz ham o'zbek milliy sozlarimizning keng imkoniyatlaridan foydalanib, turli asarlarni cholishda hamda o'zbek musiqamizni dunyoga tanitishda o'z xissalarini qo'shmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Zoirov Zarif Rashitovich “O‘zbek xalq milliy-an‘anaviy cholg‘ularida o‘qitish metodikasi” –Termiz – 2019.
 - a. Bahrom Madrimov “O‘zbek musiqa tarixi” – Toshkent 2015
2. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova “O‘zbek musiqasi tarixi” – Toshkent, “Fan va texnologiya” 2018.
3. N.Yuldasheva, N.Raxmatova “O‘zbek musiqa adabiyoti” – Toshkent «Iqtisod-moliya» - 2016
4. Oydin Abdullayeva “Cholg‘ushunoslik” «Musiqqa» nashriyoti Toshkent – 2018.
5. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” – Davlat milliy nashriyoti – Toshkent – 2003.
6. Abduvali o‘g‘li, A. A. (2023). XX ASR MUSIQA SAN‘ATI RIVOJINING VA‘ZI XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 729-734.
7. Абдусатторов, А. А. Ў. (2023). ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚ ЧОЛҒУ ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ. *Science and innovation*, 2(Special Issue 5), 521-526.
8. Бурхонов, Р. М., Алиев, С., Габриэлян, С., & Гиенко, Б. ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚ ЧОЛҒУ ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ Абдусатторов Абдужалил Абдували ўғли.
9. Abdusattorov, A. (2023). MUSIQA DARSLARI JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI. *Наука и инновация*, 1(9), 8-12.
10. Abdusattorov, A. (2023). TORLI KVARTET UCHUN ASARLAR YARATISHNING METODOLOGIK BOSQICHLARI. *Наука и инновация*, 1(9), 4-7.
11. Абдусатторов, А. А. Ў. (2022). БАСТАКОРЛИК ИЖОДИДА МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 602-605.
12. Abdusattorov, A. (2020). About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 2(11), 28-30.
13. Adiljanovna, A. M., Nurullaevna, N. M., Abdumalikovna, Y. D., Sharobidinovich, M. J., Abdujalil Abduvalio'g'li, A., & Behzod Asqaralio'g'li, T. (2021). Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heritage. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 9092-9100.

ONALAR ALLASI- INSON KAMOLOTI OMILI SIFATIDA

Imyamin Qirg'izov

Farg'ona davlat universiteti san'ashunoslik fakulteti musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrasasi dotsenti, p.f.n.
kyrgizovimyamin@gmail.com, 90 230 70 98

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada – “Alla” beshik qo‘shig‘i, u xalq og‘zaki ijodi namunalarida kuylanganligi, o‘zbek xalq ijodiyotida, ko‘plab allomalar, olimlarning asarlarining bosh mavzusi o‘laroq bola ko‘nglining ma‘naviy sog‘lom va pokiza bo‘lib shakllanishida beshikdalik paytida eshitgan allasining mazmun mohiyati, kelb chiqishi shu bilan br qatorda tarixiy taraqqiyoti o‘rganilgan.

Kalit so‘z: o‘zbek xalq ijodiyoti, beshik, ona allasi, ma‘naviyat, barkamol, jamiyat, yo‘rgak, go‘dak, maqol, qo‘shiq, ertak.

БОГИНЯ-МАТ -КАК ФАКТОР ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО СОВЕРШЕНСТВА

Имямин Киргизов

Дотсент факультета музыкального образования и культуры Ферганского государственного университета, к.п.н.

АННОТАЦИЯ

В данной статье-колыбельная песня” Алла”, исполняемая на образцах устного народного творчества, в узбекском народном творчестве, как главная тема произведений многих ученых и ученых, в становлении души ребенка духовно здоровой и чистой исследуется содержание услышанной во время колыбели Аллы, ее истоки, а также ее историческое развитие.

Ключевое слово: узбекское народное творчество, колыбель, Бог матери, духовность, гармония, общество, подгузник, младенец, пословица, песня, сказка

MOTHER GODDESS AS A FACTOR OF HUMAN PERFECTION

Iyamin Kirgizov

Associate Professor, Ph.D. Faculty of Music Education and Culture, Fergana State University,

ABSTRACT

In this article – The Cradle Song “Alla”, which is sung in samples of folk oral creativity, in Uzbek folk creativity, many allomas, the essence of the meaning of the

allase heard during the cradle in the formation of the child's soul as spiritually healthy and neat, as opposed to the main theme of the works of scientists, kelb output,

Keyword: *Uzbek folk art, cradle, mother Alla, spirituality, perfection, society, diaper, baby, proverb, song, fairy tale*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 02.02.2022 yildagi PQ-112-son qarori ⁶⁸ da belgilangan 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste’dodlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi⁶⁹.

Ma’lumki, inson qadimdan atrof muhitda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirgan. Bu munosabat, avvalo, turli xatti-harakatlar, ovozlari, ehtiroslar vositasida amalga oshgan. Keyinchalik his-tuyg‘ularni so‘zlar, ohanglar, allalar, raqslarda ifodalagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sh.Rahmatullaevning "O‘zbek tilining etimologik lug‘ati"da "alla"ga shunday izoh berilgan: "Bu ot qadimgi turkiy tildagi "tinchlanish" ma’nosini bildirgan ala (ala-ala) undov so‘zidan o‘sib chiqqan (Devon I, 118); o‘zbek tilida "a" unlilari "ä" unlilariga almashgan, "l" undoshi qatlangan: ala-ala > alla > ällä"⁷⁰.

Abu Ali ibn Sino o‘zining mashhur «Tib qonunlari» kitobida bola tarbiyasida allaning ahamiyati to‘g‘risida shunday yozadi: «Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun, unga ikki narsani qo‘llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo‘lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo‘lgan iste’dodi hosil bo‘ladi»⁷¹. Alla — beshik qo‘shig‘i, u xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham keng kuylangan. Bolani yo‘rgaklash, beshikka solish, uxlatish, uyg‘ongan bolani yo‘rgakdan yechib olish singari mashg‘ulotlar kuylar, chiroyli ohangdor so‘zlar bilan bezalgan bo‘ladi... Bunday dilni erkalovchi qo‘shiqlar bolaga ham xush yoqqan — ana shu she’riy to‘qimalar turli voqealarga, ayrim marosimlarga bog‘lab aytilgan bu qo‘shiqni alla qo‘shiqlari deyishgan.

⁶⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги 02.02.2022 йилдаги ПҚ-112-сон қарори.

² Shavkat Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 3-jild.11.12.2013. Zivouz.uz

⁷¹ Абдували Бўриев, ЎзА. Алла миллий тикланиш. <https://uza.uz/posts/283668>

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Alla – go‘dak (bola)ni uxlatishda yakka usulda, mayin ohang va past ovoz bilan aytiladigan qo‘shiq. Dunyodagi har bir xalqning o‘z allasi bor. Turkiy xalqlar, xususan o‘zbeklar ham qadim-qadimdan bolaning nafaqat tanasi, balki ruhiy olami – ma’naviyati ham sog‘lom bo‘lishiga alohida e’tibor qaratishgan. Ajdodlar bola ko‘nglining sog‘lom va toza bo‘lib shakllanishida beshikdalik paytida eshitgan allasi muhim o‘rin tutishini juda yaxshi bilishgan. O‘zbek allasida ona qalbining harorati, tilaklarining samimiyati va bolasiga chin insoniy sifatlar yor bo‘lishini istashidagi haqqoniyat mavjudligini teran anglashgan. Aytish mumkinki, o‘zbek onalari tilidan aytilgan allalarda uning orzusi, to‘kis odam haqidagi ideali aks etgan.

Alla matnini chaqaloq (bola) tushunmasligi mumkin, lekin alla mohiyatiga singdirilgan ona muhabbatini, undagi shukronalik tuyg‘usini ko‘ngli bilan his qiladi. Allada onaning mehr-muhabbati bilan birga uning quvonchi, g‘ururi, ayni chog‘da dardi, alami, o‘kinchi, orzu-armonlari ham o‘z ifodasini topishi mumkin.

Ota-bobolarimizning aytmoqchi bo‘lgan pand-nasihatlari, el e‘zozlagan odam bo‘lishning talab-qoidalari, Alp Erto‘nga, To‘maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlarini, milliy fazilatlarimiz san‘at darajasiga ko‘tarilgan so‘z tizimlaridan iborat maqol, qo‘shiq, ertak, alla va bolalarga bag‘ishlangan asarlarda o‘z ifodasini topdi

«Bola – ota-ona qo‘lidagi omonat. Uning qalbi turli naqsh va rasmlardan holi. Qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, nimaga moyil qilinsa, moyil bo‘laveradi. Agar yaxshilikka undalsa va o‘rgatilsa, saodatli bo‘ladi. Ota-onasi hamda odob, ta’lim-tarbiya bergan ustozlar uning savobiga sherik bo‘ldi. Agar yomonlikka undalsa, halok bo‘ladi»⁷².

Alla — beshik qo‘shig‘i, u xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham keng kuylangan. Bolani yo‘rgaklash, beshikka solish, uxlatish, uyg‘ongan bolani yo‘rgakdan yechib olish singari mashg‘ulotlar kuylar, chiroyli ohangdor so‘zlar bilan bezalgan bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti *Habiba Ohunova* ijrosidagi “Alla ” qo‘shig‘i yurtimiz onalarining betakror madhiyasiga aylangan.

Alla aytay, jonim bolam, quloq solgin, alla
Shirin allam tinglab asta, uxlab qolgin, alla
Ko‘zlaringa tomgan suvga hayron bo‘lma, alla-ya
Baxtinga sen katta bo‘lgin, hazon bo‘lma, alla
Istiqboling porloq seni, jajjiginam, alla-ya

⁷² Самиев Абдумуталлаб Шахрисабз шаҳар “Оиша она” жоме масжид имом-хатиби
[DataLife Engine / Ёшларнинг таълим-тарбияси ҳаётини долзарб вазифа](#)

Baxtinga sen katta bo‘lgin, hazon bo‘lma, alla
Sevganimdan yodgorimsan, oltin qo‘zim, alla-yo
Men sho‘rlikday to‘kilmagin, ko‘rar ko‘zim, alla
Alla, alla, alla-yo

Alla – go‘dak (bola)ni uxlatishda yakka usulda, mayin ohang va past ovoz bilan aytiladigan qo‘shiq. Dunyodagi har bir xalqning o‘z allasi bor. Turkiy xalqlar, xususan o‘zbeklar ham qadim-qadimdan bolaning nafaqat tanasi, balki ruhiy olami – ma’naviyati ham sog‘lom bo‘lishiga alohida e’tibor qaratishgan. Ajdodlar bola ko‘nglining sog‘lom va toza bo‘lib shakllanishida beshikdalik paytida eshitgan allasi muhim o‘rin tutishini juda yaxshi bilishgan. O‘zbek onalari tilidan aytilgan allalarda uning orzusi, to‘kis odam haqidagi ideali aks etgan deyish mumkin. O‘zbek allasida ona qalbining harorati, tilaklarining samimiyati va bolasiga chin insoniy sifatlar yor bo‘lishini istashidagi haqqoniyat mavjud.

Ota-ona borki, farzandining tinch va osuda Vatanda sog‘lom o‘sib-ulg‘ayishi, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarni egallab, oilasiga, yurtiga tayanch bo‘lishini istaydi.

XULOSA

Zero, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, *“Har qanday jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi rol ni ushbu jamiyatning kelajagi bo‘lgan yosh avlodning sog‘lom va barkamol rivojlanishi o‘ynaydi. Shuning uchun islohotlarimizni kengaytirish va samaradorligini yanada oshirish masalalarida biz zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan g‘ayratli, tashabbuskor, har tomonlama rivojlangan yoshlarimizni o‘zimizga tayanch deb bilamiz”*⁷³.

*Zotan, yosh avlod ta’lim-tarbiyasi va sihat-salomatligiga ustuvor ahamiyat qaratilishi bugun xalqimiz intilayotgan Uchinchi Renessans*⁷⁴ – yangi Uyg‘onish davriga qo‘yilajak poydevorning mustahkam bo‘lishi garovidir.

Xulosa tarzida aytish mumkinki, **onalar allasi** yoshlarimizning ilmu fanga, ijodu mehnatga rag‘batini oshirishga, yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida shakllanishiga, imon-e’tiqodi, milliy g‘ururi hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo‘lib, yangi hayot bunyod etishga ko‘maklashadi.

⁷³ Абдулазиз Бобамирзаев, “Хидоя” ўрта махсус ислом билим юртим удири. Ёшларга эътибор келажакка эътибор. muslim.uz декабрь. 31, 2020.

⁷⁴ Музаффар КОМИЛОВ, Дин ишлари бўйича кўмита раисининг биринчи ўринбосари, Ўзбекистон халқаро ислом академияси ректори. Манба: “Янги Ўзбекистон” газетаси 2021-йил 7-ноябр, 223-сон

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.Rahmatullayev.O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 3-jild.11.12.2013.Ziyouz.uz
2. A.Bo‘riev, O‘zA. Alla milliy tiklanish. <https://uza.uz/posts/283668>
3. Abdulaziz Bobamirzaev, “Hidoya” o‘rta maxsus islom bilim yurtim mudiri. Yoshlarga e’tibor kelajakka e’tibor. muslim.uz dekabr. 31, 2020.
4. Muzaffar KOMILOV, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita raisining birinchi o‘rinbosari, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori. Manba: “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2021-yil 7-noyabr, 223-son
5. Xusanovna, D. N. (2023, April). BOLALAR FALSAFASI VA UNING SHAXS RIVOJIDAGI O‘RNI. In *E Conference Zone* (pp. 73-78).
6. Djalalova, N. (2023). YOSHARNING ESTETIK TAFAKKURINI TARBIYALASH VA YUKSAKTIRISHDA MUSIQIY MADANIYATNING O‘RNI. *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*, 2(4), 7-10.
7. Djalalova, N. (2023). PIANO PERFORMANCE AS A FACTOR THAT ACTIVATES STUDENTS’MUSICAL AND AESTHETIC WORLD VIEWS AND DEVELOPS MUSICAL CULTURE. *Science and innovation*, 2(B4), 339-342.
8. Djalalova, N. (2022). МУСИҚИЙ ВА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ АСОСЛАРИ. *Science and innovation*, 1(B8), 478-481.
9. Шокиров, Т. Н. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ МУСИҚА ИЛМИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 353-359.
10. Namozova, D. T. (2021). MUSIQA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI KREATIVLIK HAMDA ERKIN TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNI TASHKIL ETISH. *Scientific progress*, 2(2), 1313-1315.
11. Namozova, D. (2022). BO ‘LAJAK MUSIQA O ‘QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENTLIGINI MUSIQA TARIXI FANINI O ‘QITISH VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH. *Science and innovation*, 1(B6), 942-950.
12. Sulstonov, A. (2022). MUSIQIY IDROKKA TA’SIR ETUVCHI TRANSFORMATSION TENDENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 314-323.
13. Murodova, D. (2021). Scientific And Theoretical Aspects of Musical Thinking. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 1(1), 196-199.
14. Murodova, D. (2021). THE CONCEPT OF MUSICAL THINKING AND ITS STAGES OF DEVELOPMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(05), 245-250.

15. Рахмонов У Наджметдинова М, Эргашев А Роль и значение музыкальных клубов в досуге молодежи *Журнал педагогических изобретений и практик* 2021 , 2 (2) 47-49
16. Рахмонов У Наджметдинова М, Эргашев В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОГО МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ В МУЗЫКАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ ВЕЛИКИЕ УЧЕНЫЕ ВОСТОЧНОГО РЕНЕССАНСА ЗАНИМАЛИ ПОЛОЖЕНИЕ., Архив конференций: 2021: ГУМАНИТНЫЙ КОНГРЕСС
<https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/1638>.
17. Улугбек Рахмонов, Алиджон Эргашев, Шохидахон Атабаева, Студентка Юсупжонова Дильфузахон, РОЛЬ ДУХОВНОЙ СРЕДЫ В ПРОНИКНОВЕНИИ Эстрадной музыки в Узбекистане., Архив конференций: 2021: ГУМАНИТНЫЙ КОНГРЕСС
18. Kirgizov, I., Kirgizov, I., Najmetdinova, M., &Atabayeva, S. (2022, February). *THE GENESIS OF THE DEVELOPMENT OF MUSIC CULTURE. In Archive of Conferences* (pp. 57-60).
19. Kirgizov, I., Imyaminovich, K. I., Nurmammedjanov, A., Sotvoldievich, S. B., Mamasodikovna, N. M., &Juraevna, A. S. (2021). *The Pleasure of Singing, Listening and Understanding Navoi. Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 2410-2413.
20. Нурмухамеджанов, А. (2022). ЁШЛАР ИЖТИМОЙИ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШДА БЎШ ВАҚТДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 442-446
21. Султонали Маннопов, Мавлюда Наджметдинова, Шохида Атабоева, Ирода Назарова, Джамолдин Мойдинов Анализ исследований эстетических особенностей узбекской народной музыки. *Турецкий онлайн-журнал качественных исследований*. 2021, Том. 12 Выпуск 10, стр.3528-3533.
22. Хожимаматов А. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. “*JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN*”. *JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE* 249-253 bet.
23. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOYIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.

24. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG ‘U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
25. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O ‘ZBEK SAN’ATINING ZABARDAST HOFIZI JO ‘RAXON SULTONOV. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
26. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL “*An open access, peer reviewed multidisciplinary journal*” 2 (4) 460-463 bet.
27. Achildiyeva M, Ikromova F Choir Art in Uzbekistan Botir Umidjonov *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (Brussel, Belgium 2022)* ISSN 2795-7683 54-56 be
28. Achildiyeva M, Ikromova F (2021) ABOUT MAHMUDJON TOJIBOYEVS PEDAGOGICAL ACTIVITY *GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)* 9(5) 240-244
29. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. XX-ASNING «XAMNAFAS» XOFIZLARI " *ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION* Vol. 10 No. 1 (2023)
30. Jamoldin Muydinov ЎРТА ОСИЁДА МУСИҚА ИЛМИ РИВОЖЛАНИШИДА БАХШИЧИЛИК САЎБАТИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ - “*JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN*” JURNALI VOLUME 1, ISSUE 7, 2023. OCTOBER ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869
31. Muydinov, J. S. (2022). XALQ QO ‘SHIQLARI–USTOZLAR SAYQALIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 606-610.
32. Akmal Arabovich Saddixonov MUSIQIY TA’LIMDA KOMPETATSION YONDASHUV 2022 *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 10-2 572-577
33. Sadixanov Akmaljon Arapovic TALABALAR KREATIVLIK JIHATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO’LLARI 2023 *Science and innovation 2 Special Issue 5* 633-637
34. Акмаль Алдиёров Садиханов ПОНЯТИЕ ЛИЧНОСТНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И КРЕАТИВНОСТИ УЧИТЕЛЯ МУЗЫКИ В СИСТЕМЕ

ОБРАЗОВАНИЯ 2023/6/4 " USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE 8 1

35. Абдусатторов, А. А. Ў. (2023). ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚ ЧОЛҒУ ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ. *Science and innovation*, 2(Special Issue 5), 521-526.

36. Abdusattorov, A. (2023). MUSIQA DARSLARI JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI. *Наука и инновация*, 1(9), 8-12.

37. Abdusattorov, A. (2023). TORLI KVARTET UCHUN ASARLAR YARATISHNING METODOLOGIK BOSQICHLARI. *Наука и инновация*, 1(9), 4-7.

38. Абдусатторов, А. А. Ў. (2022). БАСТАКОРЛИК ИЖОДИДА МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 602-605.

39. Abdusattorov, A. (2020). About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 2(11), 28-30.

QADIMIY SHARQ MUSIQA SAN'ATI RIVOJIDA AYOL XONANDALIGINING NAZARIY ASOSLARI

Imyaminjon Qirg'izov

FarDU san'atshunoslik fakulteti

Musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrası dotsenti, p.f.n.

kyrgizovimyamin@gmail.com,

90 230 70 98

Mamajonova Dildoraxon Abduraxmonovna

Q.D.P.I. 13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazaryasi va metodikasi ixtisosligi

bo'yicha tayanch doktoranti.

mamajonovadildoraxon5@gmail.com

90 026 26 78

ANNOTATSIYA

Maqolada qadimiy sharq musiqa san'ati rivojida hamda o'zbek milliy musiqa san'ati rivojida ayol xonandaligining tarbiyashunoslik nuqtai nazardan tahlili bayon etiladi. Qadimdan donishmandlar oilada o'g'illar bilan birgalikda qizlarni ham ilmi qilish eng dolzarb va ahamiyatli vazifalardan biri ekanligi haqida uqtirib kelishgan. Boisi, oqila, ziyoli ayol kelajakda barpo bo'ladigan butun boshli oilaning ilmi bo'lib ulg'ayishiga zamin yaratadi. Jamiyatda gender munosabatlar asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini, iymon-e'tiqodlarini shakllantirish, mazkur ta'lim jarayoni ta'sirida shaxsning aqliy kamolotini bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirish maqsadlari dolzarblik kasb etadi. Bu zaruratdan kelib chiqib, qadimiy Sharq musiqa san'ati rivojida ayol xonandaligi faoliyatining nazariy asoslarini tadqiq etish vazifalari belgilandi.

Qadimiy Sharq musiqa san'ati rivojidagi ta'lim-tarbiya tizimi va bunda ayol xonandaligi maktablari faoliyatining o'rni beqiyos. Qadimiy Sharq musiqa san'ati maktablari mohiyatida bo'lgani kabi ayol xonandaligi maktablari faoliyatida ham musiqaning inson organizmiga tibbiy va ta'limiy ta'siri haqidagi falsafiy qarashlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, san'at, ashula, tarbiyashunoslik, an'ana, milliy, maqom, Buzruk, Rost, Navo, Iroq, Ushshoq.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЖЕНСКОГО ПЕНИЯ В РАЗВИТИИ ДРЕВНЕВОСТОЧНОГО МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА

АННОТАЦИЯ

В статье представлен анализ женского пения в развитии древневосточного музыкального искусства и развития узбекского национального музыкального искусства с образовательной точки зрения. В древности мудрецы говорили, что воспитание девочек наряду с сыновьями в семье является одной из самых насущных и важных задач. Потому что умная и интеллигентная женщина создает фундамент для того, чтобы вся семья в будущем построилась и выросла знающей. Путём овладения основами гендерных отношений в обществе, идей, содержащихся в его содержании, формирования своих личных качеств, веры и убеждений под влиянием мирового зрений, целей развития способности познавать психическую зрелость человека, находящегося под влиянием. В этом образовательном процессе становятся актуальными цели формирования отношения к труду и учёбе. Исходя из этой необходимости, были определены задачи исследования теоретических основ женского пения в развитии древневосточного музыкального искусства.

Образовательная система в развитии древнего восточного музыкального искусства и роль женских певческих школ в нем бесподобны. Философские взгляды на лечебное и воспитательное воздействие музыки на организм человека представлены в деятельности женских певческих школ, а также в сущности древних восточных музыкальных школ.

Ключевые слова: музыка, искусство, пение, образование, традиция, национальный, маком, Бузрук, Рост, Наво, Ирак, Ушишок.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF FEMALE SINGING IN THE DEVELOPMENT OF ANCIENT EASTERN MUSICAL ART

ABSTRACT

The article presents an analysis of female singing in the development of ancient Eastern musical art and the development of the Uzbek national musical art from an educational point of view. In ancient times, the sages said that raising girls, along with sons in the family, is one of the most pressing and important tasks. Because a smart and intelligent woman creates the foundation for the whole family to build and grow in the future. By mastering the basics of gender relations in society, the ideas contained in its content, the formation of one's personal qualities of faith and beliefs under the influence of a world view, the goals of developing the ability to cognize the

mental maturity of a person under the influence. In this educational process, the formation of attitudes towards work and study becomes relevant goals. Based on this need, the tasks and implications of the theoretical foundations of female singing in the development of ancient Eastern musical art were determined.

The educational system in the development of ancient Eastern musical art and the role of women's singing schools in it are incomparable. Philosophical views on the healing and educational effects of music on the human body are presented in the activities of women's singing schools as well as in the essence of ancient oriental music schools.

Key words: music, art, singing, education, tradition, national, makom, Buzruk, Rost, Navo, Irak, Ushshok.

KIRISH

Ayol ertangi kun davomchilari bo'lmish kelajak avlodlarni ham jisman, ham ma'nan kamolga yetkazuvchi ulug' zotdir. Shu bois ularga qancha ehtirom ko'rsatsak, shuncha oz. Bugungi kunda davlatimiz rahbari boshchiligida Yangi O'zbekistonning yangicha tamoyillari asosida xotin-qizlar masalalariga yanada ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Ularning o'qishi, ishlashi, salomatligini asrash, oilasi uchun sharoitlar yaxshilanmoqda.

“Xotin-qizlar va oila masalasi – bu nafaqat bugungi kunimiz, balki ertangi kelajagimizni ham belgilab beradigan hal qiluvchi omildir. Agar biz mehr-oqibat va sadoqat timsoli, xonadonlarimiz farishtasi bo'lgan ayollarga bitta yaxshilik qilsak, hech shubhasiz, bu o'nta yaxshilik bo'lib qaytadi”⁷⁵, deya ta'kidladi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida.

Azal-azaldan donishmandlar oilada o'g'illar bilan birgalikda qizlarni ham ilmi qilish eng maqbul ish bo'lishini uqtirib kelishgan. Boisi, oqila, ziyoli ayol kelajakda barpo bo'ladigan butun boshli oilaning ilmi bo'lib ulg'ayishiga zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan davlatimiz Prezidenti “Biz mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirish uchun yangi tarixiy davrga qadam qo'ydik. Farzandlarimiz qalbiga ulug' maqsadlar, olijanob g'oyalarni singdirish – barcha O'zbekiston onalarining sharaflari burchidir. Yuksak fazilatli, mard va jasur, vatanparvar yosh avlodni tarbiyalab voyaga etkazish, albatta, sizlarga bog'liq. Bu – yorug' kelajakka yo'naltirilgan eng katta investitsiya va bitmas-tuganmas boylikdir”⁷⁶ deya barchani ayollarni nafaqat

⁷⁵ Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://adolat24.uz/>

⁷⁶ Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://adolat24.uz/>

bugungi kun, balki davlatimizning nurli kelajagi yaratuvchilari sifatida ardoqlashga, e'zozlashga, hurmat-ehtirom ko'rsatishga chorlamoqda.

Zamonaviy jamiyatda "erkaklarga oid" va "ayollarga oid" bo'lgan xususiyatlar borasida qat'iy qaror topgan tasavvurlar shu jamiyatdagi umum insoniy madaniyat darajasi kam o'rganilgan masala bo'lib, tadqiqotning maqsadi hozir biz yashayotgan davr yangilanayotgan O'zbekistonning islohotlarida inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan bir paytda, hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol huquqlarining tan olinmasligi shuningdek, ayrim holatlarda jamiyatda ham xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga yetarlicha ahamiyat berilmayotgani haqiqatdir. Bu holat ta'lim tizimida tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiiq qila olish kompetenligining pastligidan dalolatdir. Zero, jamiyatda gender munosabatlar asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini, iymon-e'tiqodlarini shakllantirish, mazkur ta'lim jarayoni ta'sirida shaxsning aqliy kamolotini bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirish maqsadlari dolzarblik kasb etadi. Bu zaruratdan kelib chiqib, qadimiy Sharq musiqa san'ati rivojida ayol xonandaligi faoliyatining nazariy asoslarini tadqiq etish vazifalari belgilandi.

Bu dozarb masalaning nazariy asoslarini Qadimiy Sharq musiqa san'ati rivojidadagi ta'lim-tarbiya tizimi va bunda ayol xonandaligi maktablari faoliyatidan qidiramiz. Avvalo, barcha Qadimiy Sharq musiqa san'ati maktablari mohiyatida bo'lgani kabi ayol xonandaligi maktablari faoliyatida ham musiqaning inson organizmiga tibbiy va ta'limiy ta'siri haqidagi buyuk allomalarimiz asarlaridagi nazariy ko'rsatmalarga tayanilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Alloh taolo barcha mavjudotlar qatori insonni ham juft ya'ni erkak va ayol qilib yaratgandir. Ayol hayotda onamiz, juftu halolimiz, opa-singlimiz, qizimiz bo'lib yashaydi. Ayol kishi avvalo ona sifatida qadrlanadi. Qu'roni Karimning bir necha suralarida onani e'zozlashga, uning xaqqini ado etishga buyurilgan.

Payg'ambarimiz (s.a.v.) hadislarining birida "Jannat – onalar oyog'i ostida" deb marhamat qilganlar. Yana bir hadis sharifda: Bir kishi Rasululloh(s.a.v.)dan: "Insonlar ichida yaxshilik qilishga kim haqliroq?"- deb so'ragan edi, Rasululloh (s.a.v.): "Onang, keyin onang, keyin yana onang", deb javob berganlar. Onaning bu tarzda otadan ko'ra uch barobar haqliroq bo'lishi bolaning dunyoga kelishi va voyaga etishi yo'lida u tortgan qiyinchiliklar, tutgan o'rni va qilgan xizmatlari hisobigadir.

Imom G'azzoliy (r.h.) "Ihyoi ulumid-din" kitobida quyidagi hadisni rivoyat qilib keltiradilar:

Rasululloh (s.a.v) aytadilar: “Onaning duosi tezroq ijobat bo‘ladi”: “Yo Rasululloh (s.a.v) nima uchun?” – deb so‘radilar. Javob berdilarki: “Ona otadan ko‘ra farzandiga mehribonroqdir. Shafqat bilan qilingan duo zoe ketmaydi”⁷⁷.

Islom olamida IX-XII asrlarni ilm-faning oltin davri deb e‘tirof etilgan bo‘lsa, bu davrda bizning diyordlardan chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiy, Imom Motrudiy, Imom Zamaxshariy, Ibn Sino, Ahmad Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bek, Abu Muso Xorazmiy kabi yuzlab allomalar dunyo ilm-fani rivojida o‘zlarining ulkan va betakror hissalarin qo‘shgan.

Jumladan, Islom olamida Qur‘oni karimdan keyingi ikkinchi manba deb e‘tirof etilgan Imom Buxoriyning “Al-Jome‘ as-Sahih” asari dunyo ilm ahli nazdida hozirgacha ilmiy va amaliy ahamiyatini yo‘qotgan emas. Bu asar o‘z yo‘nalishida takrorlanmas yagona yo‘nalishga ega durdona asar bo‘lib, 97 kitob, 3881ta bob va takrorlari bilan qo‘shib hisoblaganda 7563 ta hadisdan tarkib topgan.

Imom Buxoriy “Al-Jome‘ as-Sahih”da birinchi “Vahiy” kitobini, ikkinchi “Iymon kitobi”ni va uchinchi “Ilm kitobi”ni keltirgan. “Ilm kitobi” 53 ta bob bo‘lib, bu boblar ilm va unga bog‘liq holatlarga oid 76 ta hadisni o‘z ichiga olgan. “Al-Jomi‘ as-sahih” asarining “Ilm kitobi”da “Ilm” so‘zi lug‘atda bir narsani voqe‘likdagidek idrok etishni bildiradi. Qur‘oni karim ilk oyati ilm olishga bo‘lgan buyruq bilan nozil bo‘lishi inson hayotida ilmning juda katta ahamiyat kasb etishiga dalil bo‘ladi⁷⁸.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rasululloh sollallohu alayhi vasallam”:

“Kimning uchta qizi bo‘lsa, ularning xarxashalari, og‘irliklari va yengilliklariga sabr qilsa, Alloh ularga ko‘rsatgan rahmati tufayli uni jannatga kiritur”, – dedilar. Bir kishi:

“Ikkita bo‘lsa-chi, yo Rasulalloh?” – dedi.

“Ikkita bo‘lsa ham”, – dedilar. Bir kishi:

“Bitta bo‘lsa-chi, yo Rasulalloh?” – dedi.

“Bitta bo‘lsa ham”, – dedilar⁷⁹.

Qizlarning tarbiyasi, ta‘limi va madaniyati hamda, yashab, o‘sishi uchun zarur bo‘lgan har bir narsa otaning zimmasidagi farzdir. Ota bu farzdan faqat qiz turmushga chiqqanidan keyingina ozod bo‘ladi, chunki endi bu farz erning zimmasiga o‘tgan bo‘ladi. Otasi yoki eri yo‘q ayolning nafaqasi akasi yoki uning o‘rnini bosuvchi boshqa shaxslarga vojib bo‘ladi. Umuman, Islomda ayol kishi

⁷⁷ Alisher xoji Naimov, Quvasoy shahar bosh imom-xatibi

⁷⁸ “A-jome‘ as-sahih”da ilm olishga munosabat muslim.uz - Iyul 03, 2018

⁷⁹“Baxtiyor oil” kitobidan Manba

nafaqasiz qolishi mumkin emas. Qizning nafaqasi otaga, xotinniki erga, singilniki aka-ukaga, onaniki o'g'ilga vojib bo'ladi.

Islom ayol kishiga ta'lim olish va madaniy saviyasini oshirish haqqini berdi va erkaklarni bu ishga mas'ul qildi. Ilm talabi erkak-ayolga barobar farzligini, qizlariga va singillariga ta'lim-tarbiya bergan kishi jannatga haqlidir.

Bu borada hadisshunos olimlar ichida eng nufuzli hisoblangan Imom al-Buxoriyning 20 dan ortiq katta va kichik kitoblari mavjud bo'lib, ular orasida "Al-jome' as-sahih" asari alohida o'rin turadi. Bu shoh asar ahamiyati jihatidan Qur'ondan keyingi o'rinda turuvchi muqaddas manbaa hisoblanadi. Imom al-Buxoriy o'z asarlarida axloq-odob, tarbiya haqida fikr yuritar ekan, odamlarni ota-onani e'zozlashga, ular oldidagi o'z burchlarini mukammal ado etishga da'vat etadi.

Inson sifatlari haqidagi ta'limiy qarashlarida jaholat kishiga o'lim keltiruvchi fojea deb qaraladi. Jaholat insoniyatni falokat sari yetaklovchi qusur sifatida ko'rsatilsa, to'g'ri so'zli bo'lish esa insonning go'zal fazilatlaridan hisoblanadi. Buxoriy o'z asarlarida odamlarni to'g'ri so'zli bo'lishga, vadaga vafo qilishga chorlaydi. Munofiq kishining uchta belgisini ko'rsatadi, ular: yolg'on gapirish, va'daga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytadi. U insonning kuch-qudratini jismonan pahlavonlikda emas, balki jahil chiqqanda o'zini tuta olishda, deb hisoblaydi.

Sharqona ta'lim rivojlantiruvchi ta'lim sifatida bo'lajak musiqa o'quvchilarning ichki imkoniyatlarini oshirish va ularni ro'yobga chiqarishga yo'naltiriladi. Rivojlantiruvchi ta'limda, ko'proq, sanoiy nafis suhbatlaridadan foydalanilgan. Sanoiy nafis suhbatlarida ta'lim oluvchilarda muayyan bilimlarni puxta o'zlashtirish, ularni amaliyotda samarali qo'llay olishga doir ko'nikma-malakalarni shakllantirishga, bu jarayonda ularning mavjud imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishga yordam bergan.

Jumladan, hadisshunos alloma at-Termiziy hadislarida odamlarni ahl bo'lishga, jamoaga foyda keltirishga, do'stlik va birodarlikka da'vat etuvchi hadislar ko'p uchraydi. "Barcha musulmonlar o'zaro birodardurlar. Ular hech qachon bir-birlariga yomonlikni ravo ko'rmasliklari kerak. Kimda-kim o'zining musulmon birodariga yordam qilsa, oxiratda Olloh unga yordam qiladi. Kimda-kim o'z birodari hojatini yengillatsa, Olloh ham uning oxiratinini yengil qiladi". Alloma sog'lom tanda sog' fikr bo'ladi, degan xalq maqoliga amal qilib, vaqtni bekor o'tkazmaslikka da'vat etadi.

Imom at-Termiziyning "Sunan" kitobida keltirilgan kishi ta'limning na'riy sifatlariga oid fikrlar ko'p uchraydi. Chunonchi: "Xayrli va yaxshi ishlar qilishga da'vat etishing va zulmdan qaytarishing-sening sadaqang"⁸⁰, "Adashgan kishilarga

⁸⁰ Norpo'lat AHMEDJONOV, JDPIHXTXQTMOM katta o'qituvchisi. <https://www.bukhari.uz/?p=12682>

to'g'ri yo'l ko'rsatish ham-sening sadaqang", "O'z idishindan boshqalarning idishiga suv solib berish ham-sening sadaqang hisoblanadi".

"Qobusnoma"da barkamol inson, yuksak ma'naviyatli shaxs masalalariga alohida ahamiyat berilgan. Kitob insondagi bir qator kerakli bo'lgan xususiyatlar va sifatlarni ochib berishga, ularni tuzatishga qaratilgandir. Shuning uchun ham ushbu asar fors-tojik pedagogikasining qomusi sifatida ulug'lansa, qariyb to'qqiz asrdan buyon jahon xalqlari e'tiborini qozonib kelmoqda.

Alisher Navoiyning "Mahbub ul qulub" asarining yigirma ikkinchi fasli mutrib va mug'anniylar zikrida:

Aytquvchi va cholg'uvchi zorlig' va iynamak bila olg'uvchi. To buyurg'uvchida sila va in'om bor, alar mulozimdurlar va xizmatgor. To suhbatda ne'mat ko'p, alarga barcha amru nahying jo'b. Chun bazmda tana'um oz bo'ldi, alar ishi istig'nou noz bo'ldi. Ne'mat degan nimaki tamom yo'q bo'ldi, alarning ko'ngli sendin tamom to'q bo'ldi. Agar yillar bahra olibdurlar ehsoningdin, oshnolig' bermay o'tarlar yoningdin. Oz olsalar nosipos, ko'p olsalar haqshunos. Aksari fosiq va badxo'y va qolg'oni kajtab'u durushtgo'y. Harakatlari tuzuksiz so'zlaridek va kalimotlari hashv va mahalsiz nozlaridek. Vafo alar tab'idin maslub, vafo ahli olida mardud va manqub"-deya ayrim sozanda va xonandalarning fe'li-atvoridagi kamchiliklar, noxush ta'lim ko'rinishlarini tanqid qiladi.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Abdurahmon Jomiy (XV-asr) "Risolai musiqiy" asarida o'n ikki maqom to'g'risida fikr yuritib, deydi: "Bilki, har bir maqomning ovozlar va sho'balarning tinglovchiga ma'naviy ta'sir ko'rsatish kuchi bor, ular umumiy ma'noda huzur bag'ishlaydi"⁸¹. Bunga maqom kuylari va ashulalaridagi g'oyaviy ruh sababchidir. Shu jihatdan bu o'rinda ikki masala idrok etilishi kerak:

- 1) maqom kuylarining tinglovchiga ruhiy ta'sir etish xususiyatiga egaligi;
- 2) maqom ashulalarining ruhga ta'sir qiladigan lirik tuyg'ularga boyligi.

Ko'p hollarda texnologik rivojlanish jarayonida yoshlar engilroq va oddiyroq musiqani tinglashadi, - degan umumiy qarash mavjud edi. Biroq, 2017 yilda Davlatimiz rahbarining milliy maqom san'atimizni rivojlantirish to'g'risidagi Qarori qabul qilingach, ahvol yanada oydinlashdi. Abdurahmon Jomiyning (XV-asr) keyinchalik Shashmaqomda saqlanib qolgan o'n ikki maqomlardan ayrimlari to'g'risidagi fikrlariga e'tibor bering: "Bilki, Ushshoq va Navo maqomlari tinglovchida kuch va mardlik uyg'otadi. Rost va Iroq esa quvonch va shodlik uyg'otadi. Buzruk esa g'am va anduh uyg'otadi"⁸². U holda Shashmaqomning

⁸¹ Abdurahmon Jomiy (1414-1492) Opublikovano **10.06.2019** Avtor Ziyouz.uz

⁸² Abdurahmon Jomiy (1414-1492) Opublikovano **10.06.2019** Avtor Ziyouz.uz

Rost(Ushshoq), Navo, Buzruk va Iroq maqomlari inson ruhiyatida ushbu tuyg‘u va taassurotlarini uyg‘otishini tasavvur qilish qiyin emas: kuchlilik, mardlik, quvonch, shodlik, g‘am va anduh. Bu tuyg‘ular inson ruhiyati uchun o‘ziga xos ozuqalardir. Inson ruhiyati hamisha quvonchni xush ko‘rmaganidek, doimiy g‘amginlikda ham bo‘lolmaydi. Ular o‘rtasidagi muvozanatni kuchlilik va mardlik saqlab turadi. Demak, bugungi kunda ayol xonandalar ijrosida Shashmaqom namunalarini o‘rganish va targ‘ib qilish ayni muddaodir.

Chunki, cholg‘ulardan taralayotgan yorqin, yoqimli va jarangdor sadolar kishi ruhiyatida uyg‘onish ezaga keltirsa, ashulalardagi ruh, g‘oya va ohang ruhiyatni yo‘naltiradi. Shu sababli qadimda maqomlarni tinglash ham belgilangan, chunki inson ruhiyati zamon (vaqt) va makonga mos ravishda o‘zgarishi ma‘lum. Shu ma‘noda Mavlono Najmiddin Kavkabiy (XVI) o‘zining musiqa ilmiga bag‘ishlangan “Risolai musiqiy” asarida quyidagi tavsifni beradi: “Bilki maqomlarni ijro etish vaqti bor, jumladan:

1) Rost - choshgoh vaqtida;

2) Iroq - kun o‘rtasida;

3) Buzruk - Quyosh botishi oldidan ijro etiladi”⁸³. Shashmaqomda ham kelgan bu maqomlarning ruhiy ta’sir kuchi idroklanadi. Unga ko‘ra Shashmaqom tarkibidagi Rost Iroq va Buzruk maqomlarining inson ruhiyatiga ta’sir kuchini vaqtga bog‘liq holda anglash mumkin. Negaki bu maqomlarning tovushqatorida lad tizimida o‘n ikki maqomdagi tovushqatorlar saqlanib qolgani sir emas. Shu jihatdan Mavlono Najmiddin Kavkabiyning (XVI-asr) yana ushbu tavsiyasi diqqatni tortadi: Ijrochi tinglovchining xohish-istagi va ta’bini qoniqtirishi kerak. Biror musiqa asarini ijro etishdan avval vaqt va tinglovchilar tarkibi hisobga olinishi kerak. Shundagina musiqiy asarning tinglovchiga ta’siriga erishish mumkin.

Bu fikrlar albatta, amaliy tajribaning hosilasidir va u maqom san’atining eng kuchli bilimdonlaridan bir tomondan aytilayotgani bilan e’tiborga loyiqdir.

Mazkur muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, musiqa va ruhiyat masalasi juda keng ko‘lamli bo‘lib u izchil tadqiq etib borilishi maqsadga muvofiqdir. Hozirgi texnologik rivojlanish jarayonida inson ruhiyatini pok saqlash, uni turli salbiy ta’sirlardan asrash va insonga ruhiy ko‘tarinkilik bag‘ishlash muhim vazifalardan hisoblanadi. Chunki texnik taraqqiyot bir jixatdan inson ruhiyatiga salbiy ta’sir qilish, uning tuyg‘ularini texnologiyalashtirish va asosiysi insonning zavq tuyg‘usini qotirishga xizmat qilmoqda. Buning natijasida inson ruhiyatida turli illatlar, ruhiy tushkunliklar va umidsizliklar paydo bo‘layotganligi sir emas. Shu ma‘noda musiqa inson ruhini muolaja qiluvchi asosiy omillardan biridir.

⁸³ Najmiddin Kavkabiy (XVI) o‘zining musiqa ilmiga bag‘ishlangan “Risolai musiqiy” asari

Xulosa sifatida faxr va iftixor bilan ayta olamizki, jonajon zaminimizdan jahon tsivilizatsiyasi rivojiga hissa qo‘shgan allomalar, faylasuf olimlarning merosidan foydalanib, milliy mentalitetimizni, qadriyat-u an‘analarimizni, ma‘naviyatimizni, insoniy go‘zal hislatlarimizni, tafakkurimizni, samimiy dunyoqarashimizni yanada boyitish, hamda o‘zlashtirish mumkin. Bu har bir qalb uchun fahrga aylanishi lozim. Sharq ayol xonandaligi faoliyatida o‘zbekona qadriyatlarimiz, madaniy-ma‘naviy meroslarimiz, urf-odatlarimizga tayangan holda tashkillash va ulardan namuna, ibrat sifatida foydalanish ta‘lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://adolat24.uz/>
2. O‘sha manbaa
3. Alisher xoji Naimov, Quvasoy shahar bosh imom-xatibi
4. “A-jome’ as-sahih”da ilm olishga munosabat muslim.uz - Iyul 03, 2018
5. “Baxtiyor oila” kitobidan Manba islom.uz
6. Norpo‘lat AHMEDJONOV, JDPIHXTXQTMOM katta o‘qituvchisi. <https://www.bukhari.uz/?p=12682>
7. Abdurahmon Jomiy (1414-1492) Opublikovano10.06.2019AvtorZiyouz.uz
8. Abdurahmon Jomiy (1414-1492) Opublikovano10.06.2019AvtorZiyouz.uz
9. Najmiddin Kavkabi (XVI) o‘zining musiqa ilmiga bag‘ishlangan “Risolai musiqiy” asari
10. Xusanovna, D. N. (2023, April). BOLALAR FALSAFASI VA UNING SHAXS RIVOJIDAGI O‘RNI. In *E Conference Zone* (pp. 73-78).
11. Djalalova, N. (2023). YOSHARNING ESTETIK TAFAKKURINI TARBIYALASH VA YUKSAKTIRISHDA MUSIQIY MADANIYATNING O‘RNI. *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*, 2(4), 7-10.
12. Djalalova, N. (2023). PIANO PERFORMANCE AS A FACTOR THAT ACTIVATES STUDENTS’MUSICAL AND AESTHETIC WORLD VIEWS AND DEVELOPS MUSICAL CULTURE. *Science and innovation*, 2(B4), 339-342.
13. Djalalova, N. (2022). МУСИҚИЙ ВА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ АСОСЛАРИ. *Science and innovation*, 1(B8), 478-481.
14. Шокиров, Т. Н. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ МУСИҚА ИЛМИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 353-359.
15. Namozova, D. T. (2021). MUSIQA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI KREATIVLIK HAMDA ERKIN TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNI TASHKIL ETISH. *Scientific progress*, 2(2), 1313-1315.

16. Namozova, D. (2022). BO 'LAJAK MUSIQA O 'QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENTLIGINI MUSIQA TARIXI FANINI O 'QITISH VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH. *Science and innovation*, 1(B6), 942-950.
17. Sulstonov, A. (2022). MUSIQIY IDROKKA TA'SIR ETUVCHI TRANSFORMATSION TENDENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 314-323.
18. Murodova, D. (2021). Scientific And Theoretical Aspects of Musical Thinking. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 1(1), 196-199.
19. Murodova, D. (2021). THE CONCEPT OF MUSICAL THINKING AND ITS STAGES OF DEVELOPMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(05), 245-250.
20. Рахмонов У Наджметдинова М, Эргашев А Роль и значение музыкальных клубов в досуге молодежи *Журнал педагогических изобретений и практик 2021* , 2 (2) 47-49
21. Рахмонов У Наджметдинова М, Эргашев В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОГО МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ В МУЗЫКАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ ВЕЛИКИЕ УЧЕНЫЕ ВОСТОЧНОГО РЕНЕССАНСА ЗАНИМАЛИ ПОЛОЖЕНИЕ., Архив конференций: 2021: ГУМАНИТНЫЙ КОНГРЕСС
<https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/1638>.
22. Улугбек Рахмонов, Алиджон Эргашев, Шохидахон Атабаева, Студентка Юсупжонова Дильфузахон, РОЛЬ ДУХОВНОЙ СРЕДЫ В ПРОНИКНОВЕНИИ Эстрадной музыки в Узбекистане., Архив конференций: 2021: ГУМАНИТНЫЙ КОНГРЕСС
23. Kirgizov, I., Kirgizov, I., Najmetdinova, M., &Atabayeva, S. (2022, February). *THE GENESIS OF THE DEVELOPMENT OF MUSIC CULTURE. In Archive of Conferences* (pp. 57-60).
24. Kirgizov, I., Imyaminovich, K. I., Nurmammedjanov, A., Sotvoldievich, S. B., Mamasodikovna, N. M., &Juraevna, A. S. (2021). *The Pleasure of Singing, Listening and Understanding Navoi. Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 2410-2413.
25. Нурмухамеджанов, А. (2022). ЁШЛАР ИЖТИМОЙИ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШДА БЎШ ВАҚТДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 442-446
26. Султонали Маннопов, Мавлюда Наджметдинова, Шохида Атабоева, Ирода Назарова, Джамолдин Мойдинов Анализ исследований эстетических

особенностей узбекской народной музыки. *Турецкий онлайн-журнал качественных исследований*. 2021, Том. 12 Выпуск 10, стр.3528-3533.

27. Хожимаматов А. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN". JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE 249-253 bet.

28. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.

29. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG 'U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).

30. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O 'ZBEK SAN'ATINING ZABARDAST HOFIZI JO 'RAXON SULTONOV. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).

31. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL "An open accyess, peyer reviyewyed multidisciplinary journal" 2 (4) 460-463 bet.

32. Achildiyeva M, Ikromova F Choir Art in Uzbekistan Botir Umidjonov *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (Brussel, Belgium 2022)* ISSN 2795-7683 54-56 be

33. Achildiyeva M, Ikromova F (2021) ABOUT MAHMUDJON TOJIBOYEVS PEDAGOGICAL ACTIVITY GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) 9(5) 240-244

34. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. XX-ACHINING «ХАМНАФАС» ХОФИЗЛАРИ " ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION Vol. 10 No. 1 (2023)

35. . Jamoldin Muydinov ЎРТА ОСИЁДА МУСИҚА ИЛМИ РИВОЖЛАНИШИДА БАХШИЧИЛИК САНЪАТИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ - "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI VOLUME 1, ISSUE 7, 2023. OCTOBER ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869

36. 23. Muydinov, J. S. (2022). XALQ QO ‘SHIQLARI–USTOZLAR SAYQALIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 606-610.
37. Akmal Arabovich Saddixonov MUSIQIY TA’LIMDA KOMPETATSION YONDASHUV 2022 *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 10-2 572-577
38. Sadixanov Akmaljon Arapovic TALABALAR KREATIVLIK JIHATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO’LLARI 2023 *Science and innovation 2 Special Issue 5* 633-637
39. Акмаль Алдиёров Садиханов ПОНЯТИЕ ЛИЧНОСТНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И КРЕАТИВНОСТИ УЧИТЕЛЯ МУЗЫКИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ 2023/6/4 " USA" *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE* 8 1
40. Abduvali o‘g‘li, A. A. (2023). XX ASR MUSIQA SAN’ATI RIVOJINING VA’ZI XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 729-734.
41. Абдусатторов, А. А. Ў. (2023). ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚ ЧОЛҒУ ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ. *Science and innovation*, 2(Special Issue 5), 521-526.
42. Бурҳонов, Р. М., Алиев, С., Габриэлян, С., & Гиенко, Б. ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚ ЧОЛҒУ ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ Абдусатторов Абдужалил Абдували ўғли.
43. Abdusattorov, A. (2023). MUSIQA DARSLARI JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI. *Наука и инновация*, 1(9), 8-12.
44. Abdusattorov, A. (2023). TORLI KVARTET UCHUN ASARLAR YARATISHNING METODOLOGIK BOSQICHLARI. *Наука и инновация*, 1(9), 4-7.
45. Абдусатторов, А. А. Ў. (2022). БАСТАКОРЛИК ИЖОДИДА МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 602-605.
46. Abdusattorov, A. (2020). About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 2(11), 28-30.

YOSHLAR MA'NAVIY DUNYOQARASHINI YUKSALISHIDA BESHIK, NIKOH, LAPARLAR VA YAKKA FOLKLOR QO'SHIQLARINING AHAMIYATI

B.Sobirov

San'atshunoslik fakulteti Musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrası
katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada xalq milliy san'atining xalq folkloridan boshlanishi, insonning dunyoga kelib ilk eshitgan qo'shig'i ona allasidan boshlanishi, onaning beshik yonida o'tirib kuylayotgan ohangdor, yoqimli, muloyim, orombaxsh qo'shig'i bolaning kamolotiga, sog'lom, aqli raso bo'lib o'sishiga katta ta'sir ko'rsatishi, beshik to'yi qo'shiqlarining mazmuni asosida davr, sharoit, shaxs taqdiri yotganligi bois, o'zgaruvchan bo'lganligi, shu bilan birgalikda inson hayotidagi o'zbek nikoh to'ylarida yangraydigan o'lan va laparlar, o'lan ijrosida erkak va ayollarning yuzma-yuz turishi va so'z vositasida mulohaza yuritishlari, ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan xalq ogzaki ijodidan yakka folklor ijrochiligi qo'shiqlari turkumlaridan "kelin va kuyov" salomlari, o'zbek milliy an'anaviy folklor san'ati namunalaridan unitilib ketgan "to'y olqishlari" kabi qo'shiqlar yoshlar ma'naviy dunyoqarashlarini yanada kengaytirishga qaratilgan masalalar haqida ma'lumotlar batafsil yoritiladi.

Kalit so'zlar: Folklor, alla, o'lan, lapar, nikoh, kelin, kuyov, to'y olqishlari, qizlar bazmi, termalar, vazn, qofiya

KIRISH

Eng qadimgi zamonlarda yaratilib, bizning kunlarimizgacha saqlanib kelingan an'anaviy folklor qo'shiqchilik san'atining namunalari jamiyatimizning yosh avlodlariga singdirilib borilishi yoshlarning o'zligini anglashi, milliy qadriyatlar rukni ostida Yangi O'zbekiston yoshlarini har tomonlama sog'lom barkamol inson bo'lib yetishishlarida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalanib borishida katta ahamiyat kasb etadi. Tarixiy ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, o'lanlar asosan o'tmishda ko'chmanchilik va yarim kamanchilik hayot tarzini kechirgan o'zbek urug'lari orasida keng tarqalgan bo'lib, u asosan qiz uzatar kechasidan bir yoki bir necha kun ilgari qiz uyida o'tkazilgan. Ayrim hollarda qiz uzatar kechasi kuyovning uyida o'tkaziladigan bazmlarda ham ijro etilgan. O'lan ijrosida erkak va ayollarning yuzma-yuz turishi va so'z vositasida mulohaza yuritishlari bilan boshlanadi. Odatda o'lanni professional o'lanchilar ijro etganlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Barcha xalqlarning milliy san'ati o'sha xalqlarning folkloridan boshlanadi deydi donishmandlar. Shundan kelib chiqilsa, folklor ijodiyoti allalardan boshlanadi deyish mumkin. Onaning beshik yonida aytayotgan, kuylayotgan ohangdor, yoqimli, muloyim, orombaxsh qo'shig'i bolaning, kamolotiga, sog'lom, aqli raso bo'lib o'sishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Beshik qo'shiqlari deb nomlangan qo'shiqlarning ushbu janri lirik qo'shiqlar turkumiga taalluqli bo'lib, uni o'zbeklarda ko'pincha alla qo'shiqlari deb ham aytadi. Allalar avloddan-avlodga o'tib sayqallanib, saralanib boradi, asta-sekin turg'un qo'shiqlar holatiga keladi.

Qadimgi zamonlardan alla asosan ona tomonidan ijro etilib kelinsada, biroq maxsus alla aytuvchilar bo'lgan. Bunday kasb egalari asosan boy-badavlat kishilar uyida, shoxlar saroyida xizmat qilganlar.

Beshik qo'shiqlari mazmuni asosida davr, sharoit, shaxs taqdiri yotganligi bois, o'zgaruvchan bo'lgan. Alla qo'shiqlari asosan refren asosida ko'rilgan. Undagi cho'zik ohanglar, naqorat so'zlari refrenlar goh ikki, gohida to'rt yo'l bo'lib, matn bilan uyg'unlashib, olti yo'lni tashkil etadi. Onaning o'zi tomonidan aytiladigan so'zlari refren jumlar ichida bo'ladi:

Alla bolam, alla
Jonim bolam, alla
Ikki ko'zim, alla
Shirin so'zim, alla.

Ona qo'yidagi jumalarni qo'shib qo'yadi. "Qani uxlay qol", "Ko'zingni yumaqol". Onalar iztiroblari, his-tuyg'ulari, orzu armonlarini o'z ichiga olgan allalar qadimiy an'anaviy folklor yakka qo'shiqchilik ijodi namunalaridan sanaladi. U axloqiy, tarbiyaviy, didaktik harakatga ega.

Eng qadimgi zamonlarda yaratilib bizning kunlarimizgacha saqlanib kelingan an'anaviy folklor yakka qo'shiqchilik san'atining namunalaridan yana biri o'zbek nikoh to'ylarida yangraydigan o'lan va laparlardir. Tarixiy ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, o'lan asosan o'tmishda ko'chmanchilik va yarim kamanchilik hayot tarzini kechirgan o'zbek urug'lari orasida keng tarqalgan. U asosan qiz uzatar kechasidan bir yoki bir necha kun ilgari qiz uyida o'tkazilgan.

Ayrim xollarda qiz uzatar kechasi kuyovning uyida o'tkaziladigan bazmlarda ham ijro etilgan.

O‘lan ijrosida erkak va ayollarning yuzma-yuz turishi va so‘z vositasida muloxaza yuritishlari bilan boshlanadi. Odatda o‘lanni professional o‘lanchilar ijro etganlar.

Yigit: Qarg‘a deyman, ko‘zingdan, qarg‘a deyman,
Qarg‘a uya soladi jarga, deyman.
Ko‘rmaganga ko‘p vaqt, oylar o‘tdi,
O‘lan bilan so‘rashay – “xorma” deyman.

Qiz: O‘lanlarim, ko‘zingdan, o‘lanlarim,
Sen bo‘lding shu dunyoda gumondorim,
Sen xalqning shu dunyoda gumondorim.
Kuya-kuya kul bo‘ldi suyaklarim.

O‘lan poetik jihatdan o‘ziga xos o‘zgachaliklarga ega. Ulardan biri matnning izchil to‘rtlik shaklidagi band tuzilishligidir. Har bir band tarzida qofiyalanadi. Ularning aksariyati ritmik jihatdan o‘n bir hijoli vaznga ega. Qadimgi folklor ijrochiligi namunalaridan yana biri lapardir. U asosan kelinning xonadonida o‘tkaziladigan “qizlar bazmi”da ijro etiladi. Ishtirokchilar tarkibi, ijro usuli jihatidan o‘lanlarga yaqin turadi.

“Qizlar bazmi”da lapar kechasiga yigitlar ham taklif qilinadi. Bazmni keksaroq, tajribali, so‘zamol ayollardan biri olib boradi. Qoida va tamoilga binoan katta gulxan yoqiladi. Dastlab biroz o‘yinga tushuladi. Shundan so‘ng bazmni boshqaruvchi ayol lapar aytishuvini boshlab beradi.

Laparlarning avval boshi marmar toshi,
Chit ro‘molni ho‘l qilgan ko‘zning yoshi,
Chit ro‘moli xosa-yo, ko‘nglim chini kosa-yo,
Qizlar lapar aytganda yigitlar quloq solsa-yo.

Ana shu boshlang‘ich laparlardan so‘ng yigitlar dastlab bir laparni aytadilar, qizlar javob to‘g‘risida ikkinchi laparni aytadilar. Odatda yigit tomonidan aytilgan lapar qay vaznda bo‘lsa, qiz tomondan aytiladigan lapar ham shu vaznda bo‘ladi.

Milliy an‘anaviy folklor qo‘shiqchiligi tarkibiga “yor-yor”lar ham kiradi. U qadimdan turkiy xalqlarning to‘y marosimlarida ijro etib kelingan. Yor-yorning mavzulari talaygina. Ularda kelin va kuyovni ta‘rif-tavsiflash, ularni shirin turmush

qurishga undash, turmushda sodir bo‘ladigan achchiq-chuchuklarga sabr-qanoat qilish va shunga o‘xshash ilg‘or g‘oyalarni o‘z ichiga oladi.

Yor-yor ijrosi o‘ta murakkab bo‘lganligi tufayli yakka ijrodan katta mahorat talab etadi. Murakkabligi shundaki, yor-yor aytuvchi holis shaxs sifatida qizning o‘zi yoki dugonasining tilidan aytadi.

Yig‘lama qiz, yig‘lama,
To‘y seniki, yor-yor,
Ostonasi tillodan,
Uy seniki yor-yor.

Ko‘rpachasi shoxidan,
To‘r seniki, yor-yor,
Mo‘ylablari qilichdek,
Yor seniki, yor-yor.

Bundan tashqari, xalq ijodiyotining ushbu turi aytuvchidan katta bilim, qo‘shiq, musiqa mahoratlarni talab qiladi. Voqealar tasviri, nozik inson xarakterlari aniq va ravon kuylanayotgan yor-yorlar ayrim holatlarda ota-ona yoxud opa-singillar tilidan ham aytiladi.

Yor-yorlarning poetikasi nihoyatda boy, qamrov doirasi keng. U aksar hollarda aruz vaznida ijro etiladi. Goh o‘ynoqi, goh g‘amgin, nozik qochirimlarga to‘laligi bilan ajralib turadi.

Ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan xalq og‘zaki ijodi yakka folklor ijrochiligi qo‘shiqlari turkumiga “kelin va kuyov” salomlar ham kiradi. Kelin salom odatda qiz uzatar kechasi kuyovning hovlisida yoqilgan gulxan atrofida aytiladi. Hozirgi davrga kelib esa, nikoh ertasi o‘tkaziladigan “bet ochar”, “yuz ochar” kabi tantanalar paytida aytiladi.

Kelin salom ham yakka ijrochidan o‘ta bilimdonlik, keng fikr doiralikni, tajribali bo‘lishlikni taqozo etadi. Chunki, salomga ota-ona, opa-singil, (oila a‘zolari), qarindosh urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar ham qo‘shib aytiladi. Bu esa aytuvchidan maxsus mahorat talab etadi.

O‘xo‘ - o‘xo‘ yo‘talgan,
Obdastani ko‘targan,
Qaynotasiga salom,
Yor-yor-chor yor

Qaynotasiga salom
Va xokazo.

Naqorat o‘rnida kelayotgan “yor-yor” “chor yor” misrasi o‘rniga ba’zi joylarda “salom-salom”, “Yana salom” so‘zlari qo‘llaniladi. Kuyov salom mamlakatimizning ko‘p joylarida unutilib borilayotgan xalq, o‘tmishda u nikoh to‘ylarining zaruriy artibut (bezaklari)dan sanalgan. U kuyov qaynotasining uyiga to‘ydan so‘ng o‘n, o‘n besh kun o‘tgach qaynotasi uyida o‘tkazilgan. Kuyov jo‘ralari bilan qaynotasining uyiga kirgach, kuyovning so‘zga chechan, sho‘h jo‘rasi “kuyov salom”ni boshlaydi.

Ko‘yov keldi kiringiz,
Ko‘rgilining beringiz.
O‘lay-bo‘lay demayin,
Otin aytib beringiz.

Poda bersang, ola ber,
Yilqi bersang, qora ber.
Mo‘nda turgan yigitning
Har biriga tovoq ber.

Misralar so‘ngida kelin tomon kuyovga birorta sigir, qo‘y yoki ot atalganini aytadi. Bordiyu kelin tomon ximmatsizlik qilsa, u tomondagilar qattiq hajv ostiga olinadi.

O‘zbek milliy an’anaviy folklor san’ati namunalaridan galdagisi “to‘y olqishlari”dir. Hozirgi kunlarimizga kelib, u ko‘p joylarda o‘zining qadimgi ko‘rinishini yo‘qotgan, u oddiy nasriy olqishlar bilan almashilmoqda. “To‘y olqishlari” nikoh marosimining yakuniy qismida ijro etiladi. Aytuvchidan alohida badihago‘ylik va so‘zamollik talab etadi.

Olqish qoidaga ko‘ra an’anaviy boshlanma bilan boshlanadi:

Oq bug‘doyning patiri,
O‘rgimchakning cho‘tiri.
Bir-ikki og‘iz aytayin,
Qaro ko‘zlar xotiri.

Eshik oldi majnuntol,
Majnuntolga qo‘ling sol.
Men fotiha aytayin,

Katta kichik quloq sol.

So'ngra kelin bilan kuyovga yaxshi istak-tilaklar yangraydi. "To'y olqishlari" odatda 7-8 bo'g'inli barmoq usulida bo'ladi. Unda yetakchilik qilgan epik xalq she'riyati vazniga e'tibor qilinsa, ushbu xalq ijodi namunasining qadimiyligi ko'zga tashlanadi.

Eng qadimgi davrlarda vujudga kelgan milliy an'anaviy xalq ijodiyoti yakka qo'shiqchilik ijrochiligidan biri "terma"lardir. U xalqimizning mashhur dostonchilari va termachilari tomonidan yaratilgan bo'lib, badiha tarzda ijro etilgan.

Termalar tarkibi, mavzularning rang-barangligi, ijro jihatidan folklorning boshqa janrlaridan farqlanadi. Ular xalq milliy va ma'naviy hayotining barcha sohalarini qamrab olgan bo'lib, kishilarning hayotiy tajribalari, axloq-odob haqidagi tushunchalari, estetik qarashlari, orzu umidlarini ifodalaydi.

Xalq og'zaki ijodiyoti yakka ijrochiligi turkumiga mansub termalar ijrochilarining jinslari, ijro usullari hamma yerda ham bir xil deb bo'lmaydi. Masalan, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax viloyatlarida termalarni asosan baxshilar ijro etsalar, Xorazmda qadimgi an'anaga binoan xalifalar ijro etadilar. Xorazmlik xalifalar doston, qo'shiq, termalarni odatda so'zsiz qiroat usulida ijro etadilar.

Xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va keng tarqalgan yakkaxon ijrochilik namunalari qatorida qo'shiqlarning o'z o'rnini bor. Ular xalq orasida keng tarqalgan bo'lib, mazmun va shakl jihatidan xilma-xildir. Ularda insonning ruhiy olami, ichki kechinmalari, his tuyg'ulari yetakchilik qiladi.

Qo'shiq bo'ladigan she'rdagi latofat uning tabiiyligidan kelib chiqadi. Musiqaga mosligi bilan ajralib turadi. Qo'shiq uchun vazn, qofiya talabiga mos so'zlar ishlatiladi.

Mazmun bilan shakl mustahkam bog'langanligi bois kishiga zavq-shavq bag'ishlaydi. Qo'shiqchilikdagi sodda va ravon til, o'tkir iboralar, yorqin obraz hamda mantiqiylik kishi tabiatiga musiqiy ohang baxsh etadi.

Qo'shiqlarda ortiqcha pardozi bo'lmaydi. Turmushning barcha qirralarini qamrab olganligi, shakliy ixchamligi, ommaviyligi qo'shiqlarning jozibasini yanada oshiradi. Qo'shiq so'zlarining ta'sirchanligi uning ayrim hollarda qayta takrorlanishiga imkon yaratadi.

Lirik qo'shiqlarda sevgi bu chuqur kechinmalar olib keladigan, qiyinchiliklar tug'diradigan davosiz, biroq shirin va qutlug' dard sifatida ifodalanadi. Haqiqiy ishqda vafo bo'lishligi, qalb tozaligi, ishq o'tining shavqi va bunday muhabbatni

baxtsizlikka olib keluvchi omillardan norozilik, mushtoqlik kabi iztiroblar lirik qo‘shiqning ta‘sirchanligini oshiruvchi vositalardir.

Ishq onlarida hayratdan lol bo‘lib qolish, visol chog‘larida ayriliqdan, oshkoralikdan qo‘rqish lirik qo‘shiq qahramonlariga xosdir. Ikki sevishganning qovushishi baxt bo‘lishi bilan birga bu yo‘lda ko‘p to‘siqlar, qiyinchiliklar mavjud bo‘ladi. Ya‘ni tom boshida, devor orqasida, bog‘-chorbog‘larda, gullar ichida kutish va bunday hollarda ma‘shuq yoki g‘ayritabiiy harakatlari, qoshlar, ko‘zlar, yuzlar ta‘rifi lirik qo‘shiqlarga xosdir.

Lirik qo‘shiqlarda qahramonning lirik kechinmalari turmush, tabiat va tabiat manzaralari, hodisalari bir-birlari bilan birlashadi. Shu sabab qo‘shiq ta‘sirli, hayajonli bo‘ladi. Lirik qo‘shiqlarda qahramon holatlarning ramziy tasvirlari ham alohida diqqatga sazovor. Tutqunlik, g‘ariblik, yolg‘izlik kabi holatlar, kishan, zindon, qafas, qanoti singan qush, qorong‘u vayron kabi ramzlarda ifodalansa, ko‘tarinki ruhiy, ko‘rinish tasviri, qo‘yosh, oy, bahor, gul yuz, nargis ko‘z, binafsha hollar kabilarga bezaladi.

Qo‘shiqlarning boshlanish qismi va o‘rtasida bir qator so‘z va iboralar bo‘ladiki, ular takrorlanib turadi: Qizil gul, ro‘mol, dunyo, olma, tog‘, osmon va xokazo so‘zlar. Bu odatiy oddiy so‘zlar ajoyib ijrolarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladi.

“Gullar ochilgan chog‘da”, “Gul qistirib chiqmaysan”, “Daryolarning ul yuzida”, “Bu ko‘ringan tog‘lar” va ko‘p purmano so‘zlar ana shular jumlasidandir. Mazkur misralar qo‘shiqdagi tabiat va hayot manzaralarini yanada teranlashtiradi, jonlantiradi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, folklor qo‘shiq ijrochiligidagi alla, beshik, nikoh, laparlar va yakka folklor qo‘shiqlari yoshlarni ma‘naviy dunyoqarashini yuksalishida muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Jo‘raev. Folklorshunoslikka kirish. Toshkent. Barkamol avlod. 2017y.
2. X.Lutfullaev. Folklor yakka qoshiqchilik ijrosi. Toshkent. 2008y.
3. Achildieva, M., Ikromova, F., Abutolipova, M., & Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. *European Scholar Journal*, 2(9), 17-20.
4. Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., & Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6), 302-308.
5. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2020, December). THE PLACE OF UZBEK

MUSIC IN THE ART. In *Archive of Conferences* (Vol. 10, No. 1, pp. 90-93).

6. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO‘LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.
7. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET “TOMARIS” IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE SPECTRUM *Journal of Innovation, Reforms and Development* (2022) ISSN (E):2751-1731 15-19
8. Achildieva M, Butabayeva N, Nosirova M. A GLANCE AT THE SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF BORBAD MARVAZI *European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)* Vol. 4 No. 05, May 2023 ISSN: 2660-5643 1-6
9. Achildiyeva M. The Role of Music in Forming the Artistic-Aesthetic Taste of Youth *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023 173-179
10. Xojimamatov A Evolution of Philosophical Views on Music and National Musical Heritage *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023 162-166
11. Achildiyeva M. Atkiyoeva R. O‘ZBEK VA JAHON SAHNALARIDA KATTA ASHULANING O‘RNI VA AHAMIYATI *Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4384 11-14
12. Xojimamatov A. Atkiyoeva R.“VODIY BULBULI” TAVAKKAL QODIROVNING IJODIY MEROSI BUGUNGI KUN NIGOHIDA *Journal of Innovation, Creativity and Art* Vol. 2, No. 7, 2023ISSN:2181-4287 4-7
13. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET “TOMARIS” IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development* ISSN (E):2751-1731 15-19 bet (Berlin Germany 2022)
14. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL “An open accyess, peyer reviyewyed multidisciplinary journal” 2 (4) 460-463 bet.Achildiyeva M, Ikromova F Choir Art in Uzbekistan Botir Umidjonov *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (Brussel, Belgium 2022)* ISSN 2795-7683 54-56 bet
15. Achildiyeva M,Ikromova F (2021) ABOUT MAHMUDJON TOJIBOYEVS PEDAGOGICAL ACTIVITY *GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)* 9(5) 240-244
16. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. XX-АШИИГ «ХАМНАФАС»

ХОФИЗЛАРИ " ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY:
PROBLEMS AND SOLUTION Vol. 10 No. 1 (2023)

17. Jalilova, R. (2023). HISTORY OF LANDSCAPE IN MIDDLE ASIAN WORKS OF ART, PHILOSOPHICAL AND AESTHETIC METHODOLOGY OF EDUCATIONAL PROBLEMS AND SOLUTIONS. *Science and innovation*, 2(C7), 71-75.

18. 10.Jalilova, R. (2023). User experience and user interface design. *Scientific Collection «InterConf»*, (158), 237-242.

19. 11.Djalilova, R. (2023). THE DIFFERENCE OF CREATIVE AND EDUCATIONAL TEACHING OF STILL LIFE IN PAINTING, PROBLEMS IN THE EDUCATION OF YOUNG EDUCATORS. *Science and Innovation*, 2(6), 29-33.

20. Djalilova, R. Q. (2023). Methodology, History, Pedagogical Methodology of Fine Arts. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 18, 72-76.

21. Хожимаматов А. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN". JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE 249-253 bet.

22. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOYIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.

23. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG 'U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).

24. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O 'ZBEK SAN'ATINING ZABARDAST HOFIZI JO 'RAXON SULTONOV. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).

25. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 494-498.

26. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O 'ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 485-489.

27. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social*

sciences, 3(5), 320-325.

28. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA " LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.

29. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4), 29-33 24.

30. Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 87-89.

31. Hojimamatov, A. (2022). CHANG CHOLG ‘USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 265-275.

32. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(C4), 29-33.

33. Abdusattorov, A. (2023). MUSIQA DARSLARI JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI. *Наука и инновация*, 1(9), 8-12.

34. Abdusattorov, A. (2023). TORLI KVARTET UCHUN ASARLAR YARATISHNING METODOLOGIK BOSQICHLARI. *Наука и инновация*, 1(9), 4-7.

35. Абдисатторов, А. А. Ў. (2022). БАСТАКОРЛИК ИЖОДИДА МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 602-605.

36. Abdusattorov, A. (2020). About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 2(11), 28-30.

37. Abduvali o‘g‘li, A. A. (2023). XX ASR MUSIQA SAN’ATI RIVOJINING BA’ZI XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 729-734.

38. Abdumalikovna, Y. D. (2021). The Role and Importance of Culture and Art in The Development of Society. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 1-3.

39. Yuldasheva, D. (2022). YANGI O ‘ZBEKISTON RIVOJIDA MADANIYAT VA SAN’AT SOHASIGA KREATIV YONDASHUV. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 293-297.

40. Adiljanovna, A. M., Nurullaevna, N. M., Abdumalikovna, Y. D., Sharobidinovich, M. J., Abdujalil Abduvalio'g'li, A., & Behzod Asqaralio'g'li, T. (2021). Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heritage. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 9092-9100.
41. Juraevna, A. S., Abdumalikovna, Y. D., & Xusanovna, D. N. (2021). MODERN SOCIAL AND PEDAGOGICAL FUNCTIONS OF MUSIC ART AND EDUCATION. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 1(1), 57-59.
42. Тешабаева, О. Н., & Юлдашева, Д. А. (2022). Ўзбекистонда банк хизматлари бозори бошқаруви ва ривожланишининг хусусиятлари. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(3), 91-97.
43. Sobirov, B., Yuldasheva, D., Iroda, N., & Laylo, T. (2022, February). MUSICAL WORKS AND THEIR PLACE IN HUMAN LIFE. In *Archive of Conferences* (pp. 53-56).

ЮРИДИЧЕСКИЕ СЛОЖНОСТИ, СВЯЗАННЫЕ С ПРИМЕНЕНИЕМ БОЛЬШИХ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ

Имамалиева Диёра Имамали кизи

Преподаватель кафедры Международного частного права
Ташкентского государственного юридического университета

d.imamaliyeva@tsul.uz

АННОТАЦИЯ

В настоящее время глобальные системы здравоохранения претерпевают фундаментальные изменения. Мы достигли стадии серьезного перехода к способам улучшения генерации и доступа к невообразимым объемам информации. С появлением и развитием больших данных в результате информационной революции мы теперь можем управлять и трансформировать подходы, с помощью которых мы контролируем эту информацию и, в здравоохранении, как следствие, способность контролировать и лечить болезни. С другой стороны, появление больших данных в здравоохранении создает дополнительные проблемы, особенно в отношении конфиденциальности личных данных, безопасности, владения, управления и контроля. В настоящей статье раскрываются основы понимания правового статуса больших медицинских данных в подробной призма стандартов согласия, анонимизации, владения и передачи данных.

Ключевые слова: *большие данные, конфиденциальность, анонимизация данных, этические нормы, персональные данные, трансграничная передача.*

LEGAL CHALLENGES ASSOCIATED WITH THE APPLICATION OF BIG MEDICAL DATA

Imamaliyeva Diyora Imamali kizi

Lecturer at the Department of International Private Law

Tashkent State University of Law

d.imamaliyeva@tsul.uz

ABSTRACT

Global health systems are currently undergoing fundamental changes. We have reached a major transition in ways to improve the generation and access to unimaginable amounts of information. With the advent and development of big data as a result of the information revolution, we can now manage and transform the way

we control this information and, in healthcare, the resulting ability to monitor and treat disease. On the other hand, the emergence of big data in healthcare poses additional challenges, especially regarding personal data privacy, security, ownership, governance and control. This article provides a framework for understanding the legal status of big health data through a detailed lens on standards for consent, anonymization, ownership, and transfer of data.

Keywords: *big data, privacy, data anonymization, ethical standards, personal data, cross-border transfer.*

KATTA TIBBIY MA'LUMOTLARNI QO'LLANISH BILAN BO'LGAN HUQUQIY MUAMMOLAR

Imamalieva Diyora Imamali qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro xususiy huquq kafedrası o'qituvchisi

ORCID ID: 0000-0003-2217-6413

d.imamaliyeva@tsul.uz

ANNOTATSIYA

Global sog'liqni saqlash tizimlari hozirda tub o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Biz tasavvur qilib bo'lmaydigan hajmdagi ma'lumotlarni yaratish va ulardan foydalanish imkoniyatini yaxshilash yo'lida katta o'tish davriga erishdik. Axborot inqilobi natijasida katta ma'lumotlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan biz endi ushbu ma'lumotni nazorat qilish usulini va sog'liqni saqlash sohasida kasalliklarni kuzatish va davolash qobiliyatini boshqarishimiz va o'zgartirishimiz mumkin. Boshqa tomondan, sog'liqni saqlash sohasida katta ma'lumotlarning paydo bo'lishi, ayniqsa shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi, xavfsizligi, egalik qilish, boshqaruv va nazorat qilish bilan bog'liq qo'shimcha muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqola rozilik, anonimlashtirish, egalik qilish va ma'lumotlarni uzatish standartlari bo'yicha batafsil ob'ektiv orqali katta sog'liqni saqlash ma'lumotlarining huquqiy holatini tushunish uchun asos yaratadi.

Kalit so'zlar: *katta ma'lumotlar, maxfiylik, ma'lumotlarni anonimlashtirish, axloqiy standartlar, shaxsiy ma'lumotlar, transchegaraviy uzatish.*

ВВЕДЕНИЕ

В настоящее время глобальные системы здравоохранения претерпевают фундаментальные изменения. Мы достигли стадии серьезного перехода к

способам улучшения генерации и доступа к невообразимым объемам информации. С появлением и развитием больших данных в результате информационной революции мы теперь можем управлять и трансформировать подходы, с помощью которых мы контролируем эту информацию и, в здравоохранении, как следствие, способность контролировать и лечить болезни. С другой стороны, появление больших данных в здравоохранении создает дополнительные проблемы, особенно в отношении конфиденциальности личных данных, безопасности, владения, управления и контроля.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Юридические аспекты владения и контроля данных представляют собой сложный и непрерывно развивающийся алгоритм действий на сегодняшний день. В Республике Узбекистан существует единый законодательный акт, который регулирует конкретные аспекты защиты данных, например, Закон Республики Узбекистан «О персональных данных» 2019 года и Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 05.10.2022 г. № 570 «Об утверждении некоторых нормативно-правовых актов в области обработки персональных данных». Указанный закон, соответствующие постановления и приложения к ним предлагают комплексные правила в отношении данных, включающий обработку, согласие и трансграничную передачу данных. Кроме того, в качестве источника для изучения был взят Общий регламент по защите данных (GDPR) в Европейском Союзе, который имеет последствия для организаций, обрабатывающих данные граждан ЕС по всему миру. Поскольку Республика Узбекистан находится на этапе цифровой трансформации и выходит на глобальный рынок данных [1], понимание правовых аспектов, связанных с владением и контролем данных, становится решающим для обеспечения ответственного управления данными и защиты прав личности.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Правовой статус данных, связанных со здоровьем, является важнейшим компонентом более широкой правовой дискуссии о больших данных в здравоохранении. Обработка таких данных требует тщательного понимания их правового статуса, особенно в отношении согласия, анонимизации, владения данными и передачи данных.

Согласие

Shuningdek, mahalla jamoatchiligi bilan hamkorlikda o'quvchilarga mo'ljallangan ijtimoiy va ma'naviy tarbiya dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish muhimdir. Bunday dasturlar, o'quvchilarning jamoatchilik bilan aloqalarini mustahkamlashga, ularning ijtimoiy mas'uliyat hissini oshirishga va turli ijtimoiy muhitlarda o'zaro samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam

beradi. Ota-onalar va mahalla jamoatchiligi bilan muntazam aloqada bo'lish, ularni maktab hayotining barcha jihatlariga jalb qilish, maktab va jamoatchilik o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, maktab muhitida nizolarning oldini olish va hal etishda muhim omil hisoblanadi.

Nihoyat, maktablar ota-onalar va mahalla jamoatchiligi bilan hamkorlikda nizolarni hal etish bo'yicha treninglar va seminarlar tashkil etishlari mumkin. Bu, ularning nizolarni aniqlash, ularga munosabat bildirish va ularni samarali hal etish bo'yicha ko'nikmalarini oshiradi. Ushbu yondashuv, maktab muhitida nizolarni oldini olish va ularni hal etishda keng jamoatchilikning faol ishtirokini ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida, maktabdagi ta'limiy va ijtimoiy muhitning yaxshilanishiga hissa qo'shadi.

XULOSA

Maktablarda nizolarni oldini olish va hal etish, ta'lim muassasalarining muhitini yaxshilash hamda o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola, maktablarda duch kelinadigan nizolarning turli sabablari va ularni samarali hal qilish yo'llarini tahlil qiladi. Xususan, nizolarni oldini olish va hal etishda o'qituvchilar, ota-onalar hamda mahalla jamoatchiligi bilan hamkorlikning ahamiyati, shuningdek, o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik farovonligini ta'minlashda tarbiyaviy dasturlar va kommunikatsiya ko'nikmalarining roli ta'kidlanadi. Maqolada, madaniy xilma-xillikni hisobga olgan holda nizolarni boshqarish, shuningdek, muammolarni hal etishda innovatsion yechimlarni qo'llashning dolzarb masalalari ko'rib chiqiladi. Natijada, maktablarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni samarali oldini olish va hal etish uchun ko'p qirrali yondashuvlar zarurligi ko'rsatib o'tiladi. Ushbu yondashuvlar, maktab muhitini yanada qulay va xavfsiz qilishga, shuningdek, o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro tushunish va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nizomiddin o'g'li, Z. J. (2023). OTA-ONA VA MAKTAB O'QITUVCHISI O'RTASIDAGI ZIDDIYATLI VAZIYATLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI. *World scientific research journal*, 14(1), 71-74.
2. Yaxshiyev, D. (2023). "UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA KONSEPSIYASI" ASOSIDA MAXSUS MAKTAB-INTERNAT OQUVCHILARINI MA'NAVIY TARBIYALASH. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 1(4 Part 2), 14-19.

3. Muhammadnayimovich, Y. D. (2023). UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA KONSEPSIYASI" ASOSIDA MAXSUS MAKTAB-INTERNAT O'QUVCHILARINI MA'NAVIY TARBIYALASH. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 4(3), 1-10.

JINOYAT PROTSESSI ISHTIROKCHILARI XAVFSIZLIGI TUSHUNCHASI

Sh.X.Mamataliyeva

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual
huquqi kafedrasida o'qituvchisi
Toshkent, O'zbekiston Respublikasi
Telefon raqam: +99 890 985 89 80

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xavfsizlik tushunchasi, xususan, jinoyat protsessida xavfsizlik tushunchasi haqida gap boradi. Shuningdek, "xavfsizlik" tushunchasi to'g'risida olimlar fikri o'rganilib, mualliflik ta'rifi ham beriladi.

***Kalit so'zlar:** xavfsizlik, jinoyat protsessida xavfsizlik, jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligi, himoya qilish, davlat himoyasi, himoya shakllari.*

THE CONCEPT OF SECURITY OF PARTICIPANTS IN CRIMINAL PROCEEDINGS

Sh.Kh.Mamatalieva,

Lecturer of the Department of
Criminal Procedural Law of Tashkent State University of Law,
Tashkent, Republic of Uzbekistan
Phone number: +99 890 985 89 80

ABSTRACT

This article will focus on the concept of security, in particular the concept of security in criminal proceedings. The opinion of scientists on the concept of "security" is also studied and the author's definition is given.

***Key words:** security, security in criminal proceedings, security of participants in criminal proceedings, protection, state protection, forms of protection.*

ПОНЯТИЕ БЕЗОПАСНОСТИ УЧАСТНИКОВ УГОЛОВНОГО СУДОПРОИЗВОДСТВА

Ш.Х. Маматалиева,

Преподаватель кафедры
уголовного и процессуального права
Ташкентского государственного юридического университета
Ташкент, Республика Узбекистан
Тел.номер: +99 890 985 89 80

АННОТАЦИЯ

В данной статье речь пойдет о понятии безопасности, в частности о понятии безопасности в уголовном процессе. Также изучается мнение ученых о понятии “безопасность” и дается авторское определение.

Ключевые слова: безопасность, безопасность в уголовном процессе, безопасность участников уголовного процесса, защита, государственная защита, формы защиты.

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligi muammosi juda dolzarbdir, chunki jinoiy protsessual faoliyat vazifalarini amalga oshirish to‘g‘ridan-to‘g‘ri, shu jumladan jinoiy ishlar bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirishga yordam beradigan shaxslarning ishtiroki uchun qonuniy tartibga solish va xavfsiz sharoitlarni amaliy ta‘minlashga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 18-moddasida, jinoyat ishini yuritish uchun mas‘uliyatli barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar jinoyat protsessida qatnashayotgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishlari shart prinsipi sifatida belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasida birinchi marta jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta‘minlash masalalari O‘zbekiston Respublikasining 14.01.2019-yildagi “jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”⁸⁹ gi qonuni qabul qilingan. Ushbu normativ hujjatda jinoyat protsessida shaxs xavfsizligi asoslarini tartibga soluvchi xalqaro normalar bilan O‘zbekiston Respublikasi huquqiy musobotlariga moslashtirildi. Shunday qilib, jinoyat protsessi ishtirokchilariga nisbatan qo‘llaniladigan, xavfsizlik choralari odatda protsessual (O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligida mustahkamlangan) va protsessual bo‘lmagan “jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish” qonunida belgilangan.

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta‘minlash institutini o‘rganish muayyan umumiy prinsplarni (uni qo‘llash, rivojlantirish, shakllantirish va takomillashtirish uchun asos va shart-sharoitlarni), shuningdek xavfsizlik choralari qo‘llashning aniq mezonlarini aniqlashini nazarda tutadi. Buning uchun avvalo, “xavfsizlik” tushunchasiga aniqlik kiritishimiz zarur.

Xavfsizlik – murakkab tizimning turli elementlarini o‘z ichiga oladigan kompleks tushuncha. “Xavfsizlik” tushunchasining qiyosiy izohi ushbu atamani “jazolash”, “qo‘riqlash” va “himoya qilish” kabi so‘zlar bilan taqqoslanishini nazarda

⁸⁹ O‘zbekiston Respublikasining 14.01.2019-yildagi "jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida" gi qonun.

tutadi. Xavfsizlik choralarining qo'llash uchun asos shaxsga qaratilgan xavf hisoblanadi va jazoni qo'llash uchun asos – bu jinoiy harakatdir.

Shu ma'noda, "xavfsizlik" va "qo'riqlash" terminologiyasi o'rtasidagi munosabatlar, birinchi navbatda, xavfli tahdid qilish yoki yo'q qilishdan o'z vaqtida va yetarli darajada aks etilishini ta'minlash uchun ularning muayyan yo'nalishini belgilashdan iborat. Shundan bo'lsa kerak, A.Yu. Epixin "bu atamalar...sinonimlar sifatida ishlatilishi mumkin"⁹⁰ deb hisoblaydi. "Xavfsizlik" va "himoya qilish" tushunchalari, bir qarashda, ma'no jihatdan juda yaqin ko'rinadi. Ammo mazmun jihatdan muhim farqlar mavjud. Xavfsizlik – holat, vaziyat, xavfsiz joyda, ayrim holarda kimningdir himoyasida bo'lish.

Yuqorida keltirilganlar shuni anglatadiki, xavfsizlik yakuniy holat sifatida maqsad hamda himoya qilish natijasi bo'lishi kerak. Himoya qilish esa, o'z navbatida, xavfsizlikni ta'minlash va ta'minlash vositasi bo'lishi maqsadga muvofiq. Shunday qilib, "xavfsizlik" tushunchasi "himoya" tushunchasini o'z ichiga oladi. Himoya xavfsizlikka erishish yo'llaridan biri sifatida e'tirof etilishi mumkin. "Xavfsizlik" tushunchasining nazariy va huquqiy tahlili shuni anglatadiki, xavfsizlik bu — holat, ya'ni tashqi va ichki tahdidan xavf tug'ilmasdan oldin hayotiy muhim qiziiishlarini himoyalashni anglatadi. Xavfsizlikning doktrinal talqini ilmiy adabiyotlarda kam yoritilgan. Xavfsizlik muammosi yo'nalishida tadqiqot olib boruvchi ayrim mualliflar "xavfsizlik" tushunchasining ma'no-mazmuniga to'g'ridan-to'g'ri aniqlik kiritishdan chetlab, ko'proq "xavfsizlik choralarini qo'llash" tushunchasini talqin qilishadi⁹¹.

A.Yu.Yepixining fikricha "xavfsizlik" toifasini xavfsizlik ob'ektini (himoyalangan shaxsni) hujum tahdididan yoki unga to'g'ridan-to'g'ri kimdir tomonidan hujum qilishdan himoya qilish holatini ta'minlaydigan shartlar to'plami nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi⁹². Shunday qilib, "xavfsizlik" tushunchasini o'rganadigan protsessualistlar deyarli aksariyat hollarda xavfsizlik keng qamrovli va samarali himoya tizimining mavjudligini nazarda tutadi degan xulosaga kelishadi.

"Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligi" bu umumiy toifaga nisbatan ixtisoslashgan tor kategoriya "xavfsizlik" tushunchasi jinoiy sub'ektlarni himoya qilishni o'z ichiga oladi-shaxslarning noqonuniy ta'siridan protsessual faoliyat, emas jinoyat protsessining vazifalarini amalga oshirishdan manfaatdor.

V.Ya.Shapakidze jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligi, birinchi navbatda, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni o'z ichiga

⁹⁰ Епихин А.Ю.Обеспечение безопасности личности в уголовном судопроизводстве. – М., 2004. – С.12–22.

⁹¹ Антонова Л.Г.Цели и задачи уголовного судопроизводства с позиций обеспечения безопасности личности, общества и государства / Л.Г. Антонова, А.Г. оглы Гурбанов, И.Н. Кондрат // Юридический мир. 2008. – № 10. – С. 34.

⁹²Епихин А.Ю. Обеспечение безопасности личности в уголовном судопроизводстве. СПб., 2004. С. 53.

oladi, chunki ular xavfsizlik ob'ekti hisoblanadi⁹³. Subyektiv huquq deganda shaxsning mumkin bo'lgan xatti-harakatlarining ijtimoiy shartli va kafolatlangan o'Ichovi tushuniladi, u ob'ektiv huquq normalari (Konstitutsiya, qonunlar) bilan belgilanadi, o'z ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish uchun moddiy, ma'naviy va shaxsiy tovarlar va qadriyatlardan foydalanish maqsadida⁹⁴. Bunday qonuniy manfaatlar sifatida "shaxsiy manfaatlarni davlat tomonidan himoya qilish faktidan kelib chiqadigan" hayot, sog'liq, qadr-qimmat, shuningdek mulkiy manfaatlarni ko'rib chiqish odatiy holdir⁹⁵.

Shunday qilib, jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash ularning hayoti, sog'lig'i va hayotida ifodalangan huquq va qonuniy manfaatlarni himoya qilishni o'z ichiga oladi, jinoyat protsessida ishtirok etishi munosabati bilan noqonuniy ta'sir ko'rsatadigan mulkiy manfaatlar.

"Xavfsizlik choralari shaxsning konstitutsiyaviy va boshqa qonuniy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish vositasi sifatida, jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan boshqa himoya vositalari bilan birgalikda xavfsizlik vositalarining umumiy tizimini tashkil etadi. Shunday qilib, subyektiv huquqlarni himoya qilish jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqiy maqomining ajralmas qismi sifatida ularning huquqlari va majburiyatlari buzilishi bilan bog'liq bo'lishi kerak, shuning uchun vakolatli organlar va mansabdor shaxslar o'zlarining qonuniy vakolatlari doirasida buzilgan huquqlarni tiklaydilar. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining bunday himoyasi ularning huquq va majburiyatlarini bajarilishini kafolatlaydi, ularning huquqiy maqomini himoya qiladi va shu bilan jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlaydi⁹⁶.

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligiga tahdidlar shundan iboratki, jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlari va belgilangan majburiyatlarini bajarish hamma tomonidan ta'minlanmaydi, qonunda belgilangan mumkin bo'lgan usullar bilan, bu ularning buzilishiga olib keladi.

"Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligi" tushunchasining asosiy elementlari:

- 1) jinoyat protsessida ishtirok etadigan shaxslarning xavfsizligi xavfning yo'qligi emas, balki xavfsizlik holati sifatida ko'rib chiqilishi kerak;
- 2) protsessual faoliyat ishtirokchilarining xavfsizligiga erishish vositasi ularning huquqiy, protsessual, ijtimoiy va jismoniy himoyasidir;

⁹³ Шапокидзе В.Я. Обеспечение процессуальной безопасности частных лиц в досудебном уголовном производстве: автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. Волгоград, 2002. С. 41.

⁹⁴ Витрук Н.В. Общая теория правового положения личности. М., 2008. С. 233.

⁹⁵ Халфина Р.О. Общее учение о правоотношении. М., 1974. С. 123—126.

⁹⁶ Макеева, Н. В. Понятие безопасности участников уголовного судопроизводства // Вестник Московского университета МВД России. 2011. № 3. С. 148.

3) ishtirokchilar xavfsizligini ta'minlashning asosiy ob'ekti jinoyat protsesslari-bu shaxslarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkini, jinoyat protsessining ishtirokchilarini himoya qilishda ifodalangan subyektiv (protsessual) huquqlari va qonuniy manfaatlari;

4) protsessual ishtirokchilarning xavfsizlik holati faoliyat jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilish kafolatlari tizimi, ishtirokchilarning har birining huquqlari belgilanadigan jinoyat-protsessual normalarini amalga oshirish mexanizmlari mavjudligini nazarda tutadi;

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligi vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan jinoyat protsessida ishtirok etishi munosabati bilan noqonuniy tajovuzlardan huquqiy va boshqa himoya vositalari tizimidan foydalanish natijasida ularning xavfsizligi tahdidiga sabab bo'lgan huquqlarni, shuningdek hayotda, sog'liqda va mulkiy manfaatlarda ifodalangan qonuniy manfaatlarni himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar majmui.

Jinoyat protsessida shaxsiy xavfsizlik institutining samaradorligini oshirish shartlari mohiyatan ikki guruhga bo'linadi:

1) qonunchilik bilan bog'liq shartlar (ya'ni, shaxsning xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari) jinoyat protsessida shaxsning xavfsizligini ta'minlash uchun huquqiy asos yaratishga qaratilgan umumiy talablar (mavjud qonunchilikni takomillashtirish va yangisini qabul qilish);

2) ushbu institut huquqiy normalarining ishlashi (amal qilish amaliyoti) bilan bog'liq shartlar.

Bularga quyidagi talablar kiradi: xavfsizlik choralari qo'llashning murakkabligi; amaldagi qonunchilikni takomillashtirish va yangidan qabul qilish; jinoyat protsessida shaxsning xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq xarakterlarning qonuniyligi; gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquqlari va qonuniy manfaatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, shuningdek, ayblanuvchi va himoyachi tomonlar o'rtasida muvozanatni saqlash; homiylik ostidagi shaxslarga noqonuniy ta'sir qilish tahdidiga qarshi xavfsizlik choralari; jinoyat protsessi va boshqa qarama-qarshiliklar.

Jinoyat protsessida ishtirok etgan shaxslar uchun xavfsizlik choralari tizimi jinoyat protsessida ishtirok etish va adolatni targ'ib qilish bilan bog'liq bo'lgan shaxslarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga real tahdid mavjudligini ko'rsatadigan ma'lumot mavjud bo'lsa, homiylik ostidagi shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan choralari to'plami sifatida qaraladi.

Xavfsizlikni ta'minlash maqsadida, davlat organlari jabrlanuvchilar, guvohlar va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilariga nisbatan protsessual va noprotsessual himoya choralarini qo'llaydi.

Protsessual chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligida mustahkamlab qo'yilgan. Noprotsessual choralar (masalan, shaxsiy himoyani ta'minlash, o'zini o'zi himoya qilishining maxsus vositalari, yashash joyini o'zgartirish va boshqalar) jinoyat protsessi ishtirokchilarini davlat tomonidan himoya qilishga oid turli idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Jinoyat protsessida xavfsizlikni ta'minlash institutining muhim elementi ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga noqonuniy ta'sirlarning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlardir. Himoya ostiga olingan shaxslarning xavfsizlik choralarini ta'minlash tizimi faqat protsessual vositalar va jinoyat ishini yuritish davomida yoki jinoyat protsessual faoliyati bilan cheklanishi mumkin emas. U har qanday shaxsning jinoyat protsessida qatnashishi va unga yordam berish uchun xavfsiz sharoitlarni ta'minlashning umumiy yagona maqsadi bo'lib, turli xavfsizlik choralarini majmuini o'z ichiga olgan murakkab xarakterga ega. Xavfsizlik choralarini tabiati jihatdan faqat mudofaa (himoya) qilish bo'lib qolmasdan, ayrim hollarda ular ham tajovuzkor xususiyatga ega bo'lishi kerak (ya'ni, har xil kutilmagan noqonuniy ta'sirlarning oldini oladi).

Xavfsizlikni ta'minlash choralarini qachon samarali bo'ladi, qachonki xavfsizlik choralarini, ehtiyot choralarini qo'llash jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini buzishi kutilgan shaxslarga nisbatan ta'sir choralarini qo'llanilganda. Ilmiy adabiyotlarida ta'kidlanganidek, "davlatning, insoning huquqi va erkinliklarini himoya qilish vazifasi bajarilishi o'ta murakkab masala. U davlat, jamiyat va shaxsning barcha ijtimoiy-iitiosodiy, huquqiy va ma'naviy ruhiy kuchlarini o'z ichiga oladi"⁹⁷.

XULOSA

I. Jinoyat protsessi nazariyasini boyitishga qaratilgan ilmiy to'xtam va xulosalar

1. ***Jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash*** - jabrlanuvchilarning, guvohlarning va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarining hayoti, sog'lig'i mol-mulki hamda sha'n va qadr-qimmatini, ishchanlik obro'siga tajovuz tahdidi mavjud bo'lganda qo'llaniladigan, jinoyatlarning oldini olishga yoki ularni fosh etishga ko'maklashadigan, xavfsizlik va ijtimoiy himoya qilish choralarini o'z ichiga oladigan chora-tadbirlar tizimidir.

⁹⁷ Володина Л.М. Уголовное судопроизводство: право на справедливую и гласную судебную защиту / Л.М. Володина, А.Н. Володина. – М., 2010. – С. 23.

2. **Himoya qilish usullari** – protsessual va boshqa xavfsizlik choralaridan iborat bo‘lgan jinoyat protsessining barcha bosqichlarida qo‘llaniladigan harakat va vositalar yig‘indisi

Protsessual xavfsizlik choralari:

1) shaxsiy ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik va himoya qilinayotgan shaxs to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lish imkoniyatini cheklash;

2) sud majlisiga kelishdan ozod etish.

Boshqa xavfsizlik choralariga quyidagilar kiradi:

1) himoya qilinuvchi shaxs to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning maxfiyligini ta‘minlash;

2) shaxsni, uy-joyini va boshqa mol-mulkni qo‘riqlash;

3) himoya qilinuvchi shaxsga maxsus individual himoya vositalarini va texnik vositalarni berish;

4) vaqtinchalik xavfsiz joyga joylashtirish;

5) boshqa yashash joyiga ko‘chirish, ish (xizmat) yoki o‘qish joyini o‘zgartirish;

6) hujjatlarni almashtirish;

7) himoya qilinuvchi shaxs to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan foydalanilishini cheklash;

8) qamoqda yoki jazoni o‘tash joylarida saqlanayotgan himoya qilinuvchi shaxsga nisbatan qo‘shimcha xavfsizlik choralarini ta‘minlash.

Jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligini ta‘minlash maqsadi quyidagilardan iborat:

- protsess ishtirokchilari xavfsizligini ta‘minlash;
- jinoyatlarni tez va to‘la ochish;
- latent jinoyatlar soni oshishining oldini olish;
- yangi bir jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- hukm qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishini ta‘minlash.

REFERENCES

1. Шинкеич Н.Е. О праве потерпевшего на доступ к правосудию. //Администратор суда. 2009. № 1. С. 38–41.
2. Новикова М.В. Институт безопасности в уголовном судопроизводстве и пути его совершенствования // Российский судья. 2007. № 7.
3. Бородкина Т.Н. Проблемы и перспективы развития института государственной защиты потерпевших, свидетелей и иных участников уголовного судопроизводства // Мировой судья. 2010. № 4. С. 18–22.

4. Матвиенко И.В. Классификация субъектов государственной защиты и обеспечения безопасности участников уголовного судопроизводства и их полномочия // Актуальные проблемы государства и общества в области обеспечения прав и свобод человека и гражданина : материалы Всероссийской научно-практической конференции, посвященной 64-й годовщине со дня принятия Всеобщей декларации прав человека. Уфа : УЮИ МВД России, 2012. С. 84–87.
5. Звечаровский И.Э. Оптимизация уголовно-правовой охраны личности в аспекте общих начал современного уголовного законодательства России // Уголовно-правовая охрана личности и ее оптимизация : сборник научных статей. Саратов, 2003. С. 30–34.
6. Николаев Е. М. Потерпевший как объект государственной защиты в уголовном процессе // Актуальные проблемы государства и общества в области обеспечения прав и свобод человека и гражданина : материалы Всероссийской научно-практической конференции, посвященной 64-й годовщине со дня принятия Всеобщей декларации прав человека. Уфа : УЮИ МВД России, 2012. С. 74–78.
7. Kudratillaev K. SPECIFIC FEATURES OF THE USE OF PRECAUTIONARY MEASURES //СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. – 2022. – С. 215-218.
8. МАХМУДОВ С. АЙБЛИЛИК ТЎҒРИСИДАГИ МАСАЛАНИ ҲАЛ ҚИЛМАЙ ТУРИБ ЖИНОЯТ ИШИНИ ТУГАТИШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ //ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ. – 2020. – Т. 1. – №. 6. – С. 110-115.
9. Махмудов С. А. TERMINATION OF CRIMINAL PROCEEDINGS IN CRIMINAL PROCEDURE //Conferences. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
10. Алишаев С. Т. СУДЕБНОЕ РЕШЕНИЕ: ЗАКОННОСТЬ, СПРАВЕДЛИВОСТЬ И БЕСПРИСТРАСТНОСТЬ //Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka. – 2022. – Т. 2. – №. 2.
11. Mamatalieva S. K. SOME PROBLEMS OF THE PROSECUTOR'S PARTICIPATION IN CIVIL COURTS //Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
12. Mamatalieva S. K. SOME PROBLEMS IN THE APPLICATION OF THE PROSECUTOR'S OPINION ON CIVIL PROCEDURE //Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka. – 2021. – Т. 1. – №. 2.

NOFILOLOGIK OLIY O'QUV YURTLARI TALABALARIDA ILMIY NUTQNING SHAKLLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARIGA DOIR

Begimov Odil To'xtamishovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida mudiri, filologiya fanlari doktori

begimovodil@mail.ru

ANNOTATSIYA

Tajribalarning ko'rsatishicha, nofilologik oliy o'quv yurti talabalarida olgan bilimlari va hayotiy tajribalariga tayangan holda ma'lum bir mavzuda o'z fikrlarini tegishli dalillar asosida tushunarli va ixcham bayon qilish ko'nikmalari yetishmaydi. Maqolada talabalarda uchraydigan shunday muammolar va ularni bartaraf etish usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *nutq, dalil, dalillash, ilmiy nutq, ilmiy matn, madaniy nutq, ilmiy terminologiya.*

АННОТАЦИЯ

Эксперименты показывают, что у студентов нефилологического вуза отсутствуют навыки четко и лаконично выразить свое мнение по определенной теме на основе соответствующих фактов, исходя из своих знаний и жизненного опыта. В статье рассматриваются такие проблемы, с которыми сталкиваются студенты, и пути их преодоления.

Ключевые слова: *речь, аргумент, аргументация, научная речь, научный текст, культурная речь, научная терминология.*

ABSTRACT

Experiments show that students at a non-philological university do not have the skills to clearly and concisely express their opinions on a certain topic based on relevant facts, based on their knowledge and life experience. The article discusses the problems that students face and ways to overcome them.

Key words: *speech, argument, argumentation, scientific speech, scientific text, cultural speech, scientific terminology.*

KIRISH

Ko'pgina holda oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalarda ham hayotdan yoki tajribadan olgan o'z bilimlariga tayangan holda ma'lum bir mavzuda o'z fikrini bayon qilish, uni dalillash qiyinchilik tug'diradi. Amaliy tajribalarning ko'rsatishicha,

o'z fikrini to'g'ri va aniq shakllantirish, keyin uni savodli va ishonchli dalillash shaxsning kasbiy va martaba jihatidan o'sishining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Nutqning inson hayoti, kasbiy va ilmiy faoliyatida qanchalik muhim ahamiyatga egaligini mashhur faylasuf olim Abu Nasr al-Farobiy o'zining "Ilmlarning kelib chiqishi" asarida keltirilgan fikrlarni aniq dalil sifatida keltirish mumkin. U mazkur asarida falasafiy ilmlarni keltirib chiqargan sabablar, bu ilmlarning tartibi va ularni o'rganish to'g'risida bahs yiritib, nutq va mantiq ilmining ahamiyati haqida shunday deydi: "Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqdagi ilmlarning eng birinchisi, jismlarga, ya'ni substansiya va aksidensyalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir deb tasdiqlayman.

Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi[4, 179]

TADQIQOTNING METODOLOGIK ASOSLARI VA USULLARI

Tadqiqot metodologiyasi tilshunoslikda kuzatilgan tarixiy tendentsiyaga asoslanadi, ya'ni ma'lum bir tarixiy jarayondagi barcha hodisalar tarixiy shartlar va hodisalardan ajratmasdan talqin qilishga asoslanadi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy bazasini zamonaviy tilshunoslik sohasida qo'llaniladigan ilmiy fikrlarni tahlil qilish usullari tashkil etadi.

Shuningdek, til, lison, nutqiy jarayonlarning lingvistik tadqiqida jamoa va xususiylik, mohiyat va hodisa, shakl va mazmun bilan uyg'unlashgan dialektik qonuniyatlarga asoslanadi.

Asosiy tadqiqot usuli sifatida tasniflash, tahlil etish, tuzilish va shakllanishiga ko'ra tahlil qilish, til faktlarini solishtirishdan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Dalillash nafaqat to'g'ri mulohaza yuritish(mantiqiy to'g'ri ifodalash)ni, balki mulohazani yetkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan dalil va isbotlarning haqiqiy ekanligini ham asoslashdir"[3, 58]. Dalillash – har qanday suhbatning, fikr almashishning eng qiyin bosqichidir. U umumiy aqliy salohiyati, diqqatni bir nuqtaga jamlash, chidamlilik, topqirlik va to'g'rilikni talab etadi. Fikr-mulohazani savodli dalillash – har bir kishining aqliy va madaniy yetukligining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Talabalar ko'pincha so'z boyligini kamligi, nutqiy madaniyatning yetishmasligidan bu masalada qiyinchilikka duch kelishadi.

Dalillashning maqsadi “ auditoriya tomonidan o’rta qo’yilgan vaziyatni qabul qilish” [3, 68] bo’lar ekan, o’qituvchining vazifasi – talabalarning o’z nuqtai nazarini savodli ifodlay olishga yordam berish, real hayotda o’z fikrlarini isbotlash talab qilingan vaziyatlarda o’zlarini yuqotib qo’ymaslikka o’rgatishdan iborat.

“Dalillashning asosi haqiqiy va soxta, to’g’ri va noto’g’ri, izchil va noizchil, aniq va mavhum bilimlarni o’zaro qarama-qarshi qo’yish hisoblanadi” [3,17]. Dalillash ko’nikmalarini shakllantirish ilmiy matnlar ustida ishlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Talabalar ilmiy matn bilan tanishish, uni tahlil qilish, matn oldi va matndan keyin beriladigan topshiriqlarni bajarish, matnda uchraydigan yangi terminlar va barcha tushunarsiz so’zlar ustida ishlash kabi o’rganish bilan bog’liq vazifalarni bajarganlaridan so’ng, o’qituvchi talabalar oldiga matn orqali olingan axborotga tegishli qandaydir bir muammoli savol qo’yishi va talabalardan berilgan mavzuni muhokama qilishni taklif qilishi lozim. Birinchi mashg’ulotda o’qituvchi bu diskussiyada asosiy rolni bajarishiga to’g’ri keladi, chunki dastlab o’qituvchi ularni yo’naltirib turishi, talabalar qo’llashlari zarur bo’lgan nutqiy modellar va iboralarni ularga namuna sifatida ko’rsatib turishi lozim.

Materiallarni bosqichma-bosqich kiritib borish maqsadga muvofiq.

Birinchi bosqich “Argument”, “Argumentatsiya”, “Argumentatsiya turlari” kabi tushunchalar bilan tanishishni o’z ichiga oladi.

Dastlab, ilmiy terminalogiyada ko’p qo’llanadigan “argument” va “argumentatsiya” so’zlarining ma’no xususiyatlari to’g’risida izoh beriladi. O’zbek tilining izohli lug’atida bu tushunchalar quyidagicha izohlangan:

Argument[lot. Argumentum – yaqqol isbot, aniq dalil] 1. Fikr, da’vo va sh.k. ni isbotlash uchun asos, dalil. Argumentatsiya[lot. argumentatio – dalilash, dalil keltirish] Kerakli fikr yoki qoidani isbotlash uchun dalilarni tashkil etish, muhokama qilish[5, I, 95].

So’ng o’zbek tilida qo’llanadigan “dalil” va “dalillamoq, dalillash” so’zlarining ma’no xususiyatlariga tegishli izohlar to’g’risida ma’lumot berish maqsadga muvofiq. Bu tushunchalar o’zbek tilining izohli lug’atida quyidagicha izohlangan:

Dalil [arabcha – belgi, iz; isbot; sabab] 1. Fikr, mulohaza va sh.k.ni tasdiqlovchi, ular haqida dalolat beruvchi narsa; isbot, fakt. 2. huq. Jinoyatni tasdiqlovchi narsa, fakt yoki holat (ashiyoviy dalil, moddiy dalil).

Dalillamoq. Fikr, mulohaza, da’vo va sh.k.ning to’g’riligini fakt, isbot va sh.k. bilan asoslamoq, tasdiqlamoq [5, 549].

Dalillarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Mantiqiy dalil(argument)lar: takliflar, fan hulosalari (nazariyalar, gipotezalar, aksiomalar va b.)da namoyon bo’ladigan faktlar; statistika (ishlab chiqarish va

jamiyat rivojlanishining miqdoriy ko'rsatkichlari; ob'ektiv, real faktlar (masalan, olimlarga moddaning to'rtta agregat holati ma'lum: qattiq, suyuq, gazsimon va o'ziga xos to'rtinchi holati – plazma holati; olmos – tabiatdagi eng qattiq tosh va b.); tabiat qonunlari; olimlarning eksperimentlarining ma'lumotlari, isbotlari va shahodatlari.

2. Illyustrativ argument-misollar: aniq misollar (hayotdan olingan, kasbiy tajribalar, voqealarning haqiqiy sodir bo'lganligi to'g'risida hikoya qiluvchi faktlar); ilmiy misollar (ilmiy maqola yoki matndan misol keltirish); tahminiy misol (ma'lum bir sharoitda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqea to'g'risida hikoya qilish).

3. Avtoritetlarga tegishli ssilkalar: ma'lum va mashhur kishilar – olimlar, faylasuflar, professorlar, o'qituvchilar, murabbiylar va b. fikrlariga murojaat qilish; mashhur manbalardan sitata keltirish; mutaxassis, ekspert fikr-mulohazalari; auditoriya tajribasiga murojaat qilish.

Ikkinchi bosqich harakatning algoritmi bilan tanishishni o'z ichiga oladi. U quyidagicha bo'lishi mumkin: 1) qo'yilgan muammoni shakllantirish va uning qisqacha bayoni (masalan, “Matning mohiyati quyidagicha...” yoki “ Tajribalar o'tkazish natijasida olimlar shunday xulosaga keldilarki, ...” yoki “XIX asrlarda olimlar tushunishga harakat qildilarki, nima uchun...”) va h.k.; 2) matndagi axborotning to'g'riligiga ishonishi yoki ishonmasligini ifodalash (masalan, “Men shunga ishonaman, chunki...”, “Bu narsaga ishonmaslik qiyin, chunki...”). Tegishli xulosalarning mavjudligi bayon etilgan fikrlarning yakunlanganligi va mantiqiyiligini ifodalaydi. Shuningdek, o'qituvchi talabalarga ishning yoki fikrning yakunida nafaqat xulosa va umumlashtirishlar keltirilishi, balki muammolarni hal qilishga tegishli ko'rsatmalar, keyingi harakatlarga chaqiriqlar, istaklar, maslahatlar va takliflar keltirilishi mumkinligi to'g'risida ham aytib o'tishi lozim.

Uchinchi bosqich dalillashning usullarini aniqlab olishdan iborat. Matnlar o'qituvchi tomonidan tanlab olinadi. Bu misollar, illyustratsiya, namunalar(ijobiy yoki salbiy) yordamida dalillashdan iborat bo'lishi ham mumkin.

To'rtinchi bosqich dalillash ko'nikmalarini chuqurlashtirish va mustahkamlashdan iborat bo'ladi.

Misol tariqasida quyidagi ilmiy matnni keltirish mumkin. “...Galiley jismlarni tushushini kuzatish va xulosa chiqarishni taklif qildi, Uning fikricha, bir xil og'irlikka, ammo turli hajm kengligiga ega bo'lgan jismlar turli tezlikda tushadi. Hajm kengligi katta bo'lgan jismlar sekin tushadi, bunga sabab havo oqimining qarshiligi bo'lsa kerak deb, taxmin qildi. Lekin o'zining gipotezasini tajriba orqali sinab ko'rishga olimning imkoniyati bo'lmadi, chunki u davrda havo qarshiligini qanday bartaraf qilishni bilishmas edi. Keyinchalik bu gipotezani ingliz olimi Isak Nbyuton tekshirib ko'rishga muvofiq bo'ldi. Bu vaqtda maxsus asbob – idishdan havoni so'rib oladigan

havo nasosi yasashdi. Nyuton shisha trubkani oldi, nasos yordamida undan havoni tortib chiqardi, ya'ni unda vakuum hosil qildi va bu sharoitda idish tubiga pat va qo'rg'oshin parchasi qanday tushishini kuzatdi. Olim ular bir xil tezlikda tushishini aniqladi. Shu tarzda Nyuton Galileyning gipotezasini tajriba orqali ko'rsatdi. U vakuum (havosizlik) sharoitida turli og'irlikka ega bo'lgan jism, hajm kengligiga bog'liq bo'lmagan holda, tushish davrida bir xil tezlikka ega bo'lishini isbotlab berdi[3, 124].

O'qituvchi talabalarga quyidagicha savol bilan murojaat qilishi mumkin: "Siz qanday o'ylaysiz, nima uchun Galiley o'zining gipotezasini tekshirib ko'rolmadi?" So'ng javobni isbotlash uchun matndan misollar keltirishni taklif qiladi.

Masalan, talabalar matn mazmuniga tayangan holda bunga quyidagicha javob berishlari mumkin: "Galiley yashagan davrlarda, ya'ni XYI-XYII asrlarda havoning qarshiligini qanday bartarf etish yo'lini bilishmagan", "Tajriba o'tkazish uchun kerakli asboblari bo'lmagan".

Matn mazmunidan kelib chiqib, talabalar quyidagi xulosalar chiqarishlari mumkin: "Ilm-fan va texnikaning rivojlanishi natijasida olimlar yanada aniqroq ma'lumotlar olishga erishmoqdalar, ilgari surilgan gipotezalarni tajriba asosida isbotlab berish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Bu, o'z navbatida, dunyo manzarasini yanada aniqroq ko'rish va bilish hamda muammolarni amaliy jihatdan hal qilish imkoniyatini bermoqda".

Shu tarzda yana bir dalilni tekshirib ko'rishimiz mumkin: "Nikelning titan bilan qotishmasi "mexanik" xotira xossasiga ega bo'ladi, ya'ni mahsulotning shakli va aniq o'lchamini eslab qolish va deformatsiya holatida ularni qayta tiklash qobiliyatiga ega bo'ladi"[2,157].

O'qituvchi talabalardan "shakl va o'lchamni qayta tiklash" so'z birikmasining ma'nosini tushuntirib berishni taklif qilishi mumkin. Bunda savollarni quyidagi tarzda tuzishi maqsadga muvofiq:

1. Siz bu so'z birikmasining ma'nosini qanday tushinasiz?

Bunga quyidagicha javob berish mumkin: "Qayta tiklash – bu demak, dastlabgi shakl va o'lchamga qaytish, ega bo'lish, ya'ni deformatsiyagacha ega bo'lgan shakl va o'lchamga qaytish".

2. Siz "mexanik" xotiraga ega bo'lgan yana qanday qotishmalarni bilasiz?

Talabalar o'zlarining o'rgangan tajribalariga asoslanib, oldin o'qigan matnlarini eslaydilar va quyidagi qotishmalar to'g'risida ma'lumot beradilar: nikelning kobal't va titan bilan qotishmasi, oltinning kadmi bilan, misning margants va alyumin bilan, misning alyumin va mis bilan qotishmalari va b.

3. Bunday g'ayrioddiy qotishmalarning sanoatda qanday ahamiyati bor?

Taxminiy javob quyidagicha: “Bunday qotishmalar sonoat uchun juda katta ahamiyatga ega. Masalan, kosmik texnikasi uchun: ulardan sun’iy Yer yo’ldoshlari uchun antennalar tayyorlanadi, nazariy jihatdan bu kabi qotishmalardan orbita radioteleskoplari yasash mumkin”.

Talabalar bilan dalillashning yana bir usuli – ilyustratsiya(tasvir), ya’ni mavhum tushunchalarni ko’rgazmali shaklda ko’rsatish orqali isbotlashni keltirish mumkin. Faktlar tasvir orqali aks ettiriladi, mazmun jihatidan mos keladigan, bayon qilinayotgan holatni tushunishga yordam beradigan obrazli manzaralar hosil qilinadi. Bu yerda o’qituvchi topshiriqlarni o’yin shaklida bajarishni taklif etishi ham mumkin, chunki o’yin so’zlarni mexanik tarzda yod olmasdan beixtiyor eslab qolish qobiliyatini shakllantiradi, materiallarni yorqin va qiziqarli tarzda o’zlashishiga imkoniyat yaratadi. Demak, bu holda quyidagicha topshiriqlar berish maqsadga muvofiq:

1. Quyidagi tushunchaga grafik jihatdan mosliklarni toping: kristal panjara, erish, qaynash, olmos, ko’mir, to’g’richiziqli harakat, egrichiziqli harakat va b.

2. Quyidagi grafik tasvirga tegishli so’zlar tanlang: shisha, havo nasosi, o’lchov, plastik, prujina, Yerning Quyosh atrofida aylanishi va b.

Tushunchalarga tegishli sinonimlar tanlashga oid topshiriqlar ham yaxshi natija beradi, chunki u talabalarning so’z boyligini oshiradi va nutqda so’z qo’llash ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Topshiriq quyidagicha bo’lishi mumkin: ajratib ko’rsatilgan so’z va so’z birikmalariga mos keladigan sinonimlar tanlang: suvning suyuq holatdan qattiq holatga o’tishi, haroratning ko’tarilishi, jismning shaklini o’zgartirishi, molekulalarning tartibsiz harakat qila boshlashi va b.

O’qituvchi tomonidan tanlangan va tavsiya etilgan turli xil ilmiy matnlarni tahlil qilish ham yaxshi samara beradi. Talabalar bulardan mualliflarning fikr-mulohazalari asosida misollar topadilar.

Dalillash ko’nikmalarini singdirishda diskussiya metodidan foydalanish ham katta samara beradi, chunki nutqiy faoliyatning bu turi qo’yilgan muammoga tegishli so’zlar va nutqiy model (dalil)larni tezkor usulda izlash, tanlash ko’nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, talabalarni haqiqatni jamoa bo’lib izlashga faol ishtirok etish hisobiga o’quv jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi. Diskussiya – bu o’ziga xos bilim va fikr almashish usuli. Bu o’rinda ham o’yinli topshiriqlardan foydalanish mumkin, chunki “o’yinli topshiriq – o’quvchilar o’zlarini qulay va erkin, ta’lim oluvchining qiziqishlarini qo’zg’atuvchi, unda chet tilida gapirish xohishini yuzaga chiqaradigan muhitni yaratadi”[1,4].

Bunga quyidagi mashg’ulotni misol qilib keltirish mumkin. O’qituvchi uy topshirig’i sifatida biron bir ilmiy matnni, masalan, neft mahsulotlarini qazib olish va

uni qayta ishlashga bag'ishlangan matn ustida ishlashni taklif qiladi. Matnni o'qish, yangi so'z va iboralarni o'rganish, shuningdek, ularning nazarlarida xarakterli bo'lgan fikrlarni topishni yuklaydi. So'ng mashg'ulot davomida guruh ikkita kichik guruhga bo'linadi. Ularga quyidagi savollar beriladi:

1. Neft sanoatining atrof muhitga qanday ta'siri bor?

2. Neft mahsulotlarini qazib olish insoniyatni global halokatlarga olib kelishi mumkinmi?

3. Quyidagi gaplarning mazmunini qanday izohlaysiz: Neft – qora oltin. Neft – bizning halokatimiz. Neft – bu yerning qoni, biz esa undan o'z boyligimizni yaratamiz.

4. Neft zahiralari bitmas-tuganmasmi?

Har ikki guruh diskussiyaga kirishib, o'rta qo'yilgan savollarga nisbatan o'z fikrlarini bildirishadi, asoslash uchun ilmiy faktlarga tayangan holda matndan misollar keltirishadi. Bunda qaysi guruhning javoblari asosli, dalillari ishonchli bo'lsa, o'sh guruh g'olib bo'ladi.

Diskussiya jarayonida talabalar mantiqiy dalillash va o'rta qo'yilgan muammoga nisbatan o'z shaxsiy nuqtai nazarlarini bayon qilish malakalarini hosil qiladilar. Bunda talabalar o'z fikrlarini madaniy nutq nuqtai nazaridan bayon qilish malakalariga ega bo'lishlari lozim. Ular nutqning ilmiy uslubi uchun xarakterli "birinchidan", "ikkinchidan", "shubhasiz" kabi kirish so'zlardan keng foydalanishlari maqsadga muvofiq, chunki bunday so'zlar axborotlarni yetkazishda fikrning mantiqiylikini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, talabalarga fikrini o'z suhbatdoshiga yetkazishda etika me'yorlariga rioya qilish malakalarini ham singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'z fikrini isbotlash uchun dallillar keltirishda suhbatdoshiga nisbatan bosiqlik, xotirjamlik va muomalilik bilan yondashsa, fikrning aniqligi va ta'sirchanligini yetarli darajada ta'minlagan bo'ladi. Bunda quyidagi nutqiy modellardan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz: "Sizning fikringizga qo'shilishim mumkin, ammo shunday faktlar borki...", "Fikringizning ko'p jihatlariga qo'shilaman, ammo yana shuni ta'kidlaymanki, ..." , yoki "Afsuski, e'tiroz bildirishga majburman, chunki ..." "Siz ... jihatlarini nazardan chetda qoldiriyapsiz" va b. Suhbatdoshining fikriga nisbatan o'z munosabatini bayon qilishda shaxsiy baho berish bilan bog'liq quyidagi iboralarni ishlatmagan ma'qul deb o'ylaymiz: "Menga ... haqidagi fikrlaringiz juda yoqdi", "Menga ... haqidagi fikrlaringiz umuman yoqmadi". Talabalar suhbatdoshiga nisbatan o'z fikrini ifodalashda quyidagi kirish so'z va birikmalardan foydalanishlari maqsadga muvofiq: bizning nazarimizda, bizning o'ylashimizcha, ehtimoldan holi emas, lozim topamiz.

Nutqni aniq, ishonchli, ta'sirchan bo'lishi faqatgina dalilashni qanday bo'lishiga bog'liq emas, balki nutqning ritmi, chastotasi, talaffuz xususiyatlariga ham bog'liq bo'ladi. Nutqni irod etishda aniq, hotirjam, tovushni zo'riqtirmasdan bir maromda va mazmunan boy qilib gapirishga harakat qilish lozim. Nutqni to'g'ri shakllantirish uchun har bir nutq tovushi, bo'g'in va so'z yetarli darajada aniq eshitalishi lozim.

Demak, dalillash – bir kishining asoslangan nuqtai nazarini boshqa bir kishi tomonidan yetarli darajada tushunishi va qabul qilish(yoki qabul qilmaslik)ga yo'naltirilgan mantiqiy-kommunikativ jarayon. Dalil esa – so'zlovchining o'z nuqtayi nazarini asoslash uchun keltiradigan isbot, holat, ma'lumot, misol.

XULOSA

Yuqorida aytilgan fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Talabalarda ilmiy nutq malakalarini hosil qilish uchun ularni asosiy umumilmiy va kasbiy tushunchalarni o'rganishga, ularning dunyoqarashlarini kengaytirish uchun maxsus ilmiy adabiyotlar ustida ishlashga yo'naltirish maqsadga muvofiq.

2. Mashg'ulotlarda talabalar ilmiy-pedagogik faoliyatlariga tegishli dalil va isbotlarni bayon qilishlari uchun kerakli bo'lgan nutqiy modellar ustida muntazam ravishda ishlash va qo'llash ko'nikmalarini shakllantirib borishlari lozim.

3. Talabalarda tegishli dalillarni tanlash va qo'llashda nafaqat ilmiy, balki ijodiy yondashuv malakalarini ham hosil qilish, bunda ularning nutqiy imkoniyatlarini obrazli sinonimlarni qo'llashga o'rgatish orqali kengaytirish maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. Аросева Т.Е. и др. Научный стиль речи: технический профиль. — М.: Русский язык. Курсий, 2010.
2. Гильмутдинова Н.А. Логика и теория аргументации: Учеб. пособие. — Ульяновск: Изд-во УЛГТУ, 2006.
3. Дубинская Ю.В. и др. Русский язык будущему инженеру. — М.: Флинта; Наука, 2007.
4. Abu Nasr Farobiy. Fozil kishilar shahri. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashryoti, 1993. -224 b.
5. O'zbek tilining izohli lugati. A. Madvaliyev tahriri ostida. 1-tom, T. 2008.

ADOLATLI IJTIMOYIY SIYOSAT YANGI O‘ZBEKISTON RIVOJLANISHINING MUHIM ISTIQBOLI SIFATIDA

Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-kurs talabasi

+998 90 829 07 08

mustafayevaferuza07@gmail.com

ANNOTATSIYA

Davlat va jamiyat hayotida har bir sohaning o‘z o‘rni va ahamiyati bor. Har bir mamlakat o‘z fuqarolari uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish maqsadida islohotlar va yangilanishlarni amalga oshiradi. Ushbu islohotlar qatorida ijtimoiy soha va u bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy siyosat ham asosiy o‘rin egallaydi. Mazkur maqolada bugungi kunda Yangi O‘zbekistonimiz rivoji va istiqbolida muhim hisoblangan ijtimoiy siyosat, uni adolatli va oqilona yuritish hamda ushbu siyosatning mamlakatimiz taraqqiyotidagi ahamiyati haqida fikr-mulohazalar va xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: rivojlangan mamlakatlar, ijtimoiy siyosat, kategoriya, ijtimoiy makon, inson kapitali, pedagog, rehabilitatsiya, mexanizm.

СПРАВЕДЛИВАЯ СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА – ВАЖНАЯ ПЕРСПЕКТИВА РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

Каждая сфера имеет свое место и значение в жизни государства и общества. Каждая страна реализует реформы и обновления, чтобы создать достойные условия жизни для своих граждан. Среди этих реформ главное место занимает социальная сфера и непосредственно связанная с ней социальная политика. В данной статье представлены мнения и выводы о социальной политике, которая сегодня считается важной в развитии и перспективах нашего Нового Узбекистана, его справедливом и рациональном управлении, а также о значении этой политики в развитии нашей страны.

Ключевые слова: развитые страны, социальная политика, категория, социальное пространство, человеческий капитал, педагог, реабилитация, механизм.

FAIR SOCIAL POLICY IS AN IMPORTANT PERSPECTIVE FOR THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN

ABSTRACT

Each sphere has its place and significance in the life of the state and society. Every country implements reforms and renovations to create decent living conditions for its citizens. Among these reforms, the main place is occupied by the social sphere and social policy directly related to it. This article presents opinions and conclusions about social policies that are today considered important in the development and prospects of our New Uzbekistan, its fair and rational governance, as well as the significance of these policies in the development of our country.

Key words: *developed countries, social policy, category, social space, human capital, teacher, rehabilitation, mechanism.*

KIRISH

Dunyodagi har bir davlat yuksak taraqqiyotga erishish, jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirish, fuqarolari uchun munosib turmush shart-sharoitlarini yaratib berishni xohlaydi. Buning uchun keng miqyosli islohot va bunyodkorlik ishlarini amalga oshiriladi.

Bizning mamlakatimizda ham ushbu maqsad ustuvor mavqe kasb etib, davlatimizda amalga oshirilayotgan har bir islohot shunga qaratilgan. Bugun oldimizga katta maqsadlar qo'yib, shunga tomon harakatlanayotgan ekanmiz, bunda jamiyatda mavjud bo'lgan barcha sohaga e'tibor qaratishimiz lozim.

Mamlakat taraqqiyotida muhim rol o'ynovchi sohalardan biri bu ijtimoiy soha va u bilan bog'liq ijtimoiy siyosatdir. Ijtimoiy soha ijtimoiy hayotning barcha muhim qismlarini o'z ichiga olgani bois davlat siyosatida unga katta e'tibor qaratiladi.

Muhtaram yurtboshimizning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarlarining "Kuchli ijtimoiy siyosat: mohiyat va imkoniyatlar" nomli qismida quyidagi fikr keltirilgan: "Yangi O'zbekistonni o'z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo'nalishdagi islohotlarimizning asosiy maqsadidir"⁹⁸. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun bugun qamrovi keng yangiliklar qilinmoqda.

Ijtimoiy siyosat aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar tizimidan iboratdir.

⁹⁸ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent. O'zbekiston, 2021. – B. 199.

Ijtimoiy siyosatning tor ma'nodagi ta'rifi davlatning ma'lum sababga ko'ra ijtimoiy jihatdan nochor bo'lgan va o'zining moddiy holatini o'z kuchlari orqali yaxshilay olmaydigan aholi guruhlari yoki qatlamlarini (pensioner, yetim bolalar, talabalar, mehnat nogironlari hamda kam ish haqi oluvchi ishlovchilar kategoriyalari)ni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidan iborat.

Ijtimoiy siyosatning keng ma'nodagi ta'rifi jamiyatning barcha a'zolarining ijtimoiy rivojlanishi uchun normal yashash va qulay imkoniyatlar yaratishga qaratilgan davlat chora-tadbirlari yig'indisidir.

Adolatli ijtimoiy siyosat aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan har bir islohotga adolat nuqtayi nazaridan yondashish, jamiyat qatlamlarining hech qaysisini e'tibordan chetda qoldirmaslik, ularga bir xilda va teng imkoniyat hamda sharoitlarni yaratib berish, jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish va boshqalardan iboratdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yurtimizni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan ko'pgina dasturlarda adolatli ijtimoiy siyosat yuritish bo'yicha rejalar va vazifalar kiritilgan. Masalan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida to'rtinchi ustuvor yo'nalish "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish" deb nomlangan. Mazkur yo'nalishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish;
- Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish;
- Maktabgacha ta'lim tizimida budjet mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash;
- Malakali o'qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish;
- Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish;
- Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish;
- 2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash;
- Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;
- Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, budjet mablag'laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug'urtalash amaliyotini joriy qilish;

– Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish va boshqalar.

Yuqoridagi maqsadlarda ham ta‘lim, ham sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va boshqalarga asosiy e‘tibor qaratilgan. Chunki mazkur sohalar ijtimoiy hayotning eng muhim elementlari hisoblanadi. O‘z-o‘zidan ta‘lim har bir davlat taraqqiyoti va kelajagining poydevoridir. Rivojlangan davlatlar tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, ta‘lim sohasiga katta ahamiyat berilganiga guvoh bo‘lamiz. Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya, Finlandiya kabi dunyoning yetakchi va rivojlangan mamlakatlarining shu darajada rivojlanishida ta‘lim tizimini katta ahamiyat kasb etgan.

Mustaqil diyorumizda 2024-yil 1-fevraldan kuchga kirgan “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun jamiyatimiz hayotida muhim voqea sifatida qayd etildi. Chunki bu ilgari mavjud bo‘lmagan va uzoq kutilgan normativ hujjat hisoblanadi. Ushbu qonunning kuchga kirishi adolatli ijtimoiy siyosat sohasida amalga oshirilgan ulkan jarayon bo‘ldi.

Mamlakatimizni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan muhim dasturlardan yana biri bo‘lgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha islohotlar mavjud bo‘lib, bular ham yurtimiz rivojiga katta hissa qo‘shishda muhimdir. Jumladan, mazkur strategiyada quyidagi vazifalar belgilab qo‘yilgan:

– Professional ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish: bunda ijtimoiy himoyaga muhtojlarning barchasi to‘liq qamrab olinishi ko‘zda tutilgan.

– Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tizimni yaratish hamda ular uchun qulay va maqbul muhitni yaratish: bunda nogironligi bo‘lgan shaxslarni rehabilitatsiya xizmatlari bilan to‘liq qamrab olish ko‘zda tutilgan.

– Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish. Bolalarni himoya qilish – kelajakni himoya qilish demakdir.

– Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta‘minlash.

– Nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash. Bu mustaqillikdan buyon amalga oshirilib kelinayotgan islohotlarning mantiqiy davomidir.

– Mamlakatda kambag‘allik darajasini qisqartirish: bunda 2026-yilga qadar kambag‘allikni 2022-yilga nisbatan 2 barobarga, 2030-yilga qadar esa keskin qisqartirish ko‘zda tutilgan. Bu ham ijtimoiy siyosatda muhim islohot hisoblanadi.

Chunki yurtimizning asosiy maqsadlaridan biri fuqarolar va aholi turmush farovonligini oshirishdan iborat.

– Aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug‘urta tizimini takomillashtirish.

– Fuqarolarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, davlatimizda amalga oshirilayotgan adolatli ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalari quyidagilar: har bir shaxsning mehnat qilishi, bilim olishi huquqlarini amalga oshirishni iqtisodiy va huquqiy jihatdan kafolatlash; aholining barcha qatlamlarini, birinchi navbatda, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining ijtimoiy himoya mexanizmini ishlab chiqish; ishsizlikning oldini olish; ijtimoiy sug‘urta tizimini yaratish; aholi turmush darajasining keskin pasayishiga yo‘l qo‘ymaslik; aholi farovonligini ta‘minlashning chora-tadbirlarini yaratish va boshqalar. Bu vazifalarning amalga oshirilishi kelgusi taraqqiyotning yuksak rivojlanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M.. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent. O‘zbekiston. 2021.
2. Vaxabov A.V., Zaxidova Sh.Sh., Xajibakiyev Sh.X., Raxmanov Sh.I., Odinayev D.Sh., Fayzullayev J.N., Baxtiyorov B.B., Abdulxakimov S.N.. Ijtimoiy siyosat. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent. “Mumtoz so‘z”. 2019.
3. Abduraxmanova G.Q., Abduramanov X.X. Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti. – Toshkent, 2018.
4. To‘ychiyeva S., Norbekov A. Ijtimoiy siyosat. – Toshkent, 2010.
5. Shayusupova N.T., Arabov N.U., Nasimov D.A. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy himoya. - Toshkent. “Iqtisodiyot”. 2014.
6. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son. www.lex.uz.
7. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. 11.09.2023. www.lex.uz.
8. “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-901-son 01.02.2024. www.lex.uz.

ABU RAYHON BERUNIY TABIIY-TARIXIY VA GEOGRAFIK OMILLARNING HIND JAMIYATINING IJTIMOYIY TUZILISHIGA TA'SIRI HAQIDA

Umarov Botir Ibodulla o'g'li

TDSHU, "Sharq falsafasi va madaniyati" yo'nalishi 2-kurs magistranti

Izzetova E.M.

Falsafa fanlari doktori, professor,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniyning "Kitob al-Hind" asarida Hindiston yarimorolining tabiiy-tarixiy va geografik o'lchamlarini chuqur o'rganishi va inson borlig'i asoslarini tahlil qilishi ko'rib chiqiladi. Beruniyning Hindistonning iqlim, geografiyasi va ekologik xususiyatlari hamda insoniy madaniyat va jamiyatning shakllanishiga ta'sirini o'rganishi, uning zamonidan oldingi ilmiy va antropologik kashfiyotlari haqida fikr yuritiladi. Bu tadqiqot orqali Beruniyning Hindistonning madaniy va diniy xilma-xilligi, tabiiy muhit va inson faoliyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi haqida qilgan kuzatishlari va ulkan hissasi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Abu Rayhon Beruniy, Kitob al-Hind, Hindiston yarimoroli, antropologiya, geografik determinizm, iqlim xilma-xilligi, musson, kasta tizimi, madaniy plyuralizm, dinlararo muloqot, Hinduizm, Brahmanik matnlar, sinkretik tabiat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются углубленное исследование Абу Райханом Беруни естественно-исторических и географических измерений Индийского субконтинента и его анализ основ человеческого существования в «Китаб-эль-Хинде». Обсуждаются исследования Беруни о климате, географии и экологических особенностях Индии, а также влияние этих факторов на формирование культуры общества и личности.

Ключевые слова: Абу Райхан Беруни, Китаб аль-Хинд, Индийский субконтинент, антропология, географический детерминизм, климатическое разнообразие, муссоны, кастовая система, культурный плюрализм, межконфессиональный диалог, индуизм, брахманские тексты, синкретическая природа.

ABSTRACT

This article examines Abu Rayhan Beruni's in-depth study of the natural-historical and geographical dimensions of the Indian subcontinent and his analysis of the foundations of human existence in Kitab al-Hind. Beruni's study of India's

climate, geography, and ecological features, as well as the impact on the formation of human culture and society, and scientific and anthropological discoveries before his time are discussed. Through this study, Beruni's observations and contributions on India's cultural and religious diversity, the interrelationship between the natural environment and human activities are highlighted.

Keywords: *Abu Rayhan Beruni, Kitab al-Hind, Indian subcontinent, anthropology, geographical determinism, climatic diversity, monsoon, caste system, cultural pluralism, interfaith dialogue, Hinduism, Brahmanical texts, syncretic nature.*

KIRISH

Islom oltin asrining yorqin namoyandasi Abu Rayhon Beruniy ilm-fan, falsafa va madaniy izlanishlar sohasida yuksak arbob sifatida tanilganligi hammaga ma'lum. Milodiy 973-yilda Xorazm viloyatida (hozirgi O'zbekiston) tavallud topgan al-Beruniyning cheksiz qiziquvchanligi va teran aql-zakovati uni o'z davrining eng serqirra va bilimdon allomalaridan biri sifatida tarix yilnomalariga kiritdi⁹⁹.

Abu Rayhon Beruniyning misli ko'rilmagan ko'lamli polimatik hissasi astronomiya, matematika, fizika va tilshunoslik kabi ko'plab fanlarni qamrab olgan. Biroq, aynan uning antropologiya sohasidagi ulkan ishi, xususan, "Kitob al-Hind" ("Hindiston kitobi") nomli asari yaqqol namoyon bo'lib, uning intellektual qobiliyatining doimiy dalili bo'lib qolmoqda deyish mumkin.

Abu Rayhon Beruniy o'zining chuqur kuzatishlari va ilmiy izlanishlari orqali "Kitob al-Hind" asarida Hindiston yarimorolining tabiiy-tarixiy va geografik o'lchamlarini sinchkovlik bilan o'rganib, inson borlig'i asoslarini chuqur anglashni ochib beradi¹⁰⁰. Uning puxta hujjatlari va tahlillari geografiya va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik haqida bebaho tushunchalarni taqdim etadi va kelajakda antropologiya, geografiya va madaniyatshunoslik bo'yicha tadqiqotlar uchun shablonni taqdim etadi.

Beruniyning Hindiston geomadaniy dinamikasiga qarashlari. Hindistonning xilma-xil geografiyasi va uning jamiyatlarining murakkab tuzilishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, tarixiy davrlarni bosib o'tuvchi va Hindiston yarimorolida atrof-muhit va inson hayotining paydo bo'lishi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'kidlaydigan yangi istiqbolni taqdim etadi.

Abu Rayhon Beruniyning "Kitob al-Hind" ("Hindiston kitobi") asaridagi kashshof yondashuvi haqiqatan ham empirik tadqiqot va turli bilim manbalarini har tomonlama sintez qilish tamoyillarini o'zida mujassam etgan ajoyib zamonaviy

⁹⁹ Пўлатова Д., Қодиров М., Аҳмедова М., Абдуҳалимов А., Шозамонов Ш. Фалсафа тарихи (Шарқ фалсафаси) Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2013. – В. 137.

¹⁰⁰ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 2-jild (Hindiston). Arabchadan A.Rasulov, Y.Hakimjonov, G'.Jalilov tarjimasini. So'zboshi va izohlar A.Irisovniki. Mas'ul muharrir G'.Jalolov va A.Irisov. – T.: "Fan", 1965. – B.198.

metodologiyani aks ettiradi. Uning to'g'ridan-to'g'ri kuzatish, tanqidiy tahlil va taqqoslashga sodiqligi bo'lajak antropologiya, madaniyatshunoslik va ijtimoiy fanlar olimlari uchun yuksak talablar qo'ydi.

Beruniy asarini muhokama qilishda geografik determinizm kontseptsiyasini birlashtirish uning jismoniy muhit va geografiyani Hindiston jamiyatining ijtimoiy tuzilmalari, madaniy amaliyotlari va tarixiy rivojlanishini shakllantirgani sifatida qanday qabul qilganligini tekshirishni o'z ichiga oladi. Bu yerda e'tiborga olinadigan ba'zi fikrlar:

Empirik kuzatish va tahlil: Al-Beruniyning empirik yondashuvi u Hindistonning jismoniy va madaniy landshaftlarini sinchkovlik bilan hujjatlashtirib, atrof-muhit va jamiyat me'yorlari o'rtasidagi munosabatni qayd etganini anglatadi. Uning musson iqlimi, daryo tizimlari va Hindistonning turli mintaqalarida mavjud tabiiy resurslar bo'yicha kuzatishlari bu omillar qishloq xo'jaligi amaliyotiga, aholi punktlariga va iqtisodiy faoliyatga qanday ta'sir qilgani haqida tushuncha beradi.

Ijtimoiy tuzilmalarda geografik determinizm: Beruniy Hindistonning turli xil geografiyasi, Himoloy tizmalaridan qirg'oq tekisliklarigacha, turli xil ijtimoiy tuzilmalar va mintaqalardagi madaniy amaliyotlarga qanday ta'sir qilganini kuzatgan bo'lishi mumkin. Masalan, Gang tekisligining unumdorligi zich aholi va murakkab ijtimoiy tuzilmalarni qo'llab-quvvatlagan, qurg'oqchil hududlar esa turli xil ijtimoiy moslashuvlarni keltirib chiqargan¹⁰¹.

Madaniy va tarixiy o'zaro ta'sirlar: Beruniyning asarida geografiya tarixiy o'zaro munosabatlarga, masalan, savdo yo'llari va bosqinlarga qanday ta'sir qilgani, bu esa o'z navbatida hind jamiyatining madaniy va ijtimoiy tuzilishini shakllantirgani haqidagi tushunchani aks ettiradi¹⁰². Hindistonning qirg'oqbo'yi mintaqalari va Xaybar dovonining boshqa sivilizatsiyalar bilan savdo va madaniy almashinuvni rivojlantirishdagi strategik ahamiyati shu nuqtai nazardan o'rganilishi mumkin.¹⁰³

Bilimlar sintezi: Beruniyning turli manbalar, jumladan, sanskrit tilidagi matnlar, mahalliy ma'lumot beruvchilar va o'z kuzatuvlaridan olingan ma'lumotlarni sintez qilish qobiliyati unga geografik omillarning hind jamiyatini shakllantirishda tarixiy va madaniy unsurlar bilan qanday o'zaro bog'langanligi haqida nozik tasavvur yaratish imkonini berdi.

Antropologiya va madaniyatshunoslikdagi meros: Beruniyning metodologiyasi va topilmalarini atrof-muhit kuchlari va insonning ushbu kuchlarga bo'lgan munosabati madaniy amaliyotlarni qanday shakllantirishini o'rganadigan madaniy

¹⁰¹ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 2-jild (Hindiston). Arabchadan A.Rasulov, Y.Hakimjonov, G'.Jalilov tarjimasida. So'zboshi va izohlar A.Irisovniki. Mas'ul muharrir G'.Jalolov va A.Irisov. – T.: "Fan", 1965. – B.158.

¹⁰² Дьяконов М. Рецензия на книгу: Райнов Т. Великие учёные Узбекистана (IX–XI вв.). – Т.: УЗФАН, 1943// Вопросы истории. 1946. № 2–3. – С. 145.

¹⁰³ Ирисов А. Беруний ва Ҳиндистон. – Т.: ЎзФА нашриёти, 1963. – Б.7.

ekologiyaning antropologik kontsepsiyasining oldingi qismi sifatida ko'rish mumkin.¹⁰⁴ Uning ishi geografiya, madaniyat va jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni tushunish uchun dastlabki asoslarni yaratdi, bu zamonaviy antropologiya va madaniyatshunoslikning markaziy mavzusi bo'lib qolmoqda.

Beruniy Hindistonni tushunishda to'siq bo'lgan bir qancha "to'siqlarni" muhokama qildi. Ulardan birinchisi til edi. Uning fikricha, Sanskrit tili arab va fors tillaridan shunchalik farq qilganki, g'oya va tushunchalarni bir tildan boshqa tilga osonlikcha o'girib bo'lmaydi. U aniqlagan ikkinchi to'siq diniy e'tiqod va urf-odatlardagi farq edi. Mahalliy aholining o'z-o'zini singdirishi va natijada izolyatsiyasi uchinchi to'siq bo'ldi. U bu muammolardan xabardor edi, shuning uchun Beruniy deyarli faqat Brahmanlik asarlariga bog'liq bo'lib, ko'pincha Vedalar, Puranalar, Bhagavad Gita, Patanjali, Manusmriti va boshqalardan parchalarni keltirib, hind jamiyati haqida tushuncha beradi¹⁰⁵.

Hindistondagi tabaqalanish va ularning tasnifi. Beruniyning Hindistondagi tabaqalar tizimi haqidagi ma'lumotlari "Kitob al-hind" nomli asosiy asarida batafsil bayon qilinganidek, hind jamiyati ichidagi va undan tashqaridagi ijtimoiy tabaqalanishni har tomonlama va qiyosiy tahlil qiladi. Uning kuzatishlari Hindistonning asosiy ijtimoiy tuzilishini tavsiflovchi murakkab ijtimoiy ierarxiyani yoritib beradi, u ijtimoiy bo'linishning universal jihatlarini ta'kidlash uchun uni boshqa jamiyatlar bilan sinchkovlik bilan taqqoslagan. Beruniy tavsifi qadimgi hind yozuvlarida ildiz otgan kasta tizimining ierarxik tabiatini ta'kidlaydi. Ushbu tizim an'anaviy ravishda to'rtta asosiy toifaga yoki "varnalarga" bo'linadi: 1) brahminlar: eng yuqori kasta deb hisoblangan ruhoniylar sinfi Purusha yoki Brahmanning boshidan kelib chiqqan deb ishoniladi, bu ularning intellektual va ruhiy yetakchilar rolini ramziy qiladi; 2) kshatriyalar: Purushaning qo'llaridan kelgan jangchi va hukmron sinf ularning himoya va boshqaruvdagi rolini bildiradi; 3) vaishyalar: Purushaning sonlari bilan bog'liq bo'lgan savdogar va qishloq xo'jaligi sinfi, ularning savdo va qishloq xo'jaligidagi rolini aks ettiradi; 4) shudralar: Purushaning oyoqlari bilan bog'liq bo'lgan eng past kasta, ularning jamiyatdagi xizmatga yo'naltirilgan rolini ifodalaydi.

Qattiq ierarxik bo'linishlarga qaramay, Beruniy turli kastalar a'zolari bir xil jamoalarda birga yashashlarini ta'kidlaydi, bu hind jamiyati ichidagi ijtimoiy o'zaro ta'sirlar va o'zaro bog'liqliklarning murakkab tarmog'ini ko'rsatadi¹⁰⁶. Beruniyning hind kasta tizimini boshqa madaniyatlardagi ijtimoiy tuzilmalar bilan, masalan,

¹⁰⁴ Носирходжаева Г.А. Проблемы историко-философской мысли в трудах Беруни. Дисс. канд. филос. наук. - Ташкент, 1999. - 156 с.

¹⁰⁵ Khan M.S. "Al-Biruni and the Political History of India". Oriens. 25/26. – В. 86–115.

¹⁰⁶ Машарипова Г.К. Беруни об измерении размера Земли //Современные гуманитарные исследования. 2011. №. 4. - С. 29.

qadimgi fors sinf tizimi bilan solishtirish usuli, uning ijtimoiy bo'linishning kengroq, universal doirasi doirasida hind ijtimoiy tabaqalanishini kontekstualashtirishga qaratilgan ilmiy urinishini ta'kidlaydi. Bu taqqoslash, kasta tizimi o'zining tafsilotlari va diniy asoslari bilan noyob bo'lsa-da, ijtimoiy tabaqalanish tushunchasi Hindistonga xos emas degan tushunchani ta'kidlaydi¹⁰⁷.

Beruniyning Hindiston kasta tizimi haqidagi kuzatishlari va tahlillarini umumlashtirganda, u mavzuga empirik qiziqish, qiyosiy tadqiqot va ijtimoiy tengsizliklarga tanqidiy qarash bilan yondashgani ko'rinadi. Uning ishi ijtimoiy hayotning har bir jabhasiga ta'sir ko'rsatgan qat'iy, irsiy ierarxiya bilan ajralib turadigan asosiy hind ijtimoiy tuzilishi haqida qimmatli fikrlarni taqdim etadi, shu bilan birga uni umuminsoniy ijtimoiy hodisalarning kengroq kontekstiga joylashtiradi va shu bilan insoniyat jamiyatlari haqidagi tushunchamizni boyitadi.

Beruniyning “Kitob al-Hind” asarida Hindistonning geografik va madaniy tushunchalari. Hindiston yarimorolining iqlim xilma-xilligi Beruniyning ilmiy qiziqishini o'ziga tortadi. U mavsumiy o'zgarishlarni, yog'ingarchilik shakllarini va musson shamollarining ta'sirini o'rganadi. Beruniy iqlimning qishloq xo'jaligi, savdo va odamlarning kundalik hayotiga chuqur ta'sirini tan oladi. Uning kuzatishlari oddiy meteorologik hisobdan tashqarida, iqlim madaniy amaliyotlar va ijtimoiy tuzilmalarni qanday shakllantirishini o'rganadi. Musson¹⁰⁸, ayniqsa, uning muhokamalarida asosiy element bo'lib, uning qishloq xo'jaligi kalendarlari va jamoalarning turmush tarzidagi rolini ta'kidlaydi¹⁰⁹.

Beruniyning “Kitob al-Hind” doirasida Hindiston yarimorolidagi ko'zga ko'ringan tog'lar, daryolar va iqlimni o'rganishi mintaqani belgilaydigan geografik xususiyatlarni yaxlit tushunish imkonini beradi. Uning diqqatli kuzatishlari nafaqat o'sha davrning ilmiy bilimlariga hissa qo'shadi, balki ushbu tabiiy elementlarning Hindiston yarimorolining madaniy va ijtimoiy tuzilishi bilan o'zaro bog'liqligini tushunish uchun asos yaratadi.

Aslini olganda, Beruniyning “Kitob al-Hind”da Hindistondagi turli madaniyatlar, tillar va dinlarni tan olishi uning keskin kuzatish qobiliyati va madaniyatlararo sezgirligidan dalolat beradi. Uning ishi kelajakdagi olimlar uchun Hindiston yarimorolidagi madaniy va diniy plyuralizmning murakkab dinamikasini

¹⁰⁷ Кочкорова Д.А. Научная деятельность Беруни как момент преемственной связи в развитии науки// Вестник Омского государственного университета. 2016. №. 1. - С. 287.

¹⁰⁸ Izoh - Janubiy va G'arbiy Osiyo mintaqasida may-sentyabr oylarida janubi-g'arbdan esayotgan va yomg'ir (ho'l musson) yoki shimoli-sharqdan oktyabr va aprel oylari orasida (quruq musson) olib keladigan mavsumiy shamol.

¹⁰⁹ Bachmann-Medic D. Cultural twists. New landmarks in the sciences of culture. Moscow, New literary review, 2017. - 502 p. (In Russian)

o'rganish uchun poydevor qo'yadi va bu jonli mintaqani tavsiflovchi murakkab mozaikani kengroq tushunishga hissa qo'shadi.

Beruniy Hindistonni tushunishda til farqlari va madaniy farqlar kabi ma'lum to'siqlarga duch kelgan bo'lsa-da, u mahalliy urf-odatlar, muqaddas bitiklar va urf-odatlarga singib, bu qiyinchiliklarni yengib chiqdi. Uning kasta tizimi bo'yicha kuzatishlari, garchi me'yoriy sanskrit matnlari ta'sirida bo'lsa ham, uning davrida Hindistonning murakkab ijtimoiy tuzilishi haqida tasavvur beradi.¹¹⁰ Hindistonni tushunishga qo'shgan hissasidan tashqari, Beruniyning kengroq ta'siri uning madaniyatlararo muloqot va bilim almashishga qaratilgan sa'y-harakatlaridadir. Uning turli jamiyatlar, jumladan, fors, yunon va hind jamiyatlari bilan uchrashuvlari uning intellektual izlanishlarini boyitdi va o'rta asrlar ilmining kengroq gobeleniga hissa qo'shdi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Abu Rayhon Beruniyning "Kitob al-hind" nomli monumental asari uning Hindiston yarimorolidagi insoniyat mavjudligining tabiiy-tarixiy va geografik asoslari va jamiyat dinamikasiga bo'lgan cheksiz qiziquvchanligi, chuqur aqliy qobiliyatidan dalolat beradi.

Beruniy Hindistonni tushunishda duch kelgan til farqlari, diniy xilma-xillik va mahalliy aholining o'zini o'ziga singdirishi kabi muammolar madaniyatlararo izlanishlar murakkabligini ta'kidlaydi. Uning Brahmanik matnlarga tayanishi, to'siqlarni tan olishiga qaramay, Hindiston jamiyati sirlarini ochishga bo'lgan fidoyiligini ko'rsatadi. Beruniyning tabaqa tizimini nozik talqin qilishi, uning mavjudligini e'tirof etishi, ifloslanishni ma'qullamasligi, uning ijtimoiy tuzilish va uning xilma-xilligi haqidagi murakkab tushunchasini aks ettiradi.

Beruniyning Hindistondagi brahmanlar jamiyati haqidagi taassurotlari bilan tanishar ekanmiz, biz uning hind diniy, falsafiy va astronomik matnlarni keng mutolaa qilishiga duch kelamiz. Uning hind va yunon tafakkuri, shuningdek, so'fiylik ta'limotlari o'rtasidagi taqqoslashlari uning intellektual ishtirokining chuqurligini ko'rsatadi. Beruniyning hindlarning son jihatdan ustunligini tan olishi va uning hind matnlarini arab tiliga tarjima qilishga qo'shgan hissasi uning madaniyatlararo bilim almashinuvini rivojlantirishga sodiqligini ta'kidlaydi.

Islom va hinduizm o'rtasidagi keskin tafovutlar oldida Beruniyning kamtarona yondashuvi va o'z bilimlarini baham ko'rishga tayyorligi ko'prik quruvchi munosabatni ochib beradi. Hindlarning tor fikrliligi boshqa madaniyatlarga ta'sir

¹¹⁰ Машарипова Г. К. Беруни об измерении размера Земли. Современные гуманитарные исследования. 2011. №. 4.- С. 29.

qilmaslikdan kelib chiqqanligini anglash ilohiy bahslardan tashqari kengroq istiqbolni ko'rsatadi.

Mohiyatan, Abu Rayhon Beruniy merosi zamondan oshib, Hindiston yarimorolida inson va jamiyat mavjudligining tabiiy-tarixiy va geografik asoslarini chuqur anglash imkonini beradi. Beruniyning "Kitob al-hind" asari bo'lajak olimlarni Hindistonning boy merosining ko'p qirrali gobelenlarini o'rganishga chorlovchi hamda bu jo'shqin va rang-barang mintaqada insoniyat sivilizatsiyasi genezisi haqida kengroq ma'lumot olishga hissa qo'shadigan abadiy manba bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 2-jild (Hindiston). Arabchadan A.Rasulov, Y.Hakimjonov, G'.Jalilov tarjimasida. So'zboshi va izohlar A.Irisovniki. Mas'ul muharrir G'.Jalilov va A.Irisov. – T.: "Fan", 1965. – 158b.
2. Пўлатова Д., Қодиров М., Аҳмедова М., Абдуҳалимов А., Шозамонов М. Фалсафа тарихи (Шарқ фалсафаси) Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2013. – В. 137-146.
3. Bachmann-Medic D. Cultural twists. New landmarks in the sciences of culture. - Moscow, New literary review, 2017. - 502 p. (In Russian)
4. Куранбаева У.С. Абу Райхан Беруни и его средневековая "Индия"// Alato Academic Studies, 2019, №. 4. - С. 214- 221.
5. Кочкорова Д.А. Научная деятельность Беруни как момент преемственной связи в развитии науки// Вестник Ошского государственного университета, 2016, №. 1. - С. 287 – 291.
6. Elliot, Henry Miers, Dowson, John. "1. Tārīkhu-l Hind of Bīrūnī". The History of India, as told by Its own Historians. Vol. 2. - London: Trübner, 1871. & Co. OCLC 76070790 <https://www.wikiwand.com/vi/Al-Biruni>
7. Ахмедов Т.Н. Беруний асарларида дин муаммолари. Дисс. канд. филос. наук. - Тошкент, 1994.- 122б.
8. Жўрақулов Ф.Н. Абу Райхон Беруний табиий - илмий ва ижтимоий - фалсафий меросининг ғарб олимлари томонидан тадқиқ этилиши. Дисс. канд. филос. наук. - Ташкент, 2008. – 160с.
9. Машарипова Г.К. Беруни об измерении размера Земли// Современные гуманитарные исследования, 2011, № 4. - С. 29 - 31.
10. Verdon Noémie. "Cartography and Cultural Identity: Conceptualisation of al-Hind by Arabic and Persian writers". In Ray, Himanshu Prabha (ed.). Negotiating Cultural Identity: Landscapes in Early Medieval South Asian History// Archaeology and Religion in South Asia. Routledge., 2015. ISBN 978-1-317-34130-7.

11. Дьяконов М. Рецензия на книгу: Райнов Т. Великие учёные Узбекистана (IX–XI вв.). Т.: УзФАН, 1943// Вопросы истории. 1946. № 2–3. - С. 144 - 145.
12. Носирходжаева Г.А. Проблемы историко-философской мысли в трудах Беруни. Дисс. канд. филос. наук. - Ташкент, 1999. - 156 с.
13. Strohmaier G. The Picture of the World in al-Bīrūnī's Pharmacognosy'European Review, 2008. Vol. 16. No. 2. - P. 242.

ABDULHAMID CHO‘LPON HIKOYALARINING BADIYYATI

Umarov Davron Odiljon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti Adabiyotshunoslik kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning XX asr birinchi yarmida ijod qilgan bir qator nasriy asarlarining o‘ziga xos jihatlari haqida fikr yuritildi. XX asr 20-30-yillar adabiyotidagi bir qator masalalar yoritildi.

Kalit so‘zlar: hikoya, qahramon, personaj, obraz, estetik kategoriya, janrlar sistemasi, sotsialistik metod.

ИСКУССТВО РАССКАЗОВ АБДУЛХАМИДА ЧОЛПАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены особенности ряда прозаических произведений, созданных сыном Абдулхамидом Сулейманом Чолпаном в первой половине XX века. Освещен ряд проблем литературы 20-х и 30-х годов XX века.

Ключевые слова: рассказ, герой, персонаж, образ, эстетическая категория, жанровая система, социалистический метод.

THE ART OF ABDULHAMID CHOLPAN'S STORIES

ABSTRACT

In this article, the specific aspects of a number of prose works created by Abdulhamid Suleiman's son Cholpan in the first half of the 20th century were discussed. A number of issues in the literature of the 20s and 30s of the 20th century were covered.

Key words: story, hero, character, image, aesthetic category, system of genres, socialist method.

KIRISH

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon XX asr o‘zbek adabiyotining eng mashhur namoyandalaridan biri hisoblanadi. Uning hayoti va ijodiy faoliyati adabiyotimizning eng yorqin sahifalaridan birini tashkil qiladi. U badiiy ijodning deyarli hamma turi bilan faol shug‘ullandi. Jumladan, she‘r, hikoya, roman, drama, tanqid, tarjima — hammasida ijod etdi. Lekin, birinchi navbatda, yangi o‘zbek she‘riyatining asoschisi bo‘lib tarixga kirdi.

Ijodkorning hayot yo‘liga nazar soladigan bo‘lsak, «Cho‘lpon» taxallusi bilan shuhrat qozongan Abdulhamid Sulaymon 1897-yilda Andijon shahrining Qatorterak mahallasida dunyoga keldi. Otasi Sulaymon Mulla Muhammadyunus o‘g‘li bazzoz

edi. Bazzoz — gazlamafurush degani. Taxmin qilish mumkinki, oila o‘ziga to‘q bo‘lgan. Ma’lumotlarga qaraganda, Sulaymon bazzoz zamonasining ko‘zi ochiq ziyolilaridan bo‘lib, «Rasvo» taxallusi bilan she’rlar yozgan, hatto devon tartib qilgan. O‘g‘li Cho‘lpon bilan she’riy yozishmalari bo‘lganini naql qiladilar. Bundan tashqari bo‘lajak adib xonadonida zamonning olim-u fozillari tez-tez bo‘lib turganlar.

Keyinchalik *bo‘lajak adibning shakllanishida ayricha rol o‘ynagan hodisalardan biri uning Zaki Validiy (1890-1970) bilan tanishuvi bo‘ldi. 1912-yilda Zaki Validiyning «Turk va tatar tarixi» degan kitobi bosiladi. Kitob qisqa muddatda katta shuhrat topadi. «Turk yurdu» (Turkiya), «Tarjimon» (Qrim), «Vaqt» (Orenburg) maqolalar beradi. Mashhur Bartold esa muallifni Peterburgga taklif etadi. Qozon universiteti tarix va arxeologiya jamiyatiga a‘zo qilib oladi. Turkistondan taniqli ma’rifatchi Ashurali Zohiriy va Qo‘qon xoni og‘aliqzodasi Yunus Hoji Og‘aliqov Zaki Validiy bilan yaqindan tanishish va suhbatlashish uchun Boshqirdistonga boradilar. Behbudiy Turkiston tarixini yozishni birgina unga ishonib topshirish mumkinligini matbuotda yozib chiqadi va yosh olimni Samarqand madrasalariga taklif etadi.*¹¹¹ 15 yashar Abdulhamid ham bu kitobni o‘qib, ta’sirlanib, muallifiga minnatdorchilik maktubi yozadi va Andijonga taklif etadi. Bu voqealardan keyin taqdir taqozosi bilan Qozon universiteti Zaki Validiyi 1913-yilning oxirlarida Farg‘ona vodiysiga ilmiy safarga yuboradi. Olim Andijonda ekan, Nazir To‘raqul bilan birga Abdulhamidlar uyida bo‘ladi va bu aloqa Zaki Validiy yashirin faoliyatga o‘tgan 1920-yilga qadar davom etadi. Ijodkor ijodining ilk kurtaklari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, Cho‘lponning matbuotdagi dastlabki she’r va maqolalari 1914-yildan boshlab ko‘rinish beradi. O‘sha davrdagi mashhur «Sadoyi Turkiston» gazetasi 1914-yil 14-aprel sonida «15 yashar Abdulhamid afandi»ning «Turkistonli qardoshlarimizga» she’rini mushtariylariga havola etar ekan, o‘quvchilarni «yoshgina qalbi ila yorug‘lik va ilm-maorif yo‘liga boshlagan»idan mamnunligini yashirmagan va uning kelajagiga katta umid bildirgan edi. Mutaxassislarining aniqlashlaricha, «Sadoyi Turkiston»ning 1914-yil 29-aprel sonida chop etilgan «Qurboni jaholat» hikoyasi Cho‘lponning birinchi nasriy asaridir. Dastlabki asarlari «Abdulhamid Sulaymon», «Abdulhamid Sulaymoniy» imzolari bilan bosildi. Keyinchalik, «Qalandar», «Mirzaqalandar» va nihoyat, «Cho‘lpon» taxalluslari ostida ijod qildi. Va adabiyotimiz tarixiga Cho‘lpon nomi bilan kirdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Professor Ozod Sharafiddinov Cho‘lponning 1924-yilda Moskvada Maorif uyi qoshidagi yosh o‘zbek artistlarining mahoratini oshirish uchun tashkil qilingan

¹¹¹Қосимов Б ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: Маънавият, 2004. – Б. 274

dramatik studiyaning adabiy yetakchisi va rahbarlaridan biri bo'lganini ma'lum qiladi. Zaki Validiy: «...so'ng zamonlarda Moskvada adabiyot va san'at instituti yoxud akademiyasida ham tahsil olgan», deb aytib o'tganki, har ikki ma'lumot mazmuna bir-biriga yaqinligiga guvoh bo'lamiz. Bu yillar, darhaqiqat, Cho'lpon uchun tahsil yillari bo'ldi. Moskva adabiy-madaniy muhiti bilan yaqindan tanishdi. Bundan tashqari teatr va teatrchilik sirlarini o'rgandi. 1926-yilda uchinchi she'riy to'plami «Tong sirlari» va «Yorqinoy» pyesasi chop etildi. Bu davrga kelib u zamonasining eng mashhur shoiri bo'lib tanildi.

Abdulhamid Cho'lpon adabiy merosining umumiy ko'lami haqida ma'lumotlar bo'lsa-da, ularning barchasi hali bir joyga to'planishi u yoqda tursin, ayrimlari aniqlanish bosqichida turibdi. Shunday bo'lsa-da, ijodkor asarlari uch tomligining nashr qilinishi va bulardan ikkitasining o'quvchilar qo'liga tekkanligi muhim hodisa bo'lib, muallif ijodi haqida fikr yuritishga bemaolol imkoniyat beradi. Jumladan, 1-jildidan shoirning «O'zbek yosh shoirlari» (1922) to'plamiga kirgan 14 ta she'ri va «Uyg'onish» (1922), «Buloqlar» (1923), «Tong sirlari» (1926), «Soz» (1935) va turli davr matbuotida e'lon qilingan she'rlar, jami — 252 she'r o'rin olgan. Shunga qaramasdan, bu adib she'rlarining tugal nashri emas, albatta. Goh-goh matbuotda yangi topilgan she'rlari e'lon qilinib turibdi.

Cho'lponning adabiyotimiz tarixidagi yana bir katta xizmati an'anaviy mumtoz she'riyatimizni isloh qilganidir. Undagi sirlilik, qo'lyetmaslik, tantanavorlik, nuqtapardozlik o'rniga samimiy, tabiiy, jonli ifoda usulini olib kirdi. Ma'shuqa tavsifi va hol sharhini yangi asoslarga ko'chirdi. Voqelik uning uchun ham asosiy tasvir obyekt, ham uni baholaydigan mezon edi. She'riyat hech qachon kundalik xalq hayotiga bu qadar yaqin kirib bormagan edi. Xalq hayotida yuz bergan har bir hodisa unda o'sha zahotiy o'q aks sado topdi. Har bir hodisa Vatan va Millatning manfaati nuqtayi nazaridan yoritildi. Zamon qorishi edi. Bir tomondan, mustabid chor hukumati qulab, tarix mustamlaka zulmini tortib kelgan millatlarga o'z mustaqilliklarini o'rnatish uchun buyuk bir imkon berdi. Ayni paytda, sho'rolar ijtimoiy ozodlikni, yo'qsulparvarlikni bayroq qilib, mehnatkash Turkiston qalbini zabt etmoq uchun kurashni kuchaytirdilar. Va bunga erishdilar. Hokimiyat garchi bolsheviklarga 1917-yilning noyabrida o'tgan bo'lsa-da, uning o'rnatilishi, tabiiyki, uzoq va shiddatli qurashlar ostida kechdi. Sho'rolar bu sanani, ya'ni «sotsializm tomon buyuk burilish»ni 1929-yil deb belgilaydilar. Shungacha bo'lgan davr o'tish davridir. O'tish davrining o'z xususiyatlari bor, albatta. Masalan, o'zbek milliy she'riyati ifoda va timsollar tizimida oshkoralikdan pinhoniylikka, ohangda esa, keskinlikdan murosaga tomon borgani ko'riladi. Shunga ko'ra, she'riyatimizda 10-

yillarda xitob va chaqiriqlar kuchli bo'lsa, 20-yillarda ramziy timsollar, imo-ishoralalar ko'p degan xulosa chiqadi.

Ma'lumki Cho'lpon nosir sifatida ham adabiyotimiz tarixida alohida o'rin tutadi. Adibning uch jildlik to'plamining 2-jildiga uning mashhur «Kecha va kunduz» romani bilan birgalikda turli davrlarda yozilib chop etilgan 13 ta hikoyasi ham kiritilgan. Ular orasida 1914-yilda e'lon qilingan ilk hikoyalari «Qurboni jaholat» va «Do'xtur Muhammadyor» hikoyalardan sovet davrida bosilgan «Kileo'patra» asarigacha bor.

Tadqiq etmoqchi bo'lganimiz, Cho'lpon nasriy asarlarining badiiyati, janr xususiyatlari haqida so'z borarkan, avvalo, bu boradagi adibning o'z fikrlariga to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Adabiyotshunosligimizda «Qurboni jaholat»ning janrini Cho'lponning o'zi «felyeton» deb belgilaganiligini ko'rishimiz mumkin. Bu haqida adabiyotshunos S.Mamajonov: «*Garchand «Qurboni jaholat»ni yozuvchining o'zi felyeton desa-da, asl mohiyatiga ko'ra hikoyadir. Cho'lpon uning tanqidiy ruhidan kelib chiqib felyeton belgilagan bo'lishi mumkin*»¹¹², – degan fikrlarni bildirgan. Bu fikrlarga qo'shilganimiz holda «felyeton» masalasiga aniqlik kiritib o'tsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Hikoya e'lon qilingan «Sadoi Turkiston» gazetasining 1914-yil 6-soniga nazar soladigan bo'lsak, katta harflar bilan «felyeton» deb yozilganligi va ikki tarafidan naqsh bilan bezatilganligi; ostida kichikroq harflar bilan hikoya nomi — «Qurboni jaholat» yozilganligiga guvoh bo'lamiz. *Odatda janr belgilanganda sarlavha ostiga yozilar edi. Ehtimol, u paytlar bu narsa rasm bo'lib ulgurmagandir? Gazetalar taxlamini varaqlashda davom qilsak, 24-sonda yana yuqoridagicha tartibda yozilgan «felyeton» so'ziga duch kelamiz. Uning ostida hikoya nomi — «Do'xtur Muhammadiyor», sarlavha ostida esa yana ham kichikroq harflar bilan «xayoliy hikoya» deb yozilgan.*¹¹³ Bu kuzatishlardan so'ng, tabiiy savol tug'ildi: agar Cho'lpon «Qurboni jaholat»ni tanqidiy ruhidan kelib chiqib «felyeton» desa, unda nega keyingi hikoyasining janrini ham shunday belgilaydi? Bundan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, «Do'xtur Muhammadiyor» sarlavhasi tepasidagi «felyeton» so'zi uning janriga ishora qilmaganidek, avvalgi hikoya e'lon qilingan sondagi «felyeton» so'zi ham Cho'lponga aloqador emas degan fikrga borish mumkin. Jumladan, «felyeton» so'zi o'zining dastlabki paydo bo'lgan vaqtdagi ma'nosidan hozirgi kundagi ma'nosi farqli ekanligida ko'rinadi. Fransuz matbuotda ilk bor 1800-yil 28-yanvarda paydo bo'lgan bu atama frantsuzcha «vara» so'zidan kelib chiqqan edi. . O'shanda «Jurnal de deba» nomli Parij gazetasi birinchi marta gazetada

¹¹² Мамажонов С. "Ўзбек тили ва адабиёти" журнали. // 1991. N 6.- Б.5

¹¹³ Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т.: «Шарқ», 2004. – Б. 40.

qo‘shimcha varaq ilova qildiki, shundan so‘ng, bu gazetaning «felyeton» nomli yangi rukniga asos solindi. Asos solinishi bilan *Yevropa matbuotida tez ommalashib ketgan bu rukn ostida odatda, nosiyosiy, norasmiy materiallar: e‘lonlar, moda yangiliklari, teatr taqrizlari, hikoya va hatto romanlar e‘lon qilina boshlandi. Atamaning hozirgi ma‘noda qo‘llanishi, publitsistikaning ijtimoiy-siyosiy tanqid ruhidagi alohida janrini anglata boshlashi esa XIX asr adog‘iga to‘g‘ri keladi.*¹¹⁴

Dilmurod Quronovning «Cho‘lpon nasri poetikasi» kitobidagi fikrlarga qo‘shilgan holda, yuqorida tilga olingan har ikki hikoya e‘lon qilinganida uchratganimiz «felyeton» so‘zi Cho‘lponga taalluqli bo‘lmay, balki gazeta tahririyatiga tegishli degan xulosaga kelish mumkin. Tahmin qilish mumkinki, jadid namoyondalari o‘z gazetalari orqali shu nom ostida rukn tashkil qilganlar-da, atamaning har ikki ma‘nosini nazarda tutishgan.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa chiqadi, janrini bevosita Cho‘lponning o‘zi belgilagan ilk asar «qurboni jaholat» emas, balki «Doktor Muhammadiyor» bo‘lib chiqadi. Yuqorida ta’kidlangandek *Cho‘lpon asar janrini «xayoliy hikoya» deb belgilaganida unda yaratilgan badiiy voqelik bilan real voqelik munosabatidan kelib chiqadi.*¹¹⁵ Shuni ta’kidlash kerakki, Cho‘lpon adabiyot maydoniga madrasa tahsilini, rus-tuzem maktabi saboqlarini olib kirib kelgandi. Adibni yaqindan bilgan zamondoshlari uning yoshlik yillari o‘z ustida qattiq ishlagani, juda ko‘p mutolaa qilganini eslashadi. Fikrimizcha, Cho‘lpon faqat ijtimoiy-siyosiy yoxud badiiy asarlar o‘qish bilangina cheklanmasdan, adabiyotshunoslikka oid asarlar bilan ham tanishganini anglash qiyin emas. Bunday fikrga kelish uchun, adibning ayrim asarlari janrini belgilashdagi aniqlik asos bo‘ladi. Bunga yana bir misol qilib, «Turkiston» gazetasining 1922-yil 23-sonida e‘lon qilingan «Oktyabr qizi» nomli nasriy asari janrini Cho‘lpon «doston» deb belgilaganini keltirishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мамажонов С. "Ўзбек тили ва адабиёти" журнали. // 1991. N 6.
2. Қосимов Б ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: Маънавият, 2004.
3. Қуроноф Д. Чўлпон насри поетикаси. – Т.: «Шарқ», 2004.
4. Umarov, D., & Tojimatova, Z. (2023). INTERPRETATION OF THE HERO OF A LITERARY WORK. *Modern Science and Research*, 2(6), 1104-1106.

¹¹⁴ Yuqoridagi manba. – B. 41-42

¹¹⁵ Yuqoridagi manba. – B. 42-43

5. Umarov, D. (2023). THE IMPORTANCE OF LITERARY CRITICISM ARTICLES IN LITERARY STUDIES. *Modern Science and Research*, 2(6), 848-853.
6. Tojimatova, Z., & Umarov, D. (2023). THE HISTORY AND DEVELOPMENT OF "WOMEN'S LITERATURE" IN LITERARY STUDIES. *Modern Science and Research*, 2(6), 1099–1103. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/scienceresearch/article/view/21485>.
7. Umarov, D. (2023). BRIGHT MANIFESTATIONS OF UZBEK PROSE OF THE SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY. *Modern Science and Research*, 2(6), 842– 847. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/21238>
8. Umarov, D. (2023). THE FIRST STAGES OF UZBEK STORYTELLING. *Modern Science and Research*, 2(6), 854–859. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/21240>
9. Odiljon o'g'li, U. D. (2023). ADABIY ASAR QAHRAMONI TALQINIDAGI O 'ZIGA XOSLIKLAR. *IQRO*, 2(2), 777-785.
10. Baxtiyorjon o'g'li, S. J. (2023). SHARQ AGIOGRAFIYASI RIVOJIDA SIYRA JANRINING AHAMIYATI. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 2(14), 38-41.

IBN SINA'S TEACHINGS ON SUFISM

Buriev Israil Ismailovich

Karshi Engineering and Economic Institute

Assistant at the Department of Social Sciences

ABSTRACT

The article is devoted to the study of the scientific work of Ibn Sina, one of the great thinkers from. Based on the analysis of the perfect human being, who has taken his rightful place in the history of Sufism, the scientist's Sufi views were illuminated.

Keywords: *Perfect Man, Spirit, Matter and Form, Metaphysics, Korben, Primordial Consciousness, Holy Spirit, "Healing" and "Salvation", Man.*

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена изучению научного творчества Ибн Сины, одного из великих мыслителей. На основе анализа совершенного человека, занявшего достойное место в истории суфизма, были освещены суфийские взгляды учёного.

Ключевые слова: *Совершенный Человек, Дух, Материя и Форма, Метафизика, Корбен, Изначальное Сознание, Святой Дух, «Исцеление» и «Спасение», Человек.*

INTRODUCTION

Researchers interpret Ibn Sina's appeal to Sufi topics in the last period of his life in different ways. At the same time, the Sufi hobby was not something unusual and accidental for the scientist. Historical facts and writings of Ibn Sina testify that he was interested in Sufi teachings, he was personally acquainted with many of them, and even made friends with some of them. The teachings of Aristotle had a great influence on the mystical worldview of Ibn Sina. Because of its versatility and scope, it became a model for later scientists and philosophers. According to the teachings of Aristotle and his supporters, the ideologically created current led to the formation of a philosophical school - the school of peripatetism. The influence, importance and glory of this school were equal to Plato's academy. The sphere of influence of the teachings of Aristotle found its supporters in the intellectual environment of the medieval Islamic civilization, the ideas of the Thinker were revived in another socio-cultural environment, called "Eastern peripatetism".

During this period, the scientific legacy left by the great sages was a huge scientific treasure for their followers and an important fundamental basis for the development of their views, schools and heritage. The legacy of Al-Kindi, Ibn Maji,

Farabi, Ibn Rushd and other thinkers has become the property of human culture. One of the most prominent representatives of this school is Abu Ali ibn Sina. He not only mastered, restored and spread the teachings of Aristotle, but also managed to stand next to his great predecessors in the critical perception and development of this teaching. Along with the study of the heritage of Arsat, the thinker absorbed into the formation of his philosophical outlook all the achievements of ancient culture and science, famous Greek philosophers, various schools and branches of knowledge, including physics, mathematics, and medicine. No wonder Ibn Sina often refers to them in his works. Ibn Sina's theory of knowledge analyzes his metaphysics. "In his metaphysics, Ibn Sina shows the highest level of knowledge that humanity has ever achieved. The ontology of the thinker also considers cognition because it studies the human mind. - an intellectual who sees the ideal of human perfection in correct, impartial knowledge, and such thinking is also present in Farabi. "says J. Verbeck. Metaphysics of Ibn Sina draws final conclusions in comparison with other sciences and represents an active mind and thinking and is in constant contact with the world. Metaphysics not only studies the material existence that we perceive through our senses, but also looks for the reasons for the existence of the Universe, because of which everything ending with the existence of an existing root cause. According to Ibn Sina, metaphysics has two aspects: first, it studies existence and the first cause; secondly, he studies knowledge because he tries to discover the end point of all human knowledge.

You can understand the essence of the theory of knowledge on the basis of Ibn Sina's treatise "Soul". The scientist examines in detail the different levels of cognition, paying special attention to external sensations and rational cognition. Perceived forms are the object of rational cognition, but are not the simple result of the process of abstracting sensory information, and this is called a separate active consciousness, or the Latin term "dator formarum" is used, which means "former" or "former". It is from this higher principle that the substantial forms participate in the creation of the subconscious world, and from it the visible forms arise. Verbeck asks about the place of man in this process of cognition. Everyone has the ability to perceive tangible forms through active consciousness, but to varying degrees. Most importantly, according to Ibn Sina, this ability was possessed by the prophets and Gnostics, who possessed holy power or heavenly (divine) consciousness.

DISCUSSION AND RESULTS

They differ from others in their talents, which are associated with the root cause. Others display this ability in an imperfect form. To some extent, they achieve this by

studying the material world. An active consciousness illumines tangible forms by means of soul forces which serve to comprehend tangible forms. Perception or thought process is one of the activities of the individual, but the tangible form is one of the activities perceived by the transcendental consciousness. Emotional cognition plays only the role of propaedeutics for the realization of the ability of cognition. It prepares the soul for the perception and mastery of material forms associated with material things. In the teachings of Ibn Sina, the universal refers to tangible objects from the data cannot be isolated, it is not the result of a complete processing of the subject of knowledge. Its importance is provided by the highly sensitive source from which it originates. Based on this teaching, the question of Ibn Sina about empiricism and nominalism is removed. Thanks to active consciousness, human knowledge is not limited to the influence of the senses. The universal is not limited to general concepts, because it arises from the root cause from which substantial forms arise in the existence of the subconscious world. Therefore, conceptualism has no basis. J. Verbeck, analyzing the ideas of Ibn Sina, writes that he (Ibn Sina) is not, first of all, an empiricist: he does not connect human perception with emotional actions, and for him the role of emotion is seen only in the preparation for the perception of material forms by the soul, arising from active consciousness. According to Verbeck, Ibn Sina is also not a nominalist: general terminology is not just general names that allow us to group and classify particular things. Verbeck explains that Ibn Sina was not a conceptualist either. It is known that universals are not derived from the meaning of tangible things, but it cannot be denied that the correspondences between logic and reality are determined by active consciousness. Hence, in turn, there are substantial forms and objects of sensory perception.

REFERENCES:

1. Shodiev R. Sufism in the spiritual life of the peoples of Central Asia (IX-XIII centuries). - Tashkent, 1993. -S. 41
2. Aristotle. About the soul. Op. In 4 vols. T.1. M.: Thought, 1975.- S. 448.
3. Aristotle. Metaphysics. Op. In 4 vols. T. 1. M. : Thought, 1975.- P.367
4. Aristotle. Nicomachean ethics. Op. In 4 volumes. V.4. M.: Thought, 1983.- S. 430
5. Anthology of world philosophy. In four volumes. - T.1. — Philosophy of antiquity and
6. Ibn Sina. (Avicenna) Favorites. M.: Book, 1980. - 332 p.
7. Ibn Sina. "Treatise on definitions / Translated from Arabic by S. Sulaimonov. - Dushanbe: Donish, 1991 - 83 p.

8. Ibn Sina. Biography. // Abu Aln ibn Sina. Selected works. T. 1. - Dushanbe: Irfon, 1980.- S. 55-66 p.
9. Ibn Sina. Danish-name // Abu Ali ibn Sina. Selected works. -T. 1.- Dushanbe: Irfon, 1980.-p.202.
10. Ibn Sina. Instructions and instructions // Abu Ali ibn Sina. Selected works. T. - Dushanbe: Irfon, 1980.- S. 202 - 255.
11. Ibn Sina. Lighting. // Abu Ali ibn Sina. Selected works. -T. 1.- Dushanbe: Irfon, 1980.- From 327 364 p.
12. Ibn Sina. About the Soul // Ibn Sina Avicenna. Selected Philosophical Works. - M.: Nauka, 1980. S. 383 - 521.
13. Ibn Sina. Treatise on birds // Ibn Sina. Selected. - M .: Book, 1980.138 p.
14. Ibn Sina. Canon of medical science, vol. 1 - 5. Per. M. A. Salie and others. Tashkent, 1954-1961.
15. Ochilova N.R. How to influence your attitude towards a person. Academy.Scientific methodical magazine. № 11 (50), 2019 18-21 Russian impact factor: 0.19 ISSN 2412-8236 (Print) ISSN 2542-0755 (Online)
16. Ochilova N. R. The main features of western europe medieval, modern philosophy and philosophical views in the 9th-12th centuries in central asia. Journal of Critical Reviews . ISSN-2394-5125. Vol 7, Issue 14, 2020. 193-199. DOI:<http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.14.34>
17. Ochilova N. R.. East And West: Integration And Cooperation In The Process Of Globalization. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2020.2(11),543-546.
18. Ochilova N. R. The role of aesthetics in shapingthe yogeneration. Multidisciplinary ResearchSJIF Impact Factor :5.614ISI I.F. Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal March 2020. 123-125
19. Ochilova N. R. The importance of understanding national identity in Education of the young neighboring. «scientific progress» Journal ISSN: 2181-601/////Volume:1,ISSUE:6 APRIL 2021. 209-214.www.scientificprogress.uz
20. Ochilova N. R. Problems of science № 3 (62), 2021 Russian impact factor: 0.17 Scientific methodical magazine. ISSN 2413-2101 (Print) ISSN 2542-078X Online) Moscow 2021. 37-41
21. Ochilova N. R. The Role of Aesthetics in Shaping the Younger Generation . International Journal of Academic Management Science Research (IJAMSR) ISSN: 2643-900X Vol. 5 Issue 2, February - 2021, Pages: 102-103. The Research Paper is Original and Innovative. It is Peer-Reviewed.Washington DC, USA <http://www.ijeais.org/ijamsr> ijamsreditor@gmail.com

22. Ochilova N. R.. The importance of spiritual education of young people with intellectual potential «scientific progress» Journal ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 5 march 2021. 251-254. www.scientificprogress.uz
23. Ochilova N. R. Journal [Book Reading-Young People as a Factor of Spiritual and Moral Growth](#). central asian journal of social sciences and history. 2022/11/17.T3,№11, p-116-118
24. Ochilova N. Yukh Manzarov. The development of aesthetic perception - Problems of Science, 2019, Publisher LLC "Olimp", No. 10 (46), 38-40
25. Ochilova N. R. Modern civilization: similarities and differences. Journal of the International Scientific-Practical Distance Conference. Publisher Scientific progress 2021. V.15, No. 15, pp. 24-26
26. Ochilova N. R. National problems in the light of modern trends in the process of globalization. - International Scientific and Practical Conference World science. ROST publisher. 2017, V.5, No. 4, r-11-13

O‘QUVCHILARNI TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA KOMPOZITSIYA TUZISHGA O‘RGATISH JARAYONLARI

B.M.Qurbonova

Farg‘ona davlat universiteti

Tasviriy san‘at kafedrası mudiri, p.f.b.f.d (PhD)

e-mail: barchinoy1802@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolaning mavzusi asosan, o‘quvchilarni tasviriy san‘at darslarida kompozitsiya tuzishga o‘rgatish jarayonlari, badiiy obrazdagi estetik sifatlari, kompozitsiyaning qoida, usullari, kompozitsiyaning ijodiy jarayonlari, estetik va badiiy did kabi jarayonlar haqida fikr yuritiladi

Kalit so‘zlar: kompozitsiya, estetik did, ijodiy jarayon, iste‘dod, qobiliyat, yaxlitlik, kontrast.

АННОТАЦИЯ

Тема статьи в основном касается процессов обучения студентов композиции на занятиях изобразительным искусством, эстетических качеств художественного образа, правил и методов композиции, эстетического и художественного вкуса

Ключевые слова: композиция, эстетический вкус, творческий процесс, талант, способности, целостность, контраст.

ABSTRACT

The subject of the article mainly concerns the processes of teaching composition to students in fine arts classes, the aesthetic qualities of the artistic image, the rules and methods of composition, the creative processes of composition, aesthetic and artistic taste.

Key words: composition, aesthetic taste, creative process, talent, abilities, integrity, contrast.

KIRISH

Kompozitsiya lotincha-tuzmoq ijod qilmoq degan ma‘nolarni anglatib, u ijod sohasining asosiy mantig‘i demakdir. Amaliyotda kompozitsiyaning zarur unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o‘xshatish, kontrast qonun vositalari mazmuni va g‘oyaga bo‘ysinish kompozitsiyaning asosiy qonunlari hisoblanadi. Bu qonunning belgilari E. Kibrikning kitobida to‘la va chuqur tahlil qilib berilgan. Kompozitsiyada yaxlitlik belgisi qonuniga rioya qilinganligi sababli, san‘at asari bo‘linmas bir butun bo‘lib ko‘rinadi. Kompozitsiya yaxlitligida kompozitsiya elementlari shakl, hajm, «dog‘», oraliq harakter nusxa, imo - ishora bilan ifodalanadi.

Badiiy obrazdagi estetik sifatlar, kompozitsiya yechimidagi yangiliklar rassom tomonidan kashf etiladi.

Estetik kashfiyotlarni Mikelanjelo, Titsian, Rembrantning o‘lmas asarlarida, A. Deyneka, A. Plastov, K. Yuon asarlarida kompozitsiya tuzilishining badiiy vositalaridan mavzuda yangilik tushunchasini ko‘ramiz. «Novizna» yangilik oqimini biz A. Kuindjining - «Qayinzorlar» manzarasida ko‘ramiz.

Kompozitsiyaning asosiy qonunlaridan biri kontrastlik qonunidir. Leonardo da Vinchi «Rangtasvir qonunlari» ilmiy asarida o‘lcham qarama - qarshiligi haqida, katta - kichik, past - baland, yupqa - qalin, harakter, faktura, materiallar kontrasti to‘g‘risida yozadi. Mikelanjelo tekislikdagi hajm kontrastlarga ko‘p ahamiyat beradi. Inson predmetlar shaklini faqat soya va yorug‘ kontrastlik orqali sezadi va o‘z ongiga singdiradi.

Portret janrida rassomlar qadimdan «ton kontrasti»dan foydalanib, yorug‘ figurani tasvirlashda to‘q fondan foydalanganlar. XIX asarda san‘at ustalari portretni yorug‘ fonda tasvirlay boshladilar B. Serovning «Qiz va shaftolilar» portretida, yuzi to‘q tUSDagi qiz, yengil yorug‘ deraza fonida tasvirlangan kompozitsiyasi bunga misol bo‘ladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Rangtasvirda kontrast qarama - qarshi issiq va sovuq ranglar mavjud, qarama - qarshi ranglar bir - biriga yonma - yon tursa, ranglar kuchi ko‘payadi: qizil - yashil, ko‘k - zarg‘aldoq, oq - qora va hakoza ranglar shular jumlasidan.

Kompozitsiyaning qoida, usullari. San‘at asarlarini tahlil qilganimizda, kompozitsiya qoida va usullari o‘z mohiyatini asta - sekin yo‘qotib, yangi kompozitsiya qoidalari paydo bo‘la boshladi. Badiiy asar yaratishda rassomlar tabiiy va ongli ravishda kompozitsiya qonunlariga rioya qilishadi. Har bir ijtimoiy - jamiyat san‘at oldida yangi zamonaviy vazifalarni ko‘ndalang qo‘yadi.

Hozirgi vaqtda biz kompozitsiyani nazariy asoslarini ikki guruhga ajratamiz. 1. Kompozitsiya qonunlari. 2. Kompozitsiya qoida va usullari.

Kompozitsiyaning asosiy usullaridan biri ritmni ifodalash, kompozitsiya mavzusi markazini aniqlash, simmetrik yoki assimetrik holati, massani ikkinchi plandagi kenglikdagi asosiy qurilmasini joylashtirish. Ritm hayotda va san‘atda mavjudligi rassom uchun yaxshi belgi, vositadir. U bir elementni oraliqda galma-gal qaytarilishidir. Asar g‘oyasini kompozitsiya tuzilishini idrok etishda ritm estetik obrazli tasavvur rolini o‘ynaydi va kontrast rang, ton qonunlariga suyanadi.

Kompozitsiyaning ijodiy jarayonlari. Tasviriy san‘at kompozitsiyasining qonun – qoidalaridan foydalanish ibtidoiy davrdan shakllangan. Tabiatga sergaklik bilan e‘tibor berib, barglar, shoxlar gullarni tuzilishini kuzatganlar, yil fasllarini takrorlanib

kelishi, kun va tunni farqlarini anglab tabiatdagi ritm va simmetriyani tuShunib etganlar. Masalan qadimgi greklarni releflarida ritm aniq sezilib turadi. «Kompozitsiya» ustida ishlash va barcha tayyorlov bosqichlari ijodiy jarayon hisoblanadi.

Ijod – bu inson ongining yuqori va murakkab darajasidir. Insonni bilim, malaka, xayotiy tajribalari natijasida tug‘iluvchi mo‘jizadir. Tasviriy san’atda ijodning natijasi badiiy asar yaratilishidan iborat.

Badiiy ijodning mohiyati, ijod faoliyatining tuzulmaviy faktorlarga bo‘linishi masalasida qiziqarli g‘oyalar L.G.Ermashning o‘tkazgan «San’atning ijodiy tabiati» tadqiqotida berilgan. Ijodning kuchi «Ruhiy va amaliy qobiliyatlar» - bu mehnat, ilxom, xotira, tafakkur, badiiy iste’dod, xayol, xissiyot kabilar yordamida amalga oshib boradi.

Tafakkur – ijod kuchlaridan biri bo‘lib, borliq haqida fikrlashda, tahlil qilishda idrok, sezgi, hissiyotni badiiy asar yaratish maqsadida yo‘naltirish. Badiiy asar inson faoliyatining boshqa soxalaridagi kabi tafakkurning mahsuli hisoblanadi. San’at asari faqat tasviriy vositalarni o‘z ichiga olibgina qolmay, balki g‘oyaviy – estetik mazmun, dunyoqarash, falsafiy tushinishni ham qamrab oladi.

Rassomning tafakkuri ijodiy karakteri bilan ajralib turadi, ijodiy hayol bilan birga harakatlanadi.

Insonning mehnat jarayonidagi eng ko‘tarinki ruhiy holatdir. Rassomning ijodiy mehnatida ilxomlanish, aktiv ijod kuchlaridan biri sifatida ahamiyatli rol o‘ynaydi. Ilxomlanish – ijodiy, ma’naviy, jismoniy jixatdan rassom uchun ijodiy vaziyat juda tez yechilgan bo‘ladi. Bunda rassomning ijodiy hayoli, tafakkuri faol ishlagan bo‘ladi.

Bilim, dunyo qarash, badiiy uslub, estetik va badiiy did, mahorat kiritiladi. Bilim ijodning asosiy bosh komponenti hisoblanib, uni egallash orqali sezgi, estetik his qilish, idrok, tafakkur, xotira, dunyo qarash, malaka, ijodiy uslubi, maxorat rivojlanib boradi. Rassom uchun bilim – bu hayotiy material, hayotni chuqur har tomonlama o‘rganish bo‘lib, usiz san’at asari yaratib bo‘lmaydi. Rassom har tomonlama hayotni yaxshi bilgan, bilimli, ziyoli inson bo‘lmog‘i lozim. Undan tashqari, u bilimni o‘zining hissiyotlari orqali umumlashgan shaklda badiiy obraz aks etdirmog‘i lozim. Bularning barchasi ijod komponentlari sirasiga kiradi.

Estetik va badiiy did ham dunyoqarash ham badiiy uslub bo‘lib, rassomning ma’lum alohida g‘oyaviy estetik ijodiy yo‘nalishini ko‘rsatadi. Estetik va badiiy did insonga tug‘ilganda berilmaydi, xuddi qobiliyattga o‘xshash, u insonning o‘sishi bilan rivojlanib boradi.

Mahorat – tasviriy san’atning zaruriy sharoitida namoyon bo‘luvchi shaxsning badiiy qobiliyati, ruxiy xususiyati va sifatlaridir. Mahorat Yuqori darajadagi bilim, tasviriy texnika, ko‘nikma, malakani mukammal egallamoqdir.

Quyidagilar kompozitsiya vositalari sifatida qo‘llaniladi. Chiziq, shtrix, rangli va tusli dog‘ (surtma) soya - yorut, rang, chiziqli, havo va rang prespektivalari kompozitsiyaning vositalaridir. Chiziqni esa tasviriy san’atning asosiy vositalaridan biri deyish mumkin. Undan uzoq muddatli, qisqa muddatli kompozitsiya eskizlarida foydalaniladi. Rassom qog‘oz yuzasida predmet shaklini ochroq, to‘qroq chiziqlar orqali ifodalashi mumkin. Kompozitsiya amalda dastlab qalamtasvirda bajariladi. Keyingi bosqichda shtrix chiziqlarni qalinligi orqali predmetlarni soya, yorug‘ joylariga shakl berib, chuqurlik, masofani ifodalashga beradi. Rang va tus kompozitsiya tuzishda muhim rol uynaydi. Asarda plastik hajm, chiziqli, havoyi, rangli perspektivalarni roli kattadir. Yuqorida biz kompozitsiyaning asosiy vositalarni qayd qilib o‘tdik.

Kompozitsiya kursining asosiy vazifasi talabalarda ijodiy fikrlashni, san’atni idrok etishni va tahlil qilishni, hayotni kuzatish va obrazli tasavvur etish, badiiy estetik did va madaniyatni shakllantirish, ularni badiiy - pedagogik faoliyatiga tadbiiq qilishdir. Kompozitsiya amaliy hamda nazariy qismdan iborat.

Nazariy ma’ruzalar auditoriyadagi amaliy mashg‘ulotlarni, uy vazifalarini ongli ravishda bajarishni talab etadi. Kirish qismida kompozitsiyaning asosiy qonun - qoidalari, usul va vositalarini o‘z ichiga oladi. Tasviriy san’atni janr turlaridagi kompozitsiyani o‘ziga xos muammolarini, san’at asarida mavjud qonun talablarini ifodalaydi.

Kompozitsiya nazariyasidagi bilimlarni chuqur o‘zlashtirishda, maxsus seminarlarni ahamiyati katga. Bulardan tashqari talabalarni mavzular asosida referat yozib ma’ruzalar bilan chiqishlari, ularni muhokama qilish yaxshi natija beradi. Amaliy qismida asosiy maqsad talabalarada ijodiy qobiliyattni shakllanishiga, hayotni kuzatish, uni tasviriy vositalar bilan aks ettirish, bosqichma - bosqich eksizini oxirigacha etkazishdan iboratdir. Amaliy mashg‘ulotlarda kompozitsiya eskizini mazmun g‘oyasini maqsad va vazifalarini ongli ravishda idrok etish muhimdir. Bajarilgan amaliy vazifalarni kamchilik va sabablarini muhokama qilib tuShuntirib ijodiy fikrlashni shakllantirish lozim.

XULOSA

San’at muzeylari, badiiy ko‘rgazma zallariga, ekskursiya, yetuk rassomlar bilan uchrashuvlar tashkil etish, ular bilan suhbatlar o‘tkazish, talabalarda badiiy didni boyitadi. Berilgan mavzu bo‘yicha eng «yaxshi kompozitsiya eskizi uchun» talabalar o‘rtasida konkurs e‘lon qilib yaxshi eskizlardan ko‘rgazmalar tashkil qilish,

g'oliblarni ragbatlantirish ijodiy samara beradi. Bu, yuqorida sanab o'tilgan tasviriy san'at turlarining har biri ijodkor tanlagan voqeylikni, mavzuni o'ziga xos vositalarda, badiiy tilda tasvirlaydi. Bu san'at turlari ichida eng keng tarqalgani nafis tasvir san'atidir.

Nafis tasviriy san'at - tasviriy san'atning bir turidir. Rassom bo'yoqlar va maxsus usullar yordamida jism hajmini tasvirlaydi. Nafis tasviriy san'at beshta elementlardan iboratdir. Bu elementlar buyum shaklini, rangini tushayotgan yorug'ni, yasalgan materialini, tasvirlanayotgan predmetni qanday sharoitda va muhitda ekanini tasvirlashda nomoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Siddiqov I.M., Igamberdiyev U.R. (2021). Pedagogika oliygohlarida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. *Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 1146-1163.
2. Muydinovich R.I. (2022). Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi tufayli paydo bo'lgan kasblar va ularni o'rganish. *Pedagogs jurnali*, 13(1), 117-122.
3. Kurbonova, B. (2020). THEORETICAL BASES OF THE ORGANIZATION OF DRAWING LESSONS IN HIGHER PEDAGOGICAL EDUCATION. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 254-257).
4. Курбонова, Б. (2020). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКА РИСУНКА В ВЫСШЕМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ. *ББК Ю953*, 254.
5. Kurbonova, B. M. (2023). OPPORTUNITIES AND TECHNOLOGIES FOR PREPARING FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS FOR THE FORMATION OF ELEMENTS OF ARTISTIC THINKING IN SCHOOLCHILDREN. *Academia Science Repository*, 4(04), 709-715.
6. Kurbonova, B. M. (2023). AESTHETIC PERCEPTION IS A PRODUCT OF ARTISTIC THINKING. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 3(26), 97-101.
7. Qurbonova, B., & Yo'ldasheva, G. (2023). TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA RANGLARNING 9. ILMIY-NAZARIY AHAMIYATINI O'RGANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 183-187.
8. Qurbonova, B., & G'ulomova, O. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA BADIY MATNNI TAHLIL QILISH METODIKASI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 750-752.

9. Mirzakhdamovna, Q. B. (2023). TECHNOLOGIES FOR TRAINING FUTURE VISUAL ARTS TEACHERS TO FORM ELEMENTS OF ARTISTIC THINKING IN SCHOOLCHILDREN. *Science and innovation*, 21.
10. Курбанова, Б. М. (2018). РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 65-66).
11. Kurbonova, B. M. (2023). OPPORTUNITIES AND TECHNOLOGIES FOR PREPARING FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS FOR THE FORMATION OF ELEMENTS OF ARTISTIC THINKING IN SCHOOLCHILDREN. *Academia Science Repository*, 4(04), 709-715.
12. Qurbonova, B., & Djuhanova, N. (2020). PSYCHOPHYSIOLOGICAL BASIS OF COLOR SELECTION IN YOUNG PEOPLE. *Theoretical & Applied Science*, (1), 27-37.
13. Мирзахамдамовна, Қ. Б. (2022). БЎЛАЖАК ТАСВИРИЙ САЊАТ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИДА БАДИИЙ ТАФАККУРНИ ШАКЛЛАНТИРИШГА ТАЙЁРЛАШ ШАКЛ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(5), 185-198.
14. Qurbonova, B. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА. *Theoretical & Applied Science*, (1), 608-614.
15. Qurbonova, B. M. (2022). ВО‘ЛАЖАК ТАСВИРИЙ САЊАТ О‘ҚИТУВЧИЛАРИ О‘ҚУВЧИЛАРНИНГ БАДИИЙ ТАФАККУРНИ ШАКЛЛАНТИРИШГА ТАЙЙОРЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 194-198.
16. Qurbonova, B. M. (2022). NAQSH KOMPOZITSIYASIDA RANG UYG‘UNLIGI. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 189-193.
17. Мирзахамдамовна, Қ. Б. (2022). БЎЛАЖАК ТАСВИРИЙ САЊАТ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИДА БАДИИЙ ТАФАККУРНИ ШАКЛЛАНТИРИШГА ТАЙЁРЛАШ ШАКЛ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(5), 185-198.

TABAQALASHTIRILGAN TA'LIM ORQALI O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

B.M.Qurbonova

Farg'ona davlat universiteti Tasviriy san'at kafedrasini mudiri,

p.f.b.f.d (PhD)

e-mail: barchinoy1802@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tabaqalashtirilgan ta'lim orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, darajali tabaqalashtirish, ixtisoslashtirilgan tabaqalashtirish, tabaqalashtirilgan guruhlar ta'limi, individuallashtirilgan ta'lim kabi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda fanga bo'lgan ko'nikma va malakalarini mustahkamlash haqida bayon qilinadi.

***Kalit so'zlar:** texnologiya, individual, tabaqalashtirish, ixtisoslashtirilgan, fakul'tativ, demokratiyalashtirilgan, malaka, fiziologik*

АННОТАЦИЯ

В данной статье описано развитие навыков логического мышления учащихся посредством дифференцированного обучения, закрепления их навыков и научно-научных компетенций с использованием таких педагогических технологий, ступенчатая дифференциация, специализированная дифференциация, дифференцированное групповое обучение, индивидуализированное обучение.

***Ключевые слова:** технология, личность, дифференциация, специализированная, факультативная, демократизированная, компетентность, физиологическая.*

ABSTRACT

This article describes the development of students' logical thinking skills through differentiated instruction, consolidation of their skills and scientific competencies using such pedagogical technologies as graded differentiation, specialized differentiation, differentiated group learning, individualized learning.

***Key words:** technology, individual, differentiation, specialized, facultative, democratized, competence, physiological.*

KIRISH

Umum ta'lim maktablarida tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali turlaridan biri hisoblangan tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyasi muhim ahamiyatga ega.

Tabaqashtirilgan ta'lim o'quvchilarning individual tarzda, shuningdek, guruhlariga ajratib o'qitish, ularning mustaqil ishlarini to'g'ri va maqsadga muvofiq tashkil etish orqali barcha bilim va malakalarini dinamik rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunda o'qituvchi har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati, layoqatini hisobga olib, mashg'ulotlarni tashkil etish orqali dars samaradorligini oshirishiga erishadi.

Ma'lumki, barcha o'quvchilarda qobiliyatlar, fan qiziqishlari, psixologik va estetik xususiyatlari turlicha bo'lganligi sababli berilayotgan bilimlar va shu asosida tashkil etilayotgan metodika barcha o'quvchilarga bir xil ta'sir ko'rsatmaydi. Natijada, ular o'quv materiallarini bir xil o'zlashtirmaydilar. Bunda o'quvchilarga qanday pedagogik ta'sir ko'rsatilganda kuzlangan maqsadga erishish mumkinligi muammosi paydo yuzaga keladi.

Ayrim pedagog olimlarning asarlarida tabaqalashtirilgan ta'limning mohiyati, uning ilmiy asoslari chuqur tahlil qilib berilgan, ayrim ijodkor o'qituvchilar bo'sh o'zlashtiruvchi yoki qoloq o'quvchilar bilan individual ishlar bo'yicha tajriba to'plaganlar.

Pedagogika nazariyasi pedagog olimlar tomonidan tabaqalashtirilgan ta'limning ikki xil turini qayd etadi:

1. Darajali tabaqalashtirish.
2. Ixtisoslashtirilgan tabaqalashtirish.

Darajali tabaqalashtirish ikki turga bo'linadi:

1. Individual ta'lim. Bunda o'quvchilarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab ularning har biri bilan alohida-alohida ish olib boriladi.
2. Guruhli ta'lim. Bunda o'quvchilarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab ularni ikki va undan ortiq guruhlariga ajratib o'qitiladi.

Ixtisoslashtirilgan tabaqalashtirish esa u yoki bu fanni chuqur o'rgatish, o'zlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Bular qatoriga tasviriy san'atni chuqur o'rgatadigan fakultativlar, to'garaklar kiradi.

Ta'lim nazariyasi va amaliyotida tasviriy san'at fanida tabaqalashtirilgan ta'limning quyidagi turlari mavjud:

- Tabaqalashtirilgan guruhlar ta'limi;
- individuallashtirilgan ta'lim.

Bu yo'nalishlar ham darajali, ham ixtisoslashtirilgan bo'lishi mumkin. Ko'p yillardan buyon pedagogik amaliyotda boshqa fanlar qatori tasviriy san'at bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktablar va sinflar, fakultativ kurslar faoliyat ko'rsatmoqda.

Tabaqalashtirilgan ta'lim haqida fikr yuritganda avvalo uning ham ijobiy va salbiy jihatlari haqida yetarli tasavvurga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Darajali

tabaqalashtirib o'qitishning ijobiy jihatlari haqida to'xtalganda quyidagilarni qayd qilish lozim. Bunda:

1. Sinfdagi barcha o'quvchilar dastur materiallarini o'zlashtirishga erishadilar.

2. Sinfdagi barcha o'quvchilardang bilim va malakalarida, ijodiy ishlarida o'sish kuzatiladi va u ularda fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

3. Sinfdagi barcha o'quvchilarning faolligi oshadi. Chunki, past o'zlashtiruvchilar guruhidagi har bir o'quvchi yuqori o'zlashtiruvchilar guruhiga o'tishga harakat qiladi. Yuqori o'zlashtiruvchilar guruhidagi o'quvchilar esa past o'zlashtiruvchilar guruhiga tushib qolmaslikka harakat qiladilar.

4. O'quvchilarda qobiliyat va imkoniyatiga qarab bilimlar berilayotganligi sababli, ular tomonidan o'quv yuklamalarini o'zlashtirishda zo'riqish hollari ro'y bermaydi.

5. Sinfdagi iqtidorli o'quvchilarning chuqur va atroflicha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlari ham qondiriladi.

6. Tabaqalashtirilgan ta'lim o'quvchini demokratiyalashtirish va insonparvarlashtirishga yordam beradi.

Ko'pchilik mutaxassislar o'quvchilarda (past, o'rta, yuqori) o'zlashtiruvchi guruhlariga ajratib o'qitishning ma'qullagan holda, uni yuqori, shuningdek, past o'zlashtiruvchi o'quvchilar faoliyatida salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkinligini ham qayd qilindi. Xususan, ular yuqori o'zlashtiruvchi o'quvchilarda manmanlik, boshqalardan o'zlarini ustun qo'yish yoki ularni mensimaslik, o'ziga ortiqcha baho berish, boshqalar bilan qo'pol muomalada bo'lish kabi xislatlarda kuzatilishini qayd qilishadi. Shu bilan birga bu toifadagi o'quvchilarda qo'rquv xissi ham paydo bo'ladi. Chunki ular topshiriqlarni yuqori darajada bajarmaganliklari oqibatida yuqori guruhdan quyi guruhga tushib qolishlari ham mumkin.

Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar esa tabaqalashgan guruhlarda o'zlarini kamsitilgan, o'quvi yo'q deb hisoblaydilar. Ko'pincha tengdoshlari, aka-uka, otalari orasida o'zlarini aqli kalta odamlardek his etadilar. Natijada, ular tushkunlikka tushib, o'qishga havaslari qaytadi. Sinfdoshlariga qo'shilmay, ular tengdoshlariga aralashmaydigan odamovi bo'lib qoladilar. Bora-bora bu toifadagi o'quvchilarga o'qituvchi, ota-onalar, sinfdoshlari tomonidan bildiriladigan turli tanbeh va dashnomlari ularning ruhiyatiga yomon ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada bu hol ularni hamma narsaga, har qanday gaplarga befarq bo'lib qolishlari va rivojlanishdan to'xtab qolishlariga olib keladi. O'qituvchi tabaqalashtirilgan ta'limni amalga oshirishga kirishar ekan, uning yuqorida qayd qilingan ham ijobiy, ham salbiy jihatlari to'g'ri yondoshib ish olib borishi kerak bo'ladi.

Masalaning ana shu nozik jihatlarini hisobga olib, o'quvchilarda guruhga ajratganda sinfadagi qobiliyatli, qobiliyatsiz, o'zlashtiruvchi, o'zlashtirmovchi, yuqori, quyi so'zlarning o'rniga oddiygina qilib birinchi, ikkinchi, uchinchi guruhlar deb qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Tabaqalashtirish o'qitishning samarsi benihoya ekanligi bilan bir qatorda uning murakkab jihatlarini ham mavjudligini alohida qayd qilish lozim. Uning murakkabligi o'qituvchining uch xil darajadagi dasturlar asosida mashg'ulot olib borishi bilan bog'liq. Buning uchun har bir guruh uchun tasviriy san'atdan alohida darsliklar, metodika, didaktik va tarqatma materiallar, texnika vositalari kerak bo'ladikim, ularsiz mashg'ulotlarni talablar darajasida tashkil etib bo'lmaydi. Bu esa quyidagi yo'nalishlarda ifodalanadi:

1. Tabaqalashtirilgan tasviriy san'at ta'limini ilmiy asoslarini puxta egallagan bo'lishlik.

2. Mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik majmualar bilan qurollangan bo'lishlik.

3. Mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan maxsus xona va moddiy texnikaviy bazaga ega bo'lishlik.

4. O'qituvchi o'z fanidan o'quvchilarda bilim va malakalari saviyasi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishligi va boshqalar bunga misol bo'la oladi.

Muammoning qiyin va murakkab jihatlaridan biri bu o'qituvchining o'quvchilar haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishligidir. Ma'lumki, har bir shaxs, o'zicha bir dunyo, shu qatori tasviriy san'atdan bilim malakalari ham bir-biridan farq qiladi. Buning uchun ustiga o'quvchilardagi o'ziga xoslik shunchalik turli-tumanki, ularni aniqlash nihoyatda mushkul.

O'quvchilarni har jihatdan bilish uchun o'qituvchi tomonidan o'quvchilar orasida pedagogik va psixologik tashxis o'tkazishi zarur bo'ladi. Bu ish bevosita quyidagilar bilan bog'liq: o'quvchining umumiy qobiliyati, uning harakteri, qaysi fanga qiziqishi, tasavvur, tafakkur va ijodiy fikrlash darajasi, faolligi va fantaziyasi, xotira va kuzatuvchanligi, diqqati, tashabbuskorligi, mustaqilligi, uyda mashg'ulotlar uchun bo'lgan shart-sharoitlari va boshqalar. Tashxisda o'quvchilar sog'ligi va fiziologik o'sishini bilish ham foydadan holi emas.

Shuningdek, o'quvchilarda qush va hayvonlarga, kasb-hunarlariga, san'at turlariga, sportga qiziqishlarini bilish ham muhim. Chunki, o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishda ularni ana shunday qiziqishlariga qarab ta'lim berishning samarali ekanligi fanimizda anchadan buyon ma'lum.

Yuqorida qayd qilingan sifatlar bilan bir qatorda o'qituvchi o'z fanidan o'quvchining tasviriy san'atga doir xususiyatlarini ham bilishi kerak bo'ladi. Bu

borada o'qituvchi dars jarayonida har bir o'quvchining bilim va malakalaridagi o'sishni ham bilib turishi zarur.

O'qituvchini bilim va malakasidagi rivojlanish darajasiga qarab bilim berish shuning uchun muhimki, bunda zaruriyat tug'ilganda o'quvchilarda u guruhdan bu guruhga o'tkazish imkonini beradi.

Darajali tabaqalashtirib o'qitishning yagona bir ko'rinishi mavjud bo'lib, unda o'quvchilarda fanlar bo'yicha bilim va malakalarining darajasiga qarab emas, balki umumiy tarzda tabaqalashtirishidir. Bunda o'quvchilar temperamenti asosiy rol o'ynaydi. Bunday sifatlar bo'yicha tabaqalashtirilganda o'quvchilar xolerik, sangvinik, flegmatik va melonxoliklar guruhlaridan tashkil topadi.

Chunki, o'qituvchi jarayonida o'quvchilarga topshiriqlar berganda biron narsani talab qilganda, ularni psixologik xususiyatlariga tayanish samarali kechadi. Ishning saviyasi ko'p jihatdan o'quvchilarda ana shu sifatlarini bilib, to'g'ri munosabatda bo'lishlikka bog'liqdir.

O'qituvchi o'quvchilardang diqqati, idroki, xotirasi, tafakkuri, nutqi, his-tuyg'ulari, harakteri haqida ham tasuvvurga ega bo'lishi talab etiladi.

O'quvchilardang bilim va malakalari, ijodiy qobiliyatlari, qiziqishlari, idroklarini hisobga olib o'tkaziladigan pedagogik tashxis ishlari quyidagi tashkiliy ishlar bilan boliq:

- o'quvchilar bilimlarini aniqlash uchun test materiallarini tayyorlash;
- o'quvchilardang bilim va malakalarini aniqlash uchun anketa savolnomalar tayyorlash;
- o'quvchilardang bilim va malakalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- o'quvchilardang bilim va malakalarini aniqlashga doir didaktik materiallar tayyorlash;

O'quvchilardang bilim va malakalarini tashhis etish bilan masalaning yechimi tugamaydi. Yangi materialni bayon etish va uni o'quvchilar tomonidan to'liq o'zlashtirilishi uchun tegishli metodika zarur bo'ladi. Bu bosqichning muhim jihatlaridan biri tashhisdan o'tgan guruhlarda o'quvchilardang tasviriy san'atdan bilimlar xajmi va darajasini aniqlashdir. Bir guruhdagi bir o'quvchi ikkinchisiga qaraganda ozmi, ko'pmi kengroq va chuqurroq bilimga ega. Shunday ekan, guruhdagi barcha o'quvchilarda o'qituvchi yangi materialni idrok etishi va o'zlashtirishi uchun tayyorlash lozim bo'ladi.

Tabaqalashtirish faqat guruhlar bo'yicha emas, har bir o'quvchi bilan ham yakkama-yakka ish olib borishni ham nazarda tutadi. U dars jarayonida, uyga topshiriqlar berganda amalga oshiriladi. Shuningdek, individual ta'lim faqat bo'sh

o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashni emas, bir yo'la iqtidorli, qobiliyatli o'quvchilar bilan ishlashni ham nazarda tutadi.

Maktabda tasviriy san'atdan darajali tabaqalashtirishning ikki yo'nalishi tavsiya etiladi:

1. O'quvchilarning idroki va qobiliyatini hisobga olib tabaqalashtirish. Bu yo'nalishga o'quvchilarda o'qituvchi tavsiya etadi.

2. O'quvchilarda qiziqishiga qarab tabaqalashtirish. Bunda guruhlarni o'quvchilardang o'zlari tanlaydilar.

Oliy o'quv yurtida o'quvchilardang tasviriy san'atga qiziqishi, idroki, qobiliyatlarini hisobga olib, ularni bir necha guruhga bo'lish mumkin:

1. Idroki past, bilim va tushunchalarni sekin va qiyin o'zgartiruvchi o'quvchilar, ularni o'qishga havasi yo'q va qobiliyati qoniqarldi emas, ijodkorlik hislatlari sezilmaydi.

2. O'qishga havasi va qobiliyati o'rtacha, nazariy bilimlarni o'zlashtirishi va ijodkorligi o'rtacha.

3. O'qishga havasi, ijodiy qobiliyati va fantaziyasi kuchli, berilayotgan bilimlarni tez va puxta idrok eta oladilar.

Mana shu xususiyatlar asosida tasviriy san'atdan ta'lim mazmunini tabaqalashtiriladi. Tabaqalashtirilgan ta'lim mazmunini, o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, u uch toifaga bo'linadi:

1. Dasturning past darajasi. U tasviriy san'at o'quv predmetidan ta'limning davlat standartlarida belgilangan bilimlarni nazarda tutadi. Ta'lim mazmunining bu toifasida o'quvchilarning bilim va malakalari, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish past darajada bo'ladi.

2. Dasturning o'rtacha darajasi. Tasviriy san'atdan beriladigan bilimlar va malakalar ta'limning davlat standartlarida ko'rsatilgan past darajadan yuqoriroq bo'ladi. O'quvchilarda ijodiy fikrlash va fantaziyani talab etadigan topshiriqlar past darajada qoladi.

3. Dasturning yuqori darajasi. Tasviriy san'atdan o'quvchilarning idroki, qobiliyatini hisobga olgan holda ularga keng bilim va chuqur malakalar beradigan, ularning ijodkorligini, iste'dodini ro'yobga chiqaradigan mashg'ulotlardan tashkil topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Siddiqov, I. M., & Igamberdiyev, U. R. (2021). PEDAGOGIKA OLIYGOHLARIDA TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKILLANTIRISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN

FOYDALANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 1146-1163.

2. Muydinovich, R. I. (2022). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING RIVOJLANISHI TUFAYLI PAYDO BO'LGAN KASBLAR VA ULARNI O'RGANISH. *PEDAGOGS jurnali*, 13(1), 117-122.

3. Sulaymanova, S. B. Q. (2022). BADIY OLIY TA'LIM MUASSASALARDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHGA BO'LGAN EHTIYOJNING OSHISHI VA UNING BUGUNGI HOLATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 89-96.

4. Sadikovna, S. G., Kurbonova, B., Akhmedova, N., & Sulaymanova, S. (2020). FUNDAMENTALS OF PROFESSIONALISM DEVELOPMENT ON THE EXAMPLE OF PRACTICAL EXERCISES ON FORMING THE SKILLS AND.

5. Sulaymanova, S. B. Q. (2023). MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASINING TAVSIFI VA UNING SAMARADORLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 144-149.

6. Курбонова, Б. М. (2022). ТВОРЧЕСКИЕ СПОСОБНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ЗАНЯТИЯХ ПО СОЗДАНИЮ ПОРТРЕТА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 1051-1057.

7. Kurbonova, B. (2020). THEORETICAL BASES OF THE ORGANIZATION OF DRAWING LESSONS IN HIGHER PEDAGOGICAL EDUCATION. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 254-257).

8. Курбонова, Б. (2020). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКА РИСУНКА В ВЫСШЕМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ. *БК Ю953*, 254.

9. Kurbonova, B. M. (2023). AESTHETIC PERCEPTION IS A PRODUCT OF ARTISTIC THINKING. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 3(26), 97-101.

10. Kurbonova, B. M. (2023). OPPORTUNITIES AND TECHNOLOGIES FOR PREPARING FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS FOR THE FORMATION OF ELEMENTS OF ARTISTIC THINKING IN SCHOOLCHILDREN. *Academia Science Repository*, 4(04), 709-715.

11. Qurbonova, B., & Yo'ldasheva, G. (2023). TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA RANGLARNING 9. ILMIY-NAZARIY AHAMIYATINI O'RGANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 183-187.

12. Qurbonova, B., & G'ulomova, O. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QISH DARSLARIDA BADIY MATNNI TAHLIL QILISH METODIKASI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 750-752.
13. Mirzakhamdamovna, Q. B. (2023). TECHNOLOGIES FOR TRAINING FUTURE VISUAL ARTS TEACHERS TO FORM ELEMENTS OF ARTISTIC THINKING IN SCHOOLCHILDREN. *Science and innovation*, 21.
14. Курбанова, Б. М. (2018). РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 65-66).
15. Kurbonova, B. M. (2023). OPPORTUNITIES AND TECHNOLOGIES FOR PREPARING FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS FOR THE FORMATION OF ELEMENTS OF ARTISTIC THINKING IN SCHOOLCHILDREN. *Academia Science Repository*, 4(04), 709-715.
16. Qurbonova, B., & Djuhanova, N. (2020). PSYCHOPHYSIOLOGICAL BASIS OF COLOR SELECTION IN YOUNG PEOPLE. *Theoretical & Applied Science*, (1), 27-37.
17. Мирзахамдамовна, Қ. Б. (2022). БЎЛАЖАК ТАСВИРИЙ САНЪАТ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИДА БАДИИЙ ТАФАККУРНИ ШАКЛЛАНТИРИШГА ТАЙЁРЛАШ ШАКЛИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(5), 185-198.
18. Qurbonova, B. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА. *Theoretical & Applied Science*, (1), 608-614.
19. Qurbonova, B. M. (2022). BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARI O'QUVCHILARNING BADIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 194-198.

YOSHLARNING MA'NAVIYATINI OSHIRISHDA PEDAGOGLARNING O'RNI

Xusanova Dilnoza Alimqul qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi

dilnozaxusanova092@gmail.com

+998940613414

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonni bunyod etishda ma'naviyat va ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor qaratish, xususan bu yo'lda pedagoglarning amaliy ahamiyatini kuchaytirishni keng miqyosda yo'lga qo'yish lozimligi haqida batafsil yoritilgan. Ta'lim tizimining sifati va samaradorligini oshirishda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish hamda pedagoglar tomonidan tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'rni va ahamiyati haqida fikr-mulohazalar, amaliy taklif va xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, ma'naviyat, ma'rifat, ta'lim tizimi, innovatsiya, pedagog, kasbiy mahorat, rivojlanish.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно описывается необходимость уделять особое внимание духовности и образованию в создании Нового Узбекистана, и в частности, масштабно усиливать практическое значение педагогов. Приводятся мнения, практические предложения и выводы о роли и значении духовно-просветительской работы, организуемой педагогами и поднятия духовности молодежи в повышении качества и эффективности системы образования.

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, духовность, просвещение, система образования, инновации, педагог, профессиональное мастерство, развитие.*

ABSTRACT

This article describes in detail the need to pay special attention to spirituality and education in the creation of New Uzbekistan, and in particular, to strengthen the practical importance of pedagogues on a large scale. Opinions, practical proposals and conclusions are given about the role and importance of spiritual and educational work organized by pedagogues and raising the spirituality of young people in improving the quality and efficiency of the education system.

Key words: *New Uzbekistan, spirituality, enlightenment, education system, innovation, pedagogue, professional skills, development.*

KIRISH

Bugungi kunda yoshlar ma'naviyatiga e'tibor qaratish mamlakatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'naviyat – tushunchasi har bir insonning, xalqning, jamiyatning asosiy kuch-qudrati bo'lib, uning ruhiy dunyosini mukammallashtirishga bog'liq bo'lgan sifatlarning ko'rinishi. Bugungi tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan zamonda har qanday xalqning ma'naviyatga bo'lgan e'tibori baxtli kelajagiga berilgan e'tibori sanaladi. Ta'lim va tarbiya jarayonlarida ma'naviyatli yosh avlodni tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy fazilatlariga, kasbiy bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lgan pedagoglarning o'rni katta.

Davlat ta'lim standartlariga, davlat ta'lim talablariga javob beradigan, yuqori malaka va toifaga ega, ma'naviyatli pedagog kadrlarni tayyorlash bugungi kunda xalqaro darajada muhim va zarur hisoblanadi. Shu jumladan, Pedagoglar yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda asosiy poydevor sanaladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston strategiyasi” kitobida ma'naviyatga alohida urg'u berib: “Mening nazarimda, insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi – ma'naviyat chirog'i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg'otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi. O'zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma'naviyat shu'lasini porlashi va u bizlarni ezgu ishlarga undab, yuksak mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashga da'vat etib turishi kerak”[2] – deya ta'kidlaganlari ham bejiz emas, albatta. Shunday ekan birinchi navbatda pedagog-kadrlarining ham ma'naviyatini yuksaltirish, ularga kasbiy mahorat va malakasini oshirishlari yuzasidan qulay shart-sharoit yaratish, ularning faoliyatlarida barcha to'siqlarni bartaraf etish, qolaversa ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini yanada oshirish masalalari birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo'lgan vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jamiyatdagi har bir insonning yuksak ma'naviyatli, ma'rifatli bo'lishi uchun ko'plab tadbir-u tashviqot ishlari tashkil etilmoqda. Yurtimiz bo'ylab har bir sohada islohotlar amalga oshirilgani singari ma'naviyat sohasiga ham yetarlicha e'tibor berilmoqda. Bu borada esa, avvalo, ma'naviyatni oshirishda asosiy o'ringa ega bo'lgan pedagoglarning huquqlari va majburiyatlarini belgilash, ularning qonun himoyasida bo'lishini ta'minlash dolzarb hisoblanadi.

2023-yil 1-maydan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ilk bora o'qituvchilarning huquqlari mustahkamlab qo'yildi[1]. Shu nuqtayi nazardan, pedagog-kadrlarining kasbiy mahoratini shakllantirish, ularning sha'ni qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini himoya qilish, ma'naviy-axloqiy madaniyatini yuksaltirish

zarur hisoblanadi. Xususan, 2024-yil 1-fevraldan kuchga kirgan ko'pchilik pedagoglarimiz intiqib kutgan "Pedagogning maqomi to'g'risidagi" O'RQ-901-sonli 21 moddadan iborat Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonunda "Ta'lim tashkilotida qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ta'lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi hamda tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan jismoniy shaxs pedagogdir"[5] deya pedagoglarning maqomi belgilab qo'yildi. Zero, pedagoglarning samarali faoliyati yoshlarni yangicha tafakkurga ega bo'lishida, ma'naviyatini bevosita yuksaltirishda muhim o'ringa ega. Insonlarni yangicha yashash, yangicha dunyoqarashga undayotgan kuch ham, avvalo, ma'naviyat va ma'rifatdir. Kuchli ma'naviyatni ta'minlashda nafaqat pedagoglar balki ota-ona va mahallaning ham integratsiyalashgan tizimini amalga qo'llash lozim.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yurtimizda iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy soha singari ma'naviyat sohasi ham davlat siyosatining muhim yo'nalishidan biridir. Shu sababli qabul qilinayotgan strategik dasturlar, yo'l xaritalarida ma'naviyat ham munosib o'rin egallagan. Masalan, "O'zbekiston-2030" strategiyasida "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish"[4] bo'yicha bir qancha islohotlarni amalga oshirish lozimligi belgilangan. Mazkur strategiyadagi maqsad va vazifalar ma'naviyatimizning yuqori pog'onaga ko'tarilishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, mamlakatimizda 2023-yilning 22-dekabrida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisi bo'lib o'tdi. Mazkur majlisda yurtboshimiz tomonidan, avvalo, ma'naviyat va madaniyat sohasidagi ishlarimiz uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladigan milliy g'oyamizni rivojlantirish bo'yicha alohida dasturiy hujjat ishlab chiqishimiz lozimligi va bu jarayonda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz talablari hisobga olinishi zarurligi qat'iy ta'kidlandi. Prezidentimizning "Bugun ma'naviyat boshqa sohalardan o'n qadam oldinda yurishi, ma'naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak" [2] degan fikrlari hayotiy ehtiyojimizga aylanmoqda. Shuning uchun ham ilk navbatda ma'naviyatimizni yuqori o'ringa chiqarishimiz va rivojlantirishimiz kerak.

Pedagoglar yoshlarning ma'naviyatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ular yoshlarning ma'naviyatini oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim:

1. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya berish. Bu jarayonda pedagoglar ta'lim oluvchilar uchun kitobxonlikni keng miqyosda targ'ib qilishlari, o'zbek milliy san'ati haqida tashviqot ishlarini olib borishlari, ularning madaniyat tashkilotlari faoliyati bilan yaqindan tanishishlari uchun turli xil ekskursiyalarni amalga oshirishlari lozim sanaladi.

2. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning integratsiyasi. Ushbu jarayonda pedagoglar tomonidan ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani boshqarishda boshqa fanlarni integrallashtirish uchun o'quv jarayonlarini tashkil etishadi. Bu ma'naviy-ma'rifiy tarbiya bilan matematika, adabiyot, tarix, musiqa, san'atshunoslik va boshqa sohalardagi bilimlar o'rtasida bog'lanish yaratishga yordam beradi.

5. Ma'naviy qadriyatlarni hurmat qilish. Pedagoglar yoshlarning ma'naviy qadriyatlarni hurmat qilishi va chetdan kirib kelayotgan milliy ma'naviyatimizga yot bo'lgan g'oyalarning yoshlar ongiga zarar yetkazishiga yo'l qo'ymasligini ta'minlaydi. Bu jarayon orqali yoshlarning qadriyatlarga hurmatni, sodiqlikni, ularni asrash lozimligini, rivojlanish darajasini, qadr-qimmatini tahlil qilish uchun kerakli maqsad va vazifalarni aniqlashga yordam beradi.

XULOSA

Pedagoglar yoshlarning ma'naviyatini oshirishda muhim o'rin egallaydi, chunki ma'naviyat yoshlarning shaxsiy rivojlanishi, insonparvarlik, etik-estetik qadriyatlari va jamiyat bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Yoshlar ma'naviyatini oshirishda pedagog-kadrlar tomonidan tashkil qilinadigan tadbir va tanlovlar ham muhim ahamiyatga ega. Ular quyidagi samarali va ta'sirchan natijalarni yuzaga keltiradi:

1. Ta'lim oluvchilarning o'z fikrlarini erkin ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi. Tadbir va tanlovlar ta'lim oluvchilarga turli muammolarni o'z qarashlari va fikrlari orqali hal qilish imkonini beradi. Bu ularga o'zlarining shaxsiy qadriyatlarini ro'yobga chiqarishda, o'z-o'zini takomillashtirishga imkon beradi.

2. Tadbirlar va tanlovlar pedagoglar tomonidan qo'shimcha ta'lim mashg'ulotlari sifatida amalga oshirilib, o'quvchilarga ma'naviy qadriyatlar va ulardagi insonparvarlik, ezgulik, mehr-oqibat kabi fazilatlarini targ'ib qilish hamda necha ming yillar davomida rivojlangan qadriyatlar yemirilishining oldini olishda ham muhim ahamiyatga ega.

3. Pedagoglar tomonidan tashkil etilgan tadbir va tanlovlar ta'lim oluvchi har bir o'g'il-qizda berilgan topshiriq va vazifalarni katta mas'uliyat va javobgarlik hissini tuygan holda amalga oshirishni ta'minlaydi. Muvaffaqiyatga va yuqori natijani qo'lga kiritishda asos vazifasini o'taydi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda ma'naviyatni shakllantirishda, milliy qadriyatlarimizni asrashda, milliy axloqimizni yuksaltirishda, ijtimoiy faollikka chorlashda pedagoglarning ahamiyati beqiyos.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston. 01.05.2023y.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – B. 263.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. 2023-yil 22-dekabr. www.prezident.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.www.lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘RQ-901-sonli Qonuni. www.lex.uz.
6. www.prezident.uz.
7. www.lex.uz.

ARXITEKTURA YODGORLIKLARINING BIR QISMI ISHTIROKIDA TUZILGAN NATYURMORT (KAPITEL)NI QALAMTASVIRDA ISHLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Qurbonova Barchinoy Mirzahamdammovna

P.f.b.f.d (PhD) Farg‘ona davlat universiteti, O‘zbekiston.

Raxmonjonov Xusan Akbarovich

Farg‘ona davlat universiteti, O‘zbekiston.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada talabalarning tasviriy san‘atda arxitektura yodgorliklarining bir qismi ishtirokida tuzilgan natyurmortni ishlash bosqichlarini takomillashtirishda qo‘llaniladigan metodlar va ularning samarasi, tasviriy san‘at fanlarini o‘qitishda yangicha yondashuv, hamda qalamtasvir qonun-qoidalari asosida tasvir yaratishda foydalaniladigan usullar va ularni takomillashtirish haqida yoritilgan. Talabalarda tasviriy san‘at fanlarida ko‘nikma va malakalarini oshirishni, natyurmort asarlarini ishlashda qonun-qoidalardan foydalanishni, mustaqil fikrlarini rivojlantirish jarayonida rangtasvirga oid ijodiy ishlarni tahlil qilish, rassomlarning asarlarini bosqichma-bosqich tahlil qilish va fikrlash jarayoni bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: arxitektura yodgorliklari, qalamtasvir, tasviriy san‘at, natyurmort, bosqichma-bosqich tahlil, qonuniyat, fazoviy tasavvur.

АННОТАЦИЯ

В данной статье использованы методы и их эффективность совершенствования этапов натюрмортной работы учащихся изобразительного искусства с участием части памятников архитектуры, новый подход к обучению изобразительному искусству, а также методы, используемые для создания образов на основе правил карандашный рисунок их совершенствования. Студентам необходимо совершенствовать свои навыки и умения в изобразительном искусстве, использовать правила и нормы в работе с произведениями натюрморта, анализировать творческие произведения, связанные с живописью, в процессе развития самостоятельного мышления, поэтапный анализ произведений художников, и описан процесс мышления.

Ключевые слова: памятники архитектуры, изобразительное искусство, натюрморт, поэтапный анализ, закономерность, пространственное воображение.

ABSTRACT

In this article, the methods and their effectiveness are used to improve the stages of still-life work of students in fine arts with the participation of a part of architectural monuments, a new approach to the teaching of fine arts, and the

methods used to create images based on the rules of pencil drawing and their improvement. illuminated. Students need to improve their skills and abilities in fine arts, use rules and regulations in working with still-life works, analyze creative works related to painting in the process of developing their independent thoughts, step-by-step analysis of artists' works, and the process of thinking is described.

Key words: *architectural monuments, fine art, still life, step-by-step analysis, regularity, spatial imagination.*

KIRISH

Respublikamiz tomonidan qabul qilingan Farmonlar, milliy g'oya tamoyillariga muvofiq tasviriy san'atni yoshlarga o'rgatish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Tasviriy san'at eng ommaviy, eng xalqchil, eng hayotiy ijod ifodasidir. Tasviriy san'at asrlar mobaynida xalq ijodi sifatida shakllanib, taraqqiy etib kelgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartlaridan biri xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirishdir. Chunki har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiyki bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish vazifasi turadi. Ilm bobidagi izlanish insonni ma'naviy, ahloqiy-estetik kamolot sari yetaklaydi. Respublikamizda tasviriy san'at ta'limida qalamtasvir qonun-qoidalarida rioya qilish metodikasini takomillashtirish bo'yicha T.Maxmudov, M.Nabiyev, B.Jabborov, J.Majidov, X.Egamov, M.Shahodatov, K.Oqilova, A.Egamberdiyev, N.Oydinov B.Azimova, A.Eshonqulov, N.Norqulov, B.Hamdamiy, A.Sulaymonov, E.Umarov va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Tasviriy san'atda badiiy asar yaratishga xos bo'lgan xususiyatlarni ta'lim mobaynida egallashi talab etiladi. Tasviriy asardan nusxa ko'chirish bilan aks ettirib bo'lmasligini tushuntirib muhim hisoblanadi. Uni tasvirlashda hayotni to'laligicha idrok etishda tus va yaxlitligini anglagan holda uning tarkibini tashkil etuvchi obyekt hajmi, shakli, yorug'ligi, o'ziga xosligi, xususiy tavsifi qismlarini tushuntirish, tafakkur qilish, mazmunini talqin etish zarurdir. [1; 4-bet]

TADQIQOTNING OBYEKTI VA QO'LLANILGAN METODLAR.

Tadqiqotning obyekt sifatida Tasviriy san'atda qalamtasvir topshiriqlarini bajarishda arxitektura yodgorliklarining bir qismini tasvirlash qoidalariga rioya qilish metodikasini takomillashtirish jarayoni etib belgilandi

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining tasviriy san'atda arxitektura yodgorliklarining bir qismi ishtirokida tuzilgan natyurmortni ishlash bosqichlarini takomillashtirishda qo'llaniladigan metodlar va ularning samarasini oshirish va

dunyoqarashini o‘stirish, keng fikrlay olish, borliqni fazoviy tasavvur eta olishda har tomonlama komil bo‘luishni

Tasvirni formatga to‘g‘ri joylashtirish, bu komponovka qilish jarayoni bo‘lib, rangtasvir asosi bo‘lmish format o‘lchamiga nisbatan, tasvir yaxlitligini munosib o‘lchamda topish va uni formatga to‘g‘ri joylashtirish komponovkaning asosiy vazifasidir. (1-rasm)




1-rasm

Bunda kapitel tasviri formatning pasti yoki yuqorisiga, o‘ngi yoki chapiga siljigan holda emas, balki o‘zining munosib joyiga to‘g‘ri chizilishi shart, hamda chiziluvchi tasvir formatga nisbatan katta ham, kichik ham bo‘lmay, bu ham formatga mos o‘lchamda chizilishi talab qilinadi. Ushbu shartga ko‘ra kapitelni umumiy joylashuvi tahminiy belgilab olinadi va kapitelni tekislikka nisbatan necha gradus burchak ostida turganligi aniqlanib o‘q chizig‘ini ko‘rinarli darajada qoraytirmasdan yengil chiziladi.

Qismlar konstruksiyasini aniqlash va qurish jarayonida kapitelni qismlarga bo‘linadi. Ma‘lum burchak ostida aniqlangan o‘q chiziqqa nisbatan kapitelning bo‘yini eniga nisbatan solishtirib taqqoslanib, ularning o‘lchamlari orasidagi farqi aniqlanadi va uni belgilab chiqiladi. So‘ng belgilangan burchak ostida suyanib turgan kapitel asosining sathi konturini yengil qoraytirmagan holda chiziladi. So‘ng kapitelning hajmini asosdan qanchalik balandlikda ekanligi qalam bilan o‘lchab, ko‘z bilan chamalab belgilanadi va qarash nuqtasiga nisbatan balandlikning qanday burchak ostida ko‘rinishi aniqlanadi. Shunga asoslanib kapitel hajmining balandligin markaziy o‘q chizig‘ini bosmasdan yengil chiziladi. (1-rasm) Mana shu o‘q chiziqlar asosida kapitel qismlari chamalash usulida aniqlab, belgilanadi va xar bir qismlarni bir-biriga solishtirib, ularning o‘z aro bir-biriga nisbatan holatini hamda o‘lchamidagi farqlarini qalam yordamida chamalash usuli orqali bosmasdan yengil chiziladi.

Qismlar orasidagi bo‘laklarning tuzilishidagi nisbatlarni aniqlash uchun avval har bir bo‘lingan qismlardagi bo‘laklarni umumiy massaga nisbatan hamda

alohida qismlarning tuzilishi va o'lchamiga ham solishtirib, bir-biriga nisbatan holatini taqqoslab, chamalash usulida aniqlab chiziladi.



2-rasm

Qo'yilmadagi nur va soyalarni aniqlash. Tasvirda kapitelning chap yon tomonidan taxminan 45 gradusga yaqin burchak ostida yuqoridan tabiiy yorug'lik tushayotganligi sababli, kapitelning tushuvchi soyasi ham 45 gradusga yaqin burchak ostida bo'ladi. Agar yorug'lik sun'iy bo'lsa tushuvchi soyaning umumiy ko'rinishi, konus singari kengaygan tus oladi. Xususiy yarim soyalar esa kapitel hajmining 70 foizini o'z ichiga olishini taqqoslash orqali chamalab chiziladi. So'ng qismlar, keyin bo'laklar va nihoyat detallardagi soyalarni bir-biriga taqqoslab ularning vaziyatdagi o'lchamlarini chamalash usuli orqali aniqlab chiziladi. (2-rasm)

Qo'yilmadagi iliq va sovuq ranglarni aniqlash. Avval qo'yilma o'rganilib tahlil qilinadi. Qo'yilmadagi fon og'ir faqat yorug' qismi soyaga nisbatan yengil va och siyohrangga yaqin jigarrangga xos, pastlagan sari og'irlashib to'qargan holda siyohrang ko'karib bormoqda. Kapitelning yorug' qismlari fonga nisbatan toni och bo'lib, yengil issiq zarg'aldoqsimon, soyalar ko'kimtir siyohrangga yaqin tusda. Soyadagi siyohrang sifat qoramtir joylari to'q sovuq tusda bo'lib, oldingi plandagi pastki qismi esa binafsha sifat qoramtir issiq rang tussidadir.

Qo'yilmadagi umumiy tusini haroratini aniqlash. Natyurmortni e'tibor bilan kuzatilsa, uning umumiy tussi iliq yoki sovuqligi ko'rinadi. Umumiy fon aniqlangandan so'ng, kapitel va uning soyasi fonga nisbatan issiq yoki sovuqlik darajasi aniqlanadi. Natyurmortning umumiy tussi issiq bo'lib, chekka qismlari markazga nisbatan sovib bormoqda. Faqat o'ng tomonining chekka qismigina iliq tusda bo'lib, qismlardagi rang tuslariga nisbatan olinadi. Budan tashqari kapitelni fonga nisbatan og'ir yoki yengillik ya'ni och yoki to'qlik darajalari ham bir vaqtning o'zida aniqlab boriladi.

Qo'yilmadagi nur va soyalar tussini haroratini aniqlash. Tabiiy yorug'lik ostidagi kapitelning nur tushayotgan qismi sovuq, tushuvchi soysi ham sovuq bo'lib, xususiy soyasi esa qaytgan nur(refleks)lar sababli issiq rang tuslarida bo'ladi. Agar sun'iy nur bilan yoritilsa, unda gipsning yorug'langan qismi issiq bo'lib, soyasi esa umumiy sovuq bo'ladi. Lekin xususiy soya nim rang reflekslar sa-babli issiq rang tussida bo'lishi mumkin, albatta bu holat nisbiy bo'lib, atrofidagi qurshab turgan buyumlar rangiga bog'liqdir



3-rasm

В последующем, в данную норму было внесено изменение в соответствии с Законом Республики Узбекистан от 15 апреля 1999 года № 772-I¹⁸³, согласно которому все предметы, которые не подлежали конфискации предусмотренной в статье 53 УК РУз. (жилой дом, предметы домашней утвари, одежды и др.), должны были изъяты и обращены в доход государства в случае если данные имущества были использованы в совершении преступления против основ государства, то есть при совершении государственной измены, посягательства на конституционный строй страны, покушения на Президента, терроризм, диверсия и др. или же были использованы в совершении тяжких преступлений, сопряженных с умышленным убийством, разбоем, грабежом и др.

Но в 2001 году, в уголовном законодательстве страны произошли большие изменения по инициативе первого Президента Республики Узбекистан. Наряду

¹⁸¹ См.: Зацепин М.Н. Конфискация имущества как мера противодействия коррупции // Российский юридический журнал. 2012. № 5. С. 106.

¹⁸² Уголовный Кодекс Республики Узбекистан в редакции от 22.09.1994/<https://www.lex.uz/docs/111457?ONDATE=01.04.1995%2000#217237>

¹⁸³ Закон Республики Узбекистан «о внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан от 15 апреля 1999 г., № 772-I. Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 1999 г., № 5, ст. 124/<https://www.lex.uz/docs/37370>

с другими изменениями в соответствии с Законом Республики Узбекистан от 29 августа 2001 года № 254-II¹⁸⁴, несмотря на присоединения Узбекистана к ряду международных конвенций, которые предусматривали в обязательном порядке внедрить конфискацию в нормах законодательства, конфискация как вид уголовного наказания была исключена из Уголовного Кодекса. На сегодняшний день в Уголовном кодексе отсутствует какая-либо норма, связанной с конфискацией. Хотя в национальном уголовном праве среди ученых теоретиков нет определенны обоснований об исключении конфискации из системы уголовных наказаний. Но российские ученые-правоведы приводили различные мнения об исключении данного института из Уголовного Кодекса, обосновывая свои позиции¹⁸⁵.

Параллельно, до исключения с уголовного кодекса, вопросы конфискации регулировались уголовно-процессуальным законодательством. Такой механизм конфискации сохранился и по сей день.

Согласно статье 211 Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан¹⁸⁶ вещественные доказательства принадлежащие преступнику, признанным таким судом или следственными органами, подлежат обращению в доход государства или подлежат уничтожению в соответствующем порядке.

А что касается имущества, не принадлежавшие преступнику, то они должны быть возвращены законным владельцам или их законным представителям или наследникам. А в случае не обнаружения таких лиц такое имущество подлежит конфискацию в доход государства. А что касается денежных средств или предметов, представляющие определенную ценность, которые являются результатом преступной деятельности, то они в первую очередь направляются на возмещения причиненного ущерба потерпевшим или другим лицам, а оставшиеся часть конфискуется в пользу государства.

Важно отметить, что в статье 203 УПК дается определения понятию вещественные доказательства, где под этим понятием понимается предмет, у которого имеются определенные знаки, по которым можно опознать происхождение данного предмета, а также можно узнать кому оно принадлежит, в каких целях оно применяется и другие возможные признаки, которые указывают на обстоятельства дела. Хотя данный термин

¹⁸⁴ Закон Республики Узбекистан «о внесении изменений и дополнений в уголовный, уголовно-процессуальный кодексы и кодекс Республики Узбекистан об административной ответственности в связи с либерализацией уголовных наказаний» от 29 августа 2001 г., № 254-II. Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 2001 г., № 9-10, ст. 165 // <https://www.lex.uz/docs/59921>

¹⁸⁵ См., например, Лопашенко Н.А. Уголовная политика. Монография. М., 2009; Непомнящая Т.В. Назначение наказания: теория, практика, перспективы. СПб., 2006; и др.

¹⁸⁶ Уголовно-процессуальный Кодекс Республики Узбекистан. Ведомости Верховного Совета Республики Узбекистан, 1995 г., № 2. // <https://lex.uz/docs/111463>.

непосредственно не указывает на доходы полученные преступным путем, в постановлении Пленума Верховного суда Республики Узбекистан «о некоторых вопросах применения законодательства о вещественных доказательствах по уголовным делам» от 13 декабря 2012 г.¹⁸⁷., дается пояснение, что вещественными доказательствами, в частности, признаются наряду с другими предметами имущество, денежные средства и иные ценности, купленные после совершения преступления на средства, полученные преступным путем (например, дорогие предметы, купленные на похищенные деньги, сырье и изделия из драгоценных металлов, наличные средства, иные ценные вещи, купленные на деньги полученные в результате преступной деятельности).

В уголовно-процессуальном законодательстве Узбекистана также существует понятие предмет преступления, которое подлежит обращению в доход государство согласно статье 284 УПК, если оно по приговору суда не подлежит возврату прежнему собственнику. Если это имущество не обнаружено, то по приговору суда, а в случае прекращения уголовного дела — по решению суда, вынесенному в порядке гражданского судопроизводства, в доход государства взыскивается его стоимость. В данном случае под предметом преступления понимается овеществленный элемент материального мира, одушевленный или неодушевленный, в связи с которым или по поводу которого совершается преступление, на который непосредственно воздействует виновный, осуществляя посягательство на объект преступления¹⁸⁸. То есть те предметы на которые непосредственно направлен умысел преступника завладеть этим предметом.

Кроме этого, в статье 289 УПК в некотором смысле также приводится порядок конфискации, где говорится, что вещественное доказательство является имуществом, которое в силу закона не подлежит свободному обращению, и в отношении которого, нельзя иметь право собственности. Такой предмет, согласно данному порядку, реквизируется либо конфискуется в пользу государства на основании приговора суда, либо возмездно или безвозмездно передается соответствующему государственному органу или государственной организации, имеющее право распоряжаться таким имуществом.

Отдельно от нормы конфискации вещественных доказательств и предмета преступления выделяется норма в статье 285 УПК. Данная статья посвящена для определения дальнейшей судьбы преступного имущества. Согласно данной

¹⁸⁷ Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан «о некоторых вопросах применения законодательства о вещественных доказательствах по уголовным делам» от 13 декабря 2012 г. № 17// <https://lex.uz/docs/2414515#3773299>

¹⁸⁸ Рустамбаев М.Х. Курс уголовного права Республики Узбекистан. Общая часть. Том 1: Учение о преступлении. Учебник для ВУЗов. – Т.: Издательство «ТГЮИ», 2008. Стр. 195.

статье, такие имущества или доходы от них сперва расходуются для возмещения вреда нанесенной от преступления, в том числе возмещения ущерба потерпевшим и иным лицам и только оставшиеся часть от этих мероприятий конфискуется в доход государства.

А в случае, если такое имущество было обнаружено у третьих лиц, которые не имеют отношения к преступлению, то они также подлежат изъятию и конфискации в доход государства. При этом им объясняется право обратиться в гражданский суд с иском о возмещении причиненного ущерба.

Такой порядок также закрепляется в постановлении Пленума Верховного Суда Республики Узбекистан «о судебной практике по делам о незаконном приобретении или сбыте валютных ценностей», где говорится, что вопрос об обращении в собственность государства валютных ценностей, принадлежащих подозреваемому, обвиняемому, подсудимому и признанных предметами преступления, должен разрешаться в порядке статей 211, 284, 285 Уголовно-процессуального кодекса¹⁸⁹.

Вопросы ареста имущества также регламентируется уголовно-процессуальным законодательством. Статья 290 УПК непосредственно нацелена на урегулирование вопросов арест. В данной статье говорится, что для обеспечения исполнения приговора в части гражданского иска, других имущественных взысканий, дознаватель, следователь или суд обязаны наложить арест на имущество подозреваемого, обвиняемого, подсудимого и гражданского ответчика. Арест также налагается на имущество, признанное вещественным доказательством, в целях предотвращения его присвоения, растраты, сокрытия, уничтожения или повреждения.

Согласно данной норме, арест состоит в объявлении собственнику или владельцу имущества запрета на распоряжение, а в необходимых случаях — и пользовании этим имуществом либо в изъятии имущества и сдаче его на хранение другим лицам.

Но также следует отметить, что есть перечень объектов первой необходимости, который утвержден постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан «об утверждении перечня предметов домашней обстановки и обихода, одежды и других предметов, необходимых для нормальной жизнеобеспеченности должника и его семьи, на которые не может

¹⁸⁹ Постановление Пленума Верховного Суда Республики Узбекистан «о судебной практике по делам о незаконном приобретении или сбыте валютных ценностей» от 28 апреля 2000 г., № 8// <https://lex.uz/docs/1449615#1449656>

быть обращено взыскание по исполнительным документам»¹⁹⁰, и на которых нельзя налагать арест.

В данном случае следует отметить, что согласно статье 290 УПК, также нельзя налагать арест на жилой дом, предметы домашней утвари, одежду или на других предметов, которые должны обеспечить семью обвиняемого или гражданского ответчика минимальными условиями для ведения жизнедеятельности. Но если, эти имущества были использованы в преступлениях против основ государства, или же в тяжких и особо тяжких преступлениях, связанных с умышленным убийством, грабежом, или разбоем, то такие имущества подлежат аресту независимо от форм собственности.

Согласно УПК Республики Узбекистан, основанием наложения ареста на преступное имущество является определение суда, который имеет право поручить арест следственному органу, либо постановления дознавателя или следователя, либо санкция прокурора. А также, случаях, когда незамедлительно следует арестовать имущество, в целях предотвращения его утраты или обеспечения его сохранности, уполномоченный орган может осуществить арест без санкции прокурора, с последующим его уведомлением.

Постановление или определение о наложении ареста должны содержать всю информацию об имуществе и о процессе, в том числе время, место, информацию об уполномоченном лице, производивший арест, название дело, цель наложения ареста и объем арестованного имущества.

В случае, если дознаватель или следователь не примет обеспечительные меры в отношении имущества, который подлежит обращению в доход государства либо предназначено для имущественных взысканий, то суд имеет право обязать их на осуществление таких действий.

После оформления постановления об аресте, информация об имуществе, на которое наложен арест, в течении 1 дня данное имущество вносится в залоговый реестр. А после вынесения постановления суда вносится в залоговый реестр в течении 3 дней.

При удовлетворении гражданского иска или применении других имущественных взысканий суд вправе до вступления приговора в законную силу вынести определение о принятии мер, обеспечивающих исполнение приговора в этой части, если они не были приняты ранее.

¹⁹⁰ Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «об утверждении перечня предметов домашней обстановки и обихода, одежды и других предметов, необходимых для нормальной жизнеобеспеченности должника и его семьи, на которые не может быть обращено взыскание по исполнительным документам» от 14 апреля 2009 г., № 110. Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2009 г., № 16, ст. 203// <https://lex.uz/docs/1470265#1470913>

При наложении ареста на имущества дипломатических сотрудников другой страны, арест должен производиться в специальном порядке с учетом правил, предусмотренные в статье 165 УПК РУз., который предназначен для урегулирования вопросов обыска и выемки в зданиях дипломатических представительств.

УПК Республики Узбекистан также предусматривает документирование процесса ареста. Согласно статье 291 УПК, ответственное уполномоченное лицо в обязательном порядке составляет протокол об о аресте имущества с участием не менее двух понятых после завершения других обязательных процедур, описанных выше. Данный протокол должен содержать всю информацию об арестованном имуществе, в том числе его наименование, вес, мера, пригодность, и другие подобные признаки имущества, а также принадлежность имущества, то есть информация о том, кому принадлежит данное имущество, а также дата и время ареста.

После оформления протокола, ответственное уполномоченное лицо должен вручить его копию лицу, у которого изъято имущество, или же одному из членов его семьи, либо законному представителю. Уполномоченное лицо при отсутствии таких лиц имеет право представлять копию протокола председателю органа самоуправления граждан. А в случае ареста имущество в зданиях дипломатических представительств копия протокола вручается руководителю данного представительства.

Кроме этого, при аресте имущества в обязательном порядке должны быть соблюдены правила об оценке имущества, подлежащей конфискации или имущества, который может быть подвергнут имущественным взысканиям. Оценка осуществляется уполномоченным лицом, осуществляющее арест по рыночным ценам на момент производства ареста. Также со стороны уполномоченного лица к оценке могут быть привлечены специалисты оценочных организаций для обеспечения достоверности процесса оценка. А, деньги, облигации, чеки, акции и другие ценные бумаги, в свою очередь, учитываются по номинальному курсу на тот момент.

УПК Республики Узбекистан предусматривает также обстоятельства, по наступлении которых, арестованное имущество подлежит снятию. Такими обстоятельствами считаются вступление в законную силу оправдательного приговора, отказ гражданского истца от своих притязаний на имущество, или же прекращение уголовного дела. После наступления вышеперечисленных обстоятельств запись из залогового реестра подлежит исключению.

СПИСОК-ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР:

1. Рекомендации ФАТФ. Международные стандарты по противодействию отмыванию денег, финансированию терроризма и финансированию распространения оружия массового уничтожения / пер. с англ. — М., 2012/<https://www.mumcfm.ru/biblioteka>;
2. Конвенция Организации Объединенных Наций о борьбе против незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ 1988 года//https://www.unodc.org/pdf/convention_1988_ru.pdf»;
3. Уголовный Кодекс Республики Узбекистан в редакции от 22.09.1994//<https://www.lex.uz/docs/111457?ONDATE=01.04.1995%2000#217237>;
4. Закон Республики Узбекистан «о внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан от 15 апреля 1999 г., № 772-I. Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 1999 г., № 5, ст. 124//<https://www.lex.uz/docs/37370>;
5. Закон Республики Узбекистан «о внесении изменений и дополнений в уголовный, уголовно-процессуальный кодексы и кодекс Республики Узбекистан об административной ответственности в связи с либерализацией уголовных наказаний» от 29 августа 2001 г., № 254-II. Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 2001 г., № 9-10, ст. 165 // <https://www.lex.uz/docs/59921>;
6. Уголовно-процессуальный Кодекс Республики Узбекистан. Ведомости Верховного Совета Республики Узбекистан, 1995 г., № 2.// <https://lex.uz/docs/111463.>;
7. Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан «о некоторых вопросах применения законодательства о вещественных доказательствах по уголовным делам» от 13 декабря 2012 г. № 17// <https://lex.uz/docs/2414515#3773299> Постановление Пленума Верховного Суда Республики Узбекистан «о судебной практике по делам о незаконном приобретении или сбыте валютных ценностей» от 28 апреля 2000 г., № 8// <https://lex.uz/docs/1449615#1449656>;
8. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «об утверждении перечня предметов домашней обстановки и обихода, одежды и других предметов, необходимых для нормальной жизнеобеспеченности должника и его семьи, на которые не может быть обращено взыскание по исполнительным документам» от 14 апреля 2009 г., № 110. Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2009 г., № 16, ст. 203// <https://lex.uz/docs/1470265#1470913>;

9. Kudratillaev K. SPECIFIC FEATURES OF THE USE OF PRECAUTIONARY MEASURES //СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. – 2022. – С. 215-218.
10. Khazratoli K. THE CONCEPT OF LEGALIZATION OF INCOME, CRIMINALLY OBTAINED //World Bulletin of Management and Law. – 2023. – Т. 18. – С. 46-50.
11. Kudratillaev X. Z. Evaluation of evidence in criminal proceedings (international experience) //Herald pedagogiki. Nauka i Praktika. – 2022. – Т. 2. – №. 2.
12. Кудратиллаев Х. З. ВОПРОСЫ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ НОРМ МЕЖДУНАРОДНЫХ КОНВЕНЦИЙ ПО РЕГУЛИРОВАНИЮ АРЕСТА И КОНФИСКАЦИИ. – 2022.
13. Кудратиллаев Х. Foreign and national experience in a predicate crime setting //Общество и инновации. – 2023. – Т. 4. – №. 2/S. – С. 293-296.
14. Қудратиллаев Х. Правила подследственности при выявлении и расследовании преступлений, связанных с отмыванием денег //Современные проблемы развития уголовно-процессуального права. – 2022. – Т. 1. – №. 1.

**BELGILARNI XALQARO RO‘YXATGA OLISH TO‘G‘RISIDAGI
MADRID KELISHUVI BAYONNOMASI QOIDALARI VA SANOAT
MULKINI HIMOYA QILISH BO‘YICHA PARIJ KONVENSIYASINING
BELGILARNI XALQARO RO‘YXATGA OLISH TO‘G‘RISIDAGI
QOIDALARINING QIYOSIY TAHLILI**

Umarova Xolisxon Nomoz qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti talabasi

e-mail: xolisxonumarova2310@gmail.com

ANNOTATSIYA

Tovar belgilari (trademarks) mahsulotlarni yagona nom ostida iste'molchilarga tanitish, bozorda shu kabi raqobatdoshlar orasida ajralib turish hamda ular orasida o'z o'rniga ega bo'lishda alohida ahamiyat kasb etadi. Boshqa intellektual mulk obyektlaridan farqli ravishda tovar belgilarining muhofazasi bir hudud doirasida bo'lgani bois, ishlab chiqarish kengayishi va yangi bozorlarga kirib borish qo'shimcha muhofaza bo'yicha ham choralar ko'rishni taqozo etadi. Quyidagi maqola orqali biz Belgilarni xalqaro ro'yxatga olish to'g'risidagi Madrid kelishuvi bayonnomasi qoidalarini va sanoat mulkini himoya qilish bo'yicha Parij konvensiyasining belgilarini xalqaro ro'yxatga olish to'g'risidagi qoidalarini qiyosiy tahlilini o'tkazish orqali belgilarini xalqaro miqiyosda ro'yxatdan o'tkazishning o'ziga xos jihatlari haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: tovar belgilari, xalqaro ro'yxatga olish tizimlari, yagona ariza va yagona to'lov, kelib chiqqan mamlakat, milliy rejim.

**COMPARATIVE ANALYSIS OF THE PROVISIONS OF THE
PROTOCOL OF THE MADRID AGREEMENT AND THE PROVISIONS OF
THE PARIS CONVENTION ON THE PROTECTION OF INDUSTRIAL
PROPERTY ON THE INTERNATIONAL REGISTRATION OF MARKS**

Umarova Kholiskhon Nomoz kizi

Student of Tashkent State University of Law

Private law faculty

e-mail: xolisxonumarova2310@gmail.com

ABSTRACT

Trademarks have a particular importance in introducing products to consumers under a single name, distinguishing themselves among similar competitors in the market and gaining a place among them. Unlike other intellectual property objects,

the protection of trademarks is limited to one territory, so the expansion of production and penetration into new markets require taking measures for additional protection. Through the following article, we will conduct a comparative analysis of the provisions of the Protocol of the Madrid Agreement on the International Registration of Marks and the provisions of the Paris Convention for the Protection of Industrial Property on the international registration of marks.

Key words: *trademarks, international registration systems, single application and payment, country of origin, national treatment.*

KIRISH

Tovar belgilarining muhofazasi shu bilan ajralib turadiki, ular faqat ma'lum bir hudud doirasida muhofazaga olinadi. Shuning uchun tovar belgilarining muhofaza chegaralarini kengaytirish uchun ularni boshqa davlatlar hududida ham ro'yxatdan o'tkazish muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda tovar belgilarini muhofaza qilish uchun ro'yxatdan o'tkazishning uch xil ko'rinishi mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) milliy tizim orqali ro'yxatdan o'tkazish:

Milliy tizim orqali tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish vakolatli organga ariza berish va belgilangan to'lovlarni to'lash orqali amalga oshiriladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasida tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish uchun Vazirlar Mahkamasining 480-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilarini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning Ma'muriy reglamenti"ga ko'ra O'zbekiston Respublikasi rezidentlari maxsus axborot tizimi orqali yoxud YIDXP orqali, norezidentlar esa axborot tizimi orqali talabnoma yo'llashi mumkin hisoblanadi.

Ba'zi mamlakatlarda vakilga, (masalan, O'zbekistonda norezidentlar uchun patent vakiliga) murojaat qilish talabi bo'lishi yoki ba'zida milliy tizimning umuman bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, Sharqiy Timor, Maldiv orollari va Tinch Okeanining ayrim orollari kabi hududlarda tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazuvchi milliy agentliklar yaratilmagan yoxud sanoat mulki to'g'risidagi qonunlar hali tasdiqlanmagan¹⁹¹. Bunday vaziyatda mintaqaviy ro'yxatdan o'tkazish tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2) mintaqaviy tizim orqali ro'yxatdan o'tish:

Tovar belgilarini mintaqaviy ro'yxatdan o'tkazish uchun tegishli hududiy idoraga(vakolatli organga) ariza bilan murojaat etiladi. Bunda ro'yxatdan o'tkazish amalga oshirilgandan keyin mintaqaviy idoraga a'zo davlatlarning hammasida

¹⁹¹ [Initial guide for registering trademarks internationally. João Francisco Sá . September14, 2021](https://inventia.com/en/news/article/678/initial-guide-for-registering-trademarks-internationally)
<https://inventia.com/en/news/article/678/initial-guide-for-registering-trademarks-internationally>

muhofazaga olingan hisoblanadi. Bugungi kunda bunday idoralar sifatida quyidagilar faoliyat yuritadi:

- * Afrika mintaqaviy intellektual mulk tashkiloti (ARIPO)
- * Benilyuks Intellektual Mulk idorasi (BOIP)
- * Yevropa Ittifoqi Intellektual mulk idorasi (EUIPO)
- * Afrika Intellektual Mulk Tashkiloti (OAPI)

Masalan, 2016-yilda Tunisda ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Habiba Jewellery” 2022-yilda Afrika Intellektual Mulk Tashkiloti (OAPI)dan ro‘yxatdan o‘tish orqali fransuz tilida so‘zlashuvchi 16ta davlatda o‘z brendining muhofazasiga erishgan¹⁹².

3) xalqaro tizim orqali ro‘yxatdan o‘tish:

I.B.Yakubovning “Xalqaro intellektual mulk huquqi” o‘quv qo‘llanmasida xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish tizimlarining uch xil turi alohida ta’kidlanadi¹⁹³:

- 1) belgilarni xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish uchun Madrid tizimi;
- 2) sanoat namunalari ro‘yxatdan o‘tkazish uchun Gaaga tizimi;
- 3) tovar kelib chiqqan joy nomlarini xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish uchun Lissabon tizimi.

Bizning tahlilimizga aloqadori belgilarni xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha Madrid tizimi bo‘lib, BIMT (Butunjahon intellektual mulk tashkiloti) tomonidan tashkil etilgan bu tizim yagona ariza va to‘lov tizimi orqali tovar belgilarini BIMTga a‘zo 130 ta davlat hududida himoya qilish imkonini taqdim etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sanoat mulkini muhofaza qilishga qaratilgan 1887-yilda qabul qilingan Parij konvensiyasi intellektual mulk huquqi uchun eng muhim ko‘p tomonlama shartnomalardan biri hisoblanadi. Konvensiyaning 1-moddasida sanoat mulkini muhofaza qilish obyektida ixtiro, foydali model, sanoat namunalari, geografik ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda tovar kelib chiqqan joy nomlari, tovar va xizmat ko‘rsatish belgilari ham nazarda tutilgan. 1891-yildagi Madrid kelishuvi esa ushbu Bitim qo‘llaniladigan mamlakatlarda belgilarni xalqaro ro‘yxatga olish uchun maxsus ittifoqni tashkil qilish maqsadida imzolangan kelishuv hisoblanadi. (Madrid kelishuvi 1-moddasi). Madrid tizimi 1891-yilda Belgilarni xalqaro ro‘yxatga olish bo‘yicha Madrid kelishuvi asosida vujudga kelgan. Kelishuv imzolanganidan keyin o‘tgan dastlabki yillarda ro‘yxatga olish salmog‘i nisbatan kamroq bo‘lgan. Ammo deyarli 1 asrdan so‘ng Madrid bayonnomasi (protokoli) qabul qilingandan keyin belgilarni xalqaro ro‘yxatga olishlar soni shu davrgacha ro‘yxatga olishlar sonidan ham

¹⁹²“HABIBA Jewellery”: Timeless Tunisian Jewelry Takes the International Stage by storm
<https://www.wipo.int/ipadvantage/en/details.jsp?id=12875>

¹⁹³ I.B.Yakubova “Xalqaro intellektual mulk huquqi”. O‘quv qo‘llanmasi. 135-bet

ko'proqqa oshgan, ya'ni 1998-yilda 20 000 tagacha yetgan. 2022-yilda kelib esa jami 69 mingga yaqin belgilar Madrid tizimi orqali turli davlatlarda ro'yxatga olingan¹⁹⁴.

Ko'pchilik mutaxassislar Madrid kelishuvini "ishlamaydi" deb baholaydilar va Madrid protokolining ijobiy tomonlarini qo'llab-quvvatlaydilar. Izlanishlarimiz davomida Madrid kelishuvi va protokoli deyarli bir xil ekanligiga guvoh bo'lsak-da, ba'zi yirik davlatlar, jumladan, AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya kabi sanoat mamlakatlarining kelishuvga qo'shilishdan bosh tortishi, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun Madrid kelishuvi qoidalarini qabul qilishdagi ma'muriy qiyinchiliklar uning o'rniga u asosda qabul qilingan bayonnoma (protokol)ning ommalashuviga olib kelgan bo'lishi mumkin, degan fikrga kelmoqdamiz.

Belgilarni xalqaro ro'yxatga olish to'g'risidagi Madrid kelishuvi protokoli va Sanoat mulkini himoya qilish to'g'risidagi Parij konvensiyasining har ikkisida ham belgilarni xalqaro ro'yxatga olish bilan bog'liq qoidalar mavjud. Ammo ular quyidagi jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi, bir-birini to'ldiradi va(yoki) bir-birini taqozo etadi:

Birinchidan, Madrid kelishuvi protokoli bir ariza va bir to'lov tizimi orqali Madrid kelishuvi va protokoliga a'zo davlatlarda ro'yxatdan o'tish imkonini taqdim etadi. Bugungi kunda Madrid kelishuvi va protokoliga 130 mamlakat a'zo bo'ladigan bo'lsa, ariza topshiruvchi mana shu davlatlar doirasida istalgancha miqdordagi davlatlardan ro'yxatdan o'tishi mumkin hisoblanadi. Parij konvensiyasi esa ro'yxatdan o'tishning yagona markazlashgan tizimini belgilamaydi. Parij konvensiyasiga a'zo mamlakatlar hududidan ro'yxatdan o'tish uchun ularning har biriga alohida ariza topshirishga to'g'ri keladi.

Ikkinchidan, Madrid kelishuvi bayonnomasida "country of origin" – kelib chiqqan mamlakat huquqiga alohida e'tibor qaratiladi. Arizachi Madrid kelishuvi orqali ro'yxatdan o'tishi uchun avval u o'zining mamlakatida ro'yxatdan o'tgan bo'lishi kerak. Shuningdek, protokolda "basic mark"- "asosiy belgi" tushunchasi ham mavjud bo'lib, Madrid tizimidan foydalanish niyatidagi Ahdlashuvchi davlat fuqarosi xuddi shu belgini avvalo milliy yoki mintaqaviy idoradan ro'yxatdan o'tkazishi va asosiy belgiga ega bo'lishi zarur. Asosiy belgi olingandan so'ng, milliy yoki vakolatli idora xalqaro byuroga arizani yuboradi. Parij konvensiyasida esa bunday tizim mavjud emas. Shuning uchun talabgor har bir mamlakat idorasiga talabnomani shaxsan yoki vakil(ishonchli yoki patent vakili) orqali topshirishi kerak bo'ladi.

Uchinchidan, Protokol bo'yicha xalqaro ro'yxatga olish arizachi tomonidan belgilangan barcha a'zo mamlakatlarda amal qiladi. Har bir tayinlangan davlat o'z

¹⁹⁴ World Intellectual Property Organization (WIPO) (2023). Madrid Yearly Review 2023: International Registration of Marks. Geneva: WIPO. DOI:10.34667/tind.48060

milliy qonunchiligi asosida arizani ko‘rib chiqadi va ro‘yxatga olish to‘g‘risida mustaqil qaror qabul qiladi.

To‘rtinchidan, Madrid protokoli bo‘yicha himoya muddati 10 yilni tashkil etadi va qo‘shimcha to‘lovlarni amalga oshirish orqali bu muddatni 10 yilga uzaytirib borishi mumkin. Parij konvensiyasi esa muhofaza muddati uchun umumiy asoslar belgilab bermaydi, buni milliy idoralarning ixtiyoriga qoldiradi.

Beshinchidan, Madrid protokoli markaziy boshqaruvni amalga oshirish uchun markaziy organ sifatida BIMT Xalqaro byurosini tashkil qiladi. U Xalqaro reyestrni yuritadi va xalqaro ro‘yxatga olishlarni BIMT rasmiy gazetasida e‘lon qiladi. Parij konvensiyasida esa bunday markaziy boshqaruv organi mavjud emasligi bilan undan farq qiladi.

Aslida, Madrid kelishuvi bayonnomasi ham Parij konvensiyasining ham o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, birini ikkinchidan ustun qo‘yish noo‘rin bo‘lgan bo‘lar edi. Masalan, Parij konvensiyasini oladigan bo‘lsak, bu konvensiyaning o‘ziga xos jihatlardan biri bu “konvension ustuvorlik”ning aynan Parij konvensiyasi bilan belgilanishini aytish mumkin. Ustuvorlik huquqining kelib chiqish asosi Parij konvensiyasining 11-moddasi bo‘lib, unda belgilanishicha, Ahdlashuvchi davlatlar hududidagi ko‘rgazmalarda taqdim etilgan ishlar vaqtinchalik muhofazaga olinadi va agar ushbu ustuvorlikdan foydalanilmoqchi bo‘lsa, demak, har qanday davlat vakolatli idorasi ustuvorlikni shu sanadan boshlab hisoblashi kerak bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi Qonunning 12-moddasiga ko‘ra, talabnoma berilgan sanadan boshlab 6 oy ichida konvension ustuvorlik bo‘yicha ustuvorlik belgilanishi mumkin¹⁹⁵.

Madrid tizimining yana bir shunday jihati borki, undan foydalanish hamma uchun ochiq bo‘lavermasligi mumkin. Negaki, Madrid protokolining 2-modda 1-qism (i) bandi talabiga ko‘ra, talabnoma egasi quyidagi talablardan biriga javob berishi kerak:

- 1) Protokolga a‘zo davlat fuqarosi bo‘lishi;
- 2) Protokolga a‘zo davlatda yashashi yoki
- 3) Protokolga a‘zo davlatda haqiqiy va samarali sanoat yoki tijorat muassasasiga ega bo‘lishi.

Parij konvensiyasining 3-moddasi esa ittifoqdan tashqarida bo‘lgan yoki Ittifoq davlatlaridan birining hududida haqiqiy va samarali sanoat yoki tijoriy muassasalariga ega bo‘lgan Ittifoqdan tashqarida bo‘lgan mamlakatlar fuqarolariga

¹⁹⁵ O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi Qonun. 30.08.2001 yildagi 267-II-son

Ittifoq mamlakatlari fuqarolari bilan bir xil munosabatda bo‘linishini talab qiladi. Xalqaro huquqda “national treatment” – milliy rejim nomi bilan ataluvchi bu qoida Ahdlashuvchi tomonlarni tovar belgilarining muhofazasiga doir choralar ko‘rishga undaydi. Shuningdek, Parij konvensiyasining 9-moddasiga ko‘ra, tovar belgisi yoki savdo nomiga qonunga xilof ravishda ega bo‘lgan barcha tovarlar Ittifoqning o‘sha mamlakatlariga olib kirilishida olib qo‘yilishi kerak. Qonunga xilof harakat sodir bo‘lgan yoki tovar import qilingan mamlakatda musodara ham amalga oshiriladi. Bu esa o‘z navbatida Ahdlashuvchi davlatlarga muhofazaga doira alohida choralarni ko‘rishni taqozo etadi.

Madrid tizimi ko‘p jihatdan talabgorlarga qaysidir ma’noda “bir darcha” tizimini taklif etsada, uni butkul kamchiliklardan holi tizim deb bo‘lmaydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, bu tizimni tadqiq qilish bo‘yicha ishlar hali oxiriga yetmagan. Masalan, Agnieszka Przygodaning “Tovar belgilarini xalqaro ro‘yxatga olishning Madrid tizimi: yutuq va kamchiliklari” nomli maqolasida tovar belgilarini xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish yagona talabnoma, maqbul to‘lov va markaziy boshqaruv kabi ijobiy jihatlarga ega bo‘lsada, uning “markaziy hujum”, biz yuqorida aytib o‘tgan talabnoma beruvchining shaxsiga doir talablarning bo‘lishi kabilarni tizimning kamchiliklari sifatida keltirib o‘tiladi¹⁹⁶.

Shuningdek, Madrid kelishuvi bayonnomasi qoidalariga ko‘ra, belgi ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng 5 yil ichida manfaatdor shaxslar tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazishni bekor qilish yoki haqiqiy emas deb topish uchun shikoyat qilish mumkin. Aytaylik, A yuridik shaxs o‘z tovar belgisini Madrid tizimi orqali 12 ta davlatda ro‘yxatdan o‘tkazdi. Ammo asosiy faoliyati C davlatda bo‘lib, qolgan 11ta davlatda faoliyat yuritmaydi. Mana shunday vaziyatda 11ta davlatdagi manfaatdor shaxslar tovar belgisidan muntazam ravishda 5 yil foydalanilmaganiga e’tiroz bildirib, tovar belgisini amal qilishini bekor qilishni so‘rab vakolatli organga murojaat etishi mumkin. Bu muddat qat’iy bo‘lmay, turli davlatlarda turlicha muddatni qamrab olishi ham mumkin. Masalan, O‘zbekistonda bu muddat “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi Qonunning 25-moddasiga ko‘ra 3 yilni tashkil etadi va sud qaroriga asosan tugatiladi. Shuning uchun ro‘yxatdan o‘tkazilgan mamlakatlarda tovar belgisidan foydalanish ham ahamiyatga molik jarayon hisoblanar ekan. Xuddi shunga o‘xshash talab Parij konvensiyasida ham belgilangan bo‘lib, uning 6-moddasi qoidalaridan kelib chiqib aytish mumkinki,

¹⁹⁶ Agnieszka Przygoda. The International Registration of Trade Marks under the Madrid System: Advantages and Disadvantages. EASTERN EUROPEAN JOURNAL OF TRANSNATIONAL RELATIONS 2019 Vol. 3 No. 1 DOI: 10.15290/eejtr.2019.03.01.05

<file:///C:/Users/Alpha/Downloads/The International Registration of Trade Marks unde.pdf>

tovar belgisi ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng 5 yil ichida ro'yxatdan o'tkazishga qarshi e'tiroz bildirish mumkin.

Osiyo-tinch okeani mintaqasida intellektual mulk huquqi bo'yicha yetakchi firma Bross&Partners ham Madrid tizimining kamchiliklarini keltirib o'tadi. "Masalan, - deyiladi maqolada¹⁹⁷, - Madrid tizimi jamoaviy savdo belgilari yoki sertifikatlash tovar belgilari uchun mos emas. Sababi, MM2 shakli bo'yicha xalqaro ro'yxatdan o'tish uchun ariza topshirayotganda talabnoma beruvchi uchta belgidan biri o'rniga barcha uch turdagi belgilarni: jamoaviy belgi, sertifikatlash belgisi va kafolat belgisini tanlashga majbur bo'ladi. Natijada, belgilangan davlatlar bunday ro'yxatdan o'tkazishni vaqtinchalik rad etishadi. Chunki aynan qaysi tovar belgisi uchun ariza berilganligi aniq emasdek ko'rinadi. Madrid tizimida talabnoma beruvchiga boshqa majburiy hujjatlarni, masalan, talabnoma beruvchining huquqini tasdiqlovchi hujjatlar, sertifikatlash belgisi yoki jamoaviy belgidan foydalanish qoidalarini taqdim etish imkonini beruvchi mexanizm ham mavjud emas. Binobarin, arizachi ushbu belgilangan mamlakatlar tomonidan berilgan turli rad javoblarini hal qilish uchun mahalliy advokatni yollashga ko'proq xarajat va vaqt sarflashi kerak bo'ladi"¹⁹⁸.

Jumladan, ushbu rasmda keltirilgan 31-klassga mansub meva uchun tovar belgisi ro'yxatga o'tkazilayotganda Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy, Benilyuks va Singapur davlatlari tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishni rad etgan. Sabab sifatida esa yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek uchta belgidan aniq bittasini ajratib ko'rsatmaganligi qayd etilgan. Bundan tashqari, ma'lumki, belgilar boshqa shaxsga o'tkazilganda ham ro'yxatdan o'tkazish amalga oshiriladi. Madrid tizimida esa garchi mulkdorni o'zgartirish imkoniyati taqdim etilsada, bunday huquqning yangi egasi ham biz yuqorida huquq egasi uchun qanday talablar qo'yilganligi haqida aytgan bo'lsak, xuddi shunday talablarga javob berishi, Ahdlashuvchi davlatlardan birining fuqarosi bo'lishi yoxud u yerda yashashi yoxud ishlab chiqarishga ega bo'lishi darkor (Madrid bayonnomasi 9-moddasi). Bu esa huquq egasining o'z huquqlarini istalgancha begonlashtirish imkoniyatini cheklaydi.

Umuman olganda, belgilarni ro'yxatdan o'tkazish faqat Madrid kelishuvi va protokoli va/yoki Parij konvensiyasi bilan tartibga solinmaydi. Bundan tashqari, ushbu jarayonlarni tartibga solishga qaratilgan bir qancha xalqaro hujjatlar, jumladan, "Tovarlar va xizmatlarning xalqaro tasnifi to'g'risida" Nitsa shartnomasi, "Tovar belgilarining tasviriy elementlarining xalqaro tasnifi to'g'risida" Vena shartnomasi,

¹⁹⁷ Minde Glemn Browning. International Trademark Law: A pathfinder and Selected bibliography.

<https://mckinneylaw.iu.edu/iiclr/pdf/vol4p339.pdf>

¹⁹⁸ 9 disadvantages of the Madrid System for International Trademark Registration.

<https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=29342dbe-af55-465a-9dfa-1bafbb7ffecf>

“Tovar belgilari qonuni to‘g‘risida” Singapur kelishuvi, “Tovar belgilariga oid qonunchilik shartnomasi”, “Olimpiya belgisini himoya qilish to‘g‘risida”gi Nairobi kelishuvi ham bunga misol bo‘laoladi. Ya’ni birgina Madrid bayonnomasi va Parij konvensiyasining o‘zi butunboshli ro‘yxatdan o‘tish tizimini qamrab ololmaydi. Masalan, Nitsa shartnomasida tovarlarning klassifikatsiyasiga oid talablar mavjud bo‘lib, Madrid Protokolining 3-moddasi 2-qismiga ko‘ra, arizachi, ya’ni talabnoma egasi tegishli belgining klassini ham ko‘rsatib o‘tishi darkor. Agar buni ko‘rsatib o‘tmasa, Xalqaro byuro tovarlar va xizmatlarni ko‘rsatilgan tasnifning tegishli sinflariga tegishli o‘zi tasniflaydi. “Tovar belgilariga oid qonunchilik shartnomasi”ning 15-moddasi esa har qanday Ahdlashuvchi Tomonning Parij konvensiyasining belgilarga tegishli qoidalariga rioya qilishi majburiyatini yuklaydi¹⁹⁹. Ushbu shartnoma shuningdek, agar davlatlarning milliy qonunchiligida shunday talab bo‘lsa, ro‘yxatdan o‘tkazish shunga vakolatli bo‘lgan vakil orqali amalga oshirilishi mumkinligini ta’kidlaydi. Masalan, patent vakili orqali. O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 34-moddasida O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashovchi jismoniy shaxslar yoki chet ellik yuridik shaxslar tovar belgilarini va tovar kelib chiqqan joy nomlarini ro‘yxatdan o‘tkazish ishlarini yuritishni hamda bu ishlar bilan bog‘liq yuridik ahamiyatga molik harakatlarni Departamentda ro‘yxatdan o‘tgan patent vakillari orqali amalga oshirishlari belgilab o‘tilgan.

Shuningdek, nizo tomoni Madrid tizimi orqali ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, BIMTning mediatsiya, arbitraj va ekspert xizmatlari bo‘yicha ma’muriy to‘lovlarga 25 foiz chegirmalar taqdim etiladi. Shu munosabat bilan tovar belgisi bilan bog‘liq nizolar BIMT mediatsiya va arbitraj ishlarining qariyb 20 foizini tashkil etmoqda²⁰⁰. Bu ham Madrid tizimining yanada ommalashuviga xizmat qilayotgan bo‘lishi mumkin.

Madrid kelishuvi va protokoli bo‘yicha va alohida tartib bo‘yicha belgilarni xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazishni yanada yaxshiroq anglash uchun quyidagi misoldan foydalanishni maqsadga muvofiq deb topdik²⁰¹:

Tasavvur qilaylik, Selly Kanadaning Vonderland vodiysida istiqomat qiladi. U asalning noyob turi savdosi bilan shug‘ullanadi va o‘z brendini Xitoy, Germaniya, Norvegiya va AQShda ro‘yxatdan o‘tkazishni istadi. Uning oldida ikki yo‘l bor edi. Birinchisi, har bir davlatga alohida talabnoma topshirish, ikkinchisi esa Madrid tizimi

¹⁹⁹ Trademark Law Treaty. Done at Geneva on October 27, 1994. <https://mckinneylaw.iu.edu/iiclr/pdf/vol4p339.pdf>

²⁰⁰ Time and cost-efficient alternative dispute resolution services for users of the MADRID system <https://www.wipo.int/amc/en/center/madrid/>

²⁰¹ Guide to the Madrid system . International Registration of Marks under the Madrid Protocol. World Intellectual Property Organization (WIPO) Geneva WIPO Publication No. 455E/22 WIPO 2022

yordamida bir talabnoma orqali bir qancha davlatdan tovar belgisini bir vaqtda ro'yxatdan o'tkazish.

Agar Selly "to'g'ridan-to'g'ri yo'l"ni tanlasa, u:

Birinchidan, har bir davlatning milliy idorasiga alohida talabnoma yuborishi kerak;

Ikkinchidan, vakil xizmatidan foydalanishga ehtiyoj seziladi;

Uchinchidan, talabnomani 4 tilga tarjima qildirishiga to'g'ri keladi;

To'rtinchidan, har bir talabnoma uchun alohida belgilangan to'lovlarni amalga oshirishi kerak bo'ladi. Aksiga olib ko'p davlatlarda, jumladan O'zbekistonda ham tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish uchun rezidentlarga nisbatan norezidentlarga yuqoriroq to'lov stavkalari belgilangan.

Agar Selly "Madrid tizimi" yo'lini tanlanasa, u:

Birinchidan, yagona to'lovni amalga oshiradi;

Ikkinchidan, patent vakili xizmatidan foydalanish majburiy bo'lmaydi;

Uchinchidan, yagona talabnoma va yagona tilda (protocol bo'yicha ingliz, ispan va fransuz tillarning birida) Xalqaro byuroga murojaat etiladi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, Belgilarni xalqaro ro'yxatga olish to'g'risidagi Madrid kelishuvi bayonnomasi ham sanoat mulkini himoya qilish bo'yicha Parij konvensiyasi ham belgilarni xalqaro miqiyosda ro'yxatdan o'tkazish qoidalarini nazarda tutadi. Ularda mavjud qoida va shartlar garchi bir-birga o'xshasada, ba'zi bir jihatlari bilan bir-biridan farq qilishini ko'rib o'tdik:

Birinchidan, Madrid protokoli BIMTga qarashli Xalqaro byuroga yagona ariza berish orqali belgilarni kelishuvga a'zo bir qancha davlatda bir vaqtning o'zida ro'yxatdan o'tkazish imkonini beradi, Parij konvensiyasi esa garchi Ahdlashuvchi davlatlar hududida himoyalani huquqini taqdim etsada, ro'yxatdan o'tkazishning yagona markazlashgan mexanizmini taklif etmaydi;

Ikkinchidan, Madrid protokoli xalqaro ro'yxatga olishni boshqarish va yangilash bo'yicha markazlashtirilgan tizimni yaratadi, Parij konvensiyasi esa tovar belgilarini ro'yxatga olishni boshqarishni a'zo davlatlarning alohida milliy idoralari ixtiyoriga qoldiradi;

Uchinchidan, garchi Madrid tizimi vaqt va sarf-xarajatlar tejash uchun samarali usul bo'lib ko'rinsada, uni yuqorida biz sanab o'tgan ba'zi noqulayliklari tufayli to'liq mukammal va barcha uchun qulay rejim deb bo'lmaydi;

To'rtinchidan, belgilarni ro'yxatdan o'tkazish o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, chet el elementi bilan murakkablashgan ushbu jarayonni tartibga solishga

qaratilgan mahalliy, mintaqaviy va xalqaro hujjatlarning o‘rni va ahamiyati ushbu jarayonda muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi Qonun. 30.08.2001 yildagi 267-II-son
2. Vazirlar Mahkamasining 480-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishning Ma‘muriy reglamenti” 19.09.2023
3. World Intellectual Property Organization (WIPO) (2023). Madrid Yearly Review 2023: International Registration of Marks. Geneva: WIPO. DOI:10.34667/tind.48060
4. “HABIBA Jewellery”:Timeless Tunisian Jewelry Takes the International Stage by storm <https://www.wipo.int/ipadvantage/en/details.jsp?id=12875>
5. I.B.Yakubova “Xalqaro intellektual mulk huquqi”. O‘quv qo‘llanmasi.
6. Agnieszka Przygoda. The International Registration of Trade Marks under the Madrid System: Advantages and Disadvantages. EASTERN EUROPEAN JOURNAL OF TRANSNATIONAL RELATIONS 2019 Vol. 3 No. 1 DOI: 10.15290/ejtr.2019.03.01.05
7. Minde Glenn Browing. International Trademark Law: A pathfinder and Selected bibliography. <https://mckinneylaw.iu.edu/iiclr/pdf/vol4p339.pdf>
8. disadvantages of the Madrid System for International Trademark Registration. <https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=29342dbe-af55-465a-9dfa-1bafbb7ffecf>
9. Trademark Law Treaty. Done at Geneva on October 27, 1994. <https://mckinneylaw.iu.edu/iiclr/pdf/vol4p339.pdf>
10. Time and cost-efficient alternative dispute resolution services for users of the MADRID system <https://www.wipo.int/amc/en/center/madrid/>
11. Guide to the Madrid system . International Registration of Marks under the Madrid Protocol. World Intellectual Property Organization (WIPO) Geneva WIPO Publication No. 455E/22 WIPO 2022 p.19

JINOYAT ISHLARI BO‘YICHA DALILLAR VA ISBOTLASH INSTITUTI DOIRASIDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

A.A. Abdurashidov

Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası o‘qituvchisi
Toshkent, O‘zbekiston
abdurashidovabdurauf1991@gmail.com
+99890 959 52 11

ANNOTATSIYA

Barchamizga ma’lumki, har bir sohada ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish soha bo‘yicha ko‘plab yangi bilimlarning egallanishiga, qolaversa, har bir islohotning ishlash mexanizmi qanday, u o‘ylangan natijalarga erishish imkoniyatini bera oladimi, uning samaradorligi qanday kabi savollarga javob topishimizda muhim ro‘l o‘ynaydi. Shundan kelib chiqib, biz ham dalillar va isbotlash doirasida bir qator xorijiy mamlakatlarning tajribasini o‘rganishga qaror qildik. Maqolada Germaniya hamda Fransiya jinoyat-protsessual qonunchiligi o‘rganilgan.

***Kalit so‘zlar:** “ex officio”, “passiv himoya”, “isbotlashda taqiqlash”, “dalil to‘plashni taqiqlash” va “dalillardan foydalanishni taqiqlash”.*

ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В РАМКАХ ИНСТИТУТА ДОКАЗАТЕЛЬСТВ И ДОКАЗЫВАНИЯ ПО УГОЛОВНЫМ ДЕЛАМ

Абдурашидов А.А.

Преподаватель кафедры
уголовно-процессуального права
Ташкентского государственного юридического университета,
Ташкент, Узбекистан
E-mail: abdurashidovabdurauf1991@gmail.com
Телефон: +99890 959 52 11

АННОТАЦИЯ

Как мы все знаем, изучение опыта передовых зарубежных приглашений в каждой сфере приводит к приобретению множества новых знаний в этой области, кроме того, каков механизм работы каждой реформы, может ли она дать возможность достичь намеченного? результаты, насколько ее эффективность и т. д. играет важную роль в поиске нами ответов на вопросы. Исходя из этого, мы решили изучить опыт ряда зарубежных стран в

качестве доказательства и доказательств. В статье исследуется уголовно-процессуальное право Германии и Франции.

Ключевые слова: «*ex officio*», «пассивная защита», «запрет на доказывание», «запрет на сбор доказательств» и «запрет на использование доказательств».

EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES WITHIN THE INSTITUTE OF EVIDENCE AND PROOF IN CRIMINAL CASES

A.A. Abdurashidov

Lecturer of the Department of Criminal and Procedural
Law of Tashkent State Law University,

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: abdurashidovabdurauf1991@gmail.com

Phone: +99890 959 52 11

ABSTRACT

As we all know, studying the experience of advanced foreign invitations in each field leads to the acquisition of a lot of new knowledge in the field, in addition, what is the working mechanism of each reform, can it give the opportunity to achieve the intended results, how is its effectiveness, etc. plays an important role in our finding answers to questions. Based on this, we decided to study the experience of a number of foreign countries as evidence and proof. The criminal procedural law of Germany and France is studied in the article.

Key words: "*ex officio*", "*passive protection*", "*prohibition on proof*", "*prohibition of collection of evidence*" and "*prohibition of use of evidence*".

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, har bir sohada ilg'or xorijiy davatlar tajribasini o'rganish soha bo'yicha ko'plab yangi bilimlarning egallanishiga, qolaversa, har bir islohotning ishlash mexanizmi qanday, u o'ylangan natijalarga erishish imkoniyatini bera oladimi, uning samaradorligi qanday kabi savollarga javob topishimizda muhim ro'l o'ynaydi. Shundan kelib chiqib, biz ham dalillar va isbotlash doirasida bir qator xorijiy mamlakatlarning tajribasini o'rganishga qaror qildik. Avvalo, Germaniya jinoyat-protsessual qonunchiligini tahlil qilib chiqsak.

Nemis qonunchiligi jinoyat protsessida isbotlashdan maqsad haqiqatni aniqlash ekanligini va bu vazifani amalga oshirish birinchi navbatda sud zimmasiga yuklanishini aniq belgilab beradi. Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 244- moddasiga muvofiq, sud haqiqatni aniqlash uchun "ex

officio” hukm chiqarish uchun ahamiyatli bo'lgan barcha faktlar va dalillarni tekshirishi shart. Nemis qonunchiligida ham milliy qonunchiligimizdagi kabi dalillarni baholashdan maqsad haqiqatni aniqlashdir.

Shu bilan birga, sud xolislikni ta'minlash uchun o'zi jinoiy ish qo'zg'atishi yoki ayblov qo'zg'atishi mumkin emas. Ish sudga topshirilgunga qadar isbotlash yuki prokuratura organi zimmasiga tushadi. Shu bilan birga, “prokuratura shaxsni nafaqat ayblash, balki uning aybini rad etish uchun ham xizmat qiladigan holatlarni aniqlashi kerak, unga yo'qolib ketishi xavfi mumkin bo'lgan dalillarni to'plash vazifasi yuklangan”²⁰².

Isbotlash jarayonida ayblanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashga harakat qilmaydi va u jim turish huquqiga ega, bunga “passiv himoya” shakli sifatida qaraladi. Ushbu qoida O'zbekiston Respublikasi JPKning 23-moddasida ham o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari, “gumon qilinuvchi, ayblanuvchi zimmasiga ko'rsatuv berish majburiyati yuklanishi mumkin emas, o'z aybsizligini yoki ish bo'yicha biror-bir holatni isbotlash mas'uliyatini yuklashga ham yo'l qo'yilmaydi. Qonunga asosan bunday majburiyat jinoyat ishini yuritishga mas'ul davlat organlari mansabdor shaxslarining zimmasiga yuklatilgan”²⁰³ ligi qoidasi mustahkamlangan. Xuddi shuningdek, aybsizlik prezumpsiyasi bilan bog'langan mazkur qoida mamlakatimizning yangi tahrirdagi qabul qilingan Konstitutsiyasiga (28-modda) kiritilganligi uning ahamiyatini yana bir ko'rsatib beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shunday qilib, sud jarayoni davomida haqiqatni aniqlash maqsadi quyidagicha: ushbu maqsadga erishish bevosita sudga va (sudgacha bo'lgan ish yuritishda) prokuraturaga yuklanadi va uni ayblanuvchiga o'tkazish mumkin emas.

Prokuraturaning umumiy funksiyalariga quyidagilar kiradi: surishtiruv shaklida tergov olib borish; sudda ayblovlarni saqlash; ijro etuvchi boshqaruvni ishlab chiqarish. Birinchi funksiyada, boshqa narsalar qatori, ishning holatlarini o'rganish, har ikki tomonning – jabrlanuvchi va ayblanuvchining manfaatlarini ko'zlab dalillar to'plash amalga oshiriladi. Bu har xil turdagi tergov va protsessual harakatlarni, xususan, so'roq qilish, tintuv qilish, olib qo'yish, ko'zdan kechirish, tashkilot va muassasalardan ma'lumot so'rash, hibsga olish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, GFR Jinoyat-protsessual kodeksining 68-moddasida odil sudlovni targ'ib qiluvchi kvazi sud organi sifatida prokuratura so'roq paytida guvohlarning manfaatlarini himoya qilishi mumkinligi belgilangan.

²⁰² Уголовно-процессуальный кодекс Федеративной Республики Германии.

²⁰³ “Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarori. <https://lex.uz/docs/-1453755#-1453953>

Ikkinchi funksiya, xususan, ishni sud muhokamasiga tayyorlash jarayonida ashyolar va yozma materiallarni olish choralarini ko'rish orqali amalga oshiriladi. Sud muhokamasida dalillarni o'rganishda ishtirok etish, savollar qo'yish, iltimosnomalar berish, sud muhokamalarida so'zlash, ayblanuvchiga aybiga iqrор bo'lish to'g'risida sudlanuvchi bilan "kelishuv" tuzish, hukmlarga nisbatan apellatsiya va kassatsiya shikoyati berish kabilar orqali amalga oshiriladi. Germaniyada politsiya jinoyat protsessining ishtirokchisi sifatida rasman prokuratura yordamchisi hisoblanadi. Aslida, bu GFR Jinoyat-protsessual kodeksining 161-moddasiga muvofiq, prokuraturaning tezkor bo'linmasi bo'lib, uning ko'rsatmalari bo'yicha harakat qiladi. Uning vakolatiga kiritilgan harakatlarning aksariyati huquq va erkinliklarni sezilarli darajada cheklash bilan bog'liq va shuning uchun faqat sudning ruxsati yoki prokuratura buyrug'i bilan amalga oshirilishi mumkinligi mustahkamlangan.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, Germaniya federal qonunchiligida himoyachiga keng vakolalar berilgan. U rasmiy ravishda ayblanuvchining "yordamchisi" hisoblanadi. Shu bilan birga, u bir qator mustaqil vakolatlarga ega, jumladan, ayblanuvchida mavjud bo'lmagan yoki himoyachi ayblanuvchidan mustaqil ravishda amalga oshirishi mumkin bo'lgan vakolatlarga ham ega.

Masalan, ayblanuvchining ish materiallari bilan tanishish huquqi cheklangan. Bu huquq uning himoyachisiga to'liq beriladi²⁰⁴. Shunday qilib, ayblanuvchi ish materiallari bilan tanishish uchun birinchi navbatda o'zi uchun advokat tanlashi kerak. Germaniyada himoyachining huquqlari ayblanuvchining huquqlaridan kengroqdir. Bu sudda taraflarning tengligi va tortishuvchanligi prinsipini amalda ta'minlanishida hamda tergov (dastlabki tergov va sud tergov)ning o'z maqsadiga erishishida muhim sanadi.

Shu bilan birga, himoyachi ishning sudga taqdim etilgan yoki ayblov e'lon qilingan taqdirda sudga taqdim etilishi kerak bo'lgan materiallar bilan tanishish, shuningdek, ayblovni tasdiqlovchi dalillarni tekshirish huquqiga ega. Ushbu jihat Germaniya jinoiy-protsessual qonunchiligining alohida o'ziga xos jihati hisoblanadi.

Germaniya federal qonunchiligi ayblanuvchining aybini aniqlash va qilmishning huquqiy oqibatlarini aniqlash uchun ahamiyatli bo'lgan barcha faktlar faqat qonunda nazarda tutilgan isbotlash vositalaridan foydalangan holda aniqlanishi kerak, deb hisoblaydi. Sudda isbotlash vositalarining qat'iy cheklangan ro'yxati mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: sudlanuvchining, guvohlarning, ekspertning ko'rsatmalari, ashyoviy dalillar va hujjatlarni tekshirish. Ushbu vositalar sud majlisida Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 244-

²⁰⁴ Уголовно-процессуальный кодекс Федеративной Республики Германии.

256-bandlarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq oshkoralik, bevositalik va og‘zakilik sharoitida ko‘rib chiqilishi kerak.

GFR Jinoyat-protsessual kodeksining 261-moddasida dalillarni baholash erkinligi nazarda tutilgan umumiy qoidada shunday deyiladi: “Sud dalillarni tekshirish natijalarini o‘zining erkin fikriga ko‘ra, sud jarayonida dalillarni umumiy baholash asosida hal qiladi”.

Germaniyada jinoyat protsessining sudgacha bo‘lgan bosqichida isbotlashning ma‘lum erkinligi mavjudligi sababli, dalillar agar ular keyinchalik sudda qo‘llanilishi mumkin bo‘lsa, erkin shaklda to‘planishi mumkin. Sudda dalillarni tekshirish jarayonida muayyan taqiqlarni aniqlashga katta e‘tibor qaratiladi, ularga rioya qilmaslik bunday dalildan foydalanishning mumkin emasligiga olib keladi. Mazkur taqiqlar Germaniya Federativ Respublikasining jinoyat-protsessual doktrinasida “isbotlashda taqiqlash” deb yuritiladi. Germaniya Oliy sudi ta‘kidlaganidek, jinoyat-protsessual qonunchiligida haqiqatga har qanday tarzda erishish kerakligi tamoyili ko‘zda tutilmagan, chunki bu holda u mutlaq to‘g‘ri bo‘lishi mumkin emas. “Isbotlashda taqiqlash – bu jarayon ishtirokchilarining huquqlarini ta‘minlash manfaatlarini ko‘zlab isbotlash jarayonida ma‘lum chegaralarni belgilovchi jinoyat-protsessual qonun normalari yig‘indisidir”²⁰⁵.

Qoidaga ko‘ra, jinoyat-protsessual doktrinada “isbotlashda taqiqlash” umumiy tushuncha sifatida qaraladi. Uning doirasida “dalil to‘plashni taqiqlash” va “dalillardan foydalanishni taqiqlash”ni ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchi guruhga, dalil to‘plashni taqiqlashga quyidagilar kiradi.

Jumladan:

a) ishning ayrim faktik holatlarini aniqlashni taqiqlash (isbot predmeti bo‘yicha taqiqlar). Masalan, ayblov hukmi yoki oqlov hukmi chiqarilgandan so‘ng, jinoyat faktiga oid dalillarni to‘plashning iloji yo‘q (Germaniya Jinoyat kodeksining 190-moddasi);

b) dalilning ayrim manbalaridan foydalanishni taqiqlash (isbotlash vositalarini taqiqlash). Masalan, Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining

52-moddasi asosida guvohlik berishdan bosh tortish huquqidan foydalangan guvohlarni so‘roq qilish taqiqlanadi;

d) so‘roq qilishning noqonuniy usullarini qo‘llashni taqiqlash (isbotlash usulini taqiqlash). Bu yerda asosiy misol - Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 136 a-moddasida taqiqlangan so‘roq qilish usullaridir. Ikkinchi guruhga noqonuniy ravishda olingan natijalardan foydalanishni taqiqlash

²⁰⁵ Фридрих-Кристиан Шредер, Торстен Феррел. Уголовно-процессуальное право Германии, с. 88.

kiradi. GFR Jinoyat-protsessual kodeksi 136 a-moddasi 3-qismida, ayblanuvchining so‘roq qilishning taqiqlangan usullarini qo‘llash orqali olingan ko‘rsatuvlaridan, hatto ayblanuvchining o‘zi roziligi bo‘lsa ham, protsessda foydalanish mumkin emas.

Germaniya federal qonunchiligida dalillarga bo‘lgan taqiqlar, cheklovlar ular himoya qilishga intilayotgan obyektlarga ko‘ra tasniflanishi mumkin. Nemis mualliflari, xususan, himoya qilishga qaratilgan taqiqlarni ajratib ko‘rsatishadi:

- yozishmalar, pochta, telegraf va telefon xabarlarini sirlari;
- uy-joy daxlsizligi;
- shaxsiy erkinliklar;
- axborotni aniqlash huquqlari (barcha maxfiy va kompyuterlashtirilgan tergov faoliyati);
- oilaviy aloqalar;
- salomatlik;
- ayrim professional guruhlar a‘zolarining o‘z mijozlari bilan maxfiy munosabatlari (advokat siri, tibbiyot siri, jurnalist siri);
- davlat sirlari;
- san‘atda mustahkamlangan shaxsning huquqlari.

Shuni ta’kidlash kerakki, Germaniya Federativ Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida sud amaliyoti tomonidan yanada aniqlangan juda batafsil va aniq belgilangan taqiqlar mavjud. Masalan, Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 136 a “So‘roq qilishning taqiqlangan usullari” bandiga ko‘ra, ayblanuvchining qaror qabul qilish erkinligi va irodasi qiynoqqa solish, ortiqcha mehnat qilish, jismoniy ta’sir ko‘rsatish, moddalarni tanaga kiritish, jismoniy va ruhiy azob-uqubatlarni, aldash yoki gipnozni keltirib chiqaruvchi huquqbuzarliklarni qo‘llash orqali buzilmasligi kerak.

Majburlash jinoyat-protsessual asosda yo‘l qo‘yilgan taqdirdagina qo‘llanilishi mumkin Ushbu qoidalarga ko‘ra joiz bo‘lmagan chora ko‘rish bilan tahdid qilish va qonunda nazarda tutilmagan imtiyoz va‘da qilish taqiqlanadi hamda xotira yoki ongga ta’sir qiluvchi chora-tadbirlarga yo‘l qo‘yilmaydi”.

Germaniya qonunchiligidagi biz olishimiz mumkin bo‘lgan eng muhim jihatlar bu jinoyat protsessida himoyachiga keng huquqlarning berilishi hamda ayblov asosiga qo‘yilgan dalillarni tekshirishi mumkinligi to‘g‘risidagi qoidalardir.

Endi Fransiya qonunchiligini ko‘rib chiqsak. Fransiya Jinoyat-protsessual kodeksining 171-moddasiga ko‘ra, agar dalillar jiddiy qonunbuzarlik bilan olingan bo‘lsa va u tegishli bo‘lgan tomonning manfaatlariga zarar yetkazgan bo‘lsa, qabul qilinishi mumkin emas²⁰⁶. Xuddi shu qoida Fransiya Jinoyat-protsessual kodeksining

²⁰⁶ Уголовно-процессуальный кодекс Франции.

802-moddasi, agar qonun bilan belgilangan qoidalar “yaroqsiz bo‘lish tahdidi ostida” olingan bo‘lsa normasiga ham qo‘llaniladi. Mazkur holatda har qanday sud bunday dalillarni istisno qilish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqqanda yoki avtomatik ravishda o‘z tashabbusi bilan bunday dalillarni tekshirishga kirishganda, agar u tegishli tomonning manfaatlariga zarar yetkazgan bo‘lsa, dalillarni haqiqiy emas deb e‘lon qilishi mumkin.

Tomonlar tegishli huquqdan foydalangan holda dalillarni chiqarib tashlash to‘g‘risida, barcha yoki muayyan harakatlar natijasida, shuningdek, qonunni buzgan holda olingan ma‘lumotlarga asoslangan dalillarni istisno qilishi to‘g‘risida murojaat qilishi mumkin. Nomaqbul deb topilgan dalillardan yoki ularning bir qismidan ishda ishtirok etayotgan tomonlarga nisbatan biron bir ma‘lumot olish taqiqlanadi.

Fransiyaning jinoyat-protsessual huquqida isbotlashning maqsadi belgilanmagan, biroq jinoyat-protsessual doktrinasini bir ma‘nodagi maqsaddan kelib chiqadi. Bu – dalilning ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashidan iborat bo‘lib, tergov sudyasi va sud bu maqsadga erishish uchun harakat qilishlari kerak.

Fransiyada ayblanuvchining huquqiy pozitsiyasi advokatning huquqiy pozitsiyasi bilan bir xil emas. Advokatga ayblanuvchining vakili sifatida emas, balki o‘z kasbining axloqiy qoidalariga ko‘ra o‘z mijoziga nisbatan ma‘lum darajadagi avtonomiya

va mustaqillik bilan ta‘minlangan mustaqil subyekt sifatida qaraladi. Advokat o‘z mijozida mavjud bo‘lmagan bir qator vakolatlariga ega. Xususan, Germaniyadagi kabi ish materiallari bilan tanishish uchun u ko‘proq imkoniyatlarga ega.

Umuman olganda, Fransiyada isbotlash yuki prokuratura zimmasiga tushadi, ya‘ni prokuratura ayblanuvchiga qarshi jinoyat ishini qo‘zg‘atadi. Ammo ayblovlarning barcha holatlarini isbotlash yukini o‘z zimmasiga olmaydi – ba‘zi holatlarning mavjudligi himoya tomonidan isbotlanishi kerak bo‘ladi.

Masalan, qilmishning jinoiylikni istisno qiladigan holatlar mavjudligi, ayblanuvchining ruhiy nosog‘lomligi, jinoiy javobgarlik tortishda immunitetning mavjudligi, xuddi shu jinoyat uchun xorijiy davlatda sudlanganlik fakti va boshqalar.

Fransiyaning dalillar to‘g‘risidagi qonuni dalillar erkinligi prinsipining moslashuvchan birikmasiga asoslanadi. Unga ko‘ra, har qanday dalil qonunda ko‘rsatilganmi yoki yo‘qmi, dalil olishning qonuniy asoslariga hamda isbotlash jarayonida taqiqlangan qoidalariga amal qilganda qabul qilinishi mumkin.

Yana bir jihati shundaki, dalillarni to‘plashda davlat organi tomonidan sodir etilgan har bir qonun buzilishi natijasida olingan dalillarni isbotlashdan chetlatish kerakligini anglatmaydi. Qonunni buzgan holda olingan dalillar, agar ular tarafning huquqlarini buzmasa, dalillardan chiqarib tashlanishi mumkin emas.

Jismoniy shaxslarga sud tomonidan tekshirilishi kerak bo'lgan har qanday dalillarni to'plash va taqdim etishga ruxsat beriladi. Jinoiy sudyalarga xususiy shaxslar tomonidan taqdim etilgan dalillarni istisno qilishiga to'sqinlik qiluvchi qoida mavjud.

Fransuz jinoiy protsessual qonunchiligida "dalillarning maqbulligiga qo'yiladigan talablarning assimetriyasi" qoidalari qo'llaniladi. Bu protsessning xususiy ishtirokchilari va prokuror, politsiya organlari va tergov sudyasi o'rtasidagi tengsizlikning o'rnini qoplash imkonini beradi, sud muhokamasida prokuror va xususiy ishtirokchilarning huquq va imkoniyatlari o'rtasidagi "muvozanat" ni tenglashtirish uchun sharoit yaratadi.

Ichki ishonchga asoslangan dalillarni erkin baholash mutlaq bo'lmagan umumiy qoidadir. Shu bilan birga, ayrim hollarda politsiya protokollari va hisobotlariga alohida kuch beradigan qoidalar mavjud. Shuningdek, qonunda ayblanuvchining faqat advokat bilan uchrashishi va uning yordamini olmasdan turib bergan bayonotlari asosida ayblov hukmi chiqarish mumkin emasligi ham belgilab qo'yilgan.

XULOSA

Shunday qilib, har ikkala davlatning jinoyat-protsessual qonunchiligi bilan tanishib chiqib, shuni xulosa sifatida aytish mumkinki, jinoyat protsessida dalillar muhim o'rin egallaydi. Sud dalillarga yakuniy bahoni beradi. Dalillarni baholashda sudyalalar o'z ichki ishonchlaridan kelib chiqadilar. Isbotlashning maqsadi ish bo'yicha haqiqatni aniqlashdir. Shuningdek, insonning hayoti, sha'ni, qadr-qimmati, huquqlari va erkinliklarini har qanday buzish natijasida olingan dalillar nomaqbul dalil sifatida tan olinadi va ishdan chiqarib tashlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Уголовно-процессуальный кодекс Федеративной Республики Германии;
2. "Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarori. <https://lex.uz/docs/-1453755#-1453953>;
3. Фридрих-Кристиан Шредер, Торстен Феррел. Уголовно-процессуальное право Германии, с. 88.;
4. Уголовно-процессуальный кодекс Франции.
5. А.А.Абдурашидов «Кредит қарзларини ундириш билан боғлиқ муаммоларнинг айрим масалалари» Thematic Journal of Applied Sciences. – 2023. -Т.3.-№.6.

FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY BURCHLARI

Po‘latov Jahongirmirzo Mansurbek o‘g‘li

Buxoro Davlat Universiteti Yurisprudensiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada huquq va burchlar tushunchasi, ularning mohiyati va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining alohida bobida fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlarining belgilanishi, ularni bajarish bilan bog‘liq holatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlariga oid ayrim tushunchalar va ular haqida olimlarning ta‘riflari, konstitutsiyaviy burchlarni amalga oshirish borasida davlatimizning boshqa davlatlar bilan har tomonlama aloqalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Davlat, jamiyat, konstitutsiya, fuqaro, huquq, burch, majburiyat, harbiy xizmat, muqobil xizmat, soliq, mahalliy yig‘im, tarixiy-madaniy meros, atrof tabiiy muhit, yashil iqtisodiyot.

CONSTITUTIONAL DUTIES OF CITIZENS

Pulatov Jakhongirmirza Mansurbek ugli

First year student of Jurisprudence of Bukhara State University

ABSTRACT

This article analyzes the concept of rights and duties, their essence, and the determination of the constitutional duties of citizens in a separate chapter of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, and the circumstances related to their fulfillment. Also, some concepts of the constitutional duties of citizens and the definitions of scientists about them, comprehensive relations of our state with other countries regarding the implementation of constitutional duties are analyzed.

Key words: State, society, constitution, citizen, right, duty, obligation, military service, alternative service, tax, local levy, historical and cultural heritage, natural environment, green economy.

КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОБЯЗАННОСТИ ГРАЖДАН

Полотов Жахонгирмирзо Мансурбек угли

Студент 1 курса факультет юриспруденции Бухарского Государственного
Университета

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются понятие прав и обязанностей, их сущность, определение конституционных обязанностей граждан в отдельной

главе Конституции Республики Узбекистан, а также обстоятельства, связанные с их исполнением. Также анализируются некоторые понятия конституционных обязанностей граждан и определения ученых о них, комплексные отношения нашего государства с другими странами по вопросам реализации конституционных обязанностей.

Ключевые слова: Государство, общество, конституция, гражданин, право, обязанность, обязанность, военная служба, альтернативная служба, налог, местные сборы, историко-культурное наследие, природная среда, зеленая экономика.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning huquqlari belgilangani kabi ularning burchlari ham belgilangan. Hamma davrlarda ham odamlar huquqlardan foydalanar ekan ular uchun muayyan burchlar ham yuzaga keladi. Huquq bu davlat tomonidan o'rnatilgan, u tomonidan himoya qilinadigan barcha uchun majburiy bo'lgan xulq-atvor qoidalari tizimi [1]. Ma'lumki, huquq shaxsga tabiat, jamiyat, davlat tomonidan beriladigan o'z harakatining turi va me'yorini tanlab olish imkoniyati bo'lsa, burch jamiyat va davlat tomonidan berilgan va huquqiy normalarda o'z aksini topgan talablarini bajarish zaruratidir. Burch - kishining biror bir shaxs, oila, jamoa, el-yurt, vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha [2]. Bundan tashqari, burchning o'ziga xos jihatlari bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi. Burch, asosan, qoidalardan, axloqiy normalardan kelib chiqadi, majburiyat esa aksar hollarda shartnoma va bitimlardan kelib chiqadi; burch shaxs tug'ilganidan to umrining oxiriga qadar davom etadi, majburiyat esa shartnomaning amal qilish davrigacha bo'ladi; shuningdek, burch davlat va jamiyat tomonidan belgilanib, uning bajarilishini talab etadi. Burch bajarilmaganda huquqiy ta'sir choralari qo'llaniladi[3]. Davlatda fuqarolarning huquqiy holati faqat ularning huquqlari mavjudligi bilan aniqlanmasdan, ularning aniq belgilangan burchlari mavjudligi bilan ham aniqlanadi.

Burch ijtimoiy hayotda muhim zarur kategoriyadir. Ayniqsa, fuqaro va davlat munosabatini to'g'ri tashkil etishda, manfaatlar mushtarakligini ta'minlashda burch zarur bo'lib, u davlatda ham, fuqarolarda ham bo'ladi [4].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-bobi [5] 6 moddani o'z ichiga oladi bular 59-64- moddalar bo'lib "Fuqarolarning burchlari" deb nomlanadi. Bundagi burchlar siyosiy, iqtisodiy, shaxsiy masalalarga taalluqli bajarilishi majburiy xatti-harakatlar hisoblanadi. Konstitutsiyada faqat nimalar burch ekanligi ko'rsatilib, ularni bajarmaslik uchun jazolar ko'rsatilmagan. Chunki O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasining asosiy normalari gipoteza va dispazitsiyadan iborat va sanksiyani nazarda tutmaydi. Belgilangan burchlarni bajarmaganlik uchun jinoyat kodeksi va ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarda jazolar belgilangan. Burchlarni bajarmaganlik uchun jazo turlari va miqdori qonunlarda belgilangan doirada sud tomonidan belgilanadi. Burchlarni bajarish barcha uchun majburiydir, ayrim burchlar esa alohida fuqarolarga taalluqlidir. Masalan, harbiy xizmatni yoki muqobil xizmatni o'tash burchi hammaga ham taalluqli emas. Xuddi shuningdek, qonunda belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni hech qanday daromadga ega bo'lmaganlar to'lamaydi. Fuqarolarga yashash, mehnat qilish, bilim olish va boshqa faoliyatlari bo'yicha ko'plab burchlar belgilangan. Konstitutsiyada esa jamiyat va davlat hayoti uchun umumiy va eng zarur, qilinishi majburiy yoki qilinishi mumkin bo'lmagan xatti-harakatlar burch sifatida belgilangan. Shuning uchun ular mazmuni, amal qilish doirasi, ahamiyati nuqtai nazaridan *asosiy burchlar*, deb ataladi. Fuqarolarning "Konstitutsiyaviy burchi" yoki "asosiy burchi" bir manoda ishlatiladi va tushuniladi. Asosiy burchlarning bajarilishidan jamiyat a'zolari, davlat birdek manfaatdordir. Yana burchlarning ixtiyoriy va to'la bajarilishi jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Vaholanki, konstitutsiyada belgilangan har qanday burch fuqarolar uchun bajarilishi shart hisoblanadi. Xuddi huquqlarsiz burchlar bo'lmagani kabi, burchlarsiz huquqlar ham bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 11-bobi "Fuqarolarning burchlari" 59-moddadan boshlanadi "Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarni bajaradilar", deb belgilangan qoida konstitutsiyaviy burchlarni bajarilishi shart ekanligini ko'rsatib, barcha konstitutsiyaviy burchlarni bajarilishini ta'minlashga qaratilgan umumiy va rahbariy qoida hisoblanadi. Chunki konstitutsiyamizda belgilanganidek, konstitutsiya mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil qiladi. Ushbu norma konstitutsiya normalarining bajarilishi majburiy hisoblangani kabi konstitutsiyada belgilangan burchlarning bajarilishi ham majburiylikni ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasida esa bu burch yanada aniqlashtirilgan va doirasi kengaytirilgan. Unga asosan, "Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar".

Demak, *birinchidan*, har bir fuqaro, nafaqat, konstitutsiyaga, balki barcha qonunlarga bo'ysunishga majbur. Bu qonuniylik prinsipining mazmun va mohiyatiga mos kelib, ana shu prinsipning amalga oshirishini ta'minlashni nazarda tutadi. *Ikkinchidan*, har bir kishi - fuqaro boshqa kishilarning huquqlarini, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdir, ushbu 60-modda va

konstitutsiyamizning 5-bobi 21-moddalarida mazmun jihatdan o‘xshashliklar mavjud ammo bu o‘xshashlik faqat tashqi tomondan, ma’nosi esa boshqa boshqa [6].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasida “Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdir” degan norma belgilangan va 21-moddada “Inson o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasliklari shart” degan bir biriga o‘xshab ketdigan qoidalarni quyidagicha farqlash mumkin. 60-modda konstitutsiya va qonunlarga rioya etishda deyotgan bo‘lsa 21-moddada esa insonlar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda deyilgan, 60-moddada hurmat qilish deyilgan bo‘lsa, 21-moddada putur yetkazmaslik deyilgan, shuning uchun ham yuqorida bu o‘xshashlik faqat tashqi korinishda deb ta’kidlab o‘tdik.

Bu konstitutsiyaviy burch fuqarolarga, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga va ajnabiy fuqarolarga ham birdek bajarilishi shart bo‘lgan burch hisoblanadi. Chunki O‘zbekiston hududida yashayotgan fuqarolardan tortib fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va ajnabiy fuqarolar ham konstitutsiya va qonunlarni ustunligini anglagan holda ularga birdek bo‘ysunishi majburiy hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 61-moddasida “Fuqarolar o‘zbek xalqining tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab avaylashi shart ekanligi belgilab o‘tilgan. Tarixiy, manaviy, madaniy ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan himoya qilinadi”.

O‘zbekiston xalqining tarixiy yodgorliklari, madaniy va ma’naviy merosi butun xalqining milliy boyligidir. Bu milliy boylig asrlar davomida yaratildi va har birimiz ajdodlarimizning tarixiy va madaniy merosini saqlab qolishimiz lozim. Bu sohada qator qonunlar qabul qilingan bo‘lib, shular jumlasiga **“Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va va ulardan foydalanish to‘g‘risida”**gi qonun ham kiradi.

Tarixiy-madaniy joylar quyidagilarga bo‘linadi:

Ansambllar — tarixan tarkib topgan hududda aniq ko‘zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyliyi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me’moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo‘lgan, ijtimoiy, ma’muriy, diniy, ilmiy, o‘quv-ta’lim, istehkom, saroy, turar-joy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san’ati, me’morchilik asarlari bilan bog‘liqlikda alohida yoki o‘zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlari, shuningdek tarixiy tarhlarning hamda

manzilgohlar imoratlarining qoldiqlari, landshaft arxitekturasi va bog‘-rog‘ san‘ati asarlari (bog‘lar, istirohat bog‘lari, xiyobonlar, sayilgohlar);

Diqqatga sazovor joylar — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek, tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo‘lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko‘hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar;

Yodgorliklar — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ayrim imoratlar, binolar va inshootlar, ular bilan bog‘liq bo‘lgan rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san‘ati asarlari hamda shu imoratlar, binolar va inshootlarning tarixan tarkib topgan hududlari, shuningdek, memorial uylar, kvartiralar, qabristonlar, maqbaralar va ayrim qabrlar, monumental san‘at asarlari, fan va texnika (shu jumladan harbiy texnika) obyektlari, antropologiya, etnografiya, numizmatika, epigrafika, kartografiya, fotografiya materiallari, kinofilmlar, audio-, video yozuvlar hamda boshqa jismlardagi yozuvlar, adabiyot va san‘at asarlari, arxiv, qo‘lyozma va chizma hujjatlar, qadimgi qo‘lyozma kitoblar, harf terish usulida chiqarilgan dastlabki kitoblar, nodir va noyob nashrlar, notalar, muqaddas buyumlar va memorial xususiyatga ega bo‘lgan ashyolar, tosh haykallar, qoyaga o‘yib solingan tasvirlar, arxeologiya yodgorliklari hisoblanadi.

Madaniy meros obyektlari ikki turga bo‘linadi. Bular **moddiy** va **nomoddiy** madaniy meros obyektlaridir.

moddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar;

nomoddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san‘ati), shuningdek, ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san‘ati bilan bog‘liq bilimlar, ko‘nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar [7].

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati Abdullayeva Oydin Utamuradovna “Madaniy merosni asrab-avaylash umumxalq ishi” nomli maqolasida bir qancha ahamiyatli ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Shuningdek, o‘z ma’lumotlarida “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida madaniy meros obyektlarining davlat tomonidan muhofaza qilinishi qat’iy belgilab

qo'yilganligini ta'kidlagan. Ushbu qonunda madaniy meros obyektlarini asrash chora-tadbirlari ham nazarda tutilgan bo'lib, moddiy madaniy meros obyektlarini konservatsiyalash, ta'mirlash, hozirgi zamonda foydalanishga moslashtirishni, shuningdek, ular bilan bog'liq ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlarini o'tkazish tartibi aniq va qat'iy belgilab qo'yilgan. Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda 8210 ta moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyekti davlat muhofazasiga olingan bo'lib, shundan 4788 tasi arxeologiya, 2265 tasi arxitektura obyektlari, 625 tasi monumental san'at asarlari, 530 tasi diqqatga sazovor joylar hisoblanadi. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan so'nggi vaqtlarda madaniy meros obyektlariga zarar etkazilgan holatlar yuzasidan o'tkazilayotgan taftish va tergov harakatlaridan ma'lum bo'lishicha, respublika bo'yicha 14 ta moddiy madaniy meros obyektlarini ta'mirlash-tiklash loyiha hujjatlari O'zbekiston Respublikasining Turizm va mdaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi Ilmiy-ekspert kengashi bilan kelishilmasdan, jami 12 454,9 mln. so'mlik ta'mirlash-tiklash ishlari bajarilgan. Vaholanki, amaldagi qonunchilikka asosan Madaniy meros agentligi Ilmiy-ekspert kengashining ruxsatisiz madaniy meros obyektlarida biron-bir restavratsiya yoki ta'mirlash ishlarini amalga oshirish ta'qiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida madaniyat va san'at muassasalarining to'laqonli faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, ularning moddiy resurs bazasini yanada mustahkamlash, obyektlarni saqlash hamda muhofaza qilishda jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish vazifasi qo'yilgan. Shuningdek, bir qator obidalar qoshida jamoatchilik inspektorini birlashtirish vazifasi ham alohida belgilab qo'yilganligini ta'kidlab o'tgan.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi [8].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 62-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlar" degan norma belgilab qo'yilgan. Shuningdek, fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish "O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida o'z aksini topgan bo'lib, ular fuqarolar zimmasiga quyidagi burchlarni yuklaydi.

- Tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish;
- Tabiiy boyliklarni asrab avaylash;

- Tabiiy obyektlari bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy merosini saqlab qolish.

Bugungi kunda inson hayoti uchun tabiatni yo‘q qilish, havo, yer va suvni ifloslantirishdek katta xavf-xatar yo‘q. Tabiatni qutqarar ekanmiz, biz o‘z-o‘zimizni halokatdan halos etamiz.

Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish va tabiiy muhitni saqlash bo‘yicha olib borilayotgan oqilona ishlarga misol sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyayevni, Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Muhammad bin Zoid Ol Naxayonning taklifiga binoan Dubay shahrida bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha” konferensiyasining (COP 28) asosiy yalpi sessiyasida o‘z nutqi va takliflari bilan ishtirok etganini keltirish mumkin. Prezidentimiz o‘z nutqida quyidagilarni keltirib o‘tgan: ”Iqlim muammolari barqaror rivojlanish yo‘lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgurdi. Bu xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyoda ayniqsa jiddiy sezilmoqda. Mintaqamizda havo haroratining oshishi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki baravar ko‘pdir. Favqulodda issiq kunlar soni 2 marta ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi yo‘qoldi. Tuproq yemirilishi jarayonlari 30 million aholi turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Kuchli chang va qum bo‘ronlari odatiy holga aylandi. Ichimlik suvi taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi, qishloq xo‘jaligi hosildorligi pasayishi kabi muammolar tobora avj olmoqda. Bu global xavflar keng mintaqamizda xatarli nuqtaga yetib kelmoqda. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish va uglerod neytralligiga erishish Yangi O‘zbekistonning ustuvor strategik vazifasidir. So‘nggi yillarda yurtimizda muqobil energiya ulushi ikki baravarga ko‘paydi. Biz 2030-yilga borib 25 gigavatt qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini barpo etamiz. “Yashil” vodorod ishlab chiqarish bo‘yicha ilk amaliy qadamlarni tashladik. “Yashil makon” tashabbusi doirasida mamlakatimizda 1 milliard tup ko‘chat ekilmoqda. Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektar maydonda o‘rmonlar barpo etdik. Biz Iqlim o‘zgarishiga qarshi faqat birdamlik va keng xalqaro hamkorlik orqali samarali kurashishimiz mumkin. Bu borada quyidagi takliflarni ilgari surmoqchiman. **Birinchidan**, Parij shartnomasi doirasida Iqlim o‘zgarishiga moslashish sohasidagi Global hadli mexanizmni tezroq kelishish tarafdorimiz. Biz Markaziy Osiyo iqlim muloqoti platformasida Adaptatsiya strategiyasini ishlab chiqmoqdamiz. Kecha “Yo‘qotish va zararlar” jamg‘armasini tashkil etish bo‘yicha qabul qilingan muhim qarorni yuksak baholaymiz. **Ikkinchidan**, global miqyosda kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish adolatli, shaffof va inklyuziv bo‘lishi zarur. Bunda rivojlanayotgan davlatlarning manfaatlari albatta inobatga olinishi shart. Bu muammoni “Katta yettilik va yigirmalik” formatlarida

doimiy ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiq. **Uchinchi**dan, biz Birlashgan Millatlar Tashkilotining rezolyutsiyasi asosida Orolbo‘yi hududini ekologik ofat zonasidan “innovatsiyalar, texnologiyalar va yangi imkoniyatlar mintaqasi”ga aylantirmoqchimiz. Bu yerda Iqlim texnologiyalari xalqaro ekspo-xabini yaratishda yaqin hamkorlikka taklif etaman. **To‘rtinchi**dan, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanish lozim. Toshkentdagi “Yashil universitet” negizidagi “Iqlim ilmiy forumi”da davlatlaringiz yetakchi olim va ekspertlarini ishtirok etishga chaqiraman. Yer degradatsiyasi, suvdan foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligi muammolari Forum kun tartibidan joy oladi, deb ishonaman. **Beshinchi**dan, BMT bilan 2024-yili O‘zbekistonda “Iqlim migratsiyasi” konferensiyasini o‘tkazish niyatidamiz. Xalqaro mehnat tashkiloti bilan “Yashil bandlik” dastur”ni ishlab chiqish va Modellashtirish markazini tashkil etishni taklif qilaman [8]. Shu va shu kabi chora tadbirlar bugungi kunda atrof muhitni asrab avaylash va biz insoniyat uchun sog‘lom yashash muhitini yaratish uchun olib borilayotgani hech kimga sir emas.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida “Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashi shart degan norma belgilangan. Ushbu norma barcha fuqarolarga soliq va boshqa yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘lash majburiyatini yuklaydi.

Soliq va yig‘im tushunchalariga soliq kodeksining 16-moddasida [10] ta‘rif berilgan. Soliq bu O‘zbekiston Respublikasining davlat budjetiga yoki davlat maqsadli jamg‘armalariga (bundan buyon matnda budjet tizimi deb yuritiladi) to‘lanadigan majburiy beg‘araz to‘lov tushuniladi.

Yig‘im deganda budjet tizimiga soliq kodeksida yoki boshqa qonunchalik hujjatlarida belgilangan majburiy to‘lov tushuniladi, bu yig‘imning to‘lanishi uni to‘lovchi shaxsga nisbatan vakolatli organ yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan unga muayyan huquqlarni yoxud ruxsat etuvchi hujjatlarni berish shartlaridan biri bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida soliq kodeksida va nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar amal qiladi. Soliq kodeksining 17-moddasida soliqlarning turlari sifatida quyidagilar belgilab o‘tilgan:

- Qo‘shilgan qiymat solig‘i
- Aksiz solig‘i
- Foyda solig‘i
- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromat solig‘i
- Yer qaridan foydalanganlik uchuun soliq
- Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

- Mol-mulk solig‘i
- Yer solig‘i
- Ijtimoiy soliq

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 149-moddasida belgilanganidek, O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlarni joriy qilish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga tegishlidir. Shuningdek, ushbu norma konstitutsiyamizning 93-moddasida yanada aniqlashtirilib soliqlarni joriy qilish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolati ekanligi belgilab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi hududida yig‘imlar belgilanishi mumkin. Yig‘imlarni joriy etish, hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi Soliq kodeksida hamda boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilanadi. Yig‘imning asosiy xususiyati shundaki, uni to‘laganlik uchun davlatning qaysidir organlari fuqarolarning manfaatlarini uchun harakat qiladi. Yig‘imlarga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: fuqarolik pasportini olish uchun to‘lov, chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit uchun yig‘im, yuk ko‘tarish qiymati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalarining avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanishi huquqi uchun yig‘im hamda alkagol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarni keltirish mumkin.

Davlatning eng muhim belgilaridan biri unda soliqning joriy qilinganligidir. Bu belgi davlatning soliq orqali o‘z byudjeti va maqsadli jamg‘armalarini shakllantirishini ham anglatadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida soliq tizimining yagonaligi prinsipi mavjud. Mamlakatni butun hududida yagona soliq amal qiladi lekin ayrim hududlarda rivojlanish surati va iqtisodi nisbatan pastroq joylarda soliq uchun ayrim yengilliklar berilishi, soliqning stavkalari pasaytirilishi mumkin. Bu aholining yashash sharoiti va potensialidan kelib chiqib belgilanadi. Boshqa davlatlar bilan taqqoslab qaraydigan bo‘lsak, federativ davlatlarda jumladan **AQSH** da har bir shtatda har xil soliq olinadi va soliqning turlari farq qiladi. Lekin ahamiyatli jihati shundaki, oshkorlik prinsipi to‘liq amal qilinadi. *Masalan, K ismli fuqaro soliq to‘lagan bo‘lsa o‘sha soliqni nimaga sarflanganligi fuqaroning telefoniga sms bo‘lib keladi va unda to‘lagan soliqni aynan qaysi sohaga ishlatilganligi izohlab beriladi.*

Soliq huquqi moliya huquqining institutlaridan biri bo‘lib, u soliq to‘lovlari joriy etishdir va undirib olish vaqtida yuzaga keladi. Soliq va yig‘imlar adolatli bo‘lishi xamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarni amalga oshirishga to‘sqinlik qilmasligi kerak” ligi belgilangan. Bu nima degani? Bu - soliq fuqarolarning konstitutsiyada belgilangan huquqlari, xususan, saylash va saylanish,

mulkdor bo‘lishi va mulk daxlsizligi, uy-joyli bo‘lish, mehnat qilish, dam olish, ta‘lim olish, davolanish va tibbiy xizmatdan foydalanish kabi huquqlaridan foydalanishiga to‘sqinlik qilmasligi kerak. Chunki davlat konstitutsiyada inson hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlamog‘da. Masalan, oddiy qilib tushuntirganda, agar fuqarolarni soliqdan qarzi bo‘lsa yoki uni tol‘ay olmasa majburiy undiruv uning mol-mulkiga qaratilmaydi, mol-mulki yoki uy-joyi musodara qilinmaydi. Xorijiy davlatlar tajribasidan misol qiladigan bo‘lsak, **AQSH** ning **Kaliforniya shtatida** [11] *fuqarolarning soliqdan qarzi bo‘lib, uni vaqtida to‘lay olmasa o‘sha shtatdagi saylov jarayonlarida qatnashish va saylash huquqidan mahrum etilar ekan.*

Soliq solish nazariyasining asoschisi **A.Smit** soliqlar tushunchasiga quyidagicha ta‘rif bergan. Soliqlar-ularni to‘lovchi shaxslar uchun qullik emas balki ozodlik alomatidir [12].

Shu bilan birga qadimgi davrlarda soliq va uning yig‘ilishiga nazar soladigan bo‘lsak, davlat aholining ehtiyojmand toifalarini ijtimoiy himoya qilishi kafolatlangan. *Soliq solishda ijtimoiy davlatning belgilari “Temur tuzuklari” da ham yozilgan bo‘lib, “Kimki biron sahroni obod qilsa yoki poliz qilsa yoki biron bog‘ ko‘kartirsa yoxud biron xarob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o‘z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili (esa oliq-soliq) qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig‘ilsin», deb ta‘kidlangan. Soliqlar davlat daromadlari tarkibida eng salmoqli o‘rinni egallaydi. Soliqlar va yig‘imlarni joriy etishda yoki ularni oshirishda soliq to‘lovchilarning iqtisodiy ahvoli va mulkiy manfaatlari adolatli tarzda e‘tiborga olinishi, muhofaza etilishi zarur* [13].

Qo‘shimcha sifatida shuni aytish joizki, soliq va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘lamaslik yoki to‘lashdan bo‘yin tovlash uchun qonunchiligimizda jinoiy va ma‘muriy javobgarliklar mavjud. Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 174-moddasiga [14] ko‘ra soliq olinadigan foydani (daromadni) yoki boshqa obyektlarni qasddan yashirish (kamaytirib ko‘rsatish) yoxud soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlash - fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari, mansabdor shaxslarga esa - o‘n besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ancha miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, - fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida, mansabdor shaxslarga esa - o‘ttiz baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, jinoyat kodeksining 184-moddasiga [15] ko‘ra, foyda (daromad) yoki boshqa obyektlarni qasddan yashirishni, kamaytirib ko‘rsatishni, shuningdek davlat tomonidan belgilangan soliqlarni yoki yig‘imlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin

tovlashni ancha miqdorda sodir etish, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin ro'y bergan bo'lsa - bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravarigacha miqdorida jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Soliqlar yoki yig'implarni to'lashdan bo'yin tovlash, takroran yoki ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorida jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Ushbu jinoyatni juda ko'p miqdorda sodir etish bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Fuqarolarning konstitutsiyada belgilangan burchlaridan yana biri bu harbiy xizmatni o'tash va vatanni himoya qilish majburiyatidir. Ushbu normaga ko'ra, konstitutsiyamizning 64-moddasida belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar. O'zbekiston Respublikasini o'zining vatani deb hisoblagan har bir inson uni himoya qilishi nihoyatda zarur va tabiiy talabdir. Mazkur burchning mazmuni:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini himoya qilish;

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini himoya qilish;

Uchinchidan, respublikaning barcha sohalari bo'yicha manfaatlarini himoya qilishni;

To'rtinchidan, O'zbekiston aholisining tinch va osoyishta, xavfsiz va faravon hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, harbiy tadbirlarda faol qatnashish kabi talablarni o'z ichiga oladi [16].

Fuqarolarning bu asosiy burchi boshqa davlatlarning doimiy yoki vaqtincha O'zbekistonda yashab turgan fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan insonlarga taalluqli emas. Chunki ular O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmatga yoki harbiy tayyorgarlikka jalb qilinmaydi.

Harbiy xizmat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turidir.

Harbiy xizmatning quyidagi turlari joriy etiladi:

•Muddatli harbiy xizmat;

•Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat;

•Kontrakt bo'yicha harbiy xizmat;

•O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati.

Tinchlik davrida oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatga, shuningdek, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga o‘n sakkiz yoshdan yigirma yetti yoshgacha bo‘lgan, salomatligiga ko‘ra Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o‘tashga yaroqli erkak fuqarolar chaqiriladilar [17].

Harbiy xizmatni o‘tash har bir O‘zbekiston fuqarosining muqaddas burchidir. Bu burchlarning mazmuni “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida” gi, hamda “Muqobil xizmat to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida aniq belgilangan. Umumiy harbiy xizmatni o‘tash burchi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Birinchidan, o‘z vatanini qurolli himoya qilish uchun majburiy harbiy tayyorgarlikdan o‘tish;

Ikkinchidan, O‘zbekiston qurolli kuchlarini harbiy xizmatchilar bilan ta‘minlash va harbiy xizmatchilar zahirasi yaratish;

Uchinchidan, fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash;

To‘rtinchidan, chaqiruv uchastkalarida qayd etilish, zahirada xizmat qilish;

Beshinchidan, harbiy xizmatdan o‘tish qoidalariga rioya qilish;

Oltinchidan, umumiy harbiy ta‘limni olish.

Muqobil xizmat O‘zbekiston Respublikasining “Muqobil xizmat to‘g‘risida” gi Qonuni [18] bilan tartibga solinadi. Muqobil xizmat O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari o‘taydigan davlat xizmatining alohida turidir. Bu xizmat fuqaroning korxonalaridagi, muassasalardagi, xalq xo‘jaligi tashkilotlaridagi, yuqori malaka talab qilinmaydigan ishlarni yoki o‘z malakasiga mos ishlarni, shu jumladan, falokat, fojia, tabiiy ofat va boshqa favqulodda holatlarning oqibatlarini bartaraf etishga oid ishlarni bajarish bilan bog‘liqdir. Muqobil xizmat fuqarolarni harbiy ishga o‘rgatishni hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun zahiradagi jangchilar tayyorlashni ko‘zda tutadi. O‘zbekiston Respublikasining 18 yoshdan 27 yoshgacha bo‘lgan, harbiy hisobda turadigan, muddatli harbiy xizmatga chaqirilishi lozim bo‘lgan fuqarolari, basharti ular xizmatga chaqirilayotgan shaxslardan tashqari 16 yoshga to‘lmagan to‘rt va undan ortiq bolali oiladan bo‘lsalar, harbiy xizmatni o‘tash davrida nogiron bo‘lib qolgan ota-onasi yoki aka-ukalari bo‘lsa, diniy e‘tiqodi qurol ushlashga yoki Qurolli Kuchlarda xizmat qilishga yo‘l qo‘ymaydigan ro‘yxatdan o‘tgan diniy tashkilotning a‘zosi bo‘lsalar muqobil xizmatni o‘tash huquqiga ega bo‘ladilar. Muqobil xizmatning muddati yigirma to‘rt oyni, oliy ma‘lumotli fuqarolar uchun esa o‘n sakkiz oyni tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi muqobil xizmatni o‘tash huquqiga ega bo‘lgan fuqarolarning o‘zga toifalarini ham belgilashi mumkin. Muqobil xizmatni o‘tayotgan shaxslar muqobil xizmat xizmatchilari deb ataladilar.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, fuqarolarning burchlari konstitutsiya miqyosida belgilanishi uni fuqarolar uchun bajarilishi majburiy hisoblangan majburiyati ekanligini anglash mumkin. Chunki konstitutsiya mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil qiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan burchlarini bajaradilar. Burchlarni bajarish barcha fuqarolar uchun majburiy hisoblanmaydi, misol uchun soliqlarni to‘lash majburiyati bu mol-mulkka ega fuqarolar uchun va harbiy va muqobil xizmatni o‘tash majburiyati faqat O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun taalluqli bo‘lib, O‘zbekiston hududida yashab kelayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, xorijiy davlat fuqarolari uchun tegishli emas. Barcha fuqarolar o‘zlarining konstitutsiyaviy burchlarini bajarish majburiyati borligini his qilgan holda o‘z vaqtida bajarsalar bu nafaqat o‘zlari uchun balki davlatimiz uchun ham foydalidir. Chunki soliqlarni o‘z vaqtida to‘lasalar ushbu mablag‘lar orqali davlat ta‘lim, ijtimoiy sohani, iqtisodiy soha va boshqalarni rivojlantirish ish haqi, nafaqalarni o‘z vaqtida to‘lashi mumkin. Atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish orqali o‘zimiz uchun, yaxshi yashashimiz uchun, qulay va sog‘lom muhitni yaratishimiz mumkin. Tarixiy, madaniy, ma‘naviy va ilmiy merosimizni asrab avaylash orqali nafaqat ularni balki o‘zligimizni asrab qolishimiz va ushbu merosni kelajak avlodga yetkazishimiz mumkin.

REFERENCES

1. O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari: Darslik/Mualliflar guruhi; Huquq va jamiyat nashriyoti; - Toshkent:, 2019 - 192b.
2. B.T.Musayev, K.R.Aliyeva, B.Narimonov. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi.// Darslik. - Toshkent: TDYU,2019. - b.
3. Узбекистон Республикасининг Конституциясига шарх / А.А.Азизхужаев [ва бошк.], Узбекистон Республикаси адлия вазирлиги, Тошкент давлат юридик ин-ти. - Кайта ишланган ва толдирилган 2-нашр. - Тошкент: Узбекистон, 2013. - 544б.
4. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. - Toshkent: Adolat.2013. - 552 b.
5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan)
6. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. - Toshkent: Adolat.2013. - 552 b.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” gi O‘RQ-269-II-son Qonuni
8. <https://parliament.gov.uz/articles/372>
9. <https://yuz.uz/uz/news/vstuplenie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyoeva-na-konferentsii-organizatsii-obedinyonnx-natsiy-po-izmeneniyu-klimata-cop28>
10. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2019.,
11. https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-soliq-va-yigimlar-adolatli-bolishi-konstitutsiyada-huquqiy-mustahkamlanmoqda_465809
12. Davlat va huquq asoslari: O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar muassasalari uchun darslik / N.Ismatova, O.Karimova. - Birinchi nashr. - Toshkent.: Yangiyul Poligraph Service, 2018. - 144 b.
13. https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-soliq-va-yigimlar-adolatli-bolishi-konstitutsiyada-huquqiy-mustahkamlanmoqda_465809
14. Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 17.09.2021й.,
15. 03/21/716/0877-сон Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 05.10.2021 й., 03/21/719/0929-сон
16. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/huquqshunoslik/vatanni-himoya-qilish-va-harbiy-xizmatni-o-tash-burchlar>
17. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida” gi O‘RQ-436-II-son Qonuni
18. O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-martda qabul qilingan “Muqobil xizmatni tashkil etish va O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining uni o‘tashi tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi O‘RQ-128-son Qonuni

IJTIMOIIY JARAYONLARNI DASTURLASHDAGI MURAKKABLIKLAR

Boboqulov Abror Abdug'ani o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrasitayanch doktoranti

E-mail: abrorboboqulov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Tizimlarning murakkabligi doimiy ravishda oshib borayotgan zamonaviy dunyoda dunyoni tahlil qilish va tushunishning an'anaviy yondashuvlari ko'pincha kam samara beradi. Asosiy kamchiliklardan biri bu hamma narsani ikkilik toifalarga bo'lish tendentsiyasidir: yaxshi va yomon, tartib va tartibsizlik, oqilona va irratsional. Biroq, bu yondashuv o'tish holatlarining boyligini e'tiborsiz qoldirib, tizimlarning murakkabligi va dinamikligini to'liq baholamaydi. Ushbu maqola murakkab tizimlar tuzilishini tushunishga muqobil yondashuv sifatida "o'rta tartib" tushunchasini taklif qiladi. Ushbu kontseptsiya an'anaviy ikkilik fikrlashdan tashqariga chiqadi, ularning munosabatlari va o'zaro ta'sirini yaxshiroq tushunish uchun tizimning turli jihatlarini chuqur tahlil qilish va integratsiyalashni taklif qiladi.

Kalit so'zlar: *Murakkab tizimlar, o'rta tartib, mutlaq tartib, mutlaq tartibsizlik, ikkilik qarama-qarshiliklar, axloq va axloq, hissiylik va ratsionallik, dinamik jarayonlar, sabab va ta'sir tamoyillari, ikkilikdan tashqari fikrlash, tanlash erkinligi, integratsiya va murosaga kelish.*

СЛОЖНОСТИ ПРОГРАММИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ

Бобокулов Аброр Абдугани угли

Ташкентский государственный экономический университет

Докторант кафедры «Социально-гуманитарные науки»

Электронная почта: abrorboboqulov@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В современном мире, где сложность систем постоянно увеличивается, традиционные подходы к анализу и пониманию мира часто оказываются неэффективными. Одним из ключевых недостатков является тенденция мышления разделять все на бинарные категории: хорошее против плохого, порядок против хаоса, рациональное против иррационального. Однако такой подход игнорирует богатство переходных состояний и не позволяет полностью оценить сложность и динамизм систем. В данной статье

предлагается концепция "среднего порядка" как альтернативного подхода к пониманию структуры сложных систем. Эта концепция выходит за рамки привычного двоичного мышления, предлагая глубокий анализ и интеграцию различных аспектов системы, что позволяет лучше понять их взаимосвязи и взаимодействия.

Ключевые слова: Сложные системы, промежуточный порядок, абсолютный порядок, абсолютный хаос, бинарные оппозиции, мораль и этика, эмоциональность и рациональность, динамические процессы, принципы причины и следствия, небинарное мышление, свобода выбора, интеграция и компромисс.

DIFFICULTIES IN PROGRAMMING SOCIAL PROCESSES

Bobokulov Abror Abdugani oqli

Tashkent State Economic University

Doctoral student of the Department of Social Sciences and Humanities

Email: abrorboboqulov@gmail.com

ABSTRACT

In the modern world, where the complexity of systems is constantly increasing, traditional approaches to analyzing and understanding the world often turn out to be ineffective. One of the key flaws is the tendency of thinking to divide everything into binary categories: good versus bad, order versus chaos, rational versus irrational. However, this approach ignores the richness of transition states and does not fully appreciate the complexity and dynamism of systems. This article proposes the concept of "middle order" as an alternative approach to understanding the structure of complex systems. This concept goes beyond conventional binary thinking by offering in-depth analysis and integration of different aspects of a system to better understand their relationships and interactions.

Key words: *Complex systems, intermediate order, absolute order, absolute chaos, binary oppositions, morality and ethics, emotionality and rationality, dynamic processes, principles of cause and effect, non-binary thinking, freedom of choice, integration and compromise.*

Dasturlash texnologiyasi informatsion texnologiyalarda ishlatilgani kabi ijtimoiy jarayonlarni tushunish uchun ham ishlatiladi. Ijtimoiy jarayonlarni dasturlash bu, mal'lum jamiyatni tashkil etuvchi elementlarning o'zaro ta'sirini aniqlash, ularni tizim holatiga keltirish, tizimli loyiha orqali ularni bashorat qilishni o'z ichiga oladi. Elementlarning o'zaro ta'siri sifatida biz ijtimoiy tizimlar, odamlar, tashkilot va

guruhlarning birgalikdagi ijtimoiylashuvini tushunishimiz mumkin. Ularni dasturlash, tahlil qilish, bashorat qilish, optimal boshqarish va ijtimoiy muammolarga yechim berish xisoblanadi.

Barcha jarayonlarda bo'lgani kabi ijtimoiy jarayonlarda ham chiziqli va nochiziqlik, tartib va tartibsizlik mavjud. "Ijtimoiy jarayonlardagi chiziqli modellar sabab va oqibat o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri proporsionallikni nazarda tutadi, bu esa ijtimoiy jarayonlardagi o'zgarishlarning doimiyligini anglatadi. Biroq, ko'plab asarlarda ta'kidlanganidek, haqiqiy ijtimoiy jarayonlar ko'pincha chiziqli bo'lmaganligi bilan ajralib turadi, bu yerda kichik o'zgarishlar sezilarli va oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin"[1].

"Ijtimoiy tizimlar tartib va tartibsizlikni namoyon qilishi mumkin, bu ijtimoiy o'zaro ta'sirlar va jarayonlarda tashkiliylik va bashorat qilish darajasini aks ettiradi. Tartib barqarorlik va bashorat qilish bilan bog'liq, tartibsizlik esa tartibsizlik va noaniqlikni ko'rsatadi. Dinamik tizimlardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tizimlar tartibdan tartibsizlikka va yana orqaga o'tishi mumkin, bu ijtimoiy jarayonlarning murakkabligi va dinamikligini ta'kidlaydi"[2].

Dasturlash odatda ijtimoiy jarayonlarni nazorat qilish va ularga ta'sir qilish uchun asosiy vosita xisoblanadi.

Ijtimoiy jarayonlarning nazorati haqida gapiradigan bo'lsak, bu holat to'liq faoliyatni tushunish, unga ta'sir va natijalarni oldindan belgilash imkoniyati xisoblanadi. Ya'ni aniq ta'sir va aniq natija. Bu yerda tasodifiylik bo'lmaydi. Bu qat'iy determenizmni ifodalab, ta'sirlar chiziqli va natijalar ham ishonchli va chiziqli ekanligini anglatadi. Real jamiyatdagi ijtimoiylashuvning ko'pincha nochiziqli ekanligini xisobga olsak, "ijtimoiy jarayonlarning to'liq nazorati" kabi ibora shubha ostida qoladi.

Ijtimoiy jarayonlarga ta'sir qilish esa uni tasarruf etish yoki nazorat qilish bilan amalga oshmasada, ijtimoiy jarayonlarning tarkibi yoki xususiyatlarini ma'lum miqdorda o'zgartirishga qodir. Ijtimoiy jarayonlarni to'liq nazorat qilmasdan, ularga ta'sir qilish ba'zida murakkab dinamik xususiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Lekin ushbu ta'sirlar ma'lum natijalarga xissa qo'shishi mumkin. Bu yerda natija ta'sirga proporsional, lekin ta'sir har doim ham to'liq nazorat bilan kechmaydi yoki natija ham to'liq jarayonni tavsiflamaydi. Ijtimoiy jarayonlarning murakkab dinamik va noaniqlik xususiyatlariga ega ekanligiga qaramay, xavflarni minimallashtirish va ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun ehtimoliy strategiyalar ishlab chiqiladi, ular odatda ijtimoiy dasturlar deb nomalanadi.

Murakkabliklarning makrobosiqichida ham (ya'ni jamiyatda), mikrodarajada ham (individual) jarayonlarni nazorat qila olmasakda biz undagi ma'lum narsalarga ta'sir ko'rsata olamiz.

Masalan inson salomatligi uchun jiddiy xafv keltiradigan spirtli ichimliklar yoki tamaki mahsulotlari savdosini to'liq ta'qiqlash yoki ularning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish murakkab jarayon xisoblangani uchun, ularni nazorat qilish qiyin, lekin tovarlarga soliq solish, ushbu tovarlar reklamasini qisqartirish, chekish yoki ichishni tashlaganlarga yoki ushbu mahsulotlarni sotmaslik uchun kafe va restorablarga imtiyoz berish orqali, ularning savdosiga jiddiy ta'sir o'tqazish mumkin. Xulosaga ko'ra ta'sir qilish uchun total nazorat shart emas. Shuni unutmashlik ham kerakki ta'sir qila olishimiz ham, to'liq nazorat qila olishimizni anglatmaydi.

Ijtimoiy jarayonlarni tizimlashtirishdagi noxiziqli faoliyat va tartibsizliklarning odatda o'rganuvchi subyekt tomonidan belgilanganligi ta'sir ko'rinishdagi konsepsiya xisoblanadi, uning to'liq nazoratigina bizga tartib va tartibsizliklar to'g'risidagi universal kategoriyalar va ulardagi tamoillar haqida ma'lumot bera oladi. Masalan tartibsizlikning mavjudligini odatda biz tartib deb xisoblagan tamoillarning buzilishiga nisbatan belgilaymiz. Bu aniq va qat'iy tartib to'g'risida tamoillarga ega bo'lmay turib tartibsizlikni belgilash xisoblanadi. Analogiya sifatida nazorat bo'lmasada, ta'sir qilish mumkinligini anglatadi. Total nazorat uchun bizga umumiy tizimlar nazariyasi zarur va undan keyin bizda ta'sir qilish ham shunga proporsional amalga oshadi. Bularning barchasi, tartib va tartibsizlik konspeziyalari universal ahamiyat kasb etish borasida subyektiv ekanligini belgilaydi.

Mutlaq tartib konsepsiyasi yo'qligi yoki ijtimoiy jarayonlarning to'liq nazorat qila olmasligimiz ularga ta'sir qilishimiz mumkin emasligini anglatmaydi. Ba'zan universallik, totallik, binar qutblarni izlash, ularni bir biriga qarama – qarshi qo'yish, yoki mutaq nazoratni o'rniga muayyan o'zgaruvchilar tabiati, ularni yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi yoki so'ndiruvchi tamoillar orqali strategiyalar ishlab chiqish samaraliroqdir.

Albatta tartib, barqarorlik, metafizika va tartibsizlik, beqarorlik, diallektika konsepsiyalari dualizm va binarlik tamoillarisiz amalga oshmagan bo'lar edi. Ularsiz ikki bir – birini istisno qiluvchi yoki qara – ma qarshi tamoillar haqida gap ham bo'lishi mumkin emas edi. Aynan barqarorlik orqali beqarorlik, o'zgarishlardagi turg'unlik orqali qonunlar, bashoratlar paydo bo'ldi. Doimiy qaytarilish, hodisalarning barqarorligi undan kelib chiqadigan natijalarning takrorlanishi ushbu voqea va hodisalarni bashorat qilishga va shu asosida bilim, fan va sohalarning paydo bo'lishiga xizmat qildi. Aynan fan sababiy aloqadorlik, barqarorlik va takrorlanishlar

tamoiliga asoslanardi. O'zgarishlarda umumiy qonuniyatlar va takrorlanishlar bo'lmasa biz, ularni umuman bir biriga nisbatan miqyosini, ko'lamini va belgilarini anglamagan bo'lar edik.

Barcha jarayonlarni tashkil qiluvchi elementlarga nisbatan ikkilik sifatida qarash, ushbu tamoilga ko'ra tizimlarni reduksionistik tavsiflash, murakkab tizimlarning tabiatini to'laqonli izohlash uchun yetarli xisoblanmaydi.

“Chiziqli bo'lmagan va ko'p o'lchovli dinamik o'zaro ta'sirlarning qaytarilmas tabiati an'anaviy reduksionistik yondashuvlarni qiyinlashtiradi”[3].

Xuddi shu kabi tartib va tartibsizlik tushunchalariga stereotipik binar tizim sifatida emas balki integral tizim sifatida qarash murakkab tizimlarning tabiatini tushunishga yordam beradi. Shuningdek ikki qarama qarshi qutblarning murosaa nuqtalarini topishga va ularga ta'sir qiluvchi yoki ulardan yuqori turuvchi tizimlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Ushbu integratsiyani biz shartli ravishda o'rta tartib deb nomlaymiz. Chunki yuqorida keltirilganidek bizda to'liq nazorat mavjud emas. Shunga ko'ra bizda noma'lum absolyut tartib, o'rta tartib va nol qiymatda tartibning mavjud emasligi kabi konsepsiyalar mavjud. Ular ko'lam va foiz jihatdan quyidagicha ko'rinishga ega: Absolyut tartib=100, tartibsizlik=0 va o'rta tartib yuz va nollar orasida yotadi. Spektrning bir uchida absolyut tartib mavjud va boshqa uchida to'laqonli tartibsizlik hukm suradi. Absolyut tartib fanga noma'lum konseptual qurilma bo'lsa, absolyut tartibsizlik ham belgisiz, tamoilsiz tuzilma. Bizda faqat o'rta tartiblar haqida ma'lumotlar bor xolos. Faraz qilaylik, o'rta tartiblar, odatda 80 foiz tartib va 20 foiz tartibsizlikdan iborat. Ba'zan esa teskarisi. O'rta tartiblardagi absolyut tartibning yuqorilashuvi ya'ni foiz ko'rsatkichining oshishiga ko'ra, uni aniqlash oson kechadi, aksincha tartibsizlik miqdori ko'paysa, ushbu jarayon tamoilllarini aniqlash murakkabligi oshadi.

Mutlaq tartib (100%) - bu tizimning barcha elementlari to'liq va ideal tartibda bo'lgan ideallashtirilgan holat. Biroq, tizimga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar tufayli bunday holatga haqiqatda erishib bo'lmaydi.


Mutlaq tartibsizlik (0%) - bu to'liq tartibsizlik holati, hech qanday tuzilma yoki tamoillarning yo'qligi. Mutlaq tartib kabi, mutlaq tartibsizlik kamdan-kam hollarda uning sof shaklida topiladi, chunki hatto eng tartibsiz tizimlar tuzilish elementlarini o'z ichiga olsa tartibga aylanadi.

O'rta tartib - bu tizimlar odatda ishlaydigan real holat. Bu tartib va tartibsizlikning aralashmasi bo'lib, unda tartib va tartibsizlik elementlari dinamik va moslashuvchan tizimni yaratish uchun birga yashaydi.

O'рта tartib kontekstida turli tushuncha, konsepsiya yoki tamoillar, binar oppozitsiyasiz tahlil qilinishi bilan ahamiyatlidir. Ya'ni bir tizimdagi xususiyatlarni yaxshi va yomonga, xavfli va xavfsizga ajratish, ulardan birining tizimdagi ta'siri boshqasini yo'qolishiga olib kelishidan boshqa omillarni ko'rmaslik, yoki ularning zaruriy bir – birini tashkil etishi kabi xususiyatlarni xisobga olmaslik kabi xatolardan qutqaradi.

Gap shundaki dunyodagi barcha jarayonlar ham qat'iy ravishda ikki maydonga ajralmaydi va murakkab jarayonlarni faqat ikki qutb bilangina tushuntirib bo'lmaydi.

Ushbu yondashuv stereotiplarda, spektrlarda va mantiqan ham birga uchrashi mumkin bo'lmagan turli yondashuvlar va g'oyalarni birgalikda ko'rib chiqishga yordam beradi. Shuningdek dinamik jarayonlarni tugashi deb qaraladigan lekin aslida bir holatdan ikkinchi holatda o'tishdek tizimlarning turli darajalardagi murakkab aloqa va munosabatlarni yaxshiroq tushunishga imkon beradi.



Taqdim etilgan grafik mutlaq tartibdan mutlaq tartibsizlikgacha bo'lgan spektrni, asosiy tushuncha sifatida o'рта tartib tushunchasini aks ettiradi. Yashil nuqta chiziq mutlaq tartibni (100%), qizil nuqta esa mutlaq tartibsizlikni (0%) ifodalaydi. Ko'k chiziq o'rtacha tartibni ko'rsatadi, bu asosan 80% tartib va 20% tartibsizlik deb taxmin qilinadi, lekin spektr bo'ylab farq qilishi mumkin.

Grafik shuni ko'rsatadiki, biz yashil maydonga qanchalik yaqin bo'lsak, tartib darajasi shunchalik yuqori bo'ladi, qizil maydonga yaqinroq harakat qilish tartibsizlikning kuchayishini ko'rsatadi. O'rtacha tartib egri chizig'i ostidagi yoritilgan

maydonlar tartibdan tartibsizlikka o'tishning o'zgaruvchanligi va gradientini ko'rsatadi va bu holatlar o'rtasida aniq chegara yo'qligini ta'kidlaydi. Ushbu vizualizatsiya ijtimoiy va boshqa murakkab tizimlar kamdan-kam hollarda to'liq tartibli yoki butunlay tartibsiz ekanligini ta'kidlaydi. Aksariyat tizimlar ushbu ekstremallar orasida joylashgan bo'lib, ularni tushunish va boshqarish uchun moslashuvchan va nozik yondashuvni talab qiladi.

Inson tafakkuri ham ko'pincha axloq, emotsionallik va ratsionallik matritsalarida haqiqiy o'zgarishlarga baxo berolmaydi. Shu sababli ham qat'iy qutblarda fikrlash har doim ham yaxshi natijaga olib kelmaydi. Ba'zan muammolar ham bir axloq va axloqsizlik kabi binar tizimda kechgani kabi boshqa tizimga o'tish yoki rivojlanishni kuzatmasligimiz mumkin. Mantiqan agar tanlovda axloq, emotsionallik va ratsionallikdan boshqa tizim bo'lmasa bu tanlovni erkin deb bo'lmaydi, ya'ni u faqat uch doirada erkin xolos. Agar insonda haqiqatda ham boshqa muqobil bo'lmasa demak u mavjud doiralar ichida erkin xolos, shuning uchun inson ba'zida jarayonlarga ta'sir etmaydi balki jarayonlarning o'zini tashkil etadi. Yana bir muammo shundaki, ya'ni tanlov erkinligi, agar tanlov determin(sababiy aloqalarga bo'ysungan) bo'lsa ushbu tanlovni kim amalga oshirdi inson ongimi yoki uning tanasi, bu yerda insonning ishtiroki qanday? Agar tanlov sabab oqibat tamoillariga asoslanmasa, unda ham insonni ishtiroki qaysi tamoillarga asoslanadi.

Tizimlarga o'rta tartib sifatida yondashish ba'zida, mavjud axloqiy, hissiy va ratsionallik orasidagi kompromiss nuqtalarni topishga. Bir mohiyatni tashkil qiluvchi tizimlarni alohida qarama-qarshi qutblarga(ratsional- irratsional, chiziqli – nochiziqli, diniy va dunyoviy) ajratmasdan uchinchi yo'l orqali tahlil qilishga yordam berishi mumkin. Qutbli fikrlash - insonning hodisa va tushunchalarni qora va oq toifalarga aniq bo'lish tendensiyasidir. Ushbu soddalashtirish kundalik hayotda yordam berishi mumkin, lekin ko'pincha dunyoning haqiqiy murakkabligini aks ettirmaydi. Masalan, axloqda ko'pincha yaxshilik va yomonlikning chegaralari o'rtasida juda ko'p soyalar mavjud va ko'plab vaziyatlar kontekstni chuqur tahlil qilish va tushunishni talab qiladi.

Insoniy tafakkuri, tanlash erkinligi va murakkab tizimlarni tahlil qilish haqidagi munozaralar haqiqatni tushunishga yondashuvlarimizni qayta ko'rib chiqish muhimligini ta'kidlaydi. Qanday qaror qabul qilishimiz va bu qarorlarga qanday omillar ta'sir qilishi haqida o'ylash o'zimizni va atrofimizdagi dunyoni yaxshiroq tushunishimizga yordam beradi. Shuningdek, u psixologiya, falsafa, nevrologiya va boshqa sohalar bizning umumiy tushunchamizga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan inson xatti-harakati va ijtimoiy tizimlarni o'rganishga fanlararo yondashuvning muhimligini ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Forrester, J. (1987). Nonlinearity in high-order models of social systems. *European Journal of Operational Research*, 30, 104-109. [https://doi.org/10.1016/0377-2217\(87\)90086-5](https://doi.org/10.1016/0377-2217(87)90086-5). Andersson, K., & Zhang, W. (1997). Nonlinearity in social dynamics – order versus chaos. *Discrete Dynamics in Nature and Society*, 1, 111-126. <https://doi.org/10.1155/S1026022697000125>.)
2. Schiepek, G., Kowalik, Z., Schutz, A., Köhler, M., Richter, K., Strunk, G., Mühlnickel, W., & Elbert, T. 1997. Psychotherapy as A Chaotic Process I. Coding the Client-Therapist Interaction by Means of Sequential Plan Analysis and the Search for Chaos: A Stationary Approach. *Psychotherapy Research*, 7, 173-194. <https://doi.org/10.1080/10503309712331331953>. Warren, K., Franklin, C., & Streeter, C. (1998). New Directions in Systems Theory: Chaos and Complexity. *Social Work*, 43, 357-372. <https://doi.org/10.1093/SW/43.4.357>.)
3. Tajima S, Yanagawa T, Fujii N, Toyozumi T (2015) Untangling Brain-Wide Dynamics in Consciousness by Cross-Embedding. *PLoS Comput Biol* 11(11): e1004537. <https://doi.org/10.1371/journal.pcbi.1004537>

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI ORGANLARI VA ICHKI AUDIT XIZMATLARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH MASALALARI

Mustafayeva Kamola Rixsivayevna

O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi

1-kurs magistranti

kamus131213@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari o'rtasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish davlat mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash, moliyaviy qonunbuzarliklarning oldini olish va aniqlash tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Davlat moliyaviy nazorat organlari, cheklangan resurslar, aloqa va hamkorlik, ichki audit xizmatlar, qo'shma auditlar, hisobotlarni almashish, cheklangan resurslar.*

ISSUES OF COORDINATING THE ACTIVITIES OF STATE FINANCIAL CONTROL BODIES AND INTERNAL AUDIT SERVICES

ABSTRACT

This article analyzes the coordination of activities between state financial control bodies and internal audit services, ensuring effective use of state funds, prevention and detection of financial violations.

Key words: *State financial control bodies, limited resources, communication and cooperation, internal audit services, joint audits, exchange of reports, limited resources.*

ВОПРОСЫ КООРДИНАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ И СЛУЖБ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется координация деятельности органов государственного финансового контроля и служб внутреннего аудита, обеспечивающая эффективное использование государственных средств, предупреждение и выявление финансовых нарушений.

Ключевые слова: органы государственного финансового контроля, ограниченные ресурсы, коммуникация и сотрудничество, службы внутреннего аудита, совместные проверки, обмен отчётами, ограниченные ресурсы.

METODLAR

Maqolada tarixiylik hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ma'lumotlar izlashda O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksi, maqolalar va turli xil internet saytlaridan xususan, <http://Bard.google.com> saytidan foydalanildi.

KIRISH

Davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari o'rtasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish davlat mablag'laridan samarali va samarali foydalanishni ta'minlash, moliyaviy qonunbuzarliklarning oldini olish va aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Biroq, ushbu muvofiqlashtirishga erishishda bir qator muammolar paydo bo'lishi mumkin, jumladan:

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Turli xil vakolatlar va maqsadlar: Davlat moliyaviy nazorati organlari odatda davlat tashkilotlarining moliyaviy boshqaruvini nazorat qilish bo'yicha keng vakolatlarga ega, ichki audit xizmatlari esa ularning tegishli sub'ektlari rahbariyatiga ishonchni ta'minlashga qaratilgan. Mandatlardagi bu tafovut samarali moliyaviy nazoratni tashkil etuvchi turli ustuvorliklar va istiqbollarga olib kelishi mumkin.

Muloqot va hamkorlikning yo'qligi: davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari o'rtasida aloqa va hamkorlikning etishmasligi bo'lishi mumkin. Bu sa'y-harakatlarning takrorlanishiga, hamkorlik uchun o'tkazib yuborilgan imkoniyatlarga va davlat tuzilmalari duch keladigan xavf va muammolarni umumiy tushunmaslikka olib kelishi mumkin²⁰⁷.

Cheklangan resurslar: Davlat moliyaviy nazorati organlari ham, ichki audit xizmatlari ham resurslar cheklovlariga duch kelishi mumkin. Bu ularning faoliyatini samarali muvofiqlashtirishni qiyinlashtirishi mumkin.

Muvofiqlashtirishning aniq asoslari mavjud emas: ayrim hollarda davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirishning aniq asoslari mavjud emas. Bu bir-biriga zid bo'lgan joylarni aniqlash va hal qilishni va ularning harakatlari bir-birini to'ldirishini ta'minlashni qiyinlashtirishi mumkin.

Bunday qiyinchiliklarga qaramay, davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari o'rtasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishni takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

²⁰⁷ <http://Bard.google.com>

Aniq rol va majburiyatlarni belgilash: Davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari uchun aniq rol va majburiyatlarni belgilash muhim ahamiyatga ega. Bu harakatlarning takrorlanishini oldini olishga yordam beradi va ikkala tashkilot ham o'zlarining kuchli tomonlariga e'tibor qaratishlarini ta'minlaydi.

Aloqa va hamkorlikni rivojlantirish: Davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlarini muntazam ravishda muloqot qilish va hamkorlik qilishga undash kerak. Bu muntazam uchrashuvlar, qo'shma auditlar va axborot almashish kabi rasmiy va norasmiy kanallar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Muvofiqlashtirish asoslarini ishlab chiqish: Davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish asoslari ularning sa'y-harakatlari bir-birini to'ldiruvchi bo'lishini va davlat tuzilmalari oldida turgan eng muhim risklarni bartaraf etishini ta'minlashga yordam beradi. Ushbu tizim ikkala tashkilot bilan maslahatlashgan holda ishlab chiqilishi va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish uchun etarlicha moslashuvchan bo'lishi kerak²⁰⁸.

Yuqoridagilardan tashqari, davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari o'rtasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishni takomillashtirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar ham amalga oshirilishi mumkin:

Audit rejalarini birgalikda ishlab chiqish va amalga oshirish: Davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari birgalikda audit rejalarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari mumkin. Bu ularning auditorlik harakatlari muvofiqlashtirilganligini ta'minlashga va ular bir-birini takrorlashning oldini olishga yordam beradi.

Audit natijalari va hisobotlarini almashish: Davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari audit natijalari va hisobotlarini bir-birlari bilan bo'lishishlari kerak. Bu har ikkala sub'ektning davlat tuzilmalari oldida turgan xavf va muammolardan xabardor bo'lishiga va ularni bartaraf etish choralari ko'rishiga yordam beradi.

Bir-birlari bilan muntazam ravishda fikr-mulohaza yuritish: Davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari tegishli auditorlik faoliyati yuzasidan bir-birlari bilan muntazam ravishda fikr-mulohaza yuritib turishlari kerak. Bu yaxshilanishi lozim bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash va ularning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirishga yordam beradi.

XULOSA

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari o'z faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirishi mumkin, bu esa pirovardida davlat sektorida moliyaviy

²⁰⁸ <http://Bard.google.com>

boshqaruv va javobgarlikni yaxshilashga olib keladi. Shu bilan bir qatorda, bunday qiyinchiliklarga qaramay, davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari o‘rtasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishni takomillashtirish bo‘yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 01.01.2020.
2. O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida Prezident Farmoni. 29.06.2018. <https://xs.uz/uz/post/>
3. <https://lex.uz/docs/-4674902>
4. <https://soliq.uz/page/>
5. <http://Bard.google.com>

INTELLECTUAL PROPERTY RIGHTS IN THE WTO: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES

Fayzullaeva Shakhlo Jumaniyoz kizi

Lecturer of the Department of International Law and Human Rights of Tashkent
State Law University

ABSTRACT

The World Trade Organization (WTO) plays a significant role in shaping global intellectual property rights (IPR) standards. This article examines the challenges and opportunities presented by the regulation of intellectual property rights within the WTO framework. By analyzing the impact of TRIPS Agreement (Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights) on member countries, this study highlights the complexities of balancing innovation incentives and access to essential goods and services. Furthermore, the article explores the evolving landscape of IPR issues in the context of technological advancements and discusses potential solutions to address the concerns of developing countries in the WTO.

Keywords: *WTO, Intellectual Property Rights, TRIPS Agreement, Global Trade, Innovation, Developing Countries, Technology, Access to Medicines, Innovation Incentives, Technology Transfer.*

Intellectual Property Rights (IPRs) have become a critical component of global trade, shaping economic growth, innovation, and access to knowledge. The World Trade Organization (WTO) plays a central role in establishing international norms and regulations governing IPRs. However, navigating the complex landscape of IPRs within the WTO framework poses various challenges and opportunities for member states, particularly concerning balancing interests in innovation, public health, and equitable access to knowledge. This article delves into the challenges and opportunities surrounding intellectual property rights within the WTO, exploring key issues and potential avenues for addressing them.

The Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS Agreement) is the primary international agreement governing IPRs within the WTO framework. Enforced in 1995, the TRIPS Agreement establishes minimum standards for the protection of intellectual property, including patents, copyrights, trademarks, and trade secrets. These standards aim to promote innovation, technological transfer, and the dissemination of knowledge while ensuring a balance between the interests of right holders and the broader public.

Challenges:

Access to Medicines: One of the most pressing challenges within the realm of IPRs in the WTO is balancing the need for innovation with ensuring access to essential medicines, particularly in developing countries. The TRIPS Agreement has been criticized for potentially limiting access to affordable generic medicines due to stringent patent protections, particularly for life-saving drugs such as antiretrovirals for HIV/AIDS treatment.²⁰⁹

Technology Transfer and Capacity Building: Developing countries often face challenges in effectively utilizing intellectual property systems to foster innovation and technology transfer. The TRIPS Agreement mandates the provision of technical assistance and capacity building for developing countries to enhance their IP infrastructure. However, disparities in resources and expertise pose significant barriers to leveraging intellectual property for economic development. **Flexibilities and Public Interest:** The TRIPS Agreement includes flexibilities such as compulsory licensing and parallel importing, which allow member states to safeguard public health and promote access to essential goods. However, the interpretation and implementation of these flexibilities vary, leading to disputes and tensions between member states, particularly concerning issues like access to medicines and agricultural products.

Opportunities:

Public Health and Access to Medicines: Despite challenges, the TRIPS Agreement provides avenues for addressing public health concerns through flexibilities such as compulsory licensing and the Doha Declaration on TRIPS and Public Health. Continued dialogue and collaboration within the WTO can facilitate the implementation of these flexibilities to ensure access to affordable medicines while incentivizing innovation.

Technology Transfer and Innovation: The WTO can serve as a platform for promoting technology transfer and capacity building initiatives, particularly for developing countries. Enhanced technical assistance programs, technology sharing mechanisms, and knowledge exchange platforms can facilitate the transfer of technology and expertise, fostering innovation and sustainable development.

Balancing Interests: The WTO provides a forum for member states to negotiate and strike a balance between competing interests in intellectual property, public health, and access to knowledge. Continued engagement and dialogue are essential

²⁰⁹ Gurry, Francis, and Debora Halbert. "Globalization, development, and intellectual property: New challenges and new opportunities." In *Proceedings of the Annual Meeting (American Society of International Law)*, pp. 291-300. The American Society of International Law, 2005.

for addressing emerging challenges and evolving global priorities, including those related to climate change, digital technologies, and genetic resources.²¹⁰

Intellectual Property Rights (IPR) have emerged as a critical component of global trade and economic development, with the World Trade Organization (WTO) playing a central role in shaping international standards and regulations in this domain. The Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS) Agreement, which came into effect in 1995, marked a significant milestone in the multilateral governance of IPR, by harmonizing and strengthening protections for patents, trademarks, copyrights, and other forms of intellectual property across member countries. While TRIPS has undeniably contributed to the promotion of innovation and creativity worldwide, it has also sparked debates and controversies over the balance between protecting intellectual property and ensuring access to essential goods and services, particularly in developing countries.

One of the key challenges facing the WTO in the realm of intellectual property rights is striking a delicate balance between the interests of rights holders, such as pharmaceutical companies and technology firms, and the broader public interest in accessing affordable medicines, essential technologies, and knowledge goods. The TRIPS Agreement, for instance, has faced criticism for potentially stifling competition, limiting technology transfer, and posing barriers to access to medicines in low- and middle-income countries. The debate over the scope and enforcement of patents, particularly in the pharmaceutical sector, has been a contentious issue within the WTO, with concerns raised over the implications of stringent intellectual property protections on public health outcomes and technological innovation.

Moreover, the rapid pace of technological advancement and digital innovation has posed new challenges for the regulation of intellectual property rights in the WTO. The rise of digital technologies, e-commerce platforms, and intellectual property-intensive industries has raised questions about the adequacy of existing IPR frameworks to address emerging issues such as data privacy, online piracy, and cross-border enforcement of intellectual property rights. The need for updated and flexible mechanisms to address these challenges has become increasingly pressing, as the global economy becomes more interconnected and reliant on digital technologies for growth and development.

In response to these challenges, the WTO has an opportunity to enhance its role as a forum for multilateral cooperation and dialogue on intellectual property rights. By promoting a more inclusive and transparent process for the negotiation of

²¹⁰ Bird, R., Bird, R. and Jain, S.C. eds., 2009. *The Global challenge of intellectual property rights*. Edward Elgar Publishing.

intellectual property standards, the WTO can foster a conducive environment for addressing the concerns of all stakeholders, including developing countries, small and medium enterprises, and civil society organizations. Furthermore, the WTO can play a crucial role in facilitating technology transfer, capacity-building, and technical assistance to support developing countries in harnessing the benefits of intellectual property rights for sustainable development and economic growth.

In conclusion, the regulation of intellectual property rights in the WTO presents a complex set of challenges and opportunities for global governance. By addressing the concerns of developing countries, promoting innovation, and ensuring access to essential goods and services, the WTO can play a pivotal role in advancing a more balanced and equitable international intellectual property regime. Through collaborative efforts and constructive dialogue, the WTO has the potential to shape a future where intellectual property rights are harnessed for the collective benefit of all nations and peoples. Intellectual Property Rights in the WTO present both challenges and opportunities for member states seeking to promote innovation, economic development, and access to essential goods and services. While the TRIPS Agreement establishes minimum standards for intellectual property protection, ongoing efforts are needed to address disparities in implementation, enhance technology transfer, and safeguard public health interests. By leveraging the platform of the WTO, member states can work collaboratively to navigate the complex terrain of intellectual property rights, advancing shared goals of innovation, sustainability, and equitable access to knowledge.

REFERENCES

1. Gurry, Francis, and Debora Halbert. "Globalization, development, and intellectual property: New challenges and new opportunities." In *Proceedings of the Annual Meeting (American Society of International Law)*, pp. 291-300. The American Society of International Law, 2005.
2. Anderson, Robert D., and Hannu Wager. "Human rights, development, and the WTO: The cases of intellectual property and competition policy." *Journal of International Economic Law* 9, no. 3 (2006): 707-747.
3. Bird, R., Bird, R. and Jain, S.C. eds., 2009. *The Global challenge of intellectual property rights*. Edward Elgar Publishing.

NORMUROD NORQOBILOVNING “CHANGALZOR ITI” QISSASIDAGI QORAVOY OBRAZINING DINAMIK TALQINI

Ashurov Bekzod Shavkatjon o‘g‘li

NamDU O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: bekozod.ashurov.1994@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yozuvchi Normurod Norqobilovning “Changalzor iti” qissasidagi qahramonlar, ularning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, yozuvchi badiiy maqsadini ochishga qay darajada xizmat qilishi haqida fikr yuritiladi. “Changalzor iti” qissasidagi Qoravoy obraziga xos xarakterli xususiyatlarni yoritilgan. It obrazi Tolmas obrazi bilan yonma-yon tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Normurod Norqobilov, hikoya, obraz, kompozitsiya, personaj, “Changalzor iti”, it, Qoravoy, Olapar, Tolmas.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются персонажи рассказа «Чангалзор Ити» писателя Нормурода Норгабилова, их идейно-художественные особенности, а также в какой степени они служат раскрытию художественной цели писателя. Автором выделены особенности черт характера Каравой в повести «Чангалзор Ити». Образ собаки был проанализирован параллельно с образом Толмаса.

Ключевые слова: Нормурод Норкабилов, сюжет, образ, композиция, персонаж, «Чангалзор Ити», собака, Каравой, Олапар, Толмас.

ABSTRACT

This article discusses the characters in the short story "The Dog of the jungle" by the writer Normurod Norqabilov, their ideological and artistic characteristics, and to what extent they serve to reveal the writer's artistic goal. Characteristic features of the character of Karavoy in the story "The Dog of the jungle" are highlighted. The image of the dog was analyzed side by side with the image of Tolmas.

Keywords: Normurod Norqabilov, story, image, composition, character, "The Dog of the jungle", dog, Karavoy, Olapar, Tolmas.

KIRISH

Ma'lumki, har qanday san'atkor o'zining badiiy-ijodiy konsepsiyasini badiiy obraz yordamida namoyon etadi. Obraz orqali yozuvchida yuz berayotgan borliqni anglash jarayoni, yaratilayotgan badiiy borliqqa ijodkorning hissiy-falsafiy, badiiy-estetik munosabati yuzaga chiqadi. “Badiiy obraz estetika va adabiyotshunoslikning asosiy kategoriyalaridan biri. Inson faoliyatining alohida sohasi bo‘lgan badiiy ijodiy

jarayon va uning mahsuli bo‘lib, badiiyatga bog‘liq bo‘lmagan borliq va san‘atga spetsifik munosabatda bo‘lishi bilan ajralib turadi”²¹¹. Shu ma’noda yaratilayotgan, badiiy obraz ham anglayotgan hodisa mazmuni, ham san‘atkor shaxsiga nisbatan teran kirib borish vositasi sifatida yaratilayotgan individual to‘qima hodisada umumiy hayot qonuniyatini ifoda etadi. Shu ma’noda Normurod Norqobilovning “Changalzor iti” nomli qissasidagi bosh qahramon tug‘ilishi, olamni anglay boshlashi, ov qilishni o‘rganishi, boshqa hayvonlar bilan tanishuvi, insonga nisbatan turli munosabatida obrazning spetsifik jihatlarini yaxshiroq ochilganini kuzatish mumkin²¹².

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Qoravoyning ko‘z ochib, ilk ko‘rgan novdalari bir-biriga chirmashgan devorday qalin butalar bo‘ldi. Butalar tagidan o‘tgan yilgi xas-hashaklar mo‘ralab turar, muzdek namxush havoda shuvoq isiga qorishiq zax hidi anqir, o‘lik oftob nuriga ko‘milgan chakalazor o‘ta adoqsizdek taassurot uyg‘otardi. Aslida ham changalzor kichkina emas, otda tevaraklaganda, yarim soatlik maydonda yastanib yotardi. Qoravoy uchbu changalzorning qoq o‘rtasidagi sayhonliklarning birida” dunyoga kelgandi. Mo‘jaz bu maydon dastlab unga keng olam tuyulgandi [2, 234-bet].

Mazkur parcha qissa ekspozitsiyasida keltirilgan bo‘lib, yozuvchi bosh qahramon Qoravoy obrazining dunyoga kelishi va olamni anglashi bilan bog‘liq voqeani bayon qiladi. Tavsifiy-rivoya usulidagi bayonda roviy-muallif har qanday obrazning tug‘ilishi bilan bog‘liq oddiylikdan murakkablikka yo‘nalgan dialektik fikrlash tarzini tanlagan. Bunda Qoravoy tug‘ilgan makon va uning badiiy tasviri beriladi. E’tibor qilinsa, ilk ko‘rgani qalin novdali butalar Qoravoyni tashqi olamdan asrovchi vosita sifatida ham olinishi mumkin. Buta tasviridan keyin sekin astalik bilan uning ostidagi xas-hashak tasviri berilishi bilan aniq vaqtga ham ishora qilinadi: *“Butalar tagidan o‘tgan yilgi xas-hashaklar mo‘ralab turar”*. Yozuvchi badiiy makon tasvirini berib, keyin aniq maqsadni tavsiflaydi. Lekin bu vaqt qish oxiri, bahor kelish arafasi ekanligini tahmin qilish mumkin. Chunki o‘tgan yilgi o‘tlar jonlantirilib, Qoravoyga qarab mo‘ralagandek berilishi ortidan obrazning rivoya markaziga chiqishi ham seziladi. Qoravoy tug‘ilgan joy changalzor o‘rtasidagi sayhonlik ekanligi esa bu joyni tabiiy qo‘rg‘onligini bildiradi. Changalzorning kengligi va yovvoyi tabiat ekanligi esa itning ham shu tabiat bilan uyg‘unligini anglatadi.

²¹¹ Коллектив. Образ художественный. Поэтика: слов, актуал. терминов и нятий / [гл. науч. ред. Н.Д. Тамарченко]. – М.: Издательство Кулагинной; Intrada, 2008. – С.149-151 (358 с)

²¹² Норқобилов Н. Бекатдаги оқ уйча. Хикоялар ва қиссалар. – Тошкент: Шарқ. – Б. 234-297. Fasldagi havolalar shu manbadan olindi. Keyin katta qavsda kitob sahifasi ko‘rsatiladi.

To'g'ri, badiiy obrazdagi hayotiy mohiyatni oldindan tayyor obyekt sifatida ko'rsatib bo'lmaydi. Uni faqat tasavvur qilish mumkin, xolos. Masalan, Normurod Norqobilovning "Changalzor iti" qissasidagi Olapar, Qoravoy, Bo'ribosar, Qora it, Ola it kabi itlar zimmasidagi badiiy mazmun majoziy ma'noda inson erki, ruhiy olami haqidagi g'oyani ham bildiradi. Buni quyidagi tasvirda aniq kuzatish mumkin: "Ona it – Olapar kunduzlari qorasini kam ko'rsatadi... Aslida u yovvoyiy it emasdi. Yovvoyilikni o'g'ri fe'li tufayli bir yil burun kasb etgandi. Ungacha yakkatomik Haydar ko'saning eshigini qo'riqlardi. Haydar ko'sa tabitan badfe'l odam edi. Olaparning o'g'riligini kechira olmadi" [2, 234-235-betlar].

Mazkur parchada Olaparning zimmasidagi yetakchi vazifalardan biri, avvalo, itning shaxs sifatida voqelikni anglashi, idrok etishi, ikkinchidan esa Qoravoyning onasi sifatida o'z kuchugiga nimalarni meros qoldigani, uchinchi, majoziy ma'noda, daydi, muqum turmush tarziga ega bo'lmagan kishi sifatida ham berilganini e'tirof etish kerak. Keltirilgan parcha yozuvchi Olapar va Qoravoy obrazlarining o'zaro munosabati, asar syujetidagi o'rni, mazmun kompozitsiyasidagi vazifasini aniqlash maqsadida keltirgan. Olaparni Qoravoyni solishtiradi: "Olaparda yovvoyilik bilan xonakilik qorishiq – arosatdagi it edi u. Shuning-chun ham changalzorni noilojlikdan tanlab, keyinchalik bazo'r ko'nikkan bo'lsa, Qoravoy esa onasidan faqli o'laroq, changalzorni butunlay o'ziniki, deb bildi. Esini tanimayoq unda yovvoyilik mayillari paydo bo'la boshlagandi. Odatda, insonga qaram bo'lmagan itlarda yovvoyilik tez shakllanadi. Nega deganda, uning tomirlarida ajdodlarining yovvoyi qoni yashaydi" [2, 236-bet].

Ko'rinadiki, Olapar dastlab odamlar bilan yashagani uchun, odamga nisbatan hurmat, ba'zi madaniy munosabatlar shakllangan. Ammo fe'lidagi o'g'rilik sabab yovvoyilikka ko'nikishga majbur bo'lgan. Shu yerda inson va hayvonot munosabati hamda bu aloqada obrazning xarakteridagi qusurning Olapar taqdiriga ta'siri beriladi. Bu esa keyinchalik Qoravoyning dunyoga kelishi, yovvoyilikni yetakchi xususiyat sifatida anglashiga asos bo'lishi xizmat qiladi. Olapar va Qoravoy farqlari shu yerda ochiladi. Lekin taqdirida o'xshashlik ham talaygina. Bu birinchidan ularning qondoshligi bilan belgilansa, ikkinchisi, har ikkala itning odamga bo'lgan munosabatida ko'rinadi. Buni quyiroqda keltrilgan misollar orqali ko'rish mumkin.

Yozuvchi umuminsoniy taraqqiyot natijasida xonakilashgan it va uning Olapar timsoli orqali it obrazining xususiyatlarini ko'rsatar ekan uzoq asrlik yutuq biz zumda yo'q bo'lishini, xususan, Olaparning yovvoyilashishida insonning ham qaysidir ma'noda o'rni borligini ta'kidlaydi. Odam Haydar ko'sa timsolida yovvoyilikda Olapardan qolishmasligini namoyon etadi. Buni quyidagi parchada kuzatish mumkin:

“Haydar ko‘sa tabiatan o‘ta badfe‘l odam edi. Olaparning o‘g‘riligini kechira olmadi. Chala g‘ajilgan tovuqni uning tumshug‘iga nuqib, boshda rosa kaltakladi. Sho‘rlik Olapar hafta deganda zo‘rg‘a o‘ziga keldi. Yana hafta, o‘n kun yuvundi ichib, darmonga kirdi. Darmonga kirgach, tag‘in nafsi hakalak otib, qonli, issiq go‘sht istab qoldi-da ko‘p o‘ylab turmay hovlidagi tovuqlardan birini tinchitdi. Bu voqeadan keyin Haydar ko‘sa uni o‘limga mahkum etdi. Avval boshda Nodir mergannikiga miltiq so‘rab bordi. Nodir mergan irimchi edi, qush otadigan yaroqda it otib bo‘lmaydi, ovdan Baraka ketadi, deya qurolini bermadi. Shundan keyin Haydar ko‘sa itni osib o‘ldirishga qaror qildi” [2, 235-bet].

Mazkur parchada ko‘rinadiki, Olapar tabiatida qonxo‘rlik hissiyoti mavjud va bu xonakilashgan itlarda ham uchraydi. Ammo odamda, aniqrog‘i Haydar ko‘sada ham yovvoyilik, ya‘ni itni otib tashlamoqchi bo‘lishi, miltiq so‘rashi, keyin esa Olaparning bo‘yniga arqon solib, achchiq danak o‘rik shoxiga osishida ham yovvoyilikdan qolishmaydigan jihat ham borligi tasvirlangan. To‘g‘ri, it dastlab bir marta tovuqni g‘ajib o‘ldiradi, kaltaklanadi, tuzalgach, ikkinchi marta shu ishini qiladi. Bu bir qarashda har qanday odamga yoqmaydi. Biroq itning bo‘yniga arqon solib osishi, arqon Olapar o‘lim hidini tuyishi, arqon uzilib ketib, Olapar bo‘shalib ketishi va uni yana urmoqchi va o‘ldirmoqchi bo‘lgan Haydar ko‘saning qo‘lini “g‘arch tishlab” qochishi ortida inson va it tabiatida ham o‘xshashlik majvudligi ko‘ringan. Faqat odam o‘zini tabiat ustidan hukmdordek tutishi, itning taqdirini o‘zicha hal qilishi, Olaparni o‘ldirishga urinishi, Olapar esa nafsi va ajdodlaridan qolgan tabiati hamda o‘z-o‘zini himoya qilishi bilan bir voqeaning ikki xil pozitsiyadagi ishtirokchisiga aylanadi.

Bir qarashda bu voqea hammaga tanish, oddiy hodisadek tuyuladi. Biroq inson va tabiat yaxlit sistema sifatida yashashi kerakligi anglangan vaqtda, tabiatning ikki vakili bir-biriga bu qadar zulm qilishi ortida yetuk insoniy qadriyatlar, borliqni badiiy-estetik anglash kabi muammolarda nuqson borligi ko‘zga tashlanadi.

Olapar va Qoravoy obrazlarining kishilar bilan munosabatida ba‘zi yaqinlik ham kuzatiladi. Xususan, Haydar ko‘sa tomonidan Olaparning kaltaklanishi, osib o‘ldirmoqchi bo‘lgani va uning Haydar ko‘saga hujum qilishiga o‘xshash voqea Qoravoy bilan ham yuz beradi: “Qoravoy bo‘yiniga kelib tushgan sirtmoqdan dastlab shoshib qoldi. So‘ng cho‘chib o‘zini chetga otdi. Sirtmoq siqilib tomog‘ini bo‘g‘di. Boshini bir yonga burib, arqonga og‘iz solarkan, ko‘zi o‘rnidan ro‘yi rost turganicha, arqonni totmoqqa boshlagan tog‘aga tushdi. U tog‘ani darhol tanidi. Undan yegan kaltaklarini esladi. Natijada qo‘rquv g‘azabga, g‘azabi nafratga aylandi. Dahshatli irillaganicha, to‘g‘ri tog‘aga sapchidi.

Ulfatlar buni sira kutmagan edilar. Hujumdan dovdirab qolishdi. Tog‘a sho‘rlikning umri shu dovdirash og‘ushida poyoniga etdi” [2, 296-bet].

Mazkur parchada Qoravoyning o‘z ozodligi, erkiga dahl qilgan odamga nisbatan nafrati aks etgan. Ular Orif tirriq ikkalasi qabristonda itni poylashadi. Qoravoy ko‘kka qarab uvlayotgandan bo‘yniga arqon tashlab, ushlamoqchi bo‘lishadi. Natijada esa Orif tirriq qochib qoladi, Uzunqul qora tog‘aning umri tugaydi. Shu yerda Olapar va Qoravoyning odamga tashlanishini yozuvchi birinchi galda Haydar ko‘sa, Uzunqul qora (tog‘a) ni aybdor deb ko‘rsatadi. Bu to‘g‘ri, lekin itga mehr ko‘rsatgan, unga yashirib non bergan va Qoravoy kabi qalbi armonga to‘la, hech kimi yo‘q Tolmas, Qoravoyning chiroyli qaddi-qomati, yoli bo‘lsa, sher deyish mumkinligi haqidagi fikrlari hamda asar o‘rtalarida Qoravoyni kaltaklayotgan Uzunqul qora (tog‘a)ni olib ketganligi uchunmi Orif tirriqqa tegmaydi. Bunda Qoravoyning Tolmasga bo‘lmas munosabati, Orif tirriqning esa qo‘rqoqligini sabab qilib ko‘rsatish mumkin. Chunki asar “strukturasidagi har bir belgi, so‘z, timsol badiiylik kod hisoblanib, qahramon mohiyati yoki badiiy voqelik zamiridagi estetik va ma‘rifiy informatsiyalarni yuzaga chiqaradi”²¹³. Shu fikrdan kelib chiqilsa, qissada tog‘aning “Uzunqul qora” degan ismidagi “qul” va “qora” so‘zlari ma‘nosi zamirida yozuvchining aniq maqsadi yotganini tushunish mumkin. U qullardek fikrlaydi, ozodlik mohiyatini anglamaydi, shuning uchun Qoravoy istagan erkinlikka qarshi kurashadi. Itni tutqunlikda saqlab, uni sotib yubormoqchi bo‘ladi. Bolaga Tolmas ismi qo‘yilgan. Bunda uning teran va sog‘lom fikrlashi, yetimlik g‘amini yelkasiga osib turli kamsitish va qiyinchiliklarga qaramasdan ruhan, qalban charchamasdan yashayotganiga ishora bor. Qissadagi bosh qahramonni Qoravoy deb atalishida ham itning xarakteridagi yetuklik, jismonan kattalik, qudratini ko‘rsatishga harakat qilingan, deyish to‘g‘ri bo‘ladi.

Haydar ko‘sa va Uzunqul qora (tog‘a)ning itlarga bo‘lgan munosabati natijasida Olapar hamda Qoravoyning ularga qilgan hujumida Olaparning nisbatan insonga yaxshilik qilishga ko‘nikkani, Qoravoy esa yovvoyilashgan it bo‘lgani uchun tog‘aning bo‘ynini g‘ajib tashlaydi. Aslida har ikkala it ham o‘z erki uchun kurashgan edi. Lekin Olapar nisbatan madaniylashganroq bo‘lgani uchun Haydar ko‘saning qo‘lini tishlaydi, xolos.

Olaparning changalzorga kelib qolishi ortida bir tomondan itning xarakteriga xos qonga intilish, xomgo‘sh tashnalik yotgan bo‘lsa, ikkinchi tomonda inson omili ham borligi ko‘rinadi. Keyinchalik Olapar fermadan tovuq o‘g‘rilashga o‘tadi va Bo‘ribosar bilan ilakishib qoladi, Qoravoy tug‘iladi. Demak, qissada Qoravoy

²¹³Юлчиев К. Семиотическая характеристика в лирике Анвара Обиджана. // Farg‘ona davlat universiteti ilmiy jurnali. 2023. №1. – С.387 (383-387) <https://scholar.google.com/citations?view>

obrazning kelib paydo bo'lishi, uning ijtimoiy va tabiiy asoslarini ham qisman yoritilgan.

Qoravoy obrazini yoritar ekan, yozuvchi mazkur obraz zimmasidagi badiiy funksiyani yoritishda Olaparning ahamiyatini ham keltiradi. Natijada Olapar, Bo'ribosar, Haydar ko'sa, Uzunqul qora, Tolmas, Ola it, Qashqa, Bo'ynoq, ona mushuk, yumronqoziq kabi obrazlar tizimi asar kompozitsiyadagi yetakchi Qoravoy obrazining mohiyati, shu obraz orqali yozuvchi o'quvchiga aytmoqchi bo'lgan asosiy maqsadi ifodalanadi. Zero, "Har qanday asarning g'oyaviy-estetik ta'siri – undagi shaklning (obraz, syujet, til kabi) mazmun (g'oya) bilan uyg'unlashuviga, bu hodisaning betakrorligiga bog'liqlik, bu vazifani asar kompozitsiyasi voqe qiladi"²¹⁴.

Yuqoridagi mulohazada ilgari surilgan tamoyildan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, muallif qator obraz, voqealarni yaxlit tizimga soladi hamda Qoravoy obrazining dinamik talqinini yaratadi. To'g'ri, bu yerda itning qissa oxirida odamni g'ajib, keyin bo'rilarga qo'shilishini dinamik deb atash xato deb munosabat bildirguchilar ham topilishini nazarda tutish lozim. Agar badiiy asar insonshunoslik ekanligidan kelib chiqsak, bu e'tirozda jon bor. Ammo muallif asarning boshidan oxirigacha dastlab Olaparning, so'ngra Qoravoyning qonida yovvoyilik, ozodlikka tashnalik borligiga e'tibor berganiga diqqat qilinsa, asarda it ham mehrga, erkka tashnaligi tasvirlanganini anglash mumkin. Ikkinchidan itlar hujum qilgan odamlarning o'zlari zulm qiluvchi, Olapar, Qoravoylar taqdiri ustidan "o'ldiraman" deb hukm chiqaruvchilar bo'lgan. Tabiatga esa har qanday zulm javobsiz qolmasligi yetakchi tamoyil sanaladi.

Qoravoyning tug'ilishidan boshlab, uning bo'ri to'dasiga qo'shilganigacha bo'lgan jarayonda kuchukning olamini anglashi, dastlab tipratikan, toshbaqa kabilarni tishlab ko'rishi, keyinchalik mushukka hujum qilib, u tutgan sichqonni olib qo'yishi, qon ta'mini his etgach esa ilon, qushlarni tutib, tanovul qilishi batafsilroq beriladi. Qoravoyning olamni tushunishi, tirik qolishi, ochlikni yengishi uchun kurashi, boshqa hayvonlardan ov qilish mashqlarini o'rganishi kabilar uning obraz sifatida o'sib borishini ko'rsatadi. Masalan, "Esini tanigach, bunday qarasaki, poyonsiz tuyulgan sayhonlik juda tor u yog'i o'n, bu yog'i o'n besh odim, o'rtada chog'roqqina kamar. Kamarga u biror xavf sezisagina biqinadi. Boshqa payt kunini yalanglikda o'tkazadi. Orada daydush istagi jo'sh urib, butalar oralab ham qoladi. Kalta va nimjon oyoqchalari ildizu xas-hashaklarga ilinib, "dod"lab dunyoni buzadi. O'shanday tentirashlarning birida chuqurga tushib qolib rosa ta'zirini ham yegan. Onasi kelib qutqarmaguncha yomg'ir suvi to'la chuqurda angillab yotgan" [2, 234-bet].

²¹⁴ Умуров Х. Адабиёт назарияси: – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.137.

Mazkur tasvirda hali kichik va atrofni endigina anglay boshlayotgan Qoravoyning ko‘ramiz. Yozuvchi, kuchuk obrazning olamni anglash jarayoni, bunda, asosan, uning yolg‘z harakat qilishi, faqat favqulodda vaziyatdagina Olapar yordamga kelganiga urg‘u beradi. Bu esa Qoravoyning boshqa itlardan deyarli mehr ko‘rmasdan, nisbatan erkin, shuning bilan birga yovvoyi tarzda o‘sganini anglatadi. Bundan tashqari, roviy nutqida obraz va uning dunyo bilan munosabatga kirishish jarayoni obrazli tarzda ifodalangan. Chunki “obraz va obrazlilik deganda badiiy asardagi poetik masalalarning yaxlit tizimi va ularning o‘zaro munosabatini tushunish kerak bo‘ladi, degan fikrni qayd etish lozim. Chunki poetik obraz har qanday badiiy asarda asosiy vazifani bajaradi”²¹⁵. Shu ma‘noda Qoravoyning obraz va u bilan bog‘liq ilk sarguzashtlarning ta‘sirchanligini ta‘minlashda yozuvchi badiiy tasviriy vositalarni mohirlik bilan qo‘llagan. “*daydish istagi jo‘sh urib*” (metafora), “*kalta va nimjon oyoqchalari* (portret), “*dod‘lab dunyoni buzadi*” (o‘xshatish), “*rosa ta‘zirini ham yegan*” (ibora) kabi jumla va iboralar shular jumlasidandir. Demak, yozuvchi Qoravoy obrazning olamni anglash, yashash qonuniyatlarini bilish jarayonini badiiy tasviriy ifodalash orqali obrazning o‘zaro takomillashib borishini ham aks ettirgan. Itda ham o‘zi tug‘ilgan joyga ham botiniy (ichki-hissiy) bog‘lanish, ham tashqi ko‘nikish borligini ta‘kidlaydi. Bu fikrlash shunchaki, jo‘n, yuzaki fikr emas.

Professor Ibrohim Haqqul badiiy asardagi obraz va uning ifodasiga yondashuvda ehtiyotkorlik lozimligini ta‘kidlab, quyidagilarni yozgan: “Badiiy ijodda haqiqat qancha yorqin rang va ohangda tasvirlanib, mohiyat nechog‘lik go‘zal manzaralarda aks ettirilgan bo‘lsa, unga shuncha ehtiyot va mas‘uliyat bilan qarash kerak. Aks holda, eng oliy haqiqat yoki favqulodda teran mohiyat ham jo‘n va umumiy bir narsaga aylanishi muqarrar”²¹⁶. Mazkur mulohazaga amal qilinsa, tadqiqot obyekti bo‘lgan ushbu qissa va undagi Qoravoy obrazi ham katta ishtiyoq, zavq, shavq bilan yozilganini tasvirlar orqali anglash mumkin. Lekin ular tahlilida tiriklik mohiyati, mavjudlikning azaliy haqiqati teran aks etganki, bu Qoravoy laqabli it obrazining shunchaki tasviri emas, balki mazkur obraz zamirida, birinchi galda, muallifning borliqni anglashi, badiiy idrok etishida barcha yaratilarning ham tengligini tushunishi yotadi. Bu avvalo obrazdagi vatanni anglash, vatan tuyg‘usi it yashaydigan makon kengayishi bilan birga kuchayib borishida ko‘rinadi. Yozuvchi Qoravoyni dastlab sayhonlik, keyin changalzor vatan ekanligini anglashini berar ekan, vatan tuyg‘usi tabiiy ekanligini to‘g‘ri ko‘rsatadi. “U changalzorni hamisha vatan deb bildi. Keyinchalik uni bir necha bor qattiq turib himoya qildi. Ammo hozircha

²¹⁵ Келдиёрова Н.Н. Замоनावий ўзбек шеърлятида поэтик образ ва унинг бадий талкини (Азим Суюн ижоди мисолида). фалсафа доктори (PhD) диссертацияси 21 бет (129 б)

²¹⁶ Иброхим Ҳаққул ҳақиқати: адабий ўйлар, ҳикматлар, лутфлар / Нашрга тайёрловчи: Зулайхо Раҳмонова. – Тошкент: Trust and support, 2023. – Б.27 (296).

uning vatani – sarhadi gilam kengligidagi sayhonlik cheklanar, ilk qizg‘onish unda to‘satdan sodir bo‘ldi” [2, 236-237-betlar].

Eng muhimi, changalzordan chiqib kenglikni ko‘rganda bir zum garangsib turganini tasvirlash ostida it ham olamni faqat shu changalzordan iborat ekanligini anglashi, dunyoda mana bunday kengliklar ham borligi va uni tushunishi uchun Qoravoyga vaqt kerakligi haqidagi tasvir ostida borliqni tushunish qiyin va mas‘uliyatli ekanligi haqidagi fikri ifodalangan. Demak, Qoravoyda vatan tuyg‘usi asta-sekinlik bilan shakllanadi. Lekin tabiiy bo‘lgan bu tuyg‘u Qoravoyni anchayin yovvoyi, ba‘zan vahshiylikkagacha borib yetadigan harakatlarga ham undaydi. Masalan, jarlikdan o‘lik molni topishi va ertasiga boshqa itlar bilan dastlab, o‘lja uchun kurashi, ammo chagalzorga yaqinlashganda shart ortiga burilib dushmanga tik qarashi it ruhiyatida ham vatan tushunchasi borligi, changalzor oldida u o‘zini qudratli his etishi ostida vatan tuyg‘usi Qoravoyni dushmandan ustunligini ta‘minlaganini anglash mumkin. Qoravoy xarakteri voqealar rivoji davomida takomillashib borar ekan, yozuvchi it obrazi orqali inson psixologiyasiga xos jihatlar, ijtimoiy muammolarni tabiiy ravishda berishga intiladi. Bunda yozuvchi voqelikni batafsil, aniq doirada tasvirlaydi.

“Batafsil tasvir doirasining ortida, nafaqat yuzaki va umumiy tavsif, balki ko‘p imkoniyatlarga ega sukunat mavjudki, ular matnni nisbatan ixcham, muxtasar qiladi. Natijada o‘quvchining tasvirga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi, tasavvurini faollashtiradi, shu yo‘l bilan uning diqqatini jalb etadi, shuning uchun asarga ahamiyatlilik kasb etadi”²¹⁷. Demak muallif Qoravoyni shunchaki tasvirlamaydi, balki, kuchukning qanday qilib yirik itga aylanish jarayonini batafsil tasvirlash orqali biz o‘quvchilarga olamni anglashning nozik jihatlarini, bunda tabiatning o‘zi eng katta ustoz bo‘lishini ta‘kidlaydi. Xususan, Qoravoydagi ilk bor ov qilishni mushukdan o‘rganishi, sichqonni tutib, yutishi, so‘ngra shu paytgacha tuymagan allaqanday bir qoniqishni his etishi, issiq qonga bo‘lgan intilish, xom go‘sht ta‘mini sezish ham birdaniga yuzaga chiqmagan. Buni quyidagi parchadan bilish mumkin: “Kunlarning birida butazor oralab yurib, g‘alati bir manzaraning ustidan chiqdi. Kichikroq mushukvachcha yerga qapishganicha nimanidir poylamoqda edi. Ana, u yer bag‘irlab olg‘a siljidi-da, tag‘in toshdek qotdi. Bu holat bir necha marta takrorlandi. Qoravoy qiziqsinib, uning harakatlarini diqqat bilan kuzatarkan, hozir nimadir yuz berishini idrok etdi. O‘sha nimadir qiziqtirib, sabr etmoqqa qaror qildi” [2, 239-bet].

Yozuvchi Qoravoyning mushuk bolasi ov qilayotgan jarayonni kuzatish orqali tasvirlaydi. Bundan asosiy maqsad tirikchilik uchun ozuqa topish bo‘lib, mushshukvachchaga bu hislat onasi tomonidan ko‘rsatib, o‘rgatilgan. Chunki

²¹⁷ Хализев, В. Е. Теория литературы: Учебник. – 4-е изд., испр. и доп. – М.: Высш. шк., 2004. – С.284 (405)

yuqoridagi tasvirdan keyin uzoqdan malla, ona mushuk turganini it sezmagani qayd etilgan. Demak, mushukka uning onasi o'rgatmoqda, it esa mushukdan o'rganmoqda. Yozuvchi Qoravoyni "*qiziqsinib qarashi*", "*diqqat bilan kuzatishi*", "*sabr qilishga qaror qilishi*" kabi tavsiflarda aks ettirar ekan, uning psixologik holatini ham ochib beradi. Chunki qiziqish, kuzatish, sabr qilish aynan obraz ichki olamini ochishga xizmat qiladigan vositalar hisoblanadi. Qoravoy obrazining ruhiy holati batafsil, aniq holatlarda tasvirlanar ekan, yozuvchi qissa mazmuni va obraz xarakterini ochishga xizmat qiladigan muhim belgilarga diqqat qiladi. Natijada aynan shu satrlarda uning iste'dodi yuzaga chiqadi. Chunki yuqoridagi kabi tasvir orqali u o'quvchiga hayotning qiziq, tabiatning ulug' bir voqeasini yetkazgan. Bu esa o'quvchida asar va uning tag zamiridagi badiiy-estetik fikrga qiziqish ortadi.

Yuqoridagi parchaning mantiqiy davomida Qoravoy mushukvachchadan sichqonni olib qo'yishi, malla, ona mushuk esa itga hujum qilishi ish bermagach, birinchi marta qonning ta'mini biladi. Bu yovvoyilikning birinchi muhim belgilaridan sanaladi. Aynan ana shu qon ta'mini sezishi uni yangi va yangi qurbonlar izlashga undaydi.

Aslida Qoravoy malla mushukni sal oldinroq ko'rgan. Bu uchrashuv haqida kuchukda o'z uyi, vatani deb bilgan makon – sayhonlik, changalzorni boshqa jonzotlardan qizg'onish hissi yuzaga kelganda so'z boradi: "Yalanglikka ola hakka kelib qo'ngan kuni u kamar chekkasidagi ildiz bilan ovvora edi. Ildizni yulqilarkan, bu safar qushga ayricha nazar bilan ramz soldi. Uning bamaylixotir dumini likkillatib yurishi negadir g'ashini keltirdi. O'zini yer egasi, qushni begona his etdi. Bamisoli qora koptokday dumalab unga sari tashlandi. Shundan keyin u yalanlikka parranda zotini doritmay qo'ydi, ba'zan ermakka, ba'zan esa chin ma'noda ularni quvib soladigan bo'ldi" [2, 237-bet].

Ko'rinadiki, Qoravoy botiniy olamida shu makonga darxldorlik, uni o'ziniki, deb bilish tuyg'usi shakllanmoqda. Tug'ilib, o'z uyi deb bilgan yalanglikka nisbatan iliq mehr va uni boshqalardan qizg'onish bor. Bu bir tomondan vatan tuyg'usining tabiiy tarzda namoyon bo'lishi bo'lsa, ikkinchi tomondan Qoravoy ham atrofni anglab, undagi o'z o'rnini topib bormoqda. Lekin, hali bu tuyg'u kuchsiz, aniq maqsad yoki qat'iyat shaklidagi amallarni bajarishga yetarli emas. Lekin shularning o'zidanoq yozuvchi itga xos ba'zi qiliqlarni insoniy psixologik anglash asosida beradi. Bu garchi bosh qahramon it obrazi bo'lsa-da, qissa mohiyatan insoniy muammolarga bag'ishlanganiga dalil bo'ladi. Xususan, insonga xos dunyoni anglab borish, atrofni his etish, boshqa hayvon va tabiat hodisalarini kuzatish orqali nimadir o'rganish kabilar yuqoridagi fikrimizga asos bo'ladi.

Syujetning keyingi epizodlarida Qoravoy ona mushuk bilan yana to‘qnash keladi [2, 259-262-betlar]. Bu galgi kurashga, mushukning daraxt ustida uzoq o‘tirishiga sabab Qoravoy ko‘z ostiga olib qo‘ygan yumronqoziq edi. Mushuk uni ushlab olganini ko‘rgan Qoravoy mushukni quvlay ketdi. U esa daraxtga chiqib oldi. Shu yerda ikki o‘rta dialoglar ham beriladi, bu it va mushuk o‘rtasidagi kurashning badiiy nutqdagi ta’sirli ifodasi sanaladi. Ikki tomon ham hushyor bir-birini uzoq kuzatadi. Nihoyat o‘lja yerga tushib ketadi. Qoravoy uni paqqos tushiradi. Lekin mushuk bilan boshlangan mojaroni tugatish lozimligini anglagan it uni daraxtdan tushishini tongacha poylaydi. Bu kurash oxir-oqibat ona mushuk bolalarini ergashtirib changalzordan mozortepaga qarab, bosh olib ketish bilan tugaydi. Ungacha ikki o‘rtada ancha dahanaki jang uzoq davom etadi. Bu bir tomondan Qoravoyni changalzorning haqiqiy egasiga aylantiradi. Ikkinchi tomondan ikkinchi tomondan Qoravoyni mayda narsalarga qaramaslikka, tovuq va qo‘y kabi nisbatan yirikroq o‘lja payida bo‘lishga yo‘l ochdi.

Muallif Qoravoyning turli holatini tasvirlar ekan, badiiy mazmuni aniq shaklda aks ettirishga harakat qiladi. Shuning barobarida qissa ruhiyatini ham yangilab boradi. Tasvir mazmunida ko‘zga tashlangan epik kechinma Qoravoy obrazining takomillashib borishi asnosida ko‘p bosqichli badiiy makon maydonini ham shakllantiradi. Masalan, dastlab aniq bitta sayhonlik Qoravoy uchun aziz makon bo‘lib, syujet liniyasida faqat cheklangan detallar yordamida aks ettirilgan bo‘lsa, keyinroq boshqa sayhonlik, butun boshli changalzor, yana changalzor tashqarisidagi kenglik, jarlik, tepaliklar syujet dinamikasida obrazning turli makon va vaqt yaxlitligidagi ifodasini falsafiy-estetik tabiatini ham belgilaydi. Bu esa Qoravoy uchun olamdagi boshqa jonzotlar, jumladan boshqa itlar, Tolmas ismli bola, uning tog‘asi, kennoyi, Orif tirriqlar bilan munosabatni badiiy idrok qilishda muhim ahamiyatga ega. Qoravoy ruhiyatidagi voqelikni his etishning teranligi uni boshqa itlar ustidan g‘olibligini ta’minlasa, Tolmasning yig‘isi bilan o‘zining uvlashi o‘rtasidagi o‘xshashlikni, demakki, bola bilan ruhan yaqinlikni his etishi, tog‘aning noto‘g‘ri fikrlashini obraz sifatida anglashi voqealarning badiiy tahlili orqali ifodalanadi. Shu yerda obraz va uning shartlanganlik xususiyati, keltirilgan voqealarning mantiqiy asoslanganligi qissadagi ijtimoiy taassurot va umuminsoniy qadriyatlar salmog‘ini kuchaytirgan. Obraz sifatida Qoravoy ruhiyatidagi evrilishlar amaliy jihatdan uning dinamikasi tempini ham ko‘rsatadi. Masalan, “Ilk bor uchratgani qo‘shni sayhonlikdagi yovvoyi malla mushuk bo‘ldi. Mushuk yerbag‘irlab o‘sgan yulg‘un yonida cho‘nqayib, o‘ziga oro berib o‘tirardi. Qoravoyni ko‘rib u pinagini buzmadi. Qoravoy boshini bir zum u yon bu yon burib unga tikilib turdi-da, so‘ng old panjalarini yerga botirib, ketini esa kulgili tarzda do‘ng qilib, hayrat aralash

sho‘xchan akilladi. Ammo mushuk qilt etmadi. Targ‘il ko‘zlari olovlanib, bez bo‘lib turaverdi. Tahdid kor qilmagach, Qoravoy u bilan yaqindan tanishmoq istadi. Biroq mushuk tanishuvni xush ko‘rmadi” [2, 237-bet]. Keltirilgan parchada Qoravoyning harakatdagi portreti berilgan. Qoravoyning qo‘shni sayhonlikdagi yaqinda ko‘rgani, albatta o‘z sayhonligidagi ola hakkadan keyin, mana shu malla mushuk edi. Ammo u ham yovvoyi tabiatli, buning ustiga o‘zini yaqin olib, sho‘xchan akillagan kuchukning tilini tushunmaydi. Shu yerda Qoravoyning maqsadi aslida xayrli ekanligi, mushuk bilan o‘ynashmoqchi, uni yaqindan bilmoqchi bo‘lib, boshini u yon bu yonga burishida hayvonlar o‘rtasidagi o‘zaro anglash belgi ham bor edi. Ammo muallif bu yerda it va mushuk yaqin aloqaga kirisholmasligi haqidagi tabiiy haqiqatdan kelib chiqib, mushukning ham Qoravoy kabi tana harakatlarini amalga oshirganini keltiradi. Ammo mushuk avval gajak bo‘lgani, keyin huzur qilib kerishgani ortida mushuk tabiatidagi erinchoqlik, boshqa hayvonlar bilan aloqaga kirishni istamaslikka o‘xshash narsa bor edi.

Qissada dastlab Qoravoy har narsaga samimiy munosabat bo‘ladigan, hali yomonlik, qon ta‘min, go‘sht hidini bilmaydigan holda tasvirlansa, keyinchalik u qon hidini, go‘sht ta‘mini tuyadi. Natijada unda yovvoyilik kuchayadi. Bu uning vataniga, qadrdon sayhonligi, chagalzorga bo‘lgan munosabatida ham ko‘rinadi. Begonalardan hamma narsasini qizg‘onadi. Hatto onasidan suyak tortib oladi, sekin astalik bilan Olaparni ham unutadi. Dastlab atrofni kezish, yemish izlash, onasining kam kelishi sabab onasini astalik bilan esdan chiqara boshlagan. Keyinchalik esa butunlay unutadi. Buni yozuvchi quyidagi e‘tirof etadi: “Bu orada Qoravoy onasini butunlay unutdi. Uni tushida ko‘rganday elas-elas xotirlaydigan bo‘ldi. Onasi uni tug‘di, boqdi, lekin tarbiyalay olmadi. Qoravoy sharoit taqazosiga ko‘ra mustaqil ravishda hayot sabog‘ini oldi” [2, 245-bet].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ko‘rinadiki, yozuvchi asar mazmunidagi problematika (boshqa tomonda qaralsa, ijodiy konsetsiyalaridan biri) – tarbiya muammosini ham olib chiqqan. Kishilarda bo‘lgani kabi hayvonlar orasida ham ona parvarishi, mehri, uning tarbiya berishi farzandi uchun muhimligini ta‘kidlaydi.

Normurod Norqobilovning “Chagalzor iti” qissadidagi Qoravoy obrazi sekin-astalik bilan, lekin izchil ravishda takomillashib boruvchi obraz sanaladi. U roviy nutqida tabiiylik, samimiylik xislatlarini saqlagan holda, tirik qolishi uchun tabiatdan, atrofidagi boshqa jonzotlardan tiriklik sir-asrorlarini o‘rganishi bilan ibratli deyishga loyiq obrazdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Коллектив. Образ художественный. Поэтика: слов, актуал. терминов и нятий / [гл. науч. ред. Н.Д. Тамарченко]. – М.: Издательство Кулагиной; Intrada, 2008. – С.149-151 (358 с)
2. Норқобилов Н. Бекатдаги оқ уйча. Ҳикоялар ва қиссалар. – Тошкент: Шарқ. – Б. 234-297. Tadqiqotdagi havolalar shu manbadan olindi.
3. Юлчиев К. Семиотическая характеристика в лирике Анвара Обиджана. // Farg‘ona davlat universiteti ilmiy jurnali. 2023. №1. – С.387 (383-387) <https://scholar.google.com/citations?view>
4. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси: – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.137.
5. Келдиёрова Н.Н. Замонавий ўзбек шеърлятида поэтик образ ва унинг бадий талқини (Азим Суюн ижоди мисолида). фалсафа доктори (PhD) диссертацияси 21 бет (129 б)
6. Иброҳим Ҳаққул ҳақиқати: адабий ўйлар, ҳикматлар, лутфлар / Нашрга тайёрловчи: Зулайҳо Раҳмонова. – Тошкент: Trust and support, 2023. – Б.27 (296).
7. Хализев, В. Е. Теория литературы: Учебник. – 4-е изд., испр. и доп. – М.: Высш. шк., 2004. – С.284 (405)
8. Файзуллаев Х. “Бўталок” ҳикоясида инсон ва табиат фалсафаси // Sharq Yulduzi. 2021, № 1. – Б. 154 (153-157)
9. Норматов Умарали. Бадий сўз кудрати (Ёзувчи Ўткир Ҳошимов билан суҳбат) // Норматов У. Қодирий мўъжизаси: Тадқиқот. Қайд, суҳбат ва мулоҳазалар. – Тошкент: O‘zbekiston, 2010. – Б. 240 (272 б.)
10. Баходир Карим. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Фан, 2006. – Б.82 (232)
11. Qaralsin: The Call of the Wild by Jack London. www.freeclassicebooks.com.

**O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR SIYOSIY FAOLLIGINI
TA’MINLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI:
JORIY HOLAT VA ISTIQBOLLAR**

Normayeva Mashhura G‘ulomovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

e-mail: mashkhura.normaeva.tsuos@gmail.com

Ilmiy rahbar: D. Sayfullaev

tarix fanlari doktori, professor

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlat siyosatida gender muvozanatini ta’minlovchi mexanizmlar va xalqaro hujjatlar, shuningdek, O‘zbekistonda ayollarning davlat va jamiyat hayotidagi ishtiroki evolyutsiyasi, ushbu yo‘nalishda amaldagi qonunchilik va davlat institutlari faoliyatining samaradorligi tadqiq qilingan. Shuningdek, Xotin-qizlarning parlamentda vakillik va boshqa rahbarlik lavozimlarini egallashlaridagi imkoniyatlar va mavjud muammolar o‘rganilib, ayollarning davlat siyosiy hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Gender tenglik, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya, BRM, siyosiy faollik, siyosiy ishtirok, ayollar siyosiy faolligi, ijobiy diskriminatsiya.

**ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ
ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ:
СОВРЕМЕННАЯ СИТУАЦИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ**

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются механизмы и международные документы, обеспечивающие гендерный баланс в политической сфере, а также изучаются эволюция участия женщин Узбекистана в жизни общества и государства, эффективность действующих законодательств и государственных институтов в этом направлении. Исследуются возможности и проблемы представления женщин в парламенте и на других руководящих должностях и даются выводы и рекомендации для обеспечения активного участия женщин в политической жизни страны.

Ключевые слова: Гендерное равенство, Всеобщая декларация прав человека, Конвенция о ликвидации всех форм дискриминации в отношении

женщин, ЦУР, политическая активность, политическое участие, политическая активность женщин, «позитивная дискриминация».

PRIORITY DIRECTIONS OF ENSURING WOMEN'S POLITICAL ACTIVITY IN UZBEKISTAN: CURRENT STATE AND PROSPECTS

ABSTRACT

This article discusses the mechanisms and international documents that ensure gender balance in the political sphere, as well as the evolution of the participation of women in the social and political life of Uzbekistan in, the effectiveness of existing legislation and state institutions in this direction. The possibilities and problems of women's representation in parliament and other leadership positions are explored and conclusions and recommendations are given to ensure the active participation of women in the political life of the country.

Key words: *Gender equality, Universal Declaration of Human Rights, Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women, SDGs, political activism, political participation, women's political activism, positive discrimination.*

*“...ayollarning ovozi istisno qiladigan har qanday tizim adolatsiz,
uni vakillik hokimiyati deb nomlash mumkin emas”*

*Siyosiy fanlar va gender nazariyasi professori **Enn Fillips**:*

KIRISH

Yangi davrdagi shiddatli jarayonlar jahon hamjamiyati oldida o'z yechimini topishi lozim bo'lgan yangi vazifalarni qo'ydi. Fuqarolarning jamiyatdagi faol ishtiroki orqali o'z manfaatlari, orzu-maqсадlarini ro'yobga chiqara oladigan demokratik jamiyat barpo etish ana shunday vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, xotin-qizlarning siyosiy hayotda to'liq ishtirokisiz ijtimoiy taraqqiyotni demokratlashtirishning imkoni yo'q. Xotin-qizlarning siyosat va saylov jarayonlaridagi ishtirokiga oid me'yoriy baza, birinchi navbatda, xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yilgan. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ayollarning siyosiy va saylov jarayonlarida teng ishtirok etishi kamsitilmaslik va siyosiy huquqlardan teng foydalanish tamoyillari asosida belgilab qo'yilgan bo'lsa, Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya va boshqa bir qator Mintaqaviy konvensiyalarda bunday huquqlarning amalga oshirilishi jinsga qarab bo'linmasdan ta'minlanishi kerakligi ta'kidlab o'tilgan.

Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya ayollarning “davlat mansablarini egallash va hukumatning barcha darajalarida barcha davlat funksiyalarini bajarish” huquqini yana bir bor tasdiqlaydi. Bundan tashqari, ushbu konvensiyaning 7-moddasida ishtirokchi davlatlar mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotida ayollarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etish, xususan, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng sharoitlarda barcha saylovlarda va umumxalq referendumlarida ovoz berish, davlat tomonidan saylanadigan barcha organlarga saylanish, davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish huquqini ta‘minlash uchun zarur barcha chora-tadbirlarni amalga oshirishlari lozimligi qayd etilgan[1].

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil sentabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori qabul qildi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida “Gender tenglikni ta‘minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish”ga oid to‘qqizta vazifani ishlab chiqdi.

Beshinchi maqsadning vazifalariga (Gender tenglik) muvofiq 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirokini hamda yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o‘z ichiga oladi[2].

Ushbu maqsadni amalga oshirishda xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi: Siyosiy faollikning o‘zi nima?

Siyosatshunoslikka oid terminlar ensiklopedik lug‘atida “Siyosiy faollik – jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy guruh yoki alohida shaxslar faoliyati” sifatida ta‘riflanadi[3]. Zamonaviy siyosatshunoslikda siyosiy faollik “siyosiy ishtirok” kategoriyasi bilan ifodalanadi. Bir qator siyosatshunoslar, siyosiy ishtirokni shaxslar va ijtimoiy jamoalarning siyosat sohasidagi har qanday faoliyati sifatida tavsiflash mumkinligini

ta'kidlaydilar[4]. Xususan, D.V.Konichev siyosiy ishtirokni siyosiy tizimning turli darajalarida qaror qabul qilish jarayonlariga fuqarolarning erkin tarzda bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatishdagi faolligi sifatida qayd etsa [5], M.M. Nazarova shaxs yoki guruhlarining davlat hokimiyatining turli darajalaridagi qarorlar qabul qilinishiga ta'sirini siyosiy ishtirok sifatida baholaydi [6].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, ayollar siyosiy faolligi – bu davlat hokimiyatining barcha darajalari va jabhalaridagi qaror qabul qilish jarayonlarida xotin-qizlarning bevosita yoki bilvosita ishtiroki deya ta'rif berilishi mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekistonda ayollarning siyosatdagi ishtiroki haqida so'z yuritilganda, uning boshlang'ich nuqtasi sifatida ayollarga saylov huquqini taqdim etgan Sovet davlatining o'zlarini "ozod qilish" siyosati tilga olinadi. Ammo, jahon hamjamiyatining "ayollar siyosiy faolligi" yoki "gender tengligi" shiori ostida intilayotgan maqsadlari O'zbekiston tarixida kecha paydo bo'lgan yangilik emas, balki bundan ming yillar oldin ham malakatimiz hududida mavjud bo'lgan voqelik aslida.

Masalan, qadimgi rim tarixchisi Pompeya Troga fors shohi Kir II Sharqda o'z hokimiyatini o'rnatgandan so'ng, skiflarga qarshi yurish boshlagani, bu vaqtda ushbu qabila boshlig'i To'maris ismli malika bo'lgani va uning Kir II ustidan g'alabasi haqida yozadi[7]. Xuddi shu ma'lumotlaryunon tarixchisi Gerodot asarlarida ham uchraydi, faqatgina skiflar o'rniga massagetlar nomi ishlatiladi[8]. Demakki, bu shunchaki afsonalar emas, tarixiy haqiqatdir.

Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixida muhim rol o'ynagan VI-VIII asrlardagi yirik saltanat Turk hoqonligi haqida yozar ekan, turk arab tarixchisi Ibn Battutaxabar beradi: **"Turk xoqonlari imzo chekayotganda "sulton va uning xotiningamri bilan", - deb yozganlar"**[9].

O'rta asrlar tarixiga nazar tashlasak, ulkan saltanatga hukmronlik qilayotgan Temuriy sulton Umarshayx Mirzoning 1494-yilda baxtsiz hodisa tufayli halok bo'lgach, Farg'ona taxtiga 12 yoshli Bobur Mirzo o'tqazilganligi va Bobur yosh bo'lganligi uchun davlat ishlarini ishonchli beklardan Hojiqozi va o'qimishli, oqila onasi Qutlug' Nigorxonim yordamida boshqarganligi haqidagi tarixiy haqiqatlarni inkor etib bo'lmaydi [10].

Keyingi davrda ya'ni 1917- yildan boshlab Sovet Ittifoqidagi voqealar o'z-o'zidan uning tarkibida bo'lgan O'zbekistondagi ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotiga ham ta'sir qildi. Sotsialistlar, bolsheviklar ayollar bo'yicha o'z qarashlarini olg'a sura boshladi. 1917-yildan boshlab ayol siymosi va shaxsi siyosiylashadi, har bir siyosatchi ayollar masalasida o'z fikrini bildira boshlaydi[11]. Va nihoyat, 1918-yil

iyulda qabul qilingan Konstitutsiyaning 64-moddasida saylash va saylanish huquqi erkaklar va ayollar uchun birdek belgilab qo'yildi.

Mustaqillik davrida O'zbekistonda qonunchilik va davlat siyosati darajasida ayollarning haq-huquqlari, jumladan, siyosiy huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning aniq mexanizmlari yaratildi.

So'nggi yillarda ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo'yicha ishlar bir necha yo'nalishlarda olib borilmoqda.

Birinchidan, ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish borasida. O'zbekiston ayollarni har qanday kamsitish va ta'qiblardan huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy himoya qilishni nazarda tutuvchi barcha asosiy xalqaro shartnomalarga qo'shilgan. Bundan tashqari, xotin-qizlar huquq va erkinliklarini ta'minlashga yo'naltirilgan "Ayollar va erkaklarning teng huquq va imkoniyatlarining kafolatlari to'g'risida", "Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida", "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish to'g'risida", "Oila Kodeksining 15-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunlar, ayollar mehnat faoliyatida ilgari taqiqlangan mehnat faoliyati turlarini tanlash bilan bog'liq cheklovlarni va mehnat qonunchiligining boshqa gender-assimetrik holatlarini bekor qilishni nazarda tutuvchi – "O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun hujjatlari qabul qilindi[12].

Ikkinchidan, ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish borasida. Bugungi kunda O'zbekistonda xotin-qizlar masalalari bilan shug'ullanuvchi quyidagi tuzilmalar faoliyat yuritmoqda:

❖ Oliy Majlis Senati Raisi rahbarligida Gender tengligini ta'minlash komissiyasi;

❖ Parlament yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tengligi masalalari qo'mitasi tuzilib, uning asosiy vazifasi gender tengligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish, qonunchilikni takomillashtirish va bu boradagi parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat;

❖ 2030-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan Barqaror rivojlanish milliy maqsad va vazifalari ijrosini monitoring qilish bo'yicha Parlament komissiyasining tizimli ishi tashkil etildi, bunda beshinchi maqsad gender tengligiga erishish vazifalariga bag'ishlanadi;

❖ Oliy Majlis Senati Raisi boshchiligida Xotin-qizlar Respublika jamoat kengashi tuzilib, uning asosiy vazifalaridan biri sifatida xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda, ayollarga nisbatan kamsitishning barcha

shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya hamda Pekin Harakatlar platformasi va Milliy Harakat rejasini amalga oshirilishini ta'minlashdan iborat;

- ❖ Xotin-qizlar va oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi;

- ❖ O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tomonidan barcha hududlarda xotin-qizlarning hayotiy muammolarini o'rganish, qashshoqlikni kamaytirish va aholi farovonligini oshirish bo'yicha maxsus Respublika ishchi guruhi tuzildi va mavjud muammolarni hal etish bo'yicha aniq maqsadli ishlarni amalga oshirish uchun mutlaqo yangi tizim – "ayollar daftari" joriy etildi. Hozirda mas'ul idora va tashkilotlar, banklar va hokimliklar, Kasaba uyushmalari federatsiyasi rahbarligida mahallalarda yangi tashkil etilgan xotin-qizlar maslahat kengashlari uyma-uy yurib, olti milliondan ortiq xotin-qizlarning muammolarini atroflicha o'rganmoqda[13].

Uchinchidan, aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish va huquqni qo'llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ulmansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me'yorlar asosida o'qitish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishda, shuningdek, davlat va jamiyat hayotining boshqa jabhalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanishini kafolatlaydi. Xususan, Xotin-qizlar siyosiy jarayonlarda ishtirok etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o'zini-o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik shakllantirish, shuningdek, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish orqali amalga oshiriladi.

Konstitutsiya qoidalarining mantiqiy davomi saylov qonunchiligida o'z ifodasini topgan. Xususan, Saylov kodeksi, "O'zbekiston Respublikasining Referendumi to'g'risida"gi qonunda ovoz berish kuni 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan saylov harakatlarida ishtirok etish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan. Bunda, u kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holati, irqi va millati, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, mashg'ulot turi va xususiyatidan qat'i nazar, saylash, referendumda qatnashish huquqiga ega[14].


Quvonarlisi, BMT va Parlamentlararo ittifoq (PAI) ekspertlari O'zbekistonda kuzatilayotgan tendensiyalar xotin-qizlarning davlat hokimiyatining yuqori pog'onalarida vakilligini kengaytirish, gender tengsizligiga barham berish, parlament,

hukumat va sud tizimida ularning sonini oshirish kabi global jarayonlarga hamohang tarzda kechayotganini alohida ta’kidlamoqda.

Parlamentlararo ittifoqning “Ayollar Parlamentda” yillik hisoboti va “BMT-Ayollar” tuzilmasi 2021-yil yanvar holati ma’lumotlariga ko’ra, milliy parlamentlarda ayollarning global ulushi tarixda birinchi marta chorak foizdan oshib, 25,5% ga yetdi.

O‘zbekistonda 2019-yilgi parlament saylovi natijalariga ko’ra, ayollar Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizini, Senatda esa 25 foizini tashkil etdi va ushbu ko‘rsatkich bilan 190 davlat orasida kuchli 50 talikdan joy oldi[15].

Ushbu ko‘rsatkichlarga asoslanib, postsovet davlatlari orasida O‘zbekiston



parlamentdagi ayollar ulushi bo‘yicha yetakchilik qilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga, mamlakatimizda ayollar siyosiy faolligini oshirish maqsadida olib borilgan davlat siyosati natijasida xotin-qizlarning faolligi sezilarli darajada oshganligini va qo‘shni mamlakatlar ichida ham ilgarilab ketganligini kuzatamiz. Quyida keltirilgan grafikda 2018-2021-yillarda Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Oliy Majlisi Senatida ayollar egallagan deputatlik va senatorlik o‘rinlarining o‘zgarish dinamikasi tasvirlangan.

Ushbu grafikdan ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekistonda kuzatilayotgan tendensiyalar global jarayonlarga hamohang barqaror tarzda kechmoqda.

Respublikamizda davlat boshqaruvi tizimida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarning yillar bo‘yicha ulushini kuzatadigan bo‘lsak, 2018–2022-yil holatiga ko‘ra, Davlat boshqaruv organlarida, rahbarlik lavozimlarida ayollar egallab turgan o‘rinlar nisbati quyidagi jadvalda keltirilgan.

Davlat boshqaruv organlarida va rahbarlik lavozimida faoliyat yuritayotgan ayollarning 2018–2022-yil holatiga ko‘ra nisbati:

Muassasa	2018-yil (%)	2019-yil (%)	2020-yil (%)	2021-yil (%)	2022-yil (%)
Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi	12,6	32,0	32,7	32,0	
Oliy Majlis Senati	20,0	20,0	23,7	24,0	
Ma'muriy boshqaruv organlari	27,0	26,6	26,5	27,7	
Vazirlik va Davlat qo'mitalarida vazir lavozimida	2,9	2,9	3,03	3,0	5,7
Ichki ishlar xodimlari	8,7	3,2	11,0		
Korxonalar va tashkilotlardagi rahbarlik	11,0	11,1	10,7		
Ayollar egalik qilayotgan firmalar ulushi	21,9	14,9	24,1		
Sudyalar orasida ayollar ulushi	11,9	12,4	12,8	13,3	

Jadvalda keltirilgan xotin-qizlarning boshqaruv apparatidagi ulushini tahlil qiladigan bo'lsak, umumiy hisobda O'zbekiston Respublikasida ayollarning boshqaruv tizimidagi faollik darajasi o'rtacha 27%ni tashkil etishining guvohi bo'lamiz[17]. Gender statistikasi umuman ayollarning davlat boshqaruviga jalb etilishi barqaror o'sayotganini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa sifatida quyidagilarni taklif etmoqchimiz:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini kengaytirish, ularning davlat boshqaruvi, qarorlar qabul qilinish jarayonlaridagi faolligini ta'minlash borasida aniq mexanizmlar ishlab chiqildi va bugungi kunda ushbu qonun hujjatlari va institutsional tuzilmalarning amalda samarali faoliyatini ta'minlash lozim;

Ikkinchidan, ayollar siyosiy faolligini oshirishda "ijobiy diskriminatsiya" choralari muhim rol o'ynaydi. Bunday choralardan biri sifatida partiyalarni ayollarni parlament saylovlari ro'yxatiga kiritilishini nazarda tutuvchi qonunlarni ko'rsatish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 70-moddasida: "Ayollarning soni siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida o'ttiz foizini tashkil etishi kerak", deb belgilab qo'yilgan[18]. Ayollar siyosiy faolligini oshirish uchun qonunchilik kvotalarining joriy etilishi ularning vakolatlari o'sishiga olib keladi, biroq bunga xotin-qizlar ishtirokini oshirishni ta'minlashga xizmat qiladigan vaqtinchalik, qisqa muddatli chora sifatida qarash kerak;

Uchinchidan, ushbu “ijobiy diskriminatsiya” nafaqat ayollarni siyosatga jalb qilish uchun qonuniy asos yaratadi, balki namuna modellarini yaratishga ham hissa qo‘shadi. Natijada, jamiyat ongida ushbu sohalarda ham ayollar uchun imkoniyat mavjud ekanligi haqida tasavvur va intilish paydo bo‘ladi. Ammo masalaning boshqa tomonini ham e’tiborga olish zarur. Boshqaruv va ijtimoiy-siyosiy sohalarda shundayin ham kam sonli bo‘lgan xotin-qizlarning professional bilim va tajribalarini hisobga olmay, ularning malakasini oshirmay lavozimga tayinlash kabi salbiy holatlar yuz berishining oldini olish, avvalo, ziyoli va olim xotin-qizlarning har bir soha bo‘yicha kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda tizimli tartibda tayyorlab borish institutini tashkil qilish lozim;

To‘rtinchidan, ayollar siyosiy faolligi jamiyatimiz uchun yangi tushuncha emasligi, O‘zbekiston xotin-qizlari tarixdan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishganini inobatga olgan holda, “gender tengligi”ga oid xalqaro standartlarni milliy qonunchiligimizga joriy etishda milliy va tarixiy qadriyatlarimiz ustuvorligini ta’minlanishiga alohida e’tibor qaratish lozim. Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekistonda ayollar siyosiy faolligi, liderligi, o‘zbek gender tengligi qanday bo‘lishi kerakligi borasida ilmiy asoslangan va zamonaviy model yaratish va natijada jahonda kuzatilayotgan siyosiy, ijtimoiy, madaniy jarayonlarni qabul qilish bilan birga, ularga o‘z so‘zimizni ham aytishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Конвенция о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин. Принята резолюцией 34/180 Генеральной Ассамблеи от 18 декабря 1979 года. - https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/cedaw.shtml
2. Ўзбекистон Республикаси Сайлов Кодекси (25.06.2019й) [Электрон манба] <https://www.lex.uz/docs/4386848>.
3. Goal 5: Achieve gender equality and empower all women and girls. – <https://www.un.org/sustainabledevelopment/gender-equality>
4. Голубев А.А. Энциклопедический словарь политологических терминов. – СПб. Издательство: Петрополис. 2013.
5. О.Г.Щенина Формы участия молодёжи в политическом процессе современной России: Дис. ... канд. полит.наук. М., 2005.
6. Д.В.Конычев Политическое участие (на примере российского регионального процесса): Дис. ... канд. полит.наук. Саратов, 2000.
7. М.М.Назаров Политический протест: опыт эмпирического анализа // Социс. 1995. № 1.

8. Юстин, Марк Юниан (I-III вв.). Эпитома сочинения Помпея Трога “HistoriaePhillipicae” = EpitomaHistoriarumPhillipicarumPompeiTrogi. СПб.: Изд-во: С.-Петерб. ун-та, 2005. С.388.
9. Геродот. История в девяти книгах. Л.: Наука. 1972. Книга 1. С. 205-214.
10. Ibn Battuta, Travels in Asia and Africa 1325—1354 / tr. and ed. H. A. R. Gibb. — London: Broadway House, 1929. — P. 43.
11. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
12. В.Алимjonov Imperiya nazaridan chetda, “Hujum” markazida va siyosiy eksprement o‘chog‘ida qolgan o‘zbek ayoli. —<https://oyina.uz/uz/article/1356>
13. A.Saidov Policies for gender equality in modern Uzbekistan.<https://pravacheloveka.uz/en/news/academician-akmal-saidov-on-the-gender-policy-of-the-new-uzbekistan-in-the-context-of-international-trends-in-parliamentarism>
14. A.Saidov Policies for gender equality in modern Uzbekistan.<https://pravacheloveka.uz/en/news/academician-akmal-saidov-on-the-gender-policy-of-the-new-uzbekistan-in-the-context-of-international-trends-in-parliamentarism>
15. Г.Рахимова Гендерный аспект: участие женщин Узбекистана в политической жизни и избирательных процессах. <https://yuz.uz/ru/news/genderny-aspekt-uchastie-jenin-uzbekistana-v-politicheskoy-jizni-i-izbiratelnx-protsessax>
16. Markaziy saylov komissiyasi ma'lumotlari. <https://gender.stat.uz/uz/qo-shimcha-ko-rsatkichlar/ijtimoiy>
17. Ф.Давронова Ўзбекистонда хотин-қизларнинг сиёсий партия фаолиятидаги иштироки: миллий ва хорижий тажриба. Жамият ва инновациялар — Общество и инновации – Society and innovations Special Issue –11(2021).

IBN RUSHD FALSAFASIDA ZARURIYAT VA ERKINLIKNI ZAMONDOSHLARI FIKRLARI INKORI ASOSIDAGI O‘ZIGA XOS TALQINI

Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti

katta o‘qituvchisi, PhD

ruzmatova.dilnavoz@gmail.com

+998 90 805 71 80

ANNOTATSIYA

Maqolada sharq perepatetizm yo‘nalishi vakillaridan biri Ibn Rushdning erkinlik va zaruriyat tushunchalari haqidagi tasavvurlari o‘rganilgan. Uning nuqtayi nazari mutafakkir zamondoshlarining fikrlarini inkori asosida yoritilib berilgan. O‘rta asr falsafasida davrdagi erkinlik va zaruriyat atamalari diniy-falsafiy qarashlar uyg‘unligi asnosida ko‘rib chiqilgan. Taqdir va erk masalalariga e’tibor qaratilgan.

***Kalit so‘zlar:** erkinlik, zaruriyat, taqdir, tobelik, axloq, fatalizm, sabizm, axloqiy ezgulik, iroda, tanlov.*

ABSTRACT

The article examines the ideas of Ibn Rushd, one of the representatives of the Eastern Perepatetism direction, about the concepts of freedom and necessity. His point of view is explained based on the denial of the opinions of his contemporaries. In the philosophy of the Middle Ages, the terms of freedom and necessity were considered in the context of the harmony of religious and philosophical views. Attention is focused on issues of fate and will.

***Key words:** freedom, necessity, fate, dependence, morality, fatalism, greed, moral goodness, will, choice.*

KIRISH

Erkinlikdagi eng murakkab narsa bu uning mas’uliyat bilan bog‘liqligidir. Erkin bo‘lmagan inson yo‘l tanlab o‘tirmaydi hamda o‘z qilmishlariga javob bermaydi. Erkin inson –faqat o‘zi uchun ham boshqalar uchun ham o‘z yaqinlari uchun va o‘z vatani uchun ham o‘z tanlovi va o‘z qadriyati uchun javob beradi. Oldindan belgilanish va erkinlik borasidagi mangu ziddiyatlar o‘tgan asrda o‘ta aniq va yovuz qiyofaga kirdi. E.Fromm totalitarizmning kirib kelishini o‘zini yo‘qotib qo‘ygan inson ishlar va g‘oyalar uchun to‘la mas’uliyat borasidagi g‘oyalarga ega bo‘lgan fyurerlarga quloq solgan holda “erkinlikdan qochishi” bilan izohlagan.

Bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan hodisa - tanlash yoki belgilash (dastlab mahalliy rahbariyatni undan keyin esa boshqa lavozimlar to'g'risida ham muqarrar so'z ketishi aniqligini anglash qiyin emas) tarix va ijtimoiy saboqlarga o'rganmaganlikning o'ziga xos misolidir. Hozircha o'zining saylov huquqidan – va saylaganlik uchun o'z mas'uliyatidan kechishga fuqarolarning yarmiga yaqini tayyor turipti. Kelgusida bo'ladigan “texnologik” bosim sharoitida ularning soni yanada ko'proq bo'lishi mumkin. Erkinlik va mas'uliyatdan o'zini qiynagan holda voz kechishga qiziqish ancha kuchli va hokimiyat qudrati bilan mustahkamlanmoqda.

Shunday ekan erkinlikni o'rganish dolzarb masalalar qatorida turar ekan, uning boshqa davrlardagi tushunchasini tadqiq qilish zaruriyati uyg'onadi. Aynan sharq perepatetizm vakili Ibn Rushdning qarashlari tahlilida erkinlik obrazini ajratib olish qiyinchilik tug'dirmaydi. Zaruriyat va erkinlik atamalari birgalikda kelganida mutafakkirning qarashlari uning zamondoshlarining fikrlarini tanqid yoki inkor etish ko'rinishida sahna yuzini ko'radi.

MAVZU BO'YICHA ADABIYOTLAR SHARHI

Sharq perepatetizmi falsafasining yirik namoyandasi, Aflotun asarlarining tahlilchisi Ibn Rushd ijodi falsafiy, ijtimoiy, tarixiy adabiyotlarda, jumladan, falsafa tarixida ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan o'ziga xos uslubda, o'z zamonasiga mos ravishda atroflicha tahlil qilib berilgan. Bunga ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin va ularning durdona fikrlaridan bugungi kun talabiga to'liq javob bera oladigan yechimlarni ham topishimiz mumkin. Shuningdek, Ibn Rushdning ijodini har tomonlama yorituvchi A.V.Sagadeyev [4], M.Fakhry [6], E.Renan [3], F.Woerther [8], M.A.Mensia [7], M.Di Giovanni [5] va boshqa tadqiqotchilar ishlarini, risolalarini, maqolalarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Arab-musulmon falsafasining o'ziga xos xususiyati uning juda yaqqol namoyon bo'luvchi bir tomonlamaliligi (monotonligi) sanaladi. Aytish mumkinki, shu guruhga tegishli deyarli barcha faylasuflar (G'azzoliydan tashqari) bir xil usulda fikr yuritib kelganlar, bir xil avtoritetlarga murojaat qilganlar; ularning ta'limotlari bir-biridan faqat erishilgan katta yoki kichik rivojlanish darajasi bilan farq qiladi. Faqat Islomning diniy mazhablarida faoliyat olib borganlarning ijodida xilma-xillik,

individuallikni topish mumkin. Payg‘ambar vafotidan bir asr o‘tishi bilanoq u asos solgan aqidani buzishga qaratilgan tortishuvlar boshlangan edi. Teologik faollikda erkinlik va taqdir masalasiga birinchilardan bo‘lib ehtiyoj paydo bo‘ldi. Qadariylar (erkinlik tarafdorlari) va jabariylar (taqdir tarafdorlari) bu cheksiz maydonda matnlar va aql-idrok dalillari yordamida uzoq bahs olib borishgan. Bahsning boshqa bir mavzusi Xudoning atributlari bo‘lgan. Islomdagi hukmronlik qiluvchi eng qat‘iy monoteizm doimiy ravishda, uchlilik va mujassamlanish haqidagi xristian aqidalari bilan quyidagi dalillar orqali bahslashishga intilgan: “Xudoning o‘g‘li yo‘q, Xudoning onasi yo‘q, Xudo ishlab chiqarmaydi, Xudo tug‘ilmagan” — bularning barchasi inson ongini bu yo‘nalishda qattiq ishlashga majbur qildi. Ba‘zilar, Xudoga har qanday ijobiylikni va odamlar tomonidan atribut sifatida qabul qilinishi mumkinligini etgan tarzda, undan mavhum mavjudotni keltirib chiqardilar, unga nisbatan esa ijobiylik borligini aytishni lozim topmaganlar. Umuman olganda, ayrim faylasuflar va falsafiy guruhlar, xristian xudosining xususiyatlariga oppozitsiyada bo‘lgan holda, bu qarashga qo‘shilgan va ilohiy mohiyatning qanday bo‘lishidan qat‘iy nazar xususiyatlarini inkor etgan. Boshqalar esa, masalan, sifatiylar (atributlar tarafdorlari) va teshbigiylar (taqqoslovchilar, o‘xshatuvchilar) Xudoga inson qiyofasini berishgan va antropomorfizmning turli bosqichlarida mavjud bo‘lishgan. Ashariylar mutlaq fatalizm va materialistik antropomorfizmga tushib qolmaslik uchun jabariy va sifatiylar ta‘limotlarini murosaga keltirish orqali ba‘zi cheklovlarni qo‘ygan holda o‘z qarashlarini yarashtirishga intildilar. Gashaviylar uchun, aksincha, Xudo ma‘lum bir joyda yashaydigan jismi bor mavjudotdir. U taxtda o‘tiradi, oyoqlari, qo‘llari va boshqa qismlarga ega.

Ushbu haddan tashqari dogmatizm bilan bir qatorda, skeptitsizm cheksiz guruhlar bilan ifodalangan. Somoniylar mushohada orqali bilim olish imkoniyatini rad etishgan; ular faqat teginish yoki ko‘rish mumkin bo‘lgan narsalarnigina qabul qilganlar: ular iymonsizlar sifatida tanilgan. Talimiylar, boshqa turdagi skeptitsizm asosida, ongning ishonchliligini xatoga yo‘l qo‘ymaydigan shaxs imomning avtoriteti orqali asoslaganlar. Ular haqiqatni harflar va raqamlarda izlagan musulmon kabbaliylari, bateriychilar bilan deyarli birlashganlar.

Hech narsa bilan yashirilmagan iymonsizlik Islomiylik bag‘rida bir qator guruhlarini ham shakllantirdi: karmatlar, fotimiylar, ismoiliylar, druzlar, assasinlar — fanatizmni (mutaassiblik) ishonchsizlik, diniy ishtiyoqni beadablik, erkin fikrlovchining jasoratini muqaddas marosimlarga bag‘ishlangan xurofot va kvietistning ²¹⁸ sovuqqonligi bilan aralashtirgan ikki tomonlamali tabiatga ega

²¹⁸ Kvietizm (lat. quietismus by quies “tinchlik”) XVI — XVIII asrlarda katolitsizmdagi mistik-asketik harakat. Kvietizmning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu Xudo bilan mistik birlikda ruhning faol bo‘lmagan, “qabul qiluvchi” holatiga urg‘u berishdir.

guruhlardir. Bu haqiqatan ham musulmonlarning ishonchsizligining o‘ziga xos xususiyati. Diniy guruh va maxfiy jamiyat ko‘rinishining o‘rtacha holini o‘zida namoyon etib, u muqaddaslik etagi ostida eng dahshatli axloqsizlikni, eng shafqatsiz insofsizlikni yashiradi. Hech narsaga ishonmaslik va hamma narsaga ruxsat berish — bu uning formulasi. Biroq, musulmonlar iymonsizlarni anglatadigan turli xil nomlarning noaniq tabiati bid‘at deb hisoblangan qarashlarning belgisini ilg‘ashga har doim ham imkon beravermaydi. Misol uchun, “zindiki” nomi ostida bardezan va mazdakiylardan kelib chiqqan, moniylik xarakteriga va faqat isbotlanadigan narsalarni tan oladigan erkin fikrlovchilarga (ahl-el-tahqiq, aniq-ravshanlikni talab etuvchilar) ega kommunistik guruhlar qo‘shilib ketgan. Xalq o‘zi kabi ishongan va ishonmaganlarni qat‘iy farqlamagan. Ba‘zan “zindiki” nomi sabizm²¹⁹ va butparastlik bilan ifodalangan.

Bular hijriy II asrdan V asrgacha bo‘lgan davrda Islomiylikning barcha elementlarini qamrab olgan ushbu buyuk harakatning o‘ziga xos mahsulotlari edi. Liberal va ratsionalistik teologiya, aynan mutaziliylar (dissidentlar) teologiyasi bir muncha vaqt mo‘tadil ong egalarini o‘ziga jalb qildi. Islomdagi mutaziliychilik - protestantizmni Shleyermaxer ifodasi kabidir. Vahiy inson qobiliyatining tabiiy natijasidir; najotga olib keladigan ta‘limotlar aql nazoratida joylashgan: bu ta‘limotlarni bilish uchun birgina aql kifoya qiladi; va har doim, hatto vahiydan oldin ham, ularni bilish mumkin bo‘lgan. Abbosiylar homiyligi ostida bo‘lgan bassor maktabi o‘sha buyuk islohiy harakatining markazi bo‘lib, uning eng to‘liq ifodasi ulkan “Pokdomonlik birodarlari entsiklopediyasi”da aks topgan. Unda falsafa va Islomiylikni mujassamlashtirishga urinish mavjud bo‘lib, ko‘rinishidan faylasuflarni ham, dindorlarni ham qoniqtirmagan.

Shunday qilib, yunon falsafasidan tashqari, Islomchilikning o‘zi faol aqllar uchun “kalom” deb nomlangan ratsional tadqiqotlar uchun keng maydon yaratdi, bu sxolastika so‘zining deyarli sinonimidir. Al-Mamun davrida musulmonlar orasida yunon falsafasi paydo bo‘lishidan oldin yuzaga kelgan kalom dastlab alohida tizimga ega emas edi. Bu so‘z ostida ko‘p hollarda juda erkin tadqiqotlar yashiringan bo‘lgan. Ammo falsafaga nisbatan munosabat xavf ostida qolgan vaqtda, kalomning roli o‘zgargan; o‘sha paytdan boshlab u dialektika orqali aqidalarni tashqi hujumlardan himoya qilishga kirishgan; u oldin aqidaviy ko‘rinishga ega bo‘lgan, keyinchalik esa, asosan, apologetik yondashuvga tayangan ko‘rinishdagi xuddi xristian teologiyasi bilan bir xil qiyofaga kelgan. Mutakallimlarning asosiy maqsadi – ayrim faylasuflarga qarshi materiyani yaratish, dunyoni yangilash va olam bilan bog‘liq

²¹⁹ Sabeizm - astrolatriya oqimlaridan biri - yulduzlarga sig‘inish; yulduzlarga sig‘inish, samoviy jismlarni ilohiylashtirish. Sabeizm nomi ilm-fan tomonidan Sabiy dinini Sabey dini bilan aralashmasiga asoslangan holda qoldirilgan.

bo'lmagan va unga ta'sir qiladigan erkin Xudoning mavjudligini asoslashdir. Atomistik nazariya ularga polemik maqsadlari uchun mos keladigandek tuyulgan; ular aynan shu joyda to'xtashgan. Atomlar, deyishgan ular, Xudo tomonidan yaratiladi; Xudo ularni yo'q qilishi mumkin edi va u doimo to'xtamasdan yangilarini yaratadi. Xudo hamma narsalarda erkin va to'g'ridan-to'g'ri harakat qiladi; jamiki mavjud bo'lgan narsa to'g'ridan-to'g'ri u tomonidan yaratilgan. Judolik yoki salbiy aksidentsiyalar (zulmat, jaholat va boshqalar), jumladan, ularning tashkil etiluvchilari (substantsiya) ham Xudo tomonidan berilgan, shu bilan birga ijobiy aksidentsiyalar ham uning himmatidir. Shunday qilib, Xudo hayot va harakatni yaratganidek, o'lim va hotirjamlikni ham paydo qiladi. Qalbning o'zi Xudo doimo yangilab turadigan aksidentsiyadan boshqa narsa emas. Sababiyat tabiat qonunlarida yotmaydi; faqat Xudoning o'zi yagona sababdir. Ikki hodisa hech qachon bir-biri bilan zaruriy bog'lanmagan hamda koinotning tuzilmasi butunlay boshqacha bo'lishi mumkin edi. Mutakallimlarning peripatetizm faylasuflariga qarshi ilgari surgan tizimi shunday edi – tizim, albatta, faqat siyosat maqsadlari uchun yaratilgan boshqa tizimlar kabi nimjonroq bo'lsa ham, tashqi soddaligi bilan olomoni o'ziga jalb qiladigan bo'lgan. Tez orada Ibn Rushd, Maymonid va Arab falsafasining so'nggi vakillari ushbu tizimga qarshi barcha sa'y-harakatlarini kuchaytirayotganini ko'rish mumkin; bu yana bir bor xalq e'tiqodi bilan qanoatlanadigan formulalar bilan mustaqil fan erishgan formulalar o'rtasida qanday tubsizlik mavjudligini ko'rsatdi [1].

Ibn Rushd falsafasida axloq juda kam o'rinni egallaydi. Umuman olganda, ellinizm muhriga ega Aristotelning etikasi, shubhasiz, arablarda uning mantiq, fizika va metafizikadagi asarlari kabi muvaffaqiyatga erishmagan. Bu masalada faqat Ibn Rushdning mutakallimlar bilan axloq printsipi haqidagi bahsi bizning e'tiborimizni tortadi. Mutakallimlar yaxshilik Xudo istagan narsadir va Xudo uni xohlashi o'z irodasidan oldingi ichki asos tufayli emas, balki faqat uni xohlaganligi sababli ekanligini ta'kidlaganlar. Ma'lumki, ular o'z-o'ziga zid keluvchi narsalarni mavjud qilish va koinotning barcha boshqaruviga o'z erkin irodasini yetkazish qobiliyatini Xudoga yuklab qo'yishgan. Bularning barchasi tuzib chiqilgan va kelishilgan tizimning o'z qismlarini tashkil etgan, unga esa Ibn Rushd har qanday qulay imkoniyatda to'xtamay hujumga o'tavergan. Bu safar u bunday axloqiy ta'limot adolatli va adolatsiz degan har qanday tushunchani yo'q qilishini va ular mustahkamlamoqchi bo'lgan dinni yemirishini isbotlashda qiynalmagan. Ibn-Rushd mutakallimlarga qarshi erkinlik haqidagi haqiqiy falsafiy nazariyalarni ham himoya qilgan. Insonga nisbatan mutlaqo erkin yoki mutlaqo tobe deb aytish mumkin emas. Qalbdagi ko'rib chiqilgan erkinlik hech qanday cheklovlarni bilmaydi; lekin u tashqi sharoitlarning fatalligi bilan cheklangan. Harakatlarimizning asosiy sababi –

ichimizda; lekin u bizdan tashqarida joylashgan tasodif bilan to‘qnashadi; ushbu bizni o‘ziga tortadigan tashqi narsa bizga bog‘liq emas va faqat tabiat qonunlarigagina, ya’ni ilohiy ta’minotga bo‘ysunadi. Shuning uchun Qur’on odamni taqdir qo‘lidagi mavjudot yoki o‘z harakatlarida erkinlikka ega zot sifatida tasvirlaydi. Bu kabi nuqtayi nazar jabariylar qarashlari bilan kadariylar ta’limotlarining o‘zaro o‘rtacha qismi olingan bo‘lib, Ibn Rushd namuna sifatida o‘zining “Diniy aqidalarni isbotlash usullari” risolasida diniy ta’limotlarga berilishi mumkin bo‘lgan falsafiy va eklektik talqinni keltirib o‘tgan. Xuddi shu tarzda, u boshqa joyda, birinchi materiya bir xil darajada qarama-qarshi modifikatsiyani boshdan kechirishga qodir, xuddi shu tarzda qalb ikkita qarama-qarshi harakatlar o‘rtasida tanlov qilish imkoniyatiga ega, deb aytadi. Biroq bu erkinlik na injiqlik, na tasodif sanalmaydi. Faol qobiliyatlar befarqlik holatini bilmaydi; faqat passivlik dunyosida befarq tasodifni uchratish mumkin.

Ibn Rushdning siyosati, kutilganidek, o‘ziga xos orginallikdan mahrum. Bunda to‘lig‘icha Platonning “Davlat” asarini qayta sharhlashida uning fikrlari mujassamlashadi. Yunon ruhining bu hayoliy qiziq tasavvuriga jiddiy tahlil bilan, chuqur risola sifatida murojaat qilish birmuncha g‘alati. Boshqaruv oqsoqollarga topshirilishi kerak. Fuqarolarga ritorika, she’riyat va topikani o‘qitish orqali ezgulikni singdirish kerak. She’riyat, ayniqsa, arab tilidagisi xavfli. Davlatning ideali – bu na qozi, na tabibga ehtiyoj sezmaslikdir. Qo‘shinlarning vazifalari faqat odamlarning tinchligini himoya qilish bilan belgilanadi. Agar cho‘ponchilik kuchuklari qo‘ylarni yeyishsa nima bo‘ladi? Erkaklar va ayollar o‘rtasida tabiiy emas, faqat miqdoriy farq mavjud. Ayollar erkaklar qiladigan barcha narsalarga, faqat kamroq darajada — urushga, falsafaga va boshqalarga qodir. Ba’zan ular erkaklardan ham ustun bo‘lishadi, masalan, musiqa sohalarida, garchi bu san’atdagi mukammallik erkaklar bastakor, ayollar esa ijrochi bo‘lganlarida ko‘rinadi. Ba’zi Afrika davlatlarining misoli, ular urushga to‘laqonli qodir ekanliklarini va agar ular davlat boshqaruvida ishtirok etsalar, bu g‘ayrioddiy holat bo‘lmasligini isbotlaydi. Darhaqiqat, urg‘ochi cho‘ponchilik kuchuklari podani erkaklari kabi yaxshi qo‘riqlashini ko‘rmaganmizmi? “Bizning ijtimoiy tizimimiz, — deya qo‘shimcha qiladi Ibn Rushd, — ayolning o‘z qobiliyatlarini namoyon etishiga yo‘l qo‘ymaydi; biz uchun u farzandlarni dunyoga keltirish va ovqatlantirish uchun yaratilganga o‘xshaydi va bu tobelik holati undagi yuqoriroq darajadagi narsalarga bo‘lgan qobiliyatini yo‘q qildi. Shuning uchun bizning oramizda axloqiy ezgulik qobiliyatiga ega ayollar yo‘q; ular o‘simliklar kabi tirmashib o‘sadi va hatto, erlari uchun ham yuk sanaladilar. Bu bizning shaharlarimizni yutib yuboradigan qashshoqlikni tushuntiradi; chunki shaharlarda erkaklar sonidan ikki baravar ko‘proq ayollar bor va ular o‘z mehnatlari bilan yashash uchun mablag‘ topa olmaydilar”. Tiran (zolim) – bu xalqning manfaati

uchun emas, balki shaxsiy manfaatlari yo'lida davlatni boshqaruvchi shaxsdir. Eng yomon zulm (tiraniya), bu din peshvolarining zulmidir. Qadimgi Arablar davlati Platon davlatini mukammal tasvirlaydi. Mo'abiya Umayyadlar avtokratiyasiga asos solgan holda, bu betakror idealni buzdi va bizning orolimiz (Andalusiya) hali ham ozod bo'lmagan g'alayonlar davrini ochdi, deya qo'shimcha qiladi Ibn Rushd [1].

Ibn-Rushd tomonidan ilgari surilgan tabiatdagi ezgulik va yovuzlik tushunchasi uning panteistik dunyoqarashiga, ya'ni Xudoni tabiiy determinatsiyalar tizimini anglatuvchi belgisi sifatida talqin qilishga to'liq mos keladi, bundan, shubhasiz anglash mumkinki, undagi mavjud qonunlarni buzolmaydi. Shu tariqa ish insonlarning harakatlari bilan birga keluvchi ezgulik va yovuzlikni talqin qilish bilan bog'liq bo'ladi: uning davrida bu muammo ilohiy inoyat va narigi dunyoda inson mana shu yer yuzidagi hayotida qilgan qilmishlari uchun javobgar bo'lishi kerak bo'lgan mas'uliyat masalasi bilan chambarchas bog'liq edi, ammo Kordova mutafakkiri uchun uning muhokamasi mohiyatan erkinlik va zaruriyat o'rtasidagi munosabatlar masalasini faqat falsafiy shakllantirish uchun xizmat qildi [4].

Islomda bu masala asrlar davomida keskin bahs-munozaralarga sabab bo'lgan, chunki Qur'onning o'zida unga diametral qarama-qarshi talqinlarni beradigan bayonotlar mavjud. Uning oyatlariga ko'ra, dunyoda Allohning irodasi bilan aniqlanmaydigan hech narsa bo'lmagan va yo'q; boshqa bir oyatlarga ko'ra esa, inson iroda erkinligiga ega va shuning uchun o'z harakatlarida to'laqonli avtonom mavjudot sifatida harakat qiladi. Oyatlarning birinchi guruhi yaratuvchining qudratliligini tasdiqlaydi, lekin shu bilan birga uning adolatini inkor etadi, chunki narigi dunyoda odamlar qiyomat kuni Rabbiysi tomonidan bitilgan qilmishlar uchun noloyiq jazoga tortilishini anglatadi; Qur'on oyatlarining ikkinchi guruhi bu mazmunda Xudoning adolatini tasdiqlaydi, lekin boshqa tomondan uning qudratliligini inkor etadi. "Jamo'a aqidalarini argumentlash yo'llarini ochish to'g'risidagi kitob"da Kordova mutafakkiri ushbu musulmon teologlaridagi (ilohiyotchilari), ya'ni inson irodasi erkinligini tan olgan mutaziliylardagi (Ibn Rushd, garchi u ularning ta'limoti tafsilotlari bilan tanish emasligini ta'kidlagan bo'lsa ham), odamlarning qilmishlarining mutlaq oldindan belgilanishi haqida fikr yuritgan jabariylardagi hamda murosali xulosa tarafdorlari bo'lsada, lekin Ibn Rushd aytganidek, jabrariylarning fatalistik nuqtai nazarini qo'llab-quvvatlovchi ashariylardagi dilemmani hal qilishning asosiy usullarini ko'rib chiqadi. Kordova mutafakkiri inson irodasining mutlaq erkinligini ham, inson qilmishlarining absolyut qismatini ham rad etadi [4].

Ibn Rushdning fikriga ko'ra, odamlarning xatti-harakatlari mutlaqo oldindan belgilab qo'yilgan bo'lishi mumkin emas, chunki bu holda odamlar jonsiz

mavjudotlardan farq qilmay qoladi. Jonsiz jismlar odatda iroda va tanlov deb ataladigan talablarga ehtiyoj sezmaydilar, ular uchun dehqonchilik, harbiy san'at, kemasozlik, tibbiyot bilan, muxtasar qilib aytganda, ular yordamida maqsadga muvofiq ravishda qo'lga kiritiluvchi ezgulik va yo'q qilinuvchi yovuzlik kelib chiquvchi barcha hunarmandchilik sohalari bilan shug'ullanish zarurati mavjud emas. Ammo boshqa tomondan, ularning harakatlarini mutlaqo erkin deb hisoblab bo'lmaydi. Birinchidan, biz bu dunyoda o'zboshimchalik bilan shug'ullana olmaymiz, chunki bizning harakatlarimiz tashqi determinatsiyalarga bo'ysunadi. Ikkinchidan, ma'lum bir harakatni amalga oshirish istagimizning o'zi deterministik xususiyatga ega: tashqi sabablar "nafaqat biz amalga oshirmoqchi bo'lgan harakatlarning bajarilishiga hissa qo'shadi yoki to'sqinlik qiladi, balki biz ikkita qarama-qarshilikdan birini xohlashimizning sabablari sifatida harakat qiladi, chunki Iroda biror narsani tasavvur qilish yoki biror narsani hukm qilish ishtiyoqini paydo qiluvchidan boshqa narsa emas, shu bilan birga, bu hukm bizning tanlovimizga bog'liq bo'lmagan tashqi sharoitlardan kelib chiqadi" [2]. Va nihoyat, uchinchidan, bizning istaklarimiz tanamizdagi elementlarning u yoki bu kombinatsiyasi tufayli yuzaga keladigan o'ziga xos temperament bilan belgilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ibn Rushdning erkinlik va zaruriyat o'rtasidagi munosabatni tushunishi uning ushbu ikki tushunchaning ikkinchisini tasniflovchi tarifni talqin qilishida ochib berilgan. "Zaruriyat" atamasi, deb yozadi u, uch ma'noda qo'llaniladi: "*materiya tufayli*" boshqa biror narsasiz mavjud bo'lolmaslik ma'nosida, masalan, qon bilan ta'minlangan hayvon nafas olmasdan mavjud bo'lolmaydi; *majburiyat ma'nosida*, bu tanlov tushunchasiga qarama-qarshi qo'llaniladi, shuning uchun qadimgi yunon shoirlari bu zaruriyat turini qandaydir qiynoqqa soluvchi va og'riqli holat deb ta'riflaganlar; ma'lum bir sifatga ega bo'lgan narsaning majburiy xususiyati ma'nosida, masalan, osmon zaruriyat tufayli abadiydir, deymiz. Erkinlik ("tanlov") shu bois Ibn Rushdning fikriga ko'ra, umuman zaruriyat emas, balki uning faqat bitta shakli — majburiyat, ya'ni Jabroiylar va ular bilan birga Ashariylar, Ibn Rushd ta'kidlaganidek, ular ruhiy impulslar orqali vositachilik qilishi yoki qilmasligidan qat'iy nazar dunyodagi barcha harakatlarni belgilaydigan yagona printsip deb hisoblangan. Ibn-Rushd har bir shaxsning alohida qabul qilingan barcha harakatlarining fatal qismati haqidagi ashariylar ta'limotini rad etadi. Xudo orqali (tabiat tizimi), uning so'zlariga ko'ra, faqat bir odamlar ezgulikka, boshqalari yovuzlikka moyil ekanligi aniqlanib qo'yilgan (bu holatga faqat odamlarning umuman yo'qligi alternativa bo'lishi mumkin). Muayyan shaxsning u yoki bu toifaga aloqadorligi uning temperamenti, irodasi va tafakkurini belgilaydigan ko'plab

“oraliq” sabablar bilan aniqlanadi, natijada bu shaxs shunday bo‘lib qolishi yoki bo‘lmasligi mumkin [4].

Garchi insonning irodasi va ongi zaruriyat qonuniga bo‘ysunsa-da, bu zaruriyat bir vaqtning o‘zida uning ezgulikka intilishini anglatadi. Asl ezgulik yoki baxtga inson amaliy aql lozim topgan darajada va vaqtda nimaga intilishi joiz bo‘lsa, shunga intilishi uchun ratsional qalb hayvoniy potentsial harakatlarni nazorat qilganidagina erishish imkoni mavjud. Ammo tabiat odamlarga turli xil moyilliklarni berganligi sababli, to‘laqonli baxtga faqat ozchilikka tegishli spekulativ (hayoliy) fazilatlar hamma uchun mavjud bo‘lgan amaliy fazilatlarni rivojlantirishga yordam beruvchi ideal davlatda erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аверроэс (Ибн Рушд). Опровержение опровержения. – Киев: «УЦИММ - Пресс», 1999. – 687 с.
2. Ибн-Рушд. Рассуждение, выносящее решение относительно связи между религией и философией. Дополнение. Книга об открытии путей аргументирования догм общины. Каир, 1902 (на араб. яз.). – С. 85.
3. Ренан Э. Аверроэс и аверроизм. – М., 2010. – 248 с.
4. Сагадеев А.В. Ибн-Рушд (Аверроэс). - М.: «Мысль», 1973. – 207 с.
5. Di Giovanni M. Averroes, Philosopher of Islam. (Interpreting Averroes) – United Kingdom: Cambridge University Press, 2019. – Pg. 9-27.
6. Fakhry M. Averroes. His life, Wprks and influence. – England, Oxford: Oneworld publication, 2001. – 188 pg.
7. Mensia M.A. Dogmatics, Theology, and Philosophy in Averroes. (Interpreting Averroes) – United Kingdom: Cambridge University Press, 2019. – Pg. 27-45.
8. Woerther F. Averroes’ Goals in the Paraphrase (Middle Commentary) of Aristotle’s Nicomachean Ethics. (Interpreting Averroes) – United Kingdom: Cambridge University Press, 2019. – Pg. 218-237.

XX ASR ARAB-MUSULMON TAFAKKURINING YARATUVCHISI SHAYX MUHAMMAD ABDO HAYOTI VA FAOLIYATI

Sharafutdinova Ruxsora Baxrom qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.d., professor Izzetova E. M.

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolani yozishdan maqsad islom islohotchisi va modernist Shayx Muhammad Abdo hayoti va ilmiy faoliyatini har tomonlama o'rganishdir. M. Abdo modernizmi islom va zamonaviy tafakkur sintezi degan tezisni asoslash. Mutafakkirning ijtimoiy-falsafiy asarlari sivilizatsiyalarni birlashtirish, qarama-qarshilik va ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan edi. M. Abdo faoliyati serqirra ekanligini ko'rsatish uchun, ayniqsa, ta'lim-tarbiya sohasida, oliy diniy ta'lim va jurnalistika tizimini isloh qilishda o'z iste'dodini yaqqol namoyon etdi.

Kalit so'zlar: *Islom islohotchiligi, Islom modernizmi, "Al-Ahram", "Risalat at-tavhid", "Al-Urva al-vusqa", "al-Manar", Bayrut, Ibn Xaldun, shayx Shauqi Darwish, al-Waqasi al-Misriya, Dar ul-ulum, "al-Ustad al-Imom" va "ash-Shayx al-Muftiy", al-Afg'oniy, al-Azhar, musulmonlar va nasroniylar, Qur'on, mantiq, ritorika, tavhid, pedagogika.*

ABSTRACT

The purpose of writing this article is a holistic study of the life and scientific work of the Islamic reformer and modernist Sheikh Muhammad Abdo. To substantiate the thesis that M. Abdo's modernism is a synthesis of Islam and modern thought. The socio-philosophical works of the thinker were aimed at uniting civilizations and overcoming contradictions and conflicts. To show that M. Abdo's activities were multifaceted, he especially clearly showed his talent in the educational sphere, in reforming the system of higher religious education and journalism.

Keywords: *Islamic reformism, Islamic modernism, "Al-Ahram", "Risalat at-tawhid", "Al-Urwa al-wusqa", "al-Manar", Beirut, Ibn Khaldun, Sheikh Shawqi Darwish, al-Waqasi al-Misriya, Dar ul-Ulum, "al-Ustad al-Imam" and "al-Shaykh al-Mufti", al-Afghani, al-Azhar, Muslims and Christians, the Qur'an, logic, rhetoric, monotheism, pedagogy.*

АННОТАЦИЯ

Целью написания данной статьи является целостное изучение жизни и научной деятельности исламского реформатора и модерниста шейха Мухаммада Абдо. Обосновать тезис, что модернизм М. Абдо представляет собой синтез ислама и современной мысли. Социально-философские труды

мыслителя были направлены на объединение цивилизаций и преодоление противоречий и конфликтов. Показать что деятельность М. Абдо была многосторонней, особенно ярко он проявил свой талант в просветительской сфере, в реформировании системы высшего духовного образования и журналистике.

Ключевые слова: исламский реформизм, исламский модернизм, «Аль-Ахрам», «Рисалат ат-Таухид», «Аль-Урва аль-Вуска», «Аль-Манар», Ибн Халдун, Шейх Шавки Дарвиш, аль-Афгани, мусульмане, христиане, Коран, логика, риторика, монотеизм, педагогика.

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, jahondagi barcha mamlakatlar qatori, xorijiy Sharq, Hindiston, Pokiston, Misr, arab mamlakatlari, Eron, Turkiya hamda boshqa davlatlar bilan o'zaro do'stlik va manfaatli hamkorlik asosida iqtisodiy, madaniy aloqalar o'rnatdi va bu aloqalar tobora rivojlanmoqda. Sharq xalqlari madaniyati, ma'naviyati, shuningdek, ijtimoi-falsafiy tafakkuriga bo'lgan qiziqish, shubhasiz, kuchayib bormoqda. Buning boisi Arab Sharqi va Markaziy Osiyo xalqlari tarixi umumiyliги tufayli ularning falsafiy, diniy-axloqiy, ma'naviy merosida o'zaro yaqinlik va hamohanglik borligidir. Sh. M. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida shunday ta'kidladi: "Biz yaqin va uzoq xorij davlatlari, ayniqsa, qo'shni davlatlar va hududiy tashkilotlar bilan do'stlik va o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini yangi bosqichga ko'taramiz"²²⁰.

Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida arab xalqlarining ijtimoi-falsafiy tafakkuridan keng o'rin olgan arab ma'rifatchiligi oqimi va ma'rifatparvar namoyanda Muhammad Abdoning ijodi va hayot faoliyati keng yoritib berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

G'arb va Sharq faylasuflari, tarixchilari, sharqshunoslarining ko'plab asarlari M. Abdo hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan. Ulardan eng mashhurlari Zugfrid Hunc, Charlz Adams, Mahmud Abbos al-Akkad, Rashid Rido, Shavki Zaif, Muhammad Ammar, Ahmad Amin, Mustafo Labib va boshqalarning tadqiqotlaridir. Xususan, Mahmud Abbos al-Akkad M. Abdo hayoti va faoliyatini tahlil qilgan bo'lsa-da, uning ijodida mutafakkirning islohotchilik g'oyalariga juda kam e'tibor berilgan. Mashhur tadqiqotchi Rashid Rido o'zining "Ta'rix al-ustad al-imom ash-shayx Muhammad Abdo" ("Muhammad Abdo tarjimai holi") nomli uch jildlik asarida shunday

²²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi
https://cis.minsk.by/news/25966/vystuplenie_prezidenta_respubliki_uzbekistan_shavkata_mirzijojevana_torzhestvenno

ta'kidlagan edi: "Abdo Misrda falsafiy tafakkur manbai sanaladi."²²¹ Belgilangan mavzu doirasida ushbu asarning Muhammad Abdo va Jamoliddin Afg'oniylar hayotining mufassal tarixini bayon etgan birinchi jildi alohida qiziqish uyg'otadi. Muhammad Abdo haqidagi eng yirik tadqiqot asarini "al-Amal-ul-komilati li-l-imom Muhammad Abdo" ("Muhammad Abdoning to'liq tarjimai holi") deb hisoblash mumkin, bu asar M. Ammar qalamiga mansub. Usmon Amin o'zining "Misrda Uyg'onish davri" nomli tadqiqotini M.Abdo o'z maktabining asoschisi sifatidagi hayotiga bag'ishlagan. Muhammad Abdo va uning maktabi, musulmon falsafasi tarixi". M. T. Stepanyants va L. R. bu islohotchiga kichik nashrlar bag'ishladilar. Polonskaya. B.S. Omondulloyev M.Abdo hayoti va ijodiy faoliyatining asosiy bosqichlarini tizimli o'rganishga harakat qildi. Bu muammoning ayrim jihatlari E.J.Babayeva tomonidan ko'rib chiqildi.

Yuqoridagi tadqiqotlar M.Abdo hayotining asosiy bosqichlarini, diniy-falsafiy qarashlarining shakllanishini aniqlashda uslubiy asos bo'lib xizmat qildi. Muhammad Abdoning hayotiy faoliyati va uning diniy-falsafiy merosi haqida tahlil olib borildi. Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik, falsafiy germevtik usullaridan keng foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XIX asrning 60-70-yillarida arab ma'rifatchiligi zaminida musulmon islohcilik harakati yuzaga keldi. Islom islohcilari ta'limotining asosiy mazmuni islomni asrlar bo'yi hukm surib kelga, qotib qolgan sxolastik aqidaviy tushunchalardan va bid'atlardan xalos etishdir. Ular Qur'oni Karimni erkin talqin qilish, uning aqidalarini ratsionalistik ruhda qabul etish tarafdori bo'lib chiqdilar. Islomning ijtimoiy-falsafiy tizimini, ilm-fan, ta'lim-tarbiya va madaniy taraqqiyot, hayotdagi o'zgarishlar, mustamlakachilikka qarshi kurash talablarinuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish lozim, deb topdilar. Boshqacha aytganda, islohcilar diniy tushunchalarni yangicha talqin etish, ularni zamon ruhiga moslashtirish zarurligini bildirdilar.

Islom islohcilari e'tiqodni poklash va tiklash, xalqni din ko'rsatgan haq yo'liga undash, ya'ni avvalo, odamlar ongini o'zgartirish lozim, deb hisobladilar. Islom islohcilik ta'limotiga asos solgan shaxs Sharqning yirik jamoat arbobi Jamol ad-Din al-Afg'oniydur. U ko'tarib chiqqan g'oyalarni shogirdi, safdoshi va izdoshi shayx Muhammad Abdo davom ettirib, bir butun tadrijiy tizim shakliga keltirdi va ularni hayotga tatbiq etishga urindi.

Muhammad Abdo ibn Hasan Xayrulloh 1849-yilda Misrdagi Buxayra viloyati Damanxur shahri yaqinidagi Mahalla Nasr qishlog'ida tug'ilgan. U Misrlik islom

²²¹ Rashid Rido. Ta'rix al-ustad al-imom ash-shayx Muhammad Abdo - T. 1. Qohira, 1931. - 67 b.

huquqshunosi, dinshunos olim va liberal islohotchi, islom modernizmining asosiy asoschilaridan biri hamda Misr Bosh Muftiysi²²² sifatida mashhurdir. Ba'zan neo-mutazilizm oqimi namoyondasi sifatida qaralgan o'rta asr islomiy mutaziliy²²³ olimlaridan biri. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Abdo mason²²⁴ bo'lgan va bahoyilik e'tiqodi²²⁵ bilan yaqin munosabatlarga ega bo'lgan. Onasi Bonu Uday qabilasidan, otasi esa Saloh ad-Din Ayyubiy davrida (XII asr) xizmat qilgan turkman harbiylar²²⁶ zotidan kelib chiqqan. Shuning uchun Abdoni gohida "at-Turkamoniyy" deb ham atashadi. Ota-onasi o'ziga to'q dehqonlardan edi. U boshlang'ich maktabga qatnamay, xat-savodini uyda chiqardi. So'ng otasi uni Ahmadiy masjidida qoshidagi sufiy Said Badaviy kollejiga o'qishga berdi. Bungacha Abdo Qur'on karimni to'liq xatm qilgandi. Kollejda o'quv dasturi faqat Qur'on matnini va uning tafsirini yodlashdan iborat bo'lgani uchun, Abdo bir yil o'tar-o'tmas o'qishni tashlaydi. Otasining qat'iy noroziligi ham uni to'xtata olmaydi.

Sufiy shayx Shauqi Darvish Xidr Muhammad Abdo hayotidan alohida o'rin olgan. Shauqi Darvish yoshligida tijorat ishlari bilan Tripolitaniyaga borganda ash-Shaziliya tariqatiga qo'l beradi. Tasavvufga mukkasidan berilgan Shauqi Darvishning din haqidagi suhbatlari yosh Muhammadning qalbidan joy oladi va u ruhiy jazavaga tushadi, tasavvufga berilib, sufiyona libosda darvishlikda yashaydi. Uni hayotga qaytarishda aqidaparastlikdan yiroq bo'lgan shayx Darvishning o'zi yordam beradi, o'qish muhimligini isbotlab, islom fiqhi rivojlanishidagi kamchiliklarni bilganicha tushuntiradi. Keyinchalik Muhammad Abdo bunday deb eslaydi: "Aynan shayx timsolida ustozni topdim, qalbim istayotgan narsalarga yetishishim uchun u meni boshqarardi va nasihatlar qilardi... U meni johillik iskanjasidan xalos etib, ochiq bilim maydoniga yo'naltirdi, xudo bilan ruhiy birikish yo'lini ko'rsatib, ko'r-ko'rona taqliddan ozod etdi".²²⁷ Ruhiy inqirozdan chiqqan Muhammad Abdo shayx maslahati bilan yana kollejga qaytib, islomiy ilmlarni qunt bilan o'rganishni davom ettirdi. Oradan ko'p o'tmay, o'zi ham do'stlari va talabalarga shayxlik qildi.

1865-yilda u Ahmadiy kollejini bitirib, mashhur al-Azhar universitetiga kirdi.²²⁸ Al-Azhar mashhur bo'lsa-da, o'quv dasturlari faqat fiqh, hadis, tafsir, arab tili, notiqlik mahorati fanlari bilan cheklangan edi. Matematika, geografiya, biologiya,

²²² Zimney, Michelle (2009). "Abduh, Muhammad (1849–1905)". In Campo, Juan E. (ed.). *Encyclopedia of Islam. Encyclopedia of World Religions* - . New York: Facts On File. - Pp. 5–6.

²²³ Ahmed H. Al-Rahim (2006 yil yanvar). "Islom va Ozodlik"// Demokratiya jurnali, 17 (1). - Pp. 166-169.

²²⁴ Karim Vissa, "1798-1921 yillarda Misrda masonlik. Yaqin Sharq tadqiqotlari bo'yicha Britaniya jamiyati byulleteni, 16-jild, № 2, 1989.

²²⁵ Xuan R.I.Koul. "Muhammad` Abduh va Rashid Rida: Bahoiy e'tiqodi bo'yicha suhbat." Jahon buyurtmasi jildi. 15,3-4, 1981.- Pp. 7-16.

²²⁶ Arthur Goldschmidt, *Biographical Dictionary of Modern Egypt*, Lynne Rienner Publishers (2000), p. 10.

²²⁷ Adams Charls. *Islam and Modernism in Egypt*. - London, 1933. - P.30.

²²⁸ Hourani, Albert (1962). *Arabic Thought in the Liberal Age*. Great Britain: Oxford University Press.

kimyo va boshqa fanlar kiritilmagani tufayli, ta'lim zamon talablariga to'la javob bermaydigan darajada edi. Al-Azhardagi diniy ta'lim tizimi Muhammad Abdoni qoniqtirmasdi. Keyinchalik u: "Al-Azhar uslubi bilan arab kitoblarini o'rganish aqlimga zarar yetkazdi, bir necha yil kallamni tozalashga harakat qildim, lekin bunga hech qachon erisha olmadim"²²⁹, - deb yozgan edi.

Abdo Al-Azharda 12 yil o'qib, 1877-yilda islom ilohiyoti va huquqi bo'yicha doktorlik darajasini oldi. Lekin dunyoviy bilimlarsiz u o'zini chalasavod his etardi. U Darvishning haqiqiy olim har taraflama savodli bo'lishi kerak, degan so'zlarini doimo eslardi. 1877-yildan Abdo Al-Azharda mantiq va aqoiddan, "Tillar maktabi"da arab tili va adabiyoti tarixidan, Ali Muborak ochgan yangi o'quv yurti "Dar ul-ulumda" tarixdan dars beradi. "Dar ul-ulumda" zamonaviy talablar asosida ta'lim berishga harakat qilinardi.

Ibn Xaldunning "Muqaddima" asari bo'yicha ma'ruza o'qiganda u mutafakkirning falsafiy va sotsiologik qarashlarini zamon bilan bog'lashga intiladi. Shu paytlar Abdo matematik, faylasuf va ilohiyotchi, siyosatni ham yaxshi tushunadigan Hasan Tavitil bilan tanishadi. Shijoatli, hukmdorning yuziga haqiqatni qo'rqmay aytadigan shayx Tavitilning musulmon madaniyatini qayta tiklash g'oyalari bilan sug'orilgan ma'ruzalari tafakkur teranligi bilan ajralib turardi. Bular Abdo qalbiga, ongiga singib, uning jo'shqin tabiatini intellectual izlanishga chorlardi. Aynan shu kayfiyatda yurganida u Jamol ad-Din al-Afg'oniy bilan uchrashib qoladi.

Al-Afg'oniy musulmon ma'rifatchilaridan biri bo'lib, butun g'ayratini va bor intellektual kuchini musulmon ummatini g'aflat uyqusidan uyg'otishga sarflar, ijtimoiy-siyosiy tanazzulni yengib, muqim rivojlanish yo'lidan borishga undardi. U musulmon xalqlarning ko'zini ochishga, ularning haq-huquqlarini tushuntirishga, siyosiy va huquqiy madaniyatini shakllantirishga intilardi. Birinchi uchrashuvdayoq Muhammad Abdo unga kelajagi bor yigitdek tuyuldi. Al-Afg'oniy uning g'ayratli, aqlli, insofliligini ko'rib, g'oya uchun fido bo'lishga tayyorligini sezdi. O'z navbatida, Muhammad o'quv davrida ustoz al-Afg'oniy²³⁰ ko'magida haqiqatning uning uchun mavhum bo'lgan boshqa jihatlari borligini angladi. Maqsad va fikr birligi ikki olim nafaqat maslakdosh, hatto, yaqin do'st bo'lishiga ham sabab bo'ldi.

Abdo al-Azharda dars berayotgan vaqtda Misr davriy matbuoti, ko'proq "al-Ahrom" uchun maqolalar yozardi. Misrda Taufiq hadiv bo'lganida hukumatni Riyad posho boshqardi. U islohotni amalga oshirish niyatlarining jarchisi bo'lgan "Al-vaqai

²²⁹ Adams Charls. Islam and Modernism in Egypt. – London, 1933. - P.25.

²³⁰ Kedourie E. Afghani and 'Abduh: An Essay on Religious Unbelief and Political Activism in Modern Islam. - London: Frank Cass, 1997.

al-misriy”²³¹ (“Misr voqealari”) ro’znomasini tashkil etdi. Bosh muharrirlik lavozimini Muhammad Abdoga topshirdi va u oddiy ro’znomani haqiqatan ham ijtimoiy islohot va islom da’vati jarchisiga aylantirdi.

Muhammad Abdo inglizlarga qarshi chiqqan Urobiy posho qo’zg’olonida²³² (1879-1882) qatnashgani uchun Misrdan badarg’a qilindi. 1883-yilda, Bayrutda yashab turgan paytida, al-Afg’oniy uni Parijda birga ishlashga taklif etdi. Ular Fransiyada “Al-urvat al-vusqa” (“Mustahkam rishtalar”) nomli ro’znoma nashr qila boshlashdi.²³³ Lekin inglizlar siyosatiga qarshi yo’naltirilgan, mustamlakachilarga qarshi kurashga da’vat etadigan maqolalar fransuz hokimiyatiga yoqmad, o’n sakkizinchi jildi chiqqanidan keyin ro’znoma inglizlar tazyiqi ostida yopildi. Hafsalasi pir bo’lgan Abdo 1885-yilda Bayrutga qaytdi.²³⁴ Umid bog’langan qo’zg’olon daf etildi, ancha kuch sarflangan ro’znoma yopildi, qadr don do’sti al-Afg’oniy yiroqda – Eronga ketgan edi.

Abdo ilmiy va pedagogik ijodga sho’ng’iydi. U Bayrutdagi bir necha masjidida, keyin “as-Sultoniya” maktabida tavhid, mantiq, ritorika, tarix va huquqdan dars beradi, o’quv dasturlarini isloh qiladi. Uning maqolalari Bayrut ro’znomasi “Samarat al-funun” (“Fan mevalari”) da chop etila boradi.

1889-yilda Abdo inglizlar nazorati ostiga tushib qolgan Misrga qaytadi. Olim al-Azhar universiteti, vaqflar vazirligi, shariat mahkamalari kabi islomiy muassasalarni isloh qilish muhimligiga yanada iqror bo’ladi. O’zining islohlari loyihasini Misrning haqiqiy boshqaruvchisi bo’lgan general-gubernator, Misr rezidenti lord Kromerga yuboradi. Shayx Muhammad Abdo Dar ul-ulumning rektori lavozimini mo’ljall qilgandi. Lekin inglizlar va hadivning rejaları boshqacha edi. U Banxda, az-Zakazikda, keyin Abidinda xalq mahkamasining qozisi etib tayinlandi. 1895-yili appelyatsiya maahkamasi maslahatchisi bo’ldi. U al-Azharda islohot o’tkazilishiga, talabalar stipendiyasi oshirilishiga, ularning hayoti yaxshilanishiga, zamonaviy o’qitish usullari qo’llanilishiga, dunyoviy fanlar ta’lim dasturiga kiritilishiga alohida e’tibor qaratdi.

Muhammad Abdo o’z maqolalari bilan “al-Ahram”, “al-Muqtataf” va boshqa ro’znomalarda faol qatnashdi. Islom islohciligi ruhidagi g’oyalarni tarqatish niyatida 1898-yilda “al-Manar” (“Mayoq”) jurnalini ta’sis etdi. Yaqin shogirdi livanlik huquqshunos Rashid Rida (1865-1935) muharrirlikka tayinlandi. “Al-Manar”

²³¹ von Kügelgen, Anke. “‘Abduh, Muhammad”. In Fleet, Kate; Krämer, Gudrun; Matringe, Denis; Nawas, John; Rowson, Everett K. (eds.). *Encyclopaedia of Islam, THREE*. Vol. 3. - Leiden and Boston: Brill Publishers, 2007.

²³² Malyukovskiy M.V. Misrdagi musulmon islohotining dastlabki bosqichi // Sharqshunoslik institutining ilmiy yozuvlari. T. XVII. - M., 1959.

²³³ Sedgwick Mark. Muhammad Abduh: Makers of the Muslim World. One World, 2013. - P p. 56.

²³⁴ Kerr, Malcolm H. (2010). “‘Abduh Muhammad”. In Hoiberg, Dale H. (ed.). *Encyclopædia Britannica*. Vol. I: A-ak Bayes (15th ed.). - Chicago, IL: Encyclopædia Britannica Inc, 2010. - Pp. 20–21.

sahifalarida ilohiyot, shariat masalalari islom islohchiligi ruhida yoritilardi, arablar tarixi, arab tili va adabiyotiga oid maqolalar, adabiy asarlardan parchalar nashr etilardi. Jurnalning vazifasi asl islom g'oyalari tarqatish, uning hozirgi zamon ilmiy va ijtimoiy tafakkuriga mosligini isbotlash hamda musulmonlarni diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, keng omma orasida ma`rifat tarqatishdan iborat edi.

1889-yilda Muhammad Abdo Misr muftiysi lavozimiga tayinlandi, o'sha yili u Misr Qonun chiqaruvchi Kengashiga a'zo bo'ldi va umrining oxirigacha ushbu lavozimlarda turdi. Muhammad Abdo inglizlar bilan kelishib, siyosiy kurashdan voz kechib, o'z islohlarni hayotga tatbiq etishni ma`qul deb topdi.

Muhammad Abdo tasavvufga qiziqib yurgan davrida (1874) "Risalat al-Varidat" ("Mistik ilhomlanish haqida risola") asarini yozgan, unda taniqli tasavvuf nazariyotchisi Muhiddin al-Arabiyning ta`limotini bayon qilgandi. O'shanda tasavvuf ta`limoti o'zining ma`naviy jihati, ma`naviy barkamollikka yetishish, botiniy imonga ega bo'lish talablari, rasmiy aqidaparastlikka tanqidiy nazari bilan Muhammad Abdoni o'ziga rom etgandi. U keyinchalik bu ta`limotdan voz kechdi. Uning Qur`onni ratsionalistik ruhda talqin etishga intilishi besh tomlik nufuzli "Tafsir ul-Qur`on al-Hakim"da ifoda etildi. Muallif bu tafsirni oxiriga yetkaza olmadi, uni shogirdi Rashid Rida davom ettirdi.

Abdoning boshqa yirik asari "Risalat at-tavhid" ("Yakkaxudolik haqida risola") 1897-yilda chiqqan.²³⁵ Unda mutafakkirning diniy-falsafiy qarashlari bayon etiladi. Bu asar "as-Sultoniya" madrasasida 1885-yilda o'qilgan ma`ruzalardan tuzilgan. Uning matnini ukasi Hammuda Bey Abdo yozib olgan. 1908-yilda Rashid Rida ilovalari va tuzatishlari bilan "Risalat at-tavhid"ning ikkinchi nashri chiqdi. Asar 1925-yilda fransuz va 1966-yilda ingliz tillarida chop etildi. Inglizcha nashri "The Theology of Unite"²³⁶ ("Birlik ilohiyoti") deb nomlangan.

Ilmiy va pedagogik faoliyat bilan shug'ullangan paytlarida "Ritorika kursiga tafsirlar", "Badi az-Zamon al-Hamadoni" asarlari nashr etildi. Maqolalari "Al-urva al-vusqa", "Al-Ahram", "Al-Muqtataf" ro'znomalarida va "al-Manar" jurnalida hamda boshqa nashrlarda chop etildi. Bu asarlarning ko'pchiligi diniy islohchilik, ijtimoi-siyosiy va falsafiy masalalarga bag'ishlangan edi. Abdoning merosi taxminan 30 asardan iborat bo'lib, ularning ko'plari yo'qolgan.²³⁷

Abduh avliyolarni haddan tashqari hurmat qilishni qattiq qoralaganiga qaramay, tasavvuf va g'azzoliy kosmologiyaga xayrixoh edi. U o'zining ustozini Jamolning falsafiy va tasavvufiy ta`limotlarini ifoda etgan "Risalat al-voridat fi Sirr at-

²³⁵ Büssow Johann. "Muhammad 'Abduh: The Theology of Unity (Egypt, 1898)", 2016. - Pp. 141–159.

²³⁶ Kerr Malcolm H. "'Abduh Muhammad". In Hoiberg, Dale H. (ed.)//Encyclopædia Britannica. Vol. I: A-ak Bayes (15th ed.), 2010. - Chicago, IL: Encyclopædia Britannica Inc. pp. 20–21

²³⁷ Babayeva E. Ma`rifat yo'lida. -T.: "Fan va texnologiya", 2012. - 45.

Tajalliyat” (“Vahiylar sirlaridan tasavvufiy ilhomlar haqida risola”) risolasida islomning falsafiy va ezoterik soʻfiylik anʼanalarini izohlar edi. Din al-Afgʻoniy, Ibn Arabiy va Ibn Sino kabi oʻrta asr soʻfiy avliyolari va faylasuflarining maʼnaviy gʻoyalarini oʻzida mujassam etgan. Abdulloh al-Afgʻoniyning koʻrsatmalarini tasvirlash uchun ishlatadigan til Ishroqiy falsafani ifodalovchi aniq soʻfiylik doirasiga asoslangan edi. Risolada xudoning borligi va uning tabiatining falsafiy dalillarini asoslash, soʻfiylik kosmologiyasini ishlab chiqish va bashorat haqida ratsionalistik tushunchalar ishlab chiqish masalalari koʻrib chiqildi. ‘Abduh tasavvufiy islom faylasuflari tomonidan ishlab chiqilgan «Vahdat ul-vujud» kosmologik taʼlimotiga amal qilgan boʻlib, bu taʼlimotga koʻra, Alloh va uning ijodi birga mavjud va birga abadiydir.²³⁸ ‘Abduh soʻfiy faylasuf va avliyo Ibn Arabiy, Suhravardiy va boshqalarning “Vahdat ul-vujud” taʼlimotini himoya qilib, shunday yozgan edi:

... iymon keltiramiz: Uning borligidan boshqa borliq va sifatidan boshqa hech qanday sifat (vasf) yoʻqdir. U mavjud va boshqa hech narsa mavjud emas. Moʻminlarning birinchi qoʻmondonlari (al-umaroʻul-avvalun), Alloh ulardan rozi boʻlsin, Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali roziyallohu anhu aytdilar: "Sizlar Allohni oldida, orqasida va ichida koʻrmay turib, hech narsani sezmaydilar. u yoki u bilan". ... Bu mujassamlik (hulul) ga eʼtiqod degan xayolga tushmang. Inkarnasyonizm ikki mavjudot oʻrtasida, biri ikkinchisiga aylanganda sodir boʻladi. Lekin biz ishonamiz: Uning borligidan boshqa mavjudot yoʻq.²³⁹

Muhammad Abdo merosi tadqiqotchilaridan biri, yirik olim Usmon Amin “Misr tafakkurining yaratuvchisi imom Muhammad Abdo” (“Raid al-misriy al-imam Muhammad Abdo”) asarini Qohirada 1955-yilda nashr ettirgan. Unda muallif Abdoning diniy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini tahlil etgan, uning asarlaridan parchalar keltirgan. Muhammad Abdoning nomi butun musulmon olamida tanishdir. Uni “buyuk islohchi”, “Misr va islom kelajagining paygʻambari”, “XX asr arab-musulmon tafakkurining yaratuvchisi”, deb hisoblashadi.

U juda koʻp sayohat qildi, Kembrij va Oksfordda yevropalik olimlar bilan uchrashdi. U fransuz huquqini oʻrgangan, Vena va Berlin kutubxonalarida koʻplab yirik Yevropa va arab adabiy asarlarini oʻqigan. Uning sayohatlaridan kelib chiqqan xulosalar shundan iboratki, musulmonlar oʻz dinlarini bilmaslik va nohaq

²³⁸ Scharbrodt Oliver. *"The Salafiyya and Sufism: Muhammad 'Abduh and his Risalat al-Waridat (Treatise on Mystical Inspirations)"*. Bulletin of the School of Oriental and African Studies, University of London. Cambridge University Press. 70 (1), 2007. – Pp. 89–115.

²³⁹ Scharbrodt Oliver. *"The Salafiyya and Sufism: Muhammad 'Abduh and His Risalat al-Waridat (Treatise on Mystical Inspirations)"*. Bulletin of the School of Oriental and African Studies, University of London, 2007.

hukmdorlarning mustabidligidan aziyat chekmoqda.²⁴⁰ Abdo 1905-yil 11-iyulda Iskandariyada buyrak hujayrali karsinomasi tufayli vafot etdi.

XULOSA

Bugungi kunda Sharq faylasuflarining falsafiy qarashlarini tahlil qilish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Shu bilan birga Muhammad Abdoning falsafiy qarashlarini tahlil qilib, yosh avlodga yetkazib berishning ahamiyati cheksizdir.

Men ushbu maqolaga xulosa sifatida shuni aytamanki, islom reformatori va arab modernisti bo'lgan Muhammad Abdo nafaqat XX asrda balki hozirgi XIX asrda ham jamiyatimizga, madaniyatimizga, dinimizga va umuman hayotimizga muhim ta'sir ko'rsatuvchi inson hisoblangan. Muhammad Abdoning diniy-falsafiy g'oyalarini bugungi kunimizga ham o'zimizga asos qilib olsak noto'g'ri emas, deb o'ylayman. Ushbu maqolada keltirilganidek mutafakkirning g'oyalarida ratsionalizm, modernizm, islohchilik, ma'rifatparvarlik qarashlari asosiy o'rin egallagan. Shu jihatdan Muhammad Abdo haqida keltirilgan barcha fikrlar aniq va to'g'ri berilgan, deb hisoblayman. Ushbu islom olimi va uning yetuk asarlari orqali xalqimiz o'z hayotida mustaqillikka, ma'rifatparvarlikka jalb qilinganining guvohi bo'lamiz. Shuni tan olish kerakki, bu inson shunchaki o'qituvchi emas, haqiqiy arab-musulmon tafakkurining yaratuvchisi bo'lgan.

REFERENCES

1. Babayeva E. Ma'rifat yo'lida. -T.: "Fan va texnologiya", 2012. - 124 b.
2. Zimney, Michelle. "Abduh, Muhammad (1849–1905)". In Campo, Juan E. (ed.). *Encyclopedia of Islam. Encyclopedia of World Religions.* - New York: Facts On File, 2009. - Pp. 5–6.
3. Karim Vissa. 1798-1921 yillarda Misrda masonlik// Yaqin Sharq tadqiqotlari bo'yicha Britaniya jamiyati byulleteni, 16-jild, № 2, 1989.
4. Xuan R.I.Koul. Muhammad` Abduh va Rashid Rida: Bahoiy e'tiqodi bo'yicha suhbat// Jahon buyurtmasi jildi. 15,3-4 (bahor / yoz 1981). Pp.7-16.
5. Arthur Goldschmidt. *Biographical Dictionary of Modern Egypt*, Lynne Rienner Publishers, 2000. - P. 10.
6. Kedourie, E. Afghani and 'Abduh: An Essay on Religious Unbelief and Political Activism in Modern Islam. - London: Frank Cass, 1997.
7. von Kügelgen, Anke. Abduh, Muhammad. In Fleet, Kate; Krämer, Gudrun; Matringe, Denis; Nawas, John; Rowson, Everett K. (eds.). *Encyclopaedia of Islam, THREE*. Vol. 3. - Leiden and Boston: Brill Publishers, 2007.

²⁴⁰ von Kügelgen, Anke (2007). "'Abduh, Muhammad". In Fleet, Kate; Krämer, Gudrun; Matringe, Denis; Nawas, John; Rowson, Everett K. (eds.). *Encyclopaedia of Islam, THREE*. Vol. 3. Leiden and Boston: Brill Publishers.

8. Sedgwick Mark. Muhammad Abduh: Makers of the Muslim World. One World, 2013. - P. 56.
9. Kerr, Malcolm H. "Abduh Muhammad". In Hoiberg, Dale H. (ed.). Encyclopædia Britannica. Vol. I: A-ak Bayes (15th ed.). - Chicago, IL: Encyclopædia Britannica Inc, 2010. - Pp. 20–21
10. Ahmed H. Al-Rahim. Islom va Ozodlik// Demokratiya jurnali 17 (1), 2006. - Pp. 166-169.
11. Scharbrodt Oliver. "The Salafiyya and Sufism: Muhammad 'Abduh and his Risalat al-Waridat (Treatise on Mystical Inspirations)". Bulletin of the School of Oriental and African Studies, University of London, Cambridge University Press. 70 (1), 2007. – Pp. 89–115.
12. Malyukovskiy M.V. Misrdagi musulmon islohotining dastlabki bosqichi // Sharqshunoslik institutining ilmiy yozuvlari. T. XVII. - M., 1959.
13. Xurani Albert. Liberal davrda arabcha tafakkur. 1798-1939 yillar. - L.-N.Y.-Toronto, 1962.
14. Rida Rashid. Tarix al-ustoz al-imom ash-shayx Muhammad Abdo (Ustozimom shayx Muhammad Abdo hayoti haqida hikoya). T. 1. Qohira, 1931: T. 2, Qohira, 1939.
15. Abdo Muhammad. Risolat at-tavhid (Tavhid haqida risola). Qohira, hijriy 1346/
16. Abdo Muhammad. Al-islom va an-nasroniyya m 'a al-ilm va al-madaniyya (Islom va nasroniylik fan va sivilizatsiyaga qarshi). 3-nashr. Qohira, 1923. AlMisak. Qohira, 1962/
17. Adams Charls. Islam and Modernism in Egypt. – London, 1933.
18. Büssow Johann. "Muhammad 'Abduh: The Theology of Unity (Egypt, 1898)". In Bentlage, Björn; Eggert, Marion; Krämer, Hans-Martin; Reichmuth, Stefan (eds.). Religious Dynamics under the Impact of Imperialism and Colonialism. Numen Book Series. Vol. 154. - Leiden and Boston: Brill Publishers. 2016.

PROBLEM OF MAN IN WRITINGS OF ALBERT CAMUS

Ruzmatova Gulnoz Mirakhrarovna

Professor at the Department of Social Sciences, Faculty of Social Sciences,
“ALFRAGANUS UNIVERSITY” non-government higher education institution

Doctor of Philosophical Sciences

gulnoz68@mail.ru

ruzmatovagulnoz1968@gmail.com

+998 90 345 71 80

ORCID ID: 0000-0001-7046-1732

ABSTRACT

Philosophical thought in contemporary Western Europe have their own way of development. Both philosophical problems and the importance of man in it have their own solution in the thinking of Western thinkers. Among them, human philosophy of Albert Camus, his existentialism is one of the important topics. The work "The Rebel", which is considered to be the pinnacle of Camus's work, is analyzed. The problem of the absurdity of human life, which occupies the central place of the thinker's philosophical outlook, is analyzed in it. This problem is very complex. When a philosopher thinks about this and philosophizes, his worldview undergoes evolutionary changes. Philosophers solve this problem in different ways in different eras.

Key words: *philosophy of alienation, the Absurd, philosophy of man, existentialism, the rebel, meaning of life, meaninglessness.*

INTRODUCTION

The rise of Uzbekistan's independence to a new stage created great opportunities to study the philosophical heritage, to express an objective opinion on it, to restore universal values, to clear our ancient rich history from one-sided coverage, demarcation, from the wrong ideas and methods, such as denying the activity and service of certain process and scientists, to free-thinking. created the conditions. A wide and comprehensive study of the philosophical heritage, values of the past is necessary to reveal the stages and characteristics of the formation of the deep historical roots of the current spirituality, as it was repeatedly stated in the lectures of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev [1,23]. This, in turn, serves to form national consciousness, national pride, history, respect for the service of past generations, people's work, love for the homeland, the correct development of our new society, rational determination of the future, building a high democratic state.

It is no secret that the West has produced hundreds and thousands of philosophers, poets and writers, which has made a unique contribution to the development of world civilization and the development of philosophical thought. One such great thinker is Albert Camus. Albert Camus, the author of lifelong works, has become the soul mate of the world reader who considers himself cultured. In particular, many representatives of existentialism actively served in the path of spiritual purification and development of society, communicating with well-known figures and influencing them, along with creating a series of treatises on the inner world of man, which were widespread in Western Europe during this period. In this regard, Albert Camus' work and creativity are especially important.

LITERATURE REVIEW ON THE TOPIC

Russian researchers S.I. Velikovskiy [2], E.P. Kushkin [3], A.F. Zotov [4], S. Semenova [5], Y.K. Melville [6], etc. we can cite his works, researches, pamphlets, articles as an example. These studies reflect the great thinker's worldview, his teachings about man, and his social and moral legacy.

RESEARCH METHODOLOGY

Methods such as systems approach, theoretical-deductive conclusion, analysis and synthesis, historicity and logic, comparative analysis were used during the research.

ANALYSIS AND RESULTS

2. Ҳозирда Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 270-моддаси билан квалификация қилиниши мумкин бўлган терговга қадар текшириув ҳаракатлари давомида ҳодиса жойи кўздан кечирилиши ва ушбу тергов ҳаракатига мутахассис (агроном) жалб қилиниши амалиёти мавжуд. Ушбу жараёнга жалб қилинган мутахассис (агроном) ўсимликни кўздан кечириб, ушбу ўсимликга агротехник ишлов берилган ёки берилмаганлиги юзасидан маълумотнома тақдим этади ва кўздан кечириш баённомаси тўлдирилганидан сўнг, у билан танишиб, имзолайди. Ушбу ҳолатда мутахассис (агроном) ва гумонланувчи тариқасида ишга жалб қилиниши мумкин бўлган шахс ўртасида манфаат тўқнашуви юзага келган ҳолларда агротехник ишлов берилган ўсимликга мутахассис (агроном) томонидан ёлғондан ўсимликга агротехник ишлов берилмаганлиги ҳақида ёки шахсий адоват сабабли агротехник ишлов берилмаган ўсимликга мутахассис (агроном) томонидан ёлғондан ўсимликга агротехник ишлов берилганлиги ҳақида маълумотнома берилиши мумкин. Мазкур ҳолатни олдини олиш ҳамда жиноят содир этган шахсга нисбатан жазонинг муқаррарлигини таъминлаш мақсадида Республика Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг тақрибий тузилмаларидаги терговга қадар текшириув ҳаракатларига мутахассис (агроном) сифатида жалб қилинадиган ходимларини махсус ўқув курсларида ўқитиш ҳамда улар томонидан бериладиган “маълумотнома”ни “хулоса” кўринишида намунавий нусхасини тайёрлаб, ушбу хулосани тузган мутахассис (агроном)ни хулосанинг тўғри эканлигига жавобгарлигини белгилаш.

Хулоса ўрнида амалдаги Ўзбекистон Республикаси жиноят қонунларининг умумий жиноят назариясига асосланган ҳолатда тўғри тадбиқ этилиши, қонун чиқарувчи томонидан белгиланган нормаларнинг мазмун-моҳиятини тўғри англаниши Ўзбекистон Республикасида ягона суд амалиётини

жорий этилиши ҳамда ҳар бир шахсинг содир этган қилмиши учун инсонпарварлик тамойиллари асосида жазо тайинланишидаги ўрни беқиёс эканлигини алоҳида қайд этиб ўтиш лозим.

Фойдананилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси. Lex.uz.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 27 октябрдаги «Гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ва прекурсорларни Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириш, ундан олиб чиқиш ва транзит тарзида ўтказиш тартибини, шунингдек уларнинг муомалада бўлиши юзасидан назоратни такомиллаштириш тўғрисида» 2015 йил 12 ноябрдаги 330-сон қарорига ўзгартиришлар киритиш ҳақидаги 878-сонли қарори. Lex.uz.
3. М.Х. Рустамбаев Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шарҳлар. Махсус қисм. – Тошкент: “Адолат”, 2016. 801-809-б.
4. Халима Отабоева Qomus.info Online ensiklopediya.
5. БМТнинг “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларни ғайриқонуний равишда муомалага киритишга қарши кураш тўғрисида”ги конвенцияси (Вена, 1988 йил 20 декабрь, Ўзбекистон Республикаси мазкур Конвенцияга Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1995 йил 24 февралдаги 32-I-сонли қарорига мувофиқ қўшилган, Ўзбекистон Республикаси учун 1995 йил 22 ноябрдан кучга кирган)
6. Ўзбекистон Республикаси Жиноят процессуал кодекси. Lex.uz.
7. Ибрагимова Аминат Хизбуллаевна. Незаконное культивирование запрещенных к возделыванию растений, содержащих наркотические вещества (По материалам Республики Дагестан) : Дис. ... канд. юрид. наук : 12.00.08 Махачкала, 2003. РГБ ОД, 61:04-12/632. Dslib.net
8. Пожидаев Илья Евгеньевич. кандидат наук. тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 12.00.08, проблемы уголовно-правового противодействия незаконному культивированию растений, содержащих наркотические средства или психотропные вещества либо их прекурсоры. <https://www.dissercat.com>
9. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2017 йил 28 апрелдаги “Гиёҳвандлик воситалари, уларнинг аналоглари ва психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилишга оид жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги 12-сонли қарори, 19-банд

1960-YIL 27-MAYDA TURKIYADAGI HARBIY TO‘NTARISH: HARAKATLANTIRUVCHI KUCHLAR VA OQIBATLAR

Fayzullayev Adham Aktam o‘g‘li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

1950-yillarda muxolifatdagi hokimiyat tepasiga keldi, Adnan Menderes Bosh vazir bo‘ldi. Demokratik hukumat faol tashqi va ichki siyosat olib bordi. An’anaviy betaraflikdan voz kechgan Turkiya, NATO va SENTO harbiy bloklariga qo‘shildi. Hukumat jamiyat tayyor bo‘lmagan keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirdi, buning natijasida mamlakatda iqtisodiy inqiroz yuzaga keldi, uning eng xarakterli ko‘rinishi yuqori inflyatsiya bo‘ldi. Muxolifatning Respublika Xalq partiyasi rahbarlarini yakkalab qo‘yishga urinishi ularni armiyadan ittifoqchilar izlashga undadi. Bu vaqtga kelib zobitlar ongida mamlakatdagi vaziyatga nisbatan norozilik ostida 1960-yil 27-mayda bo‘lib o‘tgan harbiy to‘ntarish g‘oyasi paydo bo‘layotgan edi. To‘ntarish natijasida hokimiyat tepasiga generallar va Xalq partiyasi yetakchilaridan iborat Milliy Birlik Qo‘mitasi keldi. 1961-yilda referendumda mamlakatda qonun chiqaruvchi hokimiyat tizimini isloh qiluvchi yangi konstitutsiya qabul qilindi, shundan so‘ng hokimiyat yana fuqarolik siyosiy institutlariga o‘tdi. To‘ntarishni amalga oshirgan harbiylar yetakchisi general Jemal Gursel bosh vazir lavozimini egalladi, Ismet Inenyu esa Turkiya prezidenti bo‘ldi. Shu asnodda mazkur maqolada Turkiyada 1960-yil 27-maydagi bo‘lib o‘tgan harbiy to‘ntarish sabablari va oqibatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: 27-may to‘ntarishi, Demokratik partiya va harbiylar, siyosiy o‘zgarishlar.

ВОЕННЫЙ ПЕРЕВОРОТ В ТУРЦИИ 27 МАЯ 1960 ГОДА: ДВИЖУЩИЕ СИЛЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ

Адхам Актамович Файзуллаев

Студент, Ташкентский государственный университет востоковедения

АННОТАЦИЯ

В 1950-е годы к власти пришла оппозиционная Демократическая партия, а премьер-министром стал Аднан Мендерес. Демократическое правительство проводило активную внешнюю и внутреннюю политику. Турция отказалась от

традиционного нейтралитета и присоединилась к военным блокам НАТО и SENTO. Правительство осуществило масштабные реформы, к которым общество не было готово, в результате чего в стране произошел экономический кризис, наиболее характерным проявлением которого стала высокая инфляция. Пытаясь изолировать оппозицию, особенно лидеров Народно-республиканской партии, демократы поощряли их искать союзников в армии, а среди офицеров возникла идея военного переворота 27 мая 1960 года. были недовольны ситуацией в стране. В результате переворота к власти пришел Комитет национального единства, состоящий из генералов и лидеров Народной партии. В 1961 году на референдуме была принята новая конституция, реформирующая систему законодательной власти страны, после чего власть была передана обратно гражданским политическим институтам. Премьер-министром стал военачальник, совершивший переворот, генерал Джемаль Гюрсель, а президентом Турции стал Исмет Иненю. В данной статье анализируются причины и последствия военного переворота, произошедшего в Турции 27 мая 1960 года.

Ключевые слова: *Переворот 27 мая, Демократическая партия и военные, политические изменения.*

THE MILITARY COUP IN TURKEY ON MAY 27, 1960: DRIVING FORCES AND CONSEQUENCES

Adham A. Fayzullayev

student, Tashkent State University of Oriental Studies

ABSTRACT

In the 1950s, the opposition Democratic Party came to power, and Adnan Menderes became Prime Minister. The democratic government conducted an active foreign and domestic policy. Turkey renounced its traditional neutrality and joined NATO and SENTO military blocs. The government implemented large-scale reforms for which the society was not ready, as a result of which an economic crisis occurred in the country, the most characteristic manifestation of which was high inflation. By trying to isolate the opposition, especially the leaders of the Republican People's Party, the democrats encouraged them to look for allies in the army, and the idea of a military coup on May 27, 1960 arose among the officers, who were dissatisfied with the situation in the country. As a result of the coup, the National Unity Committee, consisting of generals and leaders of the People's Party, came to power. In 1961, a

referendum adopted a new constitution reforming the country's legislative power system, after which power returned to civilian political institutions. General Cemal Gursel, the military leader who carried out the coup, became the prime minister, and Ismet Inenyu became the president of Turkey. This article analyzes the causes and consequences of the military coup that took place in Turkey on May 27, 1960.

Key words: *The May 27 coup, the Democratic Party and the military, political changes.*

KIRISH (INTRODUCTION)

Yaqin Sharq arab davlatlarida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, davlatning yaxlitligi, osoyishtaligi va barqarorligini saqlashda hamda uning suverenitetini mudofaa qilishda qurolli kuchlar alohida o'rin tutadi. Qurolli kuchlar haqida gap ketar ekan, ularning ahamiyati yolg'iz Yaqin Sharq davlatlari taqdiri bilan bog'liq bo'lib qolmay, keng ko'lamdagi butun jahonda xavfsizlik va barqarorlik masalalariga bog'lanib ketadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Yaqin Sharq mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy hayotida armiyaning o'rni va roli, milliy qurolli kuchlarning modernizatsiya jarayonlari hamda ularning mamlakat iqtisodiyoti va siyosatiga ta'sir darajasini o'rganish bugungi kunning dolzarb mavzularidan bo'lib, bu masalalarni mintaqa bo'yicha yaxlit va mamlakatlar bo'yicha qunt bilan alohida-alohida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Usmonlilar imperiyasi parchalanganidan keyin Mustafo Kamol Otaturk boshchiligidagi harbiylar Turkiya Respublikasini demokratik va dunyoviy tamoyillar asosida barpo etdi. Turkiyadagi harbiy inqiloblar asosan Otaturk ishlab chiqqan tamoyillarni himoya qilish va mamlakatda "dunyoviy" va "huquqiy" davlat qurilishini nazorat qilish uchun amalga oshirilgan edi.

Dunyoviy davlat qurulishida katta hissaga ega bo'lgan harbiylar XX asrning ikkinchi yarmiga kelib o'zlarini davlatning va Otaturk tamoyillarining himoyachisi sifatida ko'rishni boshlashdi. Otaturk va Inenyu davrida siyosatga aralashmagan harbiylar, ko'p partiyaviylikka o'tilgandan so'ng bunga bevosita aralasha boshlashdi. Bu harakatlar oxir-oqibat 1960-yilgi to'ntarishga olib keldi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (LITERATURE REVIEW)

Bir qator olimlar – A.Abdulvahap, N.G.Kiryev, M.Kabasakal, R.R.Kadirov, L.Borkluog'lu, A.M.Mohamed, A.V.Bedrik, M.Sh.Tovsultanova, S.Aliyeva, G.I.Mirskiy, A.D.Vasilov, H.Akay, S.Bicher, A.Osman, J.K.Sertach H.Uyarlarning ishlarida Turkiyaning ijtimoiy-siyosiy hayotida harbiylar omili, Qurolli kuchlarning

davlat ichki va tashqi siyosatidagi roli, harbiy to'ntarishlarning sabab va natijalari kabi masalalar yoritilgan.

Maqola umumqabul qilingan tarixiy metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, davriy izchillik kabi metodlardan foydalanildi. Shuningdek, mavzu bo'yicha izlanish olib borgan olimlarning tadqiqotlari o'rganildi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

1950-yilda Demokratik partiya tomonidan armiyada tozalashning amalga oshirilganligi harbiylar va Demokratik partiya o'rtasidagi ziddiyatga sabab bo'ldi. Biroq, keskinliklarning oshishiga 1954-yildan keyingi o'zgarishlarning ta'siri katta bo'ldi deb aytish mumkin. Shu davrdan boshlab qo'shin tarkibida norozi bo'lgan qatlam shakllana boshladi. Xalq Demokratik partiyani qo'llamay qo'ydi. Buning asosiy sababi iqtisodiyotdagi buzilishlar edi. Yuqorilab borayotgan inflyatsiya, shahar aholisi, armiya va davlat tizimidagi fuqarolarning moddiy ahvoriga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Matbuotda tanqidlar yangray boshladi. Quyida norozilik sabablaridan bir qanchasini sanab o'tamiz:

1. Devalvatsiya bilan iqtisodiy inqiroz (dollar 2,80 dan 9 TL gacha) Inflyatsion soliq siyosati va yashashning qimmatlashishi;
2. 2.1. Qora bozor;
3. Rejadan tashqari investitsiya siyosati va korrupsiya;
4. Qonun ustuvorligi tamoyillaridan uzoqlashib, partiyaviy hokimiyatni o'rnatish;
 - 4.1. 1955 yil 6-7 sentyabr voqealari;
 - 4.2. Konstitutsiyani buzish;
 - 4.3. Tergov komissiyasi;
 - 4.4. Kirshehirni tumanga aylantirish, Malatyani ikkiga bo'lish;
5. Ziyolilar, jurnalistlar va universitetlarga bosim, cheklovlar, tutqunlik, qamoq jazolari;
6. Qonun chiqaruvchi organ o'z kuchini va qonuniyligini yo'qotishi va ijro etuvchi organning ta'siriga tushishi[2].

Noroziliklar to'liqini bilan birga mamlakatda a'zolaridan faqatgina General Gursel tanish bo'lgan harbiylardan tashkil topgan guruh paydo bo'ldi. Adnan Menderes siyosatchilar sodiqligiga qattiq ishonar edi. U shu vaqtgacha befarq bo'lib kelgan harbiylarning siyosatga aralashmaydi deb o'yladi va bu uning katta xatosi edi.

1960-yil Turkiyaning siyosiy va ijtimoiy keskinlik eng yuqori cho'qqisiga chiqqan bir davri edi. Universitet talabalari ko'chalarga namoyishga chiqdi. 1960-yil 20-aprelda Istanbul universitetining talabalari ommaviy jabr-zulmga qarshi norozilik belgisi sifatida o'tkazishgan mitingga qarshi politsiya qurol ishlatdi. Tinch

namoyishning o'qqa tutilishi xalqning g'azabini uyg'otdi va norozilik arznomalari kela boshladi. Mamlakatdagi siyosiy vaziyat keskinlashganligi tufayli favqulodda holat e'lon qilindi. Shunday bir beqaror vaziyatda Qurolli kuchlar 1960-yil 27-may kuni davlat to'ntarishini boshlab yubordi. Inenyu tarafdori bo'lgan bir nechta general Demokratik partiyani hokimiyatdan tushirish, siyosiy va iqtisodiy muammolarni hal etish, mamlakatni va demokratiyani saqlab qolishning birdan-bir yechimi ekanligini anglab, ushbu qarorni qabul qilgan edilar[3]. Shu asnoda 27-may sanasida harbiylarning amalga oshirgan davlat to'ntarishi keng jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlandi va bu qon to'kilishini oldini oldi. Yashirin harbiy tashkilot o'zining sodiq qo'shinlariga tayanib, barcha gubernatorlar, prezident Boyar, bosh vazir Menderesni hamda Demokratik partiyaning majlisidagi 400 deputatni qamoqqa oldi. Anqaradagi hukumat binolari egallandi. Istanbul va boshqa shaharlarda Milliy Hamjihatlik Qo'mitasi tuzildi va bu qo'mita davlat boshqaruvini o'z qo'lga oldi. Qo'mita va u tuzgan Muvaqqat hukumatga Gursel rahbarlik qildi.

1960-yil 27-mayda general Gursel Izmiridan Anqaraga yetib keldi. Anqarada joylashgan to'ntarishga mo'ljallangan markazga tashqi ishlar vaziri bosh kotibi Salim Sarper ham yetib keldi. Generallar Turkiya hududida siyosiy parokandalik yuz bergan taqdirda AQShni Turkiyaning ichki ishlariga harbiy kuch bilan aralashishidan havotirda edilar. Selim Sarper generallarni tinchlantirib AQShni Turkiya ichki ishlariga aralashmasligiga ishontirdi. Shuning uchun davlat to'ntarishi o'tkazilgan ilk kundanoq Turkiyaning NATO, SENTO va boshqa xalqaro tashkilotlar oldidagi mas'uliyatni his qilishi va talablarni to'la bajarishi va sadoqati haqida radio orqali e'lon qilinib borildi. Chetga diplomatik aloqalar o'rnatish maqsadida yuborilgan Demokratik partiya diplomatlarining barchasi chaqirib lavozimidan olindi. Siyosiy partiyalar faoliyati taqiqlanib, ilgarigi hukumat chiqargan barcha qonunlar bekor qilindi[4].

Shunday qilib, 1960-yilning 27-mayida armiya boshchiligida Otaturk prinsiplariga qaytish shiori ostida davlat to'ntarishi muvaffaqiyatli bajarildi. Hokimiyat to'ntarish o'tkazgan yangi tashkilot — Milliy Birlik Qo'mitasi (MBQ) qo'lga o'tdi. Mamlakatning vaqtinchalik konstitutsiyasi (1961-yilning 9-iyulgacha) qabul qilindi. Unga ko'ra, MBQ oliy qonun chiqaruvchi organ deb e'lon qilindi. Unga J. Gursel raislik qildi va vaqtinchalik hukumatni ham boshqardi. 1960-yilning 14-oktabrida hukumatning sobiq a'zolaridan bosh vazir A. Menderes hamda sobiq prezident J. Boyar ustidan sud jarayoni boshlandi²⁴⁹. Ularga konstitutsiyani buzish, xalq namoyishlarini shafqatsizlarcha bostirish va 1955-yilning sentabrida Istanbulda greklarga qarshi qilingan harakatni tashkil qilish kabi ayblar qo'yildi[4].

NATIJARLAR (RESULTS)

Vaqtinchalik hukumatni shakllantirish uchun MBQ nazorati ostida 28-may kuni 3 general va 15 ta oddiy fuqaro hukumatga kiritildi. Jamol Gursel bosh vazir lavozimini egalladi va milliy mudofaa vaziri bo'ldi. Tez orada yangi konstitutsiya matnini tuzish bo'yicha komissiya tuzildi. Bu komessiya tarkibiga mashhur va obro'li professorlar kiritildi va ular konstitutsiya loyihasini tayyorlashdi[5]. 27-maydagi to'ntarishdan keyin prezident Jalol Boyar, bosh vazir Adnan Menderes, hukumat a'zolari va muhim qo'mondonlardan biri bo'lgan Alu Fuat Jebesoy ham bo'lgan Demokratik Partiya deputatlari, partiya boshqaruvchilari, askarlar va ba'zi yuqori darajadagi jamoat tashkilotlari vakillari qo'lga olinib Yassi orolidaga harbiy turmaga jo'natildi. Yassi orolida sud 1960-yil 14-oktabrda boshlandi va 1961-yil 15-sentabrgacha davom etdi. Sud qarori bilan 15 kishi o'limga hukm qilindi[6].

1961-yilning 27-mayida Ta'sis majlisi konstitutsiyaning yangi matnini qabul qildi va uni referendumga qo'ydi. Referendum 9-iyulda amalga oshirildi va unda 10.3 mln kishi qatnashdi. Yangi konstitutsiya Senatni tikladi. Endi Turkiya Buyuk Millat Majlisi ikki palatadan Milliy palata va Senatdan iborat bo'ldi. Milliy palata – 450 kishidan, senat 150 a'zodan iborat bo'ldi. Senatning asosiy vazifasi – Milliy palata ustidan nazorat olib borish edi. President 7 yillik muddatga saylanardi va Milliy palata deputatlari orasidan 40 yoshga to'lgan va oliy ma'lumotga ega bo'lishi shart edi. Prezident ikki palata qabul qilgan qonunni ikkinchi bor ko'rib chiqish uchun qaytarish, bosh vazirni ta'yinlash, konstitutsiyaga binoan Milliy palatani tarqatish, yangi saylovlar qabul qilish kabi huquqlarga ega edi. U bir vaqtning o'zida qurolli kuchlar bosh qo'mondoni hisoblanar edi. Vazirlar Kengashi Milliy palata oldida kollektiv ma'suliyatga ega edi. Yangi konstitutsiyaga binoan Konstitutsion sud joriy etildi. Uning vazifasiga majlis qabul qilgan qonunlar konstitutsiyaga muvofiq bo'lishini nazorat qilish, prezident va vazirlar ustidan sud nazoratini o'rnatishdan iborat edi. Konstitutsiyaning alohida bo'limlaridan davlat majburiyatlari belgilab berildi[7]. Bu majburiyatlar quyidagilardan iborat :

- ishchilarni normal mehnat sharoiti bilan ta'minlash;
- bolalar va ayollar mehnatini himoya qilish;
- bayramlarda va har yilgi pullik dam olish kunlarini ta'minlash;
- kasaba uyushmalari tuzish huquqini berish;
- namoyish o'tkazish huquqi va boshqalar.

Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asosini yaratish ehtiyoji tufayli 1965-yilda siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Mazkur huquqiy asos davlatning siyosiy partiyalar ustidan nazoratini taminladi. Ma'lumki, har bir siyosiy partiyaning tarixiy asosi va kelajakdagi vorisi bo'ladi. Ragip Gumushpala tomonidan

tashkil etilgan liberal va konservativ g'oyalarni targ'ib etuvchi Adolat partiyasi (AP) Demokratik partiyaning vorisi sifatida faoliyat olib bordi. 1961-yildagi saylovlarda AP 34.8% ovoz oldi va Respublika xalq partiyasi bilan birga Turkiya tarixidagi ilk koalitsion hukumatni tashkil etdi[8].

1961-yilgi konstitutsiya amalda 1924-yilgi konstitutsiyadan farq qilar edi. Yangi Konstitutsiya Turkiya Respublikasini siyosiy partiyalar va boshqa demokratik erkinliklarni barpo etish huquqini tasdiqlovchi, milliy demokratik, dunyoviy, ijtimoiy va huquqiy – davlat deb e'lon qildi. Shunday qilib yangi konstitutsiya, boshqaruv shaklining respublika, dunyoviy, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati mustaqilligini, vakillik organlarining tanlanishi va o'zgarishini tasdiqladi. Konstitutsiya ijro hokimiyatini kuchaytirib yubordi, TBMM tuzilishini o'zgartirdi. Mulkchilik masalalariga, iqtisodiyotga davlat aralashuvi alohida bo'limga berildi. Ijtimoiy – iqtisodiy hayotga davlatning keng aralashuvini e'tirof qilish, shubhasiz, Turkiya rivojlanish darajasi klassik shakldan farq qilishidan dalolatdir, ya'ni o'zida g'arb burjua tizimini namoyish etgan edi. 1961-yilgi konstitutsiyaning o'ziga xosligi shunda ediki, Turkiya sharoitida ijtimoiy qatlamda byurokratiya va chinovniklarning barcha darajalari ko'rsatib o'tilgan edi. Mamlakatda 1961-yil 24-sentyabrda saylovlarga quyidagi rasman to'rtta partiya saylovoldi kampaniyani boshladi: Xalq Respublika Partiyasi (JXP), Adolat Partiyasi (AP), kam sonli – Yangi Turkiya Partiyasi (YTOP) va Respublika Qishloq Milliy Partiyasi (RQMP). Prezident va boshqa rahbarlarni saylash bilan bog'liq qiyinchiliklar paydo bo'ldi. Harbiylar aralashuvidan keyingina J. Gursel Turkiya prezidenti etib saylandi, hukumat raisi lavozimiga JXP rahbari I. Inenyu tayinlandi [9].

1961-1965-yillar Turkiyaning kelgusi taraqqiyot yo'li xususida keskin siyosiy kurashlar yillari bo'ldi. Bu davrda 4 marta hukumat almashdi. Nihoyat, 1965-yildagi parlament saylovida Adolat partiyasi g'alaba qozondi. Bu partiya bug'doyning narxi ko'tarilmasligini dehqonlarga va'da qildi, diniy qatlamning ko'magi ostida kurdlarning qo'llab quvvatlashiga erishdi[10].

1960-yillarning oxirlarida butun dunyoda bo'lganidek, Turkiyada ham talabalar harakatlari, ishchi mitinglari keng qanot yozdi. Bundan tashqari mamlakat ichki siyosatiga Amerikaning aralashuvi kuchaydi. Mamlakatning ham iqtisodiy, ham siyosiy sohalarida tarang vaziyati yuzaga keldi. Bu jarayonlar natijasida mamlakat va Otaturk g'oyalarining himoyachisi bo'lgan armiya yana mamlakatning boshqaruv masalasida o'z so'zini ayta boshladi[11].

Harbiy to'ntarishdan harbiylar xohlaganicha hukumat tuzgan bo'lsa ham kelishmovchiliklar hali ham tugamagan edi. Chunki harbiylarning ichida ham turli qarashdagilari mavjud edi. Masalan harbiy maktab boshlig'i Ta'lat Aydemir bir

necha bor 60-yillarda harbiy to‘ntarish qilishga harakat qiladi, lekin bu boshqa harbiy tashkilotlar tomonida to‘xtatib qolindi. Harbiy to‘ntarishni amalga oshirgan harbiylar hech qachon jazoga tortilmas edi. Ular nafaqaga qadar ishlar, keyin esa siyosiy partiyalarda o‘z faoliyatini davom etirar edi.

1960-yilgi harbiy to‘ntarish Turkiya siyosiy tarixida burilish nuqtasi bo‘ldi. Davlat to‘ntarishi ortidan sobiq hukumat a‘zolari sud qilindi, ba‘zilari qatl qilindi. 1961-yilda yangi konstitutsiya tayyorlanib, referendumga qo‘yildi. Bu konstitutsiya Turkiyani ko‘ppartiyaviy demokratik tizimga o‘tishga yo‘naltirdi. Quyida 27-may harbiy to‘ntarishi natijalar keltirilgan:

1 Bu harbiy to‘ntarishlar ibtidosi bo‘ldi va keyingi to‘ntarishlar an‘anasiga yo‘l ochdi;

2 Sud jarayonlarining siyosiy lashishiga olib keldi. Bungacha sudlar bosim ostida, qasos quroli vazifasini bajarayotgan edi;

3 Qatl (Menderes, Po‘latkan, Zorlu) yana bir bor ijtimoiy qutblanishni qo‘zg‘atdi;

4 1961-yil Konstitutsiyasi qabul qilindi. So‘z yuritilayotgan konstitutsiya Turkiya tarixidagi eng liberal konstitutsiya bo‘lsa-da, joriy qilingan tartib bilan oldingi davrdagi kabi holatda edi. Bu o‘zi bilan yangi muammolarni keltirib chiqardi;

4.1 Vakolatlarning keskin bo‘linishi;

4.2 Parlament ustunligi tizimi o‘rniga konstitutsiyaning ustunlik tizimi: Konstitutsiyaviy sud;

4.3 Ikkilik parlament tizimi: Milliy Assambleya + Senat: TBMM.

5 Rejali iqtisodiyot uchun DPT tashkil etilishi;

6 Armiyaning siyosatdagi ta‘sirining kuchayishi, yangi davlat to‘ntarishiga urinishlar;

7 MGKning tashkil etilishi va armiyaning siyosatdagi ta‘sirini institutsional ravishda oshishi[12].

To‘ntarishning muhim oqibatlaridan biri harbiy kuchning siyosiy sohada ta‘sirchan rol o‘ynashda davom etishi edi. Turk Qurolli Kuchlari to‘ntarishdan keyingi davrda siyosiy jarayonga aralashish vakolatiga ega bo‘ldi va bu vakolatdan mamlakat barqarorligini ta‘minlash uchun vaqti-vaqti bilan foydalandi.

XULOSA (CONCLUSION)

Mavzuni o‘rganish davomida kishida beixtiyor nega aynan harbiylar to‘ntarish tashkilotchisi bo‘lgan degan fikr uyg‘onadi. Shu o‘ringa bir qancha faktlarni keltirib o‘tamiz. Bizga ma‘lumki harbiylar azal – azaldan mamlakat boshqaruvida va ijtimoiy

– siyosiy hayotida yetakchi bo‘lgan. Bundan tashqari jamiyatning harbiylar bo‘g‘inida to‘ntarish o‘tkazish uchun kuch ham jasorat ham yetarli edi. Turkiyada armiya Otaturk tamoyillarining himoyachisi bo‘lishi bilan birga, demokratiyaning tayanchi ham hisoblanadi. Albatta Turkiyada harbiy to‘ntarishlar o‘tkazilgandan keyin demokratik islohotlar davom ettiriladi. Misol uchun 1961-yilgi umumiy saylovlar oxirida Prezident J.Gursel hukumatni shakllantirish vazifasini eng ko‘p ovoz olgan Respublika Xalq partiyasi raisi sifatida I.Inenyuga beradi va natijada Turkiya parlamenti tarixidagi birinchi koalitsion hukumat Respublika Xalq partiyasi va Adolat partiyasi o‘rtasida tashkil etiladi.

1961-yilda mamlakatning yangi konstitutsiyasi qabul qilinadi, siyosiy partiyalar tuzilishiga ruxsat beriladi. Qolaversa mamlakat aholisining turmush darajasi oshadi. Inflyatsiya darajasi tushadi. Qishloq xo‘jaligi, tekstil, energetika sohalarida bir qancha amaliy islohotlar o‘tkaziladi. Shu sababli bu to‘ntarishlarning ahamiyati juda katta.

Turkiyaning yangi tarixida 1960-yilgi harbiy to‘ntarish mamlakatning siyosiy va ijtimoiy tuzilishidagi muhim burilish nuqtasidir. To‘ntaruvdan so‘ng demokratik tuzumning o‘rnatilishi va konstitutsiyaning yangilanishi Turkiyaning siyosiy tizimini shakllantirishda samarali bo‘ldi. Biroq harbiy aralashuvlarning doimiy takrorlanishi mamlakatdagi demokratik jarayonlarning beqarorligiga va ijtimoiy keskinlikka olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бедрик А.В, Волошина Е.Е, Губарев И.В. Турецкий политический процесс в 1960-Х – начале 1970-Х Гг.: Попытки реинтеграции ислама в Кемалистскую модель государства. – Кировский р, РИНХ, 2018. – С. 36.
2. Hakkı U. Türkiye’de askeri darbeler ve nedenleri üzerine bir analiz denemesi. – Izmir, Dokuz Eylül Üniversitesi. Çağdaş Türkiye tarihi araştırmaları dergisi, 2020. – S. 86.
3. Киреев Н.Г. История Турции: XX век. М.: Крафт+, ИВ РАН, 2007. –С. 305
4. O‘sha manba. – С. 308.
5. Demiriz M. Askeri darbeler ve Türk dış politikası. – Ankara, Atilim üniversitesi, Sosyal Bilimler enstitüsü, 2011. –S. 48-49.
6. Yiğit E.S. 27 mayis 1960 darbesi sonrası çok partili hayata geçiş sürecinin ve 1961 seçimlerinin basına yansimasi. – Yozgat, Yozgat Bozok üniversitesi sosyal bilimler enstitüsü tarih anabilim dalı, 2019. – S. 47.
7. Abdulvahap A. Türkiye’nin Darbe Geleneği: 1960 ve 1971 Müdahaleleri. – Eskişehir, Osmangazi Üniversitesi IIBF Dergisi, 2014. – S. 61-62.

8. Özgül B. Seçim ve Seçim Sistemleri, Türkiye'deki Seçim Sistemi Uygulamaları. – Isparta, 2002, - S. 121.
9. Gökçen. S. İki darbe arası türk demokrasisi. – Anqara, Ankara Üniversitesi Türk Inkılâp tarihi Enstitüsü Atatürk Yolu Dergisi, 2020. – S.244-245.
10. Kasapsaraçoğlu M. Soğuk avaş döneminde Türkiye'de yapılan askeri darbeler ve ABD. – Antalya, Bilim Üniversitesi Siyaset Bilimi ve Uluslararası İlişkiler Bölümü. Gaziantep University Journal of Social Sciences. - 2020. – S.
11. Abdulvahap A. Türkiye'nin Darbe Geleneği: 1960 ve 1971 Müdahaleleri. – Eskişehir, Osmangazi Üniversitesi IIBF Dergisi, 2014. – S. 60-61.
12. Hakkı U. Türkiye'de askeri darbeler ve nedenleri üzerine bir analiz denemesi. – Izmir, Dokuz Eylül Üniversitesi. Çağdaş Türkiye tarihi araştırmaları dergisi, 2020. – S. 87.
13. Onaran.B. İhtilalci ve tarih: Talât Aydemir'in hatıratında zaman ve siyaset, - Istanbul, Mimar Sinan Güzel Sanatlar Üniversitesi, 2022. –S.64.

LIFE GIVEN TO PEOPLE

L.S.Yuldasheva

PhD., philosophy sciences, Tashkent State Dental Institute

ABSTRACT

This article devoted to the philosophical views of the scholar Abu Ali Ibn Sina, including mental potential, its impact on the functioning of the soul, and the four stages of the soul.

Keywords: *universe, mental potential, soul activity, divine spirit, ideal man.*

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена философским взглядам ученого Абу Али ибн Сины, в том числе умственному потенциалу, его влиянию на функционирование души и четырем стадиям развития души.

Ключевые слова: *Вселенная, психический потенциал, деятельность души, божественный дух, идеальный человек.*

INTRODUCTION

Mankind knows and respects Ibn Sina Abu Ali al-Husayn ibn Abdullah ibn al-Hasan ibn Ali - the highest peak of world culture, one of the great figures of the early Renaissance. The works of the encyclopedic scholar have to enumerate all the sciences known in the Middle Ages. This rich scientific and spiritual heritage of the scholar deserves the great title of "Shaykhur-Rais" (Chairman of Scholars) for his great contribution to world civilization.

According to Ibn Sina, philosophy is the science of existence. And existence is eternal. The eternal existence of the universe in turn is due to the fact that the universe has its own eternal cause and eternal driving force. So, the eternal driving force, that is, God, is the basis of any movement, development. The essence of everything is matter, matter manifests itself in various forms. Just as a body is not without matter, matter is not without form. Hence, according to the scientist, just as the body and its form are inseparable, so matter and form are inseparable. Matter is related to motion, space and time.

According to Ibn Sina, everything has a cause and effect, and nothing in the human world and event in the universe does not happen by itself, without a cause. "Knowing everything," he said, "if there are causes for those things, you must first know them." In medicine it is necessary to know the causes of health and disease.

Health, illness and their causes are sometimes evident and sometimes secret, and are achieved not by feeling, but by reason, thinking based on signs."²⁵⁰

Ibn Sina believed that each person is a special world, that he is independent and unique. At the same time, he is unlike any other. This means that each person has his own spiritual world, his own spiritual power. A spiritually alive, spiritually energetic person will be active and strong-willed. He can protect himself in any conflicts. Of course, the mind also plays an important role in this. The power of the human mind is that it acquires its own position and prestige, in a word, its essence is in the mind. The mind defines man. Only the mind separates pleasure and suffering, restrains passions, and prevents the development of bad habits. Only an intelligent and virtuous person deserves the highest level of respect.

MATERIALS AND METHODS

When thinking about the universe and man, Abu Ali ibn Sina used the word "Ma'ad" in his work "Al-Ishrah" - "Enlightenment". According to him, ma'ad is a place. Ma'ad is the first place of things and situations, and things and situations leave this place and then return to it. In his teaching, the soul is eternal, the body is changeable, the material world-body lives its life and disappears, and the soul leaves one body and settles in another. In this sense, the life of the soul is long and infinite. It has an infinite rotational motion. This is defined in philosophical thinking as incarnation and reincarnation.

Answering the question of what the soul is, the great thinker said, "The soul is in the body, but not the state of the body. He concluded that, the soul is the life dynamism for the body, it moves it, it drives the blood in the arteries, it mobilizes all the organs."²⁵¹

Ibn Sina, while talking about the state of the soul, the laws of its motion, put forward his own philosophical views and absolutely unique principles. In particular, the ma'ad is the space and state of the soul, and after the soul leaves the body, it returns to its original state and space. Such a circular motion was expressed by the thinker before and after, in the form of beginning and end. When the body dies, the soul resides in another space. Continuing his thought, the essence of the soul is light, and the soul is irradiated in the state of ma'ad, but all souls are divided into four stages because of their diversity.

²⁵⁰ Abu Ali ibn Sina. The Canon of Medicine. 1-book. Tashkent, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, 1954 5-6pp.

²⁵¹ Qabulniyazova G.T. The human problem in the philosophy of life of the thinkers F. Nietzsche and A. Bergson. Institute of Philosophy and Law - T.: 2010 35 p.

The soul of the first stage is the soul of people who strive for perfection in this life. The stronger the physical and material barriers in the lives of these people, the stronger their quest for perfection. The souls at this stage are the souls who have attained perfection in life on earth, overcoming the feelings of the body such as lust and greed. The place of these souls in that world is heaven. In the state of ma'ad, these souls radiate and become light themselves. Ibn Sina called these souls radiant souls.

The souls in the second stage are the souls who know the way of truth and purification. But they cannot fight the feelings of lust and greed in their bodies. Souls at this stage suffer because they have not attained perfection in life on earth. These souls, after being separated from the body, receive the blessings of Allah and ascend.

The souls of the third stage are the souls of human beings who do no harm to anyone but do not strive for perfection. This state of souls is reminiscent of the state of straw that revolves around the whirlpool of life. The condition of souls who do not strive for perfection is miserable, they are forced to suffer in the whirlpool of life. In the state of ma'ad, these souls will not have a place in Paradise, but they will also be free from the torments of Hell. Their place is purgatory.

The thinker described the souls in the fourth stage as sinful souls. The souls at this stage are the souls of sinful people who have done evil and violence during their lifetime. All the evils they have done in the state of ma'ad will return to themselves. This means that not only the soul but also all the good and bad things he does will enter the state of ma'ad. In this regard, the words of the great thinker, our ancestor Abu Nasr al-Farabi, "The essence of man is in the mind, the essence of the mind is in action," were justified. Indeed, the human essence of man is in the mind. His character, his behavior, occurs within the realm of the mind. In other words, the mind cannot be held by the hand and seen by the eye. Man thinks, reacts, and acts within his mind. Only it develops, is formed, is filled with power through the soul.

RESULT AND DISCUSSION

According to Ibn Sina, the human soul is self-aware at a high stage of development and, as a result, becomes an active mind. The active mind is the activity of the soul, and it is completely different from the individual mind in its state of reflecting the external world. Through the active mind, the human soul is connected to the universal soul, and the human soul attains the vision of the universal soul. Hence, the active mind is not a reflection, but the power of will and love to reach the vision of the beloved, that is, the vision of God.

The more the soul understands itself, the more spiritually it understands itself. It is in this process that he perfects, develops and becomes a fully mature and well-rounded, active and creative person. During the process of self-improvement of the soul, the process of development and fullness of the soul, the man-human-person formula finds its solution. In other words, a helpless, mentally retarded, insensitive, empty-hearted, weak-minded person becomes an active member of society through the soul and spirit, the highest value of being human. He becomes an honorable and respectable person who realizes his inner creativity, inventiveness potential, and is able to organize his own life.

If this process endures continuously and effectively, a person will become a social activist who will be able to attract the attention of the public and find solutions to important and pressing problems of society, as his life experience will be enriched, his worldview will expand and his intellectual potential will increase. For this, it is important for a person to choose the path of goodness, to show more of his mental potential under the influence of soul and spirit.

According to the scholar, the pursuit of goodness is the essence of human life and the essence of the soul, which is the life energy. As the soul passes from this mortal world to the eternal world, it returns to its original space, and the soul that has attained perfection in this space joins the universal mind, the universal spirit. As a result of this union, the human soul becomes light and ascends to the level of an angel. Thus, Ibn Sina considers the active mind to be the activity of the higher stage of the soul.

CONCLUSION

Such views of the scholar are inherent in Eastern philosophy. The study of the rich scientific and spiritual heritage of Abu Ali ibn Sina has gained momentum to this day, and the science of sinology has developed extensively. "The Canon of Medicine" is published in almost all leading countries of the world in their native language and are widely used in traditional medicine and alternative medicine. The holding of international scientific and practical conferences on alternative medicine in Uzbekistan is a bright confirmation of our opinion.

The establishment of international Ibn Sina centers, foundations, the publication of scientific journals related to the name of the scientist. As well as the naming of cities, villages, hospitals, sanatoriums, schools, libraries, and the establishment of the Republican State Prize named after Ibn Sina and scholarships is a testament to the importance of the rich scientific heritage created by our great ancestor. The great rich spiritual and scientific heritage of Abu Ali Ibn Sina, whose name is attached to world civilization and advancement, lives on for centuries and generations.

REFERENCES

1. Abu Ali ibn Sina. The Canon of Medicine.1-book. Tashkent, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, 1954.
2. Ancient and medieval Western European philosophy. T. Sharq. 2003.
3. Yuldasheva, L.S.. "THE SPIRITUAL WORLD OF EVERY INDIVIDUAL IS HIS SPIRITUAL POWER" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 3, no. 2, 2023, pp. 666-670.
4. Juraev N.Q. Nietzsche perception. T.Yangi asr avlodi. 2015.
5. Юлдашева, Л.С. (2023). МУХАММАД ИҚБОЛ ДУНЁҚАРАШИДА ИНСОН МУАММОСИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (5), 781-785.

ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ – ИСЛОҲОТЛАРНИНГ БОШ МАҚСАДИ

Темирова Светлана Владимировна

«Халқаро оммавий ҳуқуқ» кафедраси катта ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Олий таълимда таълим сифатини ошириш – ислоҳотларнинг бош мақсади шунингдек ушбу ислоҳотларнинг бугунги кундаги аҳамияти ҳамда Замонавий жамият, педагогик усуллар, илғор технологиялар, анъанавий дарс технологияси, лойиҳалаштирилган таълим, шахснинг ривожланиши, таълим технологияси, таълимга технологик ёндашувлар ҳақида тухталиб утилган.

Калим сўзлар: *замонавий технологиялар, Олий таълим, талаба ёшлар, фан соҳалари, замонавий технологиялар, инновацион таълим, таълим сифати.*

ABSTRACT

This article focuses on improving the quality of education in higher education - the main goal of iclohotlap, as well as the importance of these reforms today, as well as modern society, pedagogical methods, advanced technologies, traditional lesson technology, designed education, personality development, educational technology, and technological approaches to education.

Key words: *modern technology, higher education, student youth, fields of science, modern technology, innovative education, quality of education.*

КИРИШ

XIX-XX асрлар давомида фан ва маданият тараққиёти жиҳатидан Европа минтақаси бошқалардан узил-кесил илгарилаб кетди ва натижада “жаҳон фани”, “умуминсоний кадриятлар” деганда биринчи навбатда Европа маданияти унсурлари тасаввур этила бошланди. Янги даврдаги бу минтақанинг ютуқлари кўп жиҳатдан маданий интеграция жараёнлари билан боғлиқ. Бу даврда Европа халқлари (инглизлар, немислар, французлар ва ҳ.к.) минтақа миқёсидаги ўзаро маданий ахборот алмашинув доирасидан чиқиб, ўзга минтақаларда яралган бойликларни ўзлаштира бошладилар. Шарқшунослик кенг ривож олди. Турли фан соҳалари шарқшуносларнинг ютуқларидан ижодий фойдалана бошладилар. Европаликларнинг Осиё ва Африка мамлакатлари ва халқлари ҳаётини ўрганиши, бир томондан, уларнинг олам ҳақидаги тасаввурларини кенгайтириб, турли минтақа халқларининг бир-бирларини тушуниш, ўзаро эркин мулоқот қилиш имкониятларини оширган бўлса, иккинчи томондан, муайян ғаразли

кучлар учун ўзларига қараганда иқтисодий ва ҳарбий жихатдан заифроқ бўлган юртларни босиб олиш, қарамлик асоратига солишга бўлган интилишлари йўлида хизмат қилди. Мамлакатимизда сўнгги йилларда амалга оширилаётган олий таълим тизими борасидаги ислохотлар олий таълим сифатини оширишга йўналтирилганлиги билан аҳамиятлидир. Бу эса, ўз навбатида, замонавий технологиялар, инновацион таълим ва тарбия жараёнларини тадқиқ этишни тақозо этмоқда. Таълимнинг муайян тури ёки модели таълим тизимини қамраб оладиган жамият элементлари ўртасида ўрнатилган қонуниятлар ва қоидалар таъсири остида шаклланади. Ижтимоий тизимнинг муайян турини тавсифловчи ижтимоий-маданий моделлар (умумий даражадаги қонунийлик) педагогик қонуниятларнинг табиатини белгилаш орқали таълим жараёнида ҳам яққол намоён бўлади. Агарда, жамият элементлари орасидаги боғлиқлик беқарор бўлиб қолса, ёки, тез ўзгариб бораётган бўлса, бунда жамиятнинг табиий қонуниятларини аниқлаш нисбатан қийин кечади.

Натижада, ўқув жараёнининг элементлари ўртасидаги боғлиқлик ҳам беқарор тусга киради, муайян бир таълим турининг парчаланишига олиб келади. Шунингдек, янгича ижтимоий тузилмага монанд педагогик қонуниятларни аниқлаш ва ажратиб олиш жараёни қийин кечади. Оқибатда, мос келувчи таълим жараёнини лойиҳалаштиришнинг тамойил ва қоидаларини аниқлаш имконсиз бўлади. Бу ҳолатда, таълим жараёнининг асосий тамойилларини белгилаш ва таълим жараёнини ташкил этишда педагогика фақатгина билимга таянади. Амалий фаолиятда шахс ўз меҳнатини самарали ташкил этишни хоҳлайди. Бу эса, албатта, инсонни мантиқий фикрлашга мажбур этади. Мантиқий фикрлаш бошқарувнинг олий даражаси ва қуролидир. Тараққиётнинг барча босқичларида, жамиятни, жамоани қобилятли, билимли кишилар бошқаришига эҳтиёж бўлган. Бошқарув назариясининг такомиллашиб бориши натижасида барча соҳани бошқариш усули ва меҳнат методологияси юзага келади. Бошқарув назариясида бошқарув тизими, босқичи, муддати ва жавобгар шахслар кўрсатилади. Бошқарувда назариянинг самараси кўп жихатдан ушбу жараённинг асосланганлигига боғлиқдир. Ўзбекистонда бошқарув тизими хусусан, таълимнинг муассасаларининг менежменти асосий эътибор қаратилаётган муаммолардан биридир.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Биз кўплаб дастурларни қабул қилмоқдамиз, лекин уларни амалга оширадиган, ташаббускор ва ватанпарвар, юқори малакали кадрлар етарлими? Олий ўқув юртларида тайёрланаётган мутахассислар олдимизга қўйилган бундай улкан вазифаларни бажаришга қодирми? Уларга таълим бераётган

ўқитувчи ва профессорларнинг билим ва малакаси давр талабига жавоб берадими? Минг афсуски, бу саволларга жавоб бериш осон эмас²⁵². Бу фикр таълим муассасаларининг профессор-ўқитувчилари фаолиятини танқидий баҳолашлари албатта ўринлидир. Мамлакатимизда таҳлил қилиш, тезкор ва тўғри қарор қабул қилиш кўникмаларига эга кадрларга бўлган талабнинг юқорилиги ҳеч кимга сир эмас. Мавжуд вазиятда ҳар бир профессор-ўқитувчи ривожланган мамлакатлар илғор тажрибасини чуқур ўрганган ҳолда таълим-тарбия жараёнига ушбу соҳадаги энг сўнгги ютуқларни татбиқ этиши долзарбдир. Ўзбекистонда олий таълим жараёнида ҳам тизимли равишда шаклланишда ва инновацион таълим жорий этилмоқда. Хусусан, олий таълим тизимида бошқарув тизими замонавий коммуникация технологиялари асосида такомиллашмоқда.

Маълумки, «таълим сифати» тушунчаси 1998 йилда Париж шаҳрида олий таълим ва унинг сифатини янада такомиллаштириш тўғрисида ўтказилган бутун дунё конференциясида ўзининг халқаро номини олган. Ушбу конференцияда 29 та давлат иштирокида таълимнинг сифатини таъминлаш таълим муассасаларининг узоқ вақтга мўлжалланган стратегик вазифаси эканлиги таъкидланганди. Илмий фалсафий адабиётларда таълимга оид сифатнинг моҳиятини очиб берувчи ягона ёндашув йўқ. Олий таълим учун хос бўлган хусусиятлардан келиб чиқиб, файласуфлар ҳам, педагоглар ҳам бошқа фан вакиллари томонидан ягона таърифни келтириш жуда қийин масала ҳисобланади. Чунки унга таъсир этувчи бир қатор объектив ва субъектив омиллар борки, бу ягона таърифни келтиришга халақит беради. Шунингдек, дунёда идеал ҳисобланган таълим тизими мавжуд эмаслигини инобатга олсак, янгича талабларни қўйиши Таълим сифатини доимий равишда янгилашни талаб этади. Янги кашфиёт ва ихтиролар пайдо бўлиши ҳам таълимда ижтимоий ўзгаришларни амалга ошириш эҳтиёжини юзага келтиради.

Таълим сифатини таъминлашнинг омиллари сирасига мутахассислар қуйидагиларни киритишади: а) таълим муассасалари; б) профессор-ўқитувчилар; в) талабалар, битирувчилар; г) ота - оналар; д) истеъмолчилар, кадрлар буюртмачилари. 1998 йилда ЮНЕСКО томонидан ташкил этилган олий таълим муаммоларига бағишланган бутун дунё конференциясида XXI аср учун олий таълимнинг бутун дунё декларацияси қабул қилинди. Декларацияда таълимнинг сифатига алоҳида эътибор қаратилди.

²⁵² Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Тadbirkorлар ва ишбилармонлар ҳаракати – Ўзбекистон Либерал-демократик партиясининг VIII съездидаги “Демократик ислохотларни изчил давом эттириш, халқимиз учун тинч ва осойишта, муносиб ҳаёт даражасини яратиш – барқарор тараққиёт кафолатидир” мавзусидаги маърузаси. Т.: 20.10.2016 йил.

Олимлар фикрларига мурожаат қиладиган бўлсак, Джим Коллинз шундай таъкидлайди: «Буюк компанияларнинг раҳбарлари қайта ташкил этиш жараёнини ўз жамоасига керакли инсонларни олиш ва кераксиз инсонлардан қутилишдан бошлаган. Шундан сўнг улар қайси томонга сузишни танлаганлар. Асосий ғоя барча нарсаларни кадрлар ҳал қилади, нима деган сўздан ким деган сўз муҳимроқ. Чунки кадрлар – стратегия, бу ташкилий тузилма, бу тактика. Компаниялар бугунги кунда янги сифат босқичига ўтиш учун ўз асосларини яратиши зарур. Менинг фикримча, бу саволнинг фундаментал жавоби кадрлар масаласи ҳисобланади. Бир сўз билан айтадиган бўлсак, «Джим Коллинзнинг ушбу фикрлари бугунги кунда кадрлар тайёрлаш сифати таълим сифатига мувофиқ бўлиши лозим, деган сўз билан мос келади. Бунинг учун таълим муассасаларида инновацион фаолиятни олиб боришга қодир бўлган юқори малакали кадрларни тайёрлаш лозим. Бир сўз билан айтганда, кадрларни пухтароқ тайёрламасдан туриб, уларни қадрига етмасдан туриб бирор-бир соҳада муваффақиятга эришиб бўлмайди.

Олий таълим муассасалари фаолиятида таълим дастурларини баҳолаш таомилларини такомиллаштириш каби вазифалар ечимини топишни юклатмоқда. Чунки олий таълим, ўз навбатида, элитар таълим ва мутахассис тайёрлашнинг асосий бўғини бўлиб, жамиятга кириб бориш, ўз ўрнини топиш учун пойдевор вазифасини бажаради.

Шиддатли технологик ва ижтимоий тараққиёт жараёни жамият ўзгаришининг замонавий талабларига тезда мослашиш ҳамда ҳар қандай вазиятларда профессионал ва ижтимоий мақсадларга ечим топа олиш, мустақил билим ва кўникмаларни эгаллаш қобилиятини талаб этмоқда. Бугунги кунда, фақат фикрлаш қобилиятининг ўзи камлик қилади. Таълим тизимини давр талабларига мослаштириш оламшумул муаммога, буни тушуниш эса таълим тизимида давлат, жамият ва фуқаролар муносабатининг асосий белгисига айланди. Ўзбекистонда олий таълимни халқаро тажрибалар асосида ривожланмоқда ва таълим тизимидаги муаммоларни ҳал қилишда муҳим омил бўлиб хизмат қилмоқда.

Ўз навбатида Осиёда нуфузи жиҳатдан юқори бўлган Жанубий Корея таълим тизимининг асосий хусусиятларидан бири корес ва инглиз тилида тенг таълим олиш имкони бўлса, иккинчиси хорижий талабалар учун осиклиги ҳамда махсус стипендиялар тизими мавжудлигидир. Шунингдек, Сингапурда ҳам ўз она тили ва инглиз тилида тенг таълим олиш имконияти Жанубий Кореяга ўхшаш бўлса, лекин мутахассис фанларнинг моҳиятидан келиб чиқиб фақат соҳага алоқадор фанларни чуқур ўрганиш белгиланганлиги Сингапур

таълим тизимининг ўзига хослигидир. Хорижлар талабаларнинг ишлашларига имкон берилмаслиги фақат таълимда банд бўлиши кераклиги қатъий талаблардан бири сифатида сингапурда қабул қилинган. Тайванда ҳам олий таълим тизимининг ўзига хос механизмларидан бири давлат ва хусусий университетларнинг тизими йўлга қўйилганлигининг истиқболларидир. Олий таълим тизими юқори технологиялар шароитида ишлай оладиган мутахассисларни тайёрлашга йўналганлиги асосий хусусиятидир. Гонконг олий таълим тизими Британия тизими асосида ташкил этилади, лекин шарқона бағрикенглик, меҳнатсеварликка асосланади.

Олий таълим тизимида ахбороттехникаси: талабаларга таълим беришни янада самарали фаолиятга айлантириши мумкин. У консултатив функцияларнинг катта қисмини бажаришга қодир. Бу талабаларга ўқув режалари ва дастурлари, бўлажак мутахассислар, ўрганилувчи фанлар, уй вазифалари ҳақидаги сўровларга зудлик билан жавоб олиш имконини беради. Мамлакатимизда олий таълим тизимини сифат босқичига кўтариш борасида сўнгги уч йил ичида бир қанча ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлар қабул қилиниб, амалиётга фаол жорий этиб келинмоқда. Ана шундай муҳим стратегик ҳужжатлардан бирида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябридаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»²⁵³ ги Фармонида белгиланган устувор вазифаларнинг моҳияти ва мазмунига эътибор берсак, унинг мақсадидан келиб чиққан ҳолда муайян вазифаларни изчиллик билан амалга ошириб бориш назарда тутилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорида кўрсатилганидек, олий таълим муассасаларини замонавий ахборот-коммуникация технологиялари воситалари билан таъминлаш, талабалар, ўқитувчи ва ёш тадқиқотчиларнинг жаҳондаги илғор таълим ресурслари, илмий адабиётлар ва маълумотлар базаси бўйича электрон каталогларга кириш имкониятини кенгайтириш бугунги куннинг долзарб масаласига айланиб улгурган²⁵⁴. Ҳақиқатдан, таълим тизимларида менежмент соҳасидаги янгиланишлар, таълимнинг мазмунини, уни ташкил этиш шакллари ва усуллари ўзгартириш, таълим жараёнининг бутунлай янгича технологик таъминотини яратиш йўли

²⁵³ www.lex.uz.

²⁵⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, Тошкент ш., 2017 йил 20 апрель, ПҚ-2909 сон.

билангина давр талабларига жавоб беришлари ва ривожланишнинг ҳақиқий ресурсига айланишлари мумкин.

Ўз сифати билан айрим мамлакатларнинг ва бутун инсониятнинг ривожланиш даражаси ва сифатини таъминлашга қодир бўлган таълим модели, таълим бошқаруви – узлуксизлик ва тизимлийлик, инсонпарварлик ва индивидуаллик талабларини қаноатлантириши лозим. Бу эса ўз ўзидан таълим менежментини фаол ривожлантириш механизмларига эга бўлиш, яъни муҳим хусусият – тизимли ёндашув билан тавсифланиши даркор. Ижтимоий тараққиётнинг ҳозирги босқичида таълим ривожланишнинг асосий ресурсларидан бирига айланса, инновацион омил ривожланишнинг муқаррар элементи ҳисобланади.

Айтиш мумкинки, фармонда белгиланган вазифаларни истикболда амалиётга фаол тадбиқ этиш орқали олий таълим тизими сифатини ошириш билан бир қаторда, дунёда мамлакатимиз нуфузи ва обрўсининг ошишига ҳамда дунёнинг етакчи мамлакатлари тараққиёти даражасига эришиш учун хизмат қилиши шубҳасиздир» Шунингдек, Фармонда назарда тутилган мамлакатимиз аҳолисининг олий таълимнинг қамров даражасини ошириш орқали фалсафанинг асосий қонунларидан бири «миқдор ўзгаришлари билан сифат ўзгариши»га²⁵⁵ ўтиш орқали сифатли кадрлар тайёрлаш йўлга қўйиш ва кадрлар ўртасида соғлом рақобат муҳитини ривожлантириш, пировард натижада сифатли кадрларга бўлган эҳтиёжни қондириш учун маълум маънода хизмат қилади.

Бунинг учун таълим жараёнига ўқитишнинг замонавий педагогик технологияларини жорий этиш орқали ўқув жараёни самарадорлигини ошириш ҳамда таълим сифатини янада яхшилашга эришиш лозим. Бу хусусда Президент Ш.М.Мирзиёев шундай кўрсатма берган: «Мамлакатимизда илмий ва инновацион фаолиятни ривожлантириш учун, аввало, ёш, иқтидорли кадрлар зарур. Шуни назарда тутган ҳолда, биз сизларнинг бой билим ва тажрибангизга таянамиз. Шу мақсадда сизларни, илмий йўналишларингиздан келиб чиқиб, республикамиздаги олий ўқув юртлири, ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларига ҳамда ишлаб чиқариш корхоналарига, вазирлик ва идораларга, йирик банкларга бириктиришни лозим топдик

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР.

Бугунги кунда биз педагогика соҳасидаги илғор усул ва технологияларни кенгроқ ва чуқурроқ ўзлаштиришимиз, уларни ўз минтақамизга мос ҳолда

²⁵⁵ Фалсафа асослари / Тузувчи Қ.Назаров. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. 2005. – Б. 151.

қайта ишлаб чиқишимиз керак бўлади. Педагогик технология тушунчасига ҳозирги кунда турлича таърифлар берилмоқда. Муҳими шуки, педагогик технология кўзлаган мақсадга кафолатланган натижа сифатида эришишни ифодаловчи жарайондир. Педагогик технология ва таълим технологияси кўпинча синоним сифатида ишлатилади, чунки «таълим» атамасининг замонавий талқини шахсиятни тарбиялашни ҳам ўз ичига олади, унга маълум бир қиёфани беради. Юқоридагиларни умумлаштирган ҳолда шуни таъкидлаш керакки, умумий маънода педагогик жарайонни технологиялаштириш унинг ривожланиш тенденцияси бўлиб, у ўқув жарайони самарадорлигини оширишга қаратилган, талабаларнинг режалаштирилган таълим натижаларига эришишни кафолатлайди.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Тадбиркорлар ва ишбилармонлар ҳаракати – Ўзбекистон Либерал-демократик партиясининг VIII съездидаги “Демократик ислохотларни изчил давом эттириш, халқимиз учун тинч ва осойишта, муносиб ҳаёт даражасини яратиш – барқарор тараққиёт кафолатидир” мавсусидаги маърузаси. Т.: 20.10.2016 йил.
2. Saparbaevna, R. R., Allanazarovna, E. R., & Nawbahar, O. (2020). Physiological Ergogenic Medicines: Modern Trends Of Application In The Training Of Athletes. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(03), 2020.
3. Reymbaeva Roza, Ernazarova Raya, Joldasbaeva Gulchexra, & Allambergenovna Laura. (2023). HANDBALL EFFICIENCY IN THE SYSTEM OF PHYSICAL EDUCATION. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(14), 721–725. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/1774>
4. Roza, R., Talgat, K., Raya, E., & Aynura, P. (2023). THE CONTENT AND FORMS OF SUPPORT FOR PROFESSIONAL SELF-DETERMINATION OF STUDENT TEACHERS. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(10), 273-279.
5. Saparbaevna, R. R., Erejepovich, K. D., Allanazarovna, E. R., & Sabitovna, P. A. (2022). Organization Of Rational Nutrition of Athletes in Training and Competitive Activities. *Specialusis Ugdyimas*, 2(43), 3566-3568.
6. Saparbaevna, R. R., & Allanazarovna, E. R. (2020). Aspects Of Studying Snakes In The Fauna Of Uzbekistan. *Solid State Technology*, 63(6), 3765-3771.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА КЎКНОРИ ЎСИМЛИГИНИ ЙЎҚ ҚИЛИШ ЧОРАЛАРИНИ КЎРМАГАНЛИК УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ БЕЛГИЛАШ ЮЗАСИДАН ТАКЛИФ ВА ТАВСИЯЛАР

Гофуржонов Иброхимжон Музробжон ўғли

Фарғона вилояти ИИБ Биринчи минтақавий ҳудуд

Қува тумани ИИБ ҳузуридаги Тергов бўлинмаси суриштирувчиси

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада тасарруфида ер майдонлари бўлган шахслар томонидан қаровсиз (агротехник ишлов берилмаган) ҳолда ўсаётган кўкнор ўсимлигини йўқ қилиб юбориш чораларини кўрмаганлик учун белгиланган жавобгарлик белгилашнинг лозимлиги ёритилган. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси маъмурий ва жинойат қонунчилигини такомиллаштириш бўйича тегишли таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: кўкнор, тасарруфида ер майдонлари бўлган шахс, йўқ қилиш чораларини кўрмаслик, ёввойи наша.

ABSTRACT

This article explains the need to establish responsibility for not taking measures to destroy poppy plants growing without care (agrotechnical processing) by landowners. Also, relevant suggestions and recommendations were developed regarding the improvement of the administrative and criminal legislation of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: poppy, landowner, failure to take eradication measures, wild cannabis

АННОТАЦИЯ

В данной статье поясняется необходимость установления ответственности за непринятие аграриями мер по уничтожению растений мака, произрастающих без ухода (агротехнической обработки). Также были разработаны соответствующие предложения и рекомендации по совершенствованию административного и уголовного законодательства Республики Узбекистан.

Ключевые слова: мак, землевладелец, непринятие мер по уничтожению, дикая конопля

КИРИШ

Кўкнор – уруғидан ўсимлик мойи ва кўсагидан афюн олиш учун етиштириладиган экин. Афюнли кўкнорнинг тўла пишмаган кўсаклари сутсимон ширасидан махсус усулда афюн олинади. Шираси таркибида 20 хил алкалоидлар, айниқса, морфин, шунингдек, варкотин, кодеин, папаверин, оқсил, углеводлар, смола, мум, пигментлар мавжуд. Тиббиётда дори-дармонлар ишлаб чиқаришда қимматли хом ашё ҳисобланади. Баъзан афюнли кўкнорнинг шираси олинмаган пишган кўсаклари майдаланиб, сувда ивитиб (эзиб) ичилади *(20 аср бошларига қадар Ўзбекистонда махсус такакўкнорихоналарда кўкнордан кайф берадиган ичкилик тайёрланиб, истеъмол қилинган)*. Ўзбекистонда ва бошқа бир нечта мамлакатларда афюнли кўкнор экиш ман қилинган. [1.]

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 270-моддасида тақиқланган экинларни, яъни кўкнор ёки мойли кўкнор, каннабис ўсимлиги ёхуд таркибида гиёвандлик воситалари ёки психотроп моддалар бўлган экинларни қонунга ҳилоф равишда экиш ёки етиштириш учун жиноий жавобгарлик белгиланган. [2.]

Ҳозирда ушбу жиноят учун жавобгарликни белгилашда етиштирилаётган кўкнор ўсимлиги *(тақиқланган экинлар)*нинг парвариш қилинганлигини ёки агротехник ишлов берилганлиги асосий далиллардан бири ҳисобланади. Бундан хабардор бўлган, кўкнор ўсимлиги етиштириш ниятидаги шахс кўкнор ўсимлигини ўз хонадонидан ташқарида, ёввойи ўтлар орасида ёки бошқа қаровсиз жойларда ўстиришга ҳаракат қилади. Бу эса ушбу ўсимликка агротехник ишлов берилмаганлигини, гўёки ўсимликнинг ёввойи ҳолда ўсиб келаётганлигини кўрсатиб, шахсни жавобгарликка тортиш учун зарур бўлган белгини йўққа чиқаради.

Мазкур ҳолат эса кўкнор ўсимлиги етиштириш ниятидаги шахснинг жавобгарликдан осон йўл билан қутулиб қолишига сабаб бўлади. Амалда қонунчиликка кўра, тасарруфида ер майдонлари бўлган шахслар томонидан ёввойи ҳолда ўсган кўкнор ўсимлигини йўқ қилиб юбориш чораларини кўрмаганлик учун жавобгарлик белгиланмаган.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Катта ёшдаги одамлар орасида турли хилдаги, юрак касаллиги, уйқусизлик, йўтал ва бир нечта касалликларга кўкнор дамламаси даво бўлиши ҳақида тушунчалар мавжуд. Шу сабабли, кўп ҳолларда кекса ёшдаги одамлар томонидан кўкнор ўсимлигини етиштириш ва парваришlash ҳолатлари учраб турибди. Бунга мисол қилиб, Қува тумани ИИБ ҳузуридаги Тергов бўлини маси

томонидан суриштирув ва дастлабки тергов ҳаркатлари олиб борилган 302181/2023-25, 302181/2023-126, 302181/2023-161, 302181/2023-193-сонли жиноят ишлари бўйича айб эълон қилинган шахсларнинг кўкнор ўсимлигини дори сифатида истеъмол қилиш мақсадида етиштирганлиги тўғрисидаги кўрсатувларини келтириш мумкин. [3.]

diyetz.com интернет манбаасига кўра, кўкнор уруғининг энг муҳим фойдаси юрак касалликларининг олдини олишдир. Кўкнори уруғи мия фаолиятини тартибга солувчи ва нейронларнинг ривожланишига ёрдам берадиган калций ва магнийни ўз ичига олади. Уруғлар уйқусизликни ҳам даволаши мумкин. [4.]

Бу ва бунга ўхшаш мазмундаги маълумотлар шахслар томонидан кўкнор ўсимликларини экиш ва парваришlash ҳолатларини кўплаб учрашига сабаб бўлиб, жиноий оқибатларни келтириб чиқариши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси 106-моддасида тасарруфида ер майдонлари бўлган шахслар томонидан ёввойи нашани йўқ қилиб юбориш чораларини кўрмаганлик учун маъмурий жавобгарлик белгиланган [5.] бўлиб, мазкур модда ёввойи ҳолда ўсган кўкнор ўсимлигини йўқ қилиб юбориш чораларини кўрмаганлик учун жавобгарликни қамраб олмайди.

Россия Федерацияси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси 10.5.1-моддасида таркибида гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар ёки уларнинг прекурсорлари бўлган ўсимликларни қонунга хилоф равишда етиштириш (*агар бу ҳаракатда жиноий ҳуқуқбузарлик бўлмаса*) маъмурий жавобгарлик белгиланган. [6.] Мазкур модда билан наша, кўкнор, таркибида гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар ёки уларнинг прекурсорлари бўлган ўсимликларни қонунга хилоф равишда етиштирган шахсларни жавобгарликка тортиш мумкин.

Шу сабабли, ёввойи ҳолда ўсган тақиқланган экинларни йўқ қилиш чораларини кўрмаганлик учун маъмурий ҳуқуқ назариясидан келиб чиққан ҳолда қуйидаги таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди:

1. Гиёҳвандликка қарши кураш ва фуқароларнинг соғлом турмуш тарзини таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига тасарруфида ер майдонлари бўлган шахслар томонидан (агротехник ишлов берилмаган) ёввойи ҳолда ўсган кўкнор ўсимлигини йўқ қилиб юбориш чораларини кўрмаганлик учун маъмурий жавобгарлик жавобгарлик белгилангаш лозим.

Хулоса ўрнида Ўзбекистон Республикасида амалдаги қонунларининг тўғри тадбиқ этилиши, қонун чиқарувчи томонидан белгиланган нормаларнинг мазмун-моҳиятини тўғри англаниши, Ўзбекистон Республикасида ягона суд амалиётини жорий этилиши ҳамда ҳар бир шахснинг содир этган қилмиши учун инсонпарварлик тамойиллари асосида жазо тайинланишидаги ўрни беқиёс эканлигини алоҳида қайд этиб ўтиш лозим.

Фойдананилган адабиётлар рўйхати:

1. Халима Отабоева Qomus.info Online ensiklopediya.
2. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси. Lex.uz.
3. Қува тумани ИИБ ҳузуридаги Тергов бўлинмаси томонидан суриштирув ва дастлабки тергов ҳаркатлари олиб борилган 302181/2023-25, 302181/2023-126, 302181/2023-161, 302181/2023-193-сонли жиноят ишлари.
4. Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. Lex.uz.
5. Россия Федерацияси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси 10.5.1-моддаси.

ҚИСҚА, ЎРТА ВА УЗОҚ МАСОФАЛАРГА ЮГУРУВЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ РИВОЖЛАНИШИ ВА АНАТОМИК ФИЗИОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

С.Хакимов

Фарғона давлат университети ўқитувчиси,

Ш.Худойкулов

Фарғона давлат университети талабаси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада қисқа, ўрта ва узоқ масофаларга югурувчиларнинг жисмоний тайёргарликни спорт машғулотларининг уч ва тўрт йиллик дастур бўйича жисмоний ривожланиши ва анатомик физиологик хусусиятлари аниқлаш бўйича илмий - тадқиқот натижалари баён қилинган.

***Калит сўзлар.** анатомик-физиологик, жисмоний ривожланганлиги, функционал, техник, тактик ва жисмоний тайёргарлик, марфологик хусусиятлари.*

ABSTRACT

In this article, the results of scientific research on physical development and anatomical physiological characteristics of short, medium and long distance runners are described.

***Keywords.** anatomic-physiological, physical development, functional, technical, tactical and physical training, morphological characteristics.*

КИРИШ

Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5924-сонли “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонида “Мамлакатда юксак маданиятга эга бўлган ҳар томонлама етук ҳамда жисмонан соғлом инсонни шакллантириш мақсадида, аҳолининг жисмоний тарбия ва спорт соҳасида малака ва билимларини орттиришга қаратилган устувор йўналишларни белгилаш, иқтидорли спортчиларни танлаб олиш (селекция) жараёнига инновацион шакллар ва усулларни жорий этиш” зарурлиги алоҳида кўрсатиб ўтилган ҳамда жойларда ёшлар орасидан иқтидорли спортчиларни танлаб олиш (селекция)нинг самарали ва шаффоф тўрт босқичли – ташкилот-туман (шаҳар)-худуд-республика тизимини ишлаб чиқиш ва жорий этиш назарда тутилган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Дунё спорт амалиётида енгил атлетика спорт тури бўйича ўтказилаётган мусобақаларда спорт рақобатининг кучайиб бораётганлиги спортчилар тайёрлаш тизимини янги технологиялар асосида такомиллаштиришни тақозо этмоқда. Енгил атлетиканинг югуриш турлари бўйича юқори малакали спортчиларни тайёрлаш тизимида спортчиларни комплекс тайёргарлигини такомиллаштириш бугунги кунда жаҳон миқёсида муҳим аҳамиятга эга бўлган вазифалардан саналмоқда. Югуриш турларида спортчиларни кўп йиллик босқичларига саралаш ва топ ихтисосликка йўналтириш, машғулот жараёнларини режалаштириш, нуфузли спорт мусобақаларига тайёрлаш жаҳон ҳамжамияти эътиборини ўзига тортиб келмоқда. Ўтказилаётган йиллик тайёргарликнинг босқич ва даврларида машғулотларни олиб бориш, спортчиларнинг жисмоний, техник-тактик, функционал, психологик ва интеграл тайёргарлигини такомиллаштириш, машғулот ва мусобақа фаолиятида спорт формасини ушлаб туриш каби вазифаларни ҳал этиш талабини қўймоқда.

Енгил атлетиканинг қисқа, ўрта ва узоқ масофаларга югурувчи талаба спортчилар билан ўтказиладиган спорт машғулотларида уларни жисмоний ривожланганлиги, функционал, техник, тактик ва жисмоний тайёргарлик кўрсаткичларининг ўзаро корреляцион боғлиқлигини ташкил қилиши билан бегиланади.

Талаба спортчиларни тактик тайёргарлигини квалификациясини инобатга олган ҳолда ишлаб чиқилган методика асосида ривожлантириб, машғулот ва мусобақа жараёнларида жорий, оралиқ мусобоқа олди ва мусобақаларда педагогик назорат қилиш шкаллари ва мобил электрон стартёр ускунаси ишлаб чиқилиб, амалиёт жараёнида қўлланиш натижасида югуриш турларида малакали спортчиларни тайёрлаш учун хизмат қилиши билан изоҳланади.

Енгил атлетикачи талаба-спортчиларни анатомик-физиологик хусусиятларини ўрганишга оид адабиётлар таҳлили шундан хулоса чиқариш имконини бердики, спортчиларни жисмоний ривожланиш қонуниятлари, уларнинг марфологик хусусиятлари, жисмоний сифатарини ривожлантиришнинг ёшга оид жиҳатлари очиқ берилган. Лекин қисқа, ўрта ва узоқ масофаларга югурувчиларни жисмоний ривожланишида комплекс ёндашув асосида юкламаларини таъсири етарлича ўрганилмаган.

Спринтерларда юқори натижаларни кўрсатишда жисмоний ривожланганликнинг аҳамияти катта эканлигини олиб борилган тадқиқот натижаларида аниқланди.

Жисмоний ривожланиш бўйича олиб борилган изланишларнинг кўрсатишича, бир хил гуруҳларидаги спортчиларда ҳар хил кўринишдаги жисмоний ривожланиш, ўртача бўлган ва турли даражадаги жисмоний тайёргарликка эга спортчиларни жисмоний ривожланиши ҳам турлича бўлиши аниқланди.

Спортчиларни жисмоний ривожланиши ҳаракат сифатларининг ривожланиши энергетик тизимлар динамикаси хусусиятлари билан ҳам боғлиқлиги тадқиқотларда аниқланди.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Турли мушак гуруҳларининг ҳар йилдаги ўсиши бир хил эмаслиги тадқиқотларда аниқланган. Ўсмирларда 10 дан 14 ёшгача бўлган даврда оёқларни букувчи ёзувчи мушаклар кучининг ўсиши 85% ни ташкил этар экан. Елка камарини букувчи мушаклар кучининг ўсиши 24% ни ташкил қилиши аниқланган. Шу сабабли нисбий кучни ривожлантириш 13 ва 15 ёшдан бошлаб ривожлантириб бориш тавсия этилган.

1-жадвал

Қисқа масофага югурувчи талаба-спортчилар учун йиллик тайёргарлик юкламаларининг оптимал тузилиши

Ойлар		Сентябр				Октябр				
Хафгалар										9
Йиллик циклнинг тузилиши	Даврлар	Тайёргарлик								
	босқичлар	Умумий тайёргарлик								
Тайёргарлик босқичларидаги асосий кўрсаткичлари		Умумий ва махсус жисмоний тайёргарлик даражасини ошириш								
1.	Умумий машғулотлар сони	6	6	6	6	6	6	6	6	6
2.	Умумий машғулотлар соати	18	18	18	18	18	18	18	18	18
3.	Умумий югуришлар ҳажми, км	25	27	20	24,4	26,9	20,5	22,3	22,2	24,8
	Югуриш ҳажми ва шиддати 96-100%, км	1,2	1,2	1,2	0,6	1,2	1,2	1,2	1,2	0,8
	Югуриш ҳажми ва шиддати 91-96%, км	2,2	2,2	1,6	2,6	2,6	2,6	1,4	1,8	2,2
	Югуриш шиддати 90% гача, км	4,2	4,2	3,4	4,2	4,2	3,4	4,4	4,4	3,0
	Югуриш машқлари ҳажми, км	2,1	2,1	1,9	1,9	1,9	1,5	1,5	1,8	1,8
4.	Сақраш машқлари ҳажми, км	3,3	3,3	1,9	3,1	3,0	1,8	1,8	3,0	3,0
5.	Оғирликлар билан бажариладиган машқлар, т	4,5	4,5	5	4,5	4,5	5	5	5	4
6.	УЖТ, с	5	5	5	5	5	5	5	5	5

7.	Кросс югуришлар	12	14	10	12	14	10	12	10	14
8.	Назарий тайёргарлик, с	+	+	+	+	+	+	+	+	+
9.	Мусобақалар сони /стартлар, назоратлар	н		м		н		н		м
10.	Ташкилий ва ҳакамлик амалиёти, с	+	+	+	+	+	+	+	+	+
11.	Тиббий назорат, с	+								+
12.	Тарбиявий ишлар, с	+	+	+	+	+	+	+	+	+

2-жадвал

**Ўрта ва узоқ масофаларга югурувчиларда жисмоний
ривожланишнинг тотал кўрсаткичлари (n=20)**

	Тана узудлиги (см)	Вазни (кг)	Кўкрак қафаси айланаси (см)		
			Тинч ҳолатда (см)	Нафас олганда (см)	Нафас чиқарганда (см)
\bar{X}	165	65,05	78,11	79,68	78,84
δ	2,69	4,99	4,28	4,95	4,5
V, %	1,5	7,92	6,21	6,16	4,57

Биз томонимиздан қисқа масофага югурувчи талаба-спортчилар учун йиллик тайёргарлик дастурини иқлим шароитимизни инобатга олиган ҳолда ишлаб чиқдик.

Дастурда қисқа масофага югурувчи талаба-спортчиларни жисмоний, функционал, техник ва тактик тайёргарлиги инобатга олиниб ишлаб чиқилган.

3-жадвал

**3000 м масофага югурувчиларда функционал кўрсаткичларнинг
тадқиқот олдида шаклланганлик даражаси**

	Ф.И	Шид					Югуриш мароми мин/кмМа кс/мин	ЮҚС макс/ўр тача	Қадам каденс и1даки қадаМ акс/ми н (сонда)	кКал кДж %
		1 Ши д.з он %	2 Шид .зон %	3 Шид.з он %	4 Шид .зон %	5 Шид.з он %				
1	Ш.Худойкулов	16	8	13	28	35	02:01/ 04:10	208/159	104/19	313
2	Б.Журахонов	22	15	24	18	21	02:35/ 04:00	197/160	111/27	338
3	А.Усмонов	13	18	21	27	21	02:14/ 04:12	195/158	147/24	318


4	З.Хасанов	20	12	26	22	20	02:22/ 03:58	202/156	135/28	287
5	Р.Собиров	14	7	25	17	37	02:27/ 03:56	189/163	127/23	335
6	Б.Хожақбаров	12	16	19	24	29	02:39/ 03:51	191/154	119/29	346
7	Н.Анваралиев	10	14	18	30	28	02:41/ 04:02	201/161	109/35	365

Шунинг учун, узоқ масофага югурувчиларни машғулотлар жараёнида вақт билан маконни ҳис қилишга ўргатиш югуриш маромини ўзлаштиришини улар онгига сингдиришимиз лозим. Қолаверса узоқ масофага югурувчиларни комплекс тайёрлашда функционал ҳолатини яхшилашга қаратилган машғулот услубиятини такомиллашган дастурини ишлаб чиқиш ва илмий асослаган ҳолда амалиётга татбиқ этиш мақсадга мувофиқдир.

4-жадвал

Енгил атлетика узоқ масофаларга югурувчиларнинг машғулотлар сони, шиддати ва ҳажми

Умумий машғулотлар сони	Умумий машғулотлар	Умумий югуришлар ҳажми	Югуриш ҳажми ва шиддати	Югуриш машқлари ҳажми	Югуриш шиддати	Кросс югуришлар ҳажми
320	640	1197,9 км	96-100%	66,6 км	91%	580 км



1-расм. Енгил атлетика ихтисослиги узоқ масофаларга югурувчиларнинг 4 йиллик ва 3 йиллик дастурларида кўрсатилган спорт педагогик маҳоратини ошириш машғулотларининг тақсимланиши

Илмий-методик адабиётларга асосан енгил атлетикачиларни кўп йиллик тайёргарлик босқичлари бўйича енгил атлетика машғулотларини бошқариш, тайёргарлик компонентларини ривожлантириш, режалаштириш ва кўп йиллик тайёргарлик босқичларидаги муаммоларни ўрганиш бўйича илмий ишлар олиб борилган. Аммо, енгил атлетикачи талаба-спортчиларни комплекс тайёргарлигини ошириш юзасидан илмий тадқиқотлар етарлича очиб берилмаган. Таҳлил қилинган ишларда спортчиларни тайёргарлигини ривожлантириш бўйича турлича ёндашувлар мавжуд. Шу муносабат билан енгил атлетикачи талаба-спортчиларни комплекс тайёрлаш бўйича илмий тадқиқотлар ўтказиш зарурлигини кўрсатади.

Жисмоний ривожланиш бўйича олиб борилган изланишларнинг кўрсатишича, бир хил гуруҳларидаги спортчиларда ҳар хил кўринишдаги жисмоний ривожланиш, ўртача бўлган ва турли даражадаги жисмоний тайёргарликка эга спортчиларни жисмоний ривожланиши ҳам турлича бўлиши мумкин. Турли тадқиқотларда югуриш турларига ихтисослашган спортчиларда бўй ва вазн кўрсаткичлари бир-бирига мутаносиб бўлишлигини кўрсатиб ўтган.

Аммо бизнинг фикримизча, бўй ва вазн оғирлиги спортчиларни географик жойлашуви билан ҳам боғлиқ. Чунки, Европа, Австралия, Америка ва Африка қитъаларининг қисқа масофага югурувчиларида тана тузилишида оёқ узунлиги кўпроқ кўзга ташланиш баробарида мушакларнинг шаклланганлиги яққол намоён бўлади. Ўрта ва узоқ масофаларга югурувчи Европа ва Африка қитъаси вакилларида ўртача тана тузилишига эга бўлган спортчилар кўпроқ учрайди. Осиё қитъаси вакилларида эса тана тузилиши оёқ қисмига нисбатан бел қисмининг узунлиги кўзга ташланади, югуриш турларида жисмоний ривожланишнинг аҳамияти жуда катта эканлиги кузатилди. Чунки, югуришда қадамлар частотаси, қадамлар узунлиги ва югуриш каденси жисмоний ривожланганлик даражаси билан боғлиқ ҳолда ишлаши керак.

Қисқа, ўрта ва узоқ масофаларга югурувчиларни педагогик назорат қилиш шкаласи югурувчиларни дастлабки тайёргарлик, оралик, мусобақа олди ва мусобақа жараёнларида уларни саралаш, натижаларни олдиндан башорат қилиш ва бошқариш имкониятларини оширади, шу боис ушбу педагогик назорат қилиш шкаласини спортчилар амалиёт жараёнига тавсия этилади. Талаба спортчиларни югуриш турларида тактик тайёргарлигини шакллантириш учун ишлаб чиқилган тактик тайёргарлик методикаси югуришга ихтисослашган учинчи разрядли спортчилардан бошлаб халқаро тоифадаги спорт усталарининг турли микроциклларда югуриш тактикасини ўзлаштириши учун тавсия этилди.

Енгил атлетикачи талаба-спортчиларни югуриш турлари бўйича мусобақаларга комплекс тайёрлаш учун ишлаб чиқилган методикалар уларни йиллик тайёргарлик циклларида жисмоний, функционал, техник ва тактик тайёргарлигини ривожлантиришда ва уларни дастлабки тайёргарлик, оралик, мусобақаолди ва мусобақа циклларида нуфузли мусобақаларга саралаб олиш, натижаларини олдиндан башоратлаш ва бошқаришда илмий-оммавий ва назарий жиҳатдан асосланган дастур сифатида югуриш бўйича спортчилар тайёрлаш тизимида тавсия этилади.

ХУЛОСА

Турли тадқиқотларда югуриш турларига ихтисослашган спортчиларда бўй ва вазн кўрсаткичлари бир-бирига мутаносиб бўлишлигини кўрсатиб ўтган. Аммо бизнинг фикримизча, бўй ва вазн оғирлиги спортчиларни географик жойлашуви билан ҳам боғлиқ.

Қисқа масофаларга югурувчиларнинг жисмоний тайёргарлигини ва спорт натижасининг юқори бўлиши нафақат тос-сон болдир мушакларининг ривожланганлигига ва уларнинг портловчанлик кучи даражасига асосланади.

Ўрта масофага югуришга ихтисослашган талаба-спортчиларда уч бўғимни ва бошқа бўғимларни ҳамда оёқнинг букувчи ва ёзувчи мушакларни бир вақтда ва алоҳида ривожлантиришга мўлжалланган интеграл ва локал таъсир этувчи восита ва усулларни ишлаб чиқишни талаб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. ПФ-5924-сон. Тошкент ш., 2020 йил 24 январь.
2. Дукальская А.В. Современное представление о развитии физических качеств волейболистов. - Росгов-на-Дону, 1995.- 24 с.
3. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. - М.: Физкультура и спорт, 1991.- 543 с.
4. Олимов М.С. Югуриш турларида енгил атлетикачи талабаларни тайёрлашнинг илмий педагогик асослари Автореферат. Чирчиқ-2022.
5. Khakimov, S. T. (2022). INCREASE IN THE LEVEL OF PHYSICAL TEXT CHAMPIONSHIP, DIFFERENTIATED BY YOUNG VOLLEYBALLS ACCORDING TO THE SPECIALTY OF THE GAME. *Academic research in educational sciences*, 3(3), 549-556.
6. Khakimov, S. T. (2022). THE WAYS TO ENHANCE THE TRAINING

PROCESS OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2022(2), 118-135.

7. Shermukhammadov, B. (2022). Creativity of a Teacher in an Innovative Educational Environment. *Journal of Higher Education Theory and Practice*, 22(12), 127.

8. Siddikov, B. S. (2020). The importance of sports and recreation activities for a harmoniously developed generation. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 107-111).

9. Tulanboevich, K. S., & Nishanbaevich, M. O. (2021). Improving physical fitness and training process in young volleyball players. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 312-316.

10. Tulanboyevich, K. S. (2022). THE EFFECTIVENESS OF DEVELOPING STRENGTH AND PHYSICAL QUALITY OF HIGH SCHOOL STUDENTS THROUGH GYMNASTIC TRAINING. *Conferencea*, 176-184.

11. Tulanboyevich, X. S., & Kamolaxon, U. (2022, October). GIMNASTIKA DARSIDA SNARYADLARDA BAJARILADIGAN MASHQLARNI O'RGATISH USULLARI. In *E Conference Zone* (pp. 68-73).

12. Yuldashev, M. (2021). INNOVATIVE ASPECTS FOR HEALTHY LIFESTYLE FORMATION AND DEVELOPMENT OF SPORTS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(05), 102-107.

13. Сиддиков, Б. (2014). УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ КОМПЛЕКСЫ: СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ. *Актуальные проблемы современной науки*, (5), 71-74.

14. Сиддиков, Б. С. (1994). Физическое воспитание школьников в условиях учебно-воспитательного комплекса (на материале сельских школ Узбекистана).

15. Сиддиков, Б. С. (2019). Физическое воспитание как фактор развития личности. *International scientific review*, (LXIV), 57-58.

16. Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2016). OBJECTIVES OF THE YOUTH ACTIVITY BY TEACHING TRAINING. *Учёный XXI века*, (6-2 (19)), 41-44.

17. Хайдаралиев, Х. Х. (2022). РОЛЬ РИТМИЧЕСКОЙ ГИМНАСТИКИ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ УЧРЕЖДЕНИИ ДЛЯ ДОШКОЛЬНИКОВ. *Academic research in educational sciences*, 3(3), 591-599.

18. Хакимов, С. Т. (2021). Ёш волейболчилар жисмоний тайёгарлигини ўйин ихтисослиги бўйича такомиллаштириш. *Ташкилий қўмита*, 234.

19. Шермухаммадов, Б. (2012). Использование различных методов, форм и средств в воспитании молодежи. *Актуальные проблемы современной науки*, (5), 80-83.

CONTENT / СОДЕРЖАНИЕ / MUNDARIJA

Talipova N.A. // <i>Chet tillarini (ingliz tili) zamonaviy interfaol metodlardan foydalangan holda o'qitishning afzalligi.....</i>	5
Bobokalonov R.R., Narzullayeva D.B. // <i>Qur'oni karim, tassavvuf ta'limoti va semantik-funksional nutqiy hosilalar uyg'unligi.....</i>	11
Hamidova M.H., Narzullaeva R. // <i>Fransuz va O'zbek tillarida deopoetonimlar tushunchalari.....</i>	19
Акрамов Б.К., Абдурахимова М.О. // <i>Структурно-семантическая природа коммерческой терминологии во французском языке.....</i>	26
Quliyeva Sh.H., Nasriyeva D.Q. // <i>Kompetentli yondashuv talabalarning professional tayyorgarligini rivojlantirish omili.....</i>	31
Nigmanov B.B. // <i>Physical education teacher in teaching practice.....</i>	39
Abdullayev A.F. // <i>Kompyuter tarmoqlarini sun'iy intellekt yordamida nazorat qilishning ayrim dolzarb masalalari.....</i>	43
Dilboboyev N. // <i>O'zbekiston Respublikasida investitsion faoliyat, uning kafolatlari va risk boshqaruvini huquqiy tartibga solish bo'yicha qonunchilik tizimi, vakolatli organlar huquqiy maqomi hamda ularning rivojlanish tendensiyasi.....</i>	51
Маматкулов Х.А. // <i>Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолиятини бошқаришнинг инновацион усуллари.....</i>	61
Muhammadiyeva G.Z. // <i>Ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy va ekologik madaniyatni shakllantirish.....</i>	67
Yangiboyeva D.R. // <i>Ko'p bolali oilalar submadaniyatida ota-ona va bola munosabatlari.....</i>	74
Абдуқодирова Н.А. // <i>Тадбиркор талаба- бугунги кун талаби.....</i>	82
Jo'rayeva G.E. // <i>A'zam O'ktam ijodida badiiy san'atlar.....</i>	86
Axmadov N. // <i>Shimoliy Afrika Arab davlatlaridan Yevropaga migratsiyaning birinchi to'liqini.....</i>	95
Shukurova L.Sh. // <i>Artistic and stylish aspects of goldsmithing and its scientific analysi.....</i>	101
Irisboyev F.B., Mukhtorov D.N. // <i>Technology of manufacturing of solar elements.....</i>	107
Турдиалиев М.П. // <i>Коммерциализация спортивных организаций.....</i>	111
Акрамов Б.К., Абдурахимова М.О. // <i>Структурно-семантические особенности современных коммерческих терминов во французском языке.....</i>	117

Irisboyev F.B., Mukhtorov D.N. // <i>Possibilities of low-energy ion implantation in obtaining nanomaterials</i>	122
Yusupov X.A. // <i>Islom dinida so'zlashuv odobiga doir ayrim dolzarb masalalar</i>	126
Sultanov M.E. // <i>Bo'lajak psixologiya o'qituvchilarining kasbiy etikasi: asosiy qadriyatlar va me'yorlar</i>	130
Sobirov M.H. // <i>Mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari</i>	137
Ishboboyeva G.R. // <i>Bikaryer oilalarning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillar</i>	141
Mukhammedjanova N.D. // <i>Margaret Mitchell's unique and famous historical work</i>	147
Isik E., Kalan A., Arat E., D., Bayrakci Y., // <i>The mediating effect of mental health literacy on the relationship between stigma and attitudes towards psychological help-seeking among university students in Turkey</i>	151
Salayev D.S. // <i>Global tahdidlarning O'zbekistonda qulay investitsiya muhitini shakllantirishga ta'siri</i>	167
Nuridinov Z.Sh. // <i>Assessment of the reliability of the transmission of linguistic features in the translation of a work of art</i>	177
Корёгдиев Ш.Ш. // <i>Психологическое особенности профессиональной ориентации у студентов</i>	181
Султанова Г.А., Бобоева З.О. // <i>Правила сбора и сушки лекарственных растений</i>	188
Jarilkasinova G.X. // <i>Kursantlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalar bo'yicha kasbiy kompetentligini baholash me'zonlari</i>	192
Нажметдинова М. // <i>Янги Ўзбекистонда оммавий-маданий тадбирлар ва уларнинг жамият тараққиётидаги аҳамияти</i>	199
Muinov A.M. // <i>Ishonch hissini tarbiyalash orqali kursantlarda ofitserlik shaxsini shakllantirish yo'llari</i>	206
Namozova D.T. // <i>Bo'lajak musiqa o'qituvchisi kreativ kompetentligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik talablari</i>	211
Турсунова Л. // <i>Замонавий талаба ёшлар эстетик маданиятини юксалтиришда музикаий тафаккурнинг аналитик таҳлили</i>	221
Sadixanov A.A. // <i>Ta'lim oluvchilarni kompetentlik yondashuvini shakllantirish omillari</i>	227

Djalalova N.X. // <i>Yoshlarning estetik tafakkurini yuksalishida musiqa madaniyatidagi konsepsiyalar</i>	234
Karimov O.M. // <i>Tasviriy san'at asarlarini ishlash jarayonida kompozitsiyaning xususiyatlari</i>	242
Muydinov J. // <i>O'zbek xalq cholg'u sozlarining taraqqiyoti va turlari</i>	249
Qirg'izov I. // <i>Onalar allasi- inson kamoloti omili sifatida</i>	256
Qirg'izov I., Mamajonova D.A. // <i>Qadimiy sharq musiqa san'ati rivojida ayol xonandaligining nazariy asoslari</i>	264
Sobirov B. // <i>Yoshlar ma'naviy dunyoqarashini yuksalishida beshik, nikoh, laparlar va yakka folklor qo'shiqlarining ahamiyati</i>	276
Имамалиева Д.И. // <i>Юридические сложности, связанные с применением больших медицинских данных</i>	287
Dobilova Z.A. // <i>The features of business discourse</i>	295
Акбаралиева М.К. // <i>Одам ўғрилашининг объектив белгилари</i>	300
Habibullayev Sh.A. // <i>Maktablarda nizolarni oldini olish va hal etishda duch kelinadigan qiyinchiliklar va yechimlarini topishning ayrim dolzarb masalalari..</i>	307
Mamataliyeva Sh.X. // <i>Jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligi tushunchasi</i>	313
Begimov O.T. // <i>Nofilologik oliy o'quv yurtlari talabalarida ilmiy nutqning shakllantirishning ayrim jihatlariga doir</i>	321
Mustafoyeva F.X. // <i>Adolatli ijtimoiy siyosat yangi O'zbekiston rivojlanishining muhim istiqboli sifatida</i>	329
Umarov B.I. // <i>Abu Rayhon Beruniy tabiiy-tarixiy va geografik omillarning hind jamiyatining ijtimoiy tuzilishiga ta'siri haqida</i>	334
Umarov D.O. // <i>Abdulhamid Cho'lpon hikoyalarining badiiyati</i>	342
Buriev I.I. // <i>Ibn Sina's teachings on sufism</i>	348
Qurbonova B.M. // <i>O'quvchilarni tasviriy san'at darslarida kompozitsiya tuzishga o'rgatish jarayonlari</i>	353
Qurbonova B.M. // <i>Tabaqalashtirilgan ta'lim orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish</i>	359
Xusanova D.A. // <i>Yoshlarning ma'naviyatini oshirishda pedagoglarning o'rni</i>	367
Qurbonova B.M., Raxmonjonov X.A. // <i>Arxitektura yodgorliklarining bir qismi ishtirokida tuzilgan natyurmort (kapitel)ni qalamtasvirda ishlash metodikasini takomillashtirish</i>	372

Галимов Р., Ниязова Н.М. // <i>Подходы пакистана в обеспечении безопасности в Южной Азии</i>	379
Шукурова Л.Ш. // <i>XVIII-XX асрлар Бухоро зардўзлик санъатини бадиий аҳамияти ва унинг илмий таҳлили</i>	387
Ибодуллаев С.Б. // <i>Уроки стран-участников всемирной торговой организации от процесса присоединения к вто: вызовы и угрозы для развивающихся экономик-неучастников</i>	393
Хожабеков М.Ж. // <i>Дискуссионные вопросы правового регулирования труда лиц, работающих по совместительству</i>	400
Нурназаров С.Э. // <i>Судда иш қўзғатиши ва тайёрлаш босқичидаги муаммолар ва ечимлар</i>	410
Eshchanova D.A. // <i>Features of civil law regulation of insurance investment activities</i>	418
Каюмова А.С. // <i>Обычаи в роли пробелов в законе</i>	425
Асадов Ш.Ф. // <i>Консалтинговые услуги как информационные услуги</i>	429
Ergashev A.E. // <i>Sustainable development and foreign investment in developing countries</i>	435
Tojiboyev S.Z. // <i>Legal challenges of the provision of stabilization clause in Uzbekistan</i>	439
Tukhtaev U. // <i>Issues of regulating electronic payments in the Republic of Uzbekistan</i>	448
Babaev D.I. // <i>International legal experiences with using AI for automated quality and safety control of goods</i>	455
Yuldashev I. // <i>O'rta Osiyo hududidagi qadimiy tasvirlar. sharq xalqlarining madaniy badiiy kompozitsion va estetik qarashlari</i>	464
Kadamov S.Sh. // <i>Talabalarda muomala va muloqotchanlikni rivojlantirishning ayrim dolzarb masalalari</i>	469
Исакова М.М. // <i>Генезис формирования и современные тенденции развития института персональных данных: национально-правовой аспект</i>	475
Қудратиллаев Х.З. // <i>Вопросы ареста и конфискации имущества, полученных преступным путем в Республике Узбекистан</i>	481
Umarova X.N. // <i>Belgilarni xalqaro ro'yxatga olish to'g'risidagi Madrid kelishuvi bayonnomasi qoidalari va sanoat mulkini himoya qilish bo'yicha Parij konvensiyasining belgilarni xalqaro ro'yxatga olish to'g'risidagi qoidalarining qiyosiy tahlili</i>	492

Abdurashidov A.A. // <i>Jinoyat ishlari bo'yicha dalillar va isbotlash instituti doirasida xorijiy mamlakatlar tajribasi</i>	502
Po'latov J.M. // <i>Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari</i>	510
Boboqulov A.A. // <i>Ijtimoiy jarayonlarni dasturlashdagi murakkabliklar</i>	524
Mustafayeva K.R. // <i>Davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari</i>	532
Fayzullaeva Sh.J. // <i>Intellectual property rights in the WTO: challenges and opportunities</i>	536
Ashurov B.Sh. // <i>Normurod Norqobilovning "Changalzor iti" qissasidagi qoravoy obrazining dinamik talqini</i>	540
Normayeva M.G'., Sayfullaev D. // <i>O'zbekistonda ayollar siyosiy faolligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari: joriy holat va istiqbollar</i>	552
Raximdjanova D.S. // <i>Ibn Rushd falsafasida zaruriyat va erkinlikni zamondoshlari fikrlari inkori asosidagi o'ziga xos talqini</i>	562
Sharafutdinova R.B., Izzetova E.M. // <i>XX asr arab-musulmon tafakkurining yaratuvchisi Shayx Muhammad Abdo hayoti va faoliyati</i>	571
Ruzmatova G.M. // <i>Problem of man in writings of Albert Camus</i>	581
Sultonov S.M. // <i>Xalqaro soliqqa tortishning asosiy tamoyillari, huquqiy asoslari</i>	593
Абдуллаева Ф., Нишанова С. // <i>Либос дизайни соҳаси таълимида костюм ва аксессуарлар лойиҳалашнинг устувор аспектлари</i>	601
Бегматов Б.Б., Урманова Ю.М., Ходжаева Ф.С., Рихсиева Н.Т., Курбанов Д.Б. // <i>Клинический случай. тиреотропинома</i>	606
Нарзуллаев К.С. // <i>Основные направления воздействия изменения климата в центральной-азии</i>	617
Муминов Ф.М., Каримов С.Я. // <i>О смешанных краевых задачах для уравнения составного типа третьего порядка</i>	623
Абдуазимов Ж. // <i>Си Цзиньпин илгари сурган мафкуравий гоя</i>	630
Tian Bo. // <i>Analysis of Socrates' moral philosophy</i>	636
Mamataliyeva N.X., Sultonova G.H. // <i>Ingliz va o'zbek tillarida vatanga mehr mazmunini ifodalovchi aforizmlar</i>	644
Chulponov Sh., Tulaganova D. // <i>Some english words of arabic origins</i>	653
Tuxtaboyev E.A. // <i>Xalqaro migratsiya jarayonlari va uning falsafiy talqini</i>	657

Ғофуржонов И.М. // <i>Ўзбекистон Республикасида тақиқланган экинларни етиштирганлик учун жиноий жавобгарлик.....</i>	662
Fayzullayev A.A. // <i>1960-yil 27-mayda Turkiyadagi harbiy to‘ntarish: harakatlantiruvchi kuchlar va oqibatlar.....</i>	668
Yuldasheva L.S. // <i>Life given to people.....</i>	678
Темирова С.В. // <i>Олий таълимда таълим сифатини ошириш – ислохотларнинг бош мақсади.....</i>	683
Ғофуржонов И.М. // <i>Ўзбекистон Республикасида кўкнори ўсимлигини йўқ қилиш чораларини кўрмаганлик учун жавобгарликни белгилаш юзасидан таклиф ва тавсиялар.....</i>	690
Ҳакимов С., Худойкулов Ш. // <i>Қисқа, ўрта ва узоқ масофаларга югурувчиларнинг жисмоний ривожланиши ва анатомик физиологик хусусиятлари.....</i>	694

“Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences”.
Ilmiy jurnal. Uzbekistan: www.oriens.uz. 2024. – 708 b.

ISSN 2181-1784

Mazkur to'plamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmonida ko'zda tutilgan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida "Oriental Renaissance" MChJ tomonidan ta'sis etilgan **“ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES (oriens.uz)”** ilmiy jurnalining 4-bo'lim 2-soni o'rin egallagan.

Mas'ul muharrir:

falsafa fanlari nomzodi, dotsent M. Qodirov

Ilmiy kotib:

J.B. Sulaymonov

SH.N. Pulatov

I.R. Ikramova

Texnik muharrir:

Sh.S.Jurayev

